

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI



**MILLIY IQTISODIYOTNI
ISLOH QILISH VA BARQAROR
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**MATERIALLAR TO'PLAMI
2023-yil 31-may**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**“O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**



**MILLIY IQTISODIYOTNI ISLOH QILISH VA
BARQAROR RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

**mavzusidagi
respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**MATERIALLAR TO’PLAMI
2023-yil 31-may**

Tohkent - 2023-yil

"Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. -T.: TDIU 2023. -432 b.

Ushbu to'plam "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" mavzusida bo'lib, unda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning ilmiy asoslari, iqtisodiy tizimning moliyaviy infratuzilmasini rivojlantirish, inson kapitalini takomillashtirish va aholi turmush darajasini oshirish va mintaqaviy rivojlanishning davlat iqtisodiy siyosati kabi mavzularga oid tadqiqot ishlari va ilmiy qarashlari aks ettirilgan materiallarning bayoni keltirilgan.

To'plamga oliv o'quv yurtlarida iqtisodiy muammolar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o'qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qo'mita va turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistr va talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan.

To'plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va keltirilgan me'yoriy-huquqiy hujjalarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga muallifning o'zлari mas'uldirlar.

Mas'ul muharrir: i.f.d., prof. M.B. Kalonov

Tahrir hay'ati:

i.f.d., prof. A.S. Usmanov
i.f.d., prof. A.M. Qodirov
i.f.d. dots. F.I. Isayev

Taqrizchilar:

PhD O'.N. Abdulazizova
PhD Sh.R. Xamdamov
PhD S.Z. Abrorov

Tashkiliy guruh a'zolari:

S.R. Xolbayeva
S.B. Maxmudov
M.M. Islomova

KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga integratsiyalash, ichki va tashqi bozorlarda raqobatni mustahkamlash korxonalarining barqaror rivojlanishini boshqarishning samarali mexanizmlarini shakllantirish va har tomonlama rivojlantirishni talab qiladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida "Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash doirasida bir qancha maqsadlar qo'yilgan bo'lib uni amalga oshirish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, iqtisodiy tizimning moliyaviy infratuzilmasini rivojlantirish, inson kapitalini takomillashtirish va aholi turmush darajasini oshirish va mintaqaviy rivojlanishning davlat iqtisodiy siyosati bilan bog'liqdir. Hozirda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan global jarayonlarning milliy iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida professor-o'qituvchilar, mutaxassislar, ilmiy xodimlar, izlanuvchilar o'z ilmiy-amaliy takliflari bilan ishtirok etishdi.

Mazkur konferensiyada chop etilayotgan maqolalar ma'lum bir ma'noda milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirishni ta'minlashda duch keladigan muammolarni yechishga qaratilgan nazariy xulosa va amaliy takliflarni o'zida mo'jassam etgan. Zero, konferensiyada ishtirok etuvchilar orasida milliy iqtisodiyotimizning turli segmentlarida o'z faoliyatini olib borayotgan yetuk mutaxassislarni ko'rish mumkin. O'ylaymizki, mutaxassislarimiz iqtisodiyotimizda yuz berayotgan hozirgi mavjud holatni, yutuqlar va kamchiliklarini hamda muammolarga berilgan o'z yechimlarini ushbu to'plamda chop etilayotgan maqolalarida atroficha keltirib o'tishganligini alohida e'tirof etishimiz lozim.

Mazkur konferensiyani tashkil etish va o'tkazishga o'z hissasini qo'shgan barchaga o'z tashakkurimizni izhor etamiz. Umid qilamizki, bu kabi konferensiyalar "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazida har yili an'anaviy tarzda tashkil etib boriladi.

*"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi direktori,
i.f.d., prof. Kalonov Muhiddin Baxriddinovich*

MUNDARIJA

1-SHO'BA MILLIY IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING ILMIY ASOSLARI

| | | |
|--------------------------------------|--|----|
| Усманов А.С. | Теоретический аспект устойчивого экономического развития..... | 10 |
| Xamdamov Sh. | O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlash muammollar..... | 13 |
| Дусмуратов Р.Д. | Иқтисодий тадқиқотларнинг методологик асосларини такомиллаштириш..... | 15 |
| Ашурев З.А. | Самарали корпоратив бошқарувнинг мамлакат барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишига таъсири..... | 19 |
| Nasirxodjaeva D.S., Raximova M.D. | Toshkent shahri barqaror rivojlanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolar tahlili..... | 21 |
| Abdullaeva D.R. | Promoting safe energy in Uzbekistan to achieve SDG7..... | 24 |
| Izzatulloev B.U. | Green economy: energy efficiency increasing factors..... | 27 |
| Kholbaev N. | Challenges of inclusive economic growth in Uzbekistan..... | 29 |
| Kholikov Kh.V. | The importance of participating in international capital market by developing countries..... | 31 |
| Abdurakhimova Z., Dadaboeva M. | AID information management system as a method ensuring aid effectiveness..... | 33 |
| Алиев F. | Иқтисодиётни модернизациялашда тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни кичик саноат корхоналарига жалб қилишни такомиллаштириш..... | 35 |
| Алиев П.К. | Саноати корхоналари барқарор ривожланишини таъминлашнинг назарий асослари..... | 38 |
| Амирев Т.М. | Мамлакатимизнинг макроиқтисодий барқарорлигини таъминлаш ўйлари..... | 40 |
| Artikov K.A. | Budget tashkilotlarda moliyaviy hisobotlar nazoratining xususiyatlari..... | 42 |
| Achilova N.B. | National brand and image of Uzbekistan: snapshot of issues and solutions..... | 45 |
| Бауетдинов М.Ж. | Корхоналарни бошқариш самарадорлигини оширишда инновацион ёндашувлар таҳлили..... | 48 |
| Bahodirov Sh., Jaxonova O. | Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'rni..... | 51 |
| Бекмуратова С.М. | Мамлакат иқтисодиётининг инвестицион жозибадорлигини оширишда кўчмас мулк девелопментининг аҳамияти..... | 55 |
| Boyjigitov S.K. | Mamlakatimizda don va don mahsulotlari bozorining bugungi holati va istiqboli..... | 57 |
| Валижонов А.Р. | Давлат иштирокидаги корхоналарни трансформация қилиш тушунчasi ва моҳияти..... | 60 |
| Жанызакова Ш.М. | Применение Big Date в анализе состояния экономической безопасности промышленной сферы Республики Узбекистан..... | 62 |
| Ziyayeva Sh.Sh. | Xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda tutgan o'rni va ahamiyati..... | 65 |
| Исаджанов А.А. | Пост- COVID даврида барқарор ривожланиш мақсадлари ва глобал иқлим ўзгариши..... | 68 |
| Караев М.Ю. | Иқтисодиётни ривожлантиришда баҳолаш фаолиятининг ўрни..... | 70 |
| Каюмов Р.И. | Формирование инвестиционной политики Узбекистана для обеспечения экономической безопасности страны..... | 72 |
| Курпаяниди К.И. Qodirov S.I. | Институциональная среда предпринимательского сектора экономики.... | 75 |
| Мирзамахмудов М.М. | O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalarini rivojlanishining asosiy tendentsiyalari tahlili..... | 78 |
| Nasirxodjaeva D.S., Nurboyev J.M. | Давлат ташқи қарзини камайтиришга қаратилган давлат сиёсатини молиялаштириш манбалари орасида давлат қарзининг аҳамияти..... | 81 |
| | Yevro Osiyo Iqtisodiy Ittifoqi: xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari..... | 84 |

| | | |
|---|---|-----|
| Omonova Sh.I. | Fiskal siyosatni raqamlashtirishning ahamiyati..... | 87 |
| Оспанова Ф.Б. | Қишлоқ хўжалиги корхоналарида трансакцион харажатлар таҳлили ва бозор самарадорлиги..... | 90 |
| Отаниёзов О.О. | Тўқимачилик саноати барқарор ривожланишининг эконометрик тадқиқоти..... | 92 |
| Расулов Ш.Ж. | Основные факторы, препятствующие нормальной работе малых предприятий в условиях инновационной экономики..... | 94 |
| Rasulov J.Sh. | Iqtisodiy o'sish va rivojlanish omillari va ularni tadbiq etishning xorij tajribasi..... | 97 |
| Рахмонов Ш.Ш. | Барқарор ривожланиш концепциясига берилган илмий таърифларнинг назарий таҳлили..... | 99 |
| Сабурова Г. Е. | Продовольственная безопасность как фактор устойчивого развития национальной экономики..... | 102 |
| Сафаров Б.Дж., Дадабаев К.А. | Пути повышения эффективности управления рисками на предприятиях розничной торговли в условиях цифровой экономики..... | 105 |
| Тураева М.Р. | Ўзбекистонда мева сабзавотчиликни ривожлантириш истиқболлари..... | 107 |
| Умарова А.И. | Совершенствование механизма формирования финансовых ресурсов хозяйствующих субъектов..... | 110 |
| Hayitova A.Z. | Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati va faoliyati tahlili..... | 113 |
| Худойбердиев Р.У. | Тўқимачилик саноати корхоналари барқарор ривожланишини прогнозлаш..... | 116 |
| Sharopova N.R., Jumatoev U.N. Ergashev Q.E. | Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda savdo korxonalarida raqamli marketingning roli..... | 118 |
| Эргашев Т.К., Тохирова Н.З. Эрматов F.X. | Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda raqamli bojxona xizmatlarining ahamiyati..... | 121 |
| | Миллий иқтисодиётни барқарор ривожланишида корхоналарни стратегик бошқаришнинг илмий асослари..... | 123 |
| | Тўқимачилик корхонасининг барқарор ривожланишида имкониятлар ва натижаларни мувозанатлаштириш тизимини жорий этишнинг аҳамияти..... | 126 |

2-SHO'BA IQTISODIY TIZIMNING MOLIYAVIY INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH

| | | |
|------------------------------------|---|-----|
| Бутиков И.Л. | Проблемы привлечения финансовых ресурсов акционерных обществ с государственной долей в уставном фонде за счет выпуска акций..... | 128 |
| Kalonov M.B., Allaberdiev M.Sh. | Challenges and Opportunities for Investment in the Logistics Sector of Uzbekistan..... | 131 |
| Карлибаева Р.Х., Махмудов С.Б. | Иқтисодий тизимда яшил логистика ва яшил молиялаштиришнинг аҳамияти..... | 134 |
| Yuldashev.SH., Boliboyeva U. | The importance of the financial market in the development of the economy of Uzbekistan..... | 136 |
| Abduboqiyev M.Sh. | State economic policy in forming the financial state of joint stock companies of our region..... | 139 |
| Abrorov S.Z. | Jahon moliya bozorida muomaladagi sukuklar tahlili..... | 142 |
| Курбонов Х.А., Махмудов С.Б. | Логистика инфратузилмасини молиялаштиришда револьвер кредитининг тутган ўрни..... | 145 |
| Абдулазизова Ў.Н. | Анализ межотраслевой конкуренции на рынке финансовых услуг Узбекистана..... | 147 |
| Abdurasulov B.B. | Challenges and recommendations for takaful accounting..... | 150 |
| Abdiyeva K.T. | Milliy iqtisodiyotda global iqlimni bartaraf etishda investitsion faoliyatning tutgan roli..... | 152 |
| Ahmadjonov A. | Analysis of the scientific works performed on the perspectives of islamic securities in the development of the fund market in recent years..... | 155 |
| Ayubov I.I. | Davlat byudjet daromadlarida bilvosita soliqlarning o'rni..... | 157 |

| | | |
|--|--|-----|
| Erbaev O.B., Urolov S.Z. Ergashev S.X. Fayozov M.R. | Development of the financial infrastructure of the economic system..... | 159 |
| | Byudjet tashkilotlarida majburiyatlar hisobini takomillashtirish..... | 162 |
| | Xalqaro valyuta bozori rivojlanishining jahon moliyaviy arxitekturasiga ta'siri..... | 164 |
| Isakov O.K. | Financial inclusion, mobile banking: post-pandemic evidence from Central Asia..... | 166 |
| Juraeva S.Z. | Iqtisodiy tizimning rivojlanishida kreditlash jarayonini xulq-atvor iqtisodiyoti omili orqali takomillashtirish..... | 169 |
| Kholikova R.S., Rajabov J.SH. Kosimov S.D. | Foreign experience in formation and development of scientific-innovative infrastructure of clusters in Uzbekistan..... | 172 |
| | Development of the financial infrastructure of the economic system for small business..... | 175 |
| Normamatova M.N. | Innovatsion texnologiyalar yordamida bank faoliyatini takomillashtirish..... | 177 |
| Olmosova M. SH. | Sug'urta faoliyatini tartibga solishga oid solvency II xalqaro standarti va uni O'zbekiston sug'urta faoliyatiga tatbiq etish yo'nalishlari..... | 180 |
| Temirov M.X. | Moliya sohasini raqamlashtirish istiqbollari..... | 181 |
| Yuldasheva G. A. | Modeling of financial activity of enterprises..... | 184 |
| Абдикаримова Д.Р. | Хориж амалиётида банк кредитлари гаров таъминотини шакллантиришнинг айрим жиҳатлари..... | 185 |
| Абдурахманов К.А. | Бюджет ташкilotларини молиялаштириш ва маблағларни мақсадли сарфланишини ташкил қилишни хориж тажрибаси..... | 188 |
| Арзуманян С.Ю., Найимова Ч.Х. Бабаева Г.Я. | Финансирование инвестиционных проектов за счет средств коммерческих банков в иностранной валюте..... | 191 |
| Бобобеков Ф.Р. | Развитие расчетно-клиринговой системы центрального банка Узбекистана..... | 193 |
| Гафурова А.Ф. | Факторинг амалиётининг тижорат банкларида молиявий хизмат сифатида ривожланиши..... | 196 |
| Захарова И.Б., Ахтамова М.О. | Пути увеличения прибыли..... | 199 |
| Исаев А.И. | Влияние digital generation на внедрение банковских инноваций..... | 201 |
| Исаев Ф.И. | Мамлакатимизда тадбиркорлик субъектларига солиқ имтиёзларини кўллашнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти..... | 203 |
| Камилова И.Х. | Солиқларнинг фаровонликка таъсири назарияси..... | 206 |
| Kuldoshev L.SH., Qadamboyeva M. | Мамлакатимизда инвестицион фаолликни ошириш истиқболлари..... | 209 |
| Kuldoshev L.SH. | Xalqaro tijorat krediti va uni sug'urtalash masalalari..... | 211 |
| Omonov B.B. | Xalqaro moliyaviy institutlar va O'zbekistonning xalqaro moliyaviy institutlar bilan aloqasi..... | 214 |
| Мадреймов А., Ибрагимов А. | Финансовые технологии и их влияние на финансовый сектор..... | 216 |
| Сайдирасулов Л. | Ўзбекистон тараққиётига йўналтирилган исломий инвестиция лойиҳаларининг аҳамияти..... | 218 |
| Мансуров М.А. | Давлат молиясида бюджет ғазна ижросини автоматлаштиришнинг устувор йўналишлари..... | 220 |
| Мирҳайдарова М. | Миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишида инвестицияларнинг роли..... | 224 |
| Мирзарахманов Ф.С. | Проблемы аттестации лиц, претендующих на получение квалификационного аттестата специалиста рынка ценных бумаг и пути их решения..... | 226 |
| Мусаева Д.Д. | Микрострахование как фактор развития финансового сектора..... | 229 |
| Нуралиев Р.Т. | Роль системы управления рисками в обеспечении финансовой стабильности в предприятиях с государственным участием..... | 232 |
| Нурматов Ш.Р. | Солиқ имтиёзларидан самарали фойдаланишнинг мамлакатимиз амалиётида кўллаш истиқболлари..... | 234 |

| | | |
|---------------------------------|--|-----|
| Пардаева Ш.А. | Стратегик бошқарув ҳисобида баланслаштирилган кўрсаткичлар тизими..... | 237 |
| Рохаталиева Г. | Определение оптимального уровня долларизации в Узбекистане..... | 239 |
| Содиков Н.С. | Таълимни ривожлантиришда давлат-хусусий шерикликнинг аҳамияти..... | 240 |
| Солижонова М.А. | | |
| | Базель талабларининг тижорат банклари фаолиятига таъсири хусусида..... | 243 |
| Турсунов Ш.А. | Особенности инвестиционной деятельности страховых компаний..... | 247 |
| Умарова Х.О. | Методы борьбы с инфляцией спроса и предложения..... | 250 |
| Уралова С.Б. | Управление дебиторской и кредиторской задолженностью в банковской сфере..... | 252 |
| Шокиров М. | Роль финансовой инфраструктуры в развитии экономики..... | 254 |
| Жоллыбеков В.Б. | Қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиялаштириш механизмларини такомиллаштириш йўллари..... | 257 |
| Захидова З.Х. | Тижорат банкларида муаммоли кредитларнинг гаров таъминотини баҳолаш..... | 260 |
| Маткабулова Д.Х. | Туризм соҳасидаги инвестицион лойиҳаларни кредитлаш усуллари..... | 263 |
| Пўлатов Қ.Ш. | Ўзбекистон банкларининг чакана хизматларини кредитлаш амалиётини такомиллаштириш йўллари..... | 265 |
| Байжанов.Д.С. | Ислом молия институтлари механизмлари орқали молиялаштиришнинг назарий асослари..... | 267 |
| Тлеуов М.А. | Тижорат банкларининг рақобатбадошлигини таъминлашда молиявий барқарорлигини ошириш йўллари..... | 269 |
| Матекеев А.А. | Эркин иқтисодий зоналарнинг инвестицион мұхитини яхшилаш орқали мамлакат иқтисодиётини ривожлантириш механизмлари..... | 272 |
| Абдугафаров А., Ачилов С.С. | Цифровая трансформация налоговой системы в Узбекистане..... | 275 |
| Додиев Ф. Ў. | Микромолиялаштириш камбағалликни қисқартириш воситаси..... | 278 |
| Абдуразакова Н.Р. | Анализ притоков прямых иностранных инвестиций в Узбекистан..... | 281 |
| Султанов М.А. | Республикамида молия бозори инфратузилмасини такомиллаштириш йўналишлари..... | 283 |
| Хамдамов Ш.К., Ахмедова Ш.А. | Важность использования еврооблигаций для участия в международном рынке капитала..... | 287 |

3-SHO'BA

INSON KAPITALINI TAKOMILLASHTIRISH VA AHOI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH

| | | |
|---|--|-----|
| Тожибоева Д. | Компетентли мутахассис кадрлар - иқтисодиётнинг барқарор ўсишини таъминлашнинг гарови..... | 291 |
| Buribaeva Z.R. | The importance of investment in human capital..... | 295 |
| Odilova Sh., Azizkhanova M.A. | Improving human capital and raising the standard of living of the population..... | 298 |
| Karimov I.M. | Improving human capital and raising the standard of living of the population..... | 300 |
| Kurolov M.O. | Digital healthcare marketing: a catalyst for improving human capital and raising the standard of living of the population..... | 302 |
| Цой М.П., Холмирзаев Н., Иброхимов Ш. | Человеческий капитал и тенденции его развития..... | 305 |
| Мирзахалирова Д.М. | Кооперация промышленных предприятий и высшего образования: эффективный инструмент управления талантами..... | 309 |
| Камилова Н.А. | Эффективность использования кадрового потенциала на предприятии..... | 312 |

| | | |
|---|---|-----|
| Холбаева С.Р. | Аспекты человеческого капитала и фазы его участия в экономической системе..... | 314 |
| Гафурова Д.Р., Махмудова С.А. Ниязова М. | Влияние мотивации человеческих ресурсов на производительность компаний..... | 317 |
| | Формирование человеческого капитала как фактор стабильного развития национальной экономики..... | 319 |
| | Инвестиции в человеческий капитал – требование времени..... | 322 |
| Носиржонов Б., Давлятова Г.М. Эркаева Г.П. Разикова Г.Ш. | Инсон капиталини ривожлантиришнинг хорижий тажрибалари..... | 324 |
| Isroilov X.I., Tojiyev E.Z. | Инсон капитали ва аҳоли турмуш даражаси оширишни статистик ўрганиш..... | 328 |
| | Inson kapitali xududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish omili..... | 331 |
| Ибодов К.М. | Ресторан хизматларини ривожлантириш - аҳоли турмуш сифатини ошириш йўналишларидан бири сифатида..... | 334 |
| Гулмуродов К.А. Bahriiddinova M.A. | Ўзбекистонда миграцион жараёнлар таҳлили..... | 336 |
| Нуманова М.Л. Omanova N.R. | O'zbekistonda inson kapitalini takomillashtirish va aholi turmush darajasini oshirish yo'nalishlari..... | 339 |
| Xuvaydullayeva I.X. | Янги Ўзбекистонда инсон капиталини ривожлантириш йўналишлари.... | 342 |
| Izimbetov K.S. | Inson kapitalini takomillashtirish korporativ boshqaruvning funksional ustuvorligi sifatida..... | 344 |
| Ахмедов М.Ш. | Ijtimoiy mehnat munosabatlarida yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash..... | 347 |
| Karimova M.M. | Mehnat resurslarini shakllantirishning demografik jihatlari va rivojlanishning hozirgi bosqichida ularning o'ziga xosligi..... | 349 |
| | Корхоналарда инсон қадрини оширишда персонал мотивациясининг жараёний назарияларининг ўрни..... | 352 |
| | Tadbirkorlik tizimini barqarorligi, iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson kapitali va o'rta sinfi ahamiyatining oshib borishi..... | 355 |

4-SHO'BA MINTAQAVIY RIVOJLANISHNING DAVLAT IQTISODIY SIYOSATI

| | | |
|--|--|-----|
| Қодиров А.М., Маъмуров Б.Х. | Рақамлаштириш шароитида худудий таркибий ўзгаришларнинг асосий омиллари..... | 358 |
| Адилова М.Т., Шодиев Я. | Минтақалар иқтисодий ўсишини таъминлаш ва мустаҳкамлашга таъсир этувчи омиллар..... | 361 |
| Абдуллаева М.К., Холбекова Ф.Р. Abdullahayev H.A. | Макроиқтисодий барқарорликни таъминлашда минтақаларнинг транспорт-логистика тизимини такомиллаштириш йўналишлари..... | 364 |
| Abdullahayev A.J., Raimova D.D. Axunova M.X. Бозоров И.И. | Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishini qo'llab quvvatlashning ahamiyati..... | 366 |
| Гафурова Д.Р., Абдуллаева М.Б. Daniyarov S.S. Калбаева Ж.К. | Qoraqolpog'iston respublikasi iqtisodiyotida avtomobil transportining rivojlanishini ta'minlashning ilmiy asoslari..... | 368 |
| Исломова М.М. | Hududlarda innovatsion tadbirkorlikni rivojlanirish istiqbollar..... | 371 |
| | Мамлакат худудларда улгуржи савдони ривожлантиришда логистика самарадорлигини ошириш йўллари..... | 373 |
| | Иновационные факторы формирования конкурентных преимуществ..... | 374 |
| | Orol bo'yи mintaqasini rivojlanirishda oziq-ovqat xavfsizligi muammolari..... | 377 |
| | Организационно-экономические аспекты стратегии повышения конкурентоспособности основных видов продукции сельского хозяйства Республики Каракалпакстан..... | 380 |
| | Особенности использования инновационных технологий в государственной экономической политике для стимулирования регионального развития..... | 383 |

| | | |
|----------------------------------|---|-----|
| Мардонов Б.Б. | Хизмат кўрсатиш соҳасининг ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсирини баҳолаш..... | 385 |
| Meyliev O.R., Gofurova K.X. | Mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash istiqbollari..... | 388 |
| Mirzayeva M.G`. | Mintaqaviy miqyosda banklarning kapitallashuv darajasini oshirish yo'llari..... | 392 |
| Muhammadjonov B. | O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarni samarali boshqarishning muammolari..... | 395 |
| Rahimova M.Sh. | Hududlarni rivojlantirishda shaharlar salohiyatini oshirish istiqbollari..... | 398 |
| Reymbaeva Z.A. | Qoraqalpoғistonda fermer xo'jaliklarining rivojlanishi va faoliyati samaradorligi..... | 401 |
| Saydaliyeva U.S. | Mintaqani rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalarning ahamiyati (Filippin misolida)..... | 404 |
| Fazliddinova Z.A. | Geografik axborot tizimlari hududlarni iqtisodiyotini rivojlanish vositasi sifatida..... | 407 |
| Hoshimov J.R. | Hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalb qilish istiqbollari..... | 410 |
| Хомидов К.К. | Худудларда туристик мажмуалар фаолиятини шакиллантириш ва тизимли бошқариш асосида ҳудудлар туристик салохиятидан самарали фойдаланиш масалалари..... | 412 |
| Qalandarova G.N. | Mintaqani barqaror rivojlanishida energiya samaradorlik omili ahamiyati..... | 416 |
| Шукуров У.Ш. | Миллий иқтисодиётни ривожлантиришда ҳудудлар ишлаб чиқаришни жойлаштиришнинг ўзига хос жиҳатлари..... | 418 |
| Нажимов И.П. | Перспективы эффективного развития предприятий промышленности строительных материалов в Республике Каракалпакстан..... | 422 |
| Maxmudov S.A., Taniberdiyev H.Q. | Mintaqaviy turizm rekreatsion faoliyati xafsizligini taminlash..... | 425 |
| Зуннунова Х.М. | Тижорат банкларини бозор ёндашувида баҳолаш амалиётини такомиллаштириш..... | 428 |

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

*Усманов Анвар Сайдмакмудович -
д.э.н., профессор, главный научный сотрудник
НИЦ при ТГЭУ, профессор кафедры
Ташкентского филиала РЭУ им. Г.В. Плеханова*

Дальнейшее углубление экономических реформ в Узбекистане, интеграция экономики страны в мировое хозяйство, усиление конкурентной борьбы на внутренних и внешних рынках требует формирования и всестороннего развития эффективных механизмов управления устойчивым развитием экономики. Это особенно было важно в условиях мирового финансово-экономического кризиса, оказавшего негативное воздействие на экономику всех стран, в том числе и Узбекистана. Между тем, начало этого кризиса во второй половине 2008 г. свидетельствует о недооценке мировой экономической мыслью актуальности проблемы устойчивости мировой экономики в целом, национальных экономик и экономической деятельности предприятий, в частности. Об этом говорит, предложенная в 1997 г. специалистами Глобальной инициативы по отчетности (GRI - Global Reporting Initiative) Международная программа Руководство по отчетности в области устойчивого развития. Даже её вторая редакция 2006 г. преимущественно ориентировала страны, регионы и предприятия на мониторинг отношений человека с природой и работодателем, как основы управления устойчивым развитием. Естественно, что кризис убедительно продемонстрировал несостоятельность этих очередных «мировых стандартов», прилежно скопированных в большинстве стран СНГ. Поэтому в феврале 2009 г. была выдвинута принципиально новая идея принятия международным сообществом Всемирной хартии экономической устойчивости.

Актуальность исследования проблем обеспечения устойчивого развития экономики в нынешних условиях приобретает глобальный характер. Но это не означает снижения роли её исследования в национальных экономиках. И поэтому так важно исследование опыта Узбекистана в области устойчивого развития экономики, ярко проявившего свои положительные черты в период мирового финансово-экономического кризиса.

Между тем, библиографический обзор материалов публикуемых российской наукой, а также Интернет-изданий других стран СНГ за последние 5 лет показывает, что эта проблема до начала кризиса была вне поля зрения экономической науки. В частности в журнале «Вопросы экономики» традиционно публикующего актуальные материалы фундаментального и прикладного характера с 2004 г и до конца 2008 г. не было опубликовано практически ни одной статьи по проблемам устойчивости развития экономики. И это понятно, поскольку развитие почти всех стран с переходной экономикой после преодоления кризисных явлений 90-х годов прошлого века находились на подъёме. И лишь начавшийся кризис заставил вновь обратиться к этой тематике. В конце 2008 г. и начале 2009 г. появилось несколько публикаций о проблемах кризиса и механизмах управления обеспечением устойчивости. То есть, экономическая наука ближнего зарубежья, сконцентрировав внимание на переходных

процессах в благоприятный для экономического роста период, в определённой степени упустила из поля зрения проблему управления обеспечением устойчивости экономического развития стран. Она низвела эту проблему до локальных вопросов экономической безопасности, аналитической оценки финансового состояния предприятий и их антикризисного управления. Между тем, со второй половины 90-х и начале 2000-х гг. в России было выполнено достаточно большое число диссертационных работ в этом направлении. Но затем внимание к этой проблеме в диссертационных исследованиях снизилось. Структура и направление диссертационных исследований этого периода, как правило, сводились к анализу финансовой устойчивости предприятий.

В феврале 2009 г. Правительство Германии предложило принять Всемирную карту экономической устойчивости и начать разработку «Атласа рисков» экономик государств и хозяйствующих субъектов. Такое внимание к устойчивости экономики говорит о том, что в настоящее время практика опередила мировую экономическую науку, которая, оказавшись в плenу формальных моделей Я.Тинбергена и Р.Фриша, не сумела спрогнозировать начала мирового финансово-экономического кризиса и процессы его развития.

Между тем, в экономической литературе стран ближнего зарубежья понятие устойчивости экономики, отраслей, предприятий и вообще любых экономических систем, как макро, так и микро уровней обычно представляется настолько тривиально, что определения этой категории, как правило, отсутствуют. Иными словами экономическая наука в этих странах не видела в этом понятии особой экономической категории и, как правило, просто соотносила его с филологическим пониманием – «устойчивый – не подверженный колебаниям, постоянный, стойкий, твёрдый» [1]. Однако попытки сформулировать понятие устойчивости предприятий всё же есть. Так, популярный в сети Интернет Экономический словарь говорит, что «устойчивость (предприятия, фирмы) есть финансовое состояние предприятия, хозяйственная деятельность которого обеспечивает в нормальных условиях выполнение всех его обязательств перед работниками, другими организациями, государством, благодаря достаточным доходам и соответствуя доходов и расходов». Аналог этого же определения с уточняющими дополнениями даётся и в Толковом словаре экономических терминов информационно-правовой системы законодательства Российской Федерации «Гарант» - «Устойчивое состояние предприятия представляет собой финансовое состояние предприятия (организации), хозяйственная деятельность которого обеспечивает в нормальных условиях функционирования выполнения в установленные сроки всех его обязательств перед работниками, другими организациями, государством (бюджетами всех уровней и внебюджетными фондами) благодаря достаточным доходам и соответствуя доходов и расходов»[2]. Здесь обращает на себя внимание суть определения, которая сводится к устойчивости финансового состояния предприятия, а проще говоря, к безубыточности его функционирования.

Более обтекаемым и более широким выглядит определение устойчивого развития, приводимое в законодательстве Российской Федерации, под которым понимается «гармоничное развитие производства, социальной сферы, населения и окружающей природной среды»[3]. Но здесь, в отличие от предыдущих, трактовка понятия настолько широка, что вообще не может рассматриваться в качестве законодательного определения. А вот в одном из современных российских учебников по экономической теории при определении устойчивости экономики вообще доходят до тавтологии: - «Устойчивость экономики – состояние экономики, при котором основные переменные не изменяются» [4]. Очевидно, что если переменные не изменяются, то они определяются уже не как переменные, а как константы. Такого

рода неточность и расплывчатость терминологии свидетельство того, что экономическая наука этой проблеме до сих пор не придавала особого значения, а, следовательно, и не выделила «устойчивость» в особую экономическую категорию. Между тем, значение термина устойчивость становится понятнее, если учесть, что в русском языке равнозначно применяется его синоним – стабильность, происходящий от латинского слова. «Стабилизация (от лат. *stabilis* - устойчивый), упрочение, приведение в постоянное устойчивое состояние или поддержание этого состояния, а также само состояние устойчивости, постоянства»[5]. Однако и этот термин в научной литературе стран СНГ, применительно к экономическим процессам, в докризисный период наблюдается лишь спорадически. И всё же, он использовался в трудах по макроэкономике, но только применительно к процессам достижения экономического равновесия: - «В основе понятия равновесия в экономической теории лежит представление о внутренней стабильности рыночной системы, то есть о её способности «гасить» внешние возмущения, вызванные экзогенными факторами. Источником этого представления является стабильность реальных рыночных систем. Рыночная экономика, основанная на децентрализованной активности экономических субъектов, может стабильно функционировать, только эффективно согласуя их деятельность и блокируя внешние шоки»[6]. Скрытая предпосылка этого подхода заключается в том, что циклы или иные отклонения по времени экономических переменных должны сглаживаться с помощью политических инструментов для достижения желаемых целей экономической политики, с помощью функций общественного благосостояния, целевой функции, или функции потерь, из которых могут быть выведены стратегия и правила принятия решений, оптимизирующие эти функции. Такой подход естественно вытекает из кейнсианской экономической теории с ее защитой вмешательства государства для достижения таких целей, как полная занятость и экономический рост с использованием инструментов бюджетной или денежно-кредитной политики. Однако этот подход оставляет без внимания проблему перехода от индивидуальных предпочтений к агрегированной общественной функции благосостояния.

Основоположниками современной теории стабилизации традиционно считаются Я.Тинберген и Р.Фриш - лауреаты Нобелевской премии за развитие и применение динамических моделей к анализу экономических процессов[7][8]. Их модели являются важным инструментом в исследовании экономических процессов, включая и вопросы оценки стабилизации экономики. Этот аспект активно исследовался и отечественной математической наукой на основе непреходящих математических и философских идей известных средневековых мыслителей Востока Мухаммада ибн Муссы Хорезми, Ахмада ибн Мухаммада Фергани, Абу Наср Мухаммада Фараби и Абу Райхана Беруни. С начала прошлого века их теоретические взгляды и приложения к экономическим процессам получили существенное развитие в трудах известных узбекских математиков В.И.Романовского и созданной им современной математической школы - Ф.Б.Абуталиева, Т.А.Сарымсакова, С.Х.Сираждинова, М.Камалова, М.И.Эйдельманта, Н.И.Джемилева, В.И.Шапиро, Я.М.Бендерского, К.С.Сафаевой и др. Серьёзный импульс развитию исследований в этом направлении был дан под руководством академика В.К.Кабулова в Институте кибернетики Академии наук Узбекистана. Однако математические (эконометрические) инструменты управления в реальной экономике для достижения её стабильности недостаточны.

Исходя из выше проведенного анализа различных трактовок понятия устойчивое развитие в зарубежной и отечественной научной литературе, мы сформулировали собственную трактовку данного понятия, которая заключается в следующем.

Устойчивое развитие – это количественный и качественный рост ВВП, обеспеченный возобновляемыми *природным, производственным и трудовым* факторами развития. При этом, устойчивость развития следует рассматривать во

временных периодах – текущий, средне- и долгосрочный периоды развития. В текущем периоде, исходя из задачи обеспечения высокого роста экономики, могут быть высокие темпы роста ВВП. Однако, с учетом средне- и долгосрочных перспектив развития экономики, обеспечения ее устойчивого развития, темпы роста ВВП должны складываться в основном исходя из возможностей интенсивного роста экономики, то есть преимущественно за счет интенсивных факторов развития (TFP).

Список использованной литературы:

1. Толковый словарь русского языка С.И.Ожегова и Н.Ю.Шведовой. Электронная версия, 2009 г.
2. Толковый словарь экономических терминов информационно-правовой системы законодательства Российской Федерации «Гарант». Электронная версия, 2010.
3. Федеральный закон Российской Федерации от 19 июня 1996 г. N 78-ФЗ «Об основах государственного регулирования социально-экономического развития Севера Российской Федерации», Статья 1.
4. Экономическая теория. Под ред. Добрынина А.Е., Тарасевича Л.С. СПб, «Питер», 2009. стр. 549
5. Толковый словарь иностранных слов Л.П.Крысина. 2010 г. Электронная версия.
6. Лихачев М. Теория макроэкономического равновесия в контексте методологических проблем современной экономической науки. Ж. Вопросы Экономики, № 7, 2008.
7. Тинберген Я. Экономический цикл в Соединенных Штатах, 1919-1932 гг., 1939; Пересмотр международного порядка» (1976, рус. пер. 1980);
8. Р. Фриш. Сбережения и планирование оборота. 1936).

O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI TA'MINLASH MUAMMOLLARI

***Shoh-Jaxon Xamdamov -
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti***

Ushbu tadqiqot maqolasida O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) ta'minlash muammolari ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi dengizga chiqish imkoniga ega bo'limgan davlat bo'lib, aholisi tez o'sib borayotgani, tabiiy resurslarning cheklanganligi va infratuzilmaning yetarli emasligi tufayli barqaror rivojlanishga erishish uchun ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Maqolada O'zbekistonning BRMga erishish yo'lidagi taraqqiyoti va muammolari tahlil qilinadi va siyosatchilarga barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Barqaror rivojlanish dunyoning barcha mamlakatlari, jumladan, O'zbekiston uchun ham muhim maqsaddir. 34 milliondan ortiq aholiga ega O'zbekiston iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan siyosat va dasturlarni amalga oshirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Ushbu sa'y-harakatlarga qaramay, O'zbekiston BRMga erishishda bir qancha muammolarga duch kelmoqda, jumladan qashshoqlik, past turmush darajasi, infratuzilmaning etarli emasligi, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning cheklanganligi va iqlim o'zgarishi. Ushbu tadqiqot maqolasining maqsadi O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlash muammolarini o'rganish va ushbu muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Barqaror rivojlanish dunyoning ko'plab mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyodagi dengizga chiqish imkon bo'limgan O'zbekiston uchun muhim maqsad bo'lib kelgan. Ushbu adabiyot sharhi O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlash muammolari bo'yicha tadqiqotlar va hisobotlarni ko'rib chiqadi.

Ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan O'zbekiston cho'llanish va tuproq degradatsiyasi kabi muammolarni hal qilish uchun bir qancha tashabbuslarni amalga oshirdi[1,2]. Mamlakatning Biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va Harakatlar rejasi mamlakat

biologik xilma-xilligini saqlashga qaratilgan bo'lsa, Iqlim o'zgarishi bo'yicha Milliy strategiya issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va iqlimga chidamlilikni oshirishga qaratilgan. Biroq, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP)ning Global atrof-muhit istiqbollari hisobotiga ko'ra, O'zbekiston havo va suv sifati, biologik xilma-xillik va iqlim ta'siri bo'yicha yomon o'rinda turadi (UNEP, 2019) [3,4].

Infratuzilmani rivojlantirish O'zbekiston BRMga erishishda duch kelayotgan yana bir muhim muammodir. Mamlakatning avtomobil, temir yo'l, suv ta'minoti kabi infratuzilmasi aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini va mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun yetarli darajada emas. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) 2016-2030 yillarda O'zbekistonning infratuzilmaga investitsiyalarga bo'lgan ehtiyoji 47 milliard dollarga baholangani va barqaror rivojlanishga erishish uchun mamlakat infratuzilmaga investitsiyalarini ko'paytirishi zarurligini ma'lum qildi (OTB, 2016-yil) [5,6,7].

Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish nuqtai nazaridan O'zbekiston iqtisodiyotida norasmiylikning yuqori darajasi mavjud bo'lib, bu BRMga erishishda qiyinchilik tug'diradi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) hisobotida aytlishicha, O'zbekiston ishchi kuchining qariyb 70 foizi norasmiy sektorda band bo'lib, u past ish haqi, yomon mehnat sharoitlari va cheklangan ijtimoiy himoya bilan tavsiflandi (XMT, 2019) [8,9].

O'zbekiston BRMga erishishda duch kelayotgan yana bir qiyinchilik bu infratuzilmaning yetarli emasligidir. O'zbekistonning avtomobil yo'llari, temir yo'llari, suv ta'minoti kabi infratuzilmasi o'sib borayotgan aholi ehtiyojlari va mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun yetarli emas. Hukumat ushbu vazifalarni hal etish maqsadida Toshkent va Samarqandni bog'lovchi yangi tezyurar temir yo'l liniyasini qurish, Toshkent shahrining suv ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish kabi bir qancha infratuzilma loyihamonlari amalga oshirdi. Biroq, bu loyihamonlari muvaffaqiyatini ta'minlash uchun ko'proq mablag' va texnik tajriba talab qiladi.

O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'minlash muammolarini yengish uchun siyosatchilar quyidagi tavsiyalarga ustuvor ahamiyat berishlari kerak:

milliy bioxilma-xillik strategiyasi va harakatlar rejasiga iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy strategiya kabi ekologik barqarorlikni ta'minlash tashabbuslarini moliyalashtirishni ko'paytirish;

barqaror energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytiradigan siyosatni amalga oshirish;

suv ta'minoti va kanalizatsiya infratuzilmasiga sarmoya kiritish orqali toza suv va kanalizatsiyadan foydalanish imkoniyatini oshirish;

yo'llar, temir yo'llar va aeroportlar kabi infratuzilmani rivojlantirishga xususiy sektor investitsiyalarini rag'batlantirish;

ishchi kuchining malakasini oshirish va ularning bandligini yaxshilash uchun ta'lim va o'qitish dasturlarini rag'batlantirish;

brmga erishish uchun siyosat va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda manfaatdor tomonlarning ishtirokini va ishtirokini rag'batlantirish;

biznesni rasmiylashtirish va iqtisodiyotda norasmiylikni kamaytirish uchun tartibga solish muhitini yaxshilash taklif etiladi.

O'zbekiston cheklangan tabiiy resurslar, yetarli darajada infratuzilma va aholi soni tez sur'atlarda o'sib borayotgani tufayli BRMga erishishda ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Mamlakat qashshoqlikni kamaytirish va ta'limni yaxshilash kabi ba'zi sohalarda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, ekologik barqarorlikni ta'minlash, toza suv va kanalizatsiya bilan ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish kabi sohalarda hali ko'p muammolarni yengish kerak. Siyosatchilar ekologik barqarorlikni ta'minlash tashabbuslarini moliyalashtirishni ko'paytirishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov, I., Yuldashev, O., & Turaev, M. (2019). O'zbekistonda BRM monitoring tizimini rivojlantirish: kontseptual asos va ko'rsatkichlar. Barqaror rivojlanish jurnali, 12(6), 142-154. DOI: 10.5539/jsd.v12n6p142
2. Azizov , E. va Raxmanov , M. (2019). O'zbekistonda barqaror rivojlanish muammolari va imkoniyatlari: MRMdan BRMgacha. Atrof-muhit va fan ta'lifi xalqaro jurnali, 14(9), 561-574. DOI: 10.12973/ijese.2019.488a
3. Mavlonova , N., Oybek , M., & Liu, Y. (2021). O'zbekistonda qishloq aholisini barqaror rivojlanish yo'lida kengaytirish. Qishloqshunoslik jurnali, 84, 232-241. DOI: 10.1016/j.jrurstud.2021.03.001
4. Xodjaev, A. va Olkott, M. (2019). O'zbekistonda o'tish davri: iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish salohiyati. Iqtisodiy o'tish muammolari, 62(9-11), 737-746. DOI: 10.1080/10611991.2019.1707791
5. Yo'ldoshev, O. (2020). O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning daromadlar tengsizligiga ta'siri. Iqtisodiy rivojlanish jurnali, 45(1), 105-129. DOI: 10.23395/jed.2020.45.1.105-129
6. Liu, Y., Qiao, H. va Mavlonova, N. (2020). Fazoviy tabaqalanish va qishloq aholi turmushi zaifligining ta'sir etuvchi omillari: O'zbekiston misoli. Barqarorlik, 12(23), 10017. DOI: 10.3390/su122310017
7. Hamdamov Sh. O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanish va inklyuziv o'sishning xalqaro ko'rsatkichlari tahlili/19-Xalqaro iqtisod, moliya va biznes konferentsiya materiallari to'liq maqolalar. 282-288-bet. 2020 yil Praga, Chexiya
8. Xodjaev, A. va Olkott , M. (2020). O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning siyosiy iqtisodi. Postsovet ishlari, 36(6), 429-445. DOI: 10.1080/1060586X.2020.1845435
9. Mansurov, S. va Sanober, F. (2021). O'zbekistonning ekologik izi tahlili. Journal of Central Asian Environmental and Sociological Studies, 4(1), 31-48. DOI: 10.22094/jcaess.2021.658356
10. Khamdamov, Shoh-Jakhon, et al. "ECONOMETRIC MODELING OF CENTRAL BANK REFINANCING RATE IN UZBEKISTAN." Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. 2022.

ИҚТИСОДИЙ ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

**Дусмуратов Раджабай Давлатбаевич -
ТДИУ Молиявий таҳлил ва аудит
кафедраси профессори, и.ф.д.**

Янги Ўзбекистон тараққиётининг ҳозирги босқичида иқтисодий ўсишга эришиш ва ахоли турмуш сифатини оширишнинг асосий йўналиши илм-фанни ва инновация фаолиятини ривожлантириш, инновацион технологиялар, маҳсулотлар ҳамда хизматлар кўламини кенгайтириш ҳисобланади. Дарҳақиқат, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан: «*Бир ҳақиқат ҳаммамизга маълум: илм ва изланиш бўлмаган жойда ҳеч қандай ривожсланиш, юксалиш ва умуман, бирор-бир соҳанинг келажаги бўлмайди*»[1], деб алоҳида таъкидланди.

Албатта, бу фикр исбот ва изоҳ талаб қилмайдиган аксиома (постулат)дир. Лекин, ривожланиш ва юксалишни таъминлайдиган илмий изланишлар самараси **иқтисодий тадқиқотларнинг** замонавий услубларини пухта ўзлаштиришини талаб этмоқда.

Таъкидлаш жоизки, мамлакатимизда илмий тадқиқот методологиясига бағишлиланган эътирофга лойиқ ўқув адабиётлари мавжуд [3,4,6 ва б.]. Лекин, уларда иқтисодий тадқиқотлар методларига алоҳида нисбат берилмаган.

Иқтисодий тадқиқотларнинг методларини ҳар хил мезонларга мувофиқ туркумлашимиз мумкин. Туркумлашнинг вазифалари, қоидага кўра, тадқиқот бирликларини турли тоифалар, синфлар ва гуруҳларга ажратишдан иборат. Бу ўз навбатида, методлардаги умумийлик, хусусийлик ва ягоналикларни очиб беради, натижада, ўрганилаётган объектнинг кейинги таҳлилини сезиларли даражада осонлаштиради. Туркумлаш мезонлари ҳам ҳар хил даражаларда бўлиши мумкин: фалсафа даражасида (диалектика ва метафизика); умумилмий даражада (назарий ва эмпирик методларга бўлинниши) ва хусусий илмий методлар (ҳар бир фан, масалан, тарих, иқтисодиёт, математика, статистика ва ш.к. бўйича) (1-расм).



1-расм. Иқтисодий тадқиқотлар методларининг туркумланиши

Лекин, фикримизча, мезонларни бундай даражалар бўйича фарқлаш иқтисодий тадқиқотлар методологияси учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга эмас. Шу боис, бир қанчалик самарали туркумлашларни келтирамиз. Хусусан, илмий ва ноилмий иқтисодий методлар, назарий ва эмпирик иқтисодий методлар ва ҳ.к. Шулар негизида ҳар бир методнинг асосий ғоясини ўзлаштиришимиз муҳимдир. Бу ҳолда туркумлашнинг ўзини тадқиқот мақсадларига эмас, дидактик мақсадларга бўйсундириш керак. Умуман ҳар қандай туркумлашни ягона, сўнгги ва ўзгармас деб қараш нотўғри. Чунки, ҳар қандай туркумлаш қандайдир мақсадга эришиш учун амалга оширилади. Бизнинг мақсадимиз эса, аввало, ёш тадқиқотчиларда кенгроқ илмий-фалсафий ёндашув шакллантириб, сўнгра методларни иқтисодий тадқиқотлар учун муҳим бўлган мезонлар асосида ўргатишдан иборат. Шу боис, мавзуумизни иқтисодий тадқиқотлар методларининг энг оддий туркумланишидан бошлаймиз.

Умумий методлари – бу унинг фалсафа даражасидаги методлари, яъни фалсафанинг қонунлари ва принциплари бўлиб, улар иқтисодиёт фанлари томонидан хусусий иқтисодий тадқиқотларни амалга оширишда билвосита қўлланилиши мумкин. Бундай қонунлар ва принципларнинг қўлланилиши умумий тавсифга эга, яъни мутлақо барча иқтисодий тадқиқотларда қўлланилади.

Умумилмий методлар - иқтисодий тадқиқотларнинг барча поғоналарида қўлланиувчан бўлган иқтисодий методлар бўлиб, аммо айни чоғда фалсафий методлар ҳисобланмайди. Бундай методларга биз барча математик ва статистик методларни, эксперимент методини, кузатиш, моделлаштириш ва шу кабиларнинг айrim турларини киритамиз.

Илмий методларнинг 3-гурухи *иқтисодиёт фанининг хусусий методлари* ҳисобланади. Улар билишга умумий ҳолда тааллуқли бўлмасдан, муайян фан доирасидаги тадқиқот предметига бевосита ўзига тааллуқлидир. Хусусий методлар у ёки бу фаннинг умумий принципларини ишлаб чиқиш учун зарур ҳисобланади. Булар: *иқтисодий қузатиш, иқтисодий эксперимент, иқтисодий моделлаштириш, иқтисодий индукция, иқтисодий гипотезаларни тузиш, хўжалик ҳодисаларини тарихий таҳлил қилиш ва ҳ.к.*

Шундай қилиб, иқтисодий тадқиқот методларининг юқорида баён этилган учала туркуми ўзаро таъсир кўрсатишда ва ўзаро боғлиқликда бўлади ва айни чоғда ҳар

бири ўзининг функциясини бажаради.

Иқтисодий тадқиқотлар методларининг навбатдаги туркумланиши учун муҳим мезон - *илмийликни* асос қилиб оламиз. Мазкур мезонга мувофиқ иқтисодий тадқиқотларнинг барча методларини *илмий* ва *ноилмий* методларга бўлиш мумкин. Илмий метод – бу табиат ва жамиятни оқилона, далиллар билан ва тизимли тадқиқ қилиш асосида воқеликни ўрганиш услуби. Ноилмий иқтисодий методлар ноилмий иқтисодий билимларни шакллантириб, уларнинг барча турларини учта тоифага бўлиш мумкин: 1) афсонавий (мистик) иқтисодий билимлар; 2) «мафкуравий», «ҳаёлий (пуч)» иқтисодий билимлар; 3) қундалик иқтисодий билимлар.

Иқтисодий тадқиқотларнинг илмий методлари ўз навбатида *мантиқий* ва *номантиқий* методларга бўлинади. Иқтисодий тадқиқотларнинг *мантиқий методлари* – бу унинг номланишидан келиб чиқадиган бўлсак, мантиққа асосланган шаклга келтириш ва математик методлар. Мантиқий методлар кўп ҳолларда у ёки бу хўжалик муаммоларини ўрганишда қандай асослашга қараб, а) *миқдор методлари*; б) *сифат методларига* туркумланади.

Иқтисодий тадқиқотлар илмий методларининг алоҳида туркуми - *номантиқий методлар* ҳисобланади. Иқтисодий тадқиқотларнинг *номантиқий методлари* – бу ўзларининг тузилмасига кўра шаклий ва математик мантиқ билан боғланмаган, балки кўпинча унга буткул қарама-қарши методлар ҳисобланади.

Иқтисодий тадқиқотлар методларининг яна бир муҳим туркуми – бу уларнинг *эмпирик* ва *назарий* методларга бўлиниши.

Эмпирик методлар – бу иқтисодий воқеликни соғлом ҳис қилиш воситалари орқали тажриба асосида билиш методлари бўлиб, 2 та туркум: иқтисодий кузатиш ва иқтисодий эксперимент, уларнинг муҳим таркибий қисми эса амаллар (процедуралар) ҳисобланади.

Иқтисодий тадқиқотларнинг **назарий методлари** илмий иқтисодий билимлар тизимининг оқилона асосланган даражасида амал қиласди. Булар: иқтисодий таҳлил (анализ), иқтисодий синтез, иқтисодий индукция, иқтисодий дедукция, иқтисодий билимлар соҳасини математикалаштириш ва шаклга келтириш, иқтисодий талқин қилиш, ҳамда иқтисодий билимлар соҳасидаги тарихий ва эволюцион таҳлил (2-расм).



2-расм. Иқтисодий тадқиқотларнинг эмпирик ва назарий методлари

As shown by the analysis of debt issues of Eurobonds by national issuers, the following can be attributed to the advantages of participating in the global borrowing market:

1. The national stock market of the Republic of Uzbekistan today is not sufficiently capital-intensive, and, accordingly, does not solve the problem of cheap financing. Well, entering the world loan capital market, we improve our macroeconomic indicators and, as a result, become investment attractive for large potential investors.

2. The issuance of Eurobonds helps to avoid the marginal costs of transactions associated with obligations, and as a result, financing the state budget is the cheapest in relation to other forms of issuing financial market instruments.

3. The high demand for debut tranches of Eurobonds from foreign investors is explained by the fact that our country has been pursuing a policy of protectionism for a long time, and entering the world stock market has become the beginning of cooperation with many countries. Also positive for the investment policy is the fact that our country has received a credit rating from major international rating agencies, which have previously studied and analyzed the financial condition of the issuer, and then on an ongoing basis will monitor the activities in relation to their requirements.

References and bibliography:

1. Sh.A. Toshmatov *Placement of international bonds of Uzbekistan in the world financial markets: risk and forecasts*. <http://review.uz/>
2. Andrea F. Presbitero, Dhaneshwar Ghura, Olumuyiwa S. Adedeji, and Lamin Njie. "International Sovereign Bonds by Emerging Markets and Developing Economies: Drivers of Issuance and Spreads" WP/15/275, IMF.
3. <http://cbonds.ru/indexes/> - The Chonds group of companies is a news agency specializing in financial markets.
4. *The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan: № PD-4258 dated April 2, 2019 "On the effective use of funds from the placement of the first sovereign international bonds of the Republic of Uzbekistan".*

AID INFORMATION MANAGEMENT SYSTEM AS A METHOD ENSURING AID EFFECTIVENESS

Ziyoda Abdurakhimova -
CIEP Webster University in Tashkent
Madina Dadaboeva -
Webster University in Tashkent
Bachelor of Arts in Economics

According to OECD criteria, Uzbekistan is eligible for concessional financing, both grants and loans. Since 2018, public international finance became a relatively more important source of development finance to Uzbekistan. Total Official Development Assistance per capita for the period 2015-20 averaged USD 23 [1]. Taking into account growing amount and importance of foreign aid, government has focused on mechanisms of ensuring its effectiveness.

Since the Republic of Uzbekistan has not signed international declarations on foreign aid effectiveness (Paris Declaration, Accra Action Agenda, Busan Declaration), country has not

taken on any obligations to ensure the effectiveness of foreign aid. Therefore, Uzbekistan is also not involved in global monitoring of aid effectiveness. In this regard, government is taking steps to ensure the effectiveness of foreign assistance received. Decree No. 5848 of the President of the Republic of Uzbekistan also defines the task of creating conditions for electronic accounting of foreign aid projects, automating methods for organizing a unified information system for coordinating grants involved in order to ensure the effective use of funds of external support, analyzing directions and areas of external assistance [2].

Above-mentioned legal document states that until August 1, 2020, the Ministry of foreign trade and investments of the Republic of Uzbekistan must have been introduced unified information system that systematizes the management of foreign aid from financial institutions of foreign countries and international financial organizations.

Aid information management system is a software that records and processes information about the flow of development aid funds. The information system is recognized as one of the factors ensuring the effective use of funds of foreign aid, which makes it possible to maintain reliable and open data records on the volume and direction of Official Development Assistance, geographical distribution, to comply with the term of projects of external assistance and to carry out monitoring over the achievement of target indicators.

According Park K. (2017), more than 70 aid information management systems have been implemented in 75 developing recipient countries, these systems have a number of common features and functions [3]. In particular, there are such modules as online inclusion of statistical data in information systems, flexible report preparation and the creation of various graphs and maps.

Aid information management system makes it possible to monitor the socio-economic results achieved with the help of foreign aid, to analyze the portfolio of development assistance of each donor of the country. As a result of this, it serves as a tool for elimination challenges associated with foreign assistance – such as its fragmentation, and duplication. In addition, the information system gives impetus to the principle of mutual accountability of the participants of the development assistance system in ensuring transparency of cooperation between the recipient country and donors.

Currently, there are two types of aid information management system, "*Aid Management Platform*" and "*Development Assistance Database*" platforms. Local aid information management systems have been implemented by the countries of Cambodia Philippines, Sri Lanka and Mongolia [4].

"*Development Assistance Database*" has been commercially available since 1997 by the private company *Synergy International Systems*. The company provides customers with annual technical support services, but for the functioning of the system, users will need additional training. To date, aid information management system of 35 developing countries have been created by the company. As a result of the integration of foreign aid database (Development Assistance Database) and Public Investment Management Solution (Public Investment Management Solutions) Systems by the company, a single platform for external assistance flow, public investment and budget management of a developing country has been created.

It should be noted that Synergy International Systems announced the establishment of cooperation with Uzbekistan in 2016. According to the information on the official website of the company, work has begun in Uzbekistan on a centralized system that controls the implementation of investment projects funded by international financial organizations. The project management information system, which is intended to be implemented with the participation of the Asian Development Bank, allows monitoring of funds of external support attracted to our country [5].

According to the information provided by the Ministry of foreign trade and investments of the Republic of Uzbekistan, the automated information system for monitoring and control

over the implementation of the investment project has been launched in test mode since April 2021.

The external support management platform "Aid Management Platform" was developed by the non-profit company "Development Gateway" in 2005 in cooperation with the NGO, World Bank, UN TD and the government of India and Ethiopia. At present, this software has been put into practice by more than 25 countries, and 2-3 years of technical and Consulting Support Service is carried out by the organization.

Typically, the external support information system is implemented and managed by the government of the developing country. The country's external support donors, on the other hand, are responsible for regularly entering and updating information on their external support portfolios into this system in a timely manner. The fact that information in the information system is open information for government representatives, external support donors of the country, members of Parliament and the general public ensures the transparency of the external support system.

References:

1. UNDP (2021) Development finance assessment for Republic of Uzbekistan, <https://uzbekistan.un.org/en/109009-development-finance-assessment-republic-uzbekistan>
2. <https://lex.uz/ru/docs/4550463>
3. Park, K. R. (2017). An analysis of Aid Information Management Systems (AIMS) in developing countries: explaining the last two decades. <https://scholarspace.manoa.hawaii.edu/server/api/core/bitstreams/c86d0450-f992-4bc4-9026-c6dc3733c0cf/content>
4. Aasmund A. (2009) Better Data, Better Aid? Practical Guidance Note on Aid Information Management Systems. Capacity development for development effectiveness facility for Asia and Pacific
5. <https://www.synisys.com/news/uzbekistan-government-to-monitor-all-its-investment-projects-with-synergys-solution/>

ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШДА ТҮФРИДАН-ТҮФРИ ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ КИЧИК САНОАТ КОРХОНАЛАРИГА ЖАЛБ ҚИЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Алиев Гуломназир -
*Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби
МВА магистранти*

Маълумки, мамлакатимиз мустақиллигининг илк йиллариданоқ Ўзбекистонда қулай инвестициявий муҳитни шакллантириш, түғридан-түғри хорижий инвестицияларни жалб этиш, шунингдек, инвесторларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича кенг кўламдаги имтиёзлар, афзалликлар ва кафолатлар бериш тизими босқичма-босқич амалга оширилиб келинмоқда.

Жумаладан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 20 декабрь куни Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига қилган мурожаатида, “2023 йилдан бошлиб ҳар бир ҳоким ўз туманига 40-50 миллион доллар хусусий инвестицияларни олиб келиши керак”лигини таъкидлаб ўтдилар. [1]

Шунингдек, “Вазирлар фақат давлат маблағини сарф қиласдан, ўзлари ҳам ташаббус кўрсатиб, хусусий инвестицияларни жалб қилишлари лозим. Масалан, давлат-хусусий шериклик орқали қишлоқ, сув, ўрмон хўжаликлари, транспорт соҳаларига bemalol йилига 1 миллиард долларгача сармоя олиб келиш мумкин” -деб қайд этдилар.

Дарҳақиқат, мамлакатни ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий ривожланишида инвестицияларнинг аҳамияти каттадир. Айтиш жойизки, ҳар қандай давлат дунёning етакчи давлатлари илм, фан ва техника соҳасида эришган ютуқларини қабул қилмасдан ривожланиши мумкин эмас. Ўзбекистон иқтисодиётида чуқур иқтисодий ислоҳотлар, таркибий ўзгаришлар амалга оширилар экан, хорижий инвестициялар ривожисиз тасаввур этиб бўлмайди.

Ривожланган мамлакатлар тажрибасига асосан хорижий инвестициялар мамлакат иқтисодиётининг барқарор ва самарали ривожланишини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Шунинг учун мамлакатимиз иқтисодиётiga хорижий инвестицияларни жалб этиш масаласини иқтисодий ўсишнинг муҳим омили сифатида кўриб чиқиш лозим.

Жумладан, асосий капиталга тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш ва корхоналар ташкил этиш натижасида қабул қилувчи давлатда солиқ тушумларини кўпайтириш ва бюджет даромадларини ошириш мумкин (1-жадвал).

1-жадвал

Асосий капиталга инвестициялар (млрд.сўм)

| Йиллар (охирги 5 йиллик) | Асосий капиталга инвестициялар (млрд сўм) |
|---------------------------------|--|
| 2017 | 72155,2 |
| 2018 | 124231,3 |
| 2019 | 195927,3 |
| 2020 | 210195,1 |
| 2021 | 239552,6 |

Хорижий инвестициялар ижтимоий қатламда меҳнат унумдорлигининг ошишига олиб келади. Хорижий инвестициялар иштирокидаги компаниялар ташкил этиш орқали ўртача меҳнат унумдорлигини ошириш имконияти яратилади. Бундай компаниялар ҳар бир меҳнат бирлигига юқори даражада капитал киритишга қодир бўладилар, бу эса меҳнат унумдорлигининг ўсишига бевосита таъсир этади. Шу билан бирга, улар воситасида аҳоли бандлигини таъминлаш ва ишсизликни бартараф этиш мумкин. Аҳолини иш билан бандлигини ошириш ва турмуш даражасини яхшилаш иқтисодий ўсишни таъминлашнинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Ҳозирги кунда мамлакатимизда хорижий инвестициялар иштирокидаги корхоналар фаолият юритаётган корхоналар йилдан йилга ортиб бормоқда (2-жадвал).

2-жадвал

Корхона ва ташкилотлар сони тўғрисидаги маълумот

| Йиллар | Янги ташкил этилган корхона ва ташкилотлар сони | улардан: |
|---------------|--|-------------------------------------|
| | | хорижий капитал иштирокидаги |
| 2010 | 37032 | 595 |
| 2011 | 34326 | 539 |
| 2012 | 32715 | 520 |
| 2013 | 21890 | 499 |
| 2014 | 27819 | 519 |
| 2015 | 26933 | 433 |
| 2016 | 27915 | 494 |
| 2017 | 32747 | 503 |
| 2018 | 41013 | 863 |
| 2019 | 55011 | 2385 |

Хорижий инвестициялар ўзи билан, биринчى навбатда, илғор технологияларни жалб этилишига турткি бўлади. Хорижий инвесторлар ўзларининг бозордаги ўрнини

сақлаб қолиши мақсадида турли тадқиқотлар ва изланишларни олиб бориш имкониятлариға әгадирлар. Айнан, хорижий инвестиция иштирокидаги корхоналар ривожланган рақобатбардош фирмалар ҳисобланиб, улар харажатларнинг катта қисмини фан-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишлари учун сарфлашга ҳамда ишлаб чиқариш фаолияти учун янги фан-техника ютуқларини жорий этишга қодир бўладилар. Кейинги йилларда мамлакатимизга киритилаётган хорижий инвестициялар таркибида тўғридан-тўғри хорижий инвестиция ва кредитларнинг улуши давлат кафолати остида хорижий инвестиция ва кредитларнинг улушига қараганда ортиб бормоқда.

Хорижий инвестицияларни жалб этиш ва улар асносида корхоналар ташкил этиш мамлакат иқтисодиётида рақобатчилик муҳитини фаоллаштиради. Хорижий компанияларнинг маҳаллий бозорларга чиқиши миллий корхоналарнинг янада самаралироқ фаолият юритишини талаб этади за рақобатчилик муҳитини фаоллаштиради. Хорижий фирмалар ўз фаолиятларида замонавий технологияларни ва янги менежмент тажрибаларини тезлик билан жорий қилишга мойиллиги орқали маҳаллий корхоналарга ибрат бўлади ва уларни инновацион фаолият билан шуғулланишга мажбур этади. Бу борада Президентимиз “Иқтисодиётда бошқарув тизими эскиргани, инновацион ғояларни қўллаб-қувватлаш бўйича самарали механизмлар ўз вақтида жорий қилинмагани ҳам жиддий муаммо бўлиб қолмоқда. Шунингдек, технологик қолоқлик, ресурс ва энергияни тежайдиган технологиялар, муқобил энергия манбаларини татбиқ этишнинг сустлиги ҳам иқтисодий тараққиёт йўлида тўсиқ бўлмоқда” деб алоҳида таъкидлаб ўтганлар.

Ҳозирги кунда барча мамлакатларда хорижий валюталарни жалб этиш ва валюта тушумини қўпайтириш, миллий валюта қадрини ошириш энг долзарб муаммолардан бири сифатида кўрилмоқда. Хорижий инвестициялар мамлакатга хорижий валюталарни жалб этиш ва мамлакатда валюта барқарорлигини таъминлашда асосий дастаклардан бири ҳисобланади. [4,5]

Хулоса қилиб айтганда, асосий капиталга тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш ва саноат корхоналар ташкил этиш натижасида қабул қилувчи давлатда солиқ тушумларини қўпайтириш ва бюджет даромадларини ошириш мумкин. Шунингдек, чет эл инвесторлари учун ўз капиталини тезроқ олиб чиқиб кетмасдан, уни қайта инвестиция қилишга ундейдиган рағбатлантириш тизимини яратиш;

– ҳокимлар, давлат органлари ва ташкилотлари раҳбарларининг инвестицияларни жалб этиш, хорижий инвесторлар билан ҳамкорлик қилиш, янги ишлаб чиқариш турларини ташкил этиш, иш ўринлари яратиш бўйича фаоллигини ошириш;

– мамлакатимизнинг инвестиция соҳасидаги жозибасини ошириш, хорижий инвестицияларни кенг жалб этишга кўмаклашиш бўйича Ташқи ишлар вазирлиги ўз имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш .

Биз, аввало, четдан кредит ва сармоялар олиб келиш бўйича самарали тизим яратишимиш, ҳар бир кредитни аниқ ишлатишни ўрганишимиз лозим. Бу масалада етти ўлчаб, бир марта кесадиган, оқибатини пухта ўйлаб иш олиб борадиган давр келди. Шу нуқтаи назардан, давлатнинг инновацион янгиланиш дастурини шакллантириш, инновация ва инвестициялардан самарали фойдаланадиган янги авлод кадрларини, янги сармоядорлар синфини тайёрлаш ўта муҳим аҳамиятга эга.

Бунинг учун Ўзбекистонни технологик ривожлантириш ва ички бозорни модернизация қилиш бўйича кучли миллий ғоя, миллий дастур керак. Ушбу дастур Ўзбекистонни жаҳондаги тараққий топган мамлакатлар қаторига тезроқ олиб чиқишга имкон яратиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. "Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартишига оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида". – Т.: 2020 йил 26 марта, ПФ-5975-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. "Аҳолини тадбиркорликка жалб килиши тизимини такомиллаштириш ва тадбиркорликни ривожлантиришига доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида". Т.: 2020 йил 13 октябрь, ПҚ-4862-сон.
4. Эшов М.П. "Тадбиркорликни ривожлантириш – аҳоли бандлигини таъминлашнинг асосий воситаси". Иқтисод ва молия журнали. 2019 йил 11-сон.
5. Дусматов С.М., Тағаев Б.Э. "Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши: омиллар, натижалар ва истиқболлар". Монография. 2017 йил.
6. A World Bank Group Flagship Report. Doing business 2019. Training for reform. Economy Profile Uzbekistan. Comparing Business Regulation for Domestic Firms in 190 Economies.
7. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик. // Статистик тўплам. –Т.: 2017.
8. <https://president.uz/uz/>
9. <https://stat.uz/uz/>
10. <https://review.uz>
11. <https://uzreport.news/>
12. <http://www.gov.uz>
13. <https://www.stat.go.jp/>

САНОАТИ КОРХОНАЛАРИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИИ ТАЪМИНЛАШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

**Алиев Паракат Қеунимжасевич -
Қорақалпоқ давлат университети
“Шаҳар қурилиши ва хўжалиги кафедраси”
стажёр-ўқитувчи**

Барқарор ривожланиш ҳақидаги биринчи фундаментал ғоя 1987 йилда Рио-де-Жанейрода атроф-муҳит ва ривожланиш бўйича Халқаро комиссиянинг ҳисоботида Г.Х.Брундтланд томонидан тақдим этилган. У: "Барқарор ривожланиш - бу келажак авлодларнинг эҳтиёжларини қондириш имкониятини бузмасдан, ҳозирги замон эҳтиёжларини қондиришдир"[1],-деган эди. Ушбу концепция бутун сайёра учун давлатлар, минтақалар, шунингдек, иқтисодий фаолият турларига нисбатан қўлланилиб келмоқда. Ушбу муҳим илмий хулосани кўплаб нуфузли олимлар барча соҳада қўллаб-қувватладилар.

Бир қатор илмий ишларда олимлар саноат корхонасининг барқарор ривожланишини белгилашда давлат иқтисодиёти ва корхона ходимлари эҳтиёжларини қондириш учун корхона салоҳиятини доимий ошириши мумкин бўлган ижтимоий, иқтисодий ва бошқа ўзаро боғлиқ жараёнлар тўпламини келтирганлар. А.Арошидзега кўра, барқарор ривожланиш ижтимоий-иқтисодий тизимнинг узоқ муддатли эҳтиёжларини қондириш учун иқтисодий, экологик ва ижтимоий соҳалар ўртасидаги муносабатларни ўйғуналаштиришига йўналтирилган ижобий ўзгаришлар ва технологияларнинг йиғиндиси сифатида қаралади [2].

3.Батырмурзаева эса саноат корхонасининг барқарор ривожланишини - ўзгаришларни, янги технологияларни жорий қилиш, бизнес жараёнларини такомиллаштириш билан боғлайдиган корхонанинг миқдорий ва сифат кўрсаткичларини динамик сифат жиҳатидан ўзгариши эканлигини таъкидлайди [3].

Унинг асосий шарти корхонанинг статик ва динамик барқарорлиги, шунингдек, иқтисодий салоҳиятини малакали бошқаришдир.

И.Нажимовга кўра, барқарор ривожланиш – бу ҳудудларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, ходимларнинг ҳаёт сифатини ҳамда мулкдорлар (акционерлар, хусусий мулк эгалари ва бошқ.) фаровонлиги даражасини оширишга қаратилган иқтисодий, ижтимоий ва экологик табиатнинг доимий ижобий мутаносиб ўзгаришлари жараёни ва келажақда корхонанинг узоқ муддатли фаолият юритишини таъминлашдир[4].

Корхоналар барқарорлигини турли мезонлар ва барқарор ривожланишни таъминлаш шакллари бўйича қўйидагича таснифлаш мумкин (1-расм).



1-расм. Корхона барқарорлигини таснифлаш схемаси

Корхонанинг барқарор ривожланишини таъминлашнинг қўйидаги асосий йўналишларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

- узоқ муддатли истиқболда корхонанинг фаолият юритишини таъминлаш;
- корхона ходимлари ва мулкдорлари ҳаёт сифати даражасининг юқори кўрсаткичларини таъминлаш.

Корхонанинг барқарорлигини бошқариш ички ва ташқи муҳит омилларини бошқариш асосида шакллантирилади. Корхонанинг ички барқарорлиги маҳсулотларни сотишга, ишлаб чиқариш жараёнининг таннархи ва моддий таркибига, молиявий айланишига, ишларни ташкил этишга, инновацияларга ва доимий равишда юқори натижалар олинадиган уларнинг динамикасига боғлиқ.

Ички барқарорликка эришиш учун унинг турли омилларидағи ўзгаришларга тезкор жавоб бериш тамойилини амалга ошириш зарур.

Корхона барқарорлигининг ушбу ички омиллари қўйидагилар:

- корхонанинг тармоққа алоқадорлиги;
- ўз капиталининг миқдори;

- сотилган маҳсулотлар таркиби, унинг тўлов қобилиятига бўлган умумий талабдаги улуши;
- пул даромадлари билан таққослагандан харажатлар ҳажми, таркиби ва динамикаси;
- захираларни, уларнинг тузилиши ва таркибини ўз ичига олган молиявий ресурслар ва мулкнинг ҳолати;

Бизнинг фикримизча, агар қуидаги муҳим шартлар таъминланса, саноат корхоналарининг иқтисодий ривожланиши барқарор бўлади [4]:

- агар у умумий иқтисодиётни ривожлантиришнинг стратегик мақсадларини амалга оширишга қаратилган бўлса;
- агар у ўзини ривожлантириш ва ўзини-ўзи ташкил этиш учун зарур бўлган салоҳиятга эга бўлса;
- агар у мустақилликга ва тегишли бошқарув тизимига эга бўлса;
- агар уни ривожлантириш жараёни макро тизим эҳтиёжларининг динамикасига жавоб берса.

Илмий адабиётларни ўрганиш натижасида хулоса қилиб айтганда, саноат корхоналарининг барқарор ривожланиши - бу талабнинг ўзгариши шароитида узоқ давр мобайнида сотиш ҳажмини сақлаб туриш қобилиятидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Доклад Всемирной комиссии по вопросам окружающей среды развития."Наше общее будущее". <https://www.un.org/ru/ga/pdf;brundtland.pdf>
2. Арошидзе, А.А. Информационная архитектура оценки экономической устойчивости промышленного предприятия // Сборник материалов XLIII Международной научно-практической конференции «Актуальные вопросы науки». – М.: «Спутник +», 2018. – С. 32-34.
3. Батырмурзаева, З.М. Обеспечение устойчивого развития промышленных предприятий на основе адаптивной системы управления: на примере нефтегазодобывающей отрасли Республики Дагестан: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 . – М.: Институт проблем рынка РАН, 2015. – 179 с.
4. Нажимов И.П. "Курилиш материаллари ишлаб чиқариш корхоналарининг барқарор ривожланишини таъминлаш" "Lesson Press" нашриёти Тошкент 2021-й. Монография 141 б.

МАМЛАКАТИМИЗНИНГ МАКРОИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

***Амирор Темур Машраб ўғли -
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти, ассистент стажёр***

Кириш. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирозининг салбий таъсирига қарамасдан, мамлакатимизда юқори иқтисодий ўсиш суръатлари ва макроиқтисодий барқарорлик таъминланиб келинаётгани, иқтисодиётни ислоҳ қилиш бўйича биз танлаган моделнинг нақадар тўғри ва ҳаётий асосга эга эканини яна бир бор тасдиқланмоқда. Республикамиздаги макроиқтисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсишни ўзида акс эттирадиган кўрсаткичлар ислоҳотлар стратегиясининг муваффақиятини, иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш ва мамлакатни ривожлантиришнинг устувор йўналишларида эришилган ютуқларнинг амалий ифодасидир.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Бизнинг мақоламида макроиқтисодиёт соҳасининг ривожланиши имкониятларини ўрганиш масаласи қўйилган. Ушбу мақсадда Б.Й.Ходиев, Ш.Ш.Шодмонов, М.Қ.Пардаев, У.В.Фафуров ва Самарқанд статистика маълумотларидағи таҳлиллар асосида ўрганиш ишлари амалга оширилди. [1,2,3,4]

Тадқиқот методологияси. Олиб борилган изланишлар натижасида Самарқанд вилоятининг макроиқтисодий кўрсаткичлар ва вилоят иқтисодиётининг таркибий тузилишини такомиллаштириш, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш ва техник қайта қуроллантириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш борасида таҳлиллар ўрганийди.

Таҳлил ва натижалар. Мамлакатимиз макроиқтисодий барқарорликнинг таъминланиши Ватанимиз иқтисодий салоҳиятдининг ортишига йирик ижтимоий дастурларни амалга ошириш, чет эл ҳамкорларимиз билан тузилган лойиҳалар натижаси ҳудудларимиз равнақига ҳисса қўшади.

Чет эл инвестициялари ва кредит маблағларини жалб этиш эвазига вилоят саноатида сезиларли ривожланиш кўзга ташланмоқда. Бунинг натижасида ўтган 5 йил мобайнида саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 108%га, инвестициялар 122%га, хизматлар 115%га ва ташқи савдо айланмаси 130%га ошди. Сўнгги беш йилда 246 та янги саноат корхоналари ишга туширилиб, 9 мингга яқин иш жойлари яратилди. Жорий йилда жами 50 та инвестицион лойиҳаларни амалга ошириш учун 50 млн. доллар жалб этилди. Натижада вилоятда 15,4 трлн. сўмлик саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилди.

Ялпи ҳудудий маҳсулотнинг кейинги йиллар мобайнида нисбатан ўсиш тенденцияси вилоятнинг барча соҳаларида кузатилди. Жумладан, ҳудуд иқтисодиётининг барча соҳа ва тармоқларида олиб борилаётган туб ислоҳотлар кейинги йиллар мобайнида ўзининг ижобий натижаларини берib келмоқда. Шунингдек, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш давлат ва ҳудудий Дастрлари доирасида йирик саноат корхоналарини қайта тиклаш, уларнинг қувватларини оширишга алоҳида эътибор қаратиласяпти. Масалан, “8-Март” акционерлик жамияти корхонасига 4,0 млн доллар маблағ эвазига Япониядан замонавий дастгоҳлар келтириб ўрнатилди, 420 та ишчи-ходимлар иш билан таъминланди. Корхонада бир йилда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми 6,5 млрд. сўмга етди, 1 млн.долларлик маҳсулот экспорт қилинди.

1-жадвал

2022 йил январ-декабр бўйича асосий макроиқтисодий кўрсаткичлар

| № | Макроиқтисодий курсаткичлар номи | Усиш сурати (фоизда) | Миқдори (трлн. сумда) |
|----|----------------------------------|----------------------|-----------------------|
| 1 | Ялпи ҳудудий маҳсулот | 106 | 43,5 |
| 2 | Саноат | 108 | 20,4 |
| 3 | Истемол товарлари | 120 | 12,6 |
| 4 | Қишлоқ хужалиги | 104 | 30 |
| 5 | Хизматлар | 115 | 16,4 |
| 6 | Чакана савдо айланмаси | 110 | 18,2 |
| 7 | Қурилиш ишлари | 111 | 6,3 |
| 8 | Инвеститсиялар | 122 | 15,6 |
| 9 | Экспорт | 134 | 0,005 |
| 10 | Ташқи савдо айланмаси | 130 | 0,0017 |
| 11 | Импорт | 129 | 0,0013 |

Самарқанд чинни заводига 10 млн доллар ички ва четдан жалб қилинган инвестиция киритилиб, 870 нафар иш ўрни қайта тикланди. Ҳозирда ушбу корхона Франция технологияси асосида чинни буюмлари ишлаб чиқаришга ихтисослашган.

Булунғур туманидага собиқ Булунғур вино заводига тадбиркорлар томонидан 500 минг доллар инвестиция жалб қилиниб, “Бугатти Шоес” корхонаси ташкил этилди ва натижада 400 минг жуфт пойабзal ишлаб чиқарилиши йўлга қўйилди.

“Боғанд” (собиқ трикотаж фабрикаси базасида) корхонаси Жанубий Кореяning етакчи компанияси билан лойиҳа қиймати 11,0 млн. долларлик трикотаж ва тайёр тикув маҳсулотлари ишлаб чиқариш лойиҳасининг 1-босқичи амалга оширилди. Натижада 1000 дан ортиқ янги иш ўринлари яратилади. Капитал қуйилмалар ҳажмининг ошиши иқтисодиётни ривожлантириш бўйича дастурларни бажариш, янги қувватларни барпо қилиш ҳамда ишлаб чиқариши модернизация қилиш ва техник қайта қуроллантириш лойиҳаларини амалга ошириш учун хизмат қиласи.

Хулоса ва таклифлар. Мамлакатимизда қатъий пул-кредит сиёсатининг олиб борилиши, саноат маҳсулотлари таннархини пасайтириш, истеъмол товарлари ишлаб чиқариши ўстириш орқали истеъмол бозорида рақобат даражасини ошириш, маҳаллийлаштириш дастурларини амалга ошириши истеъмол нархлари индекси бўйича ҳисобланган инфляция даражасининг 10-12 фоиз оралиғидан пастга туширилишини таъминлаши лозим. Солик ставкаларининг пасайтириши ишлаб чиқариш ва даромадларнинг ўсишига ижобий таъсир кўрсатиши натижасида солиққа тортиш базасининг кенгайишига имкон туғилади. Айнан шу ҳолат мамлакатимиз макроиқтисодиётини ривожланишига, бюджет харажатларини тақчилликсиз молиялаштиришга асос бўлади

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Пардаев М.К. Туристик фирмалар хўжалик фаолиятини баҳолаш ва таҳлил қилишда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими // Ўзбекистон Республикасида иқтисодиёт ва молиянинг долзарб муаммолари: Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари. - Самарқанд, 2006.- Б.251-253.
2. Шодмонов Ш.Ш., Юсупов Р.А. Замонавий бозор иқтисодиёти назарияси ва амалиёти. – Т.: ТДИУ, 2007.
3. Ходиев Б.Ю., Шодмонов Ш.Ш., Гафуров У.В. Иқтисодиётнинг етакчи тармоқларини мөдернизация қилиш ва янгилашнинг илмий ва назарий асослари. Илмий-оммабон рисола. – Т.: ТДИУ, 2008. – 57 б.
4. Шодмонов Ш., Гафуров У. Бозор иқтисодиёти асослари. Илмий-оммабон нашр. – Т.: тдцу, 2007. – 75 б.

BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR NAZORATINING XUSUSIYATLARI

Artikov Kurbonazar Amanovich -
*Toshkent moliya instituti
mustaqil izlanuvchisi*

Budjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini tekshirishda quyidagi shartlarga to'liq amal qilinganligiga e'tibor qaratiladi:

- hisobot davridagi barcha operatsiyalar hamda pul mablag'lari, asosiy vositalar, moddiy qimmatliklarning inventarizatsiya qilinishi va hisob-kitoblar natijalarining to'liq aks ettirilishi;

- analitik hisob ma'lumotlarining hisobot davrining birinchi sanasiga sintetik hisob yuritish hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va qoldiqlarga bir xil bo'lishi, shuningdek moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarining sintetik va analitik hisob ma'lumotlariga mosligi;

- moliyaviy hisobotlardagi tegishli yozuvlarni qayd etish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan birlamchi hujjatlardan foydalanish.

Ushbu asosiy shartlarga rioya qilinmagan holda tuzilgan moliyaviy hisobotlar noto'g'ri tuzilgan deb hisoblanadi.

Tashkilotlar jamlanma moliyaviy hisobotlarni o'zлari ko'rib chiqqan tasarrufidagi quyi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari hamda o'zining xarajatlar smetasi bo'yicha moliyaviy hisobotlari asosida tuzilgan bo'lishi kerak.

Moliyaviy hisobotlar, qoida tariqasida, o'sib boruvchi tartibda bitta o'n xonali sonda ming so'm hisobida tuzilishi lozim.

Moliyaviy hisobotlarni tekshirishda ko'rsatkichlari manfiy qoldiq bilan chiqqan (manfiy qoldiqqa ega bo'lgan), ya'ni ushbu ko'rsatkichlar "minus" belgi bilan aks ettirilgan holatlarning sabablari tahlil qilinishi kerak. Faqat me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini buzmagan holda manfiy qoldiqqa egabo'lish mumkmn.

Moliyaviy hisobotni tuzishda ayrim hatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Eng ko'p tarqalgan hatolardan biri bu yillik buxgalteriya hisobotini tuzish oldidan aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o'tkazishdir. Unga ko'p tashkilotlarda jiddiy e'tibor bermaydilar. Inventarizatsiya o'tkazish talablari №19 "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli BHMSda qayd etilgan. Bu talablar asosiy vositalar, materiallar, pul mablag'larining saqlanishini va hisob- kitoblarning aniqligini ta'minlab beradi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini muddatining o'tib ketganligini ham inventarizatsiya natijalariga ko'ra aniqlanadi. Buning uchun korxonalar o'rtasida qoldiqlar ko'rsatilgan holda solishtiruv dalolatnomalarini tuzish va muddati o'tgan qarzlarni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish kerak. Umidsiz debitorlik va kreditorlik qarzlarining ro'yxati tuzilib, uni inventarizatsiya komissiyasiga beriladi. Komissiya tomonidan xulosa tuzilib, korxona rahbariga taqdim etilgach hisobdan chiqarishga buyruq chiqarilishi mumkin.

Inventarizatsiya jarayonida sanoqdan o'tkazilayotgan tovar-moddiy zaxiralari va asosiy vositalarning saqlanish holatlari, ishlab chiqarilgan muddatlari va zavod tomonidan berilgan raqamlariga e'tibor qaratish zarur. Bundan tashqari TMZning sanoqli zaxirasiga ega bo'lgan korxonalarda ularning buzilishi, qiymatining tushishi va ma'naviy eskirishi holatlari ham inventarizatsiya natijasida aniqlanadi. Bunday TMZlarni hisobdan chiqarish uchun ham yuqorida qayd etilgan kabi inventarizatsiya komissiyasi ma'lumotlari asosida hisobdan chiqarishning aniq sabablari keltirilgan dalolatnomaga tuziladi. Yaroqli TMZlar esa sotishning sof qiymatiga qadar arzonlashtirilishi kerak.

Tekshirish jarayonida qonunchilikka muvofiq budget tashkilotlari balans moddalari inventarizatsiyadan o'tkazgan bo'lishlari shart. Balans moddalari inventarizatsiyasining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- asosiy vositalar, kapital qo'yilmalar, moddiy boyliklar, pul mablag'lari va qat'iy hisobda turuvchi blankalari va boshqa aktivlarning haqiqatda mavjudligini buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga taqqoslash yo'li bilan aniqlash, shuningdek moddiy boyliklar va pul mablag'larining saqlanishini nazorat qilish;

- qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq belgilangan normativdan yuqori bo'lgan va foydalanilmayotgan moddiy boyliklarni aniqlash;

- moddiy boyliklar hamda pul mablag'larini saqlash qoidalari va shartlariga riosa qilish;

- balansda hisobga olingan moddiy boyliklar, kassalardagi, banklarning depozit hisob raqamlaridagi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalaridagi (keyingi o'rinnlarda G'aznachilik bo'linmalari deb yuritiladi) shaxsiy hisobvaraqlardagi pul mablag'lari, hisob-kitoblar va balansning boshqa moddalari qiymatining haqiqiyligini tekshirish.

Budget tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning to'g'ri tuzilganligini tekshirishda quyidagi hisobot shakllari alohida o'rganiladi:

1. Balans (1-shakl). Balansni tuzishdan oldin barcha mavjud memorial orderlar bilan rasmiylashtirilgan buxgalteriya provodkalarini dastlabki hujjatlarga muvofiq holda to'g'ri tuzilganligi hamda "Bosh-jurnal kitobi" (308- shakl)ga to'g'ri yozilganligi, subschyotlar bo'yicha oylik aylanmalar va hisobot davri oxiriga "Bosh-jurnal kitobi" (308-shakl) bo'yicha qoldiqlar to'g'ri hisoblanganligi tekshirib chiqiladi.

Tekshirish davomida debitor va kreditor qarzlarni hisobga oluvchi subschyotlarda debtorlar va kreditorlar summalarini o'zaro hisobga olmaganligi aniqlanadi. Mavjud debtorlar balansning aktiv qismida, kreditorlik qarz esa, passiv qismida ko'rsatilishi kerak. Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri aks ettirilganligi, Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'rinnoma (ro'yxat raqami 2169, 2010 yil 22 dekabr) asosida tekshiriladi.

Tekshirishda "yil boshiga" ustuni bo'yicha ko'rsatkichlar o'tgan hisobot yili balansining "yil (chorak) oxiriga" ustuni bo'yicha ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi. Ular aynan bir xil holda ko'chirilishi kerak. Agarda, tashkilot hisobot yilining 1 yanvaridan keyin tashkil topgan bo'lsa, u holda balansning ushbu "Yil boshiga" ustuni to'ldirilmaydi.

Tekshirish davomida balansning aktiv qismidagi "Yil (chorak) oxiriga" ustuni bo'yicha moddalarning to'g'ri aks ettirilganligi aniqlanadi va quyidagi holatlarga e'tibor qaratiladi:

- "1-§. Asosiy vositalar va boshqa uzok muddatli nomoliyaviy aktivlar" paragrafining "Asosiy vositalar: Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati" qatorida tashkilotlarning hisobot davri oxiriga mavjud barcha asosiy vositalari, shu jumladan, ijaraga berilganlari ham dastlabki (tiklanish) qiymati bo'yicha aks ettirilganligi;

- Qayta baholash natijalari bo'yicha aniqlangan asosiy vositalarning tiklanish qiymati yillik va choraklik balanslarda "Yil boshiga" ustunida kasr chizig'i bilan (maxrajida) aks ettirilganligi;

- "Eskirish summasi" qatorida asosiy vositalarning balans tuzilgan hisobot davri oxiriga hisoblangan eskirish summasi to'g'ri aks ettirilganligi;

- "2-§. Noishlab chiqarish aktivlari" qatorida ishlab chiqarish xususiyatiga egabo'limgan kapital xarajatlar, jumladan, erni obodonlashtirish bo'yicha xarajatlar (040-subschyot) to'g'ri aks ettirilganligi;

- "3-§. Tovar-moddiy zaxiralari" qatorida hisobot davri oxiriga mavjud bo'lган tayyor mahsulot, qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, dori- darmon va yarani boglash vositalari, inventar va xo'jalik jihozlari, yonilg'i, yoqilg'i-moylash materiallari, mashina va asbob-uskunalarining ehtiyyot qismlari va boshqa tovar-moddiy zaxiralari qoldiq summalarining to'g'ri ko'rsatilganligi, balansdan tashqari 10 "Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari" va 12 "Eskirganlarining o'rniga berilgan transport vositalarining ehtiyyot qismlari" schyotlarida aks ettirilgan tovar-moddiy zaxiralarning qoldiqlari bundan mustasno;

- "4-§. Nomoliyaviy aktivlarga qo'yilmalar" qatorida o'rnatish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar, tugallanmagan qurilish, asosiy vositalarga boshqa xarajatlar, nomoddiy aktivlarga boshqa xarajatlar, tovar (ish, xizmat)larga xarajatlar va tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlarning summalarini «Bosh-jurnal kitobi» (308-shakl) bo'yicha hisobot davrining oxiriga qoldiq summasi bilansolishtirilishi kerak;

- "Moliyaviy aktivlar" bo'limida mavjud hisobvaraqlardagi pul mablag'lari, akkreditivlar, kassadagi nakd pul qoldiqlari va boshqa pul mablag'larining, shuningdek g'aznachilik bo'linmalaridagi shaxsiy hisobvaraqlardagi pul mablag'larining qoldiq summalarining to'g'ri aks ettirilganligi.

Tekshirish davomida balansning passiv qismidagi "Yil (chorak) oxiriga" ustuni bo'yicha moddalarning to'g'ri aks ettirilganligi aniqlanadi va quyidagi holatlarga e'tibor qaratiladi:

- "Kreditorlar" bo'limida yil (chorak) oxiriga barcha hisob-kitoblar bo'yicha qoldiq summalar (kreditorlik qarzlar)ni to'g'ri aks ettirilganligi;

- "Moliyaviy natijalar" bo'limida tashkilotning joriy yilga moliyaviy natijalari (300 - 343 qatorlar), shuningdek yakuniy moliyaviy natijalari (350 - 356 qatorlar) har bir daromad (tushum)larning turlari bo'yicha alohida holda to'g'ri aks ettirilganligi. Bunda, joriy yilga moliyaviy natijalar (300 - 343 qatorlar) bo'yicha ko'rsatkichlar yillik balansda aks ettirilmaydi.

"Balansdan tashqari schyotlar" bo'limida hisobot davri oxiriga aks ettirilgan balansdan

tashqari schyotlar summasi ko'rsatiladi. Ushbu schetlarningqoldiqdari va ularni vujudga kelish holatlari alohida o'rganiladi.

Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va audit. O'quv qo'llanma. InfoCOM.Uz MCHJ. T.: 2010. 92 b. (192 b).
2. Hasanov B.A. "Boshqaruv hisobi: nazariya va uslubiyot.T.: Moliya, 2003-yil" 58-bet. (248 b).
3. Ostonaqulov M. Byudjet tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi. - T.: Yangi asr avlod, 2011. 3 bet, (480 b).
4. Saidov M.X., Oliy ta'lif muassasalarini moliyalash.T.: -Moliya, 2002-yil, 134 b.
5. G'aniev Sh.V. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish. 08.00.08.-"Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya//. 50, 59 betlar. Toshkent 2008-y.
6. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Yo'rinqoma O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatdan o'tgan.
7. "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarining xarakatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi" Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014-yil 15-dekabrda 2634-son bilan ro'yxatdan o'tgan.

NATIONAL BRAND AND IMAGE OF UZBEKISTAN: SNAPSHOT OF ISSUES AND SOLUTIONS

***Achilova Nargiza Bakhtiyorovna -
Tashkent state university of
economics, researcher***

In the context of globalization and integration of world economic systems, along with the strengthening of the political and economic positions of countries, the formation and promotion of the national brand of the country as well as its positive image, rating and status became one of the determining factors in its position on the world stage. The image of the country, its perception by the world community is nowadays as important as country's natural resources, wealth, human, scientific and technical potential, and it largely determines its economic, political and socio-cultural relations with other countries.

The "national brand" term was introduced into scientific circulation in 1998 by the English scientist in the field of branding S. Anholt, defining it as "the sum of people's perceptions of the country in the framework of six areas of state activity, such as: export, public administration, tourism, investment and immigration, culture and heritage, population". [1] Anholt (2004) and Fan (2009) consider the national brand as part of the national strategy for creating a positive image of the country.

National brand of the country is a powerful factor determining its international status, influence, political and economic opportunities, as well as internal and external stability and competitiveness. It should be noted that Development strategy of the new Uzbekistan 2030 highlights the task of strengthening the international image of country for its stable and future development.

In order form the country image strategy of Uzbekistan, it is necessary to identify the priorities of the national campaign for national branding, the key goal of which is to improve the image of Uzbekistan with the help of marketing tools. Based on this, **the priority tasks of national branding to promote the image of our country are:**

- strengthening national identity and improving the perception of the people of the country regarding their origin: a sense of pride and patriotism that we are Uzbeks;

- increasing the competitive advantages of the country: leading, competitive industries and domestic producers of goods and services;
- promotion of political and economic interests both within the country and abroad: maintaining political reforms as well as attracting tourists, foreign investments, skilled labor-force, scientists, innovations, stimulating the export of domestic producers, and others;
- improving image of the country: the formation and improvement of a positive perception of the country through the implementation of key areas of the target image strategy.

As part of the ongoing political reforms, the policy of national branding is becoming even more relevant and requires the implementation of certain measures to improve the country's reputation and strengthen its position on the world stage.

The national brand of Uzbekistan is a state brand that is formed on the basis of educational potential, cultural traditions, natural resources, geographical and climatic conditions, historical values, sights, as well as numerous regional brands - unique cities and regions, domestic goods and services, people (ancestors - Amir Temur, Avicenna, Mirzo Ulugbek, al-Beruni, al-Bukhari, Farabi, etc.; historical cities, pearls of Uzbekistan - Bukhara, Khiva, Samarkand; valleys unique in nature - Ferghana, Andijan, Namangan; historical and resurgent Uzbek fashion, the brands "Saadi", "Zulfiya Sulton", "Suzane by Kasimbayeva", "DildoraKasimova" and others; "Uzbek silk, khan-atlas", "Uzbek cotton", "Bukhara karakul"; rice, navvat, honey, melon, dried fruits, carpets, knives, porcelain and ceramics, gold embroidery and jewelry, miniature, national ornaments, unique musical instruments, extraordinary national cuisine, leading domestic industries – heavy and light metallurgy, oil and gas products, textile industry and others).

Today, the main task in the field of national branding and country image-making is coordinated actions to promote the national brand of Uzbekistan, which should be aimed at correcting the existing negative stereotypes about the country and its image in the mass consciousness of potential foreign target audiences.

It should be noted that the undoubtedly competitive advantages of the national brand of Uzbekistan are large number of archaeological and historical monuments, architectural and natural objects (in particular, those associated with the Great Silk Road), a convenient geographical location, good natural and climatic conditions, recreational resources, national cuisine, local folklore and traditional craftsmanship that attract the main flows to the country of foreign tourists and migrants.

The image of the state and the brand of the country are broadcast in the channels of communication through the elements of communication. The communication elements of the state brand are:

- symbols : national symbols (state flag, coat of arms, anthem), colors (of the Uzbek flag), national sights, historical monuments (Ark, Mokhi-Khosa, Kalyan Minaret, Ichon-Kala, Registan, minarets, madrasahs, bazaars, etc.), holidays (Navruz, Hayit), celebrations (national weddings), traditions and customs (nikah, beshik tui, chimildik, etc.) symbols created by designers in the course of national branding (identities, logos, slogans, for example, "Oriental fairy", "The eastern tale", "Uzbekistan - the Heart of Central Asia/Asia". "Soul of East" and others);

- persons: politicians, public figures, athletes and other country representatives.

- national export goods : energy carriers and oil products, which account for the bulk of the country's exports; cotton, gold, uranium ore, mineral fertilizers, metals, textile and food industry products, cars, and others can become communication element of the country;

- image campaigns : campaigns carried in connection with special events in the field of politics, culture and sports, sponsorship of cultural and sports events, and others.

A positive image of Uzbekistan is one of the key tools for accelerated socio-economic development and would result into increased foreign investment and tourism, innovation, the

influx of qualified personnel into priority sectors of the economy, science and culture development as well as expanding markets for domestic goods and services. A favorable image of the country will contribute to the successful solution of multiple political, economic and social problems, which is especially important in the current conditions of economic modernization and integration processes. This determines the relevance of systematic efforts to improve and actively promote the image of Uzbekistan in the world community. But the formation of a positive image of the country is only possible through an active branding policy, successfully chosen attributes and effective communication channels. This complex process, first of all, requires solution of existing problems in the legislative, social, economic, political spheres. There is increasing necessity to work on the following issues identified:

- improving the investment attractiveness of the country; since an indicator of a country's business image is its investment attractiveness, it is necessary to analyze the attractiveness factors and determine ways to improve them. These factors include GDP, personal and business security, political stability, ongoing reforms, the degree of economy openness, the gray economy, corruption, bureaucracy, political, economic and trade barriers, the size of external debt, freedom of currency convertibility, repatriation of profits, inflation and others.

- increasing competitiveness of domestic producers of goods and services; It is necessary to introduce innovations, develop scientific and technical projects, create and develop new industrial zones, technoparks and technopolises, as well as implement targeted marketing strategy for the creation and promotion of domestic brands within the country and abroad.

- improvement of infrastructure; comprehensive work is needed to modernize the energy, irrigation and drainage infrastructures, in particular, the construction of electricity, gas, water supply and sewerage networks, the development of transport and road infrastructure, the improvement of the residential areas social and industrial infrastructure among others.

- improvement of country legislative base; it is necessary to improve insurance, investment, economic law to attract foreign investors and partners to the national economy.

- improving the perception of the country by its own people; otherwise, it is almost impossible to achieve a positive perception of the country's image by others, as opinion about the country is primarily born through the perception of the people of the country.

- work with country's people mentality; this factor supplementing the previous one plays a key role in the formation of a positive image, for "rebranding" the prevailing stereotypes about the country. The basis of the Uzbek mentality is adherence to family foundations and traditions, reverent attitude to their customs, passing them on from generation to generation; honoring and caring for the elders and the younger; procreation, industriousness, hospitality, friendliness, simplicity and others. Extensive work should be carried to distance from "medieval" traditions, which are still dominating among the majority of population. These medieval traditions have a negative impact on the perception of the identity and, subsequently negatively affects the image of the whole country. It is necessary to increase (1) the literacy level of the population, (2) their spiritual and (3) cultural development and take other measures in this direction.

- improvement of the ecological state of the country; This issue requires closer attention as it is becoming increasingly relevant in the context of increasing environmental catastrophes and disasters, the development of progressive production and its negative impact on the environmental situation in the world. The requirements for the ecologization of production, the development of a "green economy" and the preservation of the planet for future generations are becoming more stringent.

In conclusion, we want to note once again that the reputation of the country has a direct impact and a significant role in the economic, political, social and cultural progress of the

country and its perception by the world economy. It is necessary to develop and implement a comprehensive national branding strategy, formulate key goals, define tasks, actively promote the country's brand, if necessary, with the involvement of world experts and professional structures for the implementation of PR projects.

Bibliography:

1. Anholt, S. *Branding places and nations*. In: R. Clifton, J. Simmons (eds) *Brands and branding*. New Jersey" Bloomberg press; 213 – 226 (2004).
2. Anholt, S. *Nation-brands of the twenty-first century*. *J Brand Manag* 5, 395–406 (1998).
3. Anholt, S. *Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions*. Basingstoke [England: Palgrave Macmillan], (2007). Print.
4. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated February 7, 2017 No. UP-4947
5. Fan, Y. *Branding the nation: Towards a better understanding*. Place Brand Public Dipl 6, 97–103 (2010).

КОРХОНАЛАРНИ БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВЛАР ТАҲЛИЛИ

**Бауетдинов Мажит Жанызақович -
Тошкент давлат иқтисодиёт
университети доценти**

Ҳозирда жаҳон иқтисодиётида рўй бераётган янги технологияларнинг ривожланиши ҳамда товарлар, хизматлар, ишчи кучи бозорларидағи рақобатнинг кучайиши корхоналарда инновацион жараёнларни стратегик бошқариш тизимини фаоллаштириш ва уни янада самарали ташкил этишга қаратилмоқда. Айниқса, мамлакат иқтисодиётини таркибан янгилаш, фан сифимкорлиги юқори бўлган устувор соҳаларни ривожлантириш, миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш устувор вазифалардан бирига айланиб бормоқда. Бу эса, аҳолининг тез ўсиб, ўзгариб бораётган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш, сўнгги кашфиёт ишланмалари ва технологияларини ишлаб чиқаришга татбиқ этиш, рақобатдош маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва товарларининг ҳаётийлик даврини барқарор ўсиб боришини таъминловчи замонавий усулларни кенг кўламда фойдаланишни тақозо этмоқда.

Натижада бозор ислоҳотларининг босқичма-босқич амалга оширилиши миллий корхоналарнинг иқтисодий тараққиётини моддий ресурслар асосида эмас, балки инновацион шаклда, рақобат муҳитини шакллантириш орқали амалга оширилишини заруратга айлантирмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон фармони Ҳаракатлар стратегиясининг давоми сифатида иқтисодиётни ривожлантириш ва либераллаштиришнинг устувор йўналишлари алоҳида муҳим ўрин эгаллайди. Таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш ҳисобига иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишда минтақада ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришни рағбатлантириш сиёсатини давом эттириш, аввало истеъмол товарлар ва бутловчи буюмлар импортининг ўрнини босиш, тармоқлараро саноат кооперациясини кенгайтириш дастурининг энг аҳамиятли вазифалари қаторидан ўрин олган [1].

Ҳозирги кунда республикамиз корхоналарини бошқариш самарадорлигини

ошириш уларни технологик янгилаш жараёнларини яхшилаш билан бир қаторда, инновацион жараёнларни стратегик бошқариш, рақобат мұхитини шакллантиришни давом эттирилишини тақозо этмоқда. Бу эса, ҳозирги иқтисодиётнинг барча соқаларида глобаллашув жараёнларининг жадаллашуви, мамлакатлар иқтисодиётининг интеграциялашуви ҳамда товарлар бозорида рақобатнинг кескинлашуви шароитида янада долзарб масалага айланмоқда.

Инновациялар - корхоналарнинг иқтисодий самарадорлигини таъминлаш зарурати ва воситаси ҳисобланади. Инновацион жараёнлар - харажатларни тежаш ёки бундай тежаш учун шароит яратилишини таъминловчи янги маҳсулот ёки хизмат, ишлаб чиқариш услуги, ташкилий, бошқарув, молиявий, илмий тадқиқот ва бошқа соқалардаги янгиликлар [2].

Ўзбекистонда олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотлар мамлакатда ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига асосланган демократик жамият қуришга қаратилган жараёнларни тезлаштириш, тез суръатлар билан ривожланаётган турли мулкчиликка асосланган корхоналарда инновацион жараёнларни ривожлантириш ҳисобланади [3].

Таҳлилларимиз шуни кўрсатадики, корхоналарда инновацион жараёнларнинг ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш миллий иқтисодиётнинг рақобатчилик мұхитини вужудга келишини таъминлайди. Натижада иқтисодиётдаги таркибий ўзгаришларнинг мазмуни нафақат бойитилади, балки ижтимоий-иқтисодий нуқтаи назардан самарали бўлган хўжалик юритиш фаолияти, тармоқ ва соқаларнинг кенг ҳамда ҳар томонлама ривожланиши учун замин яратилади.

Ривожланган мамлакатлар тажрибасидан маълумки, ихтиёрий давлатда ишлаб чиқарилаётган товар ва хизматларнинг рақобатбардошлиги ўша давлатда яратилган қулай ишбилармонлик ва бизнес мұхитига боғлиқ бўлади.

Дунё мамлакатларининг “Глобал рақобатбардошлиқ” тўғрисидаги ҳисботидаги маълумотларига кўра, Швейцария 2015 йилдан 5 йил мобайнида “Глобал рақобатбардошлиқ” тўғрисидаги рейтингда 1-ўринни эгаллаб келмоқда. Рейтингнинг биринчи учлигидаги мамлакатлар олдинги йилга нисбатан ўз ҳолатларини ўзгартирган. Рейтингда Швейцария (1), Сингапур (2) ва Финляндия (3) ўринларни эгаллашган [4].

Шуни таъкидлаш жоизки, мазкур биринчи ўнликка кирган мамлакатларда инновация ва кучли институционал мұхит даражаси кейинги беш йилда сезиларли равишда яхшиланган.

Олиб борилган тадқиқотларнинг кўрсатишича, корхоналарда инновацион жараёнларни стратегик бошқаришда қуйидаги асосий муаммоларга эътибор қаратиш лозим:

- биринчидан, мамлакатимиз бир қатор фундаментал фан соқаларида катта салоҳиятга эга, аммо ушбу салоҳиятни ишлаб чиқариш билан боғланган ҳолда ишга солиши механизми яратилмаган;
- иккинчидан, реал сектор корхоналарнинг инновацияларни қабул қилиш жараёнини паст даражада қолаётганлиги корхоналарда илғор технологияларга бўлган талабнинг сустлашишига олиб келмоқда
- учинчидан, қулай ишбилармонлик ва бизнес мұхитини яратиш борасида камчиликларнинг мавжудлиги корхоналар рақобатбардошлигини оширишга салбий таъсири кўрсатмоқда.

Маълумотлар шу нарсани кўрсатмоқдаки, айрим корхона менежерлари ҳозиргача миллий ва жаҳон бозорларида рўй берадиган ўзгаришларни олдиндан кўра билмаслиги, истеъмолчи талаби ва дидини ўрганмаслиги, корхонанинг бошқариш мезонига нисбатан қайси йўналишда барқарор рақобатли устунликка эришиш имкониятларини аниқлай олмаслиги корхоналарнинг рақобат курашида

муваффақиятсизликка учрашига олиб келмоқда.

Бозор муносабатларига ўтиш корхоналар самарадорлиги учун тубдан қайта шаклланишлар жараёнининг бошланғич тамойили ҳисобланади. Кўплаб корхоналар бошқарувчиларнинг олдида турган асосий муаммоларидан бири бўлиб, айланма маблағларнинг етишмовчилиги ҳисобланади. Ҳар бир корхонанинг асосий мақсади, доимий тарзда фойда олишдан иборатдир. Бироқ, бозор шароитларида бошқарувчилар корхона фаолиятига салбий таъсир кўрсатувчи бир қатор муаммоларга дуч келиши мумкин. Демак, корхона ўзининг асосий мақсадларини ҳал этишда унинг молиявий механизми қўйидаги масалаларни ҳал этиши зарур.

- Яқин келажакка мўлжалланган корхонанинг ривожланиш мақсадларига мос равища моддий манбаларнинг етарли ҳажмини таъминлаш. Ушбу масала белгиланган муддат бўйича зарурий молиявий манбалар ҳажмини белгилаш ҳамда ички манбалар ва ташқи ҳамкорлар ҳисобига молиявий манбаларни максимал даражада жалб этиш, шу билан бирга кредит молиявий воситаларни моҳирона бошқариш ва манбавий молиявий салоҳиятни шакллантиришни оптималлаштириш асосида амалга оширилади.

- Ташкилот фаолиятининг асосий йўналишлари учун мўлжалланган молия ҳажмини самарали сарф қилишни шакллантириш. Бунда молиявий манбаларни оптимал тақсимлаш корхона ривожланиш мақсадлари учун фойдаланишда зарурий мосликни (пропорционалликни) яратишни тақозо этади. Корхонанинг ишлаб чиқариш жараёнида унинг ривожланишининг стратегик мақсадлари ўрганилиши ҳамда молиявий қўйилмаларидан олинадиган фойда даражаси тадқиқ этилиши лозим.

- Молия айланмасини меъёрлаштириш. Ушбу вазифа корхонанинг молия оқимларини самарали бошқариш, турли муддат давомида пул маблағларини жалб қилиниши ва ўтказилиши ўртасидаги мосликни таъминлаш ҳамда корхонанинг айланма активларини зарурий даражда қўллаб-қувватлаш орқали амалга оширилади. Бундай молиявий оптималлаштиришнинг натижаси, моддий активларнинг ўртacha қолдиғини минималлаштириш ҳисобланади ва бу ҳолат эса молияларни носамарадор тақсимлаш ва инфляция асосида содир бўлувчи йўқотишларни камайишини таъминлайди.

- Мавжуд бўлган молиявий таваккалчилик шароитида корхона фойдасини максималлаштиришини таъминлаш, бу ҳолат эса самарадор бошқарув фаолияти, молия айланмасига кохоналар активлари ва кредит- молиявий воситаларни жалб қилиш ҳамда корхона фаолиятида юқори самарадор йўналишларни танлаш орқали амалга оширилади. Иқтисодий ривожланиш учун корхона самарадор солиқ, амортизацион ва дивиденд сиёсатини олиб бориш асосида соф фойдани оширишга интилиши зарур. Корхона фойдасини максималлаштиришга молиявий таваккалчилик даражасини сезиларли даражасини ошириш орқали эришилади.

- Фойданинг режалаштирилган ҳажмига мос равища молиявий таваккалчилик даражасини пасайтириш. Агарда корхонанинг даромади даражаси аввалдан режалаштирилган бўлса, у ҳолда ушбу фойдани олишни кафолатловчи молиявий таваккалчиликни минималлаштириш муҳим вазифа ҳисобланади. Бу ҳолатга амалий (операцион) ва молиявий фаолиятнинг турли кўринишларидан ҳамда молиявий инвестициялар пакетидан фойдаланиш орқали эришиш мумкин.

- Корхонанинг ривожланиш жараёнида муқим молиявий тенгликка эришиш. Муқим молиявий ривожланиш молиявий барқарорлик ҳамда корхона фаолиятининг ҳар бир босқичида тўлов қобилиятининг юқори кўрсаткичлари билан ифодаланади. Бу ҳолат моддий воситаларнинг оптимал тузилмасини яратиш ва ишлаб чиқариш талабларини ўз-ўзини молиялашнинг етарли даражасини таъминлайди.

Демак, юқоридаги мулоҳазалар корхоналар самарадорлигини ва рақобатдошлигини оширишнинг муҳим омили инновацион жараёнларни стратегик

бошқариш эканлигини кўрсатади. Чунки инновацион жараёнлар стратегияси рақобатчиларга нисбатан мазкур корхона салоҳияти ва кучини мустаҳкамлашга қаратилган, қўйилган мақсадларга эришишнинг ўзаро боғлиқ бўлган тадбирлар мажмуй ҳисобланади. Бу эса, корхона инновацион стратегиясини тўғри танлашга, маҳсулот рақобатдошлигини ошириш механизмларини самарали ташкил этишга, ишлаб чиқариш учун ички ва ташқи инвестицияларни жалб этиш имкониятларини юзага келтиради. Пировард натижада корхоналарнинг рақобатбардошлигини оширишга шароит яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Морозова Л. Э., Бортник О. А., Кравчук И. С. Экспертные методы и технологии комплексной оценки экономического и инновационного потенциала предприятий. Учебное пособие.: - М.: Альпина бизнес букс, 2009. – С.9.
3. Гаибназарова З.Т. Инновацион инвестициялаштириш самарадорлигини оширишнинг назарий асослари.: Иқтисод фанлари номзоди. дисс.автореф. – Т., 2012. – 28 б.
4. <http://gtmarket.ru>

MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING TUTGAN O'RNI

Bahodirov Shohruh -
SamDU Kattaqurg'on filiali
"Biznesni boshqarish" kafedrasi assistenti
Jaxonova Odina -
SamDU Kattaqurg'on filiali
Buxgalteriya hisobi 22_04-guruh talabasi

Barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik alohida ahamiyatga ega., chunki u yangi ish o'rınlarini yaratishni, byudjetga qo'shimcha daromadlar olib kirishni ta'minlaydi. Hozirgi davrda butun jahon iqtisodiyotini kichik biznessiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotini rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni katta. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi mahalliy mintaqaning o'ziga xususiyatlari bilan bog'liq. Ijtimoiy, demografik va mintaqadagi resurslarning mavjudligi biznesning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlashda ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi mustaqillik yillaridan to hozirgi kungacha ma'lum bosqichlarni bosib o'tgan. Bu borada bir qancha me'yoriy hujjalilar, huquqiy asoslar yaratilgan.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 29-maqсадада, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va doimiy daromad manbasini shakllantirishga sharoitlar yaratish, tadbirkorlikning YaIMdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini ochish va biznes-inkubatorlat tizimini rivojlantirish, hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni kamaytirish kabi masalalar alohida belgilab qo'yilgan.

Jahoning barcha mamlakatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning poydevori hisoblanadi. Kichik biznes rivojlanishining iqtisodiy ahamiyatlaridan biri by mamlakat YAIMini miqdor jihatdan ko'payishini ta'minlashdan iborat.

1-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanish bosqichlari

| Bosqich | Yillar | Tegishli me'yoriy hujjatlar |
|---------|------------------------------|--|
| I | 1992-1995 | “O’zbekiston Respublikasida kichik korxonalar to’g’risidagi Nizom” (Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 26-fevraldagji 85-sonli qaroriga 2-sonli ilova) |
| II | 1995-1998 | O’zbekiston Respublikasining “ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag’batlantirish to’g’risida”gi Qonuni (1995-yil 21- dekabr) |
| III | 1998-2003 | O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Xususiy tadbirkorlik, kichik va o’rta biznesni rivojlantirishni yanada rag’batlantirish bo’yicha chora va tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni (1998-yil 9- aprel) |
| IV | 2003-2011 | O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ Kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlariga tegishli bo’lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Qarori (2003-yil 11- oktyabr) |
| V | 2011-2019 | O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ Kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlariga tegishli bo’lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasiga o’zgartirishlar kiritish to’g’risida”gi Qarori (2013-yil 14-iyun), O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O’zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi (2014-yil 7- apreldagi PF-4609-sonli Farmoni) Qarori (2014-yil 3-iyul), O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi (2017-yil 7-fevraldagji PF-4947-sonli Farmoni) |
| VI | 2020-2022 keyingi davrlar | O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Koronavirus pandemiysi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo’yicha birinchi navbatda chora-tadbirlari to’g’risida”gi (2020-yil 19- martdagji PF-5969-sonli Farmoni), O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Koronavirus pandemiysi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo’llab-quvvatlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi (2020-yil 3- apreldagi PF-5978-sonli Farmoni). O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Tadbirkorlar bilan 2022-yildagi “Ochiq muloqoti”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi (2022-yil 30-avgustdagji PQ-364-sonli Qarori) O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish bo’yicha davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari to’g’risida”gi PF-29-son Farmoni |

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanishi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi , 2021-yilda 54,9 foizni tashkil etdi.

2-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi ulushi

| Ko’rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|----------------|------|------|------|------|------|------|
| YaIM | 65,3 | 62,4 | 56,0 | 55,7 | 54,9 | 51,8 |
| Sanoat | 41,2 | 37,4 | 25,8 | 27,9 | 27,0 | 25,9 |
| Qurilish | 64,8 | 73,2 | 75,8 | 72,5 | 72,4 | 71,6 |
| Bandlik | 78,0 | 76,3 | 76,2 | 74,5 | 74,4 | 74,4 |
| Eksport | 22,0 | 27,2 | 27,0 | 20,5 | 22,3 | 29,5 |
| Import | 53,6 | 56,2 | 61,6 | 51,7 | 48,7 | 49,4 |

Haqiqatdan ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ichki bozorni mahalliy tovar va xizmatlar bilan to'ldirayotgan, katta korxonalarini detallar va qismlar bilan ta'minlayotgan va mamlakat eksport salohiyatini oshirayotgan sohaga aylanib bormoqda. Buni mamlakat eksport salohiyatidagi o'rnni oshib borayotganidan ham ko'rish mumkin. Kichik biznesning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi o'rni asta-sekin oshib bormoqda. Kichik biznes mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarida ham eng muhim sohaga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, ovqatlanish, mehmonxona va turizm faoliaylarida kichik biznesning salmog'i juda katta. Keyingi vaqtarda sanoat tarmoqlarida modernizatsiya, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan o'zgartirish, sanoatda tarkibiy o'zgartirishlar va diversifikatsiyani amalga oshirilishi natijasida qishloq joylarida ham sanoat tarmoqlari rivojlanmoqda. Sanoat ishlab chiqarishda ham kichik biznesning o'rni yildan-yilga o'sib bormoqda. Kichik biznesni sanoat tarmoqlaridan oziq-ovqat sanoatida, qayta ishslash sanoatida, yengil sanoatda ulushi yuqori.

3-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi

| Ko'rsatkichlar | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|--|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Sanoat (mlrd so'm) | 61367,8 | 87962,0 | 83344,2 | 103020,8 | 121719,2 | 142611,7 |
| Qurilish (mlrd so'm) | 22469,4 | 37451,7 | 53960,9 | 63866,6 | 77762,0 | 93620,8 |
| Bandlik (ming kishi) | 10541,5 | 10128,8 | 19318,9 | 9865,7 | 10070,7 | 10222,9 |
| Eksport (mln AQSH dollar) | 2759,3 | 3810,8 | 4714,8 | 3100,9 | 3711,2 | 5696,2 |
| Import (mln AQSH dollar) | 7511,9 | 10916,2 | 14972,2 | 10943,3 | 12389,0 | 15154,1 |
| Savdo (mlrd so'm) | 92973,0 | 114896,4 | 138920,7 | 164106,1 | 204787,4 | 253573,4 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd so'm) | 152010,5 | 191759,2 | 219466,9 | 253238,2 | 307280,2 | 347222,0 |
| Xizmatlar (mlrd so'm) | 69212,7 | 84433,4 | 103106,6 | 114052,7 | 144812,7 | 173157,7 |
| Yuk tashish (mln tonna) | 548,8 | 611,7 | 641,0 | 638,9 | 678,9 | 588,1 |
| Yuk aylanmasi (mln tonna km) | 10444,4 | 11657,7 | 12152,3 | 12304,6 | 13108,1 | 14394,9 |
| Yo'lovchi tashish (mln yo'lovchi) | 5037,5 | 5242,6 | 5345,0 | 4904,8 | 5237,6 | 5606,0 |
| Yo'lovchi aylanmasi (mln pass km) | 111435,0 | 115335,2 | 117412,7 | 107766,7 | 114681,5 | 123882,5 |

Oxirgi yigirma yil mobaynida ba'zi ko'rsatkichlarda 5-10 barobar, ayrimlarida esa 200-300 barobar o'sish bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, sanoat, qurilish, savdo, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida juda katta ijobjiy o'zgarishlar tadbirkorlarning faollashuvi kuzatilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichi. 2022-yil yanvar-mart oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes sub'yektlari soni 2021-yilning mos davriga nisbatan 2835 taga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoatda - 1367 taga, savdoda - 693 taga, qurilishda - 517 taga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda - 178 taga kamayganligini ko'rish mumkin. Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes sub'ektlari Toshkent shahrida (20,3 %), Toshkent (9,5 %), Samarqanda (9,0 %), Farg'onada (8,6 %) va

Andijon (7,7 %) viloyatlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes sub'ektlari soning 50 foizdan ortig'ifaoliyat yuritmoqda. Hududlarda kichik biznesning YaIMdagi eng katta ulushini Surxandaryo (75,8 %), Jizzax (75,5%) va Buxoro (72%) viloyatlarida, eng kam ulushini Navoiy (23,5 %) viloyatida kuzatildi. 2022-yilning yanvar-mart oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 13,4 birlikni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardan iborat :

- Korxonalar yiriklashuvi tendensiyasining pasayishi;
- Yirik ishlab chiqarishda xodimlarning qisqarishi;
- Yangi korxonalarни ochish sur'atining ortishi va boshqalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni mamlakatimizda qo'llab quvvatlash asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borilyapti :

- mamlakatimiz va uning mintaqalarida yanada qulay biznes muhit yaratish, xususiy mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlash ;

- kichik korxonalar tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tartib- qoidalarini yanada soddalashtirish ;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar bo'yicha yanada qulay sharoitlar yaratish va imtiyozlar berish ;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar berish mexanizmini yanada takomillashtirish, ularning hajmini oshirish ;

- kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan zarur qarorlar, qonunlar,farmonlar va shu kabi huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular hayotga tatbiq etilmoqda. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish maqsadida ikkita fond: tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni rivijlantirishga ko'maklashish fondlari tashkil etildi. Tadbirkorlar uchun 2023-yil 1- yanvardan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi amaldagi 15 foizdan 12 foziga tushirilishi, 2022-yil 1-iyuldan boshlab bo'sh bino va foydalanimayotgan yer uchastkasiga nisbatan soliqlarning oshirilgan stavkalarini qo'llash bekor qilinib, tadbirkorlarning shu tarzda ilgari oshirib hisoblangan 2 trillion so'mlik qarzlaridan voz kechilishi ma'lum qilindi.

Xulosa qilib aytganda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda ko'plab qulay imkoniyatlar yaratilmoqda va bu orqali tadbirkorlik faoliyatini endigma boshlaganlar uchun ham moddiy ham ma'naviy yordam bo'lyapti desa ham bo'ladi. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun qulay moliyalashtirish tizimini yaratilishiga qaratilgan moliyaviy resurslar ajratilishi misol uchun kichik biznes loyihalariiga 20 trillion so'm yo'naltirilib, bunga qo'shimcha tarzda tijorat banklariga xalqaro moliya institutlaridan han mablag'lar jalb etilishi yaqqol misol bo'la oladi.

Adabiyotlar:

1. <https://www.unwto.org>
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"* gi farmoni. 28.01.2022 yil.
3. knoema.ru [Мировой атлас данных] маълумотлари асосида тайёрланди.
4. <https://russian.doingbusiness.org/ru/rankings>
5. *O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida tayyorlandi*

МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА КҮЧМАС МУЛК ДЕВЕЛОПМЕНТИНИНГ АҲАМИЯТИ

Бекмуратова Сарбиназ Маратовна -

***Қорақалпоқ давлат университети,
Архитектура кафедраси стажёр-үқитувчи***

Ҳар қандай давлатнинг муҳим вазифаси бу инвестиция механизмларини такомиллаштиришdir, айниқса, мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда алоҳида ўринни эгаллаган кўчмас мулк бозори алоҳида аҳамият касб этади. Кўчмас мулк бозори иқтисодиётнинг анъанавий соҳаси ва шу билан бирга энг динамик ривожланаётган инвестиция бозорининг бир қисми ҳисобланади, чунки ундаги ҳар қандай жараён доимо инвестиция мазмунига эга[1]. Кўчмас мулк обьектларига эгалик қилиш, улардан фойдаланиш ва уларни тасарруф этишга қизиқиш ортиб бормоқда, кўчмас мулк саноати эса доимий трансформацияда одатий молиялаштириш, қурилиш ва сотиш усулларини ўзgartирмоқда.

Охиригина йилларда давлатимиз томонидан тадбиркорлар ва мулкдорларга яратилиб бериләётган имкониятлар натижасида кўчмас мулк бозорида мамлакатимизда нисбатан янги йўналиш – девелоперлар пайдо бўлди.

Миллий бозор учун “кўчмас мулк девелопменти” атамаси янгилигига қарамай, инвестицион-қурилиш жараёнларида бу атаманинг тобора кўпроқ ишлатилишига гувоҳ бўлиш мумкин. Иқтисодиётнинг хусусан қурилиш бозорининг ривожланиш суръатларининг ўсиши шароитида кўчмас-мулк девелопменти ва девелоперлик фаолиятини ўрганиш долзарб ва зарурдир. Шу билан бирга қурилиш фаолиятининг янги турдаги тадбиркорлик соҳаси сифатида ривожланиши, кўчмас-мулк бозори структурасига тўғридан-тўғри боғлиқ равишда содир бўлмоқда. Кўчмас мулк бевосита давлат бошқаруви остида бўлган буйруқбозлиқ иқтисодиёти давридан фарқли ўлароқ, бозор иқтисодиёти шароитида кўчмас-мулкнинг катта улуши хусусийлаштирилди. Бу кўчмас-мулк секторини ўзига хос хусусиятларига эга иқтисодиётнинг етакчи тармоқларидан бирига айлантириди.

Кўчмас мулк бозорининг ривожланиш тенденцияларини ва бу соҳадаги инвестицион фаолиятни ўрганишнинг долзарб йўналишларидан бири кўчмас мулк девелопментидир[1]. Девелопмент атамаси инглиз тилидан “to develop” сўзидан олинган бўлиб, таржима қилганда “ривожланмоқ, кенгаймоқ, тараққий этмоқ” маъноларини билдиради. Мамлакатимизда девелопмент бу-қурилиш, инвестиция, кўчмас мулк ва тадбиркорлик фаолиятлари кесишган нуқтада пайдо бўлаётган бизнеснинг нисбатан янги йўналишидир. Яъни, у кўчмас мулк обьектини яратиш, реконструкция қилиш ёки мавжуд бино ёки ерни яхшилаш орқали уларнинг қийматининг ошишига олиб келувчи тадбиркорлик фаолияти [4]. Шунга кўра, девелопер -бу кўчмас мулк обьектларини яратиш ва унга мос жараёнларни ташкил этиш билан шуғулланадиган ташкилот. Қоида тариқасида, девелопер барча босқичларда, лойиҳалашдан то сотиш ва эксплуатация бошқичларигача биноларни яратиш жараёнига бошчилик қиласи.

Девелоперлик лойиҳасини амалга ошириш жараёнида, девелопер иккита асосий вазифани ҳал қилиши керак [2]:

- бозорда керакли вақтда ва керакли жойда инвестицион жозибадор кўчмас мулк обьектини яратиш ва уни таклиф қилиш;

- кўчмас мулк обьектини минимал харажатлар ва мақбул вақтда яратиш.

Девелоперлик фаолияти мураккаб, кўп ўлчовли ва тадбиркорликнинг бошқа соҳалари – қурилиш ва инвестиция фаолияти билан чамбарчас боғлиқдир.

Инвестицион қурилишни лойиҳалашда девелопмент тизимини жорий этиш қўйидагиларга имкон беради: биринчидан, ҳар қандай лойиҳани ишлаб чиқиш ва амалга ошириш вақтини 7-15% га (қурилиш ишлари босқичини 10-15%) камайтиради; иккинчидан, харажатларни 5-15% га (мехнат сифимини камайтириш орқали 5-15%, қурилиш нархини камайтириш 10-20% ва эксплуатация харажатлари 15-20%) камайтиради [3].

Девелоперлик лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва уни амалга оширишнинг хусусиятлари ва муаммоли масалалари қўйидагилар[4]:

1) Капиталнинг юқори сифимлилиги:

- лойиҳалар катта инвестицияларни талаб қиласди (масалан, The fDi Report 2019 ҳисоботига кўра ўртача қурилишда битта Green Filed лойиҳасини амалга ошириш тахминан 100 млн.долларлик инвестиция талаб қиласди, IT соҳасида эса - 13 млн.доллар);

- ташқи молиялаштиришни жалб қилиш зарурати;

- девелоперлик лойиҳаси якуний маҳсулотининг юқори нархи;

- лойиҳанинг ўзини қоплаш муддатининг узоқлиги.

2) Лойиҳаларнинг узоқ муддатлилиги ва уларни амалга ошириш учун назорат қилиш зарурати:

- ташқи муҳитдаги ўзгаришларни (талаб, таклиф, объектлар муҳити) ҳисобга олиш зарурати;

- режалаштириш ва прогнозлаш ролини ошириш;

- вақтни бошқариш, вақтни режалаштириш зарурати;

- юқори хавф ва лойиҳа рискларини бошқариш зарурати.

3) Инвестиция объектларининг паст ликвидлилиги:

- бозорда тайёр кўчмас мулкни сотищдаги қийинчиликлар;

- девелоперлик лойиҳасидан чиқиш қийинлиги.

4) Кўчмас мулк объектларининг маҳаллий хусусиятлари:

- жойлашувнинг умумий лойиҳага таъсири ва унинг нархи;

- лойиҳа муваффақиятининг минтақавий хусусиятлари ва худуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши;

5) Ҳар бир девелоперлик лойиҳасининг ўзига хослиги:

- стандарт ечимлар ва стандарт лойиҳаларнинг чекланган имкониятлари;

- лойиҳаларнинг инновацион хусусияти.

6) Лойиҳаларнинг мураккаблиги ва қўп сонли иштирокчиларни жалб қилиши:

- шаҳарсозлик, архитектура, техника ва иқтисодий жиҳатдан жараённинг техник мураккаблиги;

- қурилиш мажмуасининг имкониятларига ва шаҳарсозликни тартиба солишнинг ташқи шароитларга боғлиқлиги;

- тўлиқ бўлмаган ва эскирган маълумотни олиш сабабли бозорда шаффофликнинг йўқлиги;

- лойиҳага кўп сонли иштирокчиларни жалб қилиш ва уларнинг фаолиятини мувофиқлаштириш зарурати;

- лойиҳани тасдиқлашнинг мураккаб тартиблари;

Бундан ташқари, мамлакатимиз кўчмас мулк бозорида фаолият юритувчи девелопер компаниялари дуч келадиган масалалар асосан қўйидагиларни ўз ичига олади:

- ✓ маҳсус девелоперлик қонунчилигининг йўқлиги;

- ✓ ер участкаларини олиш муаммолари ва ҳукуқларни рўйхатдан ўтказишнинг узоқ муддати;

- ✓ инфратузилма билан таъминланган худудларда бўш ер участкаларининг етишмаслиги;
- ✓ девелоперлик майдончасини инфратузилма билан таъминлаш харажатларининг ўсиши;
- ✓ лойиҳани амалга оширишнинг узоқ муддати туфайли бозорнинг ўзгарувчанлиги ва прогнозлашдаги қийинчиликлар;

Инвестицион жозибадорликни ва бозор қийматини ошириш мақсадида девелопмент-кўчмас мулк обьектларининг иқтисодий, хукуқий ва жисмоний жараёнларини сифатли бирлаштириш асосида кўчмас мулк бозорини ривожлантириш функциясини бажаради. Шундан келиб чиқсан ҳолда айтиш мумкини, мамалакатимизда кўчмас мулк бозорида девелоперлик фаолиятини янада чуқурроқ ўрганиш ва бу соҳада илмий тадқиқотлар олиб бориш талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абдуханова Н.Г., Ибрагимова А.Ф., Галимова Д.Р. Социально-экономическая эффективность реализации девелоперских проектов // Российское предпринимательство - 2017г. №23
2. Абдуханова Н.Г., Мухаметвалеева Р.Р. Девелопмент в инвестиционно-строительном комплексе // Российское предпр
3. Filin S. A., Marushkina V. A. Specifics of evaluating the efficiency of development investment projects. National Interests: Priorities and Security. 2017. Vol. 13, no. 11. P. 2112-2131. DOI: 10.24891/ni.13.11.2112
4. Долгов М. А., Круглякова В. М., Девелопмент в строительстве как форма инвестиционной деятельности на рынке недвижимости. Вестник БГУ. Серия: Экономика и управление. 2020. № 4
5. Котляров М. А. Основы девелопмента недвижимости. М. : Юрайт, 2020.

MAMLAKATIMIZDA DON VA DON MAHSULOTLARI BOZORINING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLI

***Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li -
SamISI, "Marketing" kafedrasи assistenti***

Zamon rivojlanishi, insonlar ongingin kamol topishi oqibatida jamiyatda juda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'zgarishlarni amalga oshirish uchun esa tadqiqotlar olib borish kerak. Barcha sohalar kabi marketingni ham rivojlantirish, uning yangi sohalarini va imkoniyatlarini ochib berish uchun ham har bir korxona va tashkilot o'z ravnaqi uchun tadiqotlarni olib borishadi. Marketing tadqiqotlari korxonaning bugungi kundagi holati va kelajakdagi imkoniyatlarini belgilab olish maqsadida aniq reja va dasturga asoslangan tadqiqotlarni olib borish tizimidir [1].

Marketing tadqiqotlarini olib borish natijasida korxonaning yoki bozorning aniq iste'molchilarini aniqlash yoxud ularning xoxish istaklarini belgilab olinadi. Bunda korxona mahsulotlarining aniq iste'mol bozoriga yo'naltirilganligi namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, bugungi kunda mamlakat aholisining soni oshib borishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni 2 yoki 3 martaga oshiradi. Zero, xalqimiz don va don mahsulotlarini qadrlaydilar, ularni ko'zlariga surtadilar. Xalqimiz dasturxoning asosiy oziq-ovqat mahsuloti ham dondir. Don - bu rizq-ro'zimiz hisoblandi. Donni yetishtirish, uni saqlash va qayta ishlash mustaqillik yillaridan mamlakatimizda sanoat darajasigacha ko'tarilgan. O'zbekistonda bugungi kungacha yetishtirilgan don mahsulotlari to'g'risida quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tanishishingiz mumkin:

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida barcha toifaladagi xo'jaliklarda 2012-2022 yillar davomida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari to'g'risida (ming tonna)

| Nº | Mahsulot turi | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|-------------|--|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| 1 | Don va dukkakli don ekinlari - jami | 7519,5 | 7807,8 | 8050,5 | 8173,5 | 8261,3 | 7288,5 | 6535,5 | 7437,8 | 7636,0 | 7634,6 | 7994,9 |
| 1.2 | bug'doy | 6612,2 | 6842,0 | 6956,0 | 6964,7 | 6934,9 | 6079,2 | 5410,8 | 6093,5 | 6157,8 | 5984,8 | 6191,0 |
| 1.3 | arpa | 141,4 | 135,8 | 139,6 | 151,6 | 167,4 | 134,3 | 111,8 | 133,5 | 161,5 | 95,8 | x |
| 1.4 | javdar | - | - | - | - | - | - | 0,7 | 0,8 | 5,2 | 3,8 | x |
| 1.5 | makka- jo'xori | 328,1 | 360,1 | 411,6 | 439,6 | 491,9 | 389,4 | 413,2 | 421,3 | 475,3 | 590,0 | 624,3 |
| 1.6 | oq jo'xori | - | - | - | - | - | - | 21,1 | 14,7 | 19,0 | 22,1 | x |
| 1.7 | tariq | - | - | - | - | - | - | 54,5 | 104,3 | 99,1 | 99,8 | x |
| 1.8 | suli | - | - | - | - | - | - | 1,3 | 1,7 | 1,9 | 53,7 | x |
| 1.9 | marjumak | - | - | - | - | - | - | 0,1 | 0,6 | 0,02 | 0,2 | x |
| 1.10 | sholi | 325,7 | 340,2 | 356,1 | 425,7 | 452,0 | 395,4 | 221,1 | 314,7 | 293,5 | 334,2 | 346,3 |
| 1.11 | dukkakli don ekinlari | 46,7 | 62,4 | 70,7 | 76,4 | 98,4 | 212,5 | 260,0 | 339,6 | 401,6 | 439,8 | 501,4 |
| 1.12 | no'xat | - | - | - | - | - | - | 37,5 | 34,2 | 23,9 | 29,7 | x |
| 1.13 | loviya | - | - | - | - | - | - | 65,1 | 72,2 | 77,3 | 73,7 | x |
| 1.14 | yasmiq | - | - | - | - | - | - | - | 2,1 | 0,01 | 0,2 | x |

Manba. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentili ma'lumotlari.
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari asosida shuni aytish mumkinki, don mahsulotlari bozorning o'sishi yildan-yilga o'sib bormoqda. Bu esa, aholi sonining o'sishi, mamlakatimizga kirib keluvchi aholining ko'payishi omillarini taqazo etadi. Bu omillarning o'sib borishi don mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishini bildiradi. Soha vakillariga esa, yanada kuchliroq sifatlari xom ashyo va tovarlar bilan bozorlarni to'ldirish va iste'molini ta'minlash kabi vazifalarni zimmasiga yuklaydi.

Ayniqsa, bozorning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilishda marketing xizmati bo'limi, bo'limda faoliyat olib borayotgan marketolog xodimlarning o'rni, xodimlarning marketing tahlillarini bajarishdagi o'rni ham beqiyosdir.

Bozorni tadqiq qilishda yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlarini tahlil qilish asnosida bozorning kelgusidagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga va bilishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda don mahsulotlari tarkibiga kiruvchi bug'doyning kelgusi yillardagi o'zgarish tendensiyasini MS EXCEL dasturi orqali kelgusi yillardagi prognoz parametrlarini ishlab chiqamiz.


2-jadval

**Mamlakatimizda 2012-2022 yillar davomida yetishtirilayotgan
bug'doy hajmi (tonna) [2]**

| Yillar | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|---------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| bug'doy | 6612,2 | 6842,0 | 6956,0 | 6964,7 | 6934,9 | 6079,2 | 5410,8 | 6093,5 | 6157,8 | 5984,8 | 6191,0 |

2012-2022 yillar davomida yetishtirilayotgan bug'doyning hajmi deyarli bir xil tendensiya asosida rivojlangan. Ushbu tendensiyasini kelgusi yillardagi o'sish yoki kamayish holatini ko'rib chiqsak.

**2012-2022 yetishtirilgan bug'doy va uning 2023-2025 yillar
oralig'ida prognoz holati**



Yuqorida keltirilgan diagramma asosida shu ma'lum bo'ldiki, 2023-2025 yillar davomida yetishtiladigan bug'doy hajmi, prognoz parametrlari keltirilgan. Ushbu prognoz quyidagi funksiya orqali amalga oshirildi [3]:

$$y = 0,2895x^6 - 11,21x^5 + 167,25x^4 - 1194,6x^3 + 4109,2x^2 - 6103,5x + 9679,9$$

Ushbu funksiya orqali keyingi yillar uchun prognoz parametrlarini ishlab chiqishda foydalanildi. 2022 yil yakuni bo'yicha 6191,0 tonna bug'doy yetishtirilgan bo'lsa, 2023 yil so'nggiga kelib bu ko'rsatkich 7025,5 tonnani tashkil qilishi bashorat qilindi. Bu esa, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan korxonalar zimmasiga ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, mahsulotlar hajmini to'g'ri taqsimlash, marketing imkoniyatlaridan to'g'ri foydalangan holatda maqsadli bozorlarni egallash, xorijiy bozorlarga tovar va mahsulotlari bilan kirib boorish kabi vazifalarni yuklaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mamlakat ikitisosdiyotida sanoat tovarlarining ulushi oshirishm, sanoat tovarlari uchun xomashyoni maqsadli va maqbul yetkazib berish hamda ta'minlash bilan bog'liq ishlarni bajarish, ishlab chiqarish korxonalari tarkibiy tuzilmasini mukammallashtirish, tarkibiy tuzilma bo'limlar faoliyatini tizimlashtirish va avtomatlashtirish, bo'lim xodimlarining malaka va ko'nikmalarini oshirish bugungi kundagi dolzarb va muhim masala hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, qayta ishlangan axborotlarning o'ziga xosligini o'rgangan va tahlil qilgan holatda quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Don va don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish, uning imkoniyatlarini oshirib boorish;
- Korxonalar ishlab chiqarish quvvatini yetishtiriladigan bug'doy prognozlariga mos qilib texnik va texnologik ko'rikdan o'tkazish;
- Don va don mahsulotlarini, ayniqsa, bug'doyni aholining o'sib borishi bilan uni yetishtirish ko'lagini ham oshirish;
- Bug'doyni yetishtirishda marketing tadqiqotlarini olib boorish asosida aholi ehtiyojlari hamda import hajmini o'rgangan holda bajarish;
- 2023 yil so'nggiga kelib, 7025,5 tonna bug'doyni yetishtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va ochiq bozor mexanizmlari orqali sotishni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

1. Рольбина Е.С. Маркетинговые исследования, сегментация, позиционирование: учебное пособие / Е.С. Рольбина. – Казань: Изд-во КГФЭИ, 2011. – 244 с.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОХИЯТИ

***Валижонов Акмал Рахимович -
Ўзбекистон Республикаси
Давлат активларини бошқариш агентлиги
Тадқиқотлар маркази бўлим мудири, и.ф.н.***

Мустақиллик йилларида давлат мулкини ва корхоналарини хусусийлаштириш бўйича салмоқли ишлар амалга оширилди. Шу билан бирга бир қатор йирик хўжалик жамиятларида давлат улуши ҳамда иқтисодиётда давлат унитар корхоналарининг иштироки юқори даражада сақланиб қолмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 9-марта қабул қилинган “Давлат мулкини бошқариш тўғрисида”ги Қонунида давлат иштирокидаги корхона тушунчасига ҳуқуқий таъриф берилди. Ушбу таърифга мувофиқ давлат иштирокидаги корхона сифатида устав фондидаги (устав капиталидаги) давлат улуши миқдори эллик фоиздан ортиқ бўлган хўжалик жамияти ёхуд устав фондидаги (устав капиталидаги) давлат улуши миқдори хўжалик жамиятининг бошқа ҳар бир акциядори (иштирокчиси) улушига нисбатан кўп бўлган хўжалик жамияти, шунингдек давлат унитар корхонаси тушунилади. Демак, давлат иштирокидаги корхона ташкилий-ҳуқуқий шакли бўйича хўжалик жамияти ёки давлат унитар корхонаси сифатида ташкил этилган бўлади. Хўжалик жамияти ўз навбатида акциядорлик жамияти ёки масъулияти чекланган жамият шаклида бўлади.

Хусусийлаштириш ва давлат корхоналарини ислоҳ қилишга доир қабул қилинаётган Ўзбекистон Республикаси Президентининг ва ҳукуматининг бир қатор қарорларида “корхоналарни трансформация қилиш” ибораси қўлланилмоқда. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 октябрдаги “Давлат иштирокидаги корхоналарни ислоҳ қилишни жадаллаштириш ҳамда давлат активларини хусусийлаштиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6096 сонли Фармони билан трансформация қилинадиган йирик давлат корхоналари ва хўжалик бирлашмалари рўйхати тасдиқланган. Ушбу рўйхатга 32 та давлат иштирокидаги корхоналар киритилган бўлиб, улардан 22 таси хўжалик жамиятлари ва 10 таси давлат унитар корхоналари ҳисобланади.

Корхонани трансформация қилиш тушунчаси янгидан қўлланилаётгани боис амалдаги қонунчилигимизда ушбу тушунчага ҳуқуқий таъриф берилмаган. Иқтисодий адабиётларда трансформация тушунчасига таърифлар келтирилган. Трансформация бу иқтисодий фаолиятнинг таркиби, шакли, усуслари ва йўналишини ўзгартириш [1]. Иқтисодий жараёнларда трансформация тушунчасини талқин этишда иқтисодий-ижтимоий муносабатларни ўзгартириш, либерализация, мулк шаклини ўзгариши каби иборалардан фойдаланадилар [2].

Юқоридагиларни инобатга олиб давлат иштирокидаги корхонани трансформация қилиш тушунчасини қуидаги таърифлаш мумкин: давлат иштирокидаги корхонани трансформация қилиш бу уни бозор тамойиллари ва механизmlари асосида фаолият юритишига ўтказиш, унинг самарали ташкилий тузилмаси ва бошқарув тизимини яратиш, корхонанинг ички ҳамда ташқи бозорларда рақобатдошлигини таъминлаш ҳамда хусусийлаштиришга тайёрлаш бўйича амалга ошириладиган чора-тадбирлар йиғиндисидир.

Давлат иштирокидаги корхонани трансформация қилишнинг асосий вазифалари қуидагилар бўлиши мумкин:

-ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ва кўрсатилаётган хизматларнинг ички ва ташқи бозорларда рақобатдошлигини таъминлаш;

-молиявий ҳисбботларнинг ҳалқаро стандартларини жорий этиш;

-операцион ва бизнес жараёнлар самарадорлигини ошириш;

-замонавий бошқарувни, шу жумладан барча томонлар манфаатларини таъминлашни назарда тутувчи корпоратив бошқарув тизимини ривожлантириш;

-корхонанинг инвестицион жозибадорлигини ошириш;

-давлат унитар корхонасини хўжалик жамиятига ўзгартириш;

-хўжалик жамиятларида давлат улушларини хусусийлаштириш йўли билан уларда самарали мулқдорларни шакллантириш;

-давлатнинг корхона фаолиятига аралашуви чеклаш;

рақобат ривожланган соҳаларда давлат иштирокидаги корхоналарни хусусийлаштириш орқали давлатнинг иқтисодиётдаги иштирокини қисқартириш.

Бизнинг фикримизча трансформация қилиниши керак бўлган давлат иштирокидаги корхоналарнинг асосий жиҳатлари сифатида қўйидагиларни кўрсатиб ўтиш мумкин:

устав фондида давлат улушининг юқорилиги;

товар бозорларида устун мавқега эга эканлиги;

айримлари табиий монополия субъекти эканлиги (“Ўзбекистон темир йўллари” АЖ, “Ўзтрансгаз” АЖ, “Ўзбекистон миллий электр тармоқлари” АЖ ва бошқлар);

таркибида шўъба ташкилотларнинг кўплиги.

Давлат унитар корхонасини трансформаци қилишда биринчи навбатда уни хўжалик жамиятига айлантириб қайта ташкил этиш масаласини кўриб чиқиши лозим. Хўжалик жамиятлари корхоналарнинг бошқа ташкилий-хуқуқий шаклларига нисбатан бир қатор афзалликларга эга. Масалан, акциядорлик жамиятларининг устиворликлари, бу уларда:

-акциялар чиқариш ва жойлаштириш орқали корхонага қўшимча маблағлар жалб килиш;

-акцияларга очиқ обуна ўтказган акциядорлик жамиятларида акциядорлар сонининг чекланмаганлиги, акциядорларнинг акцияларни бошқа шахсларга сотиш орқали акциядорлик жамиятидан эркин чиқиб кетиши ёки янги акциядорларнинг қабул қилиниши;

-акциядорларнинг жамият мажбуриятлари юзасидан жавобгарликлари чекланганлиги;

-бошқарув тизимининг бошқа ташкилий-хуқуқий шаклдаги корхоналарга нисбатан мукаммал тузилганлиги яъни бошқарувнинг жорий, умумий ва назорат қисмларига бўлинганлиги.

Хўжалик жамиятларининг кенг тарқалган тури, бу масъулияти чекланган жамиятлардир. Ўзбекистон Республикасининг «Масъулияти чекланган ва қўшимча масъулиятли жамиятлар тўғрисида»ги Қонунига асосан, бир ёки бир неча шахс томонидан таъсис этилган, устав фонди (устав капитали) таъсис ҳужжатлари билан белгиланган миқдорларда улушларга бўлинган хўжалик жамияти масъулияти чекланган жамият деб ҳисбланди. Масъулияти чекланган жамиятнинг иштирокчилари унинг мажбуриятлари бўйича жавобгар бўлмайдилар ва жамият фаолияти билан боғлиқ заарлар учун ўzlари қўшган ҳиссалар қиймати доирасида жавобгар бўладилар. Масъулияти чекланган жамиятлар иштирокчилари сони 50 тадан ошмаслиги лозим. Бундай жамиятларнинг устивор томонлари бу ташкил этилишига қўйилаётган талабларнинг акциядорлик жамиятларига нисбатан содалиги, бошқарув бўйича қарорларини тезкор қабул қилиш имкониятлари, ҳар бир иштирокчининг бошқарувда қатнашиш хуқуқига эга эканлиги.

Трансформация қилиниши назарда тутилган корхонлар орасида йирик хўжалик бирлашмалари, жумладан “Ўзбекнефтегаз” АЖ, “Ўзавтосаноат” АЖ, “Ўзбекистон темир йўллари” АЖ, “Ўздонмаҳсулот” АЖ ва бошқа хўжалик бошқарув органлари ҳам мавжуд. Ушбу хўжалик бирлашмалари ўзлари фаолият кўрсатаётган тармоқларнинг асосини ташкил этади ва уларнинг таркибига бир қанча корхоналар киради. Хўжалик бирлашмаларини қайта таркиблаш, хўжалик бирлашмаси томонидан унинг таркибига кирувчи корхоналарни бошқариш ва улар ўртасидаги корпоратив муносабатларни бозор механизмлари орқали тартибга солишини жорий этиш масалаларини ҳал этиш ҳам уларни трансформация қилишда муҳим аҳамиятга эга.

Умуман олганда, давлати иштирокидаги корхоналарни трансформация қилиш жараёнларини муваффақиятли амалга оширилиши миллий иқтисодиётни бозор тамойиллари асосида барқарор ривожланишига катта ҳисса қўшади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М.: «ИНФРА-М», 1997. – 496 с.
2. Хузина Г.Г. Сущность трансформационного процесса в экономической системе// Проблемы современной экономики, №4(36), 2010. с.61-65.

ПРИМЕНЕНИЕ BIG DATE В АНАЛИЗЕ СОСТОЯНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРОМЫШЛЕННОЙ СФЕРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

***Жанызакова Шахноза Мажит кизи -
Магистрант НИЯУ МИФИ***

Большие данные – это термин, описывающий большой объем структурированных и неструктурированных данных, которые потенциально могут быть использованы для получения информации. В нем представлена новая технологическая парадигма для данных, которые создаются в огромных объемах и с высокой скоростью и поступают из различных источников. Большие данные предназначены для сбора, хранения, обмена, оценки и обработки информации, которая генерируется и распространяется людьми и оборудованием с использованием сетей и компьютерных технологий.

Проще говоря, большие данные – это концепция, описывающая наборы данных, размер превышает, которым можно управлять с помощью традиционных инструментов, это: растущее разнообразие, поступление в увеличивающихся объемах и с большей скоростью или высокая скорость, с которой данные принимаются и обрабатываются.

Поэтому в настоящее время большие данные (Big Date) проникли во все отрасли. Появление больших данных постоянно меняет сложившиеся привычки и образ жизни людей и постепенно меняет производственные модели производственных предприятий. Промышленное производство является одной из основных областей применения больших данных, и его можно описать как систему, состоящую из материалов, машин, методов, измерений и моделирования. Большие данные обеспечивают прозрачную инфраструктуру для производства, которая устраниет такие факторы неопределенности, как непостоянная производительность и доступность компонентов.

Существуют разные способы анализа наборов данных на основе инструментов статистики и информатики (например, машинного обучения). Хотя этот список не является исчерпывающим, он отражает наиболее распространенные взгляды в различных отраслях. При этом необходимо понимать, что исследователи постоянно

работают над разработкой новых методов и усовершенствованием существующих. Кроме того, некоторые из упомянутых методов могут подойти не только для больших данных, но и его также можно успешно применять к меньшим по объему массивов (например, А/В-тестирование, регрессионный анализ). Безусловно, чем более объемный и диверсифицируемый массив подвергается анализу, тем более точные и релевантные данные удается получить на выходе. Ниже приведены несколько методов анализа, которая каждая из этих категорий имеет мощную аналитическую ценность, также меняется в зависимости от сценария и типа данных.

1. Кластерный анализ cluster analysis

Действие по группировке набора элементов данных таким образом, чтобы указанные элементы были более похожи (в определенном смысле) друг на друга, чем на элементы в других группах - отсюда и термин «кластер». Поскольку при кластеризации нет целевой переменной, этот метод часто используется для поиска скрытых закономерностей в данных.

2. Когортный анализ Cohort analysis

Этот тип подхода к анализу данных использует исторические данные для изучения и сравнения определенного сегмента поведения пользователей, который затем может быть сгруппирован с другими с аналогичными характеристиками. Используя эту методологию, можно получить полное представление о потребностях потребителей или четкое понимание более широкой целевой группы.

3. Регрессионный анализ Regression analysis

Регрессия использует исторические данные, чтобы понять, как влияет на значение зависимой переменной, когда одна (линейная регрессия) или несколько независимых переменных (множественная регрессия) изменяются или остаются неизменными. Понимая взаимосвязь каждой переменной и то, как она развивалась в прошлом, вы можете предвидеть возможные результаты и принимать более эффективные решения в будущем.

4. Нейронные сети Neural networks

Нейронная сеть составляет основу интеллектуальных алгоритмов машинного обучения. Это форма аналитики, которая пытается с минимальным вмешательством понять, как человеческий мозг будет генерировать идеи и прогнозировать значения. Нейронные сети учатся на каждой транзакции данных, а это означает, что они развиваются и совершенствуются с течением времени. Типичная область применения нейронных сетей — прогнозная аналитика.

5. Факторный анализ Factor analysis

Факторный анализ, также называемый «уменьшением измерения», представляет собой тип анализа данных, используемый для описания изменчивости среди наблюдаемых коррелированных переменных с точки зрения потенциально меньшего числа ненаблюдаемых переменных, называемых факторами. Цель здесь состоит в том, чтобы выявить независимые скрытые переменные, что является идеальным методом оптимизации определенных сегментов.

6. Интеллектуальный анализ данных Data mining

Метод анализа данных, который является общим термином для инженерных показателей и идей для получения дополнительной ценности, направления и контекста. Используя исследовательскую статистическую оценку, интеллектуальный анализ данных направлен на выявление зависимостей, отношений, закономерностей и тенденций для получения передовых знаний.

7. Анализ временных рядов Time series analysis

Как следует из названия, анализ временных рядов используется для анализа набора точек данных, собранных за определенный период времени.

8. Деревья решений Decision Trees

Анализ дерева решений призван служить вспомогательным инструментом для принятия разумных и стратегических решений. Деревья решений полезны для анализа количественных данных и позволяют улучшить процесс принятия решений, помогая выявлять возможности для улучшения, снижать затраты и повышать операционную эффективность и производительность.

В отрасли природных ресурсов большие данные позволяют использовать прогнозное моделирование для поддержки решений, которые позволяют отслеживать и оценивать большие объемы данных из геопространственных данных, графических данных, текстовых и временных данных.

Большие данные могут помочь производителям получить конкурентное преимущество, помогая им повысить эффективность своей цепочки поставок. Это может включать в себя определение лучших источников материалов, которые являются более рентабельными, надежными или более качественными, улучшение и повышение эффективности производственных процессов. Поскольку многие отрасли зависят от доступа к природным ресурсам, таким как нефть, газ, металлы, полезные ископаемые и сельскохозяйственная продукция, большие данные могут помочь этим производителям определить наилучший способ доступа к этим материалам, удовлетворяя их потребности в качестве, эффективности и стоимости.

Программное обеспечение для анализа больших данных помогает анализировать модели рисков, поддерживать рабочие процессы, улучшать качество процессов, производства и т.д. Решения для работы с большими данными анализируют, собирают и отслеживают большие объемы неструктурированных и структурированных данных, генерируемых из различных источников, таких как производственная единица, качество продукции и т.д. Технология больших данных помогает выявлять новые наблюдения и дает полезную информацию. Технология помогает преобразовать производственные мощности в высокоавтоматизированные и измерительные электростанции. Технология больших данных функций открывает новую эру для производства, поскольку она способна задействовать процессы, данные и людей. Ожидается, что растущий технологический прогресс станет хорошим предзнаменованием для больших данных в обрабатывающей промышленности. В обрабатывающей промышленности данные попадают в течение длительного процесса технического обслуживания или с использованием передовых технологических устройств, таких как датчики, радиочастотная идентификация и т.д. Эти собранные данные требуют ресурсов и анализируют сгенерированные данные с помощью датчиков и других устройств. Более того, большие данные обрабатывающей промышленности обеспечивают полную автоматизацию операций. Также используют большие данные, чтобы гарантировать, что их меры безопасности находятся на должном уровне.

Исходя из нашей страны, такие технологии и программы больших данных в промышленной сфере не применяются, т.е. эти программные обеспечения еще не внесли в нашу страну. Но несмотря на это, можем привести анализ состояния экономической безопасности промышленной сферы Республики Узбекистан по нашим статистическим сайтам.

В настоящее время экономическая безопасность оказывает особое влияние не только на все государство, но и на каждую территорию или отдельного человека. Нестабильность и кризис в экономике могут иметь негативные последствия для каждой области, семьи или отдельного человека. В этой ситуации становится актуальным вопрос внедрения механизмов, обеспечивающих регулярное улучшение экономики нашей страны, тщательного определения задач, связанных с устойчивым экономическим развитием.

Проблемы экономической безопасности являются относительно новыми в Узбекистане и во многих зарубежных экономиках. Они стали актуальны в последние годы, и многие зарубежные ученые изучают их в своих работах.

По предварительным данным, в 2021 году предприятиями Республики Узбекистан произведено промышленной продукции на 456 трлн. сум, и по сравнению с 2020 годом индекс физического объема промышленного производства составил 108,7 процент.

Наибольшая доля в структуре промышленного производства соответствовала промышленному вкладу, и его доля в общем объеме промышленного производства составила 83,0 процента.

По данным Госкомстата Республики Узбекистан, показывают темпы роста примерно в 20 отраслях в структуре обрабатывающей промышленности. Среди отраслей, добившихся высоких темпов роста, можно выделить такие отрасли, как производство основных фармацевтических продуктов и препаратов – 44,5%, производство компьютеров, электронных и оптических изделий – 38,4%, производство изделий из дерева и пробки (кроме мебели), производство изделий из материалов для пошива одежды и ткачество – 29,2%, публикация и отражение письменных материалов – 27,8%, ремонт и установка машин и оборудования – 22%.^[6]

Последовательная реализация мер по повышению промышленного потенциала регионов проявляется в регулярном росте промышленного производства в большинстве регионов республики. В частности, в 2021 году регионами с высокими темпами роста промышленного производства стали Сырдарьинская область – 18,5 процента, Наманганская область – 18,2 процента и Хорезмская область – 17,2 процента. Самые низкие темпы роста наблюдались в Бухарской области – 1 процент. А со стороны Андижанской области наблюдалось снижение показателя промышленного производства.

Список использованных источников

1. Радченко И.А, Николаев И.Н. Технологии и инфраструктура Big Data: Учебное пособие - Санкт-Петербург: Университет ИТМО, 2018. - 55 с. - экз.
2. Макшанов, Журавлев, Тындыкарь: Большие данные. Big Data. Учебник для вузов. Издательство: Лань, 2022 г.
3. Подробнее: <https://www.labirint.ru/books/795543/>
4. Крутиков В.К. и др. Экономическая безопасность / Учебно-методическое пособие. – Калуга: ИП Стрельцов И.А., 2017. – 196 с.
5. Алимова Г.А. Экономическая безопасность – неотъемлемая часть региональной стабильности государства // Электронный научный журнал «Экономика и инновационные технологии». № 1, январь-февраль, 2016 г. – С. 3-7
6. www.stat.uz

XORIJIY INVESTITSIYALARING MILLIY IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

**Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi -
Toshkent Moliya instituti o'qituvchisi**

Investision faoliyatda erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng va atroficha tahlili, shu asosdagi muhim amaliy xulosalar, kelgusida e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan eng dolzarb masalalar orasida mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari va rivojlanish dasturlarini belgilashda, albatta, asosiy e'tibor xorijiy investisiyalarga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, xorij kapitali, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalg etish investisiyalashda eng samarali vosita hisoblanadi. Aynan xorijiy investisiyalar mamlakatda iqtisodiy va texnologik jarayonini harakatlantiruvchi omili bo'lib xizmat qiladi. Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalg qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to'g'risida xabardor qilish, xorijiy investisiyalarni jalg etish va o'zlashtirish sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi PQ-4300 sonli "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalg qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.[1]

Investitsiya jarayoniga o'tish, ustuvor investitsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mexanizm, uslublar yig'indisi hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosatini amalgam oshirishda ko'proq ustuvorlik kichik biznes subyektlari, xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tuzishga hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, muammolarni tezkorlik bilan hal yetish va shu asnoda investitsiya ishtirokchilarining erkin harakat qila olishlari uchun qulay iqtisodiy, investitsion muhit yaratishga qaratilgan.

Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxona investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bog'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfa'tlarini hisobga olgan holda samarali ishlatishtga imkon beruvchi hududda olib boriladigan chora-tadbirlar majmui. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlarga aylandi.

Ta'kidlash lozimki, mamlakatda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarini jalg etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloq qilish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartiblarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko'lamli chora tadbirlar amalga oshirildi. Soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq siyosati va bojxona-tarif jihatdan tartibga solish islohotlari jadal sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda. [2]

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarini jalg qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtadan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini a rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarini, ko'proq, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalg qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Investitsiya muhitini yaxshilash sohasida asosiy qadam xususiy va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarini jalg qilish bo'yicha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan say-harakatlar orqali to'liq va samarali institutsional asosni shakllantirish bo'lishi lozim. Xususiy investitsiyalarini faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash

maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish, sohalarni raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va cheklovlarini to'liq bartaraf etish, shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovleri bilan ishslashni tashkil etish, xorijiy investitsiyalarni O'zbekistonning istiqbolli sohalariga yo'naltirish eng muhim omillardan hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ularning iqtisodiy yuksalishida faol investitsiya siyosati markaziy o'rinni egallashini tasdiqlaydi. Shu bois O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlari uning investitsiya siyosatida to'liq aks ettirilishini taqozo etadi. [3]

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'grisida", "Investitsiya faoliyati to'grisida"gi Qonunlar va boshqa qonun hujjatlari uning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi.

Mulkchilikning turli shakllari tarkib topishi investitsiyalarning rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. Mulkchilikning turli shakllarining vujudga kelishi munosabati bilan kapitalning sohalardagi o'zgaruvchanligi, uning oqimi, hududlarga taqsimlanishi tezlashdi.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mult huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora - tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. [4]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jahon amaliyoti va tajribasidan kelib chiqib, biznesning investisiya va innovasion faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya'ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me'yorlarni nashr etish bilan hal qilishning imkoniy yo'q. Xususiy investisiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faol ish olib borish orqali xorijiy investisiyalar oqimini ko'paytirish mumkin.

Birinchidan, iqtisodiy o'sishning bir maromdagи yuqori va barqaror sur'atlarini saqlab qolish uchun mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirish zarur.

Ikkinchidan, investisiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investisiyalarining jadal o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investisiyaviy faoliyatni rag'batlantirish ham faol tarzda olib borish.

Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investisiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlar va cheklovlarini to'liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlar optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovleri bilan ishslashni tashkil etish sifati yaxshilash.

To'rtinchidan, ish kuchi va kapitalning iqtisodiyotning qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarakatlarining kamaytirish.

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo'lgan O'zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo'naltirilgan investisiya siyosati strategiyasi ishlab chiqish. Investisiya muhiti mamlakatdagi barcha faoliyat sohalariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko'lami iqtisodiy, institusional, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, energetika, transport va boshqa yo'nalishlarni qamrab oladi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4300 sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4300 sonli qarori.
3. "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo'ljallangan Investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PK-4937-sun.
4. "Innovatsiya: iqtisod va fan" iqtisodiy ilmiy-amaliy oylik nashr., T.: 2020yil.

ПОСТ- COVID ДАВРИДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИ ВА ГЛОБАЛ ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ

**Исаджанов Абдували Абдурахимович -
Ўзбекистон халқаро ислом академияси,
и.ф.д., профессор в.б.**

Атроф муҳитни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, ресурс кўп ишлатадиган иқтисодиётдан тараққиётнинг инновацион моделига ўтиш ҳисобга олинган ҳолда барқарор иқтисодий ривожланиши таъминлаш кўп жиҳатдан XXI асрда ҳар қандай давлатни иқтисодий ва ижтимоий ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаб беради. БМТга аъзо барча давлатлар томонидан бир овоздан қабул қилинган Барқарор тараққиёт мақсадлари ҳам ривожланган, ҳам ривожланаётган мамлакатлар аҳолисининг эҳтиёжларини қондиришга қаратилган. Якуний кун тартиби барқарор тараққиётнинг барча учта хусусиятини – ижтимоий, иқтисодий ва экологик тараққиётни, шунингдек тинчлик ва адолат масалаларини ўз ичига олади.

Жаҳон ҳамжамияти бир вақтнинг ўзида инсониятнинг омон қолишига таҳдид соладиган бир қатор ўзаро боғлиқ инқизорларга дуч келмоқда. 2030 йилгача Барқарор ривожланиш кун тартибини амалга ошириш кўплаб ва бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлган инқизорлар туфайли жиддий таҳдид остидалиги таъкидланмоқда. Мавжуд таҳдидлар орасида COVID-19 оқибатлари ва иқлим ўзгариши биринчи ўринни эгалламоқда. Ушбу инқизорларнинг ҳар бири ва уларнинг мураккаб ўзаро таъсири барча Барқарор ривожланиш мақсадларига таъсир қилмоқда. Пандемия қашшоқликни тугатиш йўлидаги тўрт йилдан ортиқ давом этган тараққиётни бекор қилди. 2020 йилда пандемия қўшимча 93 миллион одамни ўта қашшоқликка олиб келди.

XXI асрнинг дастлабки йигирма йиллигига (2001–2020) глобал ҳарорат 1850–1900 йилларга нисбатан 0,99 [0,84–1,10] °C иссиқроқ эди. 1970 йилдан бери глобал ҳарорат камида охирги 2000 йилдаги бошқа 50 йиллик даврга қараганда тезроқ кўтарилиди [1]. Маълумки, Париж келишуви глобал иссиқхона газлари эмиссиясини 2025 йилгача чўққисига чиқишини ва кейин 2030 йилга келиб 43 фоизга камайишини ва 2050 йилга келиб нол эмиссияга тушишини талаб қиласди. Бунинг ўрнига, иқлим ўзгариши бўйича мавжуд ихтиёрий миллий мажбуриятларга мувофиқ, 2030 йилга келиб иссиқхона газлари чиқиндилари деярли 14 фоизга ошади. СО₂ эмиссияси 2021 йилда 6 фоизга ошди, глобал ҳарорат кўтарилишда давом этмоқда, бу эса кўпроқ экстремал об-ҳаво ҳодисаларига олиб келиши мумкин [2].

Глобал миқёсда 2021 йилда иқтисодий фаоллик ва энергия талаби 2019 йил даражасидан ошади (мос равишда +1,3% ва +0,4%) ва 2021 йилда CO₂ чиқиндиларининг ўсиши +5,9% ни ташкил қиласди [3].

Ўзбекистон иқтисодиёти ялпи ички маҳсулотнинг энергия ва углерод интенсивлиги бўйича дунёнинг етакчи ўнта давлати қаторига киради. 1990-2019 йилларда жаҳонда ЯИМ бирлигини ишлаб чиқариш учун энергия сарфи 0,170 кг н.э.дан 0,110 кг н.э. гача камайди., Ўзбекистонда бу кўрсаткич мос равишда аввалги 0,689 кг н.э. дан 0,150 кг н.э. гача камайган. Аммо, Ўзбекистонда ялпи ички маҳсулотнинг энергия сиғими ҳамон жаҳон ўртача даражасидан юқори [4].

Ўзбекистода 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифалар доирасида:

7-мақсад “Арzon, ишончли, барқарор ва замонавий энергия манбаларидан барча учунумумфойдаланиш имкониятини таъминлаш”;

13-мақсад “Иқлим ўзгариши ва унинг оқибатларига қарши кураш бўйича тезкор чораларни қабул қилиш”.

15-мақсад “Қуруқлик экотизимларини ҳимоялаш ва тиклаш, улардан оқилона фойдаланишга кўмаклашиш, ўрмонлардан оқилона фойдаланиш, чўлланишга қарши курашиш, ерларнинг емирилишини тўхтатиш ва ортга қайтариш, биохилмачилликнинг йўқолиб кетиши жараёнини тўхтатиш” белгиланган [5].

Марказий Осиё иқтисодиёти аллақачон иқлим ўзгариши оқибатларини бошдан кечирмоқда. Жаҳон банкининг Марказий Осиё бўйича директори Сарож Кумар Жа (Saroj Kumar Jha) Тожикистон, Туркманистон ва Қирғизистонда табиий оғатлардан келиб чиқадиган иқтисодий йўқотишлар йилига ЯИМнинг 0,4-1,3 фоизини ташкил этишини тахмин қилди. Қурғоқчиликнинг кучайиши озиқ-овқат хавфсизлиги ва қишлоқ жойларидаги одамларнинг ҳаёт сифатига таъсир кўрсатди. Масалан, 2000-йилда қурғоқчилик натижасида Тожикистон ва Ўзбекистонда 4,8% ҳосил ва чорва моллари нобуд бўлган, ялпи ички маҳсулотга эса 0,8% зарар етган. Қозогистонда 2008, 2010 ва 2012 йиллардаги қурғоқчиликнинг кучайиши буғдор етиширишда катта ўзгаришларга сабаб бўлди [6].

Марказий Осиё минтақавий иқтисодий ҳамкорлик дастури (CAPEC) 11 давлат, жумладан, Марказий Осиёнинг барча бешта мамлакати ҳамда алоқа, энергетика, савдо, туризм ва бошқа соҳаларда ҳамкорликни амалга оширади. CAPEC томонидан 37 млрд. АҚШ доллари миқдорида инвестиция амалга оширилган. 2020 йилда Европа Иттифоқи Марказий Осиёда барқарор туризм, қишлоқ хўжлиги, озиқ-овқат ва тўқимачилик саноатини ривожлантиришга қаратилган 14 млн. АҚШ долларлик SWITCH Asia grant дастурини ҳамда Марказий Осиёда Барқарор энергия алоқаси (CECCA) дастурини 8 миллион долларлик лойиҳаларни амалга оширмоқда [7].

Ушбу лойиҳаларни амалга ошириш, биринчилан, глобал иқлимга мослашув механизмини ривожлантириш кўп ҳолда қарор қабул қилишнинг адекват жараёнинг талаб қиласди – бунда узоқ муддатли режалаштириш ва бир қатор иқлим ва ижтимоий-иқтисодий сценарийларни кўриб чиқиши талаб этилади. Иккинчидан, мамлакатлар обҳавонинг ўзгарувчан ва экстремал шароитлари билан боғлиқ физик ва молиявий хавфларни камайтиришлари мумкин. Бунда аҳолининг ҳимояланмаган қатламларига алоҳида аҳамият бериш лозим. Суғурта ва ижтимоий ҳимоя каналларини кенгайтириб, шаҳар ва инфраструктура режалаштиришини қайта кўриб чиқиши лозим.

Учинчидан, экотизимларга ортиқча юк беришни олдини олиш учун мамлакатлар қишлоқ хўжалиги маҳсулдорлигини икки баравар оширишлари ва айни пайтда у билан боғлиқ атроф-муҳитга етадиган заарни камайтиришлари лозим. Бунинг учун иқлим ўзгаришига мослашувчан қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сортларини яратиш, қишлоқ жойларида кун кечиришнинг манбаларини диверсификациялаш, ўрмон ва балиқ

хўжаликлари бошқарувини такомиллаштириш ва информацион тизимларга маблағлар йўналтириш лозим.

Энергетика тизимларини фундаментал қайта ўзгартириш уларнинг энергия самарадорлигини ошириш, қайта тикланувчи энергияга жадал ўтиш иқлим ўзгариши оқибатларини олдини олишга ёрдам беради.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. *Synthesis report of the ipcc sixth assessment report (ar6) AR6 Synthesis Report: Climate Change 2023.* https://report.ipcc.ch/ar6syr/pdf/IPCC_AR6_SYR_SPM.pdf
2. Доклад о целях в области устойчивого развития, ООН. 2022 год. https://unstats.un.org/sdgs/report/2022/The-Sustainable-Development-Goals-Report-2022_Russian.pdf с. 8-14.
3. Глобальные энергетические тенденции. <https://russia.enerdata.net/publications/reports-presentations/world-energy-trends.html>
4. Вахабов А.В., Хожибакиев Ш.Х. Необходимость и приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане. <file:///C:/Users/Acer/Downloads/neobhodimost-i-prioritetnye-napravleniya-perehoda-k-zelenoy-ekonomike-v-uzbekistane.pdf>
5. “2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги Миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 октябрдаги 841-сон қарори” <http://lex.uz/docs/4013356>
6. The World Bank, “A Call for Climate Action in Central Asia: Gearing up for the Second Central Asia. <https://www.worldbank.org/en/news/opinion/2014/05/08/a-call-for-climate-action-in-central-asia-gearing-up-for-the-second-climate-knowledge-forum>
7. Financing Climate Actions in Central Asia. A Survey of International and Local Investments. The World Bank. 2020. <https://zoinet.org/wp-content/uploads/2020/10/CA-climate-finance-en.pdf>

ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎРНИ

Караев Мансур Юлдашевич -
Хусусийлаштириш ва давлат активларини
бошқариш муаммоларини тадқиқ этиш
маркази катта илмий ходими

Ўзбекистонда бозор ислоҳотларининг ривожланиши кўчмас ва кўчар мулкнинг ва уларга нисбатан хуқуқлар қийматини баҳолаш бўйича янги фаолият турининг шаклланишига олиб келди. Баҳолаш фаолияти иқтисодиётни ислоҳ қилиш ва хуқуқий давлат қуришнинг ажралмас қисмига айланди. Кўчмас мулк қийматини баҳолашнинг мақсад ва вазифаларини, усулларини мулк турларини баҳолашнинг ўзига хос хусусиятларини батафсил ўрганиш баҳолаш фаолиятини нафақат бозор инфратузилмасининг амалий тармоғи сифатида, балки амалий иқтисод фанининг илмий-услубий йўналиши сифатида тушуниш имконини беради.

Республикада кўчмас мулкни баҳолаш хизматларига бўлган талаб бозор иқтисодиётига ўтишнинг дастлабки кунлариданоқ пайдо бўлди. Давлат кўчмас мулкини хусусийлаштиришнинг кенгайиши, корхоналар устав сармоясига киритиладиган кўчмас мулкнинг кўпайиши, кўчмас мулкни гарови остида кредитлашнинг ривожланиши ва биринчи навбатда мулкдорлар синфини шакллантириш ҳамда ривожлантаришга йўналтирилган кўчмас мулк билан бажариладиган бошқа фуқаролик-хуқуқий операциялар баҳолаш тузулмаларининг мажбурий тарзда иштироки билан амалга оширилади [1].

Асосий ишлаб чиқариш воситаси ҳисобланадиган кўчмас мулкни ҳар доим олди-сотди, ўзлаштириш, фойдаланиш, эгалик қилиш ва тасарруф этиш объектлари тоифасига киритиш мумкин бўлган. Албатта, кўчмас мулк объектини мулкка ўтказиш

билан боғлиқ қарорни қабул қилишдан олдин, одатда, уни баҳолаш амалга оширилади.

Халқаро стандартларга мувофиқ, баҳолаш фаолияти дейилганда кўплаб объектларни муайян санадаги ягона усул ва мезонлардан фойдаланган ҳолда баҳолаш, шунингдек олинганд натижаларни статистик тадқиқ этиш ва таҳлил қилиш амалиёти тушунилади. Бундан кўзланган мақсад энг тўғри бозор нархини аниқлаш учун кўчмас мулк объектларининг ўртача статистик қийматини билиб олишдан иборат [2].

Ҳар бир давлат кўчмас мулкни баҳолаш жараёнини назорат қиласди. Бунинг учун алоҳида тизим яратилиб, уни шакллантиришда ва механизmlарини ишлаб чиқиша баҳоловчилар ҳам, ўзаро боғлиқ соҳалар мутахассислари ҳам иштирок этади.

Баҳолашнинг учта асосий ёндашуви мавжуд: харажатли, қиёсий ва даромадли.

Усулларнинг аксарияти айнан қиёсий ёндашув тамойилларига асосланади, яъни бунда бошланғич маълумот сифатида баҳоланаётган объектларга ўхшаш кўчмас мулк объектлари бўйича сотиш, талаб ёки таклиф нархларидан фойдаланилади [3].

Ҳозирги вақтда баҳолаш фаолиятида фойдаланиладиган асосий тушунчалар:

1) нарх – бу баҳоланаётган объектга ўхшаш хусусиятларга эга бўлган объектларни сотиб олиш учун қилиниши мумкин бўлган пул харажатлари миқдори;

2) харажатлар – баҳоланаётган объектни яратиш жараённида юзага келадиган чиқимлар;

3) қиймат – харидор томонидан ушбу объектга бўлган эгалик ҳуқуқининг унга ўтиши учун компенсация сифатида тўланадиган пул маблағлари миқдори.

Қиймат икки шаклда ифодаланиши мумкин:

- истеъмол қиймати (баҳоланган объектнинг хусусиятлари тўпламини унинг истеъмолчи учун фойдалилиги, мухимлиги нуқтаи назаридан тавсифлайди);

- алмашиб қиймати (объектнинг бошқа маҳсулотлар, хизматлар учун алмашадиган бўла олишини тавсифлайди).

Баҳолаш фаолиятини амалга оширишда қўлланиладиган асосий принципларга қуйидагиларни киритиш мумкин:

Фойдалилик принципи, унга кўра энг катта қиймат билан кўрсаткичлари кўчмас мулк объекти харидорининг эҳтиёжларига максимал даражада мос келадиган объектлар тавсифланади.

Алмаштириш принципи, унга кўра, агар бозорда бир нечта ўхшаш вариантлар мавжуд бўлса, харидорни кўпроқ энг паст нархли таклиф қизиқтиради.

Кутиш принципи, унга кўра харидор кўрадиган фойдани, шунингдек кўчмас мулкнинг харидор учун қулайлигини ва у оладиган даромадни ҳисобга олиш назарда тутилади.

Шунингдек, мувозанатлилик ва ҳисса принципларига ҳам тўхталиб ўтамиш.

Мувозанатлилик принципи шуни назарда тутадики, кўчмас мулк объекти учун истеъмол талаби нуқтаи назаридан муваффақиятга фақат объект истеъмолчиларнинг барча баҳолаш мезонлари бўйича минимал талабларини қондирган тақдирдагина эришиш мумкин.

Ҳисса принципи кўчмас мулк объектининг фойдалилиги (ва ўз навбатида унинг қиймати) ҳар бири ўз аҳамиятлилик коэффициентига эга бўлган омиллар тўплами билан аниқланишини назарда тутади.

Бундан ташқари бўлиш принципи ҳам мавжуд. Унинг моҳияти қуйидагича: кўчмас мулкнинг таркибий қисмлари, шунингдек унга бўлган ҳуқуқлар манфаатдор томонлар учун максимал фойда келтирадиган тарзда бўлиниши мумкин. Бўлиш қуйидаги жиҳатларда ўзини намоён бўлиши мумкин:

- мулк ҳуқуқлари бўйича;
- эгалик қилиш ҳуқуқлари бўйича [4].

Бозор иқтисодиётининг бошқа барча тармоқларида бўлгани каби, кўчмас мулк объектининг нархи ҳам объектга бўлган истеъмол бозоридаги мавжуд талаб

кўрсаткичларига бевосита боғлиқ. Аммо бу кўчмас мулкнинг қийматига таъсир қилувчи ягона омил эмас: бу ерда рақобат ҳам алоҳида аҳамиятга эга, айнан унинг натижасида сотувчилар потенциал харидорларнинг манфаатдорлигини таъминлаш учун тўғри нарх сиёсатини олиб боришга мажбур.

Ўтган йилларда амалга оширилган кўчмас мулк обьектларини баҳолаш фаолияти уни республика иқтисодиётини ислоҳ қилиш моделининг ўзига хос хусусиятлари ва хорижий мамлакатларда баҳолаш ишларининг кўп йиллик тажрибасини инобатга оловчи мустаҳкам услубий асосда ривожлантириш зарурлигини тақазо этади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алимов Р.Х., Беркинов Б.Б., Кравченко А.Н., Ходиев Б.Ю. Кўчмас мулкни баҳолаш: ўқув қўлланма/ С.С.Гуломов таҳрири остида. -Т: «Фан», 2005. -165 б.
2. Асаул А.Н. Оценка объектов недвижимости [Текст]: учебник / В.Н.Старинский, М.А.Асаул, Е.В.Грахова/ Под ред. А.Н.Асаула. -М.: Проспект. 2018. - 384 с.
3. Иванова Е.И. Оценка стоимости недвижимости [Текст]: учебник / Е.И.Иванова. - М.: Кнорус, 2021.-344 с.
4. Оценка недвижимости [Текст]: Учебник / Под ред. А.Г.Грязновой. М.А.Федотовой. - М.: Финансы и статистика, 2019. - 528 с.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАНЫ

Каюмов Равшан Исмаилович -
*Центр исследований Агентства по
управлению государственными активами
Республики Узбекистан, к.э.н.*

Общая политическая и экономическая нестабильность в мире и надвигающийся новый мировой финансово-экономический кризис ставят перед руководством всех стран ряд серьезных задач в части обеспечения социально-экономической безопасности, сохранения и усиления экономической самостоятельности. Поэтому исследования по определению путей дальнейшего развития своей страны приобретают особую актуальность для ученых, экономистов и специалистов других сфер. При этом, каждая такая страна должна определить свою стратегия поведения и разработать дорожную карту (программу) своего развития. Если говорить об Узбекистане, то в этой стране должна быть разработана конкретная и всесторонне обоснованная программа действий по экономическим преобразованиям, направленные на внедрение в хозяйственный механизм рыночных отношений и вхождению республики в международное сообщество на конкурентоспособной основе. Реализация этой задачи необходима коренная перестройка всех отраслей народного хозяйства, что, в свою очередь предполагает осуществление существенных инвестиционных вложений.

Решение данной задачи предполагает определение приоритетных направлений вложения средств и использование эффективных источников финансирования предполагаемых затрат. Это, в свою очередь, представляет собой инвестиционную политику, от эффективности которой зависит успех всех социально-экономических преобразований в стране. Поэтому разработка такой инвестиционной политики является объективной необходимостью и весьма актуальной в условиях мирового экономического кризиса.

Необходимо отметить, что инвестиционная политика понимается в широком и узком смысле. В широком смысле инвестиционная политика представляет собой комплекс последовательно осуществляемых мероприятий, которые включают в себя: формирование инвестиционной концепции на основе какой-либо идеи или системы идей, разработку стратегии реализации концепции, инвестиционную политику (в узком смысле), а также инвестиционную программу.

Инвестиционная концепция государства определяет ключевую идею и основные направления (сфера экономики, отрасли, сектора) преобразования экономики и должна разрабатываться на срок 20-25 лет. Концепция определяет приоритетность распределения инвестиционных ресурсов и определяет будущую структуру экономики страны, как в отраслевом разрезе, так и в территориальном. Причем идея должна заключаться в перенаправлении деятельности всех сфер экономики на развитие ключевых отраслей, которые, после своего становления, будут способствовать расширению остальных отраслей.

Инвестиционная стратегия – это система поэтапного достижения целей и задач инвестиционной концепции, а также выбор наиболее оптимальных путей их достижения. Необходимость разработки инвестиционной стратегии государства определяется изменениями условий внешней среды, т.к. эффективно управлять инвестициями возможно только при наличии гибкой стратегии, адаптированной к возможности изменениям факторов внешней среды.

Период формирования инвестиционной стратегии зависит: от возможностей прогнозирования состояния экономики (в среднем 10-15 лет); от отрасли – в сфере розничной торговли, услуг, производства потребительских товаров формирование стратегии короче (в среднем 3-5 лет), в добывающих отраслях (5-10 лет). Все эти высказанные основы и принципы являются общетеоретическими предпосылками инвестиционной концепции и стратегии любого государства, а сама же стратегия зависит от индивидуального государства, а именно его ресурсного потенциала, демографических факторов, географического расположения и т.д.

Инвестиционная стратегия обычно претворяется в жизнь в несколько этапов, которые реализуются через инвестиционную политику (в узком смысле). Другими словами, инвестиционная политика – это тактика воплощения стратегической политики. Она разрабатывается на период 3-5 лет в масштабах страны и от 1 до 3 лет в отраслях экономики. В отличие от стратегии, инвестиционная политика разрабатывается на основе детальных прогнозов и расчетов. Разработанная инвестиционная политика особенно государства, прежде своего воплощения, требует тщательной оценки, а именно обоснованности, которая проводится по следующим критериям: согласованность по целям, направлениям и этапам всей стратегии; внутренняя сбалансированность; согласованность с внешней средой; реализуемость политики с учетом имеющегося ресурсного потенциала (рассматривается возможность формировать и генерировать финансовые ресурсы за счет собственных источников, а также привлечение требуемых финансовых, технологических, сырьевых, энергетических ресурсов); приемлемость уровня риска связанного с реализацией политики; результативность инвестиционной политики, базирующаяся на определении экономической эффективности ее реализации.

За основу инвестиционной концепции нашей страны следует взять идею по диверсификации экономики. При этом диверсификация должна касаться как экономики в целом, так и каждую отрасль, каждое предприятие и каждый регион в частности. Другими словами, ставится задача по снижению зависимости страны от импорта, наиболее полного насыщения рынка за счет внутренних производителей, создание широкого ассортимента продукции для экспорта. При этом следует подчеркнуть, что диверсификация касается базовых отраслей и отраслей

производящих средства производства. Развитие последних, должно лечь в основу инвестиционной стратегии на данном этапе экономических реформ. Кроме того, предусмотрено дальнейшее кардинальное развитие химической, нефтяной промышленности и энергетики, а это основные отрасли, обеспечивающие ускорение научно-технического прогресса, от состояния которых зависит все экономическое развитие любой, даже развитой страны.

К сожалению, в Узбекистане инвестиционная политика сформулирована в рамках стратегии развития страны общих чертах на срок до 2030 года, а не как отдельный документ [1]. В системе планирования нет ориентированности на долгосрочные планы на уровне министерств и ведомств, а от предприятий требуется разработка годовых бизнес-планов. Возникшая напряженность между блоками развитых стран в мире обуславливает необходимость создания в Узбекистане основ экономической безопасности, что предполагает первоочередное развитие следующих стратегических отраслей экономики: машиностроение, топливно-энергетический комплекс, химическая промышленность, отрасль высоких технологий, цифровизация экономики. Развитие этих отраслей в республике создаст мощную базу для будущего экономического развития на основе рыночных отношений, позволит противостоять неопределенностям в мировой политике и экономике, а также давлению со стороны развитых стран (в первую очередь – США и стран Евросоюза).

Развитие машиностроения предполагает создание целого ряда станкостроительных производств. В решение данной задачи сложность представляет слабый уровень развитости черной металлургии в стране, низкое качество производимых ими изделий. На наш взгляд проблему можно решить путем модернизации черной металлургии, создания новых производств, основанных на современных технологиях, а также применения цветных металлов и композитных материалов в производстве станков.

Развитие топливно-энергетического комплекса подразумевает постепенный переход на не углеродные энергоносители. Для условий Узбекистана – это атомная энергетика, ветряные и солнечные электростанции. Как показывает практика, самым востребованным товаром в ближайшем будущем станет электроэнергия, а потому страна, располагающая этими ресурсами, будет иметь преимущества по сравнению с другими странами. Особого внимания заслуживают вопросы развития финансовых рынков Узбекистана: фондового, валютного и рынка производных финансовых инструментов, которые формируют финансовую и материальную основу функционирования отечественной экономики, являются источником роста экономики и индикатором уровня ее развитости.

В Узбекистане уровень развития финансового рынка в целом и в частности всех его сегментов является недостаточным для существования полноценной конкуренции как внутри сегментов финансового рынка, так и между самими сегментами внутри страны, а также для обеспечения конкурентоспособности экономики страны на мировом рынке.

В связи с этим предлагаются следующие меры совершенствования государственного регулирования конкуренции на финансовых рынках:

1. Разработать нормативно-правовой документ, который объединил бы в себе весь понятийный аппарат, раскрывающий сущность и структуру финансового рынка, а также государственные меры по защите конкуренции на рынке финансовых услуг,

2. На основе глубокого анализа современного состояния развития финансовых рынков обобщить факторы, сдерживающие их развитие.

3. Создать рынок производных финансовых инструментов, обслуживающий фондовый, валютный и товарный рынки, как самостоятельный сегмент финансового рынка.

4. Подготовить необходимую экономическую базу для внедрения системы мегарегулирования в республике.

5. Разработать и утвердить комплекс критерий для оценки состояния конкурентных отношений и эффективного выявления монополизма на финансовых рынках.

Развитие конкуренции на финансовых рынках может быть достигнуто посредством расширением прав и защитой интересов инвесторов (поставщиков финансовых ресурсов на финансовый рынок), финансовых посредников и других участников всех сегментов финансового рынка, путем создания равных условий для их деятельности. Именно в этом направлении необходимо осуществлять совершенствование законодательства Узбекистана. В первую очередь это относится к законодательству, регулирующего инвестиционную деятельность в республике. 25 декабря 2019 г. в Узбекистане принят «Об инвестициях и инвестиционной деятельности», который по своей сути представляет собой механическое объединение нескольких ранее принятых законов, регулировавших деятельность в данной сфере [2]. Вследствие этого в него автоматически вошли все недостатки, неточности и противоречия, содержащиеся в старом законодательстве, которые раскрыты в наших ранее опубликованных статьях [3].

Список литературы:

1. *О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы: указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022// <https://lex.uz/ru/docs/5841077> (дата обращения: 6.03.2023).*
2. *Об инвестициях и инвестиционной деятельности. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-598 от 25.12.2019// <https://lex.uz/docs/4664144/>*
3. Каюмов Р.И. *О необходимости совершенствования законодательства в сфере инвестиционной деятельности./ Р.И. Каюмов // Бизнес эксперт. - 2018.- № 9. - С. 80-83.*

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ СРЕДА ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ

***Курпаяниди Константин -
Ферганский политехнический
институт, Докторант***

В Узбекистане происходят значительные макроэкономические преобразования, которые направлены на переход к открытой рыночной экономике с социальной направленностью. В этой связи структура бизнеса меняется под воздействием ресурсных, конъюнктурных и институциональных факторов. В настоящее время актуальна необходимость преобразования институтов в Узбекистане, однако нет единого понимания о том, как, когда и в каком направлении следует внедрять институциональные новации. Проблема усложняется отсутствием научных работ по количественной оценке качества институциональной среды для малых промышленных предприятий. В отечественной институциональной школе пока не разработаны адекватные методологические инструменты, на которые можно было бы опираться в процессе исследования, оценки и внедрения институциональных преобразований в секторе промышленности. Институциональная среда предпринимательского сектора и взаимодействие государственных институтов играют важную роль в системе экономических отношений и во многом определяют эффективность воспроизводственного процесса.

Согласно определению Александра Аузана, институциональная среда представляет собой комплекс экономических, политических, социальных и юридических правил, которые служат основой для производства, распределения, обмена и потребления, и определяют рамки человеческого поведения [1]. Исходя из этого определения, институциональная среда предпринимательского сектора можно определить как набор условий, необходимых для эффективного функционирования субъектов этого сектора. По мнению Дугласа Норда, институциональная среда является совокупностью условий, которые формируются как внутренними, так и внешними факторами, оказывающими влияние на работу предприятий, входящих в состав предпринимательского сектора, а также на институты рыночной системы. Институты рыночной системы выступают в качестве неэкономического фактора, который влияет на развитие предпринимательского сектора в регионе, формируя институциональную среду [2].

Дж. Серл придает главное значение институтам и объясняет смысл их существования не только как ограничение действий людей, но прежде всего как средство участия в функционировании общества и создания новых форм власти и влияния. Он отмечает, что «институты создают новые возможности, поскольку устанавливают специфические типы полномочий, такие как права, обязанности, обязательства, санкции, разрешения, доверенности, требования и удостоверения» [3].

Следовательно, институциональная среда предпринимательского сектора формируется на основе улучшения производительности и совершенствования экономических, производственных и социальных отношений, а также создания благоприятной атмосферы на рынках, где предприниматели и другие участники осуществляют свою деятельность. Для полного понимания институциональной среды предпринимательского сектора необходимо определить, какие функции выполняют институты, а также направления и уровень изменения их роли. Важные социально-экономические институты, формирующие институциональную среду для эффективного функционирования участников предпринимательского сектора, и их цели в рыночной экономической системе региона приведены в таблице 1.

Институты в социально-экономическом развитии выполняют регулирующие функции, которые можно разделить на несколько категорий.

В первую очередь, формальные правила поведения индивидов, установленные институтами, направлены на снижение вреда, наносимого одним агентом другому, и на компенсацию возможного ущерба. Это помогает оптимизировать затраты на изменение форм стоимости и минимизировать транзакционные издержки.

Во-вторых, эффективное действие институтов создает предсказуемую и относительно безопасную среду для бизнеса, что помогает снизить усилия по поиску контрагентов и достижению соглашений между субъектами предпринимательского сектора.

В-третьих, совершенствование институциональных норм, передача информации и обучение персонала снижают неопределенность и способствуют стабилизации экономической ситуации.

Таким образом, институты играют важную роль в поведении социальных агентов, они лежат в основе восприятия действительности и создают стимулы или ограничения для социальных действий. Институты могут быть источником или возможностью для социальных действий [4].

Часто институты отмечаются за регулирование повседневной деятельности предпринимательских субъектов, которые в свою очередь получают обратные импульсы, влияющие на их развитие и формирующие гибкую структуру поддержки, способную изменяться под воздействием экономических факторов.

Таблица 1.

Роль институтов в регулировании социально-экономического развития

| Институт | Цели |
|---------------------------|---|
| Рынок | Регулирование отношений между экономическими субъектами в процессе производства, распределения, обмена товарами, услугами и ресурсами |
| Права собственности | Регулирование отношений между участниками, которые возникают в процессе обмена товарами и услугами, а также правами и обязанностями |
| Организации | Регулирование взаимодействия и сотрудничества людей, которые объединились с целью минимизации издержек в процессе выполнения определенных задач и достижения определенных целей |
| Индикативное планирование | Регулирование отношений между государственными органами и экономическими субъектами, которые возникают в процессе формулирования стратегических целей |
| Финансы | Контроль за кредитными и денежными отношениями, возникающими между экономическими участниками и финансовыми учреждениями на территории страны |
| Налогообложение | Регулирование отношений между экономическими агентами и государством, связанных с уплатой налогов и других обязательных платежей |
| Социальные гарантии | Управление отношениями между государством, экономическими агентами и различными слоями населения в контексте создания и развития человеческих ресурсов, а также реализации социальной защиты бедных групп населения |
| Трансферты | Осуществление контроля над отношениями между государственными органами и экономическими агентами, которые возникают при перераспределении доходов, полученных от консолидированного государственного бюджета |
| Образование | Элементы социальной политики государства, направленные на повышение социального равенства и поддержку продуктивной самозанятости граждан |

Однако более перспективной является функционально-структурная интерпретация институтов как основных элементов экономической системы. Это означает, что институты организуют деятельность предпринимательских субъектов в соответствии с законами и формами, выступая как функциональный генотип конкретных организаций или как «коллективная деятельность, направленная на контроль индивидуальной деятельности» [5]. Институты формируются в процессе организации институциональных структур, которые отвечают за управление экономическими процессами и явлениями в различных секторах предпринимательства. Качественное функционирование институтов, влияющих на развитие или препятствующих деятельности предпринимательского сектора, должно основываться на законодательно установленной мере их ответственности за решение сложных социально-экономических проблем. В первую очередь это связано с обеспечением устойчивого развития страны и повышением уровня жизни населения. Предпринимательский сектор играет ключевую роль в региональной экономике, поскольку определяет объемные и структурные показатели социально-экономического развития регионов.

Список использованной литературы:

1. Аузан, А. А. (2019). Цифровая экономика как экономика: институциональные тренды. Вестник Московского университета. Серия 6. Экономика, (6), 12-19.
2. Норт, Д. (1997). Норт, Д Институты, институциональные изменения и функционирование экономики.
3. Серл, Д. (2007). Что такое институт? Вопросы экономики, (8), 5-27.
4. Фролов, Д. П. (2019). Эво-дево: парадигмальный вызов для институционально-эволюционного анализа. Экономическая наука современной России, (2), 35-52.
5. Schneider, B. R., & Doner, R. F. (2022). The new institutional economics, business associations, and development. Brazilian Journal of Political Economy, 20, 229-252.

O'ZBEKISTONDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINI RIVOJLANISHINING ASOSIY TENDENTSIYALARI TAHLILI

***Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li -
Farg'ona politexnika instituti,
tayanch doktorant***

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq, bugungi kunda barcha soha va tarmoqlar singari qurilish sohasini rivojlanadirish va sohani yanada takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlari va ijtimoiy soha ob'ektlarini bunyod etish va ularni kengaytirish hamda rekonstruktsiya qilishga yo'naltirilgan keng ko 'lamdag'i iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda[1].

Qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va tarmoqni jadal rivojlanadirish, yangi zamonaviy qurilish materiallari, konstruktсиyaları va buyumlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda uning turlarini kengaytirish, kadrlar tayyorlash, maktab ta'limi va uy-joy qurilishini rivojlanadirish umummiliy dasturlarini amalga oshirishni hisobga olgan holda ichki bozorning qurilish materiallariga bo'lgan talab-ehtiyoji qondirilishini ta'minlash, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Qurilish sanoati O'zbekiston iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishi sifatida milliy iqtisodiyot tarmoqlari orasida barqaror o'sish sur'atlarini qayd etayotgan sohalardan biri hisoblanadi[2].

Qurilish materiallari sanoatini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishslashni tashkil etishni rag'batlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini kengaytirish, tarmoqqa investitsiyalarni jalg qilish, shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish suratlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish hamda belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish maqsadida muhtaram yurtboshimiz tomonidan bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, 2019 yil 20 fevralda "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlanadirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4198-sonli, 2019 yil 23 mayda "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlanadirishga oid qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4335-sonli hamda 2018 yil 9 iyulda "Ichki bozorni qum-shag'al materiallari bilan barqaror ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3841-sonli qarorlarining qabul qilinishi qurilish sanoati sohasining huquqiy bazasini shakllantirdi[3].

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning amaliy natijasi sifatida statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratar ekanmiz, 2021 yilda O'zbekiston Respublikasida jami 102492.7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020 yilga nisbatan 121,9 % ni tashkil etdi.

1-jadval


O'zbekiston respublikasida 2021- yilda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi va unda huduiy birliklarning ulushi[7]

| Hududlar | 2021 yilda bajarilgan qurilish ishlari | Hududlarning umumiy qurilish ishlari hajmidagi ulushi |
|---------------------------------|--|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 107492,7 | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 4480,6 | 4,2 |
| Andijon | 5657,8 | 5,3 |
| Buxoro | 7401,1 | 6,9 |
| Jizzax | 3085,4 | 2,9 |
| Qashqadaryo | 6336,6 | 5,9 |
| Navoiy | 5155,5 | 4,8 |
| Namangan | 5556,7 | 5,2 |
| Samarqand | 7385,7 | 6,9 |
| Surxondaryo | 5868,4 | 5,5 |
| Sirdaryo | 2708,8 | 2,5 |
| Toshkent | 9401,2 | 8,7 |
| Farg'ona | 6993,7 | 6,5 |
| Xorazm | 4228,5 | 3,9 |
| Toshkent sh. | 26535,3 | 24,7 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Toshkent shahri (26535.3 mlrd so'm) dan so'ng, Toshkent (9401.2 mlrd so'm), Buxoro (7401.1 mlrd so'm), Samarqand (7385.7 mlrd so'm) va Farg'ona (6993.7 mlrd so'm) viloyatlariga to'g'ri kelgan[7].

Hozirgi kunda qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlarni rivojlantirish mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini mustahkamlashning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Statistik ma'lumotlardan shuni ko'rish mumkinki, 2023 yilda O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 46,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3.3 mingtadan oshgan.

YaIM, Qurilish hajmi o'sish dinamikasi (mlrd so'mda) va YaIM (foizda)



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2016-2022 yillarda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hamda unda qurilish ishlari ulushi[7]

Mazkur ko'rsatkichni 2018 yilga nisbatan taqqoslansa, 22853 taga ko'paygan. Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2018 yilni mos davriga nisbatan 194,8 foizga oshgan. Respublika miqyosida faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibida qurilish korxonalarining ulushi 7,9 foizni tashkil etgan[4].

Korxona va tashkilotlar sonini oshishi va qurilish ishlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida salmog'i oshib borish tendensiyasini Yalpi ichki mahsulotimiz va unda qurilish ishlarining ulushida ham ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimizda qurilish ishlarining yalpi ichki mahsulotimmzdagi ulushi mo'tadil darajada oshib boryotgan bo'lsa ham rivojlanish tendensiyasi umumiylab chiqarish tendensiyasidan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Ushbu qoloqlikni bir qancha sabablar bilan asoslash mumkin bo'lib ularga qurilishda tajribali kadrlar ta'minoti muammolari, qurilish faoliyatida moliyalashtirish masalalaridagi murakkabliklar, qurilish materiallari sanoatining yetarli darajada rivojlanmaganligi va qurilish materiallari ta'minotining importga yuqori qaramligini keltirib o'tish mumkin[5].

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarga to'xtalish maqsadga muofiq deb hisoblaymiz. Hozirda mamlakatimizda qurilish va qurilish materiallari ishlab chiqarish sohalari innovatsion jihatdan o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda: yangi texnologiyalar o'zlashtirilmoqda, energiya va resurslarni tejash, zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ishlar olib borilmoqda[6].

Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi qurilish materiallari ishlab chiqarishni mahalliy materiallar bilan (mahalliylashtirish va import o'rnini bosish) ko'paytirish maqsadida sohani rivojlantirishning yangi usullarini izlashni, qurilish materiallari narxini pasaytirish, korxonalarni joylashtirishda logistik yondashuvni ta'minlash, energiya va resurslarni tejash bo'yicha aniq choralarni ko'rish uchun sohani rivojlantirishning yangi usullarini izlashni, shuningdek, eng boy xomashyo salohiyatidan yanada to'liq va oqilona foydalanishni talab qiladi.

Soha oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoatining samaradorligini keskin oshirishni, investitsiya jarayonlarini faollashtirishni, yangi ish o'rinalarini yaratish va eksport salohiyatini oshirishni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimov, S., Sharopov, B., Umarov, I., Muxtoraliyeva, M., Dadaxanov, F., & Abdunazarov, A. (2022). URILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION MATERIALLAR ISHLAB CHIQARISHNING ISTIQBOLLI TOMONLARI. *Journal of new century innovations*, 18(1), 149-156.
2. Xamdamqulov, S. B. (2022). Zamonaviy energiya tejamkor qurilish materiallari. *Science and Education*, 3(2), 248-254.
3. Kodirov, S. (2020). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ В ПРОМЫШЛЕННОМ СЕКТОРЕ ЭКОНОМИКИ. *Theoretical & Applied Science*, (12), 377-384.
4. Turgunov, M. (2019). Mechanisms of effective management of corporations in the republic of Uzbekistan. In *Теория и практика корпоративного менеджмента* (pp. 123-124).
5. Sidorov, V. A., Tursunov, I. E., Sharipov, T. S., & Yahyoyeva, S. O. (2023). INNOVATSIYA IQTISODIYOTI: TEXNOLOGIK YUTUQ MUAMMOSI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 8-15.
6. Kodirov, S. I. U. (2022). RAQAMLASHTIRISH JARAYONINING O'ZBEKISTONDAGI HOLATI VA UNDA XALQARO REYTINGLAR AHAMIYATI. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(11), 142-149.
7. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti.

ДАВЛАТ ТАШҚИ ҚАРЗИНИ КАМАЙТИРИШГА ҚАРАТИЛГАН ДАВЛАТ СИЁСАТИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МАНБАЛАРИ ОРАСИДА ДАВЛАТ ҚАРЗИНИНГ АҲАМИЯТИ

Мирзамахмудов Маъруфжон Махамадшариф ўғли -
*Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва
Молия вазирлиги, Стратегик режсалаштириш ва
методология департаменти, бўлими бошлиғи*

Камбағалликни камайтириш иқтисодий ўсишни талаб қиласди, бу эса, соғлом макроиқтисодий ва мустаҳкам давлат бошқаруви билан биргаликда, барқарор ва ижтимоий инклузив ривожланишга олиб келади. Бунда, камбағаллик чегарасидан пастдаги аҳоли қатлами учун таълим олиш, соғлиқни сақлаш, сув таъминоти ва санитария хизматидан фойдаланиш ҳамда адолатли меҳнат ва молия бозорига кириш имконяятлари кенгайтирилиши зарур. Бундан ташқари, камбағалларнинг иқтисодий зарбалар ва табиий оғатларга заифлигини камайтириш, уларнинг фаровонлигини ошириш ҳамда инсон капиталига, юқори хавфли ва юқори даромадли фаолиятга сармоя киритишни рағбатлантириш керак.

Ўз ўрнида, иқтисодий ўсиш ва иқтисодий ривожланиш 2 хил концептуал тушунча бўлиб, ушбу тушунчаларни қўйида келтирилган таққослама жадвал орқали фарқлаш мумкин.

1-жадвал
Иқтисодий ривожланиш ва иқтисодий ўсиш [1]

| | Иқтисодий ривожланиш | Иқтисодий ўсиш |
|----------|---|--|
| Таъриф | Иқтисодий ривожланиш мамлакат ижтимоий – иқтисодий тузилишидаги прогрессив ўзга-ришлар (институционал ва технологик ўзгаришлар) билан бирга даромадлар, жамғармалар ва инвестициялар ўзгаришини назарда тутади. | Иқтисодий ўсиш деганда мамлакатда товар ва хизматлар реал ишлаб чиқариш ҳажмининг ўсиши тушунилади. |
| Фактор | Ривожланиш инсон капиталининг ўсиши, тенгсизлик кўрсаткичларининг камайиши ва аҳоли турмуш сифатини яхшилайдиган таркибий ўзгаришлар билан боғлиқ. | Ўсиш ялпи ички маҳсулотнинг таркибий қисмлари: истеъмол, давлат харажатлари, инвестициялар, соф экспортнинг босқичма-босқич ўсиши билан боғлиқ. |
| Ўлчов | Иқтисодий ривожланишни ўлчаш учун инсон тараққиёти индекси (Инсон тараққиёти индекси), гендерга боғлиқ индекс, инсон камбағаллиги индекси (ҲПИ), чақалоқлар ўлими, саводхонлик даражаси ва бошқалар каби сифат кўрсаткичлари қўлланилади. | Иқтисодий ўсиш реал ЯИМ ёки аҳоли жон бошига даромаднинг ўсиши каби миқдорий омиллар билан ўлчанади. |
| Самараси | Иқтисодий ривожланиш иқтисодиётда сифат билан бир қаторда миқдорий ўзгаришларга олиб келади. Иқтисодий ривожланиш мамлакатда ҳаёт сифатининг ривожланишини акс эттиради. | Иқтисодий ўсиш иқтисодиётда миқдорий ўзгаришларни келтириб чиқаради. Иқтисодий ўсиш миллий ёки аҳоли жон бошига даромаднинг ўсишини акс эттиради. |

Иқтисодий ўсиш ривожланаётган мамлакатларда камбағалликни камайтириш ва ҳаёт сифатини яхшилашнинг энг кучли воситасидир. Мамлакатлар ўртасидаги тадқиқотлар ҳам, ривожланган мамлакатлар тажрибаси ҳам тез ва барқарор ўсиш нафақат кунига 1,9 доллардан кам даромадга эга бўлган одамларнинг жамиятдаги улушкини кескин камайтиришнинг биринчи мақсади балки келажак авлод учун пойдевор эканлигини исботлайди. Хусусан, иқтисодий ривожланиш фаровонлик ва имкониятларини яратади: бандлик ва юқори маош билан таъминланганлик имкониятлари ота-оналарнинг фарзандларини мактабга юбориш орқали таълим олишига сармоя киритишини рағбатлантиради. Бу кучли ва прогрессив тадбиркорлар (файратли) ёшлар гуруҳининг пайдо бўлишига олиб келиши орқали кучли давлат бошқарувига асос бўлиб хизмат қиласиди. Шундай қилиб, кучли иқтисодий ўсиш инсон тараққиётига ёрдам беради, бу эса ўз навбатида, иқтисодий ўсишга ёрдам беради.

Аммо турли шароитларда ўхшаш иқтисодий ўсиш суръатлари камбағалликка, камбағалларнинг бандлик истиқболларига ва инсон тараққиётининг бошқа кўрсаткичларига таъсир кўрсатиши мумкин. Ўсишнинг камбағалликни қай даражада камайтириши камбағалларнинг ўсиш жараёнида иштирок этиши ва унинг даромадларидан улуш олиш даражасига боғлиқ. Жумладан, камбағалликни камайтириш учун ўсиш суръати ҳам, шакли ҳам муҳимдир.

Ривожланаётган мамлакатларнинг кенг тажрибасини таққослаш натижасида тез ва барқарор иқтисодий ўсиш камбағалликни камайтириш учун ягона энг муҳим йўл эканлиги кўрини ҳақида кучли далилларни кўрсатади.

Шу билан бирга, давлат томонидан камбағалликни камайтиришга қаратилган сиёsat қўп қиррали бўлиб, булар қўйидагиларни ўз ичига олади:

- Ижтимоий ҳимояни манзиллилигини таъминлаш;
- Таълим тизимини янада ривожлантириш;
- Соғлиқни сақлаш тизимининг сифатини ошириш;
- Бандлик даражасини ошириш;
- Тадбиркорликни ривожлантириш;
- Ҳудудларни комплекс ривожлантириш;
- Инфратузилмани ривожлантириш;
- Экологик барқарорликка эришиш;
- Макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш.

Шу жумладан, мамлакатда камбағаллик даражасини пасайтириш иқтисодий ривожланишни ва инқтисодий ривожланишни жадаллаштириш иқтисодий ўсишни талаб этади. Давлат сиёсатида олиб борилаётган ислоҳотлар, хусусан инфратузилмага критилаётган инвестициялар, эса ижтимоий инклузив ривожланишга интилишда сезиларли ҳисса қўшади.

Жаҳон банки маълумотларига мувофиқ, дунё миқёсида 840 миллион одам ҳар қандай об-ҳавога мос келадиган йўллардан 2 километрдан кўпроқ масофада яшайди, 1 миллиард одам электр энергиясидан маҳрум, 4 миллиард одам эса интернетга уланмаган [2]. Камбағалликни қисқартириш ва Барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш, албатта қўйида келтирилган инфратузилма бўшлиқларини бартараф қилиш орқали эришилади:

Таълим ва соғлиқни сақлаш хизматларидан фойдалани учун қишлоқ йўлларини ва хавфсиз транспортни таъминлаш;

Рақамли алоқани яхшилаш учун қишлоқлардаги поликлиникалар, мактаблар ва уй хўжаликларини электрлаштириш;

Ўлим ва касалланишни камайтириш учун ривожланган йўл ҳаракати хавфсизлик тизими ва озиқ-овқат хавфсизлиги таъминлаш;

Инфратузилма инвеститсияларини амалга ошириш учун зарур бўлган рақамли ва бошқа малакавий қўнималарни мустаҳкамлаш.


Шу билан бирга, кўплаб бошқа халқаро ташкилотлар томонидан ўтказилган тадқиқотлар ҳам инфратузилмага киритилаётган инвестиция камбағалликни қисқартиришда самаралироқ эканлигини кўрсатади. Хусусан, тўғридан-тўғри меҳнатга асосланган усуллардан фойдаланган ҳолда инфратузилмани қуриш ва уни сақлаш, шунингдек маҳаллий ресурслардан (меҳнат, қурилиш воситалари) кўпроқ фойдаланиш маҳаллий иқтисодиётни янада рағбатлантиради ва ўз-ўзсидан бандликни оширган ҳолда маҳаллий аҳоли учун даромад олиш имкониятларини оширади.

Бироқ, халқаро ривожланиш ҳамжамиятидаги кўпчилик инфратузилмага киритилаётган инвестицияларнинг камбағалликни қисқартиришига учта сабабга кўра шубҳа билан қарашган. Хусусан:

1) Инфратузилма иқтисодий ўсиш учун муҳим бўлсада, инфратузилмага давлат томонидан киритилаётган инвестицияларнинг камбағалликни қисқартиришдаги аҳамияти унчалик катта эмас;

2) Инфратузилмадан кутилган фойда кутилганидан сезиларли даражада кам;

3) Давлат томонидан олиб борилган заиф бошқарув ва унинг соҳага масъул институтларидаги коррупция ҳолатларининг авж олиши, давлат инвестицияларни нотўғри танлаши ва эътибордан четда сақлаш, инфратузилманинг иқтисодий ўсишга қўшадиган ҳиссасини пасайтирди ва камбағалликни қисқартиришдаги аҳамиятини йўқотди.



1-расм. Ривожланган G-7 мамлакатларининг ўртача давлат қарзи, инвестиция ҳамда ЯИМ миқдори йиллар кесимида[3]

Шунга қарамай, назарий жиҳатдан олиб қаралса, давлат бошқаруви кучайтирилса ва институтсионал асослардаги коррупция ҳолатларининг олди олинса, инфратузилма ва камбағалликни қисқартириш ўртасидаги боғлиқлик янада мустаҳкамланиши халқаро донор мамлакатлар томонидан кенг эътироф этилмоқда.

Ўтган йиллар давомида, яъни COVID-19 пандемияси ва унинг миллий иқтисодиётдаги асоратларини камайтиришга қаратилган чора-тадбирлар натижасида, кўпгина ривожланётган мамлакатлар ҳукуматлари жиддий бюджет чекловларига дуч келишди. Шунга кўра, камбағалликни камайтиришга жисмоний инфратузилма инвеститсияларининг нисбий ҳиссасини баҳолаш муҳимdir.

Фойдаланилган адабиётлар руҳати:

1. *Хорижий абабиётларни ўрганиш асосида муаллиф томонидан тузилди*
2. <https://www.worldbank.org/en/topic/infrastructure/overview#1>
3. *Халқаро валюта жамғармасининг маълумотларига асосан муаллиф томонидан тузилди (<https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database/2021/October>).*

YEVRO OSIYO IQTISODIY ITTIFOQI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*Nasirxodjaeva Dilafruz Sabitxanovna -
TDIU “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.d.
Nurboyev Jalaliddin Mamadievich -
DTPI “Raqamli iqtisodiyot” o’qituvchisi kafedrasi*

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev takidlaganidek, O’zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan kuzatuvchi davlat maqomida qisqa davrda samarali aloqalarni yo’lga qo'yishga erishdi. 2020 yilda mamlakatimiz ilk bor Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligida raislik qildi. Bu davr pandemiya sharoitida o’tganiga qaramasdan, O’zbekistonning bu boradagi faoliyati muvaffaqiyatli tashkil etildi va yuqori baholandi.[1]

Bugungi kunda jahon xo’jaligi subyektlari faoliyatining xalqaro mehnat taqsimoti asosida olib borilishini ta’minlab beruvchi omillardan biri hisoblangan tashqi savdo rivojlanishi turli davlatlar iqtisodiyotidagi mavjud muammolarning optimal yechimlari safiga kiradi va davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarda tayanch soha bo’libgina qolmasdan, ijtimoiy, fiskal, monitar va boshqa siyosatlarning iqtisodiyotgi samaradorlikini oshirish bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, xususan, Yevro Osiyo mamlakatlari savdo munosabatlari bugungi kundagi rivojlanib borayotgan savdo munosabatlari kelajagini aniqlashda juda katta ahamiyatga ega. Ya’ni savdo munosabatlari rivojlanishining iqtisodiyotga ko’rsatadigan ijobiy va salbiy ta’siri, uning jamiyat hayotidagi roli va mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning natijalari shular sarasidandir.

Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi faoliyatiga nazar soladigan bo’lsak mazkur ittifoqning shakllantirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: [2]

• A’zo davlatlar aholisi hayot darajasini oshirish maqsadida iqtisodiyotlar stabil o’sish sharoitini yaratish

• Ittifoq doirasida tovarlar, xizmatlar, kapital va mehnat resusrlarining yagona bozorini tashkil etishga harakat qilish

• Globa iqtisodiyot sharoitida ko’ptomonlama milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish, kooperatsiya va modernizatsiya

Ittifoq o’z vakolatlari doirasida xalqaro huquq subyekti hisoblanadi. Mazkur ittifoqning tashkil etilishi asosida ko’p tomonlama hamkorlik iqtisodiyotlarning o’zaro garmonizatsiyasi, iqtisodiyot sohalarida yagona siyosat olib borish, tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapital erkin harakatini ta’minalash yotadi.


Ittifoq organlari quyidagidan iborat: [2]

1. Oliy Yevro Osiyo iqtisodiy kengashi (Oliy kengash)
2. Yevro Osiyo hukumatlararo kengash (Hukumatlararo kengash)
3. Yevro Osiyo iqtisodiy komissiyasi (Komissiya, YOIK)
4. Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi sudi (Ittifoq sudi)

Agarda Yevro Osiyo hukumatlari kengashi, iqtisodiy komissiyasi va Oliy kengashi qarorlari o’rtasida kelishmovchiliklar bo’ladigan bo’lsa Oliy kengash qarorlari ustunlik qiladi.

Oliy kengash davlat boshliqlaridan tashkil topgan bo'lib ittifoq faoliyat yuritishini ta'minlovchi oliy organ hisoblanadi.

Oliy kengash ittifoq faoliyatining integratsiya rivojlanishi perspektiv va yo'nalishlarini aniqlovchi prinsipial savollarini ko'rib chiqadi va Ittifoq maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltiradi. Oliy kengash ittifoqdagi birlamchi qarorlarni qabul qiladi va ularni ijrosini nazorat qiladi. Oliy kengash ittifoq perspektivlarini aniqlabgina qolmasdan Komissiya tarkibini tasdiqlaydi, Komissiya raisini tayinlaydi, a'zo davlatlar tavsiyasiga ko'ra Ittifoq sudiga sudyalar btayinlaydi, Yevro Osiyo iqtisodiy komissiyasi ishslash reglamentini, ittifoq budgeti, Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi budget to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi. A'zo davlatlar tomonidan qo'shiladigan ulushlar miqdorini aniqlaydi. Hukumatlar aro kengash va Komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarni o'zgartirish yoki bekor qilish masalalarini ko'rib chiqadi. Ittifoqda kuzatuvchilik yoki a'zolikka nomzodlikka ruxsat berish yoki annulirovat qilishni ko'rib chiqadi. Shuningdek Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi tomonidan olib boriladigan muzokaralar va xalqaro shartnomalar to'g'risida qaror qabul qilish ularga qo'shilish yoki ularni bekor qilish masalalarini Oliy kengash ko'rib chiqadi.



1-rasm. 2020-yil va 2022-yil (yanvar-fevral) YOIIning uchinchi davlatlar bilan savdosini surʼati (mlrd. AQSH dollar)

Manba: Mualliflar tomonidan http://www.eurasiancommission.org/ru/act/integr_i_makroec/dep_stat/union_stat/Pages/default.aspx ma'lumotlariga asoslanib tayyorlandi

Ittifoq organlari umumiyligi shtat sonini tasdiqlaydi, Komissiya sudyalari, mansabdor shaxslar va ittifoq organlari ishchilariga ish haqi to'lov shakllari va tartibini belgilaydi. Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi organlarida tashqi audit o'tkazish to'g'risidagi nizomni tashdiqlaydi. Tashqi audit natijalarini ko'rib chiqadi, Hukumatlararo kengash va Komissiyaga topshiriqlar beradi.

Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi bojaxona ittifoqi va umumiyligi iqtisodiy muhitning funksiyalarini o'z ichiga olibgina qolmasdan uni yanada shakllantirib kelmoqda. Bu boradigan ishlarni ko'rib chiqdigan bo'lsak 2022-yil davomida kremniy, raketasozlik, sanoat texnologiyalarining ma'lum guruhlari va boshqa bir qancha mahsulotlar yagona bojaxona rejimiga o'tib nol foizli stavkada bojaxona boji belgilandi.

Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi 2022-yil tashkil qilinishiga qaramasdan ushbu boqichga yetguncha bir qancha bosqichni bosib o'tgan. YOII ning jahon savdosidagi 2022-yil holatiga ko'ra eksporti jahon eksportining 3.7%ini, importi jahon importining 2.3%ini tashkil qiladi [8].

Mazkur davlatlar YAIMi 2.2trln AQSH dollarni, Sanoat mahsulotlari 1.3 trln dolar, 607.5 mln. tonna neft, 682.6 mlrd. kub m gaz qazib olingan bo'lib 1 210.2 mlrd. kvt soat elektro energiya ishlab chiqargan. 1-rasmga ko'ra YOIIning 2020 jahon bozoriga qilgan eksport hajmi kamayib borishini ko'rishimiz mumkin. Xususan 2020-yil yanvar oyida jahon bozoriga qilingan eksport 32.8 mlrd dollarni tashkil qilgan bo'lsa keyingi 4-oylik davomida ketma-ket mos ravishda 31.7, 35, 33, 33.6 mlrd. dollarni tashkil qilgan. 2020-yil uchinchi chorakka kelib ushbu jahon bozoriga qllinayotgan umumiy eksport hajmi 29.9, 27.7, 29.1 mlrd. dollarlarni tashkil etdi. 2020-yil oylik eksport hajmi 27.3 mlrd. dollargacha tushib ketdi. Ittifoq tashkil qilinishi 2022-yil birinchi oyidanoq a'zo davlatlar eksport hamkorlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ya'ni asosiy savdo munoasabatlari ittifoq doirasida olib borishga yanada katta urg'u berildi. Natijada 2022-yil tashqi bozorga qilinadigan eksport hajmi yanvar va fevral oylarida 19.5 mlrd. dollar va 22.1 mlrd. dollarni tashkil etdi. Import salohiyatini ko'radigan bo'lsak 2015-yil natijalariga ko'ra o'rtacha 18 mlrd. dollarni tashkil qiladi. 2022-yil Ittifoq o'z faoliyatini boshlagandan so'ng uchinchi davlatlardan qilinadigan import keskin tushib ketganini ko'rishimiz mumkin. 2022-yil yanvar fevral oylari YOIIning importi 10.3 va 13.5 mlrd. dollarga tushganini ko'ramiz. Albatta mos ravshida tashqi savdo aylanmasi ham eksport va import trendining yig'indisini ko'rsatadi. Umumiy tashqi savdo saldosi ham YOIIda ijobiy ko'rinishga ega.

Shuningdek ittifoq budjeti shakllantirilishi uning a'zolarining qo'shadigan hissalari asosida shsakllanadi. 2022-yildan 1-yanvardan Rossiya Federatsiyasi 85.32%, Qirg'iziston Respublikasi 1.90%, Qozog'iston Respublikasi 7.11%, Belorusiya Respublikasi 4.56%, Armaniston Respublikasi 1.11% miqdordagi ittifoq budjeti shakllantirishga hissalarini qo'shishadi [8] va shunga mos ravishda boj tushumlari taqsimlanadi.

1-jadval

Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi boj tushumlari taqsimoti

| Nº | YOII A'zo Davlatlari | % |
|----|---------------------------|-------|
| 1 | Rossiya Federatsiyasi | 85.32 |
| 2 | Qozog'iston Respublikasi | 7.11 |
| 3 | Belarus Respublikasi | 4.56 |
| 4 | Qirg'iziston Respublikasi | 1.90 |
| 5 | Armaniston Respublikasi | 1.11 |

Manba: Mualliflar tomonidan [Xulosa qilib aytadigan bo'lsak integratsion jarayonlarning har biri o'zining shakllanish bosqichlari va boshqa funksional vazifalari bilan bir biridan farqlanishiga qaramasdan, tashkil qilinadigan iqtisodiy integratsiya oldiga qo'yiladigan asosiy maqsad a'zo davlatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bo'lishi integratsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri sanaladi. Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi \(YOII\) rivojlanishining xususiyatlari va ustuvor yo'nalishlari mazkur bitiruv malakaviy ishida Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqining rivojlanish tarixi, ittifoqning asosiy maqsadlari va uning ittifoq rivojlanishiga ta'siri, a'zo davlatlar hamkorligi natijalari va uning jahon savdosidagi o'rnining tahlili bilan yoritib berilgan bo'lsa, Mazkur ittifoq keljagi ittifoq doirasidagi rejalshtirilgan 2025-yilgacha oldinga qo'yilgan maqsadlar, xususan moliya bozori, umumiy transport tizimi va statistika ma'lumotlarini yagona tizimga solish kabi bir qancha integratsiya uchun birlamchi sohalarda rejalar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. YOIK tomonidan a'zo davlatlar doirasida yanada o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotlarning o'sishini ta'minlash maqsadida umumiy moliya bozori subyektlarini registrini olib borishni yo'lga qo'yishni rejalshtirmoqda.](https://docs.eaeunion.org/ru-ru/Pages/DisplayDocument.aspx?s=bef9c798-3978-42f3-9ef2-d0fb3d53b75f&w=632c7868-4ee2-4b21-bc64-1995328e6ef3&l=540294ae-c3c9-4511-9bf8-aaf5d6e0d169&EntityID=3610 aspx ma'lumotlariga asoslanib tayyorlandi</p>
</div>
<div data-bbox=)

Shu bilan birga yana ittifoqda 25-may 2022-yil antimonopol siyosat olib borishning effektivligiga qaratilgan yig'ilish o'tkilib uning yakunlariga ko'ra milliy ishlab chiqarishlarda

ishlab chiqaruvchilar savdo belgilari bo'yicha bir qancha kamchiliklar aniqlandi. Xususan Rossiya federatsiyasi va Belorusiyada Qozog'iston ishlab chiqaruvchilar savdo belgilariga xos savdo belgilari ishlatilayotgani aniqlandi.[8]

Yevro Osiyo iqtisodiy komissiyasi savdo vaziri Veronika Nikishina 2022-yil 24-may kuni YOII ishchi guruhi ikkinchi majlisida uchinchi davlatlarga chiqishi yo'llarini yanada takomillashtirish va eksport hajmini oshirish bo'yicha qo'shimcha hora-tadbirlar ishlab chiqarilishi to'g'risida takliflar kiritdi va yuzaga keladigan muommolar bo'yicha YOIKga murojatlar qilinishi va muommolar oldini olish va hal qilishni takidlab o'tdi.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligi mahsulotlari import o'rnini bosishga katta etibor berilishi va chiqib ketayotgan valutani saqlab qolish bo'yicha 2022-yil 25-may Rossiya agrar forumida YOII qishloq xo'jaligi departamenti deriktori Stanislav Bubin takliflar kiritdi.

2022-yil 31-mayda bo'lib o'tgan Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi oliv kengashi yig'ilishida integratsiya doirasida umumiy energetika va neft-gaz bozorini shakllantirish maqsad qilib qo'yildi va uni amalga oshirishda o'zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish rejalashtirib olindi.

Ittifoq faoliyatining yuqorida qilingan tahlilidan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak ittifoq rivojlanishi uning a'zo davlatlari faoliyati ularning iqtisodiy imkoniyatlari va ular ustuvor sanagan ijtimoiy iqtisodiy soyosat bilan uzviy bog'liq sanaladi. Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi oliv kengashi qarorlari va Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi to'grisidagi shartnoma ittifoq rivojlanishining ustuvor yo'naliшlarini belgilab beradi. Ittifoq tahlilining O'zbekiston uchun ta'siri shundan iboratki uning barcha a'zo iqtisodiyotlariga ko'rsatayotgan ta'siri va a'zo davlatlar iqtisodiyotlaridagi O'zbekiston iqtisodiyotida mavjud faktorlar bilan bir xil omillarning ittifoq ta'sirida umumiy nafi o'rganildi. Ya'ni itifoqqa qo'shilish va qo'shilish muddati iqtisodiyotning mo'tadil rivojlanishini ta'minlovchi omillarni shakllantirish bilan uzviy bog'liqligi bilan xarakterlanadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. *Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi "O'zbekiston", 31 avgust 2021 y.*
2. *"Договор О Евразийском Экономическом Союзе" 29.05.2022/Астана*
3. *"Договор об учреждение Евразийского экономического сообщества" Астана 10.10.2000*
4. *"Решение о Договоре об учреждение Евразийского экономического сообщества" Астана 10.10.2022*
5. www.mfa.uz
6. www.tsouz.ru
7. www.evrazes.com
8. www.eaeunion.org
9. ia-centr.ru
10. cis.minsk.by
11. www.e-cis.info

FISKAL SIYOSATNI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI

*Omonova Shohista Ikrom qizi -
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
tayanch doktoranti*

XXI asrga bejizga axborot texnologiyalari asri deya ta'rif berilmagan. Hozirgi kunda hayotimizning har bir jabhasi, har bir soha va har bir faoliyatimiz axborot texnologiyalari bilan bog'liq bo'lib qolgan.

Iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatni farovonlashtirishning, aholi turmush darajasini yaxshilashning eng muhim omillaridan bo'lib, iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va

tizimlaridan foydalanish, ya'ni iqtisodiyotni raqamlashtirish bugungi kunda mamlakatni rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotni tartibga solishda fiskal va monetar siyosatdan foydalanishadi.

Xalqaro valyuta fondi Yevropa departamenti direktori yordamchisi Mark Hortonning fikriga ko'ra, fiskal siyosat - davlatning soliq-byudjet siyosati va davlat xarajatlari orqali iqtisodiyotga ta'siri bo'lib, hukumatlar odatda kuchli va barqaror o'sishni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirish uchun fiskal siyosatdan foydalanishadi. [1]

Soliq tizimi mamlakat iqtisodiyotining muhim halqalaridan biri bo'lib, bugungi kunda yurtimizda bu tizimni yanada samarali qilish maqsadida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Hozirda mamlakatimizda fiskal tizimning deyarli har bir bo'g'ini raqamlashtirish tendensiyasida ekanligini ko'rishimiz mumkin. Quyida olib borilayotgan soliq islohotlari va fiskal tizimni raqamlashtirishning natijaviy ko'rsatkichlari jadvali keltirilgan. (1-jadval)

1-jadval

Soliq turlari bo'yicha 2021-2022-yil 31-dekabr holatiga byudjetga tushgan tushumlar to'g'risida ma'lumot, (mlrd.so'mda) [2]

| Nº | Soliq turlari | 2021-yil 31-dekabr holatiga tushumi | 2022-yil 31-dekabr holatiga tushumi | Ulushi (foizda) | O'sish sur'ati |
|----|---|--|--|--------------------|-------------------|
| | Byudjetga tushumlar, jami | 127970 | 148388 | 100 | 116 |
| | shu jumladan: | | | | |
| 1 | Qo'shilgan qiymat solig'i | 25572 | 32812 | 22,1 | 128 |
| 2 | Aksiz solig'i | 12779 | 13077 | 8,8 | 102 |
| 3 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i | 38363 | 37650 | 25,4 | 98 |
| 4 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i | 18918 | 24285 | 16,4 | 128 |
| 5 | Mol-mulk solig'i | 2457 | 4015 | 2,7 | 163 |
| 6 | Yer solig'i | 4083 | 5306 | 3,6 | 130 |
| 8 | Davlat boji va jarimalar | 3333 | 4236 | 2,9 | 127 |
| 9 | Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq | 15812 | 13887 | 9,4 | 88 |
| 10 | Boshqa tushumlar va yig'imlar | 5969 | 12416 | 8,4 | 208 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 80% soliq turlari va yig'imlar bo'yicha sezilarli darajda ijobiy o'sish sur'atiga erishilgan va bunda yangi raqamli texnologiyalarning o'rni katta.

Jumladan, hozirda savdo obyektlari naqd va naqdsiz hisob-kitoblarni amalga oshirganda onlayn nazorat-kassa mashinasi orqali fiskal QR (Quick response) kodli chekni xaridorlarga taqdim etishlari majburiy etib belgilangan [3].

Shuningdek, 2020-yil 1-yanvardan boshlab barcha tadbirkorlik subyektlari uchun hisob-fakturalarni elektron rasmiylashtirishni majburiy etib belgilanishi, norasmiy iqtisodiyotni ulushi biroz bo'lsada kamayashiga, byudjetga soliq tushumlarini ortishiga olib keldi.

Ta'kidlash joizki, raqamlashtirish natjasida soliq to'lovlarini to'lash amaliyotida ham ko'plab qulayliklar yaratildi va bu holat soliq tushumlarini o'z vaqtida davlat byudjetiga kelib tushishiga zamin yaratadi.

Soliq to'lovleri yoki qarzdorligini to'lash uchun jismoniy va yuridik shaxslar my.soliq.uz soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portalini yoki "Soliq" mobil ilovasidan foydalanishlari mumkin. Ushbu yaratilgan qulayliklar natjasida soliq tushumlarining o'z vaqtida va to'g'ri to'lanishi ta'minlanadi.

Savdo jarayonlarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'plab qonun buzilish holatlari ham kuzatilmoqda. Taqdim etilishi majburiy bo'lgan fiskal raqamli ya'ni QR kodli chekni

xaridorlarga bermaslik orqali savdo tushumlarini berkitish yoki fiskal chekni soliq mobil ilovasi orqali skaner qilganda savdo summasidan 1% miqdorda keshbek qaytarilishi sababli, barcha xaridorlarning chekini savdogarlarning o'zları soliq mobil ilovasida ro'yxatdan o'tqazishlari va boshqa shu kabi muammoli holatlar mavjud. Bunday salbiy vaziyatlarga yechim topish maqsadida soliq mobil ilovasida "Soliq-hamkor" tizimi joriy etilgan. Bunda o'ziga nisbatan qonun buzilish holati kuzatilgan yoki shu kabi holatga guvoh bo'lgan shaxs ushbu tizim orqali soliq huquqbazarliklari haqida murojaat yo'llashi mumkin.

2023-yil yanvar-aprel oyalarida "Soliq" mobil ilovasining "Soliq hamkor" tizimi orqali soliq huquqbazarliklari haqida 41 951 ta murojaat kelib tushgan [4]. Shundan:

- 39 031 tasi xarid cheki bermaslik;
- 1 691 tasi to'lojni plastik karta orqali qabul qilmaslik;
- 63 tasi plastik karta uchun xarid summasini oshirish;
- 1 166 tasi boshqa turdagи huquqbazarlik holatlari bo'yicha.

Murojaatlarning 22 058 tasi takroriy bo'lganligi yoki shikoyat kelib tushgan tadbirkorlik subyektida tekshiruv davom etayotganligi sababli qaytarilgan.

Murojaatlar asosida 17 292 ta sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilib, 99,5 % holatda huquqbazarlik tasdiqlangan.

Natijada, huquqbazarlik holatlari bo'yicha xabar bergan fuqarolarga 2023-yil davomida to'langan mukofot summaları 19 798 ta holat bo'yicha (undirilgan jarima summasidan 20%) 9,9 mlrd so'mga yetdi [5].

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin-ki fiskal siyosatni takomillashtirishda raqamlashtirish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tizimni raqamlashtirish natijasida ko'plab fiskal bo'shlqlar bartaraf etilmoqda, soliq huquqbazarliklari kamaytirilmoqda.

Soliq mobil ilovasidan hozirda faqat jismoniy shaxslar foydalanishlari mumkin. Yuridik shaxslar o'rtasida ham ko'plab soliq huquqbazarliklari bo'lib, ular haqida ma'lumot berishda mobil ilovalardan foydalanishning imkonii mavjud emas. Bunda tadbirkorlik subyektlari soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali yoki kol-markazga qo'ng'iroq qilish orqali mummao haqida xabar berishlari mumkin va bu jarayon biroz vaqt talab etadi. Yuridik shaxslar uchun ham mobil ilova yaratilishi muammo haqida joyida xabar berishga yoki uni hal etishga yordam berishi mumkin.

Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda joriy etilgan raqamli texnologiyalar natijasida fiskal tizimda ijobiy ko'rsatkichlarga erishish bilan bir qatorda mamlakat iqtisodiyotida o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda va bu tendensiyasni inklyuziv tarzda davom etishi tizimni raqamlashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish orqali ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] Xalqaro valyuta fondi, M.Horton, A.El-Ganainy "Fiskal siyosat: soliqqa tortish va davlat xarajatlari" nashri, 2019-yil, 28-iyun;

[2] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi asosiy ko'rsatkichlar tahlili, 2023-yil, fevral;

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi «Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamонави axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5813-sonli Farmoni;

[4] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi fiskal tahlili, 2023-yil, 12-may;

[5] O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi fiskal tahlili, 2023-yil, 12-may.

ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ТРАНСАКЦИОН ХАРАЖАТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА БОЗОР САМАРАДОРЛИГИ

**Оспанова Феруза Базарбаевна -
Қарақалпоқ давлат университети тадқиқотчиси**

Иқтисодий тизимда, шу жумладан агро озиқ-овқат секторида, бозор битимларидан бошқа вертикал кординацияларнинг бир қанча шакллари мавжуд. Ҳакиқатдан ҳам иқтисодий назарияда кишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етишириш учун тузилган битимлар, кооперативлар, кўринишадаги қўшма корхоналар муҳим ҳисобланади. Хўш бунда савол пайдо бўлади: Нима учун корхоналар битимларни эркин бозорда тузишдан кўра ушбу координацияларни танлайди. Нима учун соф бозор битимлари айrim корхонолар ўртасидаги турли вертикал муносабатларда нокулайликлар келтириб чиқаради? Яъни қандай ҳолатда корхона соф бозор битимлари ўрнига айирбошлишнинг иккала томонидан ҳам ўз-аро мажбурият ва мувофиқлаштиришни талаб қиласиган вертикал муносабатларни ўрнатиш тўғри бўлади? Бу саволларнинг жавоби трансакцион харажатлар назариясидан топамиз. Яъни трансакцион харажатлар назариясининг мақсади корхоналарнинг товарларни ўзлари ишлаб чиқариши ёки бозордан сотиб олиши буйича қабул қилган қарорлари негизини аниқлашдан иборат [1]. Бунда бошланғич нуқта бозор муҳитини, бозор иштирокчилари ва корхоналар бозорни ўзига жалб қилишини ўрганишдан бошланади. Маълумки, иқтисодий агентларланинг рационаллик даражаси мукаммал бўла олмайди, шунинг учун шахслар ўзларининг чекланган, спекулятив, когнитив, ревизионистик ёндашувида, техник имкониятлари ва вақти туфайли ўз ҳаракатлари ва маълумот тўплаш ва қарор қабул қилиш имкониятида, прогнозларида чекланган бўлсалар ҳам атайлаб рационал агентлар сифатида ҳаракат қилишади. Бундан ташқари, иқтисодий субъектлар ўзларини оппортунистик тарзда тутадилар, яъни, шахслар ўз манфаатларини кўзлаб, алдаш ва фирибгарликка олиб келадиган, масалан, бошқа томонга фойдали маълумотни яшириш ёки маълумотни ўзгартирмаслик, бошқа томоннинг ишончини суиистеъмол қилиш, бу кўпинча сифати паст корхоналарининг фойда кўришига ва бозор номукаммаллигига олиб келади. Агар шахслар (шунингдек, фирмалар ва бошқа институтлар) чексиз мукаммал рационаллик қобилиятига эга бўлганида ва оппортунистик хатти-ҳаракатларга мойил бўлмаса, соф бозор нол харажат билан ишларди ва у фирмалар ўртасидаги мувофиқлаштиришнинг энг зўр шаклига айланар эди. Аммо бу реал хаётда амалга ошмаслиги сабабли трансакцион харажатлар назарияси таъкидлаганидек, фирма томонидан товарлар ёки хизматларни сотиб олиш учун трансакцион харажатларни (ёки бозордан фойдаланиш харажатларини) келтириб чиқаради.

Мисол тариқасида кетчуп маҳсулотини ишлаб чиқарувчи озиқ-овқат саноатини кўриб чиқайлик. Кетчупни тайерлаш учун асосий хом ашё сифатида помидор, саримсоқ пиёз, кўкатлар, уксус, ўсимлик ёғи ишлатилади.

Агарда бозор идеал ҳолатда бўлганида кетчупни ишлаб чиқараётган компания барча маҳсулотларни бозордан аниқроғи фермерлардан сотиб олиб ишлаб чиқаришга йуналтирган бўлар эди. Аммо озиқ-овқат саноатида мавжуд бўлган оппортунистик ҳаракат сабабидан, яъни фермерлар томонидан таклиф қилинган хом ашёнинг сифати пастлиги, ёки фермерларнинг бошқа харидорларга хом ашёни сотишга мажбурлиги туфайли кетчуп ишлаб чиқарувчи озиқ-овқат саноати корхонасининг бизнеси самарасиз бўлиш эҳтимоли бор.

Кишлоқ хўжалиги маҳсулотларига тан бўлган хусусиятлардан бири ушбу товарларнинг специфик хусусиятга эгалигидир. Чунки ушбу товарларга ҳар доим белгиланган талаблар ва нормалар мавжуд бўлиб, улар доимий равишда маҳсулот

дифференциацияси чуқурлашувини талаб қиласи. Қишлоқ хўжалиги харажатлари структурасида доимий харажатлар ўзгарувчан харажатлардан устун келади: қишлоқ хўжалигида қўлланиладиган техника ва ускуналарнинг аксарияти хўжалик йўритишнинг бошқа тармоқларида фойдаланиш имкони йўқ. Аксарият меҳнат омиллари ва меҳнат предметлари ҳам тармоқ ичида ишлаб чиқарилиб, илмий тадқиқотлар натижаларини ва инновацион технологияларни тармоқда фойдаланиш имконияти ҳам чекланган. Трансакцияда иштиок этувчи актив спецефик хусусиятга эга бўлса, трансакциядан ташқарида бу активни йуқотишларсиз фойдаланиш имкони йўқ [4].

Демак кўриб турганимиздек, бозор операциялари харажатларни келтириб чиқаради, яъни бозор муносабатларини харажатларсиз амалга оширишнинг имкони йўқ. Буларга: харидорни топишга кетадиган харажатлар, ҳамкор корхоналарнинг бозор қувватини ўрганиб чиқиши харажатлари, айирбошлиш шартларини келишиш жараёнидаги сарф-харажатлар, якуний харажатлар, шартнома мазмунини аниқлаш буйича харажатлар ва ҳ.к. киритиш мумкин.

Трансакцияларнинг асосий параметри сифатида активларнинг спецефик хусусияти, трансакцияларнинг яширинлиги ва тақориийлигига айтилади. Ўзига хослик белгиси алоҳида йўналтирилган инвестицияларга трансакциялар (маҳсулотнинг айнан шу турига талаб қилинувчи рухсатномалар, алоҳида штамп ва айнан шу маҳсулотни ишлаб чиқариш учун ходимларни иш жойида қайта тайёрлаш) қилинганда пайдо бўлади. Натижада инвестор учун харажатлар камайиши эҳтимоли билан бирга рисклар ошади, сабаби келишувлар амалга ошмай қолган тақдирда ёки шартнома муддатидан олдин бекорланган ҳолда бу активлардан бошқа проектларда фойдаланиш имкони пасаяди.

Тарихан қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг асосий қисми ушбу маҳсулотлар пишиб етилган даврда, яъни маҳсулот ҳақиқий мавжуд бўлган замонда реализация қилиниб келинган бўлса, бугун ғарб фермерлари дон маҳсулотлари, полиз маҳсулотларини экилмасдан олдин, ҳаттоқи чорво молларини улар туғилмасдан олдин сотмоқда. Бунинг учун товарнинг нархи, сифати, микдори, етказиб бериш шартлари ва жойи келишилган узоқ муддатли фьючерс ва форвард шартномалар қўлланилади. Бундай олдиндан тузилган аниқ белгиланган шартномалар фермерга жуда кўп харажатларни тежаш, ва харидорларни қидириб топиш ва келишувга келишда, янги бозорларни аниқлаш ва кириб боришдаги йуқотишларнинг олдини олиш имкониятини яратади.

Бугунги кунда маҳсулотни етиштириш учун фермерлар томонидан кооперативлар билан олдиндан шартномани имзолаш механизми фермер хўжалигини кўпайтиришнинг яна бир стратегиясидир. Шу билан бирга вертикал мувофиқлаштиришнинг ижобий томонларини амалиётга тадбиқ қилган ҳолда фақатгина йирик компаниялар ва кооперациялар учун зарур қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш билан чекланиб қолмасдан, ер билан уйғунликни мукаммал даражада амалга ошираётган фермерларимизнинг маҳорати билан яратилган биологик ва хайвонат хилма-хиллигини ҳам сақлаб колишимиз зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

- [1] F. Del Bono, S. Zamagni, *Microeconomia*, Il Mulino, 1999.
- [2] L. Bechetti, L. Bruni, S. Zamagni, *Microeconomia*, Il Mulino, 2010.
- [3] G. Belletti, A. Marescotti, *Coordination mechanisms in the agro-industrial system. The case of high-oleic sunflower*, in: G. Galizzi, L. Venturini (Eds.), *Vertical Relationships and Coordination in the Food System*, Physica-Verlag, Heidelberg, 1999.
- [4] Кузьминов. Я за пределами рынка: институты управления трансакциями в сложном мире Я. Кузьминов, М. Юдкеевич. Вопросы экономики 2010 №1
- [5] Коуз Р Фирма рынок и право-М..1993г

ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИНГ ЭКОНОМЕТРИК ТАДҚИҚОТИ

*Отаниёзов Орифжон Отахонович -
Тошкент түқимачилик ва енгил саноат институти
мустақил изланувчиси*

Бугунги кунда тез ўзгарувчан бозор иқтисодиёти шароитида глобаллашув жараёнининг янада чуқурлашуви юқори сифатли ва қўшилган қийматга эга товар ҳамда хизматларгина барқарор ва узоқ яшовчан бўлишини тасдиқламоқда. Шу боисдан, жаҳон бозоридаги юқори рақобат қурашувчанлиги шароитида ҳар бир ишлаб чиқарувчи корхона ва тадбиркор ўз маҳсулотларининг кенг истеъмолга йўналтирилганлиги, нарх ва сифат жиҳатдан устунлиги орқали қўшимча қиймат ҳосил қилишга интилиш, шу асосда қўлга киритилган бойликни янада қўпайтириш мақсадида ўз маҳсулотларининг янги турларини яратиш, уни такомиллаштириш, янги бозор худудларини эгаллаш борасида мунтазам изланишлар олиб бориши, бозор конъюнктураси ва истеъмолчилар хатти-ҳаракатини ўрганиши, хусусан, бозорга йўналтирилган маркетинг тадқиқотларини олиб бориши асосида самарали ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиши ҳамда муваффақиятли уни амалга оширишида замонавий бошқарув технологияларидан кенг миқёсда фойдаланиши унинг бизнесининг ривожи ва эртанги тараққиёти муҳим шарти бўлиб қолмоқда.

Тўқимачилик саноатини янада ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш бўйича қатор чора-тадбирлар ишлаб чиқилиб, ҳаётга жорий этилмоқда. Бу охирги йилларда қабул қилинган қатор Президент Фармонлари ва Фармойишлари, Президент ва Вазирлар Маҳкамаси қарорларида ўз аксини топган. Шу боисдан, 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида «Тўқимачилик саноати маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини 2 баробарга қўпайтириш» вазифаси белгиланган [1]. Мазкур вазифаларнинг самарали ижросини таъминлаш республикамиз тўқимачилик саноатининг истиқболдаги ривожланишини прогнозлаш моделларини ишлаб чиқишина тақозо этади.

Саноатнинг ривожланиши қўп омилли ва шу билан бирга зиддиятли жараён ҳисобланади. Иқтисодий ривожланиш ҳеч қачон бир текис, юқорилаб борувчи чизик бўйича рўй бермайди.

Иқтисодий ривожланиш ўз ичига юксалиш ва инқироз даврларини, иқтисодиётдаги миқдор ва сифат ўзгаришларни, ижобий ва салбий тамонларни олиб нотекис боради.

Польшалик бўлган америкалик иқтисодчи Е.Домар ва инглиз иқтисодчиси Р.Харрод томонидан иқтисодий ўсишнинг неокейнслик моделлари дастлаб ишлаб чиқилган. Улар томонидан олинган натижаларнинг бир-бирига яқинлиги туфайли ушбу модель фанда Харрод-Домар модели деб атала бошланган. Р.Харрод томонидан тавсифланган иқтисодий ўсиш моделининг мақсади ушбу ўсишининг траекторияси, яъни йўналишини аниқлаш ҳисобланади. Шунинг учун унинг асосини акселератор назарияси ташкил этиб, у инвестициялар ўсишини бунга сабаб бўлган даромад ўсишига нисбатини аниқлаш имконини беради. Е.Домар мос давлат сиёсати билан боғлиқ бўлган автоном инвестициялар билан иш олиб борган бўлса, Р.Харрод эса - миллий даромад ўсиши билан боғлиқ ишлаб чиқариш инвестициялари билан иш олиб борган [2].

«Ривожланиш» категориясининг дастлабки таърифлари платоник назарияга бориб тақалади, ушбу назарияга биноан ривожланиш бирон бир нарсанни очиб бериш сифатида қаралади, шу билан бирга маълум имкониятлар аллақачон бошиданоқ яратилган деб ҳисобланган. Шунингдек, амалиётда ривожланишни такомиллаштириш

тарзида тавсифлайдиган миқдорий ўсиш нуқтаи назаридан изоҳлайдиган механистик тушунча ҳам мавжуд эди [3].

Ривожланиш бўйича нисбатан умумлашган таъриф қуйидагича ифодаланади: ривожланиш – бу тизим элементи ва бошқа ташкил этувчиларининг йўналтирилган қонуний ўзгариши бўлиб, натижада объект (унинг таркибий тузилмаси)нинг янги сифатий ҳолати пайдо бўлмайди [3].

Акофф Р. томонидан эса қуйидагича фикр билдирилган: «ривожланиш – бу ташқи муҳитга боғлиқликни камайтиришга имкон берадиган салоҳиёт (компания қобилияти)дир» [4].

Исаев Р.А. томонидан томонидан Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноатида сифат менежменти ва стратегик менежмент интеграллашган тизимида тўқимачилик саноати корхоналари ривожланиш стратегияларини амалга оширишнинг ташкилий-бошқарув механизmlарини такомиллаштириш масалалари ўрганилган [5].

Тўқимачилик саноати ташкилий ва иқтисодий тизимининг барқарор ривожланиши бу жараён бўлиб, унда тасодифий таъсирлар бўлинеш, заҳиралаш ва ишончлилик хусусиятлари туфайли белгиланган параметрлардан минимал оғишларни келтириб чиқаради. Максимал жорий самарадорлик тизимининг барқарор ривожланишини ҳисобга олган ҳолда минимал харажатлар соҳасида бўлиши керак.

Ушбу муаммони ҳал қилиш учун баъзи бир омилларнинг ташкилот фаолиятининг молиявий натижаларига таъсирини аниқлашга имкон берадиган регрессия таҳдили усулидан фойдаланилган.

Тўқимачилик саноатини келгусида ривожлантиришга бир қатор омиллар таъсир кўрсатади. Улар жумласига жалб этилган инвестициялар ҳажми, фонд қайтими, меҳнат унумдорлиги, умумий айланма маблағлар суммаси ва бошқа бир қатор омилларни келтириш мумкин.

Ушбу масалалани ечиш учун “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари бўйича кўп омилли эконометрик модель тузиш учун қуйидаги омиллар танлаб олинди (2015 йилдан 2022 йилгacha бўлган даврдаги маълумотлар олинди): натижавий кўрсаткич – тармоқнинг маҳсулот (товар, иш, хизмат)ни сотишдан тушган умумий тушум, минг сўм - (Y), таъсир этувчи омиллар – жалб этилган инвестициялар ҳажми, минг сўм (X_1), асосий воситалар йиллик ўртачи қиймати , минг сўм (X_2), меҳнат унумдорлиги, минг сўм/киши (X_3), умумий айланма маблағлар суммаси, минг сўм - (X_4). Кўп омилли эконометрик модель тузишда олдин омиллар бўйича тавсифий статистика ўtkазилди. Бунинг учун маҳsus эконометрик моделлаштириш дастури – Eviews 10 дастуридан фойдаланилди.

Кўп омилли эконометрик моделнинг статистик аҳамиятлилигини ёки ўрганилаётган жараёнга адекватлигини (мос келишини) текширишда Фишернинг F-мезони қўлланилади. Яратилган эконометрик моделга кўра дастлаб “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси ривожланиш прогнозида таъсир этувчи экзоген омилларнинг вақт омили таъсирида ўзгаришининг тренд модели ва тенгламадан фойдаланган ҳолда натижавий ва таъсир этувчи омилларнинг ўрта муддат (2023-2027 йиллар) давомидаги прогноз кўрсаткичлари аниқланди:

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. ЎзР Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони // www.lex.uz.
2. Харрод Р. Теория экономической динамики / Р. Харрод; под ред. В.Г.Гребенникова. – М.: ЦЭМИ РАН, 2018. – 210 с.
3. Акатов Н.Б. Управление переходом к саморазвивающимся инновационным организациям: теория и практика: монография. – Пермь: Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2012. – 250 с.
4. Акофф Р. Планирование будущего корпорации. - М.: Сирин, 2012. - 256с.
5. Isayev R.A. Improvement of mechanisms for the implementation of integrated system strategy in textile enterprises // International journal of research in management & business studies. IJRMBS Vol.8 Issue 1, Jan to March 2021. – P. 24-26.

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, ПРЕПЯТСТВУЮЩИЕ НОРМАЛЬНОЙ РАБОТЕ МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ

Расулов Шохрух Жахонгирович -
докторант PhD, Самаркандский
институт экономики и сервиса

В качестве основного фактора, препятствующего нормальной работе малых предприятий (особенно субъектов сферы торговли), подавляющее число предпринимателей отмечают высокие налоги.

Необходимо разработать систему налогообложения так, чтобы она стимулировала предприятие производить инновационную продукцию. Исходя из интересов развития малого предпринимательства, следует сосредоточить их внимание не на отдельных видах налогов, пошлин, лицензионных и аналогичных ограничений, а, на ряде общих положений, ликвидирующих недостатки в действующих законодательных актах.

Освобождение же от налогов, налоговые льготы отдельным субъектам малого бизнеса создают им незаслуженные конкурентные преимущества, противоречащие положению о развитии конкуренции. Кроме того, этот механизм не освобождает частных товаропроизводителей от вмешательства государства, а ставит их в еще большую зависимость.

Созданию адекватных условий также мешает деятельности территориальных органов управления, в частности, органов местного самоуправления, которые пытаются устанавливать различные сборы или вносить предложения по установлению налогов местного значения по их усмотрению. Однако самостоятельный выбор видов местных налогов может создать для налогоплательщиков неравные условия, что может привести к процветанию крупных предприятий и разорению ранее процветающих.

1. Понимание механизма формирования финансовых ресурсов. Механизм формирования финансовых ресурсов относится к методам, используемым хозяйствующими субъектами для получения доходов и управления своими финансовыми ресурсами. Этот процесс включает в себя широкий спектр действий, включая составление бюджета, финансовое планирование, бухгалтерский учет и управление инвестициями. Предпринимателям необходимо иметь четкое представление о механизмах формирования финансовых ресурсов для обеспечения эффективного управления своими финансовыми ресурсами.

2. Стратегии улучшения финансовых ресурсов. Существует несколько стратегий, которые хозяйствующие субъекты могут использовать для улучшения своих финансовых ресурсов. Одним из наиболее эффективных способов является увеличение доходов за счет диверсификации потоков доходов. Этого можно достичь путем выхода на новые рынки, запуска новых продуктов или услуг и внедрения эффективных маркетинговых стратегий. Другая стратегия заключается в снижении затрат за счет повышения операционной эффективности. Экономические субъекты могут добиться этого за счет оптимизации своих процессов, автоматизации повторяющихся задач и оптимизации своих цепочек поставок. Это может помочь предприятиям сэкономить деньги и реинвестировать свои сбережения в другие сферы бизнеса.

3. Финансовое планирование и бюджетирование. Финансовое планирование и бюджетирование являются важнейшими составляющими механизма формирования финансовых ресурсов. Хозяйствующим субъектам необходимо иметь четкое представление о своих финансовых целях и задачах для разработки эффективного финансового плана. Это включает в себя прогнозирование доходов и расходов и разработку бюджета, соответствующего стратегическим целям бизнеса.

4. Бухгалтерский учет и финансовая отчетность. Эффективный бухгалтерский учет и финансовая отчетность имеют решающее значение для эффективного управления хозяйствующими субъектами своими финансовыми ресурсами. Точная финансовая отчетность дает предприятиям представление об их финансовых показателях, что позволяет им принимать обоснованные решения. Для предприятий важно иметь надежную систему бухгалтерского учета, которая может отслеживать финансовые операции и создавать точные финансовые отчеты.

5. Управление инвестициями. Управление инвестициями является еще одним важным аспектом механизма формирования финансовых ресурсов. Экономическим субъектам необходимо принимать разумные инвестиционные решения для получения прибыли и увеличения своих финансовых ресурсов. Это включает в себя разработку надежной инвестиционной стратегии, диверсификацию инвестиций и мониторинг эффективности инвестиций.

6. Управление рисками. Управление рисками является важнейшей составляющей механизма формирования финансовых ресурсов. Хозяйствующим субъектам необходимо выявлять и снижать потенциальные риски, которые могут повлиять на их

финансовые показатели. Это включает в себя разработку стратегии управления рисками, внедрение процессов управления рисками и мониторинг воздействия рисков.

7. Управление денежными потоками. Эффективное управление денежными потоками имеет решающее значение для поддержания устойчивого финансового положения хозяйствующих субъектов. Это включает в себя управление притоком и оттоком денежных средств, оптимизацию оборотного капитала и мониторинг резервов денежных средств. Управление денежными потоками особенно важно для малых и средних предприятий (МСП), которые могут иметь ограниченные финансовые ресурсы.

8. Налоговое планирование. Хозяйствующим субъектам необходимо разработать эффективную налоговую стратегию, чтобы обеспечить соблюдение налогового законодательства и нормативных актов при минимизации своих налоговых обязательств. Это включает в себя понимание налогового законодательства и правил, максимизацию налоговых вычетов и управление налоговыми рисками.

9. Показатели производительности. Показатели эффективности необходимы хозяйствующим субъектам для измерения их финансовых результатов и отслеживания прогресса в достижении их финансовых целей. Это включает в себя разработку ключевых показателей эффективности (КПЕ) и финансовых показателей, которые соответствуют стратегическим целям бизнеса. Эффективные показатели эффективности могут предоставить предприятиям представление об их финансовых показателях и помочь им принимать обоснованные решения.

10. Постоянное совершенствование. Непрерывное совершенствование имеет решающее значение для экономических субъектов, чтобы постоянно совершенствовать свои механизмы формирования финансовых ресурсов. Это включает в себя регулярный анализ и оптимизацию финансовых процессов, определение областей для улучшения и внедрение передового опыта. Приняв установку на непрерывное совершенствование, предприятия могут постоянно совершенствовать свои финансовые стратегии и процессы для достижения своих финансовых целей.

Совершенствование механизма формирования финансовых ресурсов имеет решающее значение для успеха и роста хозяйствующих субъектов. Предприятиям необходимо принять эффективные стратегии для получения доходов и управления своими финансовыми ресурсами, включая финансовое планирование, бухгалтерский учет, управление инвестициями и управление рисками. Разработав надежную финансовую стратегию и внедрив передовой опыт, предприятия могут обеспечить эффективное управление своими финансовыми ресурсами и добиться долгосрочного успеха.

Список использованных источников:

1. Бланк И.А. Управление формированием капитала: науч. изд./ И.А. Бланк. — Киев: Ника-Центр*Эльга,2007. — 512с.
2. Левчев, П.А. Система финансовых ресурсов предприятия/ П.А. Левчев // Экономический анализ: теория и практика. — 2006. - №16. – С. 40-47.
3. Кабанов В.Н., Антикризисное управление финансовыми ресурсами предприятия. Стратегические решения и риск-менеджмент. 2014; (6):84-93. <https://doi.org/10.17747/2078-8886-2014-6-84-93>
4. Исаков, Ж., Шомуродов, Р., & Исаков, И. (2020). Формирование финансовых ресурсов предприятиями. Архив научных исследований, 1(14). <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/1923>

XORIJIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALARNING MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI VA FAOLIYATI TAHLILI

*Hayitova Anora Zafarovna -
Jahon iqtisodiyoti va Diplomiya universiteti,
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti magistri*

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoiti har bir mamlakatda xo`jalik yuritishning turli mulkchilik shakllariga asoslanib faoliyat yuritishni taqazo etmoqda. Shuningdek, xo`jalik yuritishning aralash mulk shakliga xos bo`lgan xorijiy investitsiyali korxonalar ham keng faoliyat ko`rsatmoqda. Xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatining jadal rivojlanayotganligi iqtisodiyotimizning barcha soha va tarmoqlarida erishilayotgan ijobjiy o`zgarishlarga sabab bo`lmoqda va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar o`zining salmoqli hissasini qo`shib kelmoqda.

O`zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to`g`risida”gi Qonunida xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarga quyidagicha ta`rif berilgan: “O`zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar deganda aktsiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav fondining (ustav kapitali) kamida o`n besh foizini chet el investitsiyalari tashkil etadigan korxonalar tushiniladi.” [1]

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning manfaatdor tomonlari o`zlariga qarashli bo`lgan resurslardan birgalikda foydalanish hamkorlikda korxonalar tashkil etmoqdalar. O`zbekistonlik va xorijiy yuridik shaxslar hamda chet el fuqarolari bunday korxonalarning ta'sischilari bo`lishi mumkin. Xorijiy investitsiyali korxonalarni tashkil etish sabablari turli-tuman bo`lib, ularni ichki, tashqi va strategik sabablarga bo`lish mumkin. [2, 103-b.]

1-jadval

Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish sabablari

| | |
|--------------------|--|
| Ichki sabablar | Investitsiya muhitining ustunliklaridan foydalanish |
| | Risklarni taqsimlash |
| | Ishlab chiqarish miqyosida tejash |
| | Boshqaruvning yangi usullarini o`rganish |
| | Xorijiy bozorlarga chiqishni jadallashtirish |
| Tashqi sabablar | Shartnoma xarajatlarini kamaytirish |
| | Jahon bozoriga chiqish |
| | Siyosiy keskinlikning yumshashi |
| | Milliy hukumat talablari |
| Strategik sabablar | Samarali raqobatni vujudga keltirish |
| | Mustahkam xomashyo bazasiga ega bo`lish |
| | Texnologiyalar transferi |
| | Ishlab chiqarish diversifikatsiyasi |
| | Mamlakatda uzoq vaqt faoliyat olib borish imkoniyati |


Mamlaktimizda faoliyat olib borayotgan xorijiy investitsiyali korxonalarga nisbatan qo`llanilayotgan soliqlar va bojlar yuzasidan imtiyozlar hamda rag`batlar tizimi yaratilgan bo`lib, so`nggi yillarda takomillashtirilib borilmoqda. Mamlakatda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil qilish zamонавиу texnika va texnologiyalarni jalb qilish, yangi ish o`rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Xususan, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tahliliga ko`ra chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar mamlakatda eng

samarali va faol korxonalardan biri bo`lib kelgan. 2017-2021-yillar davomida chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 2,7 barobarga oshib, 2022 -yilning 1-yanvar holatiga ko`ra 13,2 mingtaga yetgan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda iqtisodiyotda rasman band aholining 6% i faoliyat yuritadi. Shunday bo`sada, ushbu korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 15%, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 24% ni tashkil etadi. 2021-yilda mamlakat tashqi savdo aylanmasining 19,8% i, eksport va importning mos ravishda 19,7% va 25% i aynan chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar hissasiga to`g`ri kelgan. [3]

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko`rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi yuksak darajada taraqqiy etishning hal qiluvchi omillaridan biri bo`lgan. Investitsiya siyosati nafaqat kapital mablag`lar miqyosini oshirishni, balki ularning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni, investitsiyalarni ko`proq samarali va raqobatdosh ishlab chiqarishlarga yo`naltirishni ko`zda tutadi. Ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini pasaytirishga qaratilgan soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish, to`lov intizomini mustahkamlash, xususiyashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar esa korxonalarning o`z mablag`lari ko`payishiga imkoniyat yaratadi.

Ma'lumki, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo`yicha tarkibining shakllanishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlari bilan bog`liq. O`zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo`yicha tarkibiga nazar tashlaydigan bo`lsak, 2022-yil dekabr holatiga ko`ra eng yuqori ulushlar savdo – 4700 ta (30,3%), sanoat – 4280 ta (27,6%) va boshqa tarmoqlarga – 2479 ta (16,0%), eng kam ulush esa sog`lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatishga – 229 ta (1,5%), tashish va saqlash – 446 ta (2,9%) kabi tarmoqlarga to`g`ri keladi. [4]

Bundan ko`rinib turibdiki, yurtimizda faoliyat ko`rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi savdo va sanoatga, kam ulushi esa sog`lijni saqlash hamda tashish va saqlash sohasiga to`g`ri keladi. Yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar ko`rsatish, axborot va aloqa kabi sohalar hamon xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar nisbatan kam faoliyat yuritayotgan sohalardan biri bo`lib qolmoqda. Bundan ko`rinib turibdiki, xizmatlar sohasini rivojlanadirish xorij kapitalini jalb qilish ko`lamini oshirishga o`zining salmoqli hissasini qo`shadi.



1-rasm. O`zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

Respublikamizda tashkil qilingan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning mintaqalar bo'yicha joylashuvi birmuncha notekis bo'lib, statistika agentligining 2022-yil dekabr holatidagi ma'lumotlariga ko'ra faoliyat yuritayotgan jami korxonalarning aksariyati Toshkent shahriga (61,3%), Toshkent viloyatiga (10,5%), Samarqand viloyatiga (4,5%) hamda Surxondaryo viloyatlariga (4,0%) to'g'ri keladi. Xorazm viloyati (1,2%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (1,2%) hamda Sirdaryo viloyati (1,4%) faoliyat yuritayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni bo'yicha quyi ko'rsatkichlarni qayd etadi. Statistik ma'lumotlarni tahlili orqali respublikamizda tashkil qilingan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning aksariyati yirik shaharlarda, markazga yaqin joylarda tashkil qilingan bo'lib, faoliyat yuritayotganiga guvoh bo'lamiz. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining tahlili orqali quyidagi xulosa va takliflarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

–Mamlakatimizning sust rivojlanayotgan hududlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni faol davom ettirish zarur. Bunda hududiy boshqaruv organlarining turli sohalardagi investitsiya loyihalarining amaliyatga samarali tadbiq etilishi yuzasidan mas'uliyatini oshirish lozim;

–Har bir hudud bo'yicha tahlilij ma'lumotlar bazasini shakllantirish yuzasidan amaliy tadbirlar ishlab chiqish va xorijiy investorlarni hududning eksport imkoniyatlari bo'yicha zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlash. Bugungi kunda chet el investitsiyalarini kiritishda eng asosiy muammo kiritilayotgan investitsiyalarning hududiy taqsimlanishi darajasi bilan bolg'iq bo'lganligi sababli qabul qilingan Davlat Dasturi va unda belgilangan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning mamlakat eksport salohiyati tarkibida o'sib boruvchi salmoqqa ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega;

–Investitsiyalarni keng ko`lamda jalb qilish maqsadida mamlakatimizning kam rivojlangan hududlarida infratuzilmalarini rivojlanantirish dasturlari bajarilishi yuzasidan davlat monitoringini o'rnatish. Bunda, ayniqsa, telekommunikatsiya va mehmonxona xo'jaligi sohalarini rivojlanantirishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofikdir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining samarali tashkillashtirilishi, investitsion muhit hamda investitsion imidjning yaxshilanishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda xorijiy investitsiyali korxonalarga nisbatan qo'llanilayotgan soliqlar va bojlar yuzasidan imtiyozlar hamda rag'batlar tizimi orqali xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozlar berish davlatimiz tomonidan olib borilayotgan investitsiya siyosatining asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni;
2. Mamatov B.S., Xujamkulov D.Y., Nurbekov O.Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va molialashtirish. Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2014.
3. <https://www.imrs.uz> (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti rasmiy sayti). Havola: https://t.me/ifmr_public/2449
4. <https://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti). Havola: <https://stat.uz/files/369/Risolalar-2022/2659/Yanvar-noyabr.pdf>

ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИНИ ПРОГНОЗЛАШ

Худойбердиев Равшан Уктамжонович -
*Тошкент давлат иқтисодиёт университети қошидаги
“Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришининг
илмий асослари ва муаммолари” ИТМ таянч докторантни*

Республикамизда мустақилликнинг дастлабки йилларидан бошлаб, халқ хўжалигининг барча соҳаларида, жумладан тўқимачилик саноатида ҳам амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотлар янада чуқурлаштиришга йўналтирилмоқда. Ушбу соҳада олиб борилаётган иқтисодий сиёsat, тармоқ ишлаб чиқаришида таркибий ўзгаришларни амлга ошириш, маҳсулот ишлаб чиқарувчилар эркинлигини таъминлаш, мулкчиликнинг турли шаклларини жорий қилиш ҳамда хўжалик, ташкилот ва корхоналар ўртасида моддий-техника таъминоти, молиявий-иктисодий ўзаро муносабатларни такомиллаштиришга катта эътибор берилмоқда. Ўзбекистонда пахта хомашёсини чуқур қайта ишлаш асосида юқори қўшилган қийматли экспортбоп тайёр маҳсулот турларини ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш зарурати ортиб бормоқда. Шу боисдан 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида «Тўқимачилик саноати маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини 2 баробарга кўпайтириш» бўйича муҳим вазифалар белгилаб берилган [1]. Бу каби улкан вазифаларнинг муваффақиятли бажарилиши республикамиз иқтисодиётининг етакчи тармоқларидан бири саналган тўқимачилик корхоналари барқарор ривожида бизнес-жараёнларни такомиллаштириш асосида фойдаланилмаётган ички салоҳиятлардан янада оқилона фойдаланишни таъминлашнинг аниқ чора-тадбирларини ишлаб чиқишни талаб этади. Шу жиҳатдан, тўқимачилик корхоналари барқарор ривожланишини таъминлашда улар ишчанлик фаоллигини ошириш бўйича илмий асосланган таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш бугунги қуннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

«Барқарорлик» тоифаси муаллифлар томонидан атрофлича ўрганилган. Ускова Т.В. [2] томонидан унга қўйидагича таъриф келтирилган: "... Ўзгаришлар жараёни, унда ресурсларни эксплуатация қилиш, инвестициялар йўналиши, технологик тараққиёт ижтимоий фаровонлик ва экологик мувозанат билан мос равишда йўналтирилганли ҳозирги ва келажакдаги салоҳиятгага қиймат қўшади». Кульбак Н.А. [3] эса ушбу атаманинг қўйидаги талқинини келтирган: "... Иқтисодий ресурсларнинг мувозанатли ҳолати, бу энг муҳим ташқи ва ички омилларни ҳисобга олган ҳолда, узоқ муддатли истиқболда барқарор иқтисодий ўсишни кенгайтириш учун барқарор рентабеллик ва нормал шароитларни таъминлайди».

Исаев Р.А. томонидан томонидан Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноатида сифат менежменти ва стратегик менежмент интеграллашган тизимида тўқимачилик саноати корхоналари ривожланиш стратегияларини амалга оширишнинг ташкилий-бошқарув механизmlарини такомиллаштириш масалалари ўрганилган [4].

Тўқимачилик саноати ташкилий ва иқтисодий тизимининг барқарор ривожланиши бу жараён бўлиб, унда тасодифий таъсирлар бўлинеш, заҳиралаш ва ишончлилик хусусиятлари туфайли белгилangan параметрлардан минимал оғишларни келтириб чиқаради. Максимал жорий самарадорлик тизимнинг барқарор ривожланишини ҳисобга олган ҳолда минимал харажатлар соҳасида бўлиши керак.

Ушбу муаммони ҳал қилиш учун баъзи бир омилларнинг ташкилот фаолиятининг молиявий натижаларига таъсирини аниқлашга имкон берадиган регрессия таҳлили усулидан фойдаланилган.

Барқарорлик - бу динамик категориядир. Шунинг учун кўрсаткичлар сериясини динамикада кўриб чиқиш керак бўлади.

Тўқимачилик саноатини келгусида ривожлантиришга бир қатор омиллар таъсир кўрсатади. Улар жумласига асосий воситалар йиллик ўртacha қиймати, меҳнат унумдорлиги, умумий айланма маблағлар суммаси ва бошқа бир қатор омилларни келтириш мумкин.

Ушбу масалалани ечиш учун “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси таркибиغا кирувчи “FULL COTTON” масъулияти чекланган жамият танлаб олинди. Ушбу корхонанинг иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари бўйича қўп омилли эконометрик модель тузиш учун қуйидаги омиллар танлаб олинди (2015 йилдан 2022 йилгача бўлган даврдаги маълумотлар олинди): натижавий кўрсаткич – корхонанинг маҳсулот (товар, иш, хизмат)ни сотишдан тушган умумий тушум, минг сўм - (Y), таъсир этувчи омиллар – корхонанинг асосий воситалар йиллик ўртacha қиймати, минг сўм (X_1), меҳнат унумдорлиги, минг сўм/киши (X_2), умумий айланма маблағлар суммаси, минг сўм - (X_3). Кўп омилли эконометрик модель тузишда олдин омиллар бўйича тавсифий статистика ўтказилди. Бунинг учун маҳсус эконометрик моделлаштириш дастури – Eviews 10 дастуридан фойдаланилди.

Кўп омилли эконометрик моделнинг статистик аҳамиятлилигини ёки ўрганилаётган жараёнга адекватлигини (мос келишини) текширишда Фишернинг F-мезони қўлланилади.

Унга кўра дастлаб “FULL COTTON” МЧЖ нинг прогнозида таъсир этувчи экзоген омилларнинг вақт омили таъсирида ўзгаришининг тренд модели ва тенгламадан фойдаланган ҳолда натижавий ва таъсир этувчи омилларнинг ўрта муддат (2023-2027 йиллар) давомидаги прогноз кўрсаткичлари аниқланди:

Тўқимачилик корхоналари барқарор ривожланишини таъминлаш механизмларини такомиллаштириш бўйича амалга оширилган тадқиқот иши натижаси бўйича қуйидаги хулоса ва таклифлар қилинди:

- барқарор ривожланиш концепцияси учта йўналишни ажратиши назарда тутади: иқтисодий, ижтимоий ва атроф-муҳит, бу уларнинг алоҳида аҳамиятини, ўзаро боғлиқлик ва боғлиқликнинг мавжудлигини кўрсатади, шу билан бирга уларнинг камида биттасини эътиборсиз қолдириш бутун тизим барқарорлигини бузиши мумкин;

- бизнингча, тўқимачилик саноатининг барқарор ривожланиши ҳақида гапирганда ва нафақат рақобат, балки илм-фанни талаб қиласиган янги технологиялар ва инновацияларни жорий этиш билан тавсифланадиган саноат корхоналарининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, илм-фан ва техника соҳасидаги фаол фаолият ёрдамида ривожланиш орқали барқарорликнинг «заиф» моделини «мустаҳкамлаш» мумкин;

- барқарор ривожланиш стратегияси самарадорлигининг энг муҳим омиллари қуйидагилар саналади: мослашувчан салоҳият, мумкин бўлган ва салоҳият нуқтаи назаридан самарали янгиликларни амалга ошириш йўналишлари ва қўлами, корхонанинг янгиликларни жорий этишга тайёргарлиги; инновацияларни самарали ўзлаштириш ва марказлаштириш ҳамда инновацион технологияларни ривожлантириш учун зарур бўлган бошқарувни марказлизлаштиришни бирлаштиришга имкон берадиган мослашувчан ташкилий шакллар; тажриба, ташқи ва ички омиллар ва ҳодисаларни таҳлил қилиш, янги технологияларни ўзлаштириш натижасида аниқ компетенцияларнинг тўпланишини таъминлайдиган ўқув жараёнлари.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони. // www.lex.uz.
2. Ускова Т.В. Управление устойчивым развитием региона. – Вологда: Litres, 2017. – 4666 с.
3. Кондаурова Д.С. Совершенствование механизма управления устойчивым развитием промышленного предприятия [Текст]: автореф. дис... кан. экон. наук: 08.00.05 / Д.С. Кондаурова. – Самара, 2015. - 26 с.
4. Isayev R.A. Improvement of mechanisms for the implementation of integrated system strategy in textile enterprises // International journal of research in management & business studies. IJRMBS Vol.8 Issue 1, Jan to March 2021. – P. 24-26.

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SAVDO KORXONALARIDA RAQAMLI MARKETINGNING ROLI

Sharopova Nafosat Radjabovna -

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Marketing kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

Jumatoyev Umar Nurali o'g'li -

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Xalqaro turizm” fakulteti Savdo shi (turlari bo'yicha) 2-kurs magistranti

Hozirgi kunda raqamli inqilob nafaqat mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida balki butun dunyo jamiyatini, shuningdek bizning ham hayotimizni misli ko'rilmagan tezlikda o'zgartirga erishmoqda. Albatta, bu o'zgarishlar katta imkoniyatlar bo'libgina qolmay, ulkan qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi. Savdo tizmidagi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadiga erishishda yangi texnologiyalar yaratish muhim hissa qo'shishi marketing faoliyatida ham ahmiyatli ammo, to'liq ming foizli ijobjiy natijalar kafolatsizdir. Savdo tizmidagi raqamli marketing yangi imkoniyatlar yaratilishi bilan birga yana yangi xavf va tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Bu noqonuniy raqamli marketing faoliyatni osonlashtiruvchi kiberxavfsizlik va hali to'liq texnologiyadan foydalanmaydigan jismoniy shaxslarning hayotida bir qator noqulayliklarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. Yangi texnologik sektorni rivojlantirish va joriy qilishda hukumatimiz va jamiyat fuqarolarining birgalikdagi sa'y-harakatlari maqsadga muvofiqdir.

Jahon iqtisodiyotida savdo tizimini raqamlashtirish internetning gipermedia muhitida marketingni tashkil etish nazariyasi va metodologiyasi. Internet o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular an'anaviy marketing vositalaridan farq qiladi [1]. Savdo tizmidagi raqamli marketing ba'zi bir asosiy xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Marketing internetda yuqori darajada shaxsiylashtirishga ega. An'anaviy marketing asosan ommaviy iste'molchiga qaratilgan bo'lsada, Raqamli marketingda har kimning fikrini hisobga oladi (ma'lum darajada) va hamma bilan o'zaro munosabatda bo'ladi [2]. Boshqacha aytganda, Internetda (siljitim) reklama yagona mijozlarni jalb qilishga qaratilgan. Shaxsiy ma'lumotlarning mavjudligi shuningdek, reklama kompaniyalarida aniq targetinga (butun auditoriyadan belgilangan mezonlarga javob beradigan qismni ajratib ko'rsatish) imkon beradi.

Kompaniyaning iste'molchilar oldida raqobatbardoshligini oshirish uchun savdo tizimda raqamli marketingni rejalashtirish, amalga oshirish va boshqarish qobiliyati raqamli marketing qobiliyati deb ataladi. Kompaniyaning raqamli marketing qibiliyatini baholash va yaxshilash uchun raqamli marketingdan foydalanish indeksini (RMFI) taqdim etilgan bo'lib,

unda uchta komponentdan iborat: innovatsiyalar ekotizimining tayyorligi, raqamli marketing texnologiyasini qabul qilish va kompaniyaning raqamli transformatsiyasi.

Indoneziyadagi 217 kompaniya ma'lumotlariga asoslanib, natijalar Indoneziyadagi kompaniyalarning RMFI o'rtacha 71,97, Indoneziyadagi kompaniyalarning raqamli marketing imkoniyatlari darajasi o'rta toifada ekanligini ko'rsatadi [3]. Ular boshqaruv innovatsionligi, tashkiliy tayyorgarligi va qabul qilingan foydalilik rolini oshirish orqali savdo tizimda raqamli marketing imkoniyatlarini yaxshilashlari mumkin. Bundan tashqari, korxonalar yangi biznes modellarini o'zgartirish va qayta ixtiro qilishni boshqarish orqali raqamli transformatsiyani amalga oshirishlari kerak.

Savdo tizmidagi raqamli marketingni boshqarish jarayoni ma'lum bir ketma-ketlikda kompaniyalarning marketing xizmatlari xodimlari tomonidan bajariladigan operatsiyalar va jarayonlar yig'indisini aks ettiradi va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

➤ internet imkoniyatlaridan va korporativ ma'lumotlar bazasining omborxonasidan foydalangan holda bozor va undagi raqobatchilarning harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;

➤ ushbu bozor segmentidagi stoxastik va dinamik jarayonlarni o'rganish;

➤ elektron bozorda iste'molchi hatti - harakatlarining psixologik ta'sirini

➤ modellashtirish, xavf va noaniqlik sharoitida kompaniyaning strategiyalari, mavjud bozorlarni rivojlantirish uchun yangi modellarni shakllantirish, bozorga kirish, alyanslar va birlashmalar, diversifikatsiya va boshqalar.

Marketing bu analogdan raqamliga o'tish uchun istisno emas. Raqamli marketing, ijtimoiy media marketingi, shuningdek, qidiruv tizimi reklamasidan foydalanish texnologik taraqqiyot bilan birga juda ko'payib bormoqda [4]. Raqamli marketing eng ko'p pul ishladi, chunki u asosan internetga tayanadi va internetdan foydalanadigan odamlar soni tez o'sib bormoqda. Shuningdek iste'molchilarning xarid qilish odatlari o'zgarmoqda va raqamli marketing endi an'anaviy marketingdan ko'ra mashhurroq.

Raqamli marketingning texnologiyani, internetni joriy etish orqali evolyutsiyasi an'anaviy marketingni raqamli marketing shaklini yutib olishni imkonsiz qildi [5]. Hozirgi vaqtida korxonalar tomonidan an'anaviy va raqamli marketing shakllari qo'llanilmoqda. Bu xaridorlar va brendlар o'rtasida ko'prik qurish marketologlar, sotuvchilar, biznes bo'linmalarining shioridir [6]. Texnologiya sifatli tovarlar va xizmatlarning o'lchamlarini o'zgartirishga olib keldi [7]. Raqamli marketing sotuvchilar o'rtasida kuchayib borayotgan raqobat, ko'proq daromad olish, global bozorda yetakchilik qilish, dunyoning har bir burchagiga kirish uchun kuchayib borayotgan ochlikdan tug'ilgan. Raqamlashtirishning kashfiyotisiz buni amalga oshirish mumkin emas edi. Qo'lда ozgina mahsulot bilan jismoniy sayohat qilish va tovarlarni boshqa geografiyaga yetkazib berish qimmatga tushadi va kichik miqyosdagi sotuvchi daromaddan ko'ra ko'proq xarajatlarga duchor bo'lish xavfini orzu qila olmaydi. Raqamli marketingning joriy etilishi sotuvchilar uchun ne'mat, abadiy baxt sovg'asi bo'ldi.

Har bir inson internet orqali bir-biriga ulangan. Ijtimoiy media ilovalari, Facebook, Twitter va boshqalar sotuvchilarga mijozlarga tezda erishishda yordam berishmoqda [8]. Internetdan faqat boy va samarali erkaklar foydalanishi mumkin bo'lgan dastlabki vaqtlar endi mavjud emas. Hozirda har bir oddiy odam internetga kirish imkoniyatiga ega .

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy faoliyatda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Shunday sohalardan biri har qanday biznesning muhim qismi bo'lgan marketingdir [9]. Raqamli iqtisodiyotning asosiy tendentsiyasi axborotning ko'pligidir. Raqamli savdo marketing faoliyatining zamonaviy sharoitlarida internet-texnologik yutuqlarni qo'llash korxonalarga marketing xarajatlarini kamaytirish, mijozlar bazasini kengaytirish, reklama faoliyati samaradorligini oshirish va eng muhim, maqsadli auditoriyani topish imkonini beradi.

Raqamli savdo ommaviy axborot vositalarining mashhurligi o'n baravar oshdi, har bir iste'molchi kompaniyalar o'z mahsulotlarini sotishni maqsad qilgan ommaviy axborot

vositalarining u yoki bu shakllaridan foydalanadi [10]. Keng auditoriyani qamrab olish hech qachon oson bo'limgan. Iste'molchilarning onlayn platformalarga bog'liqligi ularning xarid qilish qarorlariga katta ta'sir ko'rsatganligi sababli, marketologlar o'z bizneslarini raqamli savdo tizimlariga o'tkazdilar va bu raqamli marketingni yangi davr marketing texnikasiga aylantirdilar. Biroq, marketing uchun raqamli platformadan foydalanishning ko'payishi bilan xavfsizlik xavfi ham ortadi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan foydalanuvchilarning nozik ma'lumotlarini buzishi mumkin. Shuning uchun raqamli marketing xodimlarnini xavfsizlik bo'yicha bilim, tajriba va ko'nikmalariga alohida e'tibor berish lozim.

Savdo tizimidagi raqamli marketing doirasi juda keng. U raqamli marketing, onlayn reklama va turli elektron kanallar orqali reklamalarni qamrab oladi [11]. Iste'molchilarga savdo tizimidagi raqamli marketing orqali o'z vaqtida va tejamkor tarzda murojaat qilish mumkin. Raqamli marketing iste'molchilar uchun katta imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ehtiyyot bo'lish kerak bo'lgan ba'zi muammolar mavjud. Bizda savdo tizimidagi raqamli marketingning axloqiy jihatlari, masalan, iste'molchilarning shaxsiy hayoti (masalan, ularning roziligidiz iste'molchilarning video misollari) va intellektual mulkning buzilishi (masalan, avtomobilarni yuvish reklamasida agent xorijiy kadrlardan foydalanadi) kabi axloqiy jihatlarga ega emasmiz. Bu ikki sababga ko'ra sodir bo'lishi mumkin: birinchidan, biz axloqiy va barqaror bo'lishni yaxshi bilmasligimiz mumkin; ikkinchidan, biz halol yo'llar bilan tez farovonlikni qadrlashimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy tendentsiyasi axborotning ko'pligidir. Internet-texnologik taraqqiyot faoliyatini marketingda qo'llash mijozlarning fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyatini beradi, shuningdek, o'z mahsulotlarini ilgari surishda kompaniya mahsulotlari haqida xabardorlikni oshirishga yordam beradi [12].

Xulosa o'rnidida ta'kidlash mumkinki, savdo tizimidagi raqamli texnologiya mijozlar va ularning ehtiyojlari o'rtasidagi har qanday to'siqlarni bekor qilish orqali biznesning ishslash usulini butunlay o'zgartirdi. Tashkilotni muvaffaqiyatli raqamlashtirish uchun jarayonning jihatlarini tushunish va transformatsiyani qachon boshlash kerakligini hal qilish juda muhimdir. Dinamik o'zgaruvchan muhitda iste'molchilarga tez va muammosiz xizmatlar ko'rsatilishi kerak. Ular foydalanuvchilar uchun qulay to'lov yechimlari va ularning brend yoki tashkilot bilan munosabatlariga asoslangan shaffof qoidalarni kutishadi. Raqamli savdo orqali kelajakda muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan korxonalar doimiy ravishda atrof-muhitni kuzatib borishlari va mijozlarning ehtiyojlarini qondirish uchun eng qisqa vaqt ichida strategiyalarini yangi paydo bo'lgan tendentsiyalarga moslashtirishlari kerak.

Bugungi sharoitda korxonalar savdo tizimidagi raqamli marketingni iqtisodiyotimizda to'g'ri qo'llash va global raqobatda mavjud bo'lish uchun iste'molchilarning o'zgaruvchan farqlarini hisobga olishlari kerak. Shu sababli, korxonalar raqamli marketing faoliyatini hisobga olishlari juda muhimdir.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.in-academy.uz/index.php/zdit/article/download/6971/5300>
2. Yulianti, Sri & Ismaya, Sakti & Indrajaya, Titus & Sova, Maya & Rosmiati, Eros. (2023). Empowerment Digital Marketing Strategy One Time Entrepreneur Micro Application Social Media in the Village Mekar Jaya, District Sukmajaya, Depok City. East Asian Journal of Multidisciplinary Research. 2. 393-416. 10.55927/eajmr.v2i1.2744
3. Masrianto, Agus & Hartoyo, Hartoyo & Vitayala, Aida & Hasanah, Nur. (2022). Digital Marketing Utilization Index for Evaluating and Improving Company Digital Marketing Capability. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. 8. 153. 10.3390/joitmc8030153.
4. Naik, Mr & Bhosale, Mrs. (2023). Study on Digital Marketing and It's Impact. International Journal of Advanced Research in Science, Communication and Technology. 282-286. 10.48175/IJARSCT-8156.
5. Шаропова, Н. (2022). Ўзбекистон тадбиркорлик субъектлари фаолиятида срт тизимларидан фойдаланиши. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 10(3), 339–347. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss3/a36

6. Sharopova, N. (2021). *Marketing strategies for the development of the market of preschool education services in Uzbekistan*. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.1 Economical sciences).
7. Sharopova, N. (2023). *Tadbirkorlik faoliyatida raqamli marketing tadqiqotlarining zarurati*. Engineering Problems and Innovations. извлечено от <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/108>
8. Kiladze, Tamar & Kantaria, Manana. (2022). *Digital Marketing and Business. Economics*. 105. 326-331. 10.36962/ECS105/3/2022-326.
9. D'Cruz, Lucita & Nandi, Shampa. (2022). *Impact of Cybersecurity on Digital Marketing*. Shanlax International Journal of Management. 9. 75-86. 10.34293/management.v9iS1.4848.0
10. Akgün, V. Özlem. (2022). *Marketing Mentality of the Modern Age: Digital Marketing*. 10.33422/5th.conferenceme.2022.07.25.
11. Islam, Mohammad & Islam, Md Shamimul & Khan, Tanzin. (2022). *Digital marketing ethics and trust building*.
12. Kiladze, Tamar & Kantaria, Manana. (2022). *Digital Marketing and Business. Economics*. 105. 326-331. 10.36962/ECS105/3/2022-326.

MILLIY IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI BOJXONA XIZMATLARINING AHAMIYATI

***Ergashev Qobiljon Ernazarovich -
Bojxona instituti "Bojxona nazorati"
kafedrasi katta o'qituvchisi***

O'zbekistonda raqamli bojxona xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni aniqlab olishda "xizmat", "bojxona xizmati" tushunchalarining mohiyatini tadqiq qilib olishimiz zarur. Bu borada, "xizmat" tushunchasini o'z ilmiy izlanishlarda yoritib bergen olimlarning nazariyalarini tadqiq qilib chiqamiz.

Xususan, D.N.Ushakovning tushuntirishicha, "Xizmat bu shunday harakatki unda bir inson boshqasiga yordam beradi, ya'ni foyda keltiradigan ish qiladi.[1]

S.Haller xizmatni shunday ifodalaydi: "Yetkazib beruvchining iste'molchining xohish-istiklarini qondiradigan faoliyatni amalga oshirishga tayyorligidir".[4]

"Xizmat" tushunchasi mazmunida ma'lum bir o'xhashlikka qaramasdan "bojxona xizmati" dan o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi.

"Raqamli bojxona xizmatlari" va "elektron bojxona xizmatlari" tushunchasini quyidagi jadval orqali tahlil qilamiz (1-jadvalga qarang).

"Smart bojxona xizmatlari" — sun'iy ong asosida bojxona organi mansabdor shaxsining faoliyatini o'zlashtira oladigan, operatsion jarayonlarni o'ziga immetatsiya qiladigan, inson omilisiz biznes jarayonlariga reaksiya qiladigan faoliyat.

Shuningdek, JBT Bosh kotibi Kunio Mikuriy ta'kidlaganidek, "Sanoat inqilobi endilikda elektronika va axborot texnologiyalaridan foydalanishdan tashqari, kiberfizik tizimga asoslangan raqamli dunyo yo'nalishida bormoqda.

Shu o'rinda, nazariy jihatdan, omillar, ustuvor yo'nalishlar, asosiy tendensiyalarni raqamli bojxona xizmatining mazmunin ochib beruvchilar sifatida ko'rib chiqamiz:

- **raqamli bojxona xizmatining asosiy faollashtiruvchilari (hissa qo'shuvchi omillar):** strategiya; huquqiy asos; boshqaruv tuzilmasi; AKT infratuzilmasi.

- **raqamli bojxona xizmatlarining ustuvor yo'nalishlari:** ulanish; muvofiqlashtirilgan chegara boshqaruvi (yagona darcha); Ma'lumotlar modeli; elektron tijorat; Big data; axborot almashinushi; barqaror rivojlanish maqsadlari.

- **raqamli bojxona xizmatlarining asosiy tendensiyalari:** bulutli hisoblash; mobil texnologiyalar; ilg'or ma'lumotlar tahlili va axborotni boshqarish sohasidagi yutuqlar.

1-jadval

“Elektron bojxona xizmatlari” va “Raqamli bojxona xizmatlari”ning qiyosiy tahlili.[5]

| Mezonlar | Elektron | Raqamli |
|--|-----------------|----------------|
| To'liq elektron deklaratsiya | + | + |
| Masofaviy rasmiylashtirish tizimi | + | + |
| Yagona shaxsiy hisoblar tizmi | + | + |
| Markazlashgan deklaratsiyalash markazlar tizimi | + | + |
| Bojxona deklaratsiyasini tekshirishni avtomatlashtirish | + | + |
| Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bilan elektron hamkorlik | + | + |
| Bojxona ma'muriyati va postlar bilan elektron hamkorlik | + | + |
| Yagona oyna tizimini ishlab chiqish | + | + |
| Boshqa organlar bilan elektron hamkorlikni kuchaytirish | + | + |
| Deklaratsiyani avtomatik qabul qilish va ro'yxatga olishni ishlab chiqish | + | + |
| Sun'iy intellektdan foydalanish | - | + |
| Aqli bojxona postlarini yaratish, ma'lumotlarni aqli bojxona postlardan MEDga avtomatik uzatish | - | + |
| Deklaratsiya, aqli bojxona posti va boshqa organlardan olingan ma'lumotlarni avtomatik ravishda solishtirish | - | + |
| Barcha muntazam og'ir mayda hisoblash ishlari sun'iy intellekt tomonidan amalga oshiriladi | - | + |

Boshqaruv nazariyasida “raqamlashtirish” atamasi turli ma'nolarda qo'llaniladi.

Xususan, T.Serixning fikricha, raqamlashtirish – bu ilg'or texnologiyalardan foydalanishdir.

P.Borovkov “raqamli bojxona xizmatlari”ning mazmunini tahlil qilishda uchta asosiy tushunchani ajratib ko'rsatadi: avtomatlashtirish; raqamlashtirish; biznesning raqamli transformatsiyasi.

A.Tarasovning ilmiy izlanishlari natijasiga ko'ra, bojxona xizmatlarining raqamli transformatsiyasi eng avvalo, yangi biznes jarayonlari, tashkiliy tuzilmalar uchun yangi qoidalar, mas'uliyat, namunalar demakdir.

Ushbu nazariy yondashuvlarni o'rghanish natijasida bojxona xizmatlari quyidagi texnologik guruhlardan biriga asoslangan bo'lsa, raqamli hisoblanishi haqida yakuniy fikrga kelishimiz mumkin:

1. Kengaytirilgan tahlil (ilg'or tahlil va katta ma'lumotlar); 2. Sun'iy intellekt (masalan, kompyuterning ko'rishi, nutq interfeysi);

3. Robotlashtirish (robotlar va dronlar); 4. Mobil va qurilmalar (mobil yechimlar, taqiladigan texnologiyalar, masalan, elektron bojxona muhrlari); 5. Integratsiyalashgan texnologik platformalar (bulut texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, tezlashtirilgan / kvant hisoblash, blokcheyn).

Bizning fikrimizcha, T.Serix tadqiqotida ko'rsatilgan yondashuvlar xizmatlarni raqamlashtirish institutining shakllanishi prizmasi orqali talqin qilinishi kerak:

1. Raqamli loyiham; 2. Bojxonada innovatsion madaniyatni yoyish; 3. Raqamli “ekotizim”ni rivojlantirish; 4. Yangi kompetensiyalarni rivojlantirish; 5. Yangi tashkiliy va boshqaruv yondashuvlarini qo'llash; 6. Raqamli iste'dodlarni jalb qilish, saqlash, rag'batlantirish va rivojlantirish; 7. Bojxona organlari huzurida ishchi guruh tuzish.

N.G.Miloslavskaya va R.A.Sagirov raqamli bojxona xizmatlari ko'rsatkichlarni baholash yetuklik darajasini tavsiflovchi jarayonlarning holatini ko'rsatishini isbotladi[12].

“Raqamli bojxona xizmatlari” tushnchasini iqtisodiy mazmunini olib berishda JBT Bosh kotibi Kunio Mikuriyaning bir qator tezislarini ta’kidlash muhimdir:

- *raqamli bojxona xizmatlari keng qamrovli, kelajakka qaratilgan tushunchadir;*
- *raqamli bojxona xizmatlari* bojxona to’lovlarini yig’ish, tovarlar, odamlar, transport vositalari va pul oqimini kuzatish, transchegaraviy savdoni qonunbuzarlik, jinoyatchilik, terrorizmdan himoya qilish uchun raqamli tizimlardan foydalanishni anglatadi;
- *raqamli bojxona xizmatlari* qog’ozdagи bojxona tartib-qoidalarini elektron operatsiyalarga almashtirishdir. Jahon tendensiyalariga mos ravishda yanada samarali va zamonaviy bojxona muhitini yaratishga qaratilgan;
- *raqamli bojxona xizmatlari* raqamli yechimlar va xizmatlarni ishlab chiqish, savdo hamjamiyatining, chegara idoralari hamda bojxona xodimlarining faoliyatini soddalashtirish, qulay texnologiyalarni yanada keng joriy etish bilan bog’liq.

Adabiyotlar ro’yxati

[1] Zaguskin N.N. Comparative characteristics of the maturity models of managing processes, projects, knowledge of the organization by the stages of their transformational development // Advances in modern natural science. – 2014. – № 1. – P.78. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=21052030> (date of the request: 08.04.2019).

[2] D.N.Ushakov “Tolkovogo slovarya russkogo yazyika” i “Orfograficheskogo slovarya russkogo yazyika”. Moskva-1887 <https://ria.ru/20130124/919223...>

[3] G.I. Nemirova, A.A. Vinichenko Mekanizm povysheniya kachestvagosudarstvennykh uslug v oblasti tamojennogo dela v usloviyakh sifrovoy transformatsii Moskva 2017

[4] Pavel Borovkov. What is digitalization? December 21, 2018. URL: <http://platform.online/poleznoe/articles/chto-takoe-czifrovizacziya/> (date of the request: 19.03.2018).

МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШИДА КОРХОНАЛАРНИ СТРАТЕГИК БОШҚАРИШНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ

**Эргашев Тохир Қурбанович -
Иқтисод фанлари номзоди, Доцент ҚарМИИ
Тохирова Нигора Зокиржон қизи -
Магистр ҚарМИИ**

Ўзбекистон Республикасининг жадал ривожланишининг бугунки кундаги муҳим шартларидан бири иқтисодиётнинг барча тармоқларига, ижтимоий ва бошқа соҳаларга илм-фан ва техника ютуқларини кенг қўллаган ҳолда бошқарувнинг замонавий инновацион технологияларни тезкор жорий этиш ҳисобланади. Мамлакатимиз ҳозирги даврда келиб давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан янгилашга қаратилган инновацион ривожланиш йўлига танлаган ҳолда ислоҳатлар олиб борилаётганини гувоҳи бўлмоқдамиз. Бунинг учун замон шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги даврда янги фикр, янги ғоя ҳамда инновацияларга таянган ҳолда давлат бошқарувини ташкил этиш ва такомиллаштириш муаммоларини ечими топиш бошқарув тизимида оқилона сиёsat юритиши зарур.

Инновациянинг мазмун моҳиятидан келиб чиқиб қарайдиганн бўлсак бу – келажак деган маънони билдиради. Шундай экан жамият ва давлат ҳаётининг барча соҳалари маркро ва микро даражада шиддат билан ривожланаётгани ислоҳотларни мамлакатимизнинг жаҳон цивилизацияси етакчилари қаторига кириш йўлида тез ва сифатли илгарилашини таъминлайдиган замонавий инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологияларга асосланган ҳолда амалга оширишимиз зарур бўлади.

Корхоналар доимий ўзгариб турувчи ташқи мұхит шароитида фаолият күрсатар экан улар ўз фаолиятини шунга мослаштириши, бутун бошқарув тизимини доимий равишда такомиллаштириб боришлари, бошқарувда замонавий бошқарув усулларидан фойдаланишлари, ахборот алмашинув тизимларида АҚТлардан унумли фойдаланишлари зарур бўлади. Бу эса ўз навбатида корхоналарни рақобатбардош бозор шароитларига қўпроқ инновацион ва стратегик менежмент усулларини қўллаган ҳолда мослашган очиқ тизимларга айлантириш имконини беради.

Фалсафий энциклопедияда стратегия атамаси субъектлар фаолиятини уларнинг имкониятларини, истиқболларини, воситаларини, ўзаро алоқаларни ҳамда таъсирини амалга оширишга тўсқинлик қиласидиган муаммолар, қийинчиликлар ва зиддиятларни ҳисобга оладиган инсоний муносабатларнинг ташкил этиш шакли сифатида талқин этилади [1].

Бошқа илмий адабиётда унга бошқача тариф берилади. Яъни, менежментда стратегия – бу асосий мақсадга эришишнинг умумий режаси бўлиб, у чекланган ресурслардан қайси йўналишларда фойдаланишни аниқлашни ўз ичига олади [2].

Бизнесга нисбатан стратегия тушунчаси эса қуйидагича талқинда ифодаланиши мумкин: Бизнес стратегияси бу келишилган қарорлар тўплами бўлиб, корхона ва ташкилот фаолиятига таъсир этувчи узоқ муддатли ва қайтариб бўлмайдиган оқибатларга олиб келувчи ҳаракатлар таъсирини аниқлашдан иборатdir [3].

Фанда илк бор "Стратегик бошқарув" атамаси йигирманчи асрнинг иккинчи ярмида Америка Қўшма Штатларда корхоналарда бошқарув даражасини ажратиш ва аниқлаш учун ишлатилган. Илмий йўналишдаги адабётлардан бизга маълумки стратегик бошқарув бу корхоналарда бошқарувнинг энг юқори даражасида, жорий бошқариш эса - ишлаб чиқариш даражасида амалга оширилади. Ишбилармонлик мұхитининг ўзгариши бу терминларнинг ишлатилиш шартларни фарқлашни тақозо этишини кўрсатади. Ўтказилган илмий таҳдиллар натижаси шуни кўрсатадики, корхоналарда стратегик бошқариш ғояларининг асосчиси америкалик олим Игор Ансофф ҳисобланади [4].

Стратегик бошқарув назарияси соҳаси асосчиларидан ва дунё миқёсида тан олинган олимлар Д.Шендел ва К.Хаттернинг таърифларига тўхталамиз ва уларни алоҳида-алоҳида кўриб чиқамиз [5]. Ҳар иккаласи ҳам стратегик бошқарувни, ташкилотнинг ташқи мұхит билан муносабатларини аниқлаш жараёни деб қарашган. Ушбу жараён белгиланган мақсадларни амалга оширишдан иборат бўлиб, ресурсларни тақсимлаш орқали атроф-мухит билан алоқанинг керакли ҳолатига эришишга интилади. Бу ташкилот ва унинг бўлинмаларининг самарали ишлашига имкон беради. Д.Хиггинснинг фикрига кўра, стратегик бошқарув - бу ташкилотнинг атроф-мухит билан ўзаро таъсирини бошқариш орқали ташкилотнинг миссиясига эришишга қаратилган бошқарув жараёни деб қаралади [6].

Илмий изланишларимиз натижалари, иқтисодиёт тармоқларида фаолият кўрсатаётган корхоналарни стратегик бошқаришнинг инновацион ривожланишига таъсири кўрсатувчи омилларни қиёсий таҳлил ва солишириш, тизимли таҳлил, усулларидан фойдаланилган ҳолда ўрганиб чиқилган [7].

Ҳозирги даврда стратегия бу самарали бизнес юритишнинг мұхим шартлари ва хусусиятларидан бири ҳисобланади. Амалиёт натижалари шуни кўрсатадики, ҳозирги замон рақобат мұхитида ҳеч қандай корхона аниқ мақсадсиз ва бошқарувда инновацион технологияларни қўлламай туриб муваффақиятли фаолият кўрсатишига эриша олмайди [8].

Мамлакатимизда бошқарувда жароёнларида инновацион бошқарув усулларини кенг қўламда қўлланилаётганлиги, иқтисодиётимиз ривожланишини рақамли технологиялар асосида амалга оширилаётганлигидан далолат беради. Агар биз корхона даражасида стратегик бошварувда "стратегия" тушунчасини аниқлаш ҳақида

гапирадиган бўлсак, бу йўналишда биз қўйидаги таклифларни беришимиз мумкин: Корхона стратегияси - бу ташкилий мақсадларга эришишга қаратилган бизнесни ташкил қилиш ва рақобат усуллари аралашмасини ўз ичига олган кенг қамровли бошқарув режаси ҳисобланади. Бу эса ўз навбатида корхоналар даражасида стратегияни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш бошқариш жараёнининг стратегик менежменти деб аталади.

Шундай қилиб юқоридаги таҳлил ва илмий изланишлар натижаларидан келиб чиқиб корхоналарнинг стратегик бошқаруву бу- стратегик мақсадларни белгилаш, стратегияни ишлаб чиқиш ва уни ўз вақтида амалга оширишни ташкил этиш жараёнинидир. Бу жараённи корхона бошқарувини шакллантириш деб таърифлаш мумкин.

Стратегик бошқарувнин амалда корхона даражасида қўллашнинг асосий афзалликларини кўрсатиб ўтадиган бўлсак улар қўйидагиларда намоён бўлади:

- стратегик бошқарувнинг моҳияти - барқарор бўлмаган ташқи муҳитда омон қолиш ва самарали ишлаш қобилиятини сақлаш учун унинг фаолиятидаги ўзгаришларни доимий равишда кузатиб бориш ва баҳолаш асосида корхонанинг ривожланиш стратегиясини шакллантириш ва амалга ошириш;

- корхонанинг барча ресурсларини умумий стратегияга амалга оширишга қаратиш.

Корхоналарни стратегик бошқаришнинг инновацион ривожланиши инновацион тадбиркорлик билан боғлиқ. Инновацион тадбиркорлик деганда техник ва технологик янгиликларни яратиш ва тижорат мақсадларида фойдаланиш жараёни тушунилади.

Юқоридаги таҳлил натижалари бўйича корхоналарни стратегик бошқаришнинг инновацион ривожлантириш бу келажакда корхоналар учун қўйидаги имкониятларни яратиб беради:

1. Махсулотни янгилаш, яъни корхонанинг маркетинг салоҳиятини янгилаш, компаниянинг ҳаётйлигини таъминлаш, фойдани ошириш, бозор улушкини кенгайтириш, ўз мижозларни сақлаб қолиш ва уларни сонини ошириш, мустақил мавқе ва обрў-эътиборни мустаҳкамлаш, янги иш ўринлари яратиш ва ҳ.к.

2. Технологик инновациялар жорий қилиш жараёни яъни бу ишлаб чиқариш имкониятларини модернизация қилиш жараёни, бу меҳнат унумдорлигини оширишга, энергия, хом ашё ва бошқа ресурсларни тежашга қаратилган бўлиб, бу ўз навбатида компания фойдасини кўпайтириш, хавфсизликни таъминлаш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш чораларини кўриш ва ахборот тизимларидан самарали фойдаланишни таъминлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Кемеров В. Философская энциклопедия. - М.: Панпринт, 1998. [Электронный ресурс]- <http://www.terme.ru/dictionary/183/word/strategija>.
2. Глоссарий по менеджменту, проект perfekt.ru [Электронный ресурс]. - <http://www.vocable.ru/dictionary/776/word/strategija>.
3. Стратегия бизнеса. Справочник. [Электронный ресурс]. <http://slovary.yandex.ru/Лопатников/Стратегия> бизнеса
4. Ансофф И. Стратегическое управление. Пер. с англ. - М.: Экономика, 1989. - 358 с.
5. Schendel D. E.. Hatter K. J. Business Policy or Strategic Management: A Broader View for an Emerging Discipline. Academy of Management Proceeding. August, 1972.
6. Higgins J.M. Organizational Policyand Strategic Management: Textand Cases. 2nded. Chicago, The Drydent Press, 1983.
7. Основы менежмента: Учебник для вузов. Под ред. проф. А.И.Афоничкина.- СПб.:Питер, 2007.-528 с.
8. Эргашев Р.Х. Инновацион иқтисодиёт. Дарслик.-Т.: Молия иқтисод, 2019, 398 бет.

Xalqaro tajribalardan ko'rish mumkinki banklar va kredit tashkilotlari faoliyatida qo'llaniladigan turli kredit skoring modellari mijozning kreditga layoqatliliginini aniq va keng ko'lamma baholash imkonini beradigan zamonaviy usullardan biridir. Buning yordamida eng maqbul mijoz tanlab olinadi hamda kredit riskini sezilarli pasaytirishga erishiladi. Demak, kreditning qaytmasligi bilan bog'liq yo'qotishlarni oldi olinadi. Kreditga layoqatlilikni aniq, to'liq va tezkor baholash nafaqat banklar uchun kredit riskini pasaytirish balki, korxonalar uchun kreditni qaytara olmaslik riskini qisqartirishga tayinlanganligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. Consumer Credit Directive (CCD) tashkiloti xulq-atvor bo'yicha 2008 yilda yangi qoidalar o'rnatdi, ya'ni mijozlarda o'z kredit kelishuvlarini o'zgartirish bo'yicha qaror qabul qilingandan keyin 14 kalendar kun ichida imkoniyat beriladi. Bundan maqsad ortiqcha ishonch, evristika yoki yo'qotishga nafrat kabi xulq-atvor omillarini ta'sirini bilishdir. Bularning ba'zilari mijozlarning ratsional qarorlarni qabul qilishiga qarama qarshi ishlashi mumkin. CCD o'ziga bo'lgan ortiqcha ishonchni qarorlar qabul qilish jarayonida kamaytirishga undaydi. Hozirda Fintech innovatsiyalarini joriy etishda ayniqsa bu jarayonlarni tashkil etish talab etiladi sababi ko'pchilik online qarz olishda vaqtida so'ndirishni osongina vada beradi.

2017 yilda the BBVA Group ya'ni Ispaniyaning yirik moliyaviy xizmatlar va banki hisoblangan kompaniya insonlar qanday qilib qarorlar qabul qilishini tadqiqot qiluvchi jamoalarni tuza boshlashdi. Asosiy maqsad xulq - atvor iqtisodiyoti prinsiplarini joriy etib sotishda va foydada o'sishga erishish emas balki bankka nima uchun mijozlar tashrif buyuradi va qanday qilib insonlar qaror qabul qilishi sabablarini chuqurroq bilish edi. BBVA Groupning Xulq - atvor iqtisodiyoti tizimi boshlig'i Michelle Gelsning so'zlariga ko'ra: "Bizning asosiy maqsadimiz mijozlarning moliyaviy maqsadlariga erishlariga yordam berish, eng oddiyidan eng mukammaliga qadar" deb ta'kidlaydi. BBVAning bu modeldan foydalanishida ko'p ma'lumotlar ortiqcha yuk sifatida qaraladi. Ipoteka kreditlarini berishda Ispaniya aholisiga o'tkazilgan ilmiy izlanishlarida kredit olish uchun ilovalardagi tilni osonlashtirish va foydalanishga oson hisoblagichni o'rnatish topshirilgan kredit arizalari sonini 150 foizga oshirgan. Demak, Ispaniyadagi yirik bank BBVA Group tajribasidan ko'rindan, mijozlar sonini oshirishda ularni xulqini chuqurroq o'rganishning ahamiyati yuqori. Bu esa nafaqat insonlar qanday qilib qarorlar qabul qilishini o'rganish, shu bilan birga kelajakdagi mijozlardan kutilmalarni oldindan bashoratlash imkoniyatini ham yaratadi.

Xitoya 2018 yilda Xulq atvor iqtisodiyoti va moliya markazi tashkil etilgan bo'lib, iqtisod va moliya sohasida yuqori sifatli ilmiy ishlarni qilishga qaratilgan markaz hisoblanadi. 2019 yi 14 aprelda ilk bora Xitoy Xulq - atvor iqtisodiyoti forumi o'tkazildi.(China BEEF) Ushbu forumda 100 dan ortiq tajribali professor va ilmiy tadqiqotchilar ishtiroy etib, ular "Yakka qarorlar qabul qilish xulqi", "Xulq o'yinlari tajribasi", "Moliya xulqi" kabi mavzularda fikr almashishdi.

Zamonaviy kreditlash amaliyotida keng qo'llanilayotgan xulq-atvor iqtisodiyoti ayniqsa Xitoy davlatida juda ommalashgan. Bu jarayonni Xitoyning "social credit system" tizimi misoldida ko'rishimiz mumkin. Bu tizim ilk bor 2014 yilda e'lon qilingan bo'lib, ijtimoiy boshqaruv va bozor iqtisodiyotining muhim sifati hisoblanadi. Asosiy maqsad 2015 yildagi davlat dasturiga asosan "Ishonchni saqlash shon-sharaf, ishonchni buzish esa sharmandalik" g'oyasini mustahkamlash hisoblanadi.

Bu tizmining reyting ko'rsatkichlari Xitoyning iqtisodiyotni rivojlantirish jamoasi, milliy rivojlanish va islohotlar komissiyasi (NDRC), Xitoy Xalq banki va Xitoy sud tizmi tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu tizim nafaqat jismoniy shaxslar shuningdek kompaniyalar va davlat tashkilotlari uchun ham qo'llaniladi. Xitoyda shuningdek xususiy sector uchun bir nechta

nodavlat ijtimoiy kredit skoring tizmlari bo'lib, misol tariqasida Jack Ma ning Ant Group kompaniyasi tomidan ishlab chiqilgan Sesame Creditni aytish mumkin.

Xitoyning "social credit system" tizimiga asosan insonlarning ijtimoiy baholari ularning xulq-atvoriga qarab ko'tarilishi yoki tushishi mumkin va bu ularning turli xizmatlardan jumladan kredit olishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, kreditni o'z vaqtida to'lamaslik ham bu tizimda balni pasayishiga sabab bo'lib amaliyotda Xitoy universitetlari ba'zi talabalarni otasining shu xulq-atvoriga ko'ra o'qishga ham qabul qilishmagan. [3]

Yaxshi xulq-atvorga ega bo'lgan yuqori bal to'plaganlarda juda ko'p imkoniyatlar bo'lib, ular oson kredit olish, ta'lidan imtiyozli foydalanish, sayohatga arizalarni tez amalgamoshirish, mehmonxonalarini chet elda buyurtma qilishda deposit to'lamaslik, energiya to'lovlariga chegiralar, depositsiz ijaraga narsalar olish, banklarda eng yaxshi foizlardan foydalanish va boshqa bir qator imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Umuman olganda bu tizimga qarshi fikrlar ko'p bo'lgan bo'lsada, amalda tizimga bo'ysunish orqali ko'pchilik o'z xulq-atvorini yaxshi tomonga o'zgartirganligini ko'rish mumkin va bu o'z navbatida nafaqat kredit jarayonlari balki butun jamiyat miqyosida farovon ijtimoiy turmush tarzini ifodalaydi.

2020 yil Xitoyning Ijtimoiy Kredit Tizimi (SoCS) yo'lga qo'yilishini asosiy bosqichi yakunlandi. Bu jarayonda umumiyy asos va asosiy mexanizmlar yaratilib, SoCSni kelgusi besh yillik rejaga (2021-2025) mos keladigan keyingi bosqichga yo'naltirish uchun ko'plab hisobotlar va rejalashtirish hujjatlari ishlab chiqildi.

Xitoyning "ishonch past" jamiyat ekanligi haqidagi qarashlar ancha vaqtdan beri keng tarqalgandi. Xitoy jamiyati 1978 yilda islohot boshlanganidan beri notinch iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida ma'naviy bo'shliqdan aziyat chekdi. Rivojlangan hududlarda iqtisodiy boylik o'sishi qimmatga tushdi, chunki ular bozor ishtirokchilarining yetarlicha nazorati yo'qligi, atrof-muhit va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq mojarolar, mehnat qonunchiligi va intellektual mulk huquqlarining buzilishi, shuningdek, keng tarqalgan korrupsiya va ijaraga olishdan eng ko'p zarar ko'rildi. 2014-yildan beri davlat va partiya yetakchisi Si Tszinpin "qonunga asoslangan keng qamrovli boshqaruv"ni asosiy siyosiy ustuvor vazifa deb e'lon qildi. Barcha shaxslar, bozor ishtirokchilari va davlat organlarining qoidalar bo'yicha xarakatini ta'minlash barqaror iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy o'sish va rejim barqarorligining zaruriy sharti sifatida qaraldi.[4]

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy skoring yoki boshqacha qilib aytganda insonlarning psixologiyasini, xarakterini, xulq-atvorini o'rganish orqali kredit ajratish ko'pgina davlatlar tajribasidan samarali usul ekanligi yaqqol ko'rinxmoqda. Buyuk Britaniya va Yevropa davlatlari hukumati tomonidan bu sohaga katta urg'u berilishi bejizga emas. Davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi va tadqiqotlar uchun imkoniyatlar yaratilishi bu sohani takomillashtirgan holda samarali moliyaviy qarorlar qabul qilgan holda, iqtisodiy barqarorlikka erishish garovidir. Ayniqsa, Xitoyda taraqqiy etib borayotgan SoCS tizimi banklar va boshqa moliya tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlash orqali butun iqtisodiyotda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, bu tizim insonlarni yaxshi xulq-atvorga undaydi ya'ni jamiyat uchun foydali ta'lim-tarbiya vositasi hamdir. Respublikamizda ham Buyuk Britaniya, AQSH va Xitoy davlatlari tajribasidan andoza olgan holda xulq-atvor omillariga asoslangan kredit ajratish tizimini takomillashtirish kelajakda mamlakat miqyosida pul-kredit tizimi barqarorligini ta'minlashga asos bo'la oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. *Basham P. Are Nudging and Shoving Good for Public Health? A Democracy Institute Report. [Online]. 2010*
2. <https://publications.europa.eu/en/publication-detail//publication/b86d7f2d-9e77-11e7-b92d-01aa75ed71a1/language-en/format-PDF/source-search>.
3. <https://www.businessinsider.com/china-social-credit-affects-childs-university-enrolment-2018-7>
4. *Xi Jinping: In building rule by law, we must focus on improving the systemic environment and strengthen the construction of the Social Credit System)". February, https://www.sohu.com/a/298187739_100013182. Accessed: October 12, 2020.*

FOREIGN EXPERIENCE IN FORMATION AND DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC-INNOVATIVE INFRASTRUCTURE OF CLUSTERS IN UZBEKISTAN

Kholikova Rukhsora Sanzharovna -

*Acting associate Professor, PhD., Department of Economics
of Branches, Tashkent State University of Economics*

Rajabov Juratbek Shonazar ugli -

*Master student of MEKP-01 group, Speciality: 5A230102 –
Economics (by sectors and sphere)
Tashkent State University of Economics*

Recently, there has been the most frequent use of the word "cluster", "clustering" in our daily lives. Despite the fact that this term is a new definition in the economy of Uzbekistan, foreign developed countries already have rich experience in organizing and developing economic clusters.

In the national economy of Uzbekistan, in several priority sectors, especially in the cotton industry, work is underway to organize production using this method - a group of enterprises united in a single technological chain, where science, education and production are mutually integrated. In this integration, primary raw materials will go through all the stages of processing in stages, added value is added and turned into high quality final products. We know that a cluster is a technological chain that includes the entire process, starting from the primary processing of raw materials and ending with the production of finished products from it. It will help reduce costs in the cost of production for transportation costs, increase the production of finished products, which have a higher cost than raw materials.

"If the whole system is properly organized on the basis of a scientific approach and modern technologies, the number of jobs can be increased to 1 million. In this regard, it is necessary to create opportunities to increase the yield of cotton on the basis of scientifically based seed production and agricultural technologies, to double the industry's exports through deep processing of raw materials. It is necessary to create scientific centres in each cluster, such as seed, soil and biological laboratories, as well as seed preparation workshops [1].

In this regard, an urgent issue of developing intersectoral relations in the enterprises of the industry complex is creation of scientific and innovative centers as part of clusters. The cluster became economically beneficial for market participants, it directly led to an increase in production capacity. Achieving the above goals is not feasible without the formation of an appropriate scientific and innovative infrastructure.

The theoretical and methodological basis of the study are the fundamental concepts, scientific works of famous scientists dealing with the problems of industrial clustering, justified and presented in modern and classical literature, using sources of statistical data, including official data from the Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, the Association of Cotton-Textile Clusters of the Republic of Uzbekistan and the State Committee on Statistics of the Republic of Uzbekistan, as well as individual regulatory documents, reports of relevant departments and organizations, the feasibility and scientific justification of the methods used, such as comparative, economic and statistical, grouping methods, expert assessments.

The founders of the "cluster" theory and the most popular researchers in this area are A. Marshall [2] and M. Porter [3]. It is necessary to note the significant scientific works of these two scientists and economists in the emergence and development of the world concept of clusters.

Despite the fact that there is a wide economic literature devoted to the consideration of various aspects of economic clusters and their role in the development of the national economy, a number of problems still need further research. There are different opinions and definitions in the interpretation of its categorical concepts, there is a deviation in the correct organization of quantitative and qualitative constituent elements that prevent the transition of internal enterprises to the global path of development.

It is known that scientific and production integration is the main factor in the development of economic entities, in particular cotton and textile clusters in a market economy. If in our republic the clustering of industry, including the cotton industry, is a relatively new practice, then in developed countries there is sufficient experience in the evolution of industrial clusters.

The data show that, until today, industrial clusters have been developed in many sectors of the economy in almost all states, regardless of their level of economic development. In developed countries (EU, USA) they have become a natural step in the evolution of industrial production methods and in developing countries (China, India, Argentina) clusters are the main way to achieve world-class in the formation of various sectors of the economy and access to international markets. According to the European Cluster Observatory [5], in 2020 in 28 countries of Western and Eastern Europe there were 2301 clusters in various sectors of the economy, with a total of 42 million employees. At the same time, 11.5% of them work in the agro-industrial complex, employing 4.5 million people.

Furthermore, according to the data, most clusters operate in the national economy of Germany, followed by Italy, Great Britain, France, Poland and Spain, that is, the largest economic and industrial countries. The same countries, as well as Romania, the Netherlands and Portugal, have an advantage over other countries in terms of the number of people working in these groups. However, in terms of the size of the clusters themselves, two countries - Spain and Lithuania - are leaders in the number of employees, but this may also emphasize the low mechanization of labor. However, in terms of the total number of agro-industrial clusters, it leads among European countries, Greece and Spain, Bulgaria and France. However, in two European countries, Malta and Luxembourg, there are no agro-industrial clusters at all, since these two countries differ in the number of clusters in other sectors of the economy. At the same time, in terms of the share of agro-industrial clusters among other clusters, Bulgaria and Greece lead in significant differences from other European countries, as well as in the total number of people working in agricultural clusters. At the same time, Lithuania, Ireland, Romania and Denmark also have powerful agro-industrial groups with a large number of workers, but perhaps with insufficient equipment.

As for research centers and universities promoting the agro-industrial complex, Germany in a leading position. It is estimated that today there are about 82 research centers and universities in this country that promote the agro-industrial complex. There are about 1,000 publicly funded research institutions in Germany. The backbone of the research landscape is formed by universities and four non-university research organizations. The largest research centers in Germany such as the German Institute for Economic Research, CESifo, the Institute of German Economics, the Institute for Research on Small and Medium Businesses, the Institute for Economic Research in Halle, ZEW - Center for European Economic Research, GFZ, the Society. Max Planck (MPG), Association. Helmholtz, Society. Fraunhofer, Leibniz, etc. fruitfully integrate with the agro-industrial clusters of the country [5].

Currently, intensive work is underway to create scientific centers at the cotton and textile clusters of the republic. With 21 clusters, these centers will be engaged in the introduction of innovations and scientific and technological achievements in cotton growing, which is determined by the Resolution of the Cabinet of Ministers dated June 22, 2020 No. 397 "On measures to further improve cotton and textile production" [6].

According to the Decree, the proposal of the Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan, the UzTokimachilksanoat Association, the Council of Ministers of the Republic of Karakalpakstan and the khokimiyats on the gradual creation of scientific centers for the introduction of innovations, scientific achievements and innovations was approved.

These scientific centers, in cooperation with higher educational and scientific institutions, conduct research and development work aimed at solving urgent problems in the development of cotton growing, the cultivation of world-class raw cotton, the introduction of innovative technologies for the rational use of resources and the increase in production. In addition, the Decree approved a list of clusters under which scientific centers will be organized by 2023 in the context of the regions of the republic.

Today, an important issue in developing a strategy for the development of cotton and textile clusters is the creation of a scientific and innovative infrastructure. "Innovation infrastructure - organizations that contribute to the implementation of innovative activities (innovation and technology centers, technology incubators, technology parks, educational and business centers and other specialized organizations" [7]

It is recommended to create such a scientific and innovative infrastructure that will promote the development of integration between cluster members, increase production efficiency, develop and implement programs for the development of cotton and textile clusters; commercialization of scientific developments [8].

It should be noted that the formation of a class of advanced clusters serves the development of not only one industry or region, but also the economy of our country, increases its competitiveness. Each cluster must be based on innovation [9]. This can be achieved by deepening the integration of production and science, higher education. In this regard, promising cooperation is being established on the development of clusters between the Association of Cotton and Textile Clusters of Uzbekistan and the Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" at the Tashkent State University of Economics.

To date, an agreement has been reached between the Association, the university and the center on the establishment of cooperation relations in five areas with the involvement of foreign specialists. These are academic activities, research activities, international cooperation, innovation activities, digital technologies.

For example, if we consider academic activities, in the near future it is planned to open a joint faculty that will train highly qualified personnel for the industry, develop a special program to develop the integration of production and the education system for bachelors and masters, create a textbook called "Cluster Economics" and implement many tasks, such as the formation of a set of teaching materials. In addition, special training courses will be organized aimed at improving the skills of logistics in the value chain, building national brands, marketing and advertising, and exports. In general, steps have been set today for another important cooperation towards the prospects of the cluster system, which will soon begin to bring positive results.

References:

1. *New opportunities for the development of cotton growing and the textile industry have been identified.* June 28, 2022 <https://president.uz/ru/lists/view/5296>
2. A. Marshall. *Principles of economic science.* In 3 volumes. -M.: Progress Publishing Group, 1993. 594 pages
- 3.M.E. porter. *The Competitive Advantage of Nations.* New York: Free Press, 1990. 495pp.
4. Gulyaev R.A., Lugachev A.E., Usmanov Kh.S. *The current state of production, processing, consumption and quality of cotton products in the leading cotton-growing countries of the world.* Tashkent: "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ, 2017, p.171
5. Data from the European Cluster Observatory source: <http://www.clusterobservatory.eu>

6. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 397 "On measures for the further development of cotton and textile production" June 22, 2020, https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/pri_hlopkovo-tekstilnyh_klasterah_sozdadut_nauchnye_centry

7. Innovation infrastructure in modern Russia. <https://cyberleninka.ru> › article › innovatsionnaya-infrastr...

8. R.S. Kholikova. THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF ORGANIZATION OF PRODUCTION BASED ON CLUSTER METHOD. // Economics and Innovative Technologies 2021 (5), 7, 2021.

9. R.S. Kholikova. Multifactor econometric modeling and forecasting of cotton fiber production in Uzbekistan.// Economics and Innovative Technologies. (2), 3, 2020.

10. R.S. Kholikova.. Clusters in Cotton processing complex: Do they have Positive or Negative effects? Economics and Innovative Technologies. Volume 2020, Issue 6.

DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL INFRASTRUCTURE OF THE ECONOMIC SYSTEM FOR SMALL BUSINESS

Kosimov Sardor Dilmurodovich -
Andijan Machine-Building Institute,
PhD researcher, teacher

Small businesses are essential contributors to economic growth and employment opportunities in any country. However, the lack of adequate financial infrastructure poses a significant challenge for small businesses, limiting their ability to access finance, expand their operations, and compete in the market. This thesis aims to explore the development of financial infrastructure for small businesses, including the challenges and opportunities associated with it.

The literature review highlights the importance of financial infrastructure for small businesses, including access to finance, risk management, and financial inclusion. The financial infrastructure comprises various components, including payment systems, credit reporting, regulatory frameworks, and alternative finance. The development of financial infrastructure for small businesses requires a collaborative effort between policymakers, financial institutions, and small business owners.

The development of payment systems is need for small businesses to conduct transactions with their customers and suppliers. The use of electronic payment systems, such as mobile and online payments such as PAYME, EPAY UZUM, has grown significantly, enabling small businesses to access a wider customer base and improve their cash flow. However, the development of payment systems also poses challenges, including the risk of fraud and cyber-attacks.

In addition, credit reporting is also essential part for small businesses to access finance from lenders. The development of credit reporting has enabled the assessment of creditworthiness based on accurate and timely information. However, the development of credit reporting also poses challenges, including the risk of inaccurate reporting and data privacy breaches. This can open lack of entrepreneur rewarding regulatory. Therefore, the regulatory framework is first part for maintaining financial stability, ensuring consumer protection, and promoting market competition. The development of regulatory frameworks for small businesses requires a balance between promoting innovation and protecting small business owners from financial fraud and exploitation.

Secondly, alternative finance, such as peer-to-peer lending and crowdfunding, has emerged as an alternative to traditional finance for small businesses. The development of

alternative finance has enabled small businesses to access finance from a wider range of sources, including individual investors and other small businesses. However, the development of alternative finance also poses challenges, including the risk of regulatory arbitrage and the lack of transparency. For instance, we cannot say that India is developing country but India has made significant progress in developing financial infrastructure for small businesses, driven by the government's support for financial inclusion and entrepreneurship. The Indian government has taken several measures to develop financial infrastructure for small businesses, including the establishment of payment systems, the expansion of credit reporting, and the promotion of alternative finance [1]. However, the development of financial infrastructure for small businesses in India also poses challenges, including the lack of awareness and education among small business owners.

The development of financial infrastructure is general part for small businesses to access finance, manage risks, and compete in the market. The components of financial infrastructure, including payment systems, credit reporting, regulatory frameworks, and alternative finance, require a collaborative effort between policymakers, financial institutions, and small business owners. The development of financial infrastructure for small businesses requires a balance between promoting innovation and protecting small business owners from financial fraud and exploitation.

Another side we need to as soon as possible construct many payment systems and platforms as China (TAOBIAO, WECHAT, ALIBABA, and ALIEXPRESS). As we saw that world leader, payment platform system Amazon a little bit cost ranking high, because of brand World Company.

The sphere of online trading has been one of the fastest growing segments of the global economy for several years. According to the forecasts of Euromonitor International experts, the volume of the e-commerce market in Uzbekistan by 2025 will grow by 12.6 times, and the level of penetration of online commerce can reach 41%. Users appreciate marketplaces for fast delivery and a huge assortment that is not available in offline stores, and entrepreneurs, using the platform infrastructure, can expand their geography, attract new customers and increase their business turnover at times [6].

Today marketplace UZUM is developing in Uzbekistan. Only one company that was established in March 2022, and marketplace was launched in October of the same year, providing access to thousands of goods with fast delivery. Financial services under the Uzum brand will be launched soon as well. Uzum marketplace has warehouse area 27 000 m², photo studio 600 m² and service of photoshoots: 300 000 photo per month, 169 locations in 50 cities, can deliver goods with 1-day-delivery throughout the country and same day - in Tashkent.

Next, we need to build simple system learning of digital selling aspects, build trainings for enhancing the skills and knowledge of entrepreneurs as mention below:

1. Evaluate the existing e-commerce training programs and their impact on the e-commerce skills of entrepreneurs.
2. Identify the gaps and shortcomings of the current e-commerce training programs.
3. Develop a comprehensive e-commerce training program that addresses the needs and requirements of entrepreneurs.
4. Evaluate the effectiveness of the developed e-commerce training program in improving the e-commerce skills and knowledge of entrepreneurs.

E-commerce is an essential aspect of modern business, and entrepreneurs need to acquire the necessary skills and knowledge to succeed in the digital marketplace. The study aims to provide insights into the effectiveness of e-commerce training programs and develop a comprehensive training program that addresses the needs and requirements of entrepreneurs. By equipping entrepreneurs with the necessary e-commerce skills, we can foster innovation, growth, and competitiveness in the digital economy.

In conclusion, the development of the financial infrastructure of the economic system for small business is critical for the growth and development of the small business sector in Uzbekistan. The current state of the financial infrastructure for small business in Uzbekistan presents several challenges for SMEs, including limited access to financing and a complex regulatory environment. However, by implementing strategies to enhance access to financing, improve the regulatory environment, and promote financial literacy among small business owners, Uzbekistan can foster a thriving small business sector.

The proposed strategies, including the establishment of a credit guarantee scheme for SMEs, the creation of a more streamlined and transparent regulatory framework, and the development of financial literacy programs, have the potential to enhance access to financing and promote the growth and development of small businesses in Uzbekistan. Furthermore, the case studies presented in this thesis highlight the importance of innovation and perseverance in navigating the challenges of the financial infrastructure.

In summary, the development of the financial infrastructure of the economic system for small business in Uzbekistan is an ongoing process that requires continued effort and investment. By prioritizing the needs of small businesses and implementing the proposed strategies, Uzbekistan can create a more supportive environment for SMEs, driving economic growth, creating jobs, and promoting innovation.

References

- 1.Arun, T. G., & Annamalai, A. (2018). *Impact of Digital Financial Inclusion on the Performance of Small Business Enterprises in India*. *Journal of Accounting and Finance*, 18(7), 104-116.
- 2.Fung, B., Molinari, F., & Stuber, M. (2018). *Payments and the Platform Economy: Opportunities and Challenges for Small Businesses*. *Journal of Small Business Management*, 56(4), 537-548.
- 3.Lee, K. (2018). *Alternative Finance for Small and Medium-Sized Enterprises: A Review and Future Research Agenda*. *Journal of Small Business Management*, 56(S1), 36-52.
- 4.Mohamed, M. R., Sulaiman, M., & Ayub, A. F. M. (2018). *Digital Payment Systems: An Overview of Mobile Payment Adoption*. *International Journal of Supply Chain Management*, 7(5), 346-351.
- 5.Mudida, R. (2019). *Financial Infrastructure Development in Emerging Economies: A Case Study of Kenya*. *International Journal of Innovation and Economic Development*, 5(2), 20-32.
6. <https://kapital.uz/uzum-marketplace/>
7. Kosimov Sardor Dilmurodovich. (2023). *INFRASTRUCTURE ADVANCEMENTS TO FOSTER SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN JAPAN AND THEIR RELEVANCE FOR UZBEKISTAN*. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(4), 1943-1955. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7881719>

INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR YORDAMIDA BANK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Normamatova Munisa Nurmamat qizi -
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali "Bank ishi va audit"
ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi

Innovatsion texnologiyalar bank faoliyatini takomillashtirishga yordam berishda juda katta ahamiyatga ega. Bu yordam orqali banklar, mijozlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirish, xizmat ko'rsatishni osonlashtirish, moliyaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va boshqa bir qancha imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar yordamida banklar, xavfsizlik va himoya sohasida ham takomillashtirishni amalga oshirishadi. Mijozlarning ma'lumotlarining

muhofazasi, onlayn to'lovlar va boshqa xizmatlar uchun zarur bo'lgan tizimlarning himoyalashiga qaratiladi.

Bunday innovatsion yondashuvlar banklarga xavfsiz va tez xizmat ko'rsatish imkonini beradi va mijozlar uchun ham qulaylik yaratadi. Shuningdek, bu yondashuvlar banklarning ish faoliyatini ham yanada samarali hollantirish imkonini beradi.

Jamiyatimizda innovatsion texnologiyalar yordamida bank faoliyatini takomillashtirish hamda xizmatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan qo'shnilar amalga oshirilmoqda. Bu esa bizning moliyaviy tizimimizni yanada rivojlantirishga yordam beradi va mijozlar uchun qulayliklar yaratadi.

Shu sababli, innovatsion texnologiyalar banklar uchun juda muhimdir va ularning faoliyatini yanada samarali hollantirish uchun muhimdir. Bu yondashuvlar orqali, banklar xizmat ko'rsatishni osonlashtirish, mijozlarning xavfsizligini ta'minlash va ish faoliyatini yanada samarali hollantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Internet va yuqori texnologiyalar asrida raqamli iqtisodiyot hayotimizning har bir sohasiga: ta'lim, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish, bank-moliya kabi barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelmoqda. Jahonda ro'y berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlardan kelib chiqib, Respublikamiz oldida global raqobatbardoshlilik va milliy xavfsizlik masalasi turibdi. Ushbu masalani hal qilishda respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.[1]

Raqamli iqtisod - xo'jalik yuritishning yangi zamonaviy shakli bo'lib, unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko'rinishdagi katta ma'lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni hizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotda ishlatish esa an'anaviy ho'jalik yuritish shakllriga nisbatan ancha katta samaradorlikka erishishga imkon beradi. Misol sifatida turli xildagi avtomatik ishlab chiqarish jarayonlarini, 3D-texnologiyasini, bulutli texnologiyalarni, masofaviy meditsina xizmatlari ko'rsatishni, aqlii texnologiyalar yordamida maxsulot yetishtirishni va uni yetkasib berishni, turli xildagi tovarlarni saqlash va ularni sotish jarayonlarini keltirish mumkin.

Banklar innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bir necha yo'nalishda faoliyatini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yo'nalishlardan ba'zilari quydagilar bo'lishi mumkin:

1. Mobil ilovalar va internet-banklar: Bu ilovalar orqali mijozlar bank xizmatlaridan foydalanishlari osonlashtiriladi. Mijozlar o'zlarining hisob-kitoblari bilan tanishib, onlayn to'lovlar amalga oshirishlari mumkin. Bu ilovalar orqali banklar ham mijozlarga xizmat ko'rsatishni yanada osonlashtirishadi.

2. Biometrik tekshiruv: Bu innovatsion yondashuv mijozlarni rasmiy hujatlarga asosan tekshirishni osonlashtiradi. Biometrik tekshiruv orqali mijozlar o'z ma'lumotlarini tasdiqlashlari mumkin.

3. Yagona identifikatsiya tizimi: Bu tizim orqali mijozlar bank xizmatlaridan foydalanish uchun faqatgina bir marta ro'yxatdan o'tishlari kerak bo'ladi. Tizim mijozlarning ma'lumotlarini avtomatik ravishda tekshiradi va mijozlarga xizmat ko'rsatishda qulaylik yaratadi.

4. Robot-assistentlar: Bu yondashuv orqali mijozlar bank xizmatlaridan foydalanish uchun shaxsiy yordam olishlari mumkin. Robot-assistentlar mijozlarga xizmat ko'rsatishda osonlashtiradi va mijozlarning savollari va ma'lumot talablariga javob berishda yordam beradi. [2]

5. Yagona platformalar: Bu platformalar orqali banklar mijozlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirishadi va mijozlarga xizmat ko'rsatishda qulaylik yaratadi. Bu platformalar orqali mijozlar bank xizmatlaridan foydalanish uchun har qanday qurilmadan foydalanishlari mumkin.

Banklar uchun innovatsion texnologiyalar faqat mijozlarga xizmat ko'rsatishni osonlashtirmaydi, balki ularning ish faoliyatini yanada samarali hollantirishga ham yordam beradi. Bu texnologiyalar orqali banklar ma'lumotlarini avtomatik ravishda tekshirish,

mijozlarning xavfsizligini ta'minlash va ish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.[3] Shuningdek, innovatsion texnologiyalar orqali banklar mijozlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirishadi va mijozlarga qulaylik yaratadi. Bu yondashuvlar banklar uchun juda muhimdir, chunki ular bankning rivojlanishiga va mijozlarga xizmat ko'rsatishda yuqori sifatli xizmat ko'rsatishga yordam beradi.

Banklardagi innovatsion texnologiyalar yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatishni osonlashtirish va bankning ish faoliyatini yanada samarali hollantirish imkoniyati bor. Ammo, bu texnologiyalar zararli tomonlari ham mavjud. Misol uchun, banklardagi ma'lumotlar xavfsizligi muhim muddatdir. Agar banklar ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun kerakli qo'llanuvchilarni xarid qilmaydilar yoki ma'lumotlar tuzilmalarini yangilamaydilar, shu bilan birga banklarga xakerlar kengayishi mumkin. Boshqa bir zararli tomoni esa, innovatsion texnologiyalar orqali banklar avtomatik ravishda ish qilish uchun ishchilar sonini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, ishchilar uchun ish o'rnidan to'xtashga sabab bo'ladi va ularning ishga qabul qilinishi bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar banklarning traditsionallikdan uzoq bo'lishi va inson kuchini kamaytirishi mumkin. Bunday holatlarda, banklar mijozlariga xizmat ko'rsatishda insoniylikni saqlash va inson kuchini oshirish uchun qo'llanuvchilarini bilan hamkorlik qilishlari kerak. [4]

Shu sababli, innovatsion texnologiyalar banklar uchun juda muhimdir va ularning faoliyatini yanada samarali hollantirish uchun muhimdir. Bu yondashuvlar orqali, banklar xizmat ko'rsatishni osonlashtirish, mijozlarning xavfsizligini ta'minlash va ish faoliyatini yanada samarali hollantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hayot sahnasiga yangi avlodlar – internet tarmog'ida 19 «yashaydigan» yoshlari kiqib kelishi biznesning onlayn («raqamli») bo'lishga olib keldi. Insoniyat global o'zgarishlar davriga qadam qo'ydi. Yaqin vaqtlardainson hayot faoliyatining assosiy sohalari – iqtisodiyot va boshqaruv, fan va havfsizlik bo'lgan bo'lsa, endi yangicha shakl va mazmunga ega bo'la boshladi. Insoniyat o'zgacha bo'lib qoldi, bu esa ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishiga olib kelayapti. Raqamli texnologiyalarning hayotimizga kirib borishni davom ettirishi – kelajak dunyosiga xos bo'lgan xususiyatlardan biridir. Bu mikroelektronika, axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohalaridagi taraqqiyot bilan izohlanadi. Shunday qilib, raqamlashtirish – ob'ektiv, muqarrar jarayon bo'lib, uni to'xtatishning iloji yo'qdir. Raqamlashtirishga yo'ldosh bo'ladigan eng jiddiy havf-xatarlardan biri, o'rta va past malakali ixtisosliklar orasida ommaviy ishsizlik yuzaga kelishi hisoblanadi. O'rta sinf vakillari keskin kamayib ketishi mumkin, chunki birinchi navbatda aynan shu ish o'rnlari avtomatlashtiriladi va ular intellectual robotlar bilan almashtiriladi. Bu maqolada, banklar va mijozlar uchun innovatsion texnologiyalar yordamida xizmat ko'rsatishning osonlashishi va bankning ish faoliyatini yanada samarali rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Ammo, zararli tomonlari ham mavjudligi aytildi. Ma'lumotlar xavfsizligi, avtomatik ravishda ish qilish uchun ishchilar sonini kamaytirish va inson kuchini kamaytirish muammolari ko'rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh.Z. *Bank ishi. Darslik.* T.: Iqtisod-moliya. 2017-yil. -733 b.
2. Omonov A.A. *Pul va banklar. O'quv qo'llanma.* T.: Iqtisod-moliya. 2018-yil. -500 b.
3. Omonov A.A., Qoraliev T.M. *Pul, kredit va banklar. Darslik.* T.: Iqtisod-moliya. 2012-yil. -324 b.
4. Махмудов С. (2020). Пути совершенствования альтернативных методов финансирования инвестиционной деятельности. Экономика И Образование, 1(6), 113–120. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economy_education/article/view/7088

SUG'URTA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHGA OID SOLVENCY II XALQARO STANDARTI VA UNI O'ZBEKISTON SUG'URTA FAOLIYATIGA TATBIQ ETISH YO'NALISHLARI

*Olmosova Munisa Sherxon qizi -
TDIU Moliya va buxgalteriya
hisobi fakulteti Sug'urta ishi yo'nalishi*

Sug'urta kompaniyasining to'lov qobiliyati mustahkam bo'lishidan, nafaqat davlat, balki ko'p sonli sug'urta mahsuloti iste'molchilari ham manfaatdordir. Tan olish kerakki, ko'pgina davlatlarda, xususan, O'zbekiston sug'urta amaliyotida sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini baholash va tegishli me'yorlarni belgilash Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (Yevropa Ittifoqining sobiq nomi) Kengashining 1973-yil 24-iyuldag'i "Hayot sug'urtasidan tashqari, umumiy sug'urta faoliyatiga doir qonunlar, qarorlar va ma'muriy qoidalarni muvofiqlashtirish to'g'risida"gi 73/239/EEC (First Council Directive of 24 July 1973 On the coordination of Laws, Regulations and administrative provisions relating to the taking-up and pursuit of the business of direct insurance other than life assurance) birinchi Direktivasiga asosan amalga oshirib kelinmoqda [1].

Hayot sug'urtasi bo'yicha to'lov qobiliyati marjasini hisoblash esa Yevropa Ittifoqi Hamjamiyati Kengashining 1979-yil 5-martdag'i "Hayot sug'urtasiga oid qonunlar, qarorlar va ma'muriy qoidalarni muvofiqlashtirish to'g'risida"gi 79/267/EEC (First Council Directive of 5 March 1979 On the coordination of laws, regulations and administrative provisions relating to the taking up and pursuit of the business of direct life assurance) birinchi Direktivasi asosida hisob-kitob qilinadi [2]. Qayd etilgan ikkala hujjat ham Solvency I standartining asosini tashkil etadi. Keyinchalik Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati Kengashining 88/357/EEC, 90/619/EEC, 92/49/EEC, 92/96/EEC Direktivalariga muvofiq sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatini hisoblash uslubiyatlari biroz takomillashtirilgan bo'lishiga qaramay bugungi kun talablariga javob bermaydi.

A.Stejkin ham bu fikrni qo'llab-quvvatlab shunday yozadi: "2009-yilga qadar, ya'ni Yevropa Ittifoqi direktivasi bilan Solvency II konsepsiysi qabul qilingan davrga qadar qariyb 36 yil davomida Solvency I tamoyillari amal qilgan edi. Ushbu tamoyillar bozor risklarini hisobga olmasdan texnik risklardan ulush sifatida kapital normativlarini baholash uchun, faqat, standart formulalarni qo'llashni nazarda tutadi" [3].

"Solvency" atamasi inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida "to'lov qobiliyati" degan ma'noda tarjima qilinadi.

Tavakkalchilikka qaratilgan yondashuv asosida tartibga solishga yo'naltirilgan, sug'urtalovchilarining kapitali yetarliligi va to'lov qobiliyati bo'yicha Solvency II xalqaro standartini O'zbekistonda joriy etish natijasida mamlakatda faoliyat yuritayotgan har qanday sug'urta kompaniyasi oldindan ko'zda tutilmagan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar yuz berishiga qaramay, o'zining to'lov qobiliyatini talab darajasida saqlab qoladi. Bu o'z navbatida, davlat va sug'urta mahsuloti iste'molchilari manfaatlariga mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligiga manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda sug'urta kompaniyalarining faoliyatini riskka qaratilgan yondashuv asosida tartibga solishga yo'naltirilgan, sug'urtalovchilarining kapitali yetarliligi va to'lov qobiliyati bo'yicha xalqaro standartlarni sug'urta faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish vazifasi yuklatilgan.

Ushbu vazifani bajarish maqsadida 2020-yil 17-iyulda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini rivojlantirish strategiyasini va sug'urtalovchilarining kapitali yetarliligi va to'lov qobiliyati bo'yicha xalqaro standartlarni sug'urta faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi

Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini tayyorlab, www.regulation.gov.uz portaliga joylashtirdi [4]. Ushbu qaror loyihasida Solvency II rejimi quyidagi uchta tarkibiy qismdan iborat ekanligini ko'rsatilgan:

1-tarkibiy qism. Kapitalga nisbatan miqdoriy talablarni belgilash;

2-tarkibiy qism. Korporativ bosharuv tizimi;

3-tarkibiy qism. Axborot ochiqligiga va hisobotlarga bo'lgan talablar.

Qaror loyihasida ushbu tarkibiy qismlarning har birining mazmuni yoritilgan hamda ularni joriy etish bo'yicha quyidagi muddatlar belgilangan:

1-tarkibiy qism bo'yicha talablarni ishlab chiqish 2020-yilda boshlanadi va miqdoriy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, taxminan 2021-yilda tugallanadi.

2-tarkibiy qism bo'yicha talablarni ishlab chiqish muddati 2021-2022 yillar.

3-tarkibiy qism bo'yicha talablarni ishlab chiqish 2023- yil etib belgilangan.

Riskka qaratilgan yondashuv asosida tartibga solishga yo'naltirilgan, sug'urtalovchilarning kapitali yetarliligi va to'lov qobiliyati bo'yicha Solvency II standartini O'zbekiston sug'urta sektoriga joriy etish natijasida sug'urta qildiruvchilarning manfaatlarini samarali himoya qilish ta'minlanadi, sug'urta tizimiga bo'lgan ishonch yuksaladi, milliy va chet el investorlari uchun milliy sug'urta kompaniyalarining shaffofligi va investitsiyaviy jozibadorligi oshadi, sug'urta kompaniyalariga nisbatan tartibga solish va nazorat qilish tartib-tamoyillari xalqaro tan olingen qonunchilik hujjalari muvofiqlashtiriladi.

Shuningdek, standartning joriy etilishi natijasida potensial obyektlarning sug'urta himoyasi bilan qamrab olish darajasi kengayadi, sug'urta mukofotlarining YIMdagi salmog'i hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta mokofotlari miqdori sezilarli ravishda oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. First Council Directive of 24 July 1973 On the coordination of Laws, Regulations and administrative provisions relating to the taking-up and pursuit of the business of direct insurance other than life assurance (73/239/EEC). <https://eur-lex.europa.eu/legal-content>.

2. First Council Directive of 5 March 1979 On the coordination of laws, regulations and administrative provisions relating to the taking up and pursuit of the business of direct life assurance (79/267/EEC). <https://eur-lex.europa.eu/legal-content>.

3. Стежин А. Solvency II: перемены в регуляции и последствия для рынка (2019). <https://gaap.ru/articles>.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini rivojlantirish strategiyasini va sug'urtalovchilarning kapitali yetarliligi va to'lov qobiliyati bo'yicha xalaro standartlarni sug'urta faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi (2020). <https://regulation.gov.uz/ru/document/20040>.

MOLIYA SOHASINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Temirov Muxammadali Xamidovich -
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil tadqiqotchisi

Ayni paytda raqamlı texnologiyalarni joriy etish orqali barcha sohalarda o'zgarishlar ro'y bermoqda va shu sababli axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirishni amalga oshirish sifatini baholash va monitoring qilish mamlakatda yangi transformatsion iqtisodiy jarayonlarni barpo etishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu turdag'i masalalarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar zamonaviy fan va amaliyot uchun juda dolzarb va ahamiyatlidir.

Ta'kidlash joizki, raqamlashtirish davlat xizmatlarini ko'rsatishdan tortib, yangi mahsulotlar yaratishgacha bo'lgan turli jarayonlarga faol kirib bormoqda. Bu yangi biznes modellarining rivojlanishiga, qiymat zanjirlarining o'zgarishiga, mahsulotlarni yetkazib berishning yangi kanallariga, moliyaviy sektordagi kompaniyalar o'rtasidagi munosabatlarga va ushbu yo'nalishdagi tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tashkilotlarga iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash, vaqt va resurslarni tejash, biznes-jarayonlarni samarali yo'lga qo'yish orqali, kompaniya ichida hujjat aylanishidan tortib, mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni maksimal darajada yaxshilash imkonini beradi. Shubhasiz, raqamli iqtisodiyot mahsulotni yaratishda ham, uni potentsial xaridorga taqdim etishda ham yangi imkoniyatlar ochadi [1].

Raqamli texnologiyalar moliya sohasida ham keng qo'llanilmoqda. Ular real vaqt rejimida tezroq va aniqroq hisobot berish va umuman moliyaviy boshqaruvin uchun qulay sharoitlar yaratadi [2]. Moliyaviy xizmatlar sektori keng ko'lamli raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda va bu sohadagi kompaniyalar o'z bizneslarini qanday olib borishiga keng ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi texnologiyalar banklar, sug'urta kompaniyalari va boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalariga o'z operatsiyalarini ko'rib chiqish va mijozlariga xizmat ko'rsatishning turli usullarini aniqlash imkonini beradi.

Bugungi kunda mamlakatni rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishi uning raqamli iqtisodiyotga o'tishidir. O'zbekiston iqtisodiy faoliyat va davlat boshqaruvining asosi sifatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga urinmoqda. Mamlakat hukumati tomonidan qonunchilik darajasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Moliya tizimi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosidir. Moliya sektorini raqamlashtirish ham davlat, ham tijorat tashkilotlarining moliyaviy resurslarini boshqarish shaffofligini ta'minlaydi. Asosiy vazifasi iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish bo'lgan davlat siyosatining muvaffaqiyati moliyaviy resurslar qanday shakllantirilishi, taqsimlanishi va ishlatalishiga, iqtisodiyotning real sektorini, fan, ta'lim va madaniyat moliyalashtirish mexanizmi qanchalik samarali ekanligiga bog'liq bo'ladi [3].

Milliy iqtisodiyotlarning zamonaviy rivojlanishi, ayniqsa, moliya va bank sektorida raqamli mahsulotlar va xizmatlarni rivojlantirishga qaratilgan. O'z navbatida, moliya bozorlarini rivojlantirish konsepsiysi moliya institutlarining imkoniyatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda eng yangi texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq. Iqtisodiy inqirozning ta'siri va COVID-19 pandemiyasining tarqalishi natijasida yuzaga kelgan murakkab global muammolarning kuchayishi har qanday zamonaviy davlatda o'zaro hisob-kitoblarning turli shakllarini amalga oshirishga samarali moslasha oladigan mexanizmni ishlab chiqish, moliyaviy imkoniyatlar va masofaviy va kontaktsiz xizmat ko'rsatish vositalaridan foydalanishga e'tiborni kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi.

Moliyaviy makonni raqamlashtirish nafaqat xarajatlarni kamaytirish, tranzaktsiyalarni tezlashtirish, ularni xavfsizroq va shaffof qilish, balki ayni paytda eng zaif iste'molchilar guruuhlari ehtiyojlariga moslashtirilgan moliyaviy mahsulotlardan foydalanishga imkon beradi [4]. Yangi raqamli iqtisodiyot boshqa qoidalar va tamoyillarga asoslanadi, shu bilan bir qatorda yangi sohalarni o'z ichiga oladi, masalan: Big Data va ma'lumotlarni tahlil qilish, mobil texnologiyalar, sun'iy intellekt, robototexnika, biometrika, taqsimlangan reestrlar, bulutli texnologiyalar. Eskirgan tizimni yangilash uchun tobora ko'proq moliyaviy institutlar bulutli texnologiyalarga murojaat qilmoqda va bu nafaqat samaradorlik omili, balki o'zgarishlar omili sifatida ham ko'rilmoxda.

Moliyaviy xizmatlar uchun bulutli infratuzilmaning afzalliklariga arzonroq xarajatlar, yaxshiroq va integratsiyalashgan xavfsizlik, kengaytirilgan miqyoslilik va moslashuvchanlik kiradi va bu katta ma'lumotlar va tahlillarga nisbatan samaraliroq va tejamkor yondashuv sifatida qaraladi. Avtomatlashtirish moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalar uchun raqamli transformatsiyaning muhim tarkibiy qismidir. Ayniqsa, bank va sug'urta katta

hajmdagi ma'lumotlarni ishlab chiqaradigan tranzaksiyaga asoslangan tarmoqlardir. Ushbu ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash ularga ancha samaraliroq faoliyat yuritish hamda sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili kabi texnologiyalardan foydalangan holda mijozlar bazasini saqlab qolish va kengaytirish bilan bir qatorda xavfni boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, yaqin aloqa moliyaviy xizmatlar sohasini transformatsiya qilibgina qolmay, moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalarni tekshirish usullarini ham o'zgartiradi. Auditorlar kompaniyalarga tegishli ma'lumotlarga yaxshiroq kirish va ularni tahlil qilishni ta'minlash uchun audit strategiyasining markaziga texnologiyani qo'yadilar, shu bilan audit sifatini yaxshilash va tekshirilayotgan tashkilotlarning manfaatdor tomonlariga ko'proq qiymat taqdim etishga intiladilar.

Raqamlashtirilgan auditning muhim afzalligi shundaki, u biznes va tavakkalchilikning yanada shaffofligini ta'minlaydi. Xususan, ma'lumotlar tahlili orqali auditorlar moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlarning ma'lumotlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin bo'ladi. Bu ularga rahbarlarga murakkabroq savollar berish imkonini yaratish orqali auditni tekshirilayotgan shaxs va uning barcha manfaatdor tomonlari uchun qiymatliroq qiladi. Auditning bu evolyutsiyasi moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalarga foya keltirishi aniq.

Auditorlar katta hajmdagi ma'lumotlar namunalarini tahlil qilish uchun texnologik vositalardan foydalangan holda, moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyaning ichki jarayonlarini yaxshiroq tushunishlari, professional skeptitsizmni konstruktiv tarzda qo'llashlari va yanada samaraliroq audit strategiyasini ishlab chiqish uchun xavfni yaxshiroq baholashlari mumkin bo'ladi. Moliyaviy xizmatlar sektori katta raqamli transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Yangi texnologiyalar moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan kompaniyalarning ishlash usullarini va ularning auditlarini boshqarish usullarini tubdan o'zgartirmoqda.

Shunday qilib, moliyaviy texnologiyalar bozorini rivojlantirishni rag'batlaniruvchi asosiy omil internet va raqamlashtirishni rivojlantirishdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Agar rivojlanishning ilk bosqichlarida moliyaviy texnologiyalar bozori to'lovlar va elektron pullarni qabul qilish bilan cheklangan bo'lsa, hozirgi vaqtida boshqa bir qator xizmatlar keng tarqalmoqda. Moliyaviy sektorni raqamlashtirish istiqbollari juda yuqori. Yaqin keljakda moliyaviy munosabatlarni maksimal darajada soddalashtirishga qaratilgan yangi mahsulotlar va vositalar paydo bo'lishini inkor etib bo'lmaydi. Va bunda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning muhim sharti birinchi navbatda raqamli makonda xavfsizlikni ta'minlash, ishtirokchilarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydigan me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish va rivojlantirish, shunindek ushbu sohada jinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmlarini joriy etish ekanligini unutmaslik darkor.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. В.В. Кудревич, А.А. Густенко Развитие цифровой экономики в РФ. Инновационная наука №7-8 / 2018
2. Новикова Е.А. Цифровизация финансового сектора: новые инструменты и перспективы их использования: сборник трудов конференции. // Право, экономика и управление: от теории к практике : материалы Всеросс. науч.-практ. конф. с международным участием (Чебоксары, 21 мая 2020 г.) / редкол.: Г.Н. Петров [и др.] – Чебоксары: ИД «Среда», 2020. – С. 24-27. – ISBN 978-5-907313-39-2.
3. Воробьева Е.И., Блажевич О.Г. Цифровые технологии в финансовой сфере: целесообразность их применения в трансформации экономики Российской Федерации. Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - 2022 - № 1
4. Naumenkova, S., & Mishchenko, S. Tsyfrova finansova inklyuziya: mozhlyvosti ta obmezheniya dlya Ukrayiny. [Digital financial inclusion:opportunities and limitations for Ukraine]. Naukovyy visnyk Odes'koho natsional'noho ekonomichnoho universytetu – Scientific Bulletin of Odessa National Economic University, 1-2 (274-275), 133-149. DOI: <https://doi.org/10.32680/2409-9260-2020-1-2-274-275-133-149>.

MODELING OF FINANCIAL ACTIVITY OF ENTERPRISES

Yuldasheva Gulnoza Abdinabiyevna -
Senior teacher of the Department of "
Corporate Economics and Management", TSUE

Introduction. Financial modeling plays a pivotal role in the enterprise decision-making process. It serves as a strategic planning, budgeting, and investment evaluation tool. Over the years, financial modeling has evolved, addressing changing financial environments and increasing complexities in business operations. Early approaches were primarily based on simple calculations and ratios. However, the dynamic business world necessitated the development of sophisticated models to capture enterprise financial activity effectively [1]. Numerous scholars have contributed significantly to this field. Myers, for instance, proposed the Pecking Order Theory, which models the hierarchy of financing sources [2]. Modigliani and Miller put forward their renowned capital structure irrelevance principle, which revolutionized financial modeling concepts [3]. More recent contributions, like the structural models proposed by Merton [4], Black and Cox [5], focus on credit risk and bankruptcy forecasting, adding another dimension to the modeling of enterprise financial activities.

Financial Modeling Concepts. Financial modeling encompasses various aspects, including investment appraisal, budgeting, financial statement analysis, and forecasting.

Investment Appraisal: Investment appraisal models are critical tools used to evaluate potential investment opportunities. These include techniques such as the Net Present Value (NPV), Internal Rate of Return (IRR), and Payback Period. Brealey, Myers, and Allen affirm that these models, though simple, provide essential insights into the financial viability of investments [6].

Budgeting: Budgeting models help enterprises plan their finances. Various scholars like Horngren, Datar, and Rajan have explored zero-based budgeting, activity-based budgeting, and incremental budgeting models, each with its unique benefits and challenges [7].

Financial Statement Analysis: This involves the analysis of financial statements to understand an enterprise's financial health. Altman developed the Z-Score model, a tool for predicting bankruptcy based on key financial ratios. More recently, Ohlson proposed the O-Score model, enhancing the predictability of financial distress.

Forecasting: Financial forecasting involves predicting future financial outcomes based on historical data. Time series models, regression models, and machine learning models have gained popularity in recent years. Hyndman and Athanasopoulos discuss the various time series models, while Hastie, Tibshirani, and Friedman explore machine-learning approaches to financial forecasting.

Challenges and Limitations. While financial models are indispensable tools for decision-making, they have their limitations. The accuracy of these models depends on the quality of input data and the assumptions underlying them. Therefore, it's essential to acknowledge the inherent uncertainties and use these tools as guides rather than definitive predictors.

Future Directions and Recommendations. Financial modeling has experienced numerous advancements over the past decades, and it's likely this evolution will continue. With the advent of more sophisticated technologies, the future of financial modeling is anticipated to leverage artificial intelligence (AI) and machine learning (ML) methodologies, which can significantly enhance the accuracy and efficiency of financial forecasting and analysis.

AI and ML models, such as deep learning and neural networks, have the potential to handle complex non-linear relationships and vast amounts of data. This will allow financial

models to integrate a broader range of factors and better adapt to changes in the business environment.

However, despite the promise of these advanced techniques, they must be approached with caution. These models can become "black boxes," making it challenging to interpret the reasoning behind predictions. Therefore, enterprises must ensure they have the necessary expertise to interpret and manage these models correctly.

Simultaneously, enterprises should continue to use and refine traditional financial models. These models are valuable because of their simplicity and interpretability. Moreover, they have stood the test of time and continue to be reliable tools for financial decision-making.

Regarding financial modeling education, there should be an increased focus on understanding the underlying principles and assumptions of models, as well as their limitations. This will help users apply models more effectively and interpret their results with the appropriate level of caution.

To conclude, while the future of financial modeling is bright and exciting, the essence of these models remains the same: to provide insights that guide strategic decision-making. Enterprises should therefore seek to balance the use of traditional and advanced models, ensuring they make informed and responsible financial decisions.

Conclusion. Financial modeling plays a fundamental role in strategic planning and decision-making within enterprises. Numerous scholars have contributed significantly to this field, providing models for investment appraisal, budgeting, financial statement analysis, and forecasting. Despite their limitations, these models continue to evolve, incorporating increasing complexities of the business environment.

While the future of financial modeling will likely incorporate more advanced techniques, such as artificial intelligence and machine learning, the traditional models will remain relevant due to their simplicity and ease of interpretation. As Damodaran aptly puts it, "No matter how complex the model may be, the goal is still the same: to make better decisions."

References:

1. Damodaran, A. (2012). *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset*. John Wiley & Sons.
2. Myers, S. C. (1977). Determinants of corporate borrowing. *Journal of Financial Economics*, 5(2), 147-175.
3. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. *The American Economic Review*, 48(3), 261-297.
4. Merton, R. C. (1974). On the pricing of corporate debt: The risk structure of interest rates. *The Journal of Finance*, 29(2), 449-470.
5. Black, F., & Cox, J. C. (1976). Valuing corporate securities: Some effects of bond indenture provisions. *The Journal of Finance*, 31(2), 351-367.
6. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2011). *Principles of Corporate Finance*. McGraw-Hill/Irwin.
7. Horngren, C. T., Datar, S. M., & Rajan, M. V. (2012). *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. Pearson.

ХОРИЖ АМАЛИЁТИДА БАНК КРЕДИТЛАРИ ГАРОВ ТАЪМИНОТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

**Абдиқаримова Динара Рустамхановна –
Тошкент Кимё Халқаро Университети, PhD, доцент**

Мамлакатимизда иқтисодий ривожланишга эришиш, иқтисодиётнинг турли соҳаларини ривожлантириш, шунингдек, бизнес юритишнинг турли шаклларини йўлга қўйиш учун кенг имкониятлар яратишда банк кредитлари мухим аҳамият касб этмоқда. Ушбу жараёнда самарадорликка эришиш учун банк кредитларининг

қопланиши билан боғлиқ рискларни максимал камайтириш талаб этилади. Бунда банк кредитларининг гаров таъминотини шакллантириш ҳамда гаров таъминотини баҳолаш амалиётларини йўлга қўйиш ва ушбу фаолиятни тартибга соловчи самарали механизмларни ишлаб чиқиш зарур. Бугунги кунда тижорат банклари томонидан банк кредитлари берилишида ушбу жиҳатларга эътибор қаратиш зарурлиги кўзда тутилаётган бўлсада, амалиётда унинг самарали механизмлари ишлаб чиқилмаганлигига ёки амалда қўлланилмаслигига гувоҳ бўлишимиз мумкин. Ушбу жиҳатлар айни пайтда банк кредитлари гаров таъминоти ҳамда гаров таъминотини баҳолаш фаолиятини ўрганишнинг долзарблигини кўрсатади.

Халқаро амалиётда банк кредитлари бўйича айланмадаги товарларни гаровга қўйиш кенг қўлланилади. Бундай ҳолатда компанияга товарларни сотиш бўйича чегара (санкция) жорий этилмаган бўлиши ҳамда корхона мустақил равища товар, хом-ашё, материаллар ва бошқа активларини сотиш ҳамда сотиб олиш ҳуқуқига эга бўлиши зарур. Банк кредити бўйича компания товарларни гаровга қўйишнинг ўзига хос жиҳатлари мавжуд. Хусусан, компания томонидан сотилган товар ёки актив учун тўлов ҳақи келиб тушмаган бўлса, гаров рўйхатидан чиқарилади, сотиб олганлари эса, ушбу товарларга компаниянинг эгалик ҳуқуқи берилган пайтдан бошлаб банк гарови сифатида қаралади. Бу жараёнда шундай шарт сақланиши зарурки, компания ихтиёридаги товар кредит шартномасида назарда тутилган гаров суммасидан кам бўлмаслиги керак. Шунингдек, ликвидлилиги назарда тутилган даражадан ўзгармаслиги, яъни пасаймаслиги керак.

Алоҳида олинган мамлакатлар бўйича ушбу масалага эътибор қаратадиган бўлсақ, Швейцария банк тизими ривожланган мамлакатлар сирасига киради. Мазкур мамлакат банк тизимининг ривожланишига асосий сабаблардан бири бу албатта, кредит рискининг пастлигидир. Кредит рискининг паст даражада бўлишини таъминловчи омилларнинг асосийси бу гаров объективнинг тўғри баҳолангандиги ҳисобланади.

Швейцарияда гаров объективини баҳолашда асосан унинг бозор қиймати баҳоланади. Ҳар бир объектни баҳолашда алоҳида ёндашув ва методикадан фойдаланилади.

а) Кўчмас мулкни баҳолашда қуйидаги жиҳатларга эътибор берилади:

- худудий кўчмас мулк бозори таҳлили;
- яқин ва узоқ атроф муҳит таҳлили;
- кўчмас мулкни ижара ва олди сотди бозори таҳлили;
- бозор нархларини тебраниш даржасини башорат қилиш;
- мос келувчи ҳисоблаш метод ва техникаларини аниқлаш;
- қиёсий ёндашувдан фойдаланишда 50 та кўрсаткични аниқлаш;
- кўчмас мулкнинг ўзига хос хусусиятларини атрофлича ўрганиш ва баҳолашда эътиборга олиш;
- ҳисобланган кўрсаткичларни исботлаш;

б) Қимматли қоғозларни баҳолашда қуйидагилар инобатга олинади:

- корхона, яъни эмитентнинг ташкилий тузилмасини чуқур таҳлил қилиш;
- унинг ликвидлилик даражасини аниқлаш;
- тақдим этилган ҳужжатларни таҳлил қилиш;
- корхонанинг иқтисодий ва молиявий фаолиятини ўрганиш (сўнгги 5 йиллик);
- узоқ муддатли инвестицияларини синчиклаб ўрганиш;
- мос келувчи баҳолаш метод ва техникаларини аниқлаб олиш;
- барча кўрсаткичларни исботини ишлаб чиқиш.

Швейцарияда банклар томонидан гаров таъминоти сифатида қуйидаги активлар қабул қилинади (1-жадвал).

Гаров объектлари таснифи [1]

| № | Гаров объектлари | Гаров объектлари таркиби |
|----------|-------------------------|--|
| 1. | Кўчмас мулк | 1.1. Уй-жой 1.2. Тижорат оффислари 1.3. Омборхона 1.4. Меҳмонхона Бошқа бинолар |
| 2. | Қимматли қофозлар | 1.1. Акциялар 1.2. Облигациялар 1.3. Опционлар 1.4. Фючерслар Давлат молиявий институтлари, корхоналар ва бошқа ташкилотлар томонидан эмиссия қилинган қимматли қофозлар |
| 3. | Ер | - |
| 4. | Ускуна ва технологиялар | - |

Баҳолаш фаолиятини ташкил этишда гаров таъминотини шакллантириш ва баҳолашга турлича ёндашувлар мавжуд. Жумладан, шаҳар шароитида гаров бозорининг ҳолатини учта индекс ёрдамида тавсифлаш амалиёти мавжуд (1-расм). 1-расмда шаҳар шароитида гаров бозорининг ҳолатини аниқлашнинг учта индекси акс эттирилган бўлиб, мулк жойлашган шаҳар бўйича аҳоли жон бошига ўртacha йиллик даромад, кўчмас мулк бўйича битимлар сонининг кўчмас мулклар акцияларига нисбати ҳамда икки йил оралиғида кўчмас мулк жойлашган жойдаги кўчмас мулк боғлиқ битимлар сонининг фоиздаги ўзгариши шаҳар шароитида гаров бозори ҳолатини баҳолаш имконини беради.

**Мулк жойлашган шаҳар
бўйича аҳоли жон бошига
ўртacha йиллик даромад**

**Икки йил оралиғида
кўчмас мулк жойлашган
жойдаги кўчмас мулк
боғлиқ битимлар
сонининг фоиз ўзгариши**

**Кўчмас мулк бўйича
битимлар сонининг кўчмас
мулклар акцияларига
нисбати (бу маҳаллий
бозорнинг кўрсаткичларини
тушунтиради)**

**1-расм. Шаҳар шароитида гаров бозорининг ҳолатини аниқлашнинг
учта индекси [2]**

“Глобал молиявий инқироздан сўнг марказий банклар молиявий барқарорликни ҳимоя қилиш ва реал иқтисодиётни қўллаб-қувватлаш учун ўзларининг кредит фаолияти ҳажми ва қўламини оширди. Марказий банкнинг кредитлаш операциялари одатда таъминланган (repo) операциялари бўлиб, унда марказий банк фоиз

ставкасини ва тегишли гаров активларини белгилайди. Контрагентлар ушбу шартларга мувофиқ ликвидликни таъминлашга ҳаракат қиласди. Демак, марказий банк кредитларининг ортиши контрагентларнинг хусусиятларига ва уларнинг гаров активларига кўпроқ эътибор қаратилишига олиб келди. Марказий банклар томонидан ликвидликни оширишга ҳаракат қилиш турли шаклларда бўлиши мумкин. Одатда, мазкур жараён ликвидли гаров активларини (масалан, суверен облигациялар) янада ликвидли активларга (масалан, нақд пул) айлантиришни ўз ичига олади. Бироқ, нисбатан камроқ ликвидли гаров активларини (масалан, таъминланмаган кредит портфеллари) ликвидлиги юқорироқ активларга (масалан, нақд пул ёки ғазна векселлари) айлантиришни ҳам ўз ичига олиши мумкин” [3]. Марказий банклар томонидан мазкур чора-тадбирларнинг амалга оширилиши тижорат банкларида кредитларнинг гаров таъминотини самарали шакллантиришга ёрдам беришини таъкидлаш лозим.

Хулоса сифатида таъкидлаш лозимки, банклар гаров таъминотини шакллантиришда гаров объектининг хусусиятлари ҳамда ҳаётийлик давридан келиб чиққан ҳолда ёндашиш лозим ҳамда гаров таъминоти сифатида олинадиган объектларнинг тасниfinи аниқлаб олиш лозим. Шунингдек, миллий амалиётда банклар томонидан гаров таъминоти таркиби кенгайтирилиш лозим, чунки мазкур чоранинг амалга оширилиши банкларнинг мижозлари кенгайишига хизмат қиласди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://www.swissap.com>. Швейцариядаги йирик баҳолаш компаниясининг веб сайти
2. Rubina Canesia, Chiara D'Alpaosa, Giuliano Marellaa. *Guarantees and collaterals value in NPLs*. // Procedia - Social and Behavioral Sciences 223 (2016) 77 - 82.
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042816303822>
3. Calebe de Roure, Nick McLaren. *Liquidity transformation, collateral assets and counterparties*. // Central Bank Review, Volume 21, Issue 4, December 2021, Pages 119-129.
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1303070121000305>

БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ ВА МАБЛАҒЛАРНИ МАҚСАДЛИ САРФЛАНИШИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

***Абдурахманов Каҳрамон Абдумажитович -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети ҳузуридаги
«Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари» илмий-тадқиқот
маркази мустақил изланувчиси***

Ўзбекистон шароитида бюджет ташкилотларини молиялаштириш ва маблағларнинг мақсадли сарфланиши мамлакатни ривожлантириш мақсадларига эришишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Ўзбекистон даромади ўртадан паст бўлган мамлакат бўлиб, сўнгги бир неча йил ичидан сезиларли иқтисодий ва ижтимоий ислоҳотларни амалга оширмоқда. Ҳукумат инфратузилма, таълим, соғлиқни сақлаш ва ижтимоий таъминот дастурларига инвестицияларни ўз фуқароларининг турмуш даражасини ошириш ва иқтисодий ўсишга кўмаклашишга устувор аҳамият берди.

Бу ташабbusларни қўллаб-куватлаш учун давлат маблағларининг самарали тақсимланиши ва бошқарилишини таъминлаш зарур. Бунинг учун бюджетни бошқариш ва ҳисобдорликнинг мустаҳкам институционал асослари, шунингдек, давлат харажатлари таъсирини мониторинг қилиш ва баҳолашнинг мустаҳкам

механизмлари талаб этилади. Бошқа мамлакатларнинг илфор тажрибаларини ўзлаштириш ва уларни маҳаллий шароитга мослаштириш орқали Ўзбекистон бюджет ташкилотларини молиялаштириш ва маблағларнинг мақсадли сарфланишини ташкил этиш имкониятларини ошириши, бу эса давлат ресурсларидан самаралироқ фойдаланишга олиб келиши мумкин.

Мавзу доирасида кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борилган бўлиб, унда тадқиқот доирасида хорижий мамлакатларни тажрибасига қараб чиқсак. Жумладан, Америка Кўшма Штатлари ҳукумати бюджетнинг маълум бир қатор бандлари бўйича маблағ ажратадиган стратегик бюджетлаштириш шаклидан фойдаланади. Бундан ташқари, ҳукумат молиялаштиришни муайян дастур натижалари билан боғлайдиган самарадорликка асосланган бюджетлашни амалга ошириди. АҚШ таълим, соғлиқни сақлаш ва инфратузилмани ривожлантириш каби соҳаларда мақсадли харажатларни қўллаб-қувватлаш учун грантлардан ҳам фойдаланади [1].

Евropa Иттифоқи турли сиёsat соҳалари бўйича молиялаштиришни тақсимлаш учун кўп йиллик молиявий тизимдан фойдаланади. Шу доирада, Евropa Иттифоқи, шунингдек, мақсад ва кутилаётган натижалардан келиб чиқсан ҳолда, муайян дастурларга маблағ ажратадиган дастурга асосланган бюджет тизимини жорий қиласи. Евropa Иттифоқи, шунингдек, аъзо давлатларнинг ижтимоий ва иқтисодий ривожланишини қўллаб-қувватлаш учун мақсадли харажатлардан фойдаланади [2].

Япония дастурларни бюджетлаштириш тизимидан фойдаланади, бу тизим мақсадлари ва кутилган натижаларидан келиб чиқсан ҳолда муайян дастурларга маблағ ажратади. Япония, шунингдек, нолга асосланган бюджет ёндашувини қўллайди, бу эса давлат идораларидан ҳар йили барча харажатларини нолдан оқлашини талаб қиласи. Бу энг самарали бўлган дастурларга маблағ ажратилишини таъминлашга ёрдам беради [3].

Жанубий Корея молиялаштиришни муайян дастур натижалари билан боғлайдиган самарадорликка асосланган бюджет ёндашувидан фойдаланади. Бундан ташқари, ҳукумат стратегик бюджетлаштириш тизимини жорий қиласи, у аниқ сиёsat мақсадларини белгилайди ва ушбу мақсадларга мос келадиган дастурларга маблағ ажратади. Жанубий Корея, шунингдек, таълим, соғлиқни сақлаш ва инфратузилма каби соҳаларда иқтисодий ва ижтимоий ривожланишини қўллаб-қувватлаш учун мақсадли харажатлардан фойдаланади [5].

Хитой дастурларни бюджетлаштириш тизимидан фойдаланади, бу эса уларнинг мақсадлари ва кутилган натижаларидан келиб чиқсан ҳолда муайян дастурларга маблағ ажратади. Хитой, шунингдек, қашшоқликни камайтириш, соғлиқни сақлаш ва таълим каби соҳаларда иқтисодий ва ижтимоий ривожланишини қўллаб-қувватлаш учун мақсадли харажатлардан фойдаланади. Бундан ташқари, ҳукумат молиялаштиришни муайян дастур натижалари билан боғлайдиган ва мунтазам мониторинг ва баҳолашни талаб қилувчи натижаларга асосланган бошқарув тизимини жорий қиласи [6].

Бу бюджет ташкилотларини молиялаштириш ва маблағларнинг мақсадли сарфланишини ташкил этишнинг турли моделларини татбиқ этган мамлакатларнинг бир нечта мисоллари келтириб ўтилди. Ўзбекистон хорижий мамлакатларда қўлланилаётган кўплаб ёндашувларни амалга ошириш жараёнида, лекин қўпинча янги босқичда. Ўзбекистонда бошқа мамлакатлар тажрибасини ўрганиш ва давлат маблағларини бошқаришни такомиллаштириш, хусусан, дастур ва натижага асосланган бюджетлаштириш, шунингдек, натижаларга асосланган бошқарув тизимини янада кенгроқ ва мустаҳкам ташкил этиш орқали салоҳият мавжуд.

Ўзбекистон бюджет ташкилотларини молиялаштириш ва маблағларнинг мақсадли сарфланишини ташкил этишда бир қанча муаммоларга дуч келмоқда. Ушбу қийинчиликлардан баъзилари қўйидагилардан иборат:

Чекланган институционал имкониятлар: Ўзбекистонда давлат молиясини бошқариш бўйича, хусусан, дастур ва самарага асосланган бюджетлаштириш ҳамда натижаларга асосланган бошқарув соҳаларида чекланган институционал имкониятлар мавжуд. Бу энг самарали дастурларга маблағларни самарали тақсимлашга ва керакли натижаларга эришишга тўсқинлик қилиши мумкин.

Чекланган шаффофлик ва ҳисобдорлик: Ўзбекистонда давлат молиясини бошқаришда шаффофлик ва ҳисобдорлик чекланган. Бу ресурслардан самарасиз фойдаланишга, шунингдек, коррупцияга олиб келиши мумкин.

Молиявий имкониятларнинг чекланганлиги: Ўзбекистон бошқарув, шаффофлик ва ҳисобдорлик билан боғлиқ муаммолар туфайли, хусусан, халқаро молия институтлари томонидан молиялаштиришга киришда қийинчиликларга дуч келмоқда.

Чекланган хусусий сектор иштироки: Ўзбекистонда хусусий секторнинг давлат лойиҳалари ва дастурларини молиялаштиришда чекланган иштироки мавжуд. Бу инновацион молиялаштириш ёндашувлари ва ҳамкорлик имкониятларини чеклаши мумкин.

Ўзбекистон олдида турган муаммолар ва хорижий тажрибадан фойдаланиш имкониятларидан келиб чиқиб, хорижий тажрибани Ўзбекистон шароитига мослаштириш бўйича бир қанча тавсиялар мавжуд:

Кенг қамровли ислоҳотлар стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш: Ўзбекистон бюджет ташкилотларини молиялаштириш ва маблағларнинг мақсадли сарфланишини ташкил этишда дуч келаётган муаммоларни ҳал этиш бўйича комплекс ислоҳотлар стратегиясини ишлаб чиқиши ва амалга ошириши керак. Бу сиёsat ислоҳотлари, институционал ўзгаришлар, салоҳиятни ошириш ва манфаатдор томонларнинг иштирокини ўз ичига олиши керак.

Институционал салоҳиятни кучайтириш: Ўзбекистон давлат молиясини бошқаришда, хусусан, дастур ва натижага асосланган бюджетлаштириш ҳамда натижаларга асосланган бошқарув соҳаларида институционал салоҳиятни оширишга устувор аҳамият бериши керак. Бунга таълим дастурлари, техник ёрдам ва халқаро ҳамкорлик орқали эришиш мумкин.

Ошкоралик ва ҳисобдорликни ошириш: Ўзбекистон давлат молиясини бошқаришда шаффофлик ва жавобгарликни оширишга устувор аҳамият бериши керак. Бунга мустақил аудиторлик органини ташкил этиш, давлат харидлари қоидаларини кучайтириш, ахборот берувчини ҳимоя қилиш механизмини жорий этиш каби чоратадбирлар орқали эришиш мумкин.

Хусусий сектор иштирокини рағбатлантириш: Ўзбекистон давлат лойиҳалари ва дастурларини молиялаштиришда хусусий секторни кўпроқ жалб қилишни рағбатлантиришга устувор аҳамият бериши керак. Бунга давлат-хусусий шерикликни йўлга қўйиш, лойиҳаларни молиялаштириш механизmlарини амалга ошириш, тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар жалб этишни рағбатлантириш каби чоратадбирлар орқали эришиш мумкин.

Манфаатдор томонлар иштирокини кучайтириш: Ўзбекистон манфаатдор томонларнинг бюджетлаштириш жараёнида, хусусан, фуқаролик жамияти ташкилотлари, хусусий сектор манфаатдор томонлари ва маҳаллий ҳамжамиятларни жалб қилиш орқали фаоллигини оширишга устувор аҳамият бериши керак. Бу фуқароларнинг талабларини қондириш ва масъулиятни оширишга ёрдам беради.

Бюджет маблағларини ривожланиш устуворликлари билан мувофиқлаштириш: Ўзбекистон бюджет маблағларини ривожланиш устуворликларига мослаштириши ва мақсадли сарфланиши кутилган натижаларга эришиш билан боғлиқлигини таъминлаши керак. Бунга натижаларга асосланган бюджетлаштириш ёндашувини жорий этиш орқали эришиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда давлат маблағларини молиялаштириш ва сарфлашни яхшилашда хорижий тажрибаларни ўрганиш муҳим аҳамиятга эга. Бошқа мамлакатлардан олинган илғор тажриба ва сабоқларни қўллаш орқали Ўзбекистон ўзининг институционал салоҳиятини ошириши, шаффофлик ва ҳисобдорликни ошириши, хусусий сектор иштирокини рағбатлантириши ва бюджет маблағларини ривожланиш устуворликлари билан мувофиқлаштириши мумкин. Бу, пировардида, давлат маблағларидан самаралироқ ва самарали фойдаланишга, давлат хизматларини кўрсатишни янада яхшилашга, фуқароларнинг талаб ва умидларини янада қондиришга олиб келиши мумкин. Шу боис Ўзбекистон ўз тараққиёт мақсадларига эришиш учун хорижий тажрибаларни ўрганишни давом эттириш ва уларни ўзига хос шароитларга мослаштириш муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Congressional Research Service. "Overview of the Federal Budget Process." May 28, 2021
2. European Commission. "Programme-based budgeting." Accessed May 1, 2023.
3. OECD. "Performance Budgeting in Japan." 2019.
4. OECD. "Performance Budgeting in South Korea." 2019
5. Asian Development Bank. "China's Experience in Public Financial Management Reform." December 2017
6. Исаев, Ф. (2023). Солиқ текширувлари: аудит самарадорлиги таҳлили. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 11(1), 394-401. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a42
7. Исаев, Ф. (2022). Йирик корхоналар мисолида солиқ йиғилувчанлиги кўрсаткичини таҳлил қилиш методикасини тақомиллаштириши. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 317-326. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/955>
8. Исаев Ф. Аудит самарадорлигининг назарий-амалий талқини //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 359-361.
9. Жумаев, Н., Ризаев, Н., & Исаев, Ф. (2023). Ўзбекистонда бухгалтерия ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқлаштиришда туркӣ давлатлар тажрибаси. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(2), 58-67. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1014>
10. Khamdamov Shoh-Jakhon, Usmanov Anvar Saidmakhmudovich, Abdulazizova Ogiloy, Fakhriddin Isaev, Nodirbek Kholbaev, Makhmudov Samariddin and Sabina Kholbaeva. 2022. Econometric modeling of central bank refinancing rate in Uzbekistan. In *The 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems (ICFNDS '22)*, December 15, 2022, Tashkent, TAS, Uzbekistan. ACM, New York, NY, USA, 8 Pages. <https://doi.org/10.1145/3584202.3584239>

ФИНАНСИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ЗА СЧЕТ СРЕДСТВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В ИНОСТРАННОЙ ВАЛЮТЕ

Арзуманян Стелла Юрьевна -
Ташкентский финансовый институт
Доцент кафедры «Банковское дело»
Найимова Чарос Хамидулла кизи -
Ташкентский финансовый институт
Управление инвестициями

Инвестиционный процесс является одним из основных аспектов функционирования экономической системы, определяя уровень технологической основы и эффективности материального производства. Развитие рыночных отношений, формирование новой структуры собственности, изменение системы управления, расширение хозяйственной самостоятельности требуют поиска и применения новых методов и подходов к регулированию экономики.

Обоснование стратегии финансирования инвестиционного проекта предполагает выбор методов финансирования, определение источников финансирования инвестиций и их структуры.

Источниками финансирования (инвестирования) могут выступать собственные, заемные и привлеченные средства. Процедура инвестирования предполагает проведение предварительной оценки эффективности принимаемых решений. Оценка показателей эффективности инвестиционных проектов является весьма актуальным вопросом в условиях глобализации экономики, так как инвестирование затрагивает интересы не только хозяйствующих субъектов, но и государства.

Метод финансирования инвестиционного проекта выступает как способ привлечения инвестиционных ресурсов в целях обеспечения финансовой реализуемости проекта.

В качестве методов финансирования инвестиционных проектов могут рассматриваться:[2]

- Самофинансирование, т.е. осуществление инвестирования только за счет собственных средств;
- Акционирование, а также иные формы долевого финансирования;
- Кредитное финансирование (инвестиционные кредиты банков, выпуск облигаций);
- Лизинг;
- Бюджетное финансирование;
- Смешанное финансирование на основе различных комбинаций рассмотренных способов;
- Проектное финансирование.

Осуществление инвестиционной деятельности требует достаточно глубоких знаний теории, и наличия практических навыков принятия управленческих решений в области инвестирования и обоснования инвестиционной стратегии, выбора эффективных направлений и источников финансирования реальных инвестиционных проектов.

В настоящее время широко распространяется инвестиционный кредит для бизнеса. Он сейчас является важным инструментом финансирования компаний. На мировом рынке много предприятий, которые смогли расширить деятельность и обрести нынешний статус во многом благодаря полученному от банка долгосрочному финансированию. Банк может финансировать бизнес как в национальной, так и в иностранной валюте.

Инвестиционный кредит — это заем, предоставляемый банком на развитие какой-либо компании. Компания может воспользоваться этой услугой, чтобы модернизировать производство, расширить действующий бизнес или запустить новые проекты. При этом целевое использование полученных средств тщательно проверяется банком. Это означает, что предприниматель, получающий инвестиционный кредит, должен направлять полученные таким образом деньги на оговоренные с банком цели.

Цели, для которых берется инвестиционный кредит на срок до 15 лет или более, должны быть указаны предпринимателем при подаче заявки на получение кредита. То есть нельзя сначала получить средства, а уже потом решать, что именно предприниматель будет делать с деньгами. Условием получения инвестиционного кредита для бизнеса является положительный результат проведенного банком экономического и финансового анализа инвестиционного проекта. При предоставлении инвестиционных кредитов банк часто требует внесения собственного вклада, что уменьшает кредитный риск для банка.

Чаще всего инвестиционные кредиты берут производственные компании— для них это самый доступный и дешевый способ выйти на новый уровень, повысить эффективность деятельности, модернизировав оборудование. Особенно актуально инвестиционное кредитование для новых компаний, которым пока сложно воспользоваться стандартными видами кредитов, а также для долгосрочных проектов. Пакет документов варьируется в зависимости от требований банка, но обязательно должен содержать кредитную заявку с описанием целей и сроков кредита, ТЭО, подробный бизнес-план с прогнозом денежных поступлений на счет компании, копии учредительных документов. Залогом может выступить имущество: недвижимость, автотранспорт, основные средства, оборудование и т. д. Банки также определяются минимальную долю участия собственного капитала заемщика в проекте. При этом формирование средств, предназначенных для реализации инвестиционного проекта, должно носить строго целевой характер.

Банк предоставит компании финансирование только в том случае, если увидит в проекте выгоду для себя. Таким образом, идеальная схема финансирования должна включать высококачественный и многообещающий бизнес-план. Наконец, инвестируемая компания должна демонстрировать финансовый успех, динамично и последовательно развиваясь. Так банк гарантирует своевременный возврат долга. Критически важно убедить банк, что планируемые расходы носят инвестиционный характер и, кроме того, принесут компании и ее партнерам значительную выгоду.

Литература:

1. Закон Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности» от 25 декабря 2019 года
2. Орехов С.А. Научная статья «Формы и методы финансирования инвестиционных проектов»
3. Информационный сайт www.esfccompany.com

РАЗВИТИЕ РАСЧЕТНО-КЛИРИНГОВОЙ СИСТЕМЫ ЦЕНТРАЛЬНОГО БАНКА УЗБЕКИСТАНА

*Бабаева Гузаль Яшиновна -
Старший преподаватель кафедры «Банковский
учет и аудит» Ташкентского финансового института*

Важнейшим необходимым фактором для успешного развития цифровой экономики становится совершенствование национальной платежной системы, которая в полной мере отвечает возрастающим требованиям субъектов экономической деятельности к быстрому и надежному осуществлению платежей и является одним из важных элементов финансовой структуры рынка. Можно дать определение банковским платежным системам с точки зрения их экономической сущности. С этой позиции, банковские платежные системы представляют собой часть системы безналичных расчетов, основанной на собственных принципах, способах платежа и формах расчетов и активно взаимодействующей со всей системой безналичных расчетов. [1]

Классификация платежных систем в Узбекистане в зависимости от предназначения представлена на рисунке 1.




Рисунок 1. Классификация платежных систем в Узбекистане в соответствии с Законом «О платежах и платежной системе» [2]

Клиринговая система расчетов Центрального банка является платежной системой, специализирующейся на проведении платежей физических и юридических лиц в режиме реального времени 24/7. Благодаря интеграции информационных систем организаций, принимающих платежи через Клиринговую систему расчетов Центрального банка создано ряд удобств для населения. Порядок работы деятельности данной системы регламентируется "Положение о расчетно-клиринговой системе расчетов Центрального банка" [3]. Согласно отечественному законодательству «клиринг» — процесс сбора, сверки и зачета взаимных денежных требований и обязательств участников платежной системы [4]. Для участия и проведения платежей в клиринговой платежной системе заключается двусторонний договор с Главным центром информатизации. ЦБ производит зачисление средств на счет поставщика услуг и отправляет подтверждение об оплате клиенту. В них осуществляется прием платежей от потребителей в "онлайн" режиме посредством «Межбанковской универсальной неттинговой информационной системы» (МУНИС) Клиринговой системы расчетов Центрального банка Республики Узбекистан.

Как видно из таблицы 1., в настоящее время банковская инфраструктура предоставляет возможности для оплаты в режиме реального времени разных видов услуг через Клиринговую систему расчетов Центрального банка посредством идентификации плательщика с помощью биллинговых систем поставщиков услуг.

Клиринговая система расчетов Центрального банка также выполняет функцию расчетного банка для проведения межбанковских расчетов по результатам клиринга по операциям с использованием банковских карт действующих в республике различных платежных систем («Uzcard» и «Нимо»). Количество организаций и ведомств, проявивших интерес к осуществлению платежей в режиме онлайн через Клиринговую систему расчетов Центрального банка постоянно растет. В результате количество организаций (поставщиков услуг), осуществляющих прием платежей через Клиринговую систему расчетов Центрального банка, увеличилось до 46 в 2022 году. [5].

Как видно из рисунка 2., в 2022 году объем платежей, осуществленных через Клиринговую систему расчетов, увеличился в 1,6 раза по сравнению с 2021 годом и составил 58,7 трлн. сум.

Важным элементом реформирования банковской системы является внедрение удобных услуг для населения и поставщиков услуг что также будет выполнением такой задачи как: «создание необходимых условий широкого внедрения современных информационно-коммуникационных технологий, автоматизации бизнес-процессов коммерческих банков и расширения спектра дистанционных банковских услуг» обозначенной в Указе Президента Республики Узбекистан: «О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020 — 2025 годы» [6].

Таблица 1.

**Сведения о транзакциях, проведенных через клиринговую систему (МУНИС)
Центрального банка в 2020-2022 годах в разрезе поставщиков услуг[5].**

сумма платежей в млрд. сумах

| № | Наименование поставщиков услуг | Проведенные транзакции в течение 2020 года | | Проведенные транзакции в течение 2021 года | | Проведенные транзакции в течение 2022 года | |
|--------------|---|--|-----------------|--|-----------------|--|-----------------|
| | | количество | сумма | количество | сумма | количество | сумма |
| 1 | Автосаноат GM | 385 187 | 8 749,5 | 385 682 | 13 624,9 | 692 479 | 30 056,5 |
| 2 | Казначейство Министерство финансов | 9 702 803 | 5 819,7 | 12 942 334 | 8 614,3 | 13 348 570 | 9 451,1 |
| 3 | Бюджетные платежи (налоги и отчисления физических лиц) | 9 455 866 | 1 632,4 | 11 672 122 | 2 390,0 | 12 277 079 | 2 689,0 |
| 4 | Бюро принудительного исполнения | 429 019 | 106,0 | 1 475 507 | 1 044,5 | 2 904 471 | 2 659,2 |
| 5 | Услуги Министерства юстиции | 9 829 532 | 1 143,9 | 12 509 879 | 1 651,4 | 15 140 196 | 2 427,7 |
| 6 | Центр государственных услуг | 5 134 746 | 260,8 | 6 912 579 | 824,6 | 7 957 957 | 1 658,4 |
| 7 | E-AUKSION | 93 919 | 416,0 | 83 230 | 460,4 | 634 640 | 1 526,3 |
| 8 | ГУББД (штрафы) | 4 784 701 | 1 103,9 | 5 228 053 | 1 271,3 | 4 133 084 | 1 211,6 |
| 9 | МВД (административные штрафы) | 640 106 | 163,3 | 1 141 064 | 296,5 | 4 916 979 | 1 080,8 |
| 10 | Государственный таможенный комитет | 87 396 | 516,0 | 113 830 | 807,6 | 151 820 | 983,6 |
| 11 | HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI | 7 880 080 | 1 498,8 | 4 838 045 | 1 099,7 | 3 172 576 | 906,8 |
| 12 | АО "Худудгазтаминот" | 7 516 492 | 1 644,5 | 5 411 204 | 1 135,3 | 4 297 146 | 693,9 |
| 13 | Государственный центр персонализации | 1 045 657 | 220,9 | 3 226 393 | 930,6 | 2 408 208 | 674,5 |
| 14 | МВД (ОВИР) | 1 211 106 | 5,9 | 2 519 560 | 306,1 | 2 828 741 | 481,5 |
| 15 | Бюджетные платежи (налоги и отчисления ИП) | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 1 591 877 | 424,1 |
| 16 | ТОШИССИККУВВАТИ | 1 028 668 | 350,3 | 1 012 325 | 392,0 | 812 020 | 324,9 |
| 17 | Высший суд | 4 814 | 7,1 | 439 226 | 102,7 | 1 166 781 | 260,3 |
| 18 | Платежи по QR-кодам | 5 785 | 0,2 | 14 283 | 15,0 | 45 490 | 180,2 |
| 19 | Государственный кадастр | 822 512 | 377,8 | 365 116 | 147,7 | 310 484 | 148,2 |
| 20 | Вывоз бытовых отходов | 2 930 199 | 160,0 | 2 140 136 | 102,5 | 2 886 887 | 141,8 |
| 21 | Другие услуги | 3 621 163 | 737,9 | 3 709 157 | 820,7 | 5 028 487 | 708,4 |
| ИТОГО | | 66 609 751 | 24 915,0 | 76 139 725 | 36 037,9 | 86 705 972 | 58 688,6 |

В качестве направлений совершенствования работы клиринговой системы расчетов Центрального банка (Межбанковской универсальной неттинговой информационной системы) выделяют следующее:

- Оптимизация предоставления банковских услуг населению и бизнесу;
- Повышение качества и доступности предоставляемых услуг;
- Внедрение единых стандартов взаимодействия биллинговых систем поставщиков услуг с банковской системой;
- Повышение ответственности коммерческих банков при проведении межбанковских расчетов и рационального использования денежных ресурсов;
- Достижение снижения тарифов при оплате услуг;
- Создание необходимых условий, обеспечивающих бесперебойной функционирование работы системы, так как периодически наблюдаются сбои по причине отсутствия связи, отключения электроэнергии и др., что создает неудобства для осуществления платежей.



Рисунок 2. Сумма и количество осуществленных транзакций через расчетно-клиринговую систему (млрд. сум) [5].

В заключение важно подчеркнуть, что совершенствование платежной системы и её инфраструктуры, способствуя развитию безналичных форм оплаты позволяют потребителям пользоваться платежными услугами в удобном месте и в удобное время что положительно сказывается на развитие экономической системы в целом.

Список использованной литературы:

1. Платежная система и банковская безопасность: Учебное пособие/ Муругова И.А., Бабаева Г.Я.;-Т.: «Iqtisod – Moliya»- 2019. - с 5.
2. Бабаева Г.Я. Структура и тенденции развития Платежной системы Узбекистана. «Логистика ва иктисадиет» Научный электронный журнал №6 2021 г.
3. “Положение о расчетно-клиринговой системе Центрального банка” от 04.04.2014 г.№2570.
4. Закон Республики Узбекистан «О платежах и платежных системах» от 1.11.2019 г., № ЗРУ-578).
5. www.cbu.uz – Официальный сайт Центрального банка Республики Узбекистана.
6. Указ Президента Республики Узбекистан: «О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020 – 2025 годы» от 12.05.2020 г. № УП-5992.

ФАКТОРИНГ АМАЛИЁТИНИНГ ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МОЛИЯВИЙ ХИЗМАТ СИФАТИДА РИВОЖЛАНИШИ

Бобобеков Фарход Рустамович –
Тошкент шаҳридаги Кимё Халқаро
университети “Банк иши ва бухгалтерия”
кафедраси доценти, PhD

Иқтисодиёт ривожлангани сари хўжалик юритувчи субъектлар ўртасида турли хил молиявий хизматларга бўлган эҳтиёж ҳам ортиб бораверади. Бу борада, тижорат банклари ва нобанк кредит ташкилотларининг факторинг операциялари орқали хўжалик юритувчи субъектларнинг дебиторлик қарздорлигини камайтириш воситаси сифатида ҳаракат қилиши ва ундан кенг қўламда фойдаланиши учун етрали имкониятлар яратилиши лозим. Бироқ ҳозирги пайтдаги мавжуд тижорат банклари активлари таркибиға назар солсак, факторинг ҳажми деярли кўринмайди.

Аммо хорижий давлатларда бу амалиёт тиҷорат банкларининг асосий даромад келтирадиган манбааларидан бирига айланган. Айниқса, янги ташкил топган корхоналар, кичик ва ўрта бизнес вакиллари факторингдан дебитор қарздорлигини камайтириб ўз молиявий ҳолатини барқарорлаштириш йўлида фаол фойдаланади [1].

Мамлакатимиз банкларида факторинг амалиётининг ҳолати ва унинг ривожланиш тенденцияларини аниқлаш учун “Ўзсаноатқурилишбанк”нинг 2003 йилдан, то 2020 йилгача бўлган даврдаги маълумотларини таҳлил қилдик [2] (1-жадвалга қаранг).

1-жадвал

«Ўзсаноатқурилишбанк» АТБда 2003-2020 йилларда факторингнинг банк активлари ва даромадидаги улуши динамикаси

| Йиллар | Банк нинг умумий активлари (млн. сўм) | Банкнинг факторинг айланмаси (млн. сўм) | Факторинг айланнинг умумий актив ларга нисбати (%) | Банк нинг умумий даромади (млн. сўм) | Комиссион хизматлардан олинадиган даромадлар (млн. сўм) | Факторинг даромади (млн. сўм) | Комиссион даромадларнинг умумий даромадга нисбати (%) | Факторинг даромади нинг умумий даромадга нисбати (%) |
|--------|---------------------------------------|---|--|--------------------------------------|---|-------------------------------|---|--|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 |
| 2003 | 311954 | 20526 | 6,6 | 20571 | 14327 | 246 | 69,6 | 1,2 |
| 2004 | 427681 | 14456 | 3,4 | 24848 | 19365 | 202 | 77,9 | 0,8 |
| 2005 | 521574 | 18104 | 3,5 | 31303 | 23099 | 96 | 73,8 | 0,3 |
| 2006 | 683659 | 9973 | 1,5 | 45394 | 28669 | 501 | 63,2 | 1,1 |
| 2007 | 961591 | 17950 | 1,9 | 65590 | 38705 | 245 | 59,0 | 0,4 |
| 2008 | 1419284 | 33964 | 2,4 | 84582 | 52915 | 188 | 62,6 | 0,2 |
| 2009 | 1577023 | 69730 | 4,4 | 102255 | 57641 | 3052 | 56,4 | 3,0 |
| 2010 | 1904078 | 77359 | 4,1 | 107397 | 67421 | - | - | - |
| 2011 | 3428995 | 121951 | 3,6 | 139721 | 88180 | 1822 | 63,1 | 1,3 |
| 2012 | 5012288 | 144110 | 2,9 | 212311 | 99784 | 2570 | 47,0 | 1,2 |
| 2013 | 6778086 | 155197 | 2,3 | 303467 | 115088 | 588 | 37,9 | 0,2 |
| 2014 | 7754228 | 59089 | 0,8 | 343226 | 125440 | 478 | 36,5 | 0,1 |
| 2015 | 8823139 | 122084 | 1,4 | 380504 | 120998 | 1318 | 31,8 | 0,3 |
| 2016 | 10309008 | 131079 | 1,3 | 466889 | 146911 | 1224 | 31,5 | 0,3 |
| 2017 | 24306560 | 148534 | 0,6 | 745972 | 201658 | 4912 | 27,0 | 0,7 |
| 2018 | 31026078 | 25000 | 0,1 | 1359390 | 255141 | 1125 | 18,8 | 0,1 |
| 2019 | 35846118 | 144710 | 0,4 | 2290730 | 334039 | 1465 | 14,6 | 0,1 |
| 2020 | 48323845 | 501942 | 1,0 | 3298632 | 401789 | 2988 | 12,2 | 0,1 |

2020 йил маълумотларига асосан, банк активлари 48 323 млрд. сўмни ташкил қилган бўлиб, унинг таркибида факторинг айланмаси 1 фоизни ташкил қилган. 2003-2020 йиллар давомидаги таҳлиллар кўрсатди (1-жадвал), факторинг амалиётининг банк активлари таркибидаги улуши ўзгарувчан бўлиб, пасайиш тенденциясига эга бўлган. Масалан, 2003 йилда факторингнинг ҳажми 20,5 млрд. сўмни ёки банк активлари таркибида 6,6 фоизни ташкил қилган бўлса, ушбу кўрсаткичлар 2020 йилда, мос равишда, 501,9 млрд.сўм ва 1,0 фоиз бўлган. Бундан кўриниб турибдики, банкда факторинг амалиётининг абсолют ҳажми 24,4 марта кўпайган, аммо унинг банк

активларидағи улуши кескин камайған.

«Ўзсаноатқурилишбанк» активлари таркибида факторингни улуши 2006 йилда 1,5 фоизга тушиб қолған бўлса, кейинги йилдан ушбу қўрсаткич кўтарила бошлаган. Энг қизиғи, 2008 йилги жаҳон молиявий инқироздан сўнг факторинг айланмаси ҳажми кескин ошган, ва 2009 йилда унинг ҳажми банк активларидағи улушида деярли икки баробарга ўсган.

Ушбу келтирилган далилдан, хулоса қилиш мумкинки, факторинг амалиёти турли хил инқироз ва нобарқарорликлар даврида ҳам ҳажм жиҳатидан камаймайди, ва аксинча барқарор ривожланиш тенденциясиға эга молиявий хизмат ҳисобланади [3].

Таҳлил шуни қўрсатдик, факторингнинг банк активларидағи улуши 2014 йилдан бошлаб кескин камайған, бу қўрсаткич 2018 йилда энг қуий нуқтага етиб, 0,1 фоизни ташкил қиласган. Ушбу йилда банкда факторингнинг абсолют ҳажми ҳам паст бўлиб, 25 млрд. сўмдан иборат бўлган. Шунингдек, 2018 йилда банкнинг фақат иккита мижози, яъни «Ўзбеккўмир» акциядорлик жамияти ва «Навоийазот» акциядорлик жамияти билан факторинг амалиётини амалга оширган. Ушбу корхоналар банкнинг узоқ йиллик ва йирик мижозлари ҳисобланади. Ваҳоланки, банкнинг кичик ва ўрта бизнес сегментида кўплаб мижозлари бўлиб, улар билан факторинг амалиёти ўтказилмаган.

2020 йилга келиб, банкда факторинг амалиётининг ҳажми кескин ошган, бу 2019 йилга нисбатан 3,4 марта кўтарилган. Лекин ушбу ўсиш ҳам банкнинг маълум доирадаги кам сонли мижозлари ҳисобига юз берган.

Банкнинг факторинг амалиёти ҳисобидан оладиган доромадларининг умумий даромадлар таркибидаги улуши пастлигича қолмоқда. Агар ушбу қўрсаткич 2003-2012 йиллар мобайнида ўртача 1 фоиз атрофида бўлган бўлса, шу давр мобайнида факторинг ҳажми 7 марта ошган. Аммо 2013-2020 йилларда банкни факторингдан оладиган даромадларининг умумий даромадлари таркибидаги улуши пасайиб, ўртача 0,2 фоизни ташкил қиласган. Ваҳоланки, ушбу даврда ҳам банк факторинг амалиётлари ҳажми 3,2 марта ошган, аммо банк, умумий активлари 9,6 марта кўпайган. Бундай тенденциянинг сабаби, банк асосан, йирик ва шу билан бирга, кўп йиллар давомида ҳамкорлик қиласланади, бу факторинг амалиётини бажарган. Банк чекланган саноқли мижозлар билан риски жуда паст бўлган факторинг турларини амалга оширган. Бироқ банкнинг бошқа мижозлари ушбу амалиётдан фойдаланмаган.

Таҳлил натижасида хулоса қилиш мумкинки, банкда факторинг амалиёти ҳажми ва унинг банк активларидағи улуши тебранувчан бўлган. Банк факторинг операцияларини ўзининг узоқ йиллар давомида ҳамкор бўлган ва кам сонли йирик мижозлари билан амалга оширган. Бу факторинг хизматларидағи кўпчилик мижозлар фойдаланмаётганини ва банкда ушбу молиявий хизмат тури ривожланмаганини англашади. Ваҳоланки, хорижий давлатларда факторинг амалиётидан кичик ва ўрта бизнес субъектлари кенг фойдаланишади, бу уларнинг ривожланиши учун молиявий имкониятлар яратади.

Мамлакатимизда ҳозирги вақтда кўпгина хўжалик субъектлари факторинг амалиётини ўзларининг дебитор қарзларини камайтириш учун қулай молиявий хизмат эканлигини билишмайди. Шу боисдан, улар банк кредитидан фойдаланишни афзал қўришади. Шунинг учун ҳам республикамизда тижорат банклари факторинг амалиётини ривожлантиришлари учун молиявий хизматлар бозорида уларга қулай шарт-шароитлар яратилиши лозим. Акс ҳолда хўжалик субъектлари банк кредитларига мурожаат қилишади, бу эса, ўз навбатида, факторинг амалиётининг ривожланишига салбий таъсир қиласади.

«Ўзсаноатқурилишбанк» АТБ томонидан амалга оширилган факторинг операциялари таҳлили натижасида қуйидаги хулосалар шакллантирилди:

бириңчидан, банкда факторинг амалиёти ҳажми ва унинг банк активларидағи

улуши таҳлил қилинган даврда тебранувчан бўлган;

иккинчидан, факторинг банк даромади ва комиссион даромадлар таркибида паст улушни ташкил қилган ва барқарор эмас;

учинчидан, мамлекатимизнинг ҳамма худудларида факторинг амалиётини бир хил амалга оширилмаган. Фақатгина нефть-газ соҳасида фаолият кўрсатадиган мижозлари бўлган вилоятларда факторинг амалиёти ўтказилган;

тўртинчидан, банқда факторинг операциялари айнан 2009-2013 йиллар давомида мисли кўрилмаган даражада ривожланган. Бунга сабаб 2008 йилда бошланган жаҳон молиявий инқирози оқибатларини юмшатиш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 18 ноябрдаги «Иқтисодиёт реал сектори корхоналарининг молиявий барқарорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғриси» [4] даги ПФ-4053-сон Фармонига асосан, молиявий ҳолати яхши бўлмаган саноат корхоналари нол қийматда тижорат банклари ҳисобига ўтказиб берилган. Тижорат банклари, эса ўз навбатида, мазкур корхоналар дебитор қарздорлигини камайтириш йўлида факторингдан фойдаланишган;

бешинчидан, хорижий банкларда факторинг амалиёти, асосан, кичик ва ўрта бизнес субъектлари билан ўтказилса, республикамида эса, йирик ҳамда узоқ муддат ҳамкорлик қилган саноат корхоналари билан амалга оширилган. Бунинг асосий сабаби кичик ва ўрта бизнес субъектларининг молиявий ҳолати банклар томонидан қониқарсиз, деб қабул қилинганлигидир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ф.Бобобеков. “Факторинг мөхияти, назарий асослар ва тушунчалар” 12-226. Тошкент: “Молия ва Банк иши” электрон журнали 1-сон, 2020йй.
2. <https://sqb.uz/for-investors/reports-and-presentations-ru/> “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБ нинг 2003-2020 йиллардаги ҳисоботлари асосида муаллиф томонидан тузилган.
3. И.Е. Покаместов, М.В.Леденев “Факторинг” учебное пособие Москва: ИНФРА-М. 87стр. 2013г
4. <https://lex.uz/docs/1409544> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 18 ноябрдаги “Иқтисодиёт реал сектори корхоналарининг молиявий барқарорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғриси”даги ПФ-4053-сон Фармони.

ПУТИ УВЕЛИЧЕНИЯ ПРИБЫЛИ

**Гафурова Азизахон Фатиховна -
Докторант ТГЭУ**

«Прибыль — это конечный финансовый результат хозяйственной деятельности предприятия, осуществляющего предпринимательскую деятельность»[1]. В результате эффективной работы, предприятия за счет прибыли увеличивается его капитал.

«Прибыль [profit, gain] — разница между выручкой от реализации продукции и услуг, полученной экономическим субъектом (например, фирмой, предприятием), и полными издержками на их производство» [2].

«Прибыль – разница в величине чистых активов на конец и на начало периода, за определенный период производственной деятельности, при необходимости скорректированная на суммы, изъятые или добавленные собственниками» [3].

«Прибыль или убыток - общая сумма дохода за вычетом расходов, за исключением компонентов прочего совокупного дохода» [4].

Люди обычно считают, что их валовой доход равен сумме их доходов в виде заработной платы, прибыли от их инвестиций и продажи имущества и других

поступлений. Их чистый доход состоит из их валового дохода, уменьшенного на затраты, понесенные при получении дохода. [5]

Точно так же предприятия обычно рассматривают свои общие поступления от услуг, продуктов и любые проценты, и дивиденды, полученные в отношении их денежных счетов и резервов, связанных с бизнесом, как свой валовой доход. Чистый доход предприятий, то есть прибыль, определяется путем уменьшения их валового дохода на их деловые расходы.

Экономисты изучают доход в различных контекстах, используя разные определения и способы измерения дохода. Независимо от того, включают ли их исследования доходы, сбережения, потребление, производство, государственные финансы, капитальные вложения или другие связанные темы и под темы, их концепция дохода будет соответствовать цели их исследования. В то время как измерение дохода на макроуровне имеет решающее значение для социальных и политических исследований, люди больше сосредоточены на своем личном и деловом доходе.

Термин «доход» обычно относится к сумме денег, имущества и других денежных переводов, полученных в течение определенного периода времени физическими или юридическими лицами в качестве компенсации за услуги, оплаты продукции, доходов от инвестиций, пенсионных выплат, подарков и т. бесчисленное множество других видов передачи стоимости.

Владельцы хозяйствующего субъекта всегда заинтересованы в увеличении прибыли, а увеличить прибыль можно с помощью следующих действий:



Часто владельцы бизнеса прибегают к маркетинговым или менеджерским «трюкам». Как например: мотивация сотрудников, это является одним из самых действенных способов увеличения прибыли. Необходимо показать работникам, что их личный доход зависит от рентабельности предприятия. Это подтолкнет их к тому, чтобы как можно больше усилий вкладывать в свою работу.

Внедрение новых технологий, автоматизация производства приведет к возможности сокращения штата сотрудников, а соответственно, уменьшит расходы на заработную плату.

Самым рискованным способом будет увеличение цен. Для использования этого метода производитель должен быть уверен в том, что покупатели готовы приобретать товар, даже при повышении цен.

Еще один путь – снижение себестоимости. Но, важно понимать, что снижение себестоимости всегда ведет к снижению качества продукции. Из-за этого большая часть покупателей может уйти к конкурентам. Данный способ больше подходит для массового производства.

Также был замечен еще один метод по снижению расходов. В бухгалтерии имеется статья расходов «Прочие операционные расходы» и в данные расходы входят «Убытки от выбытия основных средств и прочих активов», если отделить данные расходы как отдельную статью, будет легче отслеживать и управлять данными расходами.

Существуют следующие пути воздействия на данные расходы :

- можно отслеживать рыночные цены, для определения наиблагоприятнейшего периода для реализации активов;
- можно осуществлять ремонтные действия либо обновлять детали для повышения себестоимости актива;
- можно балансировать эти расходы, компенсируя другими доходами;

Данные действия помогут избежать, либо уменьшить статью расходов по реализации основных средств и прочих активов.

Список использованной литературы:

1. <http://moodle.tfi.uz/course/view>
2. Экономико-математический словарь: Словарь современной экономической науки. — М.: Дело. Л. И. Лопатников. 2003.
3. Бизнес. Толковый словарь. — М.: «ИНФРА-М», Издательство «Весь Мир». ГрэхэмБетс, Барри Брайнди, С. Уильямс и др. Общая редакция: д.э.н. Осадчая И.М.. 1998.
4. Международный стандарт финансовой отчетности (IAS) 1 "Представление финансовой отчетности"
5. Махмудов, С. "Оценка экономического анализа операций коммерческих банков." Экономика и образование 23.2 (2022): 354-361.

ВЛИЯНИЕ DIGITAL GENERATION НА ВНЕДРЕНИЕ БАНКОВСКИХ ИННОВАЦИЙ

**Захарова Ирина Борисовна -
ТГЭУ, к.ф.н., доцент
Ахтамова Маржона Олимжон Кизи -
ТГЭУ, экономика (экономика по отраслям и сферам)**

Экономическая стабильность страны в целом и устойчивость развития банковского сектора в частности настойчиво диктуют внедрение новых, более эффективных и продуктивных цифровых финансовых продуктов, и технологий. Для того, чтобы внедрение банковских инноваций, основанных на применении компьютерных и интернет-технологий проходило более интенсивно, необходимым условием является готовность потребителей принимать и активно пользоваться новинками.

Современный уровень развития и применения ИКТ в повседневной жизни людей позволяет кредитным организациям ориентироваться на новые ожидания так называемых «цифровых аборигенов» (с англ. digital native – «цифровой человек»). Цифровой уроженец - термин, введенный Марком Пренски в 2001 году для описания поколения людей, выросших в эпоху новых технологий, включая компьютеры и Интернет. Выросшие в IT-среде, уроженцы цифровых технологий чувствуют себя

комфортно и свободно владеют технологиями. Этот термин контрастирует с людьми, родившимися до наступления цифровой эры, которые могут испытывать больше трудностей и испытывать неуверенность при изучении и использовании новых технологий. [1]

В демографической статистике к цифровым людям относятся так называемые поколения Y и Z. Для банков именно они становятся важным сегментом потребителей финансовых продуктов и технологий, т. к. подходят к предельному возрасту финансового потребления, формируя в краткосрочной перспективе основной ресурс банковской прибыли. Но отношения с этой группой потребителей ставят перед банковскими организациями новые вызовы, поскольку чем современнее потребитель, тем труднее отвечать его фактическим цифровым ожиданиям. Данные статистики показывают, что потенциальные цифровые клиенты уже преобладают в структуре населения страны. На 01.01.2023 г. наибольшая доля в составе численности населения Узбекистана приходится на поколение Y (1984-2000 гг.). Их в общем составе населения – 11. 680113 чел. А на подходе уже следующая большая демографическая группа поколения Z – 8. 490628 чел. Стоит отметить, что в новой поколенческой волне – 1.052812 чел. в возрасте 15-16 лет, а 1.016127 чел. в возрасте 18-19 лет. [2]

Не имея большого трудового и жизненного опыта, молодежь не всегда способна адекватно оценивать финансовые риски при пользовании современными банковскими финансовыми продуктами и технологиями. Актуальной становится задача обучения подрастающего поколения финансовой грамотности. Что касается поколения X (1963-2000гг.) – это основное экономически активное население Узбекистана, но как потребители современных инновационных финансовых продуктов и технологий они нуждаются в дополнительном повышении финансовой грамотности по возможностям использования новых банковских продуктов и финансовых технологий.

Демографические изменения, в т. ч. повышение мобильности числа молодых потребителей на рынке банковских услуг, диктуют необходимость активного внедрения цифровых банковских инноваций и развития дистанционного банковского обслуживания (ДБО).

Следует отметить, что в вопросе цифровизации банковского сектора ситуация меняется существенно. На сегодняшний день в Узбекистане действует три цифровых банка (TBC Bank, Anor Bank, Apelsin Bank) и представлены 32 финтех-компаний, специализирующиеся на предоставлении удалённых финансовых услуг. [3] Восемь банков запустили механизм цифровой идентификации (Face ID), остальные завершают тестирование.

Количество пользователей дистанционными банковскими услугами стремительно возрастает. Предприниматели проводят 85% своих платежей дистанционно (7-кратный рост с 2017 года). Это подтверждают последние опубликованные данные Центрального Банка Республики Узбекистан. Согласно официальным данным за год произошло увеличение пользователей ДБО больше чем на 10 млн. человек (таблица 1). [4] Нет сомнения, что этот рост продолжиться.

Таблица 1.
Количество пользователей дистанционными банковскими услугами.

| Дата | Всего | Юридические лица и индивидуальные предприниматели | Физические лица |
|------------|-----------|---|-----------------|
| 01.01.2022 | 20 203384 | 968580 | 19 234804 |
| 01.01.2023 | 30 00914 | 1 157045 | 28 843869 |

Источник: составлено автором по данным статистического бюллетеня ЦБ Республики Узбекистан.

Массовое вступление в трудовую деятельность финансово активной молодежи, ценящих функциональность, мобильность, удобство и комфорт, потребует ускоренной модернизации банковского сектора. Расширение присутствия на рынке финтех-компаний и глобальных технологических компаний со своими платежными системами выступит катализатором дальнейшей цифровизации классических банков. Как показывает международный опыт, то банковский сектор Узбекистана вынужденно пойдет по пути формирования финансовых экосистем с участием заинтересованных стейкхолдеров в виде ИТ и финтех компаний, где будут представлены новые направления:

1. Удовлетворение массовых ежедневных запросов потребителей через систему «одного окна» с разработкой для этого инновационных продуктов, услуг и операций;
2. Слияние классического банковского бизнеса с технологическими компаниями, позволяют банкам оперативно получать и внедрять инновационные решения, ноу-хау или выполнять аутсорсинг инноваций; [5]
3. Стратегическое сотрудничество банков и агрегаторов потребительских сведений, начиная с социальных сетей и операторов сотовой связи, заканчивая любыми компаниями – носителями Big Data информации, позволит банкам работать с клиентами в режиме «персонального обслуживания», предлагая индивидуальные клиентские продукты, услуги и операции.
4. Формирование партнёрских экосистем вокруг банков станет источником их дополнительной прибыли, будет способствовать развитию сервисов, связанных с их внешней монетизацией. [6].
5. Использование банками ИТ-платформ расширит возможность предоставления смежных продуктов: страховых и инвестиционных услуг, сервисов путешествий, программ лояльностей, бонусов и скидок и т.д.

Список литературы

1. *What is a digital native?* <https://www.investopedia.com/terms/d/digital-native.asp>
2. Агентство статистики при Президенте Республики Узбекистан. <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/demography>
3. Банковская система Узбекистана: обзор и перспективы <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/01/bank-system/>
4. Статистический бюллетень ЦБ Республики Узбекистан. <https://cbu.uz>
5. Развитие финансовых технологий. <https://cbr.ru/fintech>.
6. Российский рынок банковской информатизации <http://www.tadviser.ru/index.php>.

МАМЛАКАТИМИЗДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИГА СОЛИҚ ИМТИЁЗЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ

Исаев Аслиддин Икром ўғли -

*Тошкент давлат иқтисодиёт университети ҳузуридаги
«Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий
асослари ва муаммолари» илмий-тадқиқот маркази*

Солиқ имтиёзлари бутун дунё бўйлаб ҳукуматлар томонидан иқтисодий ўсиш ва ривожланишни рағбатлантириш учун қўлланиладиган кучли воситадир. Улар турли шаклларда ва муайян тармоқлар, худудлар ёки бизнес турларига мўлжалланган бўлиши мумкин. Солиқ имтиёзлари ўн йиллар давомида қўлланилган бўлсада, кейинги йилларда уларнинг самарадорлиги ва корхоналар, иқтисодиёт ва жамиятларга таъсирини ўрганишга қизиқиш ортиб бормоқда. Иқтисодий ўсиш ва ривожланишни

рағбатлантиришда солиқ имтиёзларининг самарадорлиги ушбу соҳадаги тадқиқотларнинг энг муҳим йўналишларидан биридир. Кўпгина тадқиқотлар шуни кўрсатдики, солиқ имтиёзлари инвестициялар, инновациялар ва тадбиркорликни рағбатлантириш учун самарали восита бўлиши мумкин.

Ж.Ж.Детхier ва бошқалар: “Ривожланаётган мамлакатларда солиқ имтиёзлари корхоналар фаолиятини рағбатлантириш учун самарали восита бўлиши мумкинлигини таъкидлайдилар, аммо имтиёзларни ишлаб чиқиш ва амалга оширишни дикқат билан кўриб чиқиш керак. Муаллифларнинг таъкидлашича, солиқ имтиёзлари иқтисодиётда бузилишларни келтириб чиқариши мумкин ва агар улар бизнеснинг тўғри турларига йўналтирилмаса, самарали бўлмаслиги мумкин” [1].

А.Клеммнинг таъкидлашича, солиқ имтиёзлари иқтисодий ўсишни рағбатлантириш учун самарали восита бўлиши мумкин, аммо улар самарали ва яхши ишлаб чиқилган кенгроқ солиқ тизимининг бир қисми бўлиши керак. Солиқ имтиёзлари иқтисодда бузилишларни келтириб чиқариши ва бизнеснинг тўғри турларига йўналтирилмаган тақдирда самарали бўлмаслиги мумкин. А.Клемм солиқ имтиёзлари инвестициялар, инновациялар ва тадбиркорликни ривожлантириш учун ишлаб чиқилиши кераклигини таклиф қиласди [2].

Ж.Л.Майкселнинг таъкидлашича, солиқ имтиёзлари иқтисодий ривожланишни рағбатлантиришнинг самарали воситаси бўлиши мумкин, аммо уларнинг самарадорлиги солиқ тизимини лойихалаш, бизнес муҳитининг табиати ва сиёсий контекст каби бир қатор омилларга боғлиқ. Ж.Л.Майксел солиқ имтиёзлари узоқ муддатли инвестицияларни рағбатлантириш мақсадида ишлаб чиқилиши лозимлигини ва улар билан бирга таълим ва инфратузилмага сармоя киритиш каби бошқа сиёсатлар билан бирга рағбатлантиришнинг фойдалари вақт ўтиши билан барқарор бўлишини таъминлаши кераклигини таъкидлайди [3].

Р.Нарула ва Ж.Дуннинг таъкидлашича, солиқ имтиёзлари ривожланаётган мамлакатларда инвестициялар ва ривожланишни рағбатлантириш учун самарали восита бўлиши мумкин, аммо уларни дикқат билан йўналтириш ва амалга ошириш керак. Муаллифларнинг таъкидлашича, солиқ имтиёзлари иқтисодиётда бузилишларни келтириб чиқариши мумкин ва агар улар бошқа сиёсатлар, масалан, таълим ва инфратузилмага сармоя киритиш билан бирга бўлмаса, самарали бўлмаслиги мумкин. Муаллифлар солиқ имтиёзлари узоқ муддатли инвестицияларни рағбатлантириш ва имтиёзлардан олинадиган фойда бутун иқтисодиёт бўйлаб кенг тақсимланишини таъминлаш учун ишлаб чиқилишини таклиф қиласди [4].

Юқоридагиларга таянадиган бўлсак, тадбиркорлик субъектларини солиқ имтиёзлари бўйича жаҳон илмий тадқиқотлари кенг қамровли бўлиб, иқтисодий ўсишни рағбатлантиришда рағбатлантиришнинг самарадорлигидан тортиб, уларнинг жамиятга тақсимлаш таъсиригача бўлган кенг кўламли мавзуларни қамраб олади. Шунингдек, солиқ имтиёзлари инвестициялар ва инновацияларни рағбатлантиришнинг самарали воситаси эканлигини аниқлаган бўлсада, уларнинг самарадорлиги бир қатор омилларга, жумладан, солиқ тизимини лойихалаш, ишбилармонлик муҳитининг табиати ва сиёсий омилларга боғлиқ эканлиги ҳақида далиллар мавжуд.

Солиқ имтиёзлари ҳукуматлар учун иқтисодий ўсишни рағбатлантириш ва айрим тармоқлар ёки худудларга инвестицияларни рағбатлантириш учун муҳим воситадир. Ўзбекистонда тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш мақсадида, айниқса, мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотлар шароитида солиқ имтиёзларидан фойдаланилмоқда.

Ўзбекистонда тадбиркорлик субъектлари учун солиқ имтиёзларининг ижтимоий-иктисодий фойдалари кўп. Аввало, солиқ имтиёзлари иш ўринлари яратиш ва иқтисодий фаолликни оширишга ёрдам беради. Тадбиркорлик субъектларига солиқ

имтиёзлари бериш орқали ҳукумат уларни ўз фаолиятига сармоя киритиш, кўпроқ ишчи ёллаш ва бизнесини кенгайтиришга рағбатлантириши мумкин. Бу узоқ муддатда иқтисодий ўсишнинг ошишига, ишсизлик даражасининг пасайишига ва солиқ тушумларининг ошишига олиб келиши мумкин.

Бундан ташқари, солиқ имтиёзлари ҳам Ўзбекистонга хорижий сармояларни жалб қилиши мумкин. Ҳукумат хорижий инвесторларга қулай солиқ режимини таклиф қилиш орқали бизнес учун янада қулай муҳит яратиши ва хорижий бизнесни мамлакатга сармоя киритишга ундаши мумкин. Бу ўсишни рағбатлантириш ва иқтисодиётни модернизация қилишга ёрдам берадиган янги капитал, технология ва тажриба олиб келиши мумкин.

Солиқ имтиёзлари ҳам тадбиркорлик субъектларини ижтимоий масъулиятли фаолият билан шуғулланишга ундаши мумкин. Масалан, ҳукумат экологик тоза технологияларга сармоя киритган ёки хайрия фаолияти билан шуғулланувчи компанияларга солиқ имтиёзлари бериши мумкин. Бу Ўзбекистонда умумий ҳаёт сифатини яхшилашга ва барқарор ривожланишга ёрдам бериши мумкин.

Бундан ташқари, солиқ имтиёзлари тенгсизликни камайтириш ва кичик ва ўрта корхоналарни қўллаб-қувватлашга ёрдам беради. Мисол учун, ҳукумат йирик корхоналар билан рақобатлаша олмаётган кичик ва ўрта корхоналарга солиқ имтиёзларини тақдим этиши мумкин. Бу ўйин майдонини тенглаштиришга ёрдам беради ва янада хилма-хил ва жонли иқтисодиётнинг ўсишини рағбатлантиради.

Ниҳоят, солиқ имтиёзлари инновациялар ва тадбиркорликни ривожлантиришга ёрдам беради. Тадқиқот ва ишланмаларга сармоя киритган компанияларга солиқ имтиёзлари бериш орқали ҳукумат корхоналарни янги бозорларни яратиши ва иқтисодий ўсишни рағбатлантириши мумкин бўлган янги маҳсулот ва технологияларни ишлаб чиқишига ундаши мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, солиқ имтиёзлари Ўзбекистонда иқтисодий ўсиш ва тараққиётни рағбатлантиришда муҳим роль ўйнаши мумкин. Тадбиркорлик субъектларини сармоя киритиш, иш ўринлари яратиш ва ижтимоий масъулиятли фаолият билан шуғулланишга ундаш орқали солиқ имтиёзлари мамлакатда умумий ҳаёт сифатини яхшилашга ёрдам беради. Қолаверса, хорижий инновацияларни жалб қилиш, инновациялар ва тадбиркорликни рағбатлантириш орқали солиқ имтиёзлари Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодиётида рақобатбардошлиги ва фаровонлигини таъминлашга ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Dethier, J.-J., Hirn, M., & Straub, S. (2013). *Explaining enterprise performance in developing countries with business climate survey data*. World Bank Research Observer, 28(1), 1-31.
2. Klemm, A. (2014). *Taxation and economic growth*. Economic Systems, 38(1), 161-171.
3. Mikesell, J. L. (2014). *Taxation and development: What have we learned from 50 years of research?* Public Administration Review, 74(2), 176-182.
4. Narula, R., & Dunning, J. H. (2010). *Multinational enterprises, development and globalisation: Some clarifications and a research agenda*. Oxford Development Studies, 38(3), 263-287.
5. Исаев, Ф. (2023). Солиқ текширувлари: аудит самарадорлиги таҳлили. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 11(1), 394-401. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a42
6. Исаев, Ф. (2022). Йирик корхоналар мисолида солиқ йиғилувчанлиги қўрсаткичини таҳлил қилиш методикасини тақомиллаштириш. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 317-326. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/955>
7. Исаев, Ф. Аудит самарадорлигининг назарий-амалий талқини //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 359-361.
8. Жумаев, Н., Ризаев, Н., & Исаев, Ф. (2023). Ўзбекистонда бухгалтерия ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқлаштиришда туркӣ давлатлар тажрибаси. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(2), 58-67. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1014>

СОЛИҚЛАРНИНГ ФАРОВОНЛИККА ТАЪСИРИ НАЗАРИЯСИ

**Ф.И. Исаев -ТДИУ ҳузуридаги
«Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг
илмий асослари ва муаммолари» илмий-тадқиқот
маркази директор ўринбосари и.ф.д., доцент**

Солиқ сиёсати ва иқтисодий ўсиш ўртасидаги боғлиқлик мураккаб бўлиб, унга даромадлар, ресурслар тақсимоти, бизнес мухити, инновациялар, тадбиркорлик, истеъмол харажатлари ва глобал рақобатбардошлиқ каби турли омиллар таъсир кўрсатади. Чунки солиқ сиёсати фискал сиёсатнинг асосий таркибий қисми сифатида иқтисодий ўсишга сезиларли таъсир кўрсатади. Солиқлар ҳукуматлар томонидан даромад олиш, жамоат товарлари ва хизматларини молиялаштириш ва иқтисодий хатти-ҳаракатларни тартибга солиш учун олинади. Солиқларни ишлаб чиқиш, амалга ошириш ва қўллаш усуллари жисмоний шахслар, корхоналар ва умумий иқтисодиётнинг хатти-ҳаракатларини шакллантириши, иқтисодий ўсиш натижаларига таъсир қилиши мумкин.

Солиқ сиёсати ва иқтисодий ўсиш ўртасидаги муносабатни тушуниш сиёсатчилар, бизнес ва жисмоний шахслар учун жуда мухимдир. Солиқ сиёсати ва иқтисодий ўсиш ўртасидаги боғлиқликни чуқурроқ тушуниш орқали биз солиқ сиёсати қарорларининг мураккаблиги ва умумий иқтисодий фаровонликка таъсирини яхшироқ тушунишимиз мумкин.

Иқтисодий ўсишни рағбатлантиришда солиқларнинг роли иқтисодчилар ва сиёсатчилар ўртасида ўнлаб йиллар давомида муҳокама қилинган мавзудир. Солиқларнинг иқтисодий ўсишга қандай таъсир қилиши ҳақида турлича қарашлар мавжуд, жумладан, таклиф иқтисодиёти, талаб иқтисодиёти ва Лаффер эгри чизиги назарияси.

Таклиф иқтисодиёти тарафдорларининг таъкидлашича, пастроқ солиқ ставкалари корхоналар ва жисмоний шахсларни меҳнат қилиш, жамғариш ва кўпроқ сармоя киритишга рағбатлантириши мумкин, бу эса ишлаб чиқаришнинг кўпайишига, иш ўринлари яратилишига ва иқтисодий кенгайишига олиб келади. Уларнинг таъкидлашича, пастроқ солиқлар корхоналар учун капитал, тадқиқот ва ишланмалар ва инновацияларга сармоя киритиш учун ресурсларни бўшатиши мумкин, бу эса пировардида юқори самарадорлик ва иқтисодий ўсишга олиб келиши мумкин.

Бошқа томондан, талаб иқтисодиёти иқтисодий ўсишни бошқаришда давлат харажатлари ва истеъмол талабининг ролига эътибор қаратади. Талабга асосланган иқтисод тарафдорлари давлат харажатлари ва истеъмол харажатларининг ошиши ялпи талабни рағбатлантириши, ишлаб чиқариш, бандлик ва иқтисодий ўсишнинг ошишига олиб келиши мумкинлигини таъкидлайдилар. Уларнинг таъкидлашича, солиқ сиёсати даромадларни қайта тақсимлаш, ижтимоий хавфсизлик тармоқларини таъминлаш ва истеъмол харажатларини рағбатлантириш учун ишлатилиши мумкин, бу эса иқтисодиётдаги умумий талабни ошириши ва иқтисодий ўсишни рағбатлантириши мумкин.

Иқтисодчи Артур Лаффер томонидан таклиф қилинган Лаффер эгри назарияси ҳукумат даромадларини максимал даражада йиғиш имконини берувчи оптимал солиқ ставкаси мавжудлигини кўрсатади. Лаффер эгри чизигига кўра, агар солиқ ставкалари жуда юқори бўлса, у иқтисодий фаолиятни сусайтириши, меҳнат, жамғарма ва инвестициялар учун рағбатларни камайтириши ва солиқ тушумларининг камайишига олиб келиши мумкин. Аксинча, агар солиқ ставкалари жуда паст бўлса, бу солиқ йиғимларининг етарли эмаслиги сабабли давлат даромадларининг камайишига олиб

келиши мумкин. Лаффер эгри чизиғи солиқ ставкалари жуда юқори ҳам, жуда паст ҳам бўлмаган оптимал нуқта мавжудлигини ва солиқ ставкаларини бу нуқтадан ташқариға камайтириш иқтисодий ўсишнинг ошишига ва солиқ тушумларининг ошишига олиб келиши мумкинлигини кўрсатади.

Шуни таъкидлаш керакки, солиқларнинг иқтисодий ўсишни рағбатлантиришдаги ролига оид бу нуқтаи назарлар бир-бирини истисно этмайди ва турли сиёсий мунозараларда бирга яشاши мумкин. Иқтисодчилар ва сиёсатчилар қўпинча солиқлар ва иқтисодий ўсиш ўртасидаги боғлиқлик ҳақида турли фикрлар ва талқинларга эга бўладилар ва иқтисодий ўсишни рағбатлантиришда солиқ сиёсатининг самарадорлиги ўзига хос иқтисодий контекст, солиқ сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш каби турли омилларга боғлиқ бўлиши мумкин. Эҳтиёткорлик билан таҳлил қилиш ва бир нечта истиқболларни кўриб чиқиш солиқ сиёсати ва уларнинг иқтисодий ўсишга потенциал таъсири бўйича сиёсий қарорлар қабул қилишда ёрдам беради.

Солиқ имтиёзлари инвестицияларни рағбатлантириш, муайян саноат ёки тармоқларни қўллаб-қувватлаш ёки муайян минтақалар ёки жамоаларда иқтисодий ўсишни рағбатлантириш каби чора-тадбирларни қўзлаб ишлатилиши мумкин. Баъзилар солиқ имтиёзлари иқтисодий фаолликни рағбатлантирадиган ва иш ўринлари яратадиган мақсадли рағбатларни бериши мумкинлигини таъкидласа, бошқалари самарасизлик, бузилишлар ва кутилмаган оқибатларга олиб келиши мумкинлигини таъкидлайди.

Солиқ имтиёзлари инвестиция, тадбиркорлик ва иш ўринлари яратишга сезилларли таъсир кўрсатиши мумкин. Хусусан, солиқ имтиёзлари корхоналарни янги асбоб-ускуналар, машиналар ёки технологияларга сармоя киритишга ундаши мумкин. Ушбу имтиёзлар инвестицияларнинг солиқдан кейинги харажатларини камайтириши ва корхоналарни ўз фаолиятини кенгайтириш ёки ишлаб чиқариш имкониятларини оширишга ундаши мумкин. Инвестициялар ҳажмининг ошиши товарлар ва хизматларга талабни рағбатлантириш, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва янги иш ўринларини яратиш орқали иқтисодий ўсишга олиб келиши мумкин.

Кичик бизнес учун пасайтирилган солиқ ставкалари ёки солиқдан озод этиш каби солиқ имтиёзлари янги корхоналар учун солиқ юкини камайтириш орқали тадбиркорликни рағбатлантириши мумкин. Пастроқ солиқ ставкалари тадбиркорларга ўз бизнесига сармоя киритиш, ходимларни ёллаш ёки инновацион ғояларни амалга ошириш учун кўпроқ ресурсларни қолдириши мумкин. Солиқ имтиёзлари, шунингдек, ушбу соҳаларда тадбиркорликни ривожлантириш учун технологик стартаплар ёки яшил бизнес каби муайян саноат ёки секторларга мақсадли ёрдам кўрсатиши мумкин.

Иш ўринларини яратиш борасида айтганда, солиқ имтиёзлари ходимларни, хусусан, кам таъминланган ёки кам вакиллик гурӯҳларидан бўлганларни ёллаш учун солиқ имтиёзлари ёки чегирмалар бериш орқали иш ўринларини яратишни бевосита рағбатлантириши мумкин. Мисол учун, фахрийларни, кам таъминланган шахсларни ёки иқтисодий қийин худудларда ишчиларни ёллаш учун солиқ имтиёзлари корхоналарни ушбу жамоаларда янги иш ўринлари яратишга ундаши мумкин. Иш ўринларини яратиш маҳаллий иқтисодиётни рағбатлантириши, ишсизликни камайтириши ва умумий иқтисодий ўсишга ҳисса қўшиши мумкин.

Аммо шуни таъкидлаш керакки, солиқ имтиёзларининг инвестициялар, тадбиркорлик ва иш ўринлари яратишга таъсири мураккаб бўлиши мумкин ва муайян ташкилий ишларни амалга ошириш ва иқтисодий контекстга қараб фарқ қилиши мумкин. Баъзиларнинг таъкидлашича, солиқ имтиёзлари ресурсларни самарасиз тақсимлаш, айрим тармоқлар ёки компанияларга мойиллик ёки ҳукуматлар учун потенциал даромадларни йўқотиш каби кутилмаган оқибатларга олиб келиши мумкин. Инвестициялар, тадбиркорлик ва иш ўринлари яратишни рағбатлантиришда солиқ имтиёзларининг самарадорлигини баҳолаш уларни лойиҳалаш, амалга ошириш

ва натижаларини пухта таҳлил қилишни талаб қиласди. Иқтисодий ўсишни рағбатлантиришда солиқ имтиёзларининг самарадорлиги ва уларнинг мумкин бўлган камчиликларини батафсил кўриб чиқамиз:

Иқтисодий ўсишни рағбатлантиришда солиқ имтиёзларининг самарадорлиги:

Инвестициялар учун ижобий рағбатлантириш;

Тадбиркорлик ва инновацияларни рағбатлантириш;

Чет эл инвестицияларини жалб қилиш.

Солиқ имтиёзларининг камчиликлари:

Даромадларни йўқотиш: Солиқ имтиёзлари хукуматлар учун солиқ тушумларининг камайишига олиб келиши мумкин, бу уларнинг давлат хизматлари ва инфратузилмасини молиялаштириш қобилиятига таъсир қилиши ва бюджет тақчиллигига олиб келади. Бу фискал барқарорликни сақлаш ва бошқа долзарб ижтимоий ва иқтисодий эҳтиёжларни ҳал қилишда қийинчиликлар туғдириши мумкин.

Ресурсларни самарасиз тақсимлаш хавфи: Солиқ имтиёзлари ҳар доим ҳам ресурсларни самарали тақсимлашга олиб келавермайди. Улар маълум тармоқлар ёки корхоналарни бошқалардан устун қўйиши мумкин, бу эса бозорни бузиш ва ресурсларни нотўғри тақсимлаш имконини беради. Бу иқтисодий самарадорликнинг пасайиши ва узоқ муддатли иқтисодий ўсишга тўсқинлик қилиши мумкин.

Кўзда тутилмаган оқибатларга олиб келиши мумкин бўлган потенциал: Солиқ имтиёзлари қўзда тутилмаган хатти-ҳаракатлар ёки рағбатларни яратиш, бозор динамикасини бузиш ёки кутилмаган натижаларга олиб келиши каби кутилмаган оқибатларга олиб келиши мумкин. Масалан, солиқ имтиёзлари корхоналарни солиқ режалаштиришда фойдани пастроқ солиқ солинадиган қилишга ундаши мумкин, бу эса даромадларнинг потенциал йўқолишига ёки солиқ базасининг эрозиясига олиб келиши мумкин.

Солиқ имтиёзларининг иқтисодий ўсишга таъсири мақсадли ҳудудларда инвестиция ва иқтисодий фаолликни рағбатлантириши мумкин бўлсада, улар давлат даромадларининг камайиши ва ресурсларни тақсимлашда мумкин бўлган бузилишлар каби кутилмаган оқибатларга олиб келиши мумкин. Сиёsat ишлаб чиқарувчилар иқтисодий ўсишни рағбатлантиришда солиқ имтиёзларининг самарадорлигини синчковлик билан баҳолашлари ва уларнинг мақсадли, шаффофлигини ва таъсирининг ишончли далиллари билан қўллаб-куватланишини таъминлашлари керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Isaev, F. (2022). Ресурс солиқлари таҳлилини ташкил этиш методикаси. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 23(5), 171–176. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/742>
2. Isaev F. I. Tax Accounting: Theory and Practice //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2022. – Т. 9. – №. 12. – С. 30-38.
3. Ikromovich, Isayev Fakhreddin. "Concept of economic analisys and its structural components." International Journal of Marketing and Technology 7.12 (2017): 1-13.
4. Ikromovich, Isayev Fakhreddin. "Analysis of the profit tax and its improvement." International Journal of Research in Social Sciences 7.12 (2017): 74-85.
5. Jumaev Nadir Hosiyatovich, Rizaev Nurbek Kadirovich, & Isaev Fakhreddin Ikromovich. (2023). Organization of turkic states: interoperation and accounting system. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 13, 116–129. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/245>

6. Исаев, Ф. (2023). Солиқ текширувлари: аудит самарадорлиги таҳлили. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 11(1), 394–401. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a42

7. Исаев, Ф. (2022). Йирик корхоналар мисолида солиқ ийғилувчанлиги кўрсаткичини таҳлил қилиш методикасини тақомиллаштириш. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 317–326. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/955>

8. Исаев Ф. Аудит самарадорлигининг назарий-амалий талқини //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 359-361.

9. Жұмаев, Н., Ризаев, Н., & Исаев, Ф. (2023). Ўзбекистонда бухгалтерия ҳисобини халқаро стандартларга мувофиқлаштиришда туркй давлатлар тажрибаси. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(2), 58–67. Retrieved from <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1014>

МАМЛАКАТИМИЗДА ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИКНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАР

*Камилова Ирода Хуснитдиновна -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Банк иши ва инвестициялар кафедраси доценти, PhD*

Бугунги жаҳон иқтисодиёти глобал рақобатга асосланган ҳеч бир миллий иқтисодиёт ўзини ўзи таъминлаш орқали ривожлана олмайди. Шунингдек, жаҳондаги тенденция кўрсатмоқдаки, хорижий фонд биржаларида молиявий инструментларнинг юзлаб турлари амал қилмоқда. “Глобал тўғридан-тўғри инвестицияларнинг оқими 2021 йилда 1,58 трлн. АҚШ долларини ташкил этди. 2020 йилдагига нисбатан 64 фоизга ошди [1]. Мана шундай шароитда ҳукуматлар бизнес учун ҳар томонлама қулай шароитлар яратиш, хусусан, мулк дахлсизлигини таъминлаш, солиқ юкини кескин камайтириш, ташқи иқтисодий фаолиятни эркинлаштириш, фойдани эркин тасарруф этиш борасида инвесторларга енгилликлар тақдим этиш орқали тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажмини оширишга алоҳида эътибор қаратмоқда. Чунки фақатгина миллий инвестициялар билан мунтазам ўсиб бораётган эҳтиёжларни таъминлаш имконсиз. Бошқа томондан, миллий инвесторлар учун яратилган етарлича шарт-шароитлар хорижий сармоядорларнинг ҳам қизиқиши ортишига хизмат қиласиди.


Жаҳон амалиётида мамлакатларнинг инвестицияларга бўлган талабларини рағбатлантириш, инвестициялар ресурс базасини кенгайтириш, хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг молиявий механизmlарини тақомиллаштириш, қулай инвестицион муҳитнинг яратилиши натижасида инвестициялар ҳажмини кўпайтириш, худудларда инвестиция фаолигини ошириш масалаларига бағишлиланган илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. [2] Бу борада миллий иқтисодиёт ва алоҳида олинган минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, ишлаб чиқаришни тўлақонли ташкил қилиш негизида мавжуд ресурслардан унумли фойдаланиш, иқтисодиётда инвестицион фаолликни белгиловчи қўшимча омил ва имкониятларни аниқлаш, инновацион фаолликни рағбатлантириш ва тадбиркорлик фаолиятида инвестицион таваккалчиликни бошқариш механизмларини тақомиллаштириш буғунги кундаги долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

Маълумки, сўнгги йилларда мамлакатимизда ишчанлик ва инвестиция муҳитини янада тубдан яхшилаш, бизнесни юритишнинг жаҳон амалиётида қабул қилинган баҳолаш мезонларини жорий этиш ва шу асосда мамлакатнинг халқаро рейтингини

янада кўтариш борасида изчил комплекс чора-тадбирлар кўрилмоқда.

Хусусан мухтарам президентимизнинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегиясида миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш борасидаги яхшилаш ва унинг жозибадорлигини ошириш, келгуси беш йилда 120 миллиард АҚШ доллари, жумладан 70 миллиард доллар хорижий инвестицияларни жалб этиш чораларини кўриш, 2026 йилгача хорижий ва маҳаллий инвестицияларни жалб этиш стратегиясини ишлаб чиқиш каби муҳим мақсад ва вазифалар белгиланган.[3]

Маълумки, мамлакатимизда инвестицион фаолликнинг сустлиги, авваламбор, ишлаб чиқаришга илмий-техника ютуқларини жалб этиш, ресурслар билан таъминлаш, экспортга йўналтирилган маҳсулотларни етиштиришни кўпайтириш ва экспорт салоҳиятини оширишга, пировардида эса, такрор ишлаб чиқариш жараёнининг узлуксизлигини барқарор ривожланишини таъминлашга салбий таъсир кўрсатмоқда. Мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожлантириш тармоқларнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқсан ҳолда, юқори унумли, замонавий асосий воситаларни сотиб олиш, қайта таъмирлаш, қуриш учун узоқ муддатли ва айланма маблағларига сарф қилинадиган қисқа муддатли инвестицияларни жалб этиш суръатлари ва уларнинг миқдорига боғлиқдир. Шунингдек, инвестицион фаолликни оширишда узоқ ва қисқа муддатга жалб этиладиган инвестициялар нисбати ва миқдори ҳам муҳим роль ўйнайди. Тармоқларда инвестицион фаолликни ошириш учун эркин иқтисодий муносабатлар принциплари асосида мамлакат инвестицион фаолликнинг механизмларини ишлаб чиқиш зарур. Қуйида келтирилган 1-расмда мамлакат инвестицион фаолликнинг механизмлари акс эттирилган.



1-расм. Мамлакатимизда инвестицион фаолликни ошириш механизмлари
Манба: муаллиф томонидан тузилди

Мамлакатимиз иқтисодиётини ривожлантириш ташкилий-иктисодий модели асосини инвестицион фаоллик, иқтисодий, ижтимоий, инновацион омиллар, рақамли платформалар, шунингдек, республикамизнинг ижтимоий-иктисодий ривожланиш стратегияси, тармоқ ва тармоқлараро кластерлар, кичик ва ўрта бизнес корхоналари,

молия-кредит муассасалари, миңтақавий, тармоқ ва маҳаллий инвестиция дастурлари ташкил қиласади. [4]

Бугунги кунда жадал фаолият юритаётган корхоналар қиёсий устунликларидан фойдаланиш инвестиция сиёсатини олиб боришнинг асоси сифатида қайд этилганлиги билан характерланади. Аммо, замонавий иқтисодий ва геосиёсий шароитларда корхоналарнинг фаолият самарадорлиги унинг рақобатбардошлигига таъсир кўрсатувчи қатор омиллар билан боғлиқ бўлиб, мазкур жараён сармоявий фаолиятига бевосита таъсир кўрсатади. Шу сабабли, бу борада глобаллашув жараёнларининг таъсирини тадқиқ этиш жараёнига устуворлик бериш муҳим аҳамият касб этади. [5]

Корхоналарнинг ҳудудий ишлаб чиқариш билан боғлиқ жараён иқтисодий ривожанишга бевосита таъсир этувчи элемент сифатида унинг фаолиятини ривожлантириш учун ҳам инвестицияларнинг ўрни муҳим ҳисобланади. Албатта, инвестициялар бугунги молиявий ресурсларнинг “кучли сезгирлиги” шароитида инвестицион жозибадорлиги юқори бўлган ҳудудларга “интилиши” ҳеч кимга сир эмас. Шу сабабдан корхоналарнинг иқтисодий ривожланиш ҳолатининг асоси бўлган - инвестицион фаолликни таърифлаб берувчи корхоналарнинг инвестицион жозибадорлигини ошириш асосий йўналишлардан биридир.

Адабиётлар рўйхати:

1. https://unctad.org/system/files/official-document/wir2022_en.pdf
2. 2022 йил 29 январдаги ПФ-60-сонли «2022-2026 йилларга мулжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёти стратегияси тўғрисида»ги фармони
3. Мирҳайдарова М. Тижорат банкларининг инвестициявий фаолияти самарадорлигини ошириш ўйлари: хорижий мамлакатлар мисолида// YalT jurnalı, 2023 yil, aprel. №4-son, <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
4. Абдулазизова Ў. Развитие межотраслевой конкуренции на рынке финансовых услуг как механизм социально-экономического развития страны //XI Форум экономистов Узбекистана. – 2019.
5. Makhmudov, S. "IMPROVEMENT OF UNCONVENTIONAL METHODS OF FINANCING INVESTMENT ACTIVITIES." International Finance and Accounting 2020.5 (2020): 22.

XALQARO TIJORAT KREDITI VA UNI SUG'URTALASH MASALALARI

Kuldoshev Lazizjon Sharifovich -
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on
filiali kafedra katta o'qituvchisi
Qadamboyeva Momojon Quvondiq qizi -
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali 1-kurs talabasi

Xalqaro tijorat krediti xalqaro savdoni moliyalashtirish uchun foydalilanidigan moliyaviy vositadir. Ushbu turdagи kredit mamlakatlar o'rtasidagi tijorat operatsiyalarida qo'laniadi va eksportchilar va importerlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlataladi. Xalqaro tijorat kreditlari odatda xalqaro tashkilotlar va banklar tomonidan xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash uchun taqdim etiladi. Ushbu kreditlar uzoq muddatli bo'lishi va past foiz stavkalariga ega bo'lishi mumkin. Xalqaro tijorat kreditlarining asosiy foydasi shundaki, ular orqali mamlakatlarning iqtisodiyati rivojlanadi va ularga yangi imkoniyatlar ochiladi. [1]

Xalqaro tijorat krediti, bir necha mamlakatlarda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar yoki shaxslar o'rtasida moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish uchun kredit hisoblanadi. Bu

turlar va miqdorlar ko'pincha banklar tomonidan belgilanadi va odatda xususiy shartlarga ega bo'ladi.Boshqacha qilib aytganda, xalqaro tijorat kreditlari - bu xususiy yuridik shaxslarni (banklar, investorlar va boshqa moliyaviy institutlar) qo'llab-quvvatlash orqali milliy valyutadagi likvidli bo'lмаган mablag'ni (kredit) xalqaro miqdorda to'plashga imkon beruvchi hisob-kitoblardir.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiyalashda xorijiy banklarning jalb qilinayotgan kredit liniyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, respublikamiz tijorat banklari ushbu maqsad yo'lida o'z kredit resurslarini shakllantirishda xorijiy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. [2] Umuman olganda, bugungi kunda respublikamizda tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning bir qator shakllari mavjud. Unga ko'ra banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan, investitsiya loyihamalarini moliyalashtirish keng shakllarda amalga oshirilmoqda. Unda tijorat banklarining kreditlash shakllari ichida xorijiy banklarning kredit liniyasini ochish yo'li bilan alohida ssuda schetidan kreditlash keng tarqalgandir. Biz uchun muhim bo'lgan va yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik faoliyatini tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada kreditlash shakli amaliyotda xalqaro moliyaviy institutlar, xorijiy banklar va boshqa xorijiy hamkorlar tomonidan mahalliy banklarimizda ochilgan kredit liniyalari ochish hisobiga amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, mazkur shaklda tadbirkorlik faoliyatini, xususan, investitsiya loyihamalarini kreditlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Unga ko'ra kredit liniyasi ochishda kreditdan maqsadli foydalanish va uni qaytarish ustidan nazoratni amalga oshirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. [3]

O'z navbatida xalqaro kreditlarni quyidagi turlarga bulishimiz mumkin.

1. Standart tijorat kreditlari: Bu tur kreditlar, ishlab chiqarishdan ro'yxatdan o'tkazishga qadar bo'lgan har qanday tijorat faoliyati uchun xizmat qiladi. Standart tijorat krediti odatda uzun muddatli bo'ladi.

2. Istisnoiy tijorat kreditlari: Istisnoiy tijorat kreditlari, boshqa turdag'i tijorat kreditlaridan farqli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bu turdag'i kreditlar, xususiy daromad olish yoki mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'ladi.

3. Ishonchli to'lovli kreditlar: Ishonchli to'lovli kreditlar, mablag'ni to'lashga yoki shaxsiy javobgarlikni ta'minlashga yordam beruvchi garantlar bilan birlashgan ko'rinishda beriladi.

4. Kafolatlangan to'lovli kreditlar: Kafolatlangan to'lovli kreditlar, birorta shaxs yoki korxona tomonidan taklif etilgan zaminlik orqali beriladi.Bunday turdag'i kreditlar faqat korxona yoki shaxs tomonidan emas balki davlatlar tomonidan ham kafolatlanadi.Bundan ko'zlangan asosiy maqsad davlatdag'i ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishdir.

5. Kreditlar bo'sh ish joylari uchun: Bu tur kreditlar, korxonalarga ishchi qabul qilishda yordam beradi. Bu kreditlar muddati uzun va kafolatlangan to'lovli kreditlar ko'rinishida beriladi.Bunday kreditlarni davlat keng qullab quvvatlaydi va ushbu kreditni oluvchi korxonalarga turli soliq imtiyozlari va davlat grantlari ajratadi.Chunki bunday kreditlar aholini ish bilan bandligini oshirish va ularning daromadlarini oshishiga katta yordam berishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra biz xorijiy kredit liniyalarini jalb qilishida muammolar mavjud Statistik malumotlarga ko'ra so'ngi yillardagi xalqaro tijorat kreditlarining umumiy hajmi 5 trillion dollarga yetganligi takidlandi. Bu miqdorda tijorat kreditlarining risk darajalari juda baland bo'lishi mumkin.

Xalqaro tijorat kreditlari kuzatilgan maqsadlar o'zgartirib turadi, ammo umumiy ravishda ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Korxonalar uchun moliyaviy resurslarni ta'minlash va rivojlanishni yaxshilash;
2. Xalqaro savdo va import-eksport operatsiyalarini amalga oshirish;
3. Tajribasiz korxonalar uchun xalqaro bozorlarda foydalanish imkoniyatlarini yaratish;
4. Xususiy shaxslar uchun buyurtmalar va xizmatlar uchun kreditning taqdim etilishi;

5. Kredit muddati davomida malum bir maqsadni amalga oshirish (masalan, yangi biznes yaratish, texnologik innovatsiyalar, qurilish loyihasi amalga oshirish va hokazo);

6. Moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash (katta miqdorli hisob-kitoblarda, aktivlar kattalashishi, daromadning ortishi va hokazo).

Xuddi shunday, xalqaro tijorat kreditlari bir necha sohalarda ishlatalishi mumkin, ammo har doim asosiy maqsad korxonalar uchun kapitalni jalg qilishga aylanadi. [4]

Va ushbu kreditlarni jalg qilish kreditorlarnig risk darajasini yuzaga keltirishi mumkin va shu sababli xalqaro kreditlarni sug'urtalashga ehtiyoj yuzaga keladi. Xalqaro kreditlarni sug'urtalashning asosiy maqsadi - banklarning va boshqa finans institutlarining jiddiy riskdan himoyalashdir. Sug'urtalash kompaniyasi, agar kredit debitorining qarzdori bo'lmasa yoki valyutaning kursining oshishi sababli zarar ko'rsatgan bo'lsa, sug'urta summasini tolashni ta'minlaydi.

Ko'p xususiyatlari borligiga qaramay, xalqaro tijorat kreditlarini sug'urtalashning ayrim muhim afzallikkleri mavjud.

- Kredit muddati bo'yicha sug'urtalash: bu usulda kredit miqdori va muddati boyicha sug'urtalanadi. Kredit qaytarilganda, sug'urta to'lovlari qaytarish zarur.

- Ishonchli depozit: bu usulda kreditorga kredit miqdorining bir qismini yoki to'liqini depozit hisobida qo'yish talab qilinadi. Depozit bo'yicha faizlar pulni sug'urtalab, kredit miqdoriga mos keladigan mablag'larni to'lash uchun ishlataladi.

Tijorat kreditlarini sug'urtalashning shu va boshqa turlari mavjud bo'lib bunday sug'urtalashlar xalqaro savdo aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi, tijorat kreditlarini olishni oson va qulay qiladi va kreditlarni sug'urtalashni nazorat qilish uchun xususiy shartlar taqdim etadi.

Xalqaro kreditlarni sug'urtalash kompaniyalari xalqaro savdoda ishtirok etuvchilarga yengilroq moliyaviy ko'rsatkichlarga erishish imkoniyatini ta'minlaydi. Shuningdek, bu kompaniyalar har bir kontraktga alohida ravishda oid bo'ladi va kredit debitorining qarzdori bo'lmasa yoki boshqa zarar ko'rsatgan holatlarda tegishli ma'lumotlarni toplab borishi mumkin. [5]

Xulosa qilish mumkinki, xalqaro tijorat kredit liniyalarining bir qator afzallikkleri bor. Bular; xalqaro tijorat kreditlari odatda past foiz stavkalarida taklif qilinadi va sotuvchilarga iqtisodiy jihatdan samarali moliyalashtirish imkoniyatini beradi, natijada, xalqaro tijorat kreditlari xalqaro savdoda muhim moliyalashtirish vositasi bo'lib, sotuvchilarga to'lovlarni ta'minlash, moliyaviy ehtiyojlarini qondirish va xalqaro bozorda raqobatdosh ustunlikka erishishda yordam beradi. Xalqaro kreditlarning zararlari ham mavjud. Masalan, yuqori foiz stavkalari va bu majburiyatlar bankrotlikka olib kelishi mumkin. Xalqaro tijorat kreditlaridan foydalanishning boshqa zararlari shundaki, ularga qarshi chiqishning katta riski bor, shuningdek valyutaning yangiliklari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan risklarni kamaytirish lozim va xalqaro tijorat kreditlarini sug'urtalash moliyaviy korxonalarining yangi imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun zarur va muhimdir. Sug'urtalash kompaniyalarning taklif etgan xizmatlaridan foydalanib, moliyaviy riskdan himoyalanasiz va yangi imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Omonov A.A., Qoraliev T.M. Pul, kredit va banklar. Darslik. Iqtisod-moliya. 2012-yil. -324 b.

2. J.X. Ataniyazov , F.A. Xamidova, M.B. Pusatova. Xalqaro moliya institutlari. O'quv qo'llanma. 2020-yil -156b.

3. Burxanov U., Jumayev N., Vahobov A. V. Xalqaro moliya munosabatlari .Darslik.

4. A. Vahobov. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. 2003-yil.

5. Махмудов, С. (2022). АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЙ. Экономика и образование, 24(1), 344-351. извлечено <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/95>

XALQARO MOLIYAVIY INSTITUTLAR VA O'ZBEKISTONNING XALQARO MOLIYAVIY INSTITUTLAR BILAN ALOQASI

Kuldoshev Lazizjon Sharifovich -

*Samarqand davlat universiteti
Kattaqo'rg'on filiali katta o'qituvchisi.*

Omonov Bobur Botir o'g'li -

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on
filiali 1-kurs talabasi*

Milliy iqtisodiyotdagi tuzilmaviy siljishlar va o'zgarishlar singari, mamlakatimizning xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro barqaror hamkorligini muvozanatlashgan va tizimli takomillashtirishda institutsional islohotlarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Mazkur islohotlar o'zaro hamkorlikning institutsional muhiti sifat ko'rsatkichlarini yanada yuksaltirishga yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, oldin mavjud bo'lgan institutsional mexanizmlarni yangilash, ularning bir-biri bilan o'zaro yaqinligini kuchaytirish, ular orasida vujudga kelgan bo'shlqlarni o'rganish muhim.

Халкаро амалиётда банк кредитлари бўйича айланмадаги товарларни гаровга қўйиш кенг қўлланилади. Бундай ҳолатда компанияга товарларни сотиш бўйича чегара (санкция) жорий этилмаган бўлиши ҳамда корхона мустақил равишда товар, хом ашё, материаллар ва бошқа активларини сотиш ва сотиб олиш хуқуқига эга бўлиши зарур. Банк кредити бўйича компания товарларни гаровга қўйишнинг ўзига хос жиҳатлари мавжуд. Хусусан, компания томонидан сотилган товар ёки актив учун тўлов ҳақи келиб тушмаган бўлса, гаров рўйхатидан чиқарилади, сотиб олганлари эса ушбу товарларга компаниянинг эгалик хуқуқи берилган пайтдан бошлаб банк гарови сифатида қаралади. Бу жараёнда шундай шарт сақланиши зарурки, компания ихтиёридаги товар кредит шартномасида кўзда тутилган гаров суммасидан кам бўлмаслиги керак Шунингдек, ликвидлиги кўзда тутилган даражадан ўзгармаслиги, яъни пасаймаслиги лозим.

Кредит олувчи юқоридаги синфларнинг биттасига тўғри келса, банк кредит шартномасини тузиш бўйича тегишли ишларни бошлайди. Банк кредит бўйича қабул килаётган гаров тури кредит олаёттган қишлоқ хўжалигининг фаолият йўналиши билан бевосита боғлиқ бўлади.

Кичик бизнес субъектларини кредитлашда гаров таъминотини баҳолаш механизми юзасидан амалга оширилган тадқиқот натижаларига асосланган ҳолда, қўйидаги илмий-назарий таклиф ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилди:

- Кичик бизнес субъектлари маҳсулотларини етиштирувчи хусусий сектор вакиллари учун келгуси ҳосилни гаровга қўйиш орқали кредитлаш амалиётини ҳосилни етиштириш билан боғлиқ даврийлик асосида босқичма-босқич амалга ошириш мақсадга мувофиқдир.

- Шундан келиб чиқсан ҳолда кичик бизнес субъектлари маҳсулотлар етиштирувчилар учун келгуси ҳосилни гаровга қўйиш орқали кредитлаш амалиётини ҳосилни етиштириш билан боғлиқ даврийлик асосида босқичма-босқич амалга ошириш лозим, деб ҳисоблаймиз.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Залог земель сельскохозяйственного назначения: Ильин, Алексей Владимирович/
кандидат юридических наук. Диссертация. – М.: 2007. – 122 с.
2. Jose A. Castilloa, Andrés Mora-Valenciab, Javier Perotec. Moral hazard and default risk of SMEs with collateralized loans // Finance Research Letters 26 (2018) 95–99
www.elsevier.com/locate/frl
3. Абдикаримова Д.Р. «Банк кредитлари гаров таъминотини баҳолаш амалиётини такомиллаштириш ўйлари» PhD илмий даражаси олиш учун ёзган диссертация автореферати. – Т.: 2018, 61 бет.
4. Ястребова О., Субботин А. Рынок сельскохозяйственного кредита//Вопросы экономики. – Москва, 2005. – №6. – С. 25.
5. Фигуровская Н. Современное состояние сельского хозяйства требует результативных действий государства//Экономист. – Москва, 2009. – №8. – С. 43.
6. www.cbu.uz (Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий веб-сайти).
7. www.worldbank.org расмий веб-сайт маълумотлари.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 28 февралдаги “Қишлоқ хўжалигида бозор механизмларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 149-сонли қарори. www.lex.uz

ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ КРЕДИТЛАШ УСУЛЛАРИ

***Матқабулова Дилором Халилуллаевна-
ТДИУ (PhD)***

Туризм соҳаси субъектларининг инвестицион лойиҳаларни кредитлаш амалиётига таъсир эттаётган омиллар бўйича ўтказилган таҳлилларга кўра республикамида туризм соҳасидаги инвестицияларни кредитлаш амалиётини такомиллаштириш билан боғлиқ бўлган бир қатор долзарб муаммоларнинг мавжудлигини кўрсатди. Бу борадаги ана шундай долзарб муаммолардан бири бўлиб, молиялаштириш манбаларининг етишмаслиги ҳисобланади.

Туризм соҳасида фаолият юритаётган хўжалик юритувчи субъектларнинг пул оқимини заифлиги пул маблағларининг жорий активлар ҳажмидаги салмоғини кичик эканлиги билан изоҳланади. Бу эса, ўз навбатида, ушбу субъектларда пул маблағлари кирими билан чиқими ўртасидаги мутаносибликни таъминланмаганлиги билан изоҳланади.

Корпоратив молияда капиталнинг реал баҳоси маблағларни жалб қилиш учун сарф қилинадиган вақт ва риск омилларини ҳам ўз ичига олади[1].

Шу билан бирга, эътибор қаратиш талаб этиладиган даражада мураккабликлар, аниқлик даражасини пасайтирувчи объектив ва субъектив омиллар мавжудлигига қарамасдан капитал ёки унинг алоҳида компонентлари баҳосини аниқлаш, ҳеч бўлмагандан тахминий баҳосини белгилаш муҳимdir.

Инвестиция лойиҳалари тўла қувватда ишламаслиги уларнинг техник-иқтисодий асосномасида кўрсатилган кўрсаткичлар билан ҳақиқатдаги кўрсаткичлар ўртасида жиддий фарқланишларни юзага келишига олиб келади. Бундай ҳолатнинг юзага келишининг асосий сабаб бўлиб, маркетинг тадқиқотларини сифатли олиб борилмаганлиги ҳисобланади.

Дунё туризм индустрисида рўй берадиган ўзгариш ва ривожланишларга ҳамоҳанг равишда ҳамда мавжуд имконият ва салоҳиятлар асосида Ўзбекистонда экспорт ҳажмини оширишда туризм индустрисининг иштирокини оширишга доир чора-табирларни таҳлил қилиш натижалари қўйидаги имкониятларни тақдим этди:

- “2020 йилда халқаро туристик оқим ўтган йилга нисбатан 1 млрд. кишига ёки 73 %га камайиб кетди, бунинг оқибатида 1,3 трлн. АҚШ долларига тенг туризм хизматлари экспортидан даромад ҳамда 120 млн.гача бўлган иш ўринлари йўқотилишига олиб келди. Туризм экспортидан кўрилган зарар 2009 йилдаги глобал иқтисодий инқироздан 11 марта юқори бўлди. Буларнинг барчаси 2020 йилни бутун кузатув тарихидаги халқаро туризм учун энг ёмон йил деб аташга имкон беради”, - дейилади UNWTO баёнотида[2].

- UNWTOнинг таъкидлашича, саёҳат чекловлари, айниқса, оғир бўлган Осиё-Тинч океани миңтақасида пандемия туризмга энг катта зарар етказди. Бу ерга келганлар сони 2020 йилда 300 млн.га ёки 84 %га камайди. Яқин Шарқ ва Африкада пасайиш 74%, Европада 70%га камайди. Шу билан бирга, саёҳатлар сонининг 2019 йил билан таққослаганда энг катта пасайиши Европа қитъасида қайд еэтилган – 500 млн. киши. Америкада чет эллик сайёҳлар келишининг камайиши 69%ни ташкил этди[3];


- жаҳонда 2019 йилда юқори ривожланиш чўйқисида бўлган туризм сектори бўйича харажатларнинг тақсимоти 28,7 %и халқаро ва 1,3 %и ички туризм харажатларини, 21,4 %и бизнес мақсадларидағи, 78,6 %ини дам олиш мақсадларидағи туризм харажатларини ташкил этган[4];

- Ўзбекистонда 2020 йилда экспорт ҳажми 15,1 млрд. АҚШ долларини ташкил

этиб, ўтган йилга нисбатан 2,4 млрд. АҚШ доллариға камайды. 2021 йилнинг олти ой даврида эса экспорт ҳажми 7,1 млрд. АҚШ доллариға тенг бўлиб, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 0,8 млрд. АҚШ доллариға ошди. Бироқ, шу даврда туризм хизматлари экспорти 44,7 млн. АҚШ доллариға камайиб, 158,5 млн. АҚШ долларини ташкил этди[5].;

- Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилоти (ИХРТ – OECD, Organisation for Economic Co-operation and Development) маълумотларига кўра, 2021 йил ёзида ички туризм 2019 йилгача бўлган даражада тикланиши мумкин, лекин, халқаро туризм эмас[6]. Сабаби, ташқи туризмни тикланиши ва ривожланиши қупгина омилларга боғлиқ;

Республикамиз тижорат банклари депозитларининг умумий ҳажмида узоқ муддатли депозитларнинг кичик салмоққа эга эканлиги қузатилмоқда. Масалан, республикамизнинг йирки тижорат банкларида (ТИФ Миллий банки, Саноатқурилишбанк, Асакабанк ва Ипотекабанк) 2021 йилнинг 31 декабр ҳолатига, бир йилдан ортиқ муддатга жалб қилинган депозитларнинг брутто депозитлар ҳажмидаги салмоғи эса, атиги 21,4 фоизни ташкил этди.



1-расм. Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари кредитларининг умумий ҳажмида муаммоли кредитларнинг салмоғи[7]

1-расм маълумотларидан кўринадики, 2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикаси тижорат банклари томонидан берилган кредитларнинг умумий ҳажмида муаммоли кредитларнинг салмоғи ўсиш тенденциясига эга бўлган. Бунинг устига, 2022 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, ушбу кўрсаткичнинг амалдаги даражаси унинг умумэътироф этилган даражасидан (3,0%) сезиларли даражада юқори бўлган. Ушбу ҳолатлар тижорат банкларининг ликвидлилигига нисбатан кучли салбий таъсирни юзага келтиради.

2021 йил 1 январь ҳолатига муаммоли кредитларнинг таркибида иқтисодиёт тармоқлари кесимида саноатнинг улуши 28 фоизни, савдо ва умумий овқатланиш 13 фоизни, қишлоқ хўжалиги 11 фоизни, уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш 8 фоизни, қурилиш 5 фоизни, транспорт ва коммуникация, моддий ва техник таъминотни ривожлантириш 1 фоизни ҳамда бошқа соҳаларнинг улуши 32 фоизни ташкил этди.

Тараққий этган мамлакатларнинг тижорат банклари депозитларининг етарлилиги таъминланган бўлиб, талаб қилиб олинадиган депозитларнинг брутто депозитлар ҳажмидаги салмоғи, одатда, 30 фоиздан ошмайди. Бунинг устига, мазкур банкларнинг жорий ликвидлилиги, асосан Ҳукуматнинг қимматли қоғозларига қилинган инвестициялар ҳисобидан таъминланади. Масалан, 2021 йилнинг 1 январь

ҳолатига, Бэнк оғ Америка активларининг умумий ҳажмида ҳукуматнинг қимматли қоғозларига қилинган инвестицияларнинг салмоғи 11,1 фоизни ташкил этди.

Туризм соҳасидаги инвестицияларни амалиётини такомиллаштириш билан боғлиқ бўлган қуйидаги долзарб муаммолар аниқланди:

- молиялаштириш манбаларининг етишмаслиги;
- туризм соҳасида фаолият юритаётган хўжалик юритувчи субъектларнинг пул оқимини заифлиги;
- инвестиция лойиҳалари билан боғлиқ бўлган рискларни бошқариш амалиётини такомиллашмаганлиги;
- инвестицияларни молиялаштиришнинг инновацион шакллари ва усулларини туризм соҳасидаги инфратузилма лойиҳаларини молиялаштириш амалиётига қўллаш орқали инфратузилма объектларини молиялаштириш ҳажмини ошириш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий маълумотлари. // <https://stat.uz/>
2. <https://ru.aznations.com/population/es>
3. <chrome-extension://efaidnbmnnibrcajpcglclefindmkaj/viewer.html?pdf>.
4. <https://www.fdiintelligence.com/article/80019>
5. Егорова Л.И., Динамика международной торговли услугами в контексте цифровой трансформации общества. DOI: 10.34670/AR.2020.39.81.053.
6. Симачев Ю. В., Данильцев А. В., Федюнина А. А. и др. Россия в меняющихся условиях мировой торговли: структурный взгляд на новое позиционирование // Вопросы экономики. 2019. № 8. С. 5-29.

ЎЗБЕКИСТОН БАНКЛАРИНИНГ ЧАКАНА ХИЗМАТЛАРИНИ КРЕДИТЛАШ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙУЛЛАРИ

Пўлатов Қаҳрамон Шарифжонович -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети,
таянч докторант

Жаҳонда халқаро ва миллий даражадаги рақобатнинг кучайиб бориши шароитида тижорат банкларининг чакана хизматлар амалиётини такомиллаштириш уларнинг молиявий барқарорлигини таъминлашнинг зарурий шарти сифатида намоён бўлмоқда. Хусусан, «дунёнинг энг йирик трансмиллий банкларидан бири бўлган Bank of America (АҚШ) чакана кредит хизматлари ҳажми 2021 йилда 2020 йилга нисбатан 6,3 фоизга ошгани ҳолда, мазкур даврда чакана кредитлардан кўриладиган заарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларининг брутто активларга нисбатан даражаси 0,3 фоизли пунктга пасайди. Россиянинг Сбербанкида жалб қилинган омонатлар ҳажми 2020 йилда 2019 йилга нисбатан 19,4 фоизга ошгани ҳолда, жисмоний шахслар депозитларининг брутто депозитлар ҳажмидаги салмоғи 64,6 фоизни ташкил этди»[1]. Ўз навбатида кредитлар бўйича захираларнинг меъёрий даражасини ва депозит базани барқарорлигини таъминлаш тижорат банкларининг кредит ва депозит хизматларини такомиллаштиришнинг зарурий шартлари ҳисобланади.

Мазкур вазифаларни самарали амалга оширилишини таъминлаш тижорат банкларининг кредит портфелини диверсификация қилиш орқали кредит риски кредит портфелини шакллантиришдаги меъёрларнинг Кредит сиёсатида портфелнинг

асосий диверсификация мезони сифатида белгилаш, иқтисодиёт тармоқларида юзага келган конъюнктуравий ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда кредит портфелини диверсификация даражаси бўйича мезонга нисбатан тебраниш чегарасини аниқлаш, тижорат банклари чакана кредит ва депозит хизматлари амалиётини такомиллаштириш, чакана хизматларни кўрсатиш жараёнларида юзага келадиган молиявий рискларнинг юқори меъёрий чегарасини белгилаш каби масалалар бўйича илмий-тадқиқотларнинг бажарилишини тақозо этади.

Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг чакана хизматлар амалиётини такомиллаштириш билан боғлиқ бўлган қўйидаги долзарб муаммолар аниқланди:

- ипотека кредитлари бўйича муддатли кредитлар миқдорининг катта эканлиги (2021 йилнинг 1 апрель ҳолатига 2020 йилнинг мос даврига нисбатан муаммоли кредитлар миқдорининг жами кредит қолдиғига нисбати 2,3 фоиздан 3,6 фоизга ошган бўлса, ушбу кўрсаткич ипотека кредитлари бўйича 0,3 фоиздан 1,4 фоизгача ошди);

- аҳолининг даромад даражасининг паст эканлиги;

- мижозларга хизмат кўрсатиш сифати ва тезлигини ошириш имконини берадиган техник инновацияларга асосланган[2]..

-тезлигини ошириш имконини берадиган техник инновацияларга асосланган[3].

Н. Мордвинцева фикрига кўра, чакана хизмат деганда банклар фаолиятининг мустақил, истиқболли йўналиши тушунилади ва унинг мақсади бўлиб, аҳолининг катта қисмига хизматлар кўрсатиш ва маҳсулотлар сотиш ҳисобланди[4].

Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлардан И.Алимардоновнинг илмий ишларида республика банкларининг ипотекали кредитлаш амалиёти масалалари тадқиқ қилинган. Унинг хulosасига кўра, Ўзбекистонда ипотекали кредитлашнинг икки поғонали тизимини жорий этиш мақсадга мувофиқдир[5].

О.Афанасьеванинг хulosасига кўра, ривожланаётган мамлакатларда банклар учун қисқа муддатли кредитлар бериш узоқ муддатли инвестицион кредитлар беришга қараганда афзал бўлиб, юқори даромадлилигини ва паст риск даражаси билан ажralиб туради. Давлатнинг инвестиция сиёсатининг ва асосий ишлаб чиқариш фонdlарини янгилаш ва мамлакатнинг инновацион ишлаб чиқариш салоҳиятини мустаҳкамлаш соҳасидаги сиёсатининг мавжуд эмаслиги лойиҳавий молиялаштиришни ривожлантиришга тўсқинлик қилувчи асосий макроиқтисодий омил деб ҳисоблайди[6].

- тижорат банкларида баланслашмаган ликвидлилик муаммосининг мавжудлиги (тижорат банклари активларининг муддатларини улар томонидан жалб қилинган мажбуриятларнинг муддатларидан катта бўлиши трансформация рискини юзага келтиради. Трансформация рискини ўз вақтида бартараф қилинmasлиги банкларнинг ликвидлилигига нисбатан кучли салбий таъсирни юзага келтиради. Трансформация рискининг чуқурлашиб кетиши эса, тижорат банкининг ликвидлилигини издан чиқиб кетишига олиб келади);

- тижорат банклари активларининг диверсификация даражасини паст эканлиги ва таснифланган кредитлар таркибини ёмонлашаётганлиги (амалга оширилган таҳлилларнинг натижалари кўрсатдики, республикамиз тижорат банкларининг кредит портфели ва қимматли қоғозлар портфелларининг диверсификация даражаси паст);

- таснифланган кредитлар таркибининг ёмонлашаётганлиги (таҳлил қилинган давр мобайнида, тижорат банкларининг таснифланган кредитлари ҳажмида стандарт ва субстандарт кредитларнинг салмоғини пасайиши ва қониқарсиз ва шубҳали кредитлар салмоғини ошиши кузатилди) [7].

- республикамиз тижорат банкларида чакана кредитлар бериш жараёнини замонавий банк технологияларини жорий қилиш йўли билан такомиллаштириш масаласи ҳал қилинмаган. Хусусан, чакана кредитлашда қўлланиладиган қатор технологиялар ҳозирга қадар тижорат банкларининг амалиётига жорий қилинмаган.

Тижорат банкларининг чакана хизматлар амалиётини таомиллаштиришга қаратилган қуйидаги илмий таклифлар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Тижорат банкларининг ипотекали кредитлаш амалиётини таомиллаштириш учун, биринчидан, бирламчи уй-жой бозоридан хонадон харид қилиш учун берилаётган ипотека кредитларининг фоиз ставкасини учдан бир қисмини давлат маблағлари ҳисобидан бонификация қилиш амалиётини жорий қилиш керак; иккинчидан, ипотека кредитлари ҳажмини уларнинг фоиз ставкаларини паст ва барқарор даражасини таъминлаш орқали ошириш учун, биринчидан, ипотека кредитларини қайта молиялаш механизмини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмини жорий қилиш керак; иккинчидан, Марказий банкнинг қайта молиялаш сиёсати ва давлатнинг бюджет сиёсатини мувофиқлаштириш лозим; учинчидан, молиявий ресурсларнинг инфляция ва девальвация таъсирида ошиб кетишининг олдини олиш зарур.

2. Кредит рискини бошқариш амалиётини инновациялар асосида таомиллаштириш орқали кредит риски даражасини пасайтириш мақсадида кредит рискини бошқаришнинг хамонавий усуllibарини амалиётга жорий қилиш лозим.

3. Тижорат банклари томонидан жисмоний шахсларга берилган кредитларнинг даромадлилиги ва рисклилиги ўртасидаги мутаносиблигни таъминлаш орқали чакана кредитлар ҳажмининг барқарор ўсишини таъминлаш зарур.

4. Тижорат банклари пассивларининг умумий ҳажмида барқарор ресурс манбаларининг салмоғини ошириш йўли билан чакана кредитлар ҳажмини ошириш лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикасининг "Банклар ва банк фаолияти тўғрисида"ги ЎРҚ-580-сон қонуни// www.lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли "2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида"ги фармони// www.lex.uz.

3. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков, 7-е издание: Пер. с англ. - М.: О.О "И.Д. Вильяме", 2006. - С. 42.

4. Цифровизация банковской системы: цифровая трансформация среды и бизнес-процессов// Финансовый журнал. Т. 12. № 3. 2020. - 95 с.

5.. Р2Р-кредитование как новая форма финансирования деятельности в условиях новой индустриализации// Региональные и муниципальные финансы: приоритетные направления развития: сб. науч. тр. Саратов: ССЭИ (филиал) РЭУ им. Г.В. Плеханова, 2018. С. 205-209.

6. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. - М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. - 1018 с.

7. www.cbu.uz – Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки

ИСЛОМ МОЛИЯ ИНСТИТУЛARI МЕХАНИЗMLARI ОРҚАЛИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

**Д.С. Байжанов -
ККДУ Мустакил докторанти**

Бугунги кунда жаҳонда ислом молия инструментлари орқали молиялаштириш тармоғи тез ривожланиб бораётган ва инвестиция фаолиятини ривожлантириш механизмларини ўзида жамлаган соҳалардан бири ҳисобланади. Маълумки, инвестиция лойиҳалари катта харажатларни талаб қиласи. Аҳолисининг асосий қисми мусулмонлардан иборат бўлган давлатлар учун ислом молияси тармоқни ривожлантириш, айниқса, долзарб масалалардан ҳисобланади.

Шундай экан, мусулмон давлатларидағи фаолияти ислом молия инструментлари орқали молиялаштиришга асосланған мавжуд банклар, инвестиция фондлари ва корхона ҳамда ташкилотлар маблағларини давлатнинг ижтимоий-иктисодий ривожланиши ва хусусий секторни кўллаб-куватлаш мақсадида жалб этиш айни муддаодир. Бунинг учун албатта миллий иктисодиётимизга янгича қарашлар ва илмий изланишлар олиб бориш лозим, чунончи, анъанавий молиялаштириш механизмлари билан бир қаторда ислом молия инструментлари орқали молиялаштириш механизмларини жорий этиш масаласи ҳозирги даврда муҳим ва долзарб ҳисобланади.

Инвестиция фаолиятини ислом молия инструментлари орқали молиялаштириш ва унинг фаолияти бўйича кўплаб илмий ишлар қилинган, китоблар ёзилган ва таърифлар берилган. Хусусан, сўнгги йилларда ислом молияси назарий ва амалий масалалари хорижлик иктисодчи олимлар томонидан ислом иктисодиёти кенг ўрганилаётган долзарб мавзулардан бири бўлиб келмоқда. Чет эллик олимлар Гait ва Уортингтон “Ислом молияси деганда шариат тамойиллари асосида амалга ошириладиган молиявий хизмат ёки маҳсулот тушунилади[1].” дея таъкидлашган. Левис ва Алгаудларнин фикрига кўра, “ислом молиясининг ўзига хослигини ёки асосини ташкил этувчи бешта диний хусусият мавжуд, яъни риба (фоиз), ҳаром (тақиқланган) ёки ҳалол (руҳсат этилган), ғарар (ноаниқлик) ёки майсир (қимор), закот ва шариат (ислом) кенгаши. Исломда молиялаштириш тушунчаси анъанавий ёки “Фарб молияси”дан фарқ қиласи[2].”.

Шунингдек, Мирахор ва Иқболлар “Исломий молия тизимини анъанавий тизимдан фарқлаш қуидагиларни ўз ичига олади: Биринчидан, ислом молия тизими тенглик, адолатли жамият ва иктисодий тартиб учун интилади. Исломий молия тизимида фоизнинг (риба) тақиқланиши, эксплуатациядан қочиш, нархларни манипуляция қилиш орқали фойда олишдан қочиш ва камбағалларни (яъни қарз оловучи) ҳимоя қилиш учун мўлжалланган. Иккинчидан, ислом молия тизими ҳамкорлик ва биродарлик тамойилига урғу беради[3].”. Махмуд ва Эль-Халифа Мухаммадларнинг ислом банклари тарихини ўрганишга бағишинланган асарида ислом банкларининг тўлиқ шариатлар меъёрига асосланиши, лекин ислом тамойилларига асосланмаган бизнес муҳитида унинг қўлланилиши мумкинлиги эътироф этилган[4].

Россиялик олимлар Беккин ва Кочмолаларнинг тадқиқотларига кўра, “Ислом молия институтлари тўлиғича ислом қоидалари жорий этилмаган, масалан, Малайзия ва Туркия мамлакатларида муваффақиятли операцияларни амалга ошироқоқда[5].”.

Иктисодчи олим И.Зарипов ўзининг илмий мақолаларида бугунги кунда жаҳонда, ислом молияси барқарор даражада ривожланаётгани ва юқори ўсиш суръатларини кўрсатаётганини, ислом молиясида анъанавий молиядаги «пул баҳоси» тушунчасига ўрнига «капитал самарадорлиги[6].» деб аталувчи янги атама жорий этилганлиги ҳақида сўз юритган.

Шунингдек, Rafik Yunus al-Misri “Ислом молияси ислом иктисодий таълимотидан келиб чиқадиган ўзига хос хусусиятларга эга. Асосий исломий молия хусусиятлари қуидагиларни ўз ичига олади: активларга асосланған, молиялаштириладиган фаолиятга чекловлар ва капитал ҳамда тадбиркорликнинг узлуксизлиги ишлаб чиқариш омиллари сифатида[7].” талқин этади. Унинг таъкидлашича, анъанавий ёки ғарб банк операцияларидан ислом банк ишининг асосий фарқли жиҳати ссуда фоизини ундиришни таъкиқлаш ҳисобланади.

Сўнгги йилларда Ислом молия тизими тушунчаси кўплаб мамлакатлар молиячиларининг сўз бойлигидан мустаҳкам ўрин олди. Дарҳақиқат, тури молиялаштириладиган ҳаттоқи аксарият аҳолиси ислом динига мансуб бўлмаган давлатларда ҳам, жумладан АҚШ ва Буюк Британиядага, ушбу молиявий институт анъанавий банк хизматларига муқобил молиялаш тизими сифатида барқарор ривожланмоқда. Шунинг

учун ислом банкчилигини ўрганиш глобал иқтисодиётда долзарб мавзу ҳисобланади. Анъанавий банк тизимиға муқобил молиялаш шакллари мавжудлигини билиш қизиқарли ва фойдалидир. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрда Олий Мажлис палаталарига йўллаган Мурожаатномасида “Мамлакатимизда Ислом молиявий хизматларини жорий этиш бўйича хуқуқий базани яратиш вақт-соати етиб келди. Бу борада Ислом тараққиёт банки ва бошқа ҳалқаро молия ташкилотлари эксперталари жалб этилади[8].”, деб таъкидлаб ўтдилар.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 20 апрелдаги “Нобанк кредит ташкилотлари ва микромолиялаштириш фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ – 765 сонли Қонунининг қабул қилиниши мамлакатимизда ислом молия инструментларидан фойдаланиш тизимини ривожлантиришдаги муҳим қадамлардан бири бўлди. Миллий иқтисодиётимизда ислом молия инструментларидан ва ислом молия институтлари хизмат турларини ўрганишдан кўзланган мақсад замонавий шароитларда молия сектори муаммоларини ҳал қилишда муқобил молиялаштириш йўлларини ривожлантириш бугунги кунда долзарб масалалардан ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Gait, A. and Worthington, A.. An empirical survey of individual customer, business firms and financial institution attitudes towards Islamic methods of finance, *International Journal of Social Economics*, 35(11), 2008 y.783-808 p.
2. Lewis M.K. and Algaoud L.M. *Islamic Banking*. Northampton, Massachusetts, USA: Edward Elgar Publishing Ltd. 2001 y.253-258 p.
3. Iqbal Z., Mirakhor A. *An introduction to Islamic finance: theory and practice*. Singapore: John Wiley & Sons (Asia) Pte. Ltd., 2011.406 p.
4. El-Gamal Mahmoud A. *Islamic finance: law, economics and practice*. Cambridge University press,2006 year.222
5. Кочмولا К.В. *Исламские финансовые институты в мировой финансовой архитектуре*. Ростов-на-Дону: РГЭУ «РИНХ», 2007 г. 368 с.
6. B. Jurayev. (tarj) “*Islomiy moliya va bank tizimi*”, “*O’zbekiston*” Toshkent 2019y. 138-bet.
7. Зарипов И.А. *Исламские финансы как стратегический ориентир развития России*. / Zaripov I.A. (2016) *Islamic finance as a strategic landmark for the development of Russia*. <https://cyberleninka.ru/>.
8. Rafik Yunus al-Misri. *Fikkh imushchestvennykh otnosheniy*. / per. s arab. [Fiqh property relations. / translated from Arabic] / D.Adzhi; redsovet: B.F.Mulyukov and others, - Moskva: Islamskaya kn., 2014. - P. 320.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ РАҶОБАТБАДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Тлеуов Медет Абдимуратович -
Бердақ номидаги Қорақолпоқ
Давлат Университети мустақил изланувчиси

Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилишнинг 2020 - 2025 йилларга мўлжалланган Стратегиясида банкларнинг активларини ва улар фаолиятидаги рискларни бошқариш тизимини такомиллаштириш банкларнинг давлат ресурсларига қарамлигини пасайтириш, банк хизмати кўрсатишни модернизация қилиш, молиявий таваккалчиликларни баҳолаш учун технологик ечимларни татбиқ этиш орқали банк тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш мамлакат банк

тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган [1]. Бу эса, тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш заруриятини юзага келтиради.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, республикамиз тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш билан боғлиқ бўлган айрим муаммолар мавжуд. Ана шундай долзарб муаммолардан бири бўлиб, йирик тижорат банкларида активларнинг рентабеллик даражасини паст эканлиги ҳисобланади.

Тижорат банки фойдасининг қисқа муддатли ўзгаришига таъсир қилувчи асосий омиллар бўлиб, портфелли риск ва операцион риск ҳисобланади. Бунда портфелли рисклардан кредит риски, фоиз риски, ликвидилик риски, муддатидан олдин сўндириш риски ва валюта риски тижорат банкларининг фойдасига сезиларли таъсир кўрсатади [2].

Тижорат банкининг молиявий барқарорлигини баҳолашла активларнинг рентабеллиги ва капиталнинг рентабеллиги кўрсаткичлари муҳим ўрин тутади [3].

Тижорат банкининг молиявий барқарорлиги унинг молиявий оқимлари ва ўз маблағлари манбаларининг шундай баланслашган ҳолатики, у банкнинг маълум даврий оралиқда фаолият кўрсатишини таъминлади. Банкнинг молиявий барқарорлиги унинг молиявий мустақиллигини белгилайди [4].

Банкларнинг даромадлилиги уларнинг ликвидилигини таъминлашда муҳим ўрин тутади, хусусан, соф фоизли спред кўрсаткичининг меъёрий даражасини таъминлаш ликвидилик кўрсаткичларининг меъёрий даражасини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади [5].

Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан тижорат банкларининг капиталлашиш даражасини оширишга қаратилган сиёsatни амалга оширилаётганини тижорат банкларининг ликвидилиги ва молиявий барқарорлигини таъминлаш нуқтаи-назаридан муҳим амалий аҳамият касб этади. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг 2015 йил 13 июндаги 2693-сон «Тижорат банклари капиталининг монандлигига қўйиладиган талаблар тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида»ги йўриқномасига мувофиқ, Базель қўмитасининг тижорат банклари капиталининг етарлилигига нисбатан талабларни ошириш хусусидаги тавсиясини банк амалиётига жорий қилиш мақсадида, регулятив капитал ва биринчи даражали капиталнинг етарлилигига нисбатан талаблар босқичма-босқич оширилди [6].



1-расм. АТ Туронбанк ва ТИФ Миллийбанк АЖда активлар рентабеллиги ва соф фоизли маржа

Манба: Расм муаллиф томонидан Туронбанк ва ТИФ Миллий банкининг бааланс маълумотлари асосида тузилган.

1-расмда келтирилган маълумотлардан кўринадики, 2021 йилда 2018 йилга нисбатан АТ Туронбанка активлар рентабеллиги кўтарилиб яна тушган ва соф фоизли маржа -0.9% камайган, ТИФ Миллийбанк АЖда эса активлар рентабеллиги 0.3%га ва соф фоизли маржа 1.5% ошган

Таъкидлаш жоизки, тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлашда кредит портфелининг сифати муҳим роль ўйнайди. Бунинг сабаби шундаки, кредитлар республикамиз тижорат банклари активларининг таркибида энг юқори салмоқни эгаллади. 2022 йилнинг 1 январь ҳолатига кўра, Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг активлари ҳажмида кредитларнинг салмоғи 71,1 фоизни ташкил этди [7].

2018-2021 йилларда ТИФ Миллий банки активларининг умумий ҳажмида кредитлар жуда юқори салмоқни эгаллаган; иккинчидан, кредитларнинг брутто активлар ҳажмидаги салмоғи билан кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг ялпи даромад ҳажмидаги салмоғи ўртасида мутаносиблик мавжуд эмас. Масалан, 2021 йилда кредитларнинг брутто активлар ҳажмидаги салмоғи 82,3 фоизни ташкил этгани ҳолда, кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг ялпи даромад ҳажмидаги салмоғи 52,9 фоизни ташкил этди. Тадқиқотни амалга ошириш жараёнида қўйидаги хуносаларни шакллантирилди:

*Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилишнинг 2020 - 2025 йилларга мўлжалланган Стратегиясида тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш мамлакат банк тизимини ислоҳ қилишнинг устувор ўйналишларидан бири сифатида белгиланган;

*тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини белгиловчи қўйидаги мезонлар мавжуд:

- * рискларнинг чегаравий даражаси;
- * активларнинг рентабеллиги;
- * капиталнинг рентабеллиги;
- *капиталнинг пассивлар ҳажмидаги салмоғи;
- *банкнинг жорий ликвидлилиги.

* 2021 йилда 2018 йилга нисбатан АТ Туронбанка активлар рентабеллиги кўтарилиб яна тушган ва соф фоизли маржа -0.9% камайган, ТИФ Миллийбанк АЖда эса активлар рентабеллиги 0.3%га ва соф фоизли маржа 1.5% ошган;

* Ўзсаноатқурилишбанка 2021 йилда 2018 йилга нисбатан активларнинг рентабеллик кўрсаткичини ҳам, капиталнинг рентабеллик кўрсаткичини ҳам ўсганлиги мазкур банкларнинг молиявий барқарорлигини таъминлаш борасида ижобий ҳолат ҳисобланади.

* Ўзсаноатқурилишбанка капиталнинг рентабеллик кўрсаткичи 2021 йилда 2018 йилга нисбатан юқори суръатда (7,1 ф.п.) ўсган;

* 2018-2021 йилларда ТИФ Миллий банки активларининг умумий ҳажмида кредитлар жуда юқори салмоқни эгаллагани ҳолда, кредитларнинг брутто активлар ҳажмидаги салмоғи билан кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг ялпи даромад ҳажмидаги салмоғи ўртасида мутаносиблик мавжуд бўлмаган.

Фикримизча, республикамиз тижорат банкларининг молиявий барқарорлигини таъминлаш учун қўйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

Фикримизча, республикамиз тижорат банкларининг даромадлилигини ошириш учун қўйидаги тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

1. Тижорат банклари соф фойдасининг брутто активларга нисбатан юқори ва барқарор даражасини таъминлаш учун, биринчидан, кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг ялпи даромад ҳажмидаги салмоғи билан брутто кредитларнинг брутто активлар ҳажмидаги салмоғи ўртасидаги мутаносибликни таъминлаш керак; иккинчидан, тижорат банкларининг қимматли қофозларга қилинган инвестициялари-

дан олинадиган даромадлар миқдорини ошириш мақсадида қимматли қоғозлар портфелининг даромадлилиги ва рисклилиги ўртасидаги мутаносиблигни таъминлаш, банкларнинг иқтисодиётнинг реал сектори корхоналарининг акцияларига қилинган инвестицияларидан оладиган дивидендларини фойда солиғидан озод қилиш керак.

2. Фоизли даромадлар билан фоизли харажатлар ўртасидаги мутаносиблигни таъминлаш йўли билан банкларнинг молиявий барқарорлик даражасини ошириш мақсадида, биринчидан, кредитлардан кўриладиган заарларни қоплашга мўлжалланган захира ажратмаларининг халқаро банк амалиётида умумқабул қилинган меъёрий даражасини (1,0 %) таъминлаш лозим; иккинчидан кредитлардан олинган фоизли даромадларнинг ўсиш суръатини брутто кредитларнинг ўсиш суръатидан паст бўлмаслигига эришиш керак; учинчидан, тижорат банклари пассивларининг умумий ҳажмида банклараро кредитларнинг салмоғини пасайтириш ҳисобидан фоизли харажатларнинг миқдорини камайтириш зарур; тўртинчидан, соғ фоизли спрэд кўрсаткичини доимий таҳлил ва назорат обьектига айлантириш орқали ушбу кўрсаткичнинг меъёрий даражасига эришишни таъминлаш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 12 майдаги ПФ-5992-сонли "Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси"ги фармони//Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.05.2020 й., 06/20/5992/0581-сон.
2. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – С. 210.
3. Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.:ЛЕНАНД, 2019. – С.34.
4. Mishkin F.S. Global Financial Instability: Framework, Events, Issues//Journal of Economic Perspectives. 1999. No 4. Vol. 13.
5. Бердияров Б.Т. Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларининг ликвидлилиги ва тўлов қобилиятини таъминлаш масалалари. И.ф.д. илм. дар. ол.уч. тақд. эт. дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 30.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 26 ноябрдаги ПҚ-1438-сонли "2011-2015 йилларда республика молия-банк тизимини янада ислоҳ қилиш ва барқарорлигини ошириш ҳамда юқори халқаро рейтинг кўрсаткичларига эришишининг устувор йўналишлари тўғрисида"ги қарори//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2010. - №48. – 4-6-б.
7. Тижорат банкларининг жамланма баланси//www.cbu.uz
8. Абдулазизова Ў. Потребитель на рынке банковских услуг //Экономическое обозрение. – 2019.
9. Абдулазизова У. СОВРЕМЕННЫЕ ТРАКТОВКИ КАТЕГОРИИ «ФИНАНСОВАЯ УСЛУГА» //Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка. – 2023. – С. 9-11.
10. қизи Абдулазизова Ў. Н. ВЛИЯНИЕ ПАНДЕМИИ НА РЕАЛЬНЫЙ И ФИНАНСОВЫЙ СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ЗОНАЛАРНИНГ ИНВЕСТИЦИОН МУҲИТИНИ ЯХШИЛАШ ОРҚАЛИ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

**Абыл Аманиязович Матекеев -
Қарақалпоқ давлат университети
мустақил изланувчиси**

Бугунги иқтисодий муносабатларнинг глобаллашуви даврида мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда фаол инвестиция фаолиятини таъминлаш, бу борада инвестиция муҳитини яхшилаш муҳим вазифалардандир. Таъкидлаш лозимки, мамлакатнинг иқтисодий тармоқларига тўғридан тўғри инвестицияларни жалб этиш учун қулай инвестиция муҳитини ташкил этиш мақсадида иқтисодиётни либераллаштириш, тадбиркорлик фаолиятини қўллаб қувватлаш, иқтисодий худудлар

инфратузилмасини яратиш борасида кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бу борада Ўзбекистон Республикаси президентининг “Ўзбекистон Республикасида инвестиция муҳитини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018-йил 2-августдаги ПФ-5495-сон Фармонида ҳам инвестицион муҳитни яхшилаш борасидаги вазифалар белгилаб қўйилган. Ҳозирги кунда республикамизда инвестицион муҳитни яхшилаш борасида қўплаб чора-тадбирлар амалга оширилмоқда [1]. Хусусан, Ўзбекистонда иқтисодий фаолият иштирокчилари учун қулай инвестиция муҳитини яратиш ва унинг жозибадорлигини таъминлаш борасида қатор солиқ имтиёzlари жорий этилганини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиз.

Хорижий иқтисодчи олимлардан профессор Г.П. Подшиваленконинг таъкидлашича, “Инвестицион муҳит - бу мамлакат, минтақа, иқтисодий худуд саноатдаги инвестиция муҳитининг асосий характеристикаси. Фақатгина инвестиция муҳитининг рейтинг баҳосини ҳисобга олган ҳолда, инвесторга маълум бир обьект ёки инвестиция лойиҳасининг инвестицион жозибадорлигини баҳолашга киришиши тавсия этилади.” [2]

Д.Фозибеков ва Т.Қоралиевлар томонидан эса қуйидаги фикрлар билдирилган: “Инвестиция иқлими жуда кенг маънода ишлатиладиган тушунча бўлиб, инвестор томонидан ҳисобга олинадиган барча муаммо ва масалаларни мужассамлаштиради. Инвестор томонидан маълум бир мамлакатга капитал ажратишнинг қулай ва нокулай томонлари белгиланади, шу билан бир қаторда, ўз капиталини киритмоқчи бўлган мамлакат мафқураси, сиёсати, иқтисодиёти ва маданиятига катта аҳамият берилади” [3].

Фикримизча инвестицион муҳит мамлакатнинг иқтисодий, ижтимоий-маданий, сиёсий, экологик шарт-шароитлари билан таъминланган иқтисодий худудга жалб этиладиган инвестицияларнинг самарадорлигини таъминловчи омиллар мажмуаси. Умумий қилиб айтадиган бўлсак, инвестицион муҳит яхши ривожланишида инвестицион жозибадорлик ва инвестицион фаолликнинг уйғунлашуви ҳисобланади.

Бугунги кунда мамлакатимизда юқоридаги иқтисодиёт тармоқлари кесимида маҳсус иқтисодий зона(МИЗ)лар таркибига кирувчи 22 та эркин иқтисодий зона(ЭИЗ)лар, 400 дан ортиқ кичик саноат зона(КСЗ)лари ва 7 та технопарк(ТП)лар ҳамда 415 та саноат кластер(СК)лари фаолият юритиб келмоқда. Тадқиқот натижаларига кўра, юқорида келтириб ўтилган худудий тузилмалар фаолиятига тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишда тадбиқ этилган солиқ имтиёzlарининг самарали таъсирини ўрганиб таҳлил қилиб чиқдик.

1-жадвал Ўзбекистон Республикасида фаолият юритаётган маҳсус, кичик саноат зоналари, технопарк ва саноат кластерлари тўғрисида маълумот [4]

| № | Ишлаб чиқариш худудий тузилмалари | Ишлаб чиқариш худудий тузилмалари сони | | Ишлаб чиқариш худудий тузилмалари таркибидағи корхоналар сони | |
|---|-----------------------------------|--|------|---|------|
| | | 2019 | 2022 | 2019 | 2022 |
| 1 | Эркин иқтисодий зоналар | 16 | 22 | 405 | 513 |
| 2 | Кичик саноат зоналари | 63 | 417 | 1317 | 1869 |
| 3 | Технопарклар | 3 | 7 | 49 | 56 |
| 4 | Саноат кластерлари | 117 | 415 | 117 | 425 |

Келтирилган маълумотлар асосида қўришимиз мумкинки, 2019-йилда 405 та корхонани ўз ичига олувчи 16 та эркин иқтисодий зоналар фаолият юритган бўлса, 2022-йилга келиб 513 та корхонани ўз ичига олувчи 22 та эркин иқтисодий зоналар фаолият юритиб келмоқда. Кичик саноат зоналари борасида 2019-йилда 63 та КСЗ

1317 та корхонани ўз таркибига олган бўлса, 2022-йилда 417 та КСЗ 1869 та корхонани ўз таркибига олмоқда. 2019-йилда фаолият юритган 49 та корхонадан ташкил топган З та технопарклар сони 2022-йилда 56 та корхонани ўз таркибига олиб 7 тани ташкил этмоқда. Саноат кластерлари 2019-йилда 117 тани ташкил этиб, 117 та корхонани ўз ичига олган. Ҳозирги вақтда эса 425 та корхонани ўз ичига олувчи 415 та саноат кластери фаолияти юритиб келмоқда (1-жадвал).

Маълумот сифатида айтиб ўтиш жоизки мамлакатнинг инвестицион муҳитини яхшилаш, инвестицион жозибадорликни ошириш, мамлакатга хорижий, жумладан, тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш имкониятини яратиш ҳамда тадбиркорлик фаолиятини ривожлантириш мақсадида жорий этилган солиқ имтиёзларининг аҳамияти сабабли 2008-йилдан буён эркин иқтисодий зоналар, кичик саноат зоналари, технопарклар ҳамда саноат кластерлари фаолиятида жами 2.9 млрд. АҚШ доллари (шу жумладан, 0.9 млрд. АҚШ доллари тўғридан-тўғри инвестициялар) миқдорида 43000 та иш ўринли 539 та инвестицион лойиҳа мувоффақиятли амалга оширилган.

Инвестиция фаолиятида инвестицион лойиҳаларни фаол ташкил етиш борасида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Осиё тараққиёт банки маблағларини жалб қилиш орқали “Замонавий иқтисодиёт учун кўникмаларни ривожлантириш” лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” [5]. 2022-йил 2-февралдаги 51-сонли Қарори яққол мисол бўла олади. Ушбу қарор меҳнат бозори ва профессионал таълим тизими ўртасидаги ўзаро боғлиқликни мустаҳкамлаш, аҳоли бандлигини таъминлаш ҳамда профессионал таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш, шу билан бир қаторда, Ўзбекистон Республикаси ва Осиё тараққиёт банки билан ҳамкорлик алоқаларини янада кенгайтириш каби мақсадларни ўз ичига олади. Мазкур қарорда 2022-2026 йиллар учун мўлжалланган “Замонавий иқтисодиёт учун кўникмаларни ривожлантириш” лойиҳасини молиялаштириш учун Осиё тараққиёт банки имтиёзли ресурслари ҳисобидан 5 йиллик имтиёзли даврни ўз ичига олган 25 йилда қайтариш шарти билан 93 млн. АҚШ доллари миқдорида қарз ажратилиши белгилаб қўйилган. Кўриб чиқилган ҳолатлар юзасидан мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожланишини таъминлаш, ривожланган мамлакатлар билан халқаро алоқаларни ташкил этиш ва мустаҳкамлаш, жаҳон ҳамжамияти билан интеграциялашув мақсадида қўйилган вазифаларга замин яратувчи асосий омиллардан бўлган инвестиция муҳитини яхшилаш ва уни фаол ташкил этиш борасида маҳсус солиқ имтиёзларига эга маҳсус иқтисодий зоналар омилиги қўлланилиши ўз навбатида юқорида келтирилган мақсадларга эришишда, Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти шароитида инвестиция фаоллигини ошириш, юқори самарали инвестицион лойиҳаларни фаол ташкил этиш мамлакат иқтисодиётини ривожланишида ўз самарасини беришини кузатишимиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 01.08.2018 йилдаги ПФ-5495-сон
2. Подшиваленко Г.П. (2010) Инвестиционный климат и инвестиционная привлекательность // Финансовая аналитика: проблемы и решения. № 15. С. 7.
3. Гозибеков Д.Ғ., Қоралийев Т.М. (1993) Инвестиция фаолиятини ташкил этиш ва давлат томонидан тартибга солиш. Тошкент: “Иқтисод-молия”. 232-б.
4. Электрон ресурслар орқали муаллифлар томонидан тузилди. Манба: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/18083-o-zbekiston-respublikasida-maxsus-iqtisodiy-zona-kichik-sanoat-zona-texnopark-va-klasterlar-faoliyati>
- 5.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Осиё тараққиёт банки маблағларини жалб қилиш орқали “Замонавий иқтисодиёт учун кўникмаларни ривожлантириш” лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2022-йил 2-февралдаги 51-сонли Қарори Манба: <https://lex.uz/docs/-5846087>

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Абдугафаров Абдухалил -
«Институт Повышения квалификации кадров и
статистических исследований» при
Госкомстат РУ, д.э.н., профессор
Ачилов Салохиддин Саломович -
Самаркандский филиал Ташкентского университета
информационных технологий, к.э.н., доцент

Современная цифровая трансформация в сферу государственной налоговой системы является одним из эффективных способов управления экономики страны. В настоящее время налоговая система располагают развитой автоматизированной системой, включая как региональные и так местные уровни управления, что позволяет эффективно обрабатывать постоянно возрастающий объем информации. Цифровая трансформация налогообложения представляет собой не просто технологию в налоговой сфере, а новый уровень взаимодействия между налоговыми органами, организациями и гражданами. Налоговой системе важно не только применять в своей работе новейшие информационные технологии, но и соответствовать уровню современных этических отношений. Современные информационные технологии сейчас формируют будущее, поэтому очень многое зависит от цифровых платформ. Появилась возможность администрирования налогоплательщиков, то есть создание технологий единого личного кабинета для налогоплательщиков. Создана технология бесконтактного администрирования, то есть стало возможным платить налоги миллионам граждан посредством личного кабинета налогоплательщиков. Налоговая система перестала быть только фискальным органом. Теперь она стимулирует граждан честно платить налоги и сборы в комфортных условиях. Отношения между бизнесом и налоговыми органами строятся в новом цифровом пространстве. Цифровая трансформация позволила усовершенствовать работу органов налоговой службы, а также упростить процесс взаимодействия налоговых органов с налогоплательщиками. Внедрение информационных технологий в деятельность налоговых органов позволяет отслеживать налоговые потоки налогоплательщиков, проверять правильность проведения налоговых отчислений и выявлять схемы, направленные на уклонение от уплаты налогов. Автоматизированная налоговая информационная система – это экономическая информационная система в налоговой системе, которая определяется как совокупность технических, организационных и программных средств, используемых для автоматизации процессов обработки учетной, контрольной и отчетной информации в налоговых системах различного уровня.

Кабинет Министров Узбекистан принял постановление от 5. 06. 2020 г. № 359 «О дополнительных мерах по широкому внедрению в налоговое администрирование современных информационно-коммуникационных технологий» [1,2]. Главными целями налоговой реформы являются обеспечение экономической стабильности в стране, создание благоприятных условий для предпринимательства и наращивание доходов Государственного бюджета. На реализацию проекта будут направлены дополнительные поступления из средств государственного бюджета до 20 триллионов сумов. Внедрение новых мер позволит создать единую платформу для интеграции электронных услуг и систем, существенно снизить загруженность серверов, уменьшить нагрузку на базу больших данных, повысить скорость корпоративной сети. В результате ожидается десятикратное увеличение скорости обработки и анализа данных и обеспечение конфиденциальности информации базы данных, а также же

объем информационной налоговой базы повысится до 1 Петабайта. В качестве одной из основных поставленных задач Стратегии – внедрение технологий Business Intelligence и Big Data. Их внедрение позволит снизить уровень «теневого оборота» и создаст условия для изучения конъюнктуры рынка, расширить системы обработки больших данных и анализа, сформированных посредством централизованных систем, анализа рыночных цен товаров и услуг, сократить трудозатраты – обработкой и анализом данных, расширится возможность защиты от внешних угроз, а также безопасного и надежного хранения данных. В свою очередь создание систем *Case Management* и *Case Assessment System* даст возможность Государственному налоговому комитету в автоматическом формате проводить аудит и мониторинг информации базы данных в режиме реального времени. Цифровизация налогового администрирования и налоговой системы в целом позволит не только вывести экономику на новый уровень, но и сделать более эффективным мониторинг налоговой нагрузки хозяйствующих субъектов на современном этапе развития.

Целью данной работы является:

- исследование вопросов качественного внедрения информационной технологии в налоговых государственных системах;
- обработка данных специализированными программными продуктами;
- своевременное получение объективной информации о налоговых поступлениях, путем предоставления широкого спектра современных и комфортных интерактивных государственных услуг;
- оптимизации принимаемых управлеченческих решений, путем поэтапного использования метода экспертных оценок.

Задача исследования – проанализировать опыт стран по применению информационных технологий в сфере налогообложения, выделить наиболее удачные примеры цифровизации и оценить возможность применения зарубежного опыта налоговыми органами Узбекистана.

Новизна исследования заключается в предложении автором новых аспектов упрощения налоговой системы, введения новых инструментов налогового контроля и расширения круга эффективных управлеченческих решений на основе метода экспертных оценок [3,4].

Важной задачей внедрения современных информационных технологий в работу налоговой системы является не только обработка и хранение информации по начислению и уплате различных налогов, а также введение прозрачной нормативно-правовой базы по налоговому законодательству, формирование оперативной отчетности по налоговым органам, автоматизированного интерфейса с банками, таможенными органами и другими государственными структурами на основе целевого программного комплекса «электронное правительство». На основе спутниковой связи внедрена система передачи информации между всеми субъектами налоговых подразделений Узбекистана. Регулярное увеличение объема налоговой информации способствовало внедрение корпоративной сети передачи данных на базе оптоволоконного канала BRAS. В результате чего, скорость передачи данных возросло 35 раз, обеспечивая устойчивую работу существующих программных продуктов, включая корпоративный веб-портал и интерактивные услуги. На сегодняшний день в Республике Узбекистан проходит поэтапная цифровизация всех направлений деятельности государственных налоговых структур, а также начисление и учет сбора налогов и другие обязательные платежи бюджета в режиме реального времени. Планомерное внедрение портала my.solig.uz, открытых данных (data.gov.uz), национальной поисковой системы www.uz, информационно-правового портала norma.uz и нормативно-правовых актов (lex.uz), единого портала интерактивных государственных услуг (my.gov.uz), а также информационного образовательного

портала ziyonet являются примером обеспечения государством механизмов открытости, прозрачности и обратной связи с населением о его повседневных проблемах [4,5]. Только посредством my.soliq.uz – портала «Электронные налоговые услуги» на данный момент предоставляется 50 государственных электронных услуг. В частности, в персональном кабинете налогоплательщика в электронном виде уплачиваются налоги, в электронном виде отправляются 12 видов документов и 27 разновидностей отчетности.

В настоящее время в Узбекистане в соответствие с Налоговым Кодексом действует 10 видов налогов и 5 видов других обязательных платежей, а также применяются упрощенные режимы налогообложения для хозяйств, и фиксированный налог по отдельным видам деятельности. В результате реформы налоговая нагрузка на экономику снизилась с 26,5% в 2020 г. до 26,1% к ВВП в 2021 г. (по консолидированному бюджету). В то же время налоговое бремя на экономику без учета страховых средств возросло за данный период с 19,4 до 21,4% к ВВП. Поэтому на основе реформы налогообложения произошло сокращение нагрузки на крупный бизнес и повышение ее для малого и среднего бизнеса. В 2020 этот год количество плательщиков подоходного налога в республике возросло до миллиона человек, число плательщиков НДС увеличилось в 12 раз, а объем налоговых поступлений - в 1,6 раза. Известно, что с 2020 года страна одной из первых в мире перешла на обязательное оформление электронных счетов-фактур (ЭСФ) и онлайн-КММ. То есть сегодня как минимум 60% узбекских налогоплательщиков НДС перешли на ЭСФ. Это позволило снизить издержки в ведении бизнеса и исполнении налоговых обязательств. Кроме того, для пользователей ЭСФ было разработано специальное мобильное приложение, которое позволяет оформить и отправить документ в электронном формате. Для успешного перехода на цифровую модель налогообложения будут также приняты следующие меры: в республике введут маркировку подакцизных товаров и привлекут новые технологии больших данных Big Data. Эти меры позволят Узбекистану в скором времени полностью перейти на цифровую систему налогообложения и достичь главной цели – «стать надежным партнером для добросовестных налогоплательщиков» [6]. Специалистам в налогообложении необходимо ориентироваться в сетевых коммуникаций, работе с базами данных, использовании справочных правовых систем, вопросах информационной безопасности и защите информации.

Поэтому, только комплексный подход «снизу-вверх», основанный на методах экспертной оценки, а также системное использование современных информационных технологий позволит повысить качество и эффективность мониторинга объектов налоговых структур в Узбекистане. Таким образом целью совершенствования управления качеством налоговых услуг является создание благоприятных условий для приведения государственную налоговую инфраструктуры к мировым стандартам качества, которые обеспечат комфортные условия для оплаты начисленных налоговых платежей граждан в указанные сроки.

Список литературы:

1. Постановление Кабинета Министров РУ от 05.06.2020 года №-359 «О дополнительных мерах по широкому внедрению в налоговое администрирование современных ИКТ».
2. Abdugafarov A., Achilov S. S., «MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE TAX SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THE USE OF THE EXPERT ASSESSMENT METHOD», April special issue. 23 Vol. 13 No.02 SJIF 8.001 & GIF 0.626 ISSN-2249-9512 Journal of Management Value & Ethics, 233-243 pp.
3. Achilov S. S., «Expert Method of Quality Management of Road Construction Project», published on the journal of, «Middle European Scientific Bulletin, VOLUME», 15- August 2021y, Chexiya, ISSN (E): 2694-9970, pp. 40-47.

4. Achilov S. S., «*Expert Method of Quality Management System of Housing and Communal Services*», Scopus indexed. Kvartil: Q2, Journal of Positive School Psychology 2022, Vol. 6, No. 4, 9705 – 9715, Journal Information, ISSN: 2717-7564, Frequency: Bi-monthly, Indexing: Scopus, EBSCO, <http://iournalppw.com>.

5. Achilov S. S. *Expert Method of Implementation of Funds ICT in the tax system, INTERNATIONAL JOURNAL ON ORANGE TECHNOLOGY* <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT> e-ISSN: 2615-8140 / p-ISSN: 2615-7071 Volume: 4 Issue: 7, Jul 2022, pp. 23-32.

6. Лыкова, Л. Н. Налоги и налогообложение: учебник для вузов / Л. Н. Лыкова. 3-е изд., перераб. и доп. –Москва: Изд. Юрайт, 2021г. –С. 357.

7. Khamdamov, Shoh-Jakhon, et al. "ECONOMETRIC MODELING OF CENTRAL BANK REFINANCING RATE IN UZBEKISTAN." *Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems*. 2022.

МИКРОМОЛИЯЛАШТИРИШ КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ ВОСИТАСИ

Додиев Фозил Ўткурович –
и.ф.н., доцент, Тошкент Кимё ҳалқаро университети
“Банк иши ва бухгалтерия ҳисоби” кафедраси мудири

Мамлакатимизда камбағаллик ва унинг даражаси давлатимиз Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлис қилган Мурожаатномасида биринчи марта ошкора айтилган: “Ҳар қандай мамлакатда бўлгани каби бизда ҳам кам таъминланган аҳоли қатламлари мавжуд. Турли ҳисоб-китобларга кўра, улар тахминан 12-15 фойизни ташкил этади. Бу ўринда гап кичкина рақамлар эмас, балки аҳолимизнинг 4-5 миллионлик вакиллари ҳақида бормоқда [1].

Аҳолининг камбағаллик даражасини қисқартириш учун тадбиркорликни ривожлантириш лозим. Шундагида янги иш ўринлари яратилади, аҳолини бандлиги ва даромадлари ошади, охир оқибатда турмуш даражаси қўтарилади. Мамлакатимиз Президенти таъкидлаганидек, “Камбағалликни камайтириш – бу аҳолида тадбиркорлик руҳини уйғотиш, инсоннинг ички куч-қуввати ва салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқариш, янги иш ўринлари яратиш бўйича комплекс иқтисодий ва ижтимоий сиёсатни амалга ошириш, демақдир” [1].

Мамлакатимизда аҳоли тадбиркорлигини молиялаштириш муҳим масала ҳисобланади. Чунки кўпчилик аҳоли тадбиркорликни бошлиши учун молиявий маблағларга эҳтиёж сезади, уларни молиялаштириш учун давлатнинг имтиёзли кредитлари ҳажми етмайди. Тижорат банкларидан кредит олишда эса уларга гаров таъминоти йўқлиги тўсиқ бўлмоқда. Шунингдек, катта ҳажмда молиявий ресурслари мавжуд тижорат банклари кичик бизнес субъектларига микрокредит беришга унчалик қизиқишмайди. Бундай ҳолатда аҳоли тадбиркорлигини ривожлантириш орқали уларнинг камбағаллигини қисқартириш мақсадида микромолиялаштиришдан фаол фойдаланиш лозим. Марказий Осиёда микромолиялаштиришни қўллаб-қувватлаш минтақавий дастури раҳбари Райнер Шлива микромолиялашни қашшоқликни камайтиришнинг энг ишончли ва ишончли усули деб атайди [2]. Микромолиялаштириш бутун дунё бўйлаб миллионлаб одамларга ўз бизнесини бошлаш, иқтисодий муносабатлар тизимиға қўшилиш ва оиласининг фаровонлигини оширишга ёрдам беради. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, сўнгги йилларда Бангладешнинг қишлоқ жойларида кузатилган қашшоқликни умумий қисқаришининг 40% микромолиялаштириш хизматидир [3].

Мамлакатимизда микромолиялаштириш билан асосан АТБ “Микрокредитбанк”, микромолия ташкилотлари ва ломбардлар шуғулланади. АТБ “Микрокредитбанк” билан бирга АТБ “Агробанк” ва АТ Халқ банки давлат дастурлари асосида аҳолига тадбиркорлик билан шуғулланиши учун имтиёзли кредитлар бермоқда. Шунингдек, барча турдаги тижорат банклари ҳам аҳоли ва тадбиркорларга микрокредит ва микроқарзлар тақдим қилмоқда, аммо уларнинг фоиз ставкаси бозордаги талаб ва таклифга асосан белгиланади.

Аҳолига микромолиялаштириш хизматлари кўрсатадиган микромолия ташкилотлари фаолиятининг таҳлили қўрсатдики, 2023 йил 1 январь ҳолатига уларнинг сони 85 та бўлиб, ўтган йилга нисбатан 15 тага кўпайган. Таҳлил қилинган даврда активлари ҳажми 56,9 фоизга кўпайган, уларнинг 88,6 фоизи кредитлар ва микролизингдан иборат бўлган. Мажбуриятлари ҳажми эса ушбу даврда 60,8 фоизга кўпайган бўлиб, унинг 95,9 фоизи олинган кредитлар ва лизинглардан ташкил топган. Бу микромолия ташкилотлар фаолиятини асосан ушбу манба ҳисобидан амалга оширишини кўрсатади. Мазкур ҳолат микромолиялаштириш секторининг асосий муаммоси ҳам ҳисобланади. Бунга сабаб мамлакатимиз қонунчилигига кўра микромолия ташкилотлари депозитлар жалб қилиш хуқуқига эмас. Бу эса, уларга фаолиятларини кескин ошириш имкониятини бермайди.

Таҳлил даврида микромолия ташкилотлари жами капитали 53,5 фоизга ошган бўлиб, унинг таркибида тақсимланмаган фойданинг улуши 42,1 фоизга етган ва бу уларнинг самарали фаолият кўрсатаётганини англаатади.

1-жадвал

Микромолия ташкилотларининг асосий кўрсаткичлари

| Кўрсаткичлар номи | 01.01.2022 | | 01.01.2023 | | Ўзгириш, фоизда |
|--|------------------|---------------|------------------|---------------|-----------------|
| | млн. сўм | улуши, фоизда | млн. сўм | улуши, фоизда | |
| Активлар | | | | | |
| Кассадаги нақд пул ва бошқа тўлов ҳужжатлари | 12 164 | 1,0 | 23 551 | 1,2 | 93,6 |
| Банклардаги маблағлар | 29 275 | 2,3 | 62 208 | 3,1 | 112,5 |
| Кредитлар ва микролизинг, (соф) | 1 123 898 | 88,3 | 1 768 494 | 88,6 | 57,4 |
| Асосий воситалар, (соф) | 37 530 | 2,9 | 48 182 | 2,4 | 28,4 |
| Ҳисобланган фоизлар | 41 479 | 3,3 | 57 851 | 2,9 | 39,5 |
| Бошқа активлар | 28 044 | 2,2 | 35 480 | 1,8 | 26,5 |
| Жами активлар | 1 272 391 | 100,0 | 1 995 766 | 100,0 | 56,9 |
| Мажбуриятлар | | | | | |
| Тўланиши лозим бўлган кредитлар (қарзлар) ва лизинглар | 555 530 | 94,8 | 903 163 | 95,9 | 62,6 |
| Тўланиши лозим булган ҳисобланган фоизлар | 13 165 | 2,2 | 16 409 | 1,7 | 24,6 |
| Тўланиши лозим булган ҳисобланган солиқлар | 4 491 | 0,8 | 5 002 | 0,5 | 11,4 |
| Бошқа мажбуриятлар | 12 823 | 2,2 | 17 547 | 1,9 | 36,8 |
| Жами мажбуриятлар | 586 009 | 100,0 | 942 121 | 100,0 | 60,8 |
| Капитал | | | | | |
| Устав капитали | 377 095 | 54,9 | 564 293 | 53,6 | 49,6 |
| Захира капитали | 31 573 | 4,6 | 45 846 | 4,4 | 45,2 |
| Тақсимланмаган фойда | 277 715 | 40,5 | 443 505 | 42,1 | 59,7 |
| Жами капитал | 686 383 | 100,0 | 1 053 645 | 100,0 | 53,5 |

Манба: Ўзбекистон Республикаси Марказий банк маълумотлари,
<https://cbu.uz/oz/statistics/credit/838295/>

Мамлакатимизда микромолия ташкилотлари ривожланишига қарамасдан, уларнинг имкониятлари аҳоли ва тадбиркорларни молиявий маблағларга бўлган талабини қондиришга етарли эмас. Агар мамлакатимизда микромолия ташкилотларининг кредитлар ва лизинглар соф қолдиги 1 768 494 млн. сўм бўлган ҳолда камбағал аҳолининг сони 4 миллион бўлса, ҳар бир камбағал одамга 442 минг сўмдан кредит ва лизинг суммаси тўғри келади. Бу аҳолини тадбиркорлик билан шуғулланши учун уларнинг талабини қондиришда микромолия ташкилотлари салоҳияти етарли эмаслигини кўрсатади. Ушбу талабни қондириш учун мамлакатимизда микромолиялаштиришни ривожлантиришнинг ички имкониятлари ва заҳираларини топиш ҳамда улардан фойдаланиш лозим. Шуларнинг муҳим ва аҳамиятлисидан бири исломий молиялаштириш ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 20 апрелдаги “Нобанк кредит ташкилотлари ва микромолиялаштириш фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-765-сонли қонун қабул қилинган бўлиб, унинг 4-моддасига кўра, мамлакатимизда микромолия ташкилотларига исломий молиялаштириш хизматларини кўрсатишга рухsat берилган. Шунингдек, “исломий молиялаштиришга оид хизматлар деганда исломий молиялаштиришни амалга ошириш стандартларини белгиловчи халқаро ташкилотларнинг қоидаларига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Марказий банки томонидан ишлаб чиқилган тартибда кўрсатиладиган молиявий хизматлар тушунилади” [4] дейилган. Аммо ушбу қонун қабул қилинганига бир йилдан ошганига қарамасдан, мамлакатимизда бирорта исломий микромолия ташкилоти ташкил этилмади ёки микромолия ташкилоти исломий молиялаштириш хизматини кўрсатмаяпти. Бунга сабаб ҳалигача исломий микромолия ташкилотлари ташкил этиш ва исломий молия хизматларини кўрсатишнинг қонун ости меъёрий хужжатлари яратилмаган. Ваҳоланки, мамлакатимизда исломий молиялаштириш хизматларига талаб каттадир. Энг муҳими, исломий молиялаштиришни тадбиркорлик молиявий қўллаб-қувватлаб, аҳолини камбағалликдан чиқаришга хизмат қиладиган муҳим воситалари мавжуд. Масалан, буендай воситалардан бири қарзи ҳасан бўлиб, бунда қарз берувчи қарздордан қарзидан ортифини талаб қилмайди ва қарзни маълум муддатга беради. Ислом молиясининг ушбу воситаси ишсиз ва камбағал одамларни тадбиркорлик билан шуғулланишларини қулай молиялаштириш усули ҳисобланади.

Мамлакатимизда исломий микромолия ташкилотлари ташкил этиб, улар аҳоли тадбиркорлигини молиялаштиришда ижара, музораба, муробаха каби воситаларни фаол жорий қилишлари мақсадга мувофиқдир. Натижада аҳоли тадбиркорлиги ривожланиб, уларнинг камбағаллик даражаси қисқаради. Чунки исломий молиялаштириш шерикчиликка асосланган бўлиб, рисклар микромолия ташкилоти билан тадбиркорлар ўртасида тақсимланади.

Мамлакатимизда аҳоли тадбиркорлигини ривожлантириш ва камбағаллик даражасини қисқартиришда микромолиялаштиришдаги яна бир муҳим имконият ва катта заҳира бўлиб кредит уюшмаларини ташкил этиш ҳисобланади. Чунки кредит уюшмалари депозит олиш хуқуқи борлиги ва унинг хизматидан фойдаланувчилар бадал тўлаган ҳолда унга аъзо бўлишлари лозимлиги сабабли жуда тез ривожланиш имкониятига эга. Энг муҳими, республикамида кредит уюшмаларини ташкил этиш бўйича тажриба ва бекор бўлган бўлса ҳам меъёрий-хуқуқий асос мавжуд.

Хулоса қилиб айтганда, микромолиялаштириш камбағалликни қисқартиришда муҳим восита ҳисобланади. Мамлакатимизда микромолия ташкилотлари ривожланаётган бўлса ҳам уларнинг салоҳияти аҳоли тадбиркорлигини ривожлантириш учун молиявий маблағларга бўлган талабни қондира олмайди. Аммо республикамида микромолиялаштиришни ривожлантиришнинг имкониятлари ва заҳиралари мавжуд. Булар исломий молиялаштиришни жорий қилиш ва кредит уюшмаларини қайта ташкил этиш ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга мурожаатномаси.
<https://uga.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. Микрокредитование как способ сокращения бедности в Кыргызстане.
https://bank.uz/news/text64027_mikrokreditovanie_kak_sposob_sokrashcheniya_bednosti_v_kyrgyzstane
3. Микрофинансирование – средство борьбы с бедностью и резерв экономического роста.
<https://bujet.ru/article/18969.php>
4. Ўзбекистон Республикасининг “Нобанк кредит ташкилотлари ва микромолиялашириш фаолияти тўғрисида”ги қонуни, 2022 йил 20 апрель, ЎРҚ-765-сон. <https://lex.uz/uz/docs/5972411>
5. Khamdamov, Shoh-Jakhon, et al. "ECONOMETRIC MODELING OF CENTRAL BANK REFINANCING RATE IN UZBEKISTAN." *Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems.* 2022.

АНАЛИЗ ПРИТОКОВ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В УЗБЕКИСТАН

Абдуразакова Н.Р. – самостоятельный соискатель, Ташкентский экономический педагогический институт

Прямые иностранные инвестиции (ПИИ) играют решающую роль в росте и развитии экономики страны. ПИИ относятся к инвестициям, сделанным иностранной компанией в бизнес или экономику принимающей страны либо путем создания новых операций, либо расширения существующих.

Если речь идет о прямых иностранных инвестициях и экспорте, это было бы хорошо. В опыте Bell, G. и Berg, B. L. & Howard, L. были выявлены более значительные притоки инвестиций в страны, где рынок более открыт из-за необходимости строгих налоговых барьеров, тарифов или экспортных монополий [1].

Более того, увеличение роста деловой среды - это еще одно ожидание от роста международной торговли, что, в свою очередь, приводит к увеличению иностранных инвестиций в принимающие страны. Уровень предложения показывает экономическую устойчивость, повышенную чувствительность и способность правительства и центральных банков сбалансировать государственный бюджет.

Под инвестициями понимаются финансовые средства, предназначенные для будущего результата: расширение или обновление производства, повышение качества продукции и услуг, подготовка квалифицированных специалистов и проведение научных исследований [2].

Инвестиция – это вложения в финансовый (денежный) или реальный капитал. Он осуществляется в виде денежных средств, кредита, ценных бумаг и вкладывается в движимое и недвижимое имущество, объекты интеллектуальной собственности, права на получение льгот и другие ценности, то есть используется для всех активов предприятия [3].

ПИИ обычно приводят к положительным результатам для принимающих стран, эти выгоды не гарантированы и зависят от различных факторов, таких как институциональное качество принимающей страны и экономическая политика [4].

ПИИ могут способствовать росту, включая накопление капитала, повышение производительности и распространение технологий. Они также рассматривают эмпирическую литературу по этой теме, которая показывает неоднозначные результаты. Авторы утверждают, что одних ПИИ недостаточно для стимулирования

экономического роста; скорее, влияние ПИИ зависит от политики, институтов и других контекстуальных факторов принимающей страны [5].

Привлечение прямых иностранных инвестиций (ПИИ) может принести Узбекистану ряд преимуществ, таких как:

Экономический рост: ПИИ могут способствовать ускорению экономического роста за счет увеличения притока капитала, создания рабочих мест и стимулирования конкуренции на рынке. Это может привести к повышению производительности, улучшению передачи технологий и созданию новых отраслей.

Передача технологий: ПИИ могут принести в Узбекистан передовые технологии иправленческий опыт, что может повысить качество и эффективность местной промышленности. Это может повысить конкурентоспособность экономики Узбекистана на мировом рынке.

Диверсификация: ПИИ могут помочь диверсифицировать экономику Узбекистана за счет привлечения инвестиций в новые и развивающиеся отрасли. Это может снизить зависимость от традиционных отраслей и создать новые возможности для роста и развития.

Развитие инфраструктуры: ПИИ могут помочь в финансировании инфраструктурных проектов, таких как транспортные сети и системы связи, которые могут улучшить связь и способствовать экономическому развитию.

Иностранный капитал: ПИИ могут увеличить приток иностранной валюты в Узбекистан, что может увеличить валютные резервы и снизить риск кризиса платежного баланса.

В 2020 и последующих годах будет продолжена работа по активному привлечению прямых иностранных инвестиций, диверсификации их направлений для реализации проектов в приоритетных направлениях таких, как электроэнергетика, химическая отрасль, производство электротехнической продукции, ИТ-технологии, легкая промышленность, сельское хозяйство и производство строительных материалов. Акцент сохранится на увеличении количества производств по глубокой переработке сырьевых материалов с созданием цепочек высокой добавленной стоимости.

Согласно Инвестиционной программе, утвержденной Постановлением Президента Республики Узбекистан от 9 января 2020 года № ПП-4563 в 2020 году за счет всех источников финансирования освоено инвестиций в основной капитал в объеме 233,2 трлн. сум, из них прямые иностранные – 7,1 млрд. долл., иностранные инвестиции и кредиты под государственную гарантию – 2,7 млрд. долл. [6]

Привлечение прямых иностранных инвестиций в страну в некоторой степени было нивелировано депатриацией части инвестиций, осуществленных в рамках соглашений о разделе продукции (СРП). На фоне кризисных явлений в глобальной экономике чистые иностранные инвестиции в капитал сократились в 2 раза, тогда объемы реинвестирования доходов иностранными инвесторами остались практически на уровне показателя I полугодия 2019 года.

В структуре обязательств по прямым инвестициям наблюдался рост (в 1,5 раза) по долговым инструментам. Так, в период пандемии коронавируса финансовая поддержка в виде займов от материнских компаний составила 96 млн. долл. Вместе с тем, за счет сокращения объемов добычи природного газа из-за падения спроса со стороны Китая чистые выплаты в рамках СРП составили чуть менее 100 млн. долл.

Незначительное чистое увеличение обязательств по портфельным инвестициям, в основном, обусловлено вливаниями в банковский и нефинансовый сектора экономики, а также корректировками на сумму купонных выплат по международным облигациям Республики Узбекистан и евробондам банковского сектора, выпущенных

годом ранее. В результате по итогам I полугодия 2020 года сальдо операций по портфельным инвестициям сложилось отрицательным в размере 13 млн. долл. [6].

Налоговое бремя также имеет статистическое значение для притока прямых иностранных инвестиций в азиатские страны. Это означает, что если налоговое бремя страны увеличивается, уровень прямых иностранных инвестиций также увеличивается. В настоящее время страны соревнуются за привлечение инвесторов. Правительства внедрили несколько инструментов политики, чтобы инвестировать в свои страны как можно больше. Основная цель этих конкретных мер - иностранные инвесторы, потому что приток ПИИ в принимающую страну эмпирически доказал, что их экономические показатели имеют положительные последствия. Конечно, сложно стимулировать иностранных инвесторов вкладывать средства в принимающей стране. Эти инвесторы решают, вкладывать ли они что-либо, включая налоговую ставку принимающей страны. Хотя роль налога остается предметом споров среди ученых, эта налоговая система по-прежнему играет ключевую роль в привлечении иностранных инвесторов.

Список литературы:

1. Bell, G., 2013. *Teamwork makes the team work: An interview with Dr Meredith Belbin.. Human Resource Management International Digest*, 21(2), pp. 45-47.
2. Тожибоев Д. Иқтисодий назария (иккинчи китоб)-Т.: Шарқ. 2003. 79 бет
3. Абдукаримов ва бошқалар. Кархона иқтисодиёти. (дарслик) Т.: Фан, 2005. 241 б.
4. Alfaro, L. (2017). *Gains from Foreign Direct Investment: Macro and Micro Approaches*. World Bank Economic Review, 30(Suppl 1), S2-S15
5. Carkovic, M., & Levine, R. (2005). Does Foreign Direct Investment Accelerate Economic Growth? In T. H. Moran, E. M. Graham, & M. Blomström (Eds.), *Does Foreign Direct Investment Promote Development?* (pp. 195-220). Washington, DC: Institute for International Economics.
6. www.stat.uz

РЕСПУБЛИКАМИЗДА МОЛИЯ БОЗОРИ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙУНАЛИШЛАРИ

Султанов Махмуд Ахмедович -
Тошкент давлат иқтисодиёт университети,
«Молия ва бухгалтерия ҳисоби» кафедраси
доценти, PhD.

Молиявий инфратузилма - бу молия бозорини қўллаб-қувватловчи муассаса ва ташкилотлар мажмуасидан иборадир. Молиявий инфратузилма нафақат молия бозори, балки хукумат органларидан ташқари, инфратузилмага кирган барча муассаса ва ташкилотларга пуллик хизматларини қўрсатиб, ўз бизнесини ривожлантиришга имконият яратади. Инфратузилмага кирадиган ҳар бир ташкилот ўз инвесторлари олдида мулкий жавобгарликни ўз зиммасига олади.

Мамлакат иқтисодиёти ривожланишининг замонавий ҳолати, молия бозорининг етарли даражада тизимлаштирилмаганлиги, уни қўллаб-қувватловчи инфратузилма фаолиятидаги муаммолар туфайли эканлигини Президентимиз Ш.М. Мирзиёев ҳам “Бугунги кунда бу соҳа 100га яқин норматив ҳужжатлар билан тартибга солиниб, қўплаб чекловлар ўрнатилган. Масалан, ривожланган давлатларда банклар фонд бозорининг фаол иштирокчиси ҳисобланади, юртимизда банкларга бошқа субъектларнинг акцияларини харид қилиш тақиқланган. Фуқароларнинг давлат облигацияларини сотиб олиши ва сотишида ҳам чекловлар бор”лигини - таъкилаб ўтган эди[1].

Фикримизча, молия бозорининг таркибий қисми сифатида қимматли қоғозлар билан боғлиқ инфратузилма қуидаги таркибдан иборат бўлиши керак: Қимматли қоғозлар бозорини тартибга солиш бўйича давлат органи; инвестиция фонди ва бошқарув компанияси; фонд биржаси; фонд биржасининг профессионал воситачилари (брокерлар, дилерлар); депозитарий; реестр сақловчи; ҳисоб-китоб - клиринг палатаси; трансфер-агент; қимматли қоғозларнинг биржадан ташқари савдоси ташкилотчиси; аудитор; банклар.

Қимматли қоғозлар бозорини тартибга солувчи давлат органи мутлақо мустақил бўлиши ва хукумат томонидан доимо қўллаб-қувватланиши керак. Жаҳон тажрибасида бундай органлар қаторига АҚШда қимматли қоғозлар ва биржа комиссияси, Европа Иттифоқида - Европа ҳамкорлик комиссияси, Россияда - 2013 йил 1 сентябрдан Россия Федацияси Марказий банки (авваллари Молия бозори бўйича Федерал хизмати) ва бошқалар кириб, улар хукуматга бўйсуниши ва умуман иқтисодиётнинг ҳолати ҳақида ҳисобот берадилар. 2021 йилдан бошлаб Республикаизда бундай регулятор, Молия вазирлигининг марказий аппарати тузилмасида Капитал бозорини ривожлантириш департаменти сифатида ташкил этилиб, унга қуидаги вазифалар юклатилган:

- қимматли қоғозлар бозорини шакллантириш, ривожлантириш, тартибга солиш, назорат қилиш ва корпоратив бошқарув соҳасида ягона давлат сиёсатини амалга ошириш;

- қимматли қоғозлар амалиёти билан шуғулланувчи инвесторлар ҳамда қимматли қоғозлар эгаларининг хуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишини таъминлаш;

- қимматли қоғозлар бозори, акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг хуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя қилинишини назорат қилиш;

- маҳаллий капитал бозорининг ривожланиш ҳолати ва унинг профессионал қатнашчилари тўғрисида инвесторлар ва жамоатчиликни хабардор қилиш ва бошқалар[3].

Инвестиция фонди ва бошқарув компанияси. Унинг фаолияти инвестиция фонdlарининг функциялари билан тўлиқ боғлиқдир. Бу ўз навбатида диверсификацияланган инвестицион портфелни шакллантириш учун акциядорларнинг маблағларини қимматли қоғозлар (акциядорлик жамиятлари ёки компанияларнинг акциялари, облигациялар, векселлар, опционлар, сертификатлар ва бошқалар), банк депозитларига инвестиция қилиш, кўчмас мулк, антиквар буюмлар, қимматбаҳо металлар ва бошқа фойда олиш мумкин бўлган қийматликларга йўналтириш учун бирлаштиради. Республикаизда 2001 йилда шаклланган 80 та хусусийлаштириш инвестиция фондини бошқарган 23 та бошқарув компаниясидан бугунги кунда 9 таси тўлақонли фаолият юритмоқда: улар қаторида «Даромад Плюс» АЖ ИФини инвестиция активларини ишончли бошқарувчиси сифатида «Кафолат Инвест» ҳамда «Камалак» АЖ ИФини «Сарбон Инвест» бошқаради.

Фонд биржаси – қимматли қоғозлар бозорининг мунтазам ишлашини таъминловчи молия муассасасидир. Бозор иқтисодиётiga асосланган дунёning ҳар бир мамлакатида миллий фонд биржаси мавжуд. Бу ташкиллаштирилган бозор қимматли қоғозлар савдоси: қимматли қоғозлар, облигациялар ва бошқа молиявий воситалар учун ташкил этилган. АҚШнинг энг йирик фонд биржалари: НАСДАҚ, Америка фонд биржаси (AMEX) ва Нью-Йорк фонд биржаси (NYSE) - бу биржа бугунги кунда жаҳон фонд бозоридаги етакчи. Буюк Британияда 22 та фонд биржаси мавжуд бўлиб, уларнинг энг каттаси Бирмингем, Глазго, Ливерпул ва Лондон шаҳарларида жойлашган. Республикаизда «Тошкент» Республика фонд биржаси (РФБ), Вазирлар маҳкамасининг 1994 йил 26 январдаги 36-сонли Қарори билан 1994 йил 8 апрелда ташкил этилган. Биржа фаолияти республикада амалга оширилаётган ислоҳотлар ва

хусусийлаштирилган давлат корхоналари негизида очиқ акциядорлик жамиятларини ташкил этиш сиёсати билан чамбарчас боғлиқ. «Тошкент» РРБнинг мақсади ва вазифаси белгиланган тартибда очиқ ва маълум бир вақтда қимматли қоғозларнинг эркин муомаласи, савдосини ташкил этиш ва ўтказиш йўли билан товарларни сотиш учун зарур шарт-шароитларни яратиш, шунингдек, талаб ва таклиф асосида қимматли қоғозлар нархини шакллантириш орқали қимматли қоғозлар ва улар тўғрисидаги ахборотни ошкор қилиш ва таклиф этишдан иборат.

Қимматли қоғозлар бозорининг инвестицион воситачилари Улар, хусусан, мижозлар ҳисобидан шартномалар тузиш орқали воситачилик хизматларини кўрсатувчи брокерлар, ўз маблағлари ҳисобидан қимматли қоғозларни олиб, қайта сотадиган дилерлар шунингдек консалтинг хизматлари кўрсатувчилар бўлиши мумкин. Профессионал воситачилар қимматли қоғозлар бозорида фақат тегишли лицензия берилганидан кейин ишлашлари шарт. Уларнинг фаолияти фонд бозори ривожланишида муҳим ўринга эга. Ўзбекистон фонд биржасида «мижознинг топшириғига биноан, мижоз номидан ва унинг ҳисобидан қимматли қоғозларга доир битимлар ҳамда операцияларни амалга оширувчи қимматли қоғозлар бозорининг професионал иштирокчиси инвестиция воситасидир»[2] - дейилган.

Депозитария фаолияти. Қимматли қоғозлар депозитарийда ҳисобга олинади ва улар учун депо-ҳисоб рақамлари юритилади. Жаҳон банки иқтисодий ривожланиш институти мутахассислар фикрича: «депозитарий -қимматли қоғозлар бўйича ҳисоб китобини юритувчи, қимматли қоғозлар билан боғлиқ хизматлар ва фоизлар ундирувчи, шунингдек, уларни сақловчи ташкилотдир»[4]. Жаҳон тажрибасига кўра депозитарийларга нисбатан қатъий талаблар белгиланган. инвестиция фонdlари бўйича Европа Иттифоқи кенгашининг директивасига кўра, депозитарийларнинг энг кам капитал талаблари Европа Иттифоқи давлатларининг ички қонунчилиги билан белгиланади. Европа Иттифоқи Комиссиясининг маълумотларига кўра, Европа Иттифоқидаги мамлакатларда турли хил депозитариялар бўйича минимал талаблар миқдори 113 мингдан 100 миллион еврогача, шу жумладан кредит ташкилотлари учун 5 миллиондан 100 миллион еврони ташкил этади[5].

“Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси” давлат корхонаси – Ўзбекистон Республикаси депозитарлик тизимида депо ҳисобварақлари бўйича эмиссиявий қимматли қоғозларни сақлаш, қимматли қоғозларга бўлган хукуқларни ҳисобини юритиш ва эмиссиявий қимматли қоғозлар ҳаракатининг ягона тизимини таъминлайди. Қимматли қоғозлар марказий депозитарийси мижозларга кенг миқёсдаги депозитарлик ва консультатив хизматларни кўрсатиш билан бир қаторда, шаффофлик тамойилларига асосланган ҳолда иш олиб боради. 2023 йил май ойига келиб, қимматли қоғозларнинг чиқарилиши бўйича молия секторининг улуши 64 256,1 млрд. сўм ёки 35,9 %ни ташкил этади[6].

Биржадан ташқари савдоси ташкилотчиси. Инвесторларга воситачиларни жалб этмай туриб савдода иштирок этиш имкониятини берувчи, қимматли қоғозлар савдосини ташкил этиш бўйича фаолиятни буюртмалар қабул қилиш пунктларидан, маҳсус компьютер савдо тизимларидан фойдаланган ҳолда амалга оширувчи юридик шахс қимматли қоғозларнинг биржадан ташқари савдоси ташкилотчисидир. Ўзбекистон Республикасида «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги конун ва соҳага оид бошқа меъёрий – хукуқий хужжатларига мувофиқ уюшган биржадан ташқари бозорда акциялар, корпоратив облигациялар ва қимматли қоғозларнинг хосилалари (кейинги ўринда-қимматли қоғозлар) олди-сотти битимларини амалга ошириш тартибини белгилайди. Республикаизда «ELSI-SAVDO» АЖ ўз уставини 1998 йил 30 августда Ўзбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 1141-сон билан рўйхатдан ўтказиб, у «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги конунга мувофиқ ўз фаолиятини Қимматли қоғозлар бозорини мувофиқлаштириш ва ривожлантириш

маркази томонидан 2014 йил 17 октябрдаги 1113-сонли лицензияси асосида биржадан ташқари савдони ташкилотчиси сифатида юритмоқда.

Рўйхатга олувчи (реестр сақловчи) жаҳон амалиётида бу-акциядорлик жамиятлари ва инвестиция фондилари акцияларининг эгалари рўйхатини юритиш, реестрда ҳисоб рақамларини очиш, ҳисобваракларга ўзгартиришлар киритиш орқали қимматли қоғозлар бозорида профессионал иштирокчи сифатида лицензияланган юридик шахсдир. Ўзбекистон амалиётида бу фаолият тури депозитарийга қўшиб юборилган.

Аудитор - аудиторлик компаниясида ишлайдиган, ўз навбатида, аудиторлик хизматлари кўрсатиш учун лицензияга эга бўл иши керак бўлган шахс. Аудитор инвестиция фонди йиллик ҳисботнинг тўғрилигини текширади. Йиллик ҳисботнинг тўғрилиги бухгалтерия ҳисобини юритиш ва инвестиция фонди маблағлари хавфизлигини таъминлашни тартибга солувчи қоидаларга мувофиқ бухгалтерия бўлинмаси фаолиятининг натижасидир. Инвесторлар учун аниқ даромад миқдори, уларнинг аксарияти дивидендлар тўлашга йўналтирилиши сабабли маълумотга эга бўлиш жуда муҳимдир. Маҳаллий аудиторлик компаниялари ва фирмалари фаолияти халқаро стандартларга яқин аудит хизматларини тақдим этади, шу сабабли, қимматли қоғозлар бозоридаги бошқа иштирокчиларга қараганда камроқ муаммоларга дуч келиши мумкин.

Банклар. инвестиция фондлари га хизмат кўрсатувчи банклар, банк лицензияси асосида нақд пул маблағларини сақлаш ва банк хизматларини тақдим этишади. Бундай ҳолатда, қимматли қоғозлар бозорида воситачилик хизматларини инвестиция фондлари га тақдим этишлари мумкин, бу ўз-ўзидан банк ва бошқарув компаниялари ўртасидаги самарали ҳамкорликни мустаҳкамлади. Шунингдек, банклар нақд пул маблағлари билан боғлиқ бўлган дивидендлар беришни ташкил этиш бўйича хизматлар кўрсатишлари ҳам мумкин.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш мумкинки, жаҳон мамлакатлари бўйича молия бозори инфратузилмасининг мукаммалашуви юзасидан муҳим икки қонуният кузатилади: биринчидан, мамлакат қанчалик бой ва унинг ривожланиш даражаси нечоғли юқори ва ўсиш суръатлари барқарор бўлса, унда молия бозори инфратузилмасининг ривожланиши учун зарур имкониятлар мавжуд; иккинчидан, молия бозори ривожланишига оид тарихий тажриба қанчалик катта бўлмасин, давлат томонидан яратилаётган шароит ва дастаклар юксалишнинг белгиловчи омили сифатида изоҳланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Ортиқча чекловларни бекор қилиш зарурлиги таъкидланди. *kip.uz*. 2019 йил 7 октябрь .
2. Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-387 сонли «Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида»ги Қонуни. 2015 йил 15 июнь, 26 – модда.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-5073-сон “Капитал бозорини тартибга солиш тизимини янада тақомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори. 2021 йил 13 апрель.
4. The International Bank for Reconstruction end Development / THE WORLD BANK All rights reserved Manufactured in the United States of America First printing, November, 1992, REVISED, november, 1993.
- 5.Абрамов А. Е., *Инвестиционные фонды: Доходность и риски, стратегии управления портфелем, объекты инвестирования в России*. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. С. 123.
6. deponet.uz/sites/

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЕВРООБЛИГАЦИЙ ДЛЯ УЧАСТИЯ В МЕЖДУНАРОДНОМ РЫНКЕ КАПИТАЛА

Хамдамов Шавкат Комилович -
заведующий кафедрой «Общих экономических наук»
Ташкентского Финансового института,
кандидат экономических наук, доцент
Ахмедова Шохистахон Аслиддиновна -
студентка бакалавриата
Ташкентского Финансового института

Международные облигации считаются одним из инструментов международного кредитного рынка. В свою очередь, международный кредитный рынок является частью международного финансового рынка. Основное отличие международного кредитного рынка от национального или государственного заключается в том, что сделки с ценными бумагами происходят с инвесторами-резидентами и эмитентами-нерезидентами, которые осуществляют свою деятельность на основе международного права. Сходство международного фондового рынка с государственным в том, что здесь также происходит перемещение капитала между несколькими странами. Следовательно, ценные бумаги, обращающиеся на территории только одной страны, выходящие за ее пределы, теперь именуются евроценными бумагами. Следует учитывать, что приставка «евро» не означает, что данный финансовый инструмент принадлежит только европейским странам, хотя раньше так и было. Теперь это признак того, что на эту ценную бумагу могут быть права собственности абсолютно разных субъектов из разных уголков мира.

Далее этот термин уже стал официальным определением, которое впервые было упомянуто в Директиве Комиссии Европейских Сообществ после первых выпусков еврооблигаций 17 марта 1989 г. № 89/298/EЭС. В этой Директиве изложены основные правила выпуска и обращения еврооблигаций среди стран-инвесторов и стран-эмитентов. Интерпретируя определение еврооблигаций в соответствии с настоящей Директивой, видно, что финансовые инструменты могут быть проданы всем инвесторам, независимо от страны их происхождения, отличной от страны регистрации эмитента. Еще одним важным моментом является то, что приобрести еврооблигации можно только через профессиональных участников, таких как международные кредитные организации или синдикат международных институтов.

На международном рынке облигаций обращаются следующие типы международных облигаций, показанные на рисунке 1.

Международные облигации, в частности еврооблигации как один из рычагов финансирования, являются, как правило, инструментом фондового рынка в долгосрочной перспективе, обеспечивающим меньший риск для его держателя. Если сравнивать этот инструмент, с такой ценной бумагой, как акции, то можно смело сказать, что в связи с высокими гарантиями обслуживания купонных выплат обращение облигаций требует прозрачной и рейтинговой оценки финансового состояния эмитента. И поэтому участниками рынка еврооблигаций считаются крупные успешные компании стабильных секторов экономики.

Доступ к международным долговым рынкам можно представить, как двухэтапный процесс. Первый связан с готовностью суверенов получить доступ к глобальным рынкам, а последних — предоставить средства. Второй касается цены, по которой урегулируются спрос и предложение. Если ненаблюдаемые факторы, определяющие выпуск облигаций, также влияют на спреды, стандартная линейная

модель детерминант рассматриваемых суверенных спредов будет необъективной из-за выбора выборки, учитывая, что зависимая переменная (спред на первичном рынке) наблюдается только для неслучайного подмножества наблюдений страна-год. Согласно этой процедуре на первом этапе (уравнение выбора) вероятность выпуска суверенных облигаций оценивается стандартной пробит-регрессией, а на втором этапе (уравнение результата) первичный спред является линейной функцией набора переменных и обратного коэффициента Миллса, рассчитанного на основе регрессии первого этапа, которая корректирует систематическую ошибку выборки [2].



Рисунок 1. Международные облигации

Источник: рисунок подготовлен автором с помощью экономической литературы.

Для любой страны-заемщика выход на международный финансовый рынок связан с рядом целей, которые они преследуют. Эти цели должны быть обоснованы, так как в ходе эмиссии страна столкнется с рядом нововведений, которые могут серьезно повлиять на имидж страны. Например, для многих стран становится невозможным получить хороший кредитный рейтинг, что автоматически сказывается на ликвидности евробумаг. Или для многих стран фактор открытости экономики ставит под вопрос выпуск еврооблигаций.

«Указом Президента от 26 декабря 2018 года «О прогнозе основных макроэкономических показателей и параметров Государственного бюджета Республики Узбекистан на 2019 год» Министерству финансов Республики Узбекистан поручено «в течение 2019 года выпускать и размещать государственные облигации Республики Узбекистан с фиксированной ставкой купона на сумму не менее 500 миллионов долларов США со сроком погашения 5 и более лет.

14 февраля 2019 года Узбекистан разместил дебютные два транша еврооблигаций общим объемом 1 млрд долларов США, опубликованных Лондонской фондовой биржей. Облигации были размещены двойным траншем в размере \$500 млн со сроком погашения в 2024 и 2029 годах.

Согласно постановлению, в целях эффективного использования средств, полученных от размещения еврооблигаций Республики Узбекистан, в том числе для финансирования инвестиционных проектов, имеющих важное значение для дальнейшего повышения благосостояния страны и населения, внесены предложения Министерством финансов Республики Узбекистан и Центральным банком.

Развитие финансового рынка привело к заметному увеличению его доли в национальной экономике. Теперь перед участниками финансового рынка, государственными регуляторами и научным сообществом стоит вопрос о дальнейших путях развития этого сектора экономики и повышения его эффективности.

Таблица 1
Условия размещения средств от размещения еврооблигаций Республики Узбекистан на депозиты коммерческих банков посредством аукционов [4]

| Депозит условия | Максимальная сумма депозита (в долларах США) | Минимальная годовая ставка % | Условия оплаты % | Срок возврата депозита |
|-----------------|--|------------------------------|---|------------------------|
| 5 лет старый | 459,6 | 5,25% | Каждые 6 месяцев (10 февраля – 10 августа) | 10.02.2024 |
| 10 лет старый | 429,6 | 5875% | Каждые 6 месяцев (10 февраля – 10 августа) | 10.02.2029 |
| Общий | 889,2 | - | - | - |

Из таблицы выше видно, что полученные 459,6 млн долларов США по 5-летним суверенным еврооблигациям были размещены в коммерческих банках сроком на 5 лет, то есть до 10 февраля 2024 года. В данном случае 5-летний срочный депозит в иностранной валюте размещается по минимальной годовой ставке 5,25% и представляет собой процентный доход. Также следует отметить, что ставка 5,25% установлена исходя из маржи 4,75% плюс 0,5%, по которой размещаются суверенные еврооблигации. Кроме того, проценты по этим депозитам выплачиваются коммерческими банками каждые шесть месяцев, то есть до 10 февраля 2024 года, 10 февраля и 10 августа каждого года.

Достигнув целей стать профессиональным участником международного фондового рынка, страна-эмитент сможет использовать все разнообразие инструментов международного фондового рынка, повысить инвестиционную привлекательность страны за счет публикации ее микро- и макроэкономических показателей. Кроме того, страна-эмитент может повысить уровень доверия со стороны отечественных и иностранных инвесторов. Такой результат приведет к полной прозрачности экономики для внешних пользователей, что положительно скажется на своевременном пополнении государственного бюджета за счет государственных налогов. Кроме того, статус профессионального участника мирового фондового рынка повлияет на формирование недорогого образовательного капитала для некоторых организаций, нуждающихся в финансировании. Привлечение внешнего финансирования позволит решить проблемы рефинансирования и реструктуризации долга.

Как показал анализ долговых выпусков еврооблигаций национальных эмитентов, к преимуществам участия в мировом рынке заимствований можно отнести следующее:

Выпуск еврооблигаций позволяет избежать предельных издержек операций, связанных с обязательствами, и, как следствие, финансирование государственного

бюджета является наиболее дешевым по отношению к другим формам выпуска инструментов финансового рынка.

Высокий спрос на дебютные транши еврооблигаций со стороны иностранных инвесторов объясняется тем, что наша страна длительное время проводит политику протекционизма, и выход на мировой фондовый рынок стал началом сотрудничества со многими странами. Также положительным для инвестиционной политики является тот факт, что наша страна получила кредитный рейтинг от крупных международных рейтинговых агентств, которые предварительно изучили и проанализировали финансовое состояние эмитента, а затем на постоянной основе будут контролировать деятельность в отношении их требования.

Выпуск еврооблигаций также может положительно сказаться на оттоке национальных инвестиций, если инвесторы будут заинтересованы в покупке суверенных кредитов. Этот вывод оправдывает себя, так как именно государства являются крупными заемщиками на любом финансовом рынке и, соответственно, получают наибольший объем средств внешнего финансирования.

Ссылки и библиография:

1. *Андреа Ф. Пресбите́ро, Дханешвар Гхура, Олумуива С. Адедеджи и Ламин Ндже. «Международные суверенные облигации стран с формирующимся рынком и развивающихся стран: факторы выпуска и спреды», WP/15/275, МВФ.*
2. *Итон, Дж., и Герсо́виц, М., (1980). «Участие НРС в международных финансовых рынках: долг и резервы», Journal of Development Economics, 7(1): 3-21.*
3. *Н.А.Ковалева "Менеджмент в кредитной организации", 2014 №4*
4. *В Указ Президент Республика Узбекистан: № ПД-4258 от 2 апреля 2019 года «О эффективный использование средств от размещение первого государя международные облигации Республика Узбекистан».*

III SHO'VA
INSON KAPITALINI TAKOMILLASHTIRISH VA AHOLI
TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH

**КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС КАДРЛАР - ИҚТИСОДИЁТНИНГ
БАРҚАРОР ЎСИШИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГАРОВИ**

Тоғибоева Дилором -
Тошкент молия институти профессори, и.ф.д.

Ҳозирги кунда мамлакатлар ўртасидаги иқтисодий рақобат - фан, техника ва технология соҳасидаги рақобатга айланди. Чунки, иқтисодиётнинг глобаллашуви **биринчидан**, арzon моддий ва меҳнат ресурсларидан фойдаланишнинг афзалигига асосланган рақобатни технологиянинг устулигига асосланган рақобат билан алмашишига;

Иккинчидан, ишлаб чиқаришни барқарор вертикал тарзда ташкил етишда фаол равишда мослашувчан ихтисослашувга ва кичик корхоналар занжири тарзида ташкил этилишига олиб келади.

Учинчидан, билим, кўникма ва малака тез эскириши туфайли меҳнат хизмати бозори талабларига мослашиш қийинлашмоқда, унинг асосий кўникма ва малакаларга бўлган талаб даражасидан орқада қолмоқда. Ҳаттоқи, рақамлаштиришга ихтисослашган мутахассислар ҳам муентазам равишда ўз билимларини янгилаб, компетенцияларини мустаҳкамлаб туришга мажбур. Бунинг натижасида мутахассис кадрларга бўлган талаб билан таклиф ўртасида мувозанатнинг чуқур бузилишига олиб келади [1].

Тўртинчидан, фан-техника ва ахборотдаги революция инсон ва унинг илми-маърифий потенсиалини ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг ҳал қилувчи омилига айлантириди.

Демак, рақобат интеллектуал моҳият касб етиб, таълим соҳасидаги рақобатга айланди. Бу эса рақобатбардош кадрларни тайёрлашни мамлакат учун асосий мақсадга айлантиради ва мувофиқ равишда таълим-тарбия бериш, уларни мустақил фикрлаш, таққослаш, баҳолаш, ижодкорликка йўналтиришни талаб қиласи.

Инсон иқтисодиётнинг асосий ҳаракатлантирувчи кучи, Шунинг учун ҳар қандай иқтисодий ўзгаришлар, муносабатлар жараёнининг марказида туради. Инсон иқтисодий қарорларни қабул қилувчигина эмас, балки жамиятнинг тараққиёти унинг салоҳияти ва умуминсон капитали сифатида ривожланиш даражасини белгиловчи, қабул қилган қарорларини амалга оширувчи ҳамдир.

Маълумки, мутахассис кадрлар тайёрлашда олий таълим алоҳида ўрин тутади. Бу таълим соҳасида ҳам миқдор, ҳам сифат жиҳатдан “кувиб етувчилар” гуруҳидамиз. Ривожланган мамлакатларда ўрта мактабни битирганларнинг олий таълимдаги қамрови 80-90 ва ундан ортиқ миқдорни ташкил этади. Ўзбекистонда яқингача 18-25 %ни ташкил этган. Республикаизда олий таълим даргоҳларини кўпайтириб, кундузги, кечки, сиртқи таълимни ташкил этишга эътиборни кучайтириш туфайли 2022 йили 2010 йилга нисбатан талabalар сони деярли 3 мартаға кўпайди ва олий таълим қамрови 38 фоизга етди.

Ҳозирча энг катта муаммо тайёрланган кадрларни иш билан таъминлаш, Бу муаммони ечиш ҳам ана шу кадрларимиз иш ўрнини яратиш салоҳияти, лаёқатига, билим, кўникмага эга бўлишлари орқали амалга ошириш мумкин.

Бунинг учун таълим сифатини кўтариш зарур. Қадимги машҳур юонон файласуфларидан бири Афлотун, “агар косиб ёмон уста бўлса, бундан давлат жуда

катта нарса йўқотмайди – фақат халқ ёмонроқ кийинади, холос. Лекин ёшлар тарбиячиси агарда ўз вазифаларини ёмон бажарса, у ҳолда мамлакатда нодон, жоҳил, билимсизлар ва гўллар тоифаси вужудга келади, деган экан [2].

Таълимда унинг сифатига эришиш ниҳоятда мураккаб, сабаби, жараённинг бир томонида янги билим, кўнімка ва малакаларни эгаллашга интилган талаба - иккинчи томонида фаннинг мақсад, вазифалари, мазмуни, янгиликларини уларга етказувчи профессор-ўқитувчи турадики, бу мақсадни амалга ошириш натижаси кўп жиҳатдан ҳар икки томоннинг мотивациясига, ҳамкорлигига боғлиқ. Унинг қай даражада юқорилиги таълимга қўйилган инвестицияларнинг қайтишида акс этади.

1-жадвал

Бир талабага тааллуқли таълимнинг тўлиқ циклига инвестициялар ва қўшилган қиймат қўринишида қайтиши [3]

| | Ўзбекистон | Япония | АҚШ | Корея |
|--|------------|-----------|-----------|-----------|
| Талабанинг ўқув циклига давлат инвестициялари ҳажми, АҚШ доллари | 18 909 | 182 103 | 231 263 | 30 887 |
| Ходим яратган қўшимча қийматининг миқдори, АҚШ доллари | 77 291 | 2 176 818 | 3 105 898 | 2 169 152 |
| Қайтимининг ўсиши, марта | 4 | 12 | 13 | 17 |

Жадвал маълумотларида акс этган таълимга сарфланган инвестициялар ва уларнинг қайтими кўрсатиб турибдики, бу жиҳатдан Корея энг юқори натижага - харажатларга нисбатан 17 марта кўп қайтиминга эришган. Ўзбекистон эса ривожланган мамлакатларга қараганда анча орқада эканлиги, ҳозирча қайтим атиги 4 марта кўплиги қўриниб турибди. Бундай натижа биздан олий таълим тизимидағи камчиликларни тезроқ бартараф қилишни талаб қиласди.

Иккинчидан, барча хизматлар орасида соғликни сақлаш (у ҳам инсон капиталига инвестиция) ва таълим хизматлари ўзига хос жиҳатлари билан ажralиб туради. Бу жараёнда истеъмолчининг ўзи иштирок этади. Натижада унинг сифати нафақат таълим--тарбия берувчи, балки, истеъмолчига ҳам боғлиқ бўлади.

Глобал миқёсда рақобат интеллектуал салоҳият, таълим тизимидағи рақобатга айланиши республикамизда таълим тизимини мукаммалаштириш ва такомиллаштиришга қаратилган институционал муҳит яратишга алоҳида диққат қаратилишига олиб келди.

Республикамизда таълим тизимиға қатор босимли муаммолар борки, уларни аниқлаб бартараф қилиш орқалигина қўйилган мақсадни тўла амалга ошириш мумкин. Таълим тизимидағи босимли муаммолар қўйидагилар:

- Глобал ва миллий иқтисодиёт миқёсида:**

Бир томондан, ишсизлик, уларни иш билан таъминлаш муаммоси, иккинчи томондан билимли, малакали, маҳоратли кадрлар етишмаслиги.

Рақамли иқтисод кириб келиши билан касбларга талаб ўзгармоқда. **Coursera** глобал компетенсия индекси маълумотларига кўра ҳозирга келиб, дунё аҳолисининг учдан икки қисми меҳнат хизмати бозоридаги асосий кўнімка, малакаларга бўлган талабдан орқада қолмоқда. Бу тайёрлаётган кадрларимизни ўзгаришларга тезда мослашувчан бўлишини талаб қиласди. Демак, тайёрлаётган кадрларимизни фундаментал билимга эга бўлишларини талаб қиласди.

Ҳозирда бутун дунёда, жумладан Ўзбекистонда ҳам юқори даражадаги компетентли мутахассислар етишмайди. **PricewaterhouseCoopers** ўтказган сўровномага кўра, дунё миқёсида раҳбарлар фикрича ҳозирда кўнімка ва маҳоратнинг етишмаслиги бизнес учун учта асосий хавфдан биридир. Лекин реал ҳаёт тажрибаларидан, мантиқий хулоса чиқариб ва жамиятдаги барча муносабатлар,

алоқаларнинг боғлиқлигидан келиб чиқиб, дунё миқёсида, жумладан, Ўзбекистонда ҳам, баралла айтиш мумкин - бу етишмовчилик барча соҳалар учун жиддий хавф туғдиради, айниқса, бошқариш, тартибга солишининг барча бўғинларида. Чунки, уларнинг танлови натижаси фақат ўзларига эмас, балки жамоага, қолаверса бутун жамиятга таъсир кўрсатади. Барча даражадаги ҳукуматнинг амалий фаолиятини кўплаб давлат органлари: идоралар, агентликлар, муассасалар амалга ошириши, мансабдор шахслар - қабул қилинган қонунларни бажарилишини назорат қилиш ҳуқуқига эга эканлиги алоҳида мастьулият юклайди.

• **Мезомиқёсда:**

Таълим тизимида 90-йилларнинг акс садоси, сифатида узвийликнинг бузилиши, илм-фан билан педагогик фаолиятни бир бутун ҳолда олиб боришдаги йўқотишлар;

Илмий тадқиқот, илмий педагогик меҳнатга мотивациянинг пастлиги туфайли таълим тизимининг салоҳиятли ёш кадрлар билан таъминланишининг ёмонлашиб бориши;

Таълим, фаннинг ривожланиши ва уларнинг бизнес билан ўзаро ҳамкорлиги бўйича университетларнинг учинчи авлоди (Университет - 3.0) моделига ўтишда орқада қолганимиз ва бошқаларни кўрсатиш мумкин.

• **Таълимда индивидуал миқёсдаги муаммолар:**

Интернетнинг кириб келиши билан талабалар томонидан берилган саволга жавоб, қўйилган муаммога ўқиб, ўрганиб, тажрибада синаб жавоб топиш ўрнига тайёр жавоб қидиришга вақт сарфлашнинг кучайиши;

Кредит модул тизими ҳар бир талабани ўз устида мунтазам мустақил ишлашини талаб қиласди. Кўп талабаларимиз ҳали ўз вақтларини самарали тақсимлаш, сарфлашга, бошлаган ишини қунт билан охирига етказишга ўрганишмагани;

Фан, таълим, ишлаб чиқаришнинг ҳамда, амалиёт билан узвий боғланишидаги камчиликлар талабаларнинг реал ҳаёт талабларини ҳис қилишларига тўсқинлик қиласди;

Ахборот-коммуникацион технологияларнинг ривожланиши билан талабалар орасида кўчирмакашликнинг янги турлари, қирралари намоён бўлиши ва бошқаларни кўрсатиш мумкин.

Билим олиш, малака ва маҳоратга эга бўлишда китобга тенг келадиган манба йўқ. Германия, АҚШ олимларининг олиб борган тадқиқотлари шуни кўрсатадики, хаддан ташқари интернет, компьютер билан шуғулланиш инсоннинг интеллектуал салоҳиятини оширишга эмас, аксинча пасайтиришга олиб келади.

Ўқиш инсонни ақллироқ қилишини, бошқа ҳеч қайси фаолият миянинг билиш имкониятини, қобилиятини кенгайтиришга хизмат қилмаслигини, унинг мия учун нақадар фойдали эканлигини ўтказган тадқиқотлари асосида исботлашди [4].

Интернет билан шуғулланишдаги меъёрни бузилиши ёшларни психологик қарамлигини кучайтириб, охир оқибат психологик касалликларга олиб келади. Буларни ҳисобга олган ҳолда Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 декабрда “2020-2025 йилларда китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш Миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида” 781-сон қарори қабул қилинди. Мувофиқ равишда ёшларни китоб ўқишга жалб этувчи, қизиқтирувчи турли тадбирлар ўтказилаяпти. Лекин бу борада ҳали муаммолар кўп.

Умуман олганда республикамизда таълим тизимидаги муаммоларни бартараф қилиш учун институционал мұхит - ҳуқуқий асос яратилди, улар такомиллаштирилмоқда. Қатор чора-тадбирлар амалга оширилди ва навбати билан бартараф қилишга диққат қаратилмоқда.

Образование и здравоохранение являются базовыми направлениями, формирующими человеческий капитал государств, что в современной экономике превращает интеллект, опыт, способность к эффективному созидательному труду в решающий фактор прогресса.

В современном мире высокий уровень человеческого капитала обеспечивает успешное осуществление институциональных реформ, трансформации государства, технологического обновления производства, рыночных преобразований [5].

Высокий уровень и качество человеческого капитала страны обеспечивают ее выход на стабильный рост ВВП и повышение качества жизни граждан.

В Узбекистане большую часть населения составляет молодежь. Поэтому, инвестируя в образование и здоровье населения, государство вносит вклад в будущее страны.

Президент страны в своих выступлениях выражает твердую уверенность в том, что вместе с образованной, обладающей мощным созидательным потенциалом молодежью будет построен Новый Узбекистан.

Список использованной литературы:

1. Нуреев, Р. М. (2012). Проблемы развития человеческого капитала. *Journal of institutional studies* (Журнал институциональных исследований), 4(1), 4-8.
2. Давлятова, Г. М. (2016). Методические подходы к определению эффективности использования научно-технических новшеств в производстве. Журнал научных и прикладных исследований, (5-2), 21-25.
3. Усманова, З. М. (2021). К вопросам совершенствования подходов и механизмов управления персоналом на предприятиях лёгкой промышленности. In Современная наука. XXI век: научный, культурный, ИТ контекст (pp. 268-271).
4. Jalilov, I. (2019). To the problems of innovation into the educational process. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(3), 344-347.
5. Jalilov, I. I. U. (2022). К актуальным проблемам становления педагогического мастерства преподавателя. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(9), 81-89.

ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРИ

**Г.П.Эркаева - и.ф.д., доц.,
Қарши Давлат Университети**

Жаҳон иқтисодиёти ривожланиш тенденциясининг қўрсатишича, тараққиётнинг муҳим омилларидан бири сифатида билим, маҳорат, малака, таълимни давом эттиришга бўлган қобилият ва эҳтиёж алоҳида аҳамият касб этмоқда. Халқаро рейтинг агентликларининг маълумотига кўра, 2035 йилгача бўлган даврда замонавий глобал меҳнат бозори автоматлаштириш ва мақбуллаштиришдан иборат бўлиб, ишчи кучининг бўшаб қолишига олиб келади. 2025 йилга келиб роботлаштиришни кучайиши билан боғлиқ иш жойларининг қискариши 10-30 фоизни ташкил этади. Бу эса, ўз навбатида, инсон капиталини ривожлантириш иқтисодий тараққиётнинг асосий омили сифатида юзага чикиши шарт эканлигини қўрсатмокда. Иқтисодиёти ривожланган мамлакатларда миллий бойлиқдаги инсон капитали улуши 80 фоизгачани ташкил этади. Шу жиҳатдан, жаҳоннинг тараққий этган мамлакатларида инсон капиталини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда

Инсон капиталининг шаклланиши ва ривожланиши доимий, узлуксиз, узоқ муддатли жараёндир. Инсон капиталини шакллантириш ва ривожлантириш мамлакатнинг узоқ муддатли иқтисодий ўсиши учун муҳим аҳамиятга эга бўлиб, янги инновацион технологиялар билан бир хил ёки ундан ҳам кўпроқ фойда келтиради.

Инсон капиталининг шаклланиши ва ривожланиши билан боғлиқ бўлган ижтимоий-демографик, институционал, интеграция, ижтимоий-рухий, экологик, иқтисодий, ишлаб чиқариш, демографик, ижтимоий-иктисодий омиллар мавжуд. Шу сабабли, инсон капитали миллий, минтақавий, тармоқ даражасида, шунингдек, корхона ва шахс даражасида таҳлил қилиниши зарур. Бунда инсон капиталини шакллантириш ва ривожлантириш бўйича дунё тажрибасини ўрганиш асосида таҳлил этиш бугунги диққатга сазовор. Дунёнинг барча мамлакатларида инсон капиталини шакллантиришда энг асосий эътибор таълим тизимига қаратилади. Инсон капиталининг аҳамияти турли хил ёндашувлар асосида баҳоланади. Иқтисодий нуқтайи назардан эса бу таълим олган кишиларнинг даромади даражасига кўра аниқланади. Тадқиқотлар натижаси шуни кўрсатадики, ҳар бир қўшимча таълим йили инсон даромадини ўртacha 10 фоизга оширади. Бунда таълим сифати муҳим аҳамиятга эга.

Таълим сифатига эътибор бўйича Осиё мамлакатларидан Хитой тажрибаси эътиборлидир. Хитойда катта ёшдаги аҳолининг бор-йўғи 15–17 фоизи саводсиз ҳисобланади. Агар бу кўрсаткични бошқа Осиё мамлакатлари билан таққосласак Ҳиндистонда – 47%; Бангладешда – 61%; Покистонда – 59%; Эронда – 27%; Туркияда – 17%; Индонезияда – 15% ни ташкил қиласди [1].

Хитой базавий таълим билан қамраб олиш бўйича етакчи ўринларда турсада, олий таълим қамрови бўйича унчалик юқори кўрсаткичларга эга эмас. Бу ҳолатни икки сабаб билан изоҳлаш мумкин, биринчидан, ЯИМда таълим харажатларининг улушкини юқори эмаслиги ва иккинчидан, касбий-техник ўқув юртларини барқарор ривожланганлиги. Умумий таълимни давом эттириш ва катталарнинг касбий малакасини оширишнинг турли шакллари кенг тарқалган. Агар олий таълимда 3 млндан ортиқ талаба ўқиса, касбий-техник, педагогик ва тиббиёт билим юртлари 12 млндан ортиқ кишини қамраб олган. Бундан ташқари, давлат корхоналарида иш ўринларини йўқотган кишилар учун касбий қайта тайёрлаш тизими мавжуд. Таълим сифатини ошириш мақсадида Хитой ўз университетлари ва технопаркларида хорижлик мутахассислар ва ўқитувчиларни фаол жалб қиласди. XXI асрнинг бошига келиб мамлакатда 120 дан ошиқ тараққиёт ва янги технологияларни ўзлаштириш ҳудудлари (технопарклар) мавжуд бўлган. Бундан ташқари, Хитой таълим тизимида саралашга қаттиқ эътибор берилади, яъни ўқишнинг юқори босқичларига фақат қобилиятли талabalаргина етиб бора олади. Танловнинг жуда катталиги сабабли олий таълимга ўқишига кириш учун баъзан 200-300 лаб номзодни енгиб ўтиши лозим бўлади ва бунга эришган мактаб битирувчи жуда катта муваффақиятни қўлга киритган бўлади. Хитойда шартнома асосида ўқиш унчалик ривожланмаган, таълимни молиялаштириш асосан давлат маблағлари ҳисобидан амалга оширилсада, иқтидорли талabalар учун кенг турдаги имтиёзлар тизими амал қиласди.

Базавий таълим (мактабгача, умумий бошлангич ва ўрта)

Ўрта касбий-техник

Умумий олий таълим

Катталар учун таълим

1-чизма.Хитой Халқ Республикасининг таълим тизими.

Манба: <https://www.portalchina.ru/articles/education-system.html>

Фикримизча, Хитойнинг таълим тизимидағи саралаш усууллари, олий мактабларда давлат томонидан илмий ва инновацион фаолиятни қўллаб қувватлаш ҳамда асосий эътиборни ижтимоий-гуманитар мутахассисликларга кўра табиий-техник йўналишлар мутахассисларини тайёрлашга қаратиш каби тажрибаларини мамлакатимиз таълим тизимида қўллаш инсон капиталини ривожлантиришда ижобий самара беради.

Таълим сифатини ошириш орқали инсон капиталини ривожлантиришда Европа мамлакатларидан Финляндия тажрибаси ҳам эътиборга моликдир. 1990-йилларнинг бошида Финляндияда инновацион сиёsat даври эълон қилинди. Бу ёндашув Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти томонидан қабул қилинган “билимлар жамияти” тамойилига асосланган ҳола миллий инновацион тизимни яратишни кўзда тутган [2]. Инновация ва рақобатбардошлик борасида дунёда сўнгги 20 йилда етакчи

ўринларда бораётган Финляндия тажрибаси айнан таълим соҳаси ушбу мамлакатда вужудга келган юқори сифатли ҳаётнинг асоси бўлганлигини кўрсатади.

2022 йил кўрсаткичларига қўра Финляндия энг инновацион иқтисодиётлар рейтингида (GII) 132 та иқтисодиёт орасида 9-о'ринни, инсон тараққиёти индекси (HDI) бўйича 0,940 балл билан 11-ўринни эгаллаган [3].

Финляндияда ҳар бир талабага о'ртacha харажат йилига 18 129 АҚШ долларини ташкил этади, бу бошланг'ич та'лим даражасидан тахминан 7 600 АҚШ долларига ва о'рта та'лим даражасидан 6 200 АҚШ долларига ко'пdir [3]. Ваҳоланки Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотига аъзо мамлакатларда талабаларга қилинадиган харажатлар кўрсаткичи ўртacha 15 772 долларни ташкил қиласди. "Таълим ва касбий тайёрлов" кўрсаткичи бўйича Финляндия дунёда 1-ўринни эгаллади. Шу билан бир қаторда, ушбу мамлакат аҳолининг бошланғич ва ўрта таълими даражасининг юқорилиги билан ҳам ажralиб туради. Мамлакатнинг ўртacha ўқувчиси олий таълимгача таълимни ўртacha 12 йил давомида ўзлаштиради. Ушбу вақт давомида унинг ўқиши учун ўртacha 104 596 доллар сарфланади. Мактабгача ва бошланғич таълим 6 йил давом этади ва бу вақт оралиғида бир ўқувчига ўртacha 45 747 доллар харажат қилинади. З йил давом этадига умумий таълимга ҳар бир ўқувчи учун 35 114 доллар сарфланади. Ўрта таълим З йил давом этади ва ҳар бир ўқувчига ўртacha 23 735 доллар харажат қилинади. Финляндияда олий таълим ўртacha 4,78 йил мобайнида ўргатилади ва унинг моддий қиймати 79 224 долларни ташкил этади. Давлат томонидан молиялаштиришнинг умумий миқдоридан 84,3 фоизи олий таълимни давлат томонидан тўғридан-тўғри молиялаштиришга, 15,3 фоизи талабалар ва уларнинг оилаларига ажратиладиган субсидияларга ҳамда 0,4 фоизи хусусий секторга ажратиладиган субсидияларга тўғри келади. Мактабгача, ўрта ва касб-хунар таълими тизимини молиялаштириш таркиби қуидагича: Тўғридан-тўғри давлат томонидан молиялаштириш 96,9 фоизни, талабалар ва уларнинг оилаларига субсидиялар – 2,9 фоизни, хусусий секторга бериладиган бошқа субсидиялар – 0,2 фоизни ташкил этади [4].

Шу тариқа Финляндия таълим тизими яхши ривожланган ва халқаро стандартларга жавоб берадиган молиявий ресурслардан фойдаланади, бу эса ўз навбатида мамлакатнинг ялпи ички маҳсулотининг ўсиши ва таълим хизматларининг юқори сифатини таъминлаш билан асосланади. Финляндия Европадаги энг юқори таълим даражаларидан бирига эга бўлиб, бу унга Европа инновацион тизимида етакчи бўлиш имконини беради ва табиийки, бу билан Европа ҳамжамияти илм-фан ва технология соҳасида кучли позицияларни эгаллашини таъминлайди.

Сингапурнинг олий мактаб интеллектуал капиталини ривожлантириш борасидаги тажрибаси ҳам диққатга сазовор. Сингапур олий ўқув юртларидағи олимлар тадқиқотларини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш борасида катта ўзгаришга қўл урди. Бундай стратегиянинг мақсади олимларнинг жисмоний ва эмоционал бардамлигини таъминлаш, уларнинг илмий салоҳиятини қўллаб-қувватлаш, ривожлантириш ва юзага чиқариш, илмий ютуқларни молиявий рағбатлантириш кабилардан иборат. Таълим кенгashi томонидан илмий тадқиқотларни тайёрлаш учун кенг қамровли дастурлар амалга оширилади. Олимнинг кучли ва заиф томонлари аниқланади, аспирантура тугаганидан кейин олим 2 йилни илмий тадқиқот институтида ўтказади, сўнгра саноат, корпоратив лабораториялар, давлат бошқаруви, олий ўқув юртлари ёки илмий тадқиқот институтларидан бирида иш йўналишини танлайди.

Сингапурда «A*STAR» фан, технологиялар ва тадқиқотлар агентлиги мавжуд бўлиб, у фан ва технологиялар давлат секторини назорат қиласди, 12 та илмий тадқиқот институтини бошқаради, университетлар ва бошқа тузилмаларга грантлар ажратиб, мамлакатнинг ёш олимларини жаҳоннинг энг яхши олий ўқув юртларига юборади.

Иқтидорли олимлар учун турли мукофотлар ва стипендиялар тўланади. Докторлик ишидан кейинги тадқиқотлар «A*STAR» халқаро ташкилоти томонидан тўланадиган стипендиялар ҳисобидан молияланади. Халқаро алоқаларни кенгайтириш ва янги кўниқмаларга эга бўлиш мақсадида аспирантлар икки йил мобайнида етакчи чет эл лабораторияларида тадқиқотлар ўтказадилар. Фан учун давлат харажатлари бир йилда 600 млн. АҚШ доллари + 35 % хусусий маблағларни ташкил қиласди. Бундан ташқари Сингапур ҳукумати ҳар доим субсидиялар, солиқ солинадиган ва солиқ солинмайдиган қарзлар бериб туради ҳамда университетлар қошидаги бизнес-клasterларни ривожлантириш мақсадида илмий тадқиқотлар ва корхоналарга хорижий инвестицияларни жалб қилиш учун турли молиявий ёрдам кўрсатади. Сингапур ҳукумати ва таълим вазирлиги қўшма технологик компаниялар ташкил этиш мақсадида университетларни ўз илмий тадқиқотлари ва натижаларини тижорат маҳсулотига айлантиришга даъват этади. Американинг айрим университетларида олимларнинг илмий тадқиқот ишлари грантлар кўринишида ташки манбалардан, шу жумладан хусусий бизнес ва ҳукумат ташкилотлари томонидан молияланади. Хусусий инвестиациялар ҳақида тўхталадиган бўлсак, илмий тадқиқотлар натижаларидан фоизлар оловчи ва грантлар кўринишида молияланадиган нотижорат ташкилотлари акцияларнинг катта улушига эга бўлгани ҳолда олимларни грантлар бериш орқали қўллаб-қувватлади.

Таълим сифатининг муваффақияти билан ажralиб турадиган яна мамлакат – Япония таълим тизимиdir. Япон менталитетида инсон капиталини ривожлантирилиши бошқа мамлакатлардан фарқ қиласди. Бунга унинг географик жойлашуви, табиий ресурсларнинг етишмаслиги ва албатта, узоқ тарихий ўтмиш сабаб бўлган. Японларда бурч ҳисси жуда ривожланган, улар жуда сабрли, интизомли ва ўз вақтида бажарадилар. Аммо буларнинг барчаси японларнинг меҳнаткашлигидан келиб чиқади. Япониянинг инсон капитали ривожланишининг пойдевори уларнинг таълим тизимиdir. Бошланғич ва ўрта мактаблар мажбурий, бироқ ўқувчиларнинг 95% дан ортифи ўрта маҳсус мактабда ва 48% университетда ўқишни давом эттиради. Таълим фақат бошланғич ва ўрта мактабларда бепул бўлиб, ундан кейин хусусий таълим муассасаларида ўқишни давом эттириш мумкин. Умуман олганда, Япониянинг барча даражадаги таълимларини якунлаш учун 18 йил керак бўлади, аммо ўқув жараёнида талабанинг интеллектуал қобилиятига қараб унинг профессионаллик (яроқлилик) даражаси аниқланади. Имтиҳонлар натижаларига қараб ўқувчига ўқишни давом эттириши мумкин бўлган таълим муассасалари рўйхати берилади. Япониянинг инсон капиталининг аҳамиятини уни мамлакатнинг табиий-ресурс салоҳиятини таҳлил қилмасдан кўриб чиқиш билан изоҳлаш мумкин эмас, аммо хулоса қилишимиз мумкинки, Япония иқтисодиётida инсон капитали катта рол ўйнайди.

Хулоса қилиб айтганда, инсон капиталини шакллантириш ва ривожлантиришда таълимга эътибор қаратиш орқали юқори иқтисодий тараққиётга эришаётган мамлакатлар тажрибасини ўрганиш ва уларнинг энг илғорларини мамлакатимиз таълим тизимига мослаштирган ҳолда фойдаланиш мамлакатимиз миллий иқтисодиётни ривожлантиришнинг муҳим омилларидан ҳисобланади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Орипова З.Д. Хитойда инсон капиталига инвестицияларни йўналтириш// Замонавий таълим / Современное образование 2014, №6,3-8 б.
2. Илкка Тайпале Финляндиянинг 100 та ижтимоий инновацияси./ Финляндия қандай қилиб Финляндия бўлди: сиёсий, ижтимоий ва маший инновациялар. – Т.: “Sharq”, 2019. – 336 бет.
3. The output of educational institutions and the impact of learning. <https://www.oecd-ilibrary.org/>
4. Эркаева, Г. П., & Рузиқулов, С. З. (2022). Инсон капиталини шаклланиши, ривожланиши даражалари ва инсон капиталини инвестициялаш. Gospodarka i Innowacje, 24, 225-229.

ИНСОН КАПИТАЛИ ВА АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИ ОШИРИШНИ СТАТИСТИК ЎРГАНИШ

*Разикова Гулмира Шарифовна -
ТДИУ "Статистика" кафедраси
киттати ўқитувчиси*

Инсон ва унинг қобилияtlари, билим, малакаси ҳар қандай жамият фаровонлиги ва давлат иқтисодий тараққиётининг асосий омилига айланган бугунги кунда Ўзбекистонда ҳам инсон капитали, шубҳасиз, ижтимоий иқтисодий сиёсатнинг устувор йўналиши сифатида намоён бўлмоқда. Чунки инсон капиталини ривожлантириш - инновацион иқтисодиёт, билимлар иқтисодиёти, инвестициялар, глобал ахборот тизимлари, энг янги технологиялар ва бизнеснинг янги шаклларини ривожлантиришнинг зарур шарти саналади.

Инсон капитали (ing. human capital) - бу инсон ва умуман жамиятнинг турли эҳтиёжларини қондириш учун ишлатиладиган билимлар, қўникмалар тўплами. Инсон потенциалини ташкил этувчи турли хусусиятлар ичида, инсон капитали айнан даромадларнинг ўзгаришига таъсир кўрсатувчи хусусиятларни ифодалайди, шу жихатдан инсон капитали ишчининг маҳсус таълим, касб хунарга тайёрлаш ва ишлаб чиқариш тажрибаси асосида тўпланган билимлар, уларни амалда қўллаши ва маҳоратини ўз ичига олади.

Инсон капитали - бу иқтисодий ривожланишнинг интенсив ишлаб чиқариш омили, жамият ва оилани ривожлантириш, меҳнат ресурсларининг билимли қисми, интеллектуал ва бошқарув меҳнати, яшаш ва иш жойи мұхитидир. Улар инсон капиталини ривожлантиришнинг ишлаб чиқариш омили сифатида самарали ва оқилона амал қилишини таъминлаши керак.

Инсон капитали назариясига мувофиқ одамлар ўзларига инвестиция киритиб, имкониятларини кенгайтиришлари, давлат эса инсон капиталини бойитиш учун маблағ сарфлаб, миллий даромадни кўпайтириши мумкин. Бундай инвестицияларнинг самарадорлиги сарф қилинган маблағларнинг меҳнат унумдорлиги ортиши ва иш ҳақи кўпайиши орқали қопланишида ўз ифодасини топади.

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, инсон капиталига инвестициялардан олинадиган фойда техникага киритилган инвестицияларга нисбатан уч баравар ортиқлигини кўрсатган. Шу билан бирга, ходимлар таълим даражасининг 10,0 фоизга ортиши меҳнат унумдорлигини 8,6 фоизга кўпайтириши аниқланган. Демак, статистик кузатишлар натижасида, мамлакат иқтисодий жиҳатдан тараққий этиши учун жамиятга истеъдоли одамларни етиштириш талаб этилади.

Мамлакатимиз тараққиётини янги поғонага олиб чиқиш учун бошқарув ҳам, қонунчилик ҳам, жамиятимиз ҳам ўзгариши керак. Агар шундай қилмасак, муаммоларни кўриб, кўрмасликка олсак, замондан орқада қоламиз. Шу боис, "Аввал инсон, кейин жамият ва давлат" деган ғояни Конститутциямиз ва қонунларимизга ҳам, кундалик ҳаётимизга ҳам чуқур сингдиришимиз керак. Ҳозирги кундаги жиддий синовлар ва башорат қилиб бўлмайдиган хавф-хатарларни етгиб ўтишга қодир бўлган миллий давлатчилигимиз асосларини мустаҳкамлашимиз зарур (1).

Ўзбекистон республикасида ҳам инсон капиталини ривожлантириш асосий мақсадлардан бирига айланмоқда. Жумладан Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2023 йилда юртимизни "Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили" деб номланиши мамлакатимизда инсон капиталини ривожлантиришга берилаётган эътибордан далолат беради.

Дунё тажрибаси ва амалиёти шуни кўрсатмоқдаки, айнан инсон капиталига инвестиция йўналтиришни устувор вазифа сифатида танлаган мамлакатлар юксак тараққиётга эришмоқда. Чунончи, ривожланган мамлакатларда таълимнинг тўлиқ циклига инвестиция киритишга, яъни, бола З ёшдан 22 ёшгача бўлган даврда унинг тарбиясига сармоя сарфлашга катта эътибор берилади. Инсон капиталига йўналтирилган маблағлар бошқа омилларга нисбатан ўзини тез ва самарали оқлади.

Кейинги йилларда Ўзбекистонда инсон капиталини ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш ва халқقا муносиб турмуш тарзини яратиб беришга кун тартибидаги асосий масала сифатида қаралмоқда.

Аҳолининг турмуш даражаси инсонлар ҳаёти ва фаолиятининг мавжуд ижтимоий-иқтисодий шароитлари мажмуи билан тавсифланувчи мураккаб ва кўп қиррали тушунчадир. Аҳолининг турмуш даражасини тадқиқ этиш жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасидан қатъий назар, барча мамлакатлар, хусусан, мамлакатлараро таққослаш учун долзарбdir. Аҳолининг турмуш даражасини статистик ўрганишнинг энг муҳим жиҳатлари қўйидагилар ҳисобланади:

- иқтисодий фаолият иштирокчиси ҳисобланган инсоннинг асосий сифат хусусиятларини статистик баҳолаш (юксак даражада давом этишига эришиш учун соғлом турмуш тарзини олиб боришга қобилият;

- таълим олиш имкониятлари муносиб турмуш учун етарли маблағларга эга бўлиш ва юксак касбий сифатларни эгаллаш);

- аҳолининг номинал, ихтиёридаги ва реал пул даромадларини статистик баҳолаш;

- аҳолининг уй-жой, узоқ муддатли фойдаланишига мўлжалланган истеъмол неъматлари билан таъминланиш хусусиятини ўрганиш.

Аҳоли турмуш даражаси – бу аҳоли фаровонлиги, неъмат ва хизматлар истеъмолининг даражаси, инсонларнинг асосий ҳаётий эҳтиёжларини қондириш меъёрини тавсифловчи шароит ва кўрсаткичлар мажмuidir. Бошқача айтганда, турмуш даражаси жамиятда яшовчи инсон эҳтиёжларининг қондирилиши ва ривожланиши даражасидан иборат бўлиб, у турли неъматларнинг истеъмол қилиниши ёки истеъмол учун олингандарининг фойдалилик даражаси билан белгиланади.

Аҳоли турмуш даражаси – инсонларнинг моддий ва маданий-маиший эҳтиёжлари қондирилиши ҳамда ижтимоий турмуш шароитининг яхшиланиб бориши каби тушунчаларни ўз ичига олади. Аҳолининг моддий эҳтиёжларига озиқ-овқат, кийим-кечак, тураг-жой, ёқилғи ва уй-рўзгор буюмларига бўлган талаблари киради; маданий-маиший эҳтиёжларига эса, жамиятнинг барча аъзоларининг билими, малакаси, меҳнат қилиш, дам олиш, саломатлиги ва меҳнат қилиш қобилиятини сақлашни кафолатлаш, ижтимоий таъминот ва нафақалар билан таъминлаш киради.

Умуман олганда, турмуш даражаси юқори бўлган мамлакатлар ўртacha умр кўриш давомийлиги (юқори сифатли соғлиқни сақлаш тизими туфайли), сиёсий ва молиявий барқарорликнинг яхши кўрсаткичлари, жиноятчилик ва атроф-муҳитнинг ифлосланишининг паст даражаси ҳамда барқарор даромадлари билан ажralиб туради.

Ўтган йиллар мобайнида ижтимоий соҳада амалга оширилган ишларга назар соладиган бўлсақ, ижтимоий ҳимоя ва доимий ёрдамга муҳтож шахслар билан ишлашнинг «Темир дафтари», «Аёллар дафтари» ва «Ёшлар дафтари» каби янгича ишлаш механизми жорий этилди. Ижтимоий нафақа билан таъминланадиган аҳоли сони қарийб 1,5 баробар оширилди.

2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси ҳам ислоҳотларнинг узвийлиги ва давомийлигини таъминловчи асос бўлиб хизмат қилиши, биринчи ўринга инсон қадри ва манфаатлари юқори ўринга қўйилганлиги, турмуш даражасига бевосита таъсир этувчи кучлардан бири ҳисобланади. Аҳолининг турли қатламлари даромадларини, хусусан «Деҳқон ва фермерлар даромадини камида

2 баравар ошириш", минг йиллик тараққиёт дастурида кўзда тутилган тоза ичимлик суви, сув ресурсларини асраб авайлашга йўналтирилган "Сув ресурсларини бошқариш тизимини тубдан ислоҳ қилиш ва сувни тежаш бўйича алоҳида давлат дастурини амалга ошириш, хусусан, 2026 йилгача Республика аҳолисининг ичимлик суви билан таъминланганлик даражасини 87 фоизга етказиш, 32 та йирик шаҳар ва 155 та туман марказларида оқова сув тизимларини янгилаш" каби муҳим устувор вазифалар белгилаб берилди. Ушбу вазифалар ҳудудларда аҳолининг пул даромадлари ва турмуш даражаларини ошириш омилларини статистик усулларда баҳолаш, статистик кўрсаткичлар тизимини ишлаб чиқишини тақозо этади.

Исталган молиявий мақсадларга эришиш учун аҳолининг даромад топиш, сарфлаш, тежаш, қарз ва инвестициялар бўйича саводхонлик даражаси юқори бўлиши муҳим ҳисобланади.

Жамиятда инсонларнинг молиявий саводхонлигини ошириш устувор вазифалардан бири ҳисобланади. Айниқса, ривожланаётган замонавий бозор иқтисодиёти шароитида молиявий хизматларнинг ортиши аҳолининг саводхонлик даражаси юқори бўлишини талаб этади.

Инсонларда молиявий саводхонлиknинг юқори даражада бўлиши тўғри инвестиция қилиши, доимий даромад манбани шакллантиришда ҳамда кексалиқда ўзининг моддий эҳтиёжларини қоплаши учун ақл билан тадбирли иш тутушини таъминлади.

Аҳолининг даромадлари аҳоли учун шахсий эҳтиёжларини қондиришда, муҳим манба бўлиб хизмат қиласи. Шу сабабли статистиканинг турмуш тарзини тавсифловчи кўрсаткичлар комплексида аҳоли даромадлари кўрсаткичлари алоҳида ўринга эга.

Хулоса ва таклифлар сифатида шуни айтиш мумкин:

-Инсоннинг маълум соҳа бўйича илм ва тушунча олишида таълим энг муҳим тизим ҳисобланади. Ёшларнинг молиявий саводхонлигини аста-секин таълим даврида ошириб бориш самарали натижадир.

Бунинг учун ҳар бир ҳудудда ҳамда иш жойларида молиявий саводхонлиknи ошириш бўйича эксперталарни жалб қилган ҳолда тренинглар ташкил этиш зарур.

- Маҳаллий ҳокимият, иш берувчилар, маҳалла фаоллари бу борада янада масъулиятли бўлишлари лозим, чунки ҳар қандай молиявий йўқотиш бир оила учун бу ўша ҳудуддаги ижтимоий-иқтисодий вазиятга секин-аста таъсир қилиб боради.

- Уй хўжаликлари, оилалар ва шахсларга ўз бюджетларини шакллантириш ва режалаштиришга оид билим ҳамда кўникмаларни мунтазам бериб боришнинг универсал усулларини ишлаб чиқиши, ҳамда уларни мунтазам тегишли аҳоли қатламлари учун етказиб бориш ҳам муҳим чоралардан ҳисобланади.

- Шунингдек, аҳолининг турли ижтимоий групкалари учун мўлжалланган молиявий саводхонлик, унинг таркибий қисмларини такомиллаштириш бўйича турли ахборот ва таълим дастурларини ишлаб чиқилиши, ҳамда уларни мунтазам тегишли аҳоли қатламлари учун етказиб бориш ҳам муҳим чоралардан ҳисобланади.

- Ҳозирги кунга келиб молия хизматлари қийин кўриниш ва тавсифга эга бўлган бир пайтда, истеъмолчилар ечиш зарур бўлган масалалар пайдо бўла бошлади ва бу масалаларни ечиш учун истеъмолчидаги ҳар доим ҳам етарлича билим ва кўникмалар бўлмайди. Аксарият ҳолларда бу жараён аҳолида молиявий билимлар йўқлиги, оиласиб бюджетни режалаштириш бўйича етарлича маълумотга эга эмаслиги ва молия хизматларидан тўлақонли ва самарали фойдалана олмаслик билан боғлиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи" 2022 йил 22 декабрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириши бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ПФ-4947-сон фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “2022-2026 йиллар учун мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” 2022 йил 28-январдаги ПФ-60 сонли Фармони.

4. Абдураманов Х.Х., Арабов Н.У., Холмухаммедов М.М. Аҳоли даромадлари ва турмуш сифати. Ўқув қўлланма. –Т.: Илм Зиё, 2014 – 256 б.

5. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёти) (дарслик) – Т.: Меҳнат, 2009. Б. 273-274.

6. Абдуллаев А. И др. Методы социально-экономического прогнозирования. – Т.: Узбекистан, 1992. – 189 с.

7. Зияев Т.М., Исраилова Ш.Т. ва б.қ.лар. Турмуш фаровонлиги назарияси. – Т.: Иқтисодиёт, 2019.

8. Абдурахманова Г.Қ., Абдураманов Х.Х. Ижтимоий соҳалар ва инсон тараққиёти. – Т., 2018.

INSON KAPITALI XUDUDLARNI BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH OMILI

Isroilov Xusanboy Ibrohimjon o'gli -

Farg'ona politexnika Instituti

assistant o'qituvchi

Tojiyev Eldorbek Ziyodbek o'g'li -

Farg'ona politexnika Instituti

Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Boylik yaratish va qo'llab-quvvatlashda aholi uchun ish о'rirlari va daromadlar zarur. Ish bilan ta'minlash uchun mahalliy yoki xorijdagi odamlar yoki korxonalar sotib olishga tayyor bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish talab etiladi. Bu о'z navbatida mahsulot va xizmatlarning sifati va narxi bo'yicha jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishini taqozo etadi. Ichki foydani maksimal darajada oshirish uchun qiymat zanjiri milliy iqtisodiyot chegaralarida ideal tarzda qoplanadi - qo'shilgan qiymatning eng katta ulushi xom ashyo va yoki tayyor mahsulot qismlarini qayta ishlashga to'g'ri keladi.

Barqaror raqobatbardoshlik yuqori ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini (qattiq ta'limga asoslangan) va biznes tadbirkorligini talab qiladi. Bundan tashqari, barqaror iqtisodiy muvaffaqiyat xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish tarmoqlari о'rtasida sog'lom muvozanatni talab qiladi. Xizmat ko'rsatish sohasiga haddan tashqari ishonish ertami-kechmi o'sish potentsialining pasayishiga va bilimlarning yo'qolishiga olib keladi.

Intellektual kapital indeksidagi global о'rtacha ko'rsatkich 40 ni tashkil etadi – bu mukammal dunyoga bo'lgan farq 60. Past ko'rsatkichli mamlakatlar (eng past: 15) va eng yuqori ball (78) о'rtasidagi tafovut hayratlanarli va buni YaIM da aks ettiradi. Intellektual kapital indeksidagi yuqori ball kelajakdagi innovatsiyalar va iqtisodiy muvaffaqiyatlar uchun asosdir. Afsuski, kambag'al davlatlar ham intellektual kapital bo'yicha kambag'al bahoga ega bo'lib, Afrikaning katta qismi qashshoqlikda qolib ketishidan qo'rqishadi. Ijobiy jihatni shundaki, barcha ko'rsatkichlarning qariyb 60 foizi global miqyosda ijobiy rivojlanishni ko'rsatadi. Biroq, yaxshilanishlarning aksariyati Yevropa, Uzoq va Janubi-Sharqiy Osiyo va Amerikada (Markaziy Amerikadan tashqari) paydo bo'lgan ko'rindi.

1-jadval

Intellektual kapitalda raqobatbardoshlik omillarining asosiy elementlari (innovatsion imkoniyatlar) indeksi [4]

| Intellektual kapital va innovatsiya | | |
|--|--------------------------------|---------------------------------------|
| Ta'lim | Tadqiqot va ishlanmalar | Yangi biznes |
| Maktabga ro'yhatga olish | Kapitalni taqsimlash | Yangi biznesni ro'yhatdan o'tkazish |
| Maktab faoliyati | Oliy ta'lim | Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish |
| Maktab infatuzilmasi | Ishlash ko'rsatkichlari | Savdo belgisi |

O'tmishdagi ta'lim sifati va mavjudligi bugungi ilmiy-tadqiqot va innovatsion imkoniyatlarning ko'rsatkichidir va bugungi ta'lim ko'rsatkichlari kelajakdagi innovatsion imkoniyatlarni aks ettiradi. Ilmiy tadqiqot ishlarining ko'chiligi va chuqurligi qo'shimcha qiymat qo'shadigan texnologiyalar va xizmatlarni rivojlantirish uchun asosdir. Shuning uchun ta'lim samaradorligi ko'rsatkichlari barqaror innovatsiyalar va raqobatbardoshlik qobiliyatini baholash uchun juda muhimdir. Qo'shimcha ko'rsatkichlar ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha ishslash ma'lumotlarini va biznesni rivojlantirishning yangi ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Keyingi ko'rsatkichlar haqiqiy tadbirkorlik bilan bog'liq - yangi biznesni ro'yxatdan o'tkazish, tovar belgisiga arizalar va iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari o'rtasidagi muvozanatning sog'lig'i. Innovatsion qobiliyat va barqaror raqobatbardoshlikni baholash uchun foydalilanidigan barcha ko'rsatkichlar mamlakat hajmidan qat'iy nazar raqobatbardoshlik haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun aholi soniga va/yoki YaIMga nisbatan baholangan. Bundan tashqari, samaradorlik ko'rsatkichlarining ishlanmalari (trend tahlillari) ham hisobga olindi.

Intellektual kapital indeksi yuqori ballga ega bo'lgan mamlakatlar ilmiy-tadqiqot va bilimga asoslangan sanoat, ya'ni yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tarmoqlar orqali muvaffaqiyatli iqtisodiyotni rivojlantirish (yoki qo'llab-quvvatlash) va shuning uchun yuqori o'sish sur'atlariga erishish ehtimoli boshqalarga qaraganda ko'proq. Asosiy kuzatuvlarga quyidagilar kiradi:

2-jadval

Intelektual kapital indeksi[4]

| Rank | Mamlakatlar | Natija |
|-------------|--------------------|---------------|
| 1 | South Korea(1) | 74.4 |
| 2 | Japan(2) | 68.7 |
| 3 | China(3) | 68.1 |
| 4 | United Kingdom(4) | 67.0 |
| 5 | Germany(5) | 64.4 |
| 6 | Sweden(6) | 64.1 |
| 7 | Switzerland(7) | 62.8 |
| 8 | Norway(8) | 62.7 |
| 9 | Israel(9) | 62.3 |
| 10 | Finland(10) | 61.7 |
| 11 | Denmark(11) | 61.6 |
| 12 | France(12) | 61.5 |
| 13 | USA(13) | 60.8 |
| 14 | Kirgyzstan(60) | 41.7 |
| 15 | Uzbekistan(82) | 38.3 |

*0 reytingdagi o'rni

Innovatsiyalar reytingida Janubiy Koreya yetakchilik qilishda davom etmoqda – sezilarli farq bilan Xitoy 2- o'rinda – AQSh 13-o'rinda;

❖ Shimoliy-Sharqiy Osiyo davlatlari (Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya, Singapur) GSCI intellektual kapitali sub-indeksida ustunlik qiladi;

❖ Shimoliy-Sharqiy Osiyo tendentsiyasi hamkasblariga qaraganda tezroq rivojlanishni ko'rsatmoqda;

❖ Skandinaviya davlatlari ham Isroil kabi kuchli o'ntalikka kiradi – Buyuk Britaniya 4-o'rinda, Germaniya 5-o'rinda, Braziliya 46-o'rinda va Hindiston 89-o'rinda.

Afrika qit'asida Tunis (61), Marokash (68) va Jazoir (70) eng yuqori o'rinni egallagan. Afsuski, Afrikaning aksariyat qismi global intellektual kapitalni taqqoslashda hali ham past natijalarga erishmoqda, bu esa uzoq vaqt qashshoqlik tuzog'iga tushib qolish qo'rquvini kuchaytirmoqda.

Qиргизистон интеллектуал капитал индекси ко'рсаткichi bo'yichajahon mamlakatlari orasida 60-o'rinni egallagan bo'lsa, O'zbekiston 82-o'rinni band qilgan va har ikkala mamlakat ham o'z o'rnini yanada yuqoriroqqa olib chiqishga harakat qilmoqda.

Hozirgi kunda aksariyat rahbarlar inson kapitalining muhimligini bilishadi. Bu ularning xodimlarining o'z tashkilotiga qo'shgan nomoddiy qiymati. Ammo eng muvaffaqiyatli biznes - bu o'z intellektual kapitalini qanday ishlatalishni biladiganlar.

Intellektual kapital - bu tashkilotning barcha nomoddiy aktivlarining umumiyligi. U inson kapitalini o'z ichiga oladi, lekin undan tashqariga chiqadi. U biznesning raqobatdosh ustunligini ta'minlovchi barcha jihatlarini yaxlit ko'rib chiqadi. Bunga asl ma'lumotlar, mijozlar ehtiyojini qondirish, xodimlar tajribasi, ichki jarayonlar va tuzilmalar kiradi.

O'zlarining intellektual kapitalini o'lchaydigan kompaniyalar undan quyidagi maqsadlarda foydalanishlari mumkin:

1. Ko'proq qiymat yaratish
2. Mahsulot va xizmatlarni yaxshilash
3. Savdo va o'sishni boshqarish
4. Samaradorlikni oshirish

Yuqori 5 ta o'rinda turgan davlatlarning barchasini bog'lab turgan asosiy umumiylig, mamlakatlarning ortiqcha resurslarga ega emasligida deb bilsak bo'ladi. Shuning uchun bu 5 talikdagi mamlakatlar asosiy e'tiborini inson kapitalini rivojlantirishga qaratgan. Inson kapitali rivojlangan mamlakatlar hech qachon rivojlanishdan ortda qolmaydi. Yaqin kelajak uchun inson kapitali rivojlanishning yagona va eng samarali yo'llaridan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alcaniz, L., Gomez-Bezares, F., & Roslender, R. (2011, June). *Theoretical perspectives on intellectual capital: A backward look and a proposal for going forward*. In *Accounting forum* (Vol. 35, No. 2, pp. 104-117). No longer published by Elsevier.
2. Berzkalne, I., & Zelgalve, E. (2014). *Intellectual capital and company value*. *Procedia-Social and Behavioral Sciences*, 110, 887-896.
3. Darabi, R., Rad, S. K., & Ghadiri, M. (2012). *The relationship between intellectual capital and earnings quality*. *Research Journal of Applied Sciences, Engineering and Technology*, 4(20), 4192-4199.
4. *The Sustainable Competitiveness Report, 11th edition 2022*

РЕСТОРАН ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ - АҲОЛИ ТУРМУШ СИФАТИНИ ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА

**Ибодов Камолиддин Маматқулович -
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти доцент в.б., PhD**

Ресторан хизматларининг ривожланиши аввало аҳолининг умумий овқатланиш соҳаси субъектлари томонидан кўрсатилаётган хизматлар сифати ва таркибига бўлган талабнинг ортиб бориши, сифат тамойилларига кўра мижозлар талаби ва эҳтиёжининг индивидулашиуви билан изоҳланади. Бошқа томондан умумий овқатланиш тармоғининг сифат жиҳатдан юқори суръатларда ривожланиб бориши ва ишлаб чиқаришни натижадор шакллар асосида ташкил қилиш, "... кўрсатилаётган хизматлар таркибини, энг аввало уларнинг замонавий юқори технологик турлари ҳисобига тубдан ўзгартириш"[1] чоралари кўрилмоқда. Ресторан хизматларининг ривожланиш тенденцияларидан бири миллий ошхоналарнинг кўпайиб бориши, ресторан сервисининг такомиллашуви, "тез ва оммабоп" услубидаги арzon, тез хизмат кўрсатувчи ва бетакрор сервис ландшафтига эга ресторанлар тармоғини барча аҳоли қатламлари учун хизматлар таклиф қилиши билан ҳам изоҳланади. Хизматлар соҳасининг ажралмас қисми сифатида ресторан хизматлари ҳам ўзига хос иқтисодий ва ижтимоий функцияларга эга.

Аҳоли турмуш даражаси ва фаровонлигининг ошишида ривожланишида ташкил муҳит омиллари билан бир қаторда, сифатли овқатланишнинг ҳам ўрни бекиёсdir. Шу билан бирга овқатланиш физиологик эҳтиёжларни қондириш жараёни сифатида аҳолининг ёши, жинси, фаолият тури ва саломатлиги, ишлаш қобилиятига ҳам ижобий таъсир кўрсатади. Шу билан бирга озиқ-овқат ва турли неъматлардан тайёрланган таом ва ичимликлар инсоннинг жисмоний фаолиятининг асосий ресурс манбаи бўлиб, аввало, моддий маҳсулотлар истеъмоли, иккинчи томондан эса аҳолининг меҳнат қобилияти ёки ишчи кучининг тикланиши рўй беради, унинг ҳам жисмоний ҳам маънавий камолотида муҳим аҳамият касб этади[2].

Иқтисодий функцияси сифатида дам олиш ва хордиқ чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш; йўл усти, транспорт, савдо соҳаси каби турдош инфратузилмалар ривожланишини рағбатлантириш; ЯИМ, ЯҲМ шаклланишида иштирок этиш; маҳаллий бюджетларга солиқ тушумларини кўпатириш; аҳоли (айниқса аёллар) бандлигини оширошга кўмаклашиш ва шу кабиларни олиб қарашимиз мумкин.

Ижтимоий функцияси эса аҳолининг истеъмол маданиятини шакллантириш; аҳолининг истеъмол таомилларини шакллантириш; соғлом овқатланишни ташкил этиш; гастрономик туризм инфратузилмасини шакллантириш; халқаро муносабатларни ривожлантириш ўзига хос кўприк вазифасини ўташ; мамлакатнинг тарихий ва миллий-маданий қадриятларини ифода этиши; аҳолининг соғлом турмуш тарзини ташкил этиш; иқтисодий субъектлар, аҳоли, оила аъзоларининг ҳамжиҳатлигини таъминлаш кабиларда акс этади.

Мамлакатимизда аҳолининг турмуш даражасининг ортиб бориши билан умумий овқатланиш соҳасининг ҳам ривожланиш суръати ортиб бормоқда. Статистик маълумотларга кўра республикамизда аҳоли реал даромадларининг миқдори ҳам йилдан-йилга ошиб бормоқда. Республикамиз ҳудудлар бўйича таҳлил қиласидан бўлсақ, аҳоли жон бошига ихтиёридаги умумий даромадлар Тошкент шаҳри (5190,2 минг сўм) ҳамда Навоий (4301,0 минг сўм), Бухоро (2929,1 минг сўм), Тошкент (2890,9 минг сўм) ва Хоразм (2646,6 минг сўм) вилоятларида ўртacha республика даражасидан юқори кўрсаткични ташкил этди. Энг паст кўрсаткичлар эса Наманган (1785,3 минг сўм), Фарғона (1863,5 минг сўм) ва Сурхондарё (1929,0 минг сўм) вилоятларида

кузатилган. Бу борада умумий даромадларнинг энг юқори реал ўсиш суръати Хоразм вилоятида 113,6 %, Самарқанд вилоятида 113,2 %, Қорақалпоғистон Республикасида 112,1 %, Жиззах вилоятида 111,1 %, Андижон вилоятида 110,8 %, Бухоро вилоятида 110,6 %, Наманган 110,6 % ва Қашқадарё вилоятида 110,6 % ни ташкил этган[3]. Бу ҳолат ўз навбатида овқатланиш билан боғлиқ замонавий хизматлар кўрсатиш инфратузилмасининг ривожланиши, оқилона овқатланишни ташкил этиш, умумий овқатланиш соҳасининг стратегик тармоқлардан бири сифатида ресторон хизматлари соҳасига трансформациялашувини таъминлаш асосида замонавий ресторон хизматларини ташкил этиш ва кўрсатиш бугунги кун талабига айланишига туртки беради десак муболага бўлмайди.

Шуни ҳам алоҳида таъкидлашимиз жоизки, аҳоли турмуш даражаси кўрсаткичлари ўртacha даражадан паст бўлишига қарамасдан, мамлакатимизда ресторон ва кафе типидаги овқатланиш субъектларида нарх даражаси сезиларли даражада юқори ва аксарият аҳолининг ўртачадан юқори даромадга эга тоифаси учун мўлжалланган. Шу билан бирга маҳаллий кафе, миллий ошхоналар ҳам мавжудки, уларда ўртача чек миқдори пастроқ. Республикализнинг энг йирик ҳисобланган Тошкент, Самарқанд шаҳарларида кундалик ҳаётда энг кўп учрайдиган овқатланиш билан боғлиқ хизматларнинг ўртача харид нархи 62 700,0 сўм, фаст-фуд ресторонлари 39900,0 сўм, Миллий ошхоналардаги тушлик 34200,0 сўм, оддий кафелардаги тушлик 23000,0 сўм атрофида. Мамлакатимиз аҳолисининг аксарияти таом тайёрлаш ва унинг истеъмолини уй шароитида ташкил қилишни маъқул кўришади. Бу сезиларли даражада тежамкор йўналиш ҳисобланади[4], чунки маҳаллий аҳоли томонидан ўз томорқасида етиширилган ёки дехқон бозорларидан харид қилинган озиқ-овқат маҳсулотлари нисбатан арzon, чегирмалар орқали сотиб олиш имконияти ҳам катта.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, уй шароитида тайёрланган ва ресторонларда тайёрланган таомлар ўртасидаги нарх тафовути 67,2% га юқори экан. Шу билан бирга ресторонларда тайёрланган таомларнинг нарх тафовути аввало истеъмолнинг нафлийк даражасини ошириши мақсадида таом рецептурасида белгиланган хизмат даражасидан четланган ҳолда буюртма бериши негизида хизмат кўрсатишни индивидуаллаштириш ва қўшимча қиймат ҳажмини ошириши кузда тутилганлиги ҳисобига шаклланади десак муболага бўлмайди. Шунга кўра мамлакатимизда юзага келган ижтимоий-иқтисодий вазиятда аксарият аҳолининг арzon кафе, фастфуд, стритфудларга, оммавий ресторонларга ташриф буоришининг кўпайиб боришини ҳар томонлама рағбатлантириш мақсадга мувофиқ.

Бизнингча, мамлакатимизда аҳолининг пул даромадлари ва иқтисодий фаоллиги ортиши кузатилиши, келгусида истеъмолчиларнинг уйдан ташқарида овқатланиш билан боғлиқ сарфларининг ортишига, киши бошига тўғри келадиган ўртача чек миқдорининг пасайишига, тармоқли ресторонлар сонининг ортиши, аҳолининг арzon кафе, фастфуд, стритфудларга, оммавий ресторонларга ташриф буоришининг кўпайиб бориши кутилади;

Ресторонларда таом рецептурасида белгиланган хизмат даражасидан четланган ҳолда буюртма бериши негизида хизмат кўрсатишни индивидуаллаштириш имкониятининг кенгайиб бориши билан аҳолининг овқатланиш жараёнини хордиқ чиқариш билан боғлиқ маданий, ишбилармонлик, оиласиб ва байрам тадбирларини қамраб олган ҳолда амалга ошириши янги турдаги моддий нафлийкни яратиш имконини беради [5].

Юқорида келтирилган таклиф ва тавсиялар аҳолига овқатланиш билан боғлиқ хизматлар кўрсатиш сифатини ошириб бориши асосида ушбу соҳани ресторон хизматлари соҳасига трансформациялашувини таъминлаш келгусида ресторан хизматлари соҳасининг аҳоли турмуш сифатини оширишнинг муҳим йўналишларидан бирига айланишига имкон беради.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

2. Насыров, Б. У. Система общественного питания в Узбекистане: состояние и противоречивое развитие (1920–1980 годы) / Б. У. Насыров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2013. — № 12 (59). — С. 747-750.

3. К.М.Ибодов. Ресторан хизматлари соҳаси рақобатбардошлигини ошириш механизмларини такомиллаштириши. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссавтореферат: 08.00.05: 08.00.11/Ибодов Камолиддин Маматқулович. -08.00.05:08.00.11. С.: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2022. – 52 б.

4. Ibodov, K. M. The State and Development Trends of the Restaurant Services Sector: Case-Study of Samarkand Region. Journal of Marketing and Emerging Economics, 2(5), 42–48.

<https://openaccessjournals.eu/index.php/jmee/article/view/1355>.

5. Ибодов, К. (2023). Хизмат кўрсатишнинг самарали ташкилий-технологик шаклари негизида ресторан хизматлари рақобатбардошлигини ошириш масалалари. IQTISODIYOT va TA'LIM, 24(1), 517–521. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/987>

ЎЗБЕКИСТОНДА МИГРАЦИОН ЖАРАЁНЛАР ТАҲЛИЛИ

**Гулмуродов Камолиддин Абдуқодир ўғли -
ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини
ривожлантиришинг илмий асослари
ва муаммолари” илмий тадқиқот маркази
таянч докторанти**

Миграция глобал ва ноаниқ ҳодисадир. Аҳоли миграциясининг ҳаракати турли хил омил ва сабабларнинг ўзаро таъсири натижасида юзага келади. Аҳолини бир жойдан иккинчи жойга кўчиб юришга мажбур қилувчи сабаблардан энг муҳими иқтисодий-ижтимоий сабаблар, яъни ишсизлик, муносиб иш топиш, олий ва ўрта маҳсус маълумот олиш, яъни ўқишиш ва бошқа турлари билан ажралиб туради. Шунингдек, иқлиминг салбий таъсири, моддий маданий-маиший шароитдан қониқмаслик ҳамда оиласи шароитларнинг таъсири ва ҳ.к.ни санаб ўтиш мумкин.

Кўчиб юриш интенсивлиги эркакларга ҳам, аёлларга ҳам хосdir. Тадқиқотлар кўрсатишича кейинги йилларда аёллар орасида мигрантлар сони бир мунча кўпайди.

Аҳоли миграциясининг йўналишлари ишлаб чиқарувчи кучларнинг ривожланиши ва жойланиши билан, хўжалик тармоқларининг ишчи кучи билан таъминланганлик даражаси ва аҳолининг турмуш даражасидаги тафовутлар билан белгиланади. Кўчиб юрувчи аҳоли тўрт йўналиш бўйича ҳаракатланади. Булар шаҳардан шаҳарга, шаҳардан қишлоққа, қишлоқдан шаҳарга ва қишлоқдан қишлоққа. Аҳоли ҳаракати йўналишлари асосан қишлоқдан шаҳарга йўналишида ҳаракат қилади.

Ташқи миграция албатта оиласи сонига, миллий таркибига ва турли ижтимоий гуруҳга хос оиласи шаклланишига ўз таъсирини кўрсатди. Ўлкамиз қадимда Буюк ипак йўлида жойлашганлиги, ўлкамизнинг бой табиий ресурслари мавжудлиги, иқлиминг яхшилиги сабабли минглаб турли миллат вакилларининг оиласи таъшиига қулай шарт-шароит яратди. Буларнинг барчаси Ўзбекистонда оила шакилланишига таъсир этиб, улар сонининг миқдорий ўзгариши ва этник таркиби турлича бўлишига сабаб бўлди.

XX асрнинг иккинчи ярмидан ташқи миграциясининг янги шакли, яъни “ақллар кетиши” деб ном олган миграция пайдо бўлган. Бундай миграция Ғарбий Европадан АҚШга кўплаб зиёли оиласи кўчиб кетишидан бошланди.

Хозирги кунда энг долзарб муаммолардан бири қишлоқ оилаларида ортиқча ишчи кучининг тўпланиб қолишидир. Ўзбекистон иқтисодиётининг ҳозирги тараққиётида ишлаб чиқарувчи кучлардан оқилона фойдаланишнинг зарурлиги, кичик ва ўрта шаҳарларни ҳар томонлама ривожлантиришни тақазо этади. Кичик ва ўрта шаҳарларда маҳаллий хомашё ҳисобига янги саноат тармоқларини ташкил этиш ёки ҳалқ ҳунармандчилигининг умуман ҳалқ истеъмол буюмлари ишлаб чиқаришнинг хилма-хил тармоқларини ривожлантириш асосида янги иш жойларини ташкил қилиб, ортиқча меҳнат ёшидаги аҳолини иш билан таъминлаш муаммосини маълум даражада ҳал қилиш мумкин. Кичик ва ўрта шаҳарларда ишлаб чиқаришни ривожлантириш ҳисобига у ерга қишлоқ жойларидаги ортиқча ишчи кучлари жалб қилиш ишсизликни камайтиради ҳам иқтисодий барқарорликни таъминлайди. Аҳоли миграцион ҳаракатининг йўналиши умумдавлат нуқтаи назаридан мақсадга мувофиқ бўлган тақдирда, яъни меҳнат ресурси етишмайдиган худудларга кўчиб ўтгандагина унинг иқтисодий аҳамияти катта бўлади. Миграция туфайли янги-янги табий бойликларни ишга солиш, янги ерларни ўзлаштириш, ижтимоий ишлаб чиқариш ҳажмини кенгайтириш мумкин. Аммо миграциянинг давлат манфаатларига мувофиқ бўлмаган йўналиши, яъни аҳолининг меҳнат ресурслари билан тўла таъминланган худудларга кўчиб ўтиши, баъзи хўжалик тармоқларини тайёр меҳнат ресурси билан таъминлаб, юзаки қараганда ижобий кўринсада, аслида бу ҳолат салбий натижаларга олиб келади.

Миграцион жараёнларнинг мукаммалиги шундан иборатки, иқтисодиётнинг бир нуқтаси ўзгариши ҳам катта миграцион оқимни юзага келтириши мумкин. Ўзбекистонда доимий аҳоли сони ҳам йилдан-йилга ошиб бормоқда

1-жадвал

Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг меҳнат ресурслари билан таъминланганилиги бўйича гурухланиши[1]

| T/p | Ҳудудлар | Меҳнат ресурслари билан таъминланганилик даражаси |
|-----|---|---|
| 1. | Самарқанд, Фарғона, Қашқадарё, Андижон, Наманган, Тошкент ва Сурхондарё | кўп таъминланган |
| 2. | Қорақалпоғистон Республикаси, Бухоро ва Хоразм | ўртacha таъминланган |
| 3. | Жizzах, Сирдарё ва Навоий | кам таъминланган |

Шу билан бирга аҳолининг маълум ҳудудларда кўп бўлиши баъзи ҳудудларда кам бўлиши ҳам миграция жараёнларига таъсир этмай қолмайди (2-жадвал). Миграция жараёнларини тартиблаш учун меҳнат ресурслари кўп ҳудудлардан, меҳнат ресурслари кам ҳудудларга кўчириб ўtkазиш орқали аҳолини бир қанча муаммолари (жой, ишсизлик, меҳнат ресурслар билан таъминланиш ва бошқа ижобий натижаларга эришиш мумкин.

Бунда қуйидагиларга эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ;

- мутахассислиги бўйича кафолатланган иш жойи билан таъминланиш;

- тураг-жойга эга бўлиш. Бунда уй-жойни имтиёзли кредит асосида бериш ва кредитни муайян муддат (бир йил)дан (қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини йиғишишириб олгандан) сўнг тўлашни бошлиш ҳамда 5 йиллик имтиёзли давр билан 15 йилга бериш.

Ички миграция муаммосини ҳал этиш ташқи меҳнат миграциясини камайишига олиб келади. Ташқи меҳнат миграцияси жараёнида кўп учрайдиган муаммолардан бири бу мигрантларнинг ҳуқуқларини бузилиши, одам савдоси ва дискриминация ҳолатлариdir.

Шунингдек, мигрантларнинг, айниқса, норасмий равища фаолият олиб бораётган меҳнат мигрантларининг транспорт воситаларида хорижга чиқишилари ёки уйга қайтишларида уларнинг шахсий хавфсизлиги таъминланмаганлиги ҳам бугунги

кунда энг муаммоли масалалардан бири ҳисобланади. Ташқи меҳнат миграциясини самарали ташкил этишдаги асосий муаммолар қўйидагиларни кўрсатиш мумкин[3]:

I. Ташкилий-хуқуқий:

- миллий қонунчилик асосида мигрантларнинг хуқуқларини мустаҳкамланмаганлиги;
- манфаатдор мамлакатлар ўртасида икки ва кўп томонлама хукumatлараро келишувлар, битимлар тузилмаганлиги;
- хорижий ишли кучларини ёлловчи чет эл фирмалари билан ҳамкорликнинг йўлга қўйилмаганлиги ва ҳ.к.

II. Иқтисодий:

- фуқароларни касбга тайёрлаш ва уларни чет элда миграция бўйича қўллаб-куватлаш бўйича маҳсус жамғармаларнинг ташкил этилмаганлиги
- рекрутинг агентликларига солиқ имтиёзларининг берилмаганлиги;
- меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун мамлакатдан ташқарига чиқаётган фуқароларга чипталар нархларига чегирмаларнинг тақдим этилмаганлиги;
- мигрантлар меҳнатига муносиб ҳақ тўланмаслиги;

III. Ижтимоий:

- хорижлик иш берувчилардан бўш иш ўринлари, иш характери, маош, ишчилардан талаб этиладиган малака (қўникма)лар ҳақида маълумотларнинг мавжуд эмаслиги;
- зарур тиббий ёрдам ва яхши гигиеник шарт-шароит билан таъминланмаганлиги;
- меҳнат мигранти учун тиббий суғуртанинг мавжуд эмаслиги;
- мигрантлар яшайдиган ётоқ-жойларнинг санитария-гигиена нормаларига мувофиқ бўлмаслиги ва ҳ.к.

Ташқи меҳнат миграциясини самарали ташкил этишда фуқароларнинг чет элга бориб меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун (йўлкира ҳақи, ётоқ жой, иш бошлаш учун ойлик харажатлар) тижорат банклари томонидан кредитлар ажратиш мақсадга мувофиқ. Ўзбекистоннинг умумий миграцион ҳаракати ҳам йилдан-йилга камайиб бормоқда[4].

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Ташқи меҳнат миграциясини самарали ташкил қўйидаги йўналишларда олиб бориш лозим:

Ташкилий-хуқуқий:

- Ўзбекистон Республикасининг “Ташқи меҳнат миграцияси тўғрисида”ги қонунини такомиллаштириш;
- Халқаро Меҳнат Ташкилотининг Меҳнат миграцияси тўғрисидаги конвенцияларини ратификация қилиш;
- мамлакатлар ўртасида фуқароларни вақтинчалик ишга ташкилий ёллаш бўйича маҳсус битимларни имзолаш;
- меҳнат мигрантларини тайёрлаш ва мослаштириш маҳсус марказларнинг ташкил этилишини кенгайтириш;
- мигрант мигрантларини аниқ ахборотлар билан таъминлаш учун тегишли бепул хизмат кўрсатиш;
- ташқи меҳнат миграциясини ҳисобга оладиган ягона электрон автоматлаштирилган тизимни яратиш;
- барча туман (шаҳар)ларда бандликка кўмаклашиш марказлари хузурида ташқи меҳнат миграцияси агентлигининг филиалларини очиш ва ҳ.к.

Иқтисодий:

- фуқароларни касбга тайёрлаш ва уларни чет элда миграция бўйича қўллаб-куватлаш бўйича маҳсус жамғармани ташкил этиш

- бандлик соҳасида хизматлар кўрсатувчи рекрутинг агентликларига солиқ имтиёзларини бериш;
- вақтингчалик меҳнат фаолиятини амалга ошириш учун республикадан ташқарига чиқаётган фуқароларга темир йўл чипталари ҳамда авиаҷипталар нархларига чегирмалар тақдим этиш;
- меҳнат мигрантларининг транспорт ва бошқа харажатлар учун тижорат банкларидан кредит олишларига рухсат бериш ҳамда бу кредитларни халқаро тўлов тизимлари орқали олиш ва тўлашнинг қулай механизмларини жорий этиш ва ҳ.к.

Ижтимоий:

- ишчи кучининг малакасини ошириш;
- ишчи кучини экспорт қилувчи мамлакат хорижлик иш берувчилардан бўш иш ўринлари, иш характери, маош, ишчилардан талаб этиладиган малака(кўникма)лар ҳақида маълумотларни тўплаб бориш;
- зарур тиббий ёрдам ва яхши гигиеник шарт-шароит билан таъминлаш
- мигрантларни ётоқ-жойлар билан таъминлаш ва уларнинг санитария-гигиена нормаларига мувофиқ бўлишини таъминлаш.

Юқоридаги муаммоларни ҳал қилиш учун берилган таклифлардан фойдаланиш иқтисодиётнинг ривожланишига ҳисса қўшган бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.
2. Холмўминов Ш.Р., Хомитов К.З., Арабов Н.У., Бобоназарова Ж.Х., Абдурамонов Х.Х. Қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашнинг назарий ва амалий асослари. Т.: 2018. 27 б.
3. Verdino G. *What is digital transformation, really?* Режим доступа: <https://www.gregverdino.com/digital-transformation-definition/> (дата обращения: 25.08.2020).
4. Regulation 2018/1860/EU on the use of the Schengen Information System for the return of illegally staying third-country nationals OJ L312. Режим доступа: <https://www.europeansources.info> (дата обращения: 20.08.2020).
- 3.Усманов А., Холбаева С. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНДА ЖИЗНЕННЫХ СРЕДСТВ РАБОТНИКА //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. Maxsus.son. – С. 25-34
- 4.Холбаева Сабина Рустамовна ВЛИЯНИЕ ПОТЕРЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАНЫ // Вестник Прикамского социального института. 2021. №1 (88). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-poter-chelovecheskogo-kapitala-na-ekonomicheskoe-razvitiye-strany> (дата обращения: 03.05.2023).
- 5.Холбаева С. Р. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI TAKOMILLASHTIRISH VA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Bahriiddinova Muazzam Azam qizi -
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

Inson resurslaridan foydalanish va uni rivojlantirishning yangi modeli insonga asosiy ishlab chiqaruchi kuch va moddiy ne'matlarning iste'molchisi sifatida qaraydi. Har qanday мамлакатning kelajagi tobora iqtisodiy jarayonlarning o'sishini ta'minlovchi asosiy omilga aylanib borayotgan insonning yaratuvchanlik qobiliyatlarining sifat o'zgarishlari bilan bevosita bog'liq. Inson salohiyati jamiyat milliy boyligining bir qismini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonning ijodiy va ishlab chiqaruvchi kuchlari inson kapitali sifatida maydonga chiqadi. Shu nuqtai nazardan ham atrof-muhitni o'zgartira oladigan insonni va

uning imkoniyatlarini to'liq o'rganish fanning markaziy masalalaridan biridir. Iqtisodiyotning har qanday sohasida, har qanday mansabda insonning ish qobiliyati uning sog'lig'iga bog'liq. Iqtisodiyotda shakllanayotgan innovatsion o'zgarishlar yangi sifatdagi malakali ishchi kuchini talab qiladi. Shu sababdan ham ishchilarga faqatgina ma'lum bilimlar va malakalarni o'rgatish emas, balki ularni yangi g'oyalarni, texnik ishlanmalarni qabul qila olishga o'rgatish va o'zlarining ish joylarining o'ziga xos xususiyatlariga ham tez moslasha olishlariga erishish kerak.

Inson kapitali nazariyasining ahamiyatli tomoni shundaki, bu nazariya oldin —xarajatlar tarmoqlari deb hisoblangan ta'lism, sog'liqni saqlash, madaniyat va fan tarmoqlarini moddiy ishlab chiqarish tarmoqlar bilan bir qatorga qo'yadi. Shu bilan birga xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligi moddiy, texnologik, innovatsion va boshqa shu kabi omillarga bevosita bog'liq. Ular ichida inson salohiyati va undan foydalanish darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy muhitda inson kapitali, uning tarkibiy qismlari haqida yagona bir yondashuv mavjud emas. Bu muammoning hal etilishining katta nazariy va amaliy ahamiyati bor. Chunki, inson kapitali haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmasdan turib, uni samarali boshqarishning imkoniyati yo'q. Shuningdek, milliy iqtisodiyotni samarali tashkil etish va boshqarishda ulardan to'liq foydalanib bo'lmaydi.

Jahonda inson kapitaliga investitsiyalar mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida ko'rildi. Inson kapitali sifatini yaxshilash, butun hayot faoliyati davomida uzuksiz ta'lism asosida insonlarning kasbiy ko'nikma va tajribalarini takomillashtirib borishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida amalga oshirishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Jahon banki dunyoning –141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiyligi qiymatidagi ulushi 64 % ni tashkil etishi va so'nggi 20 yil davomida uning hajmi 55% ga o'sgani ma'lum bo'lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zo bo'lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41%ga to'g'ri keldi[1].

Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, —mamlakatlar o'rtasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 % aynan inson kapitali bilan izohlanishi[2] ma'lum bo'lmoqda. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda iqtisodiy o'sish omillari o'zgarmoqda. An'anaviy omillar (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar o'rniga fan va ta'lism, ya'ni umumlashtirib aytilganda millatning intellekti bo'lgan omillar birinchi o'ringa chiqmoqda.

Bugungi kunda inson kapitalining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash borasidagi jarayonlarga ta'sirini o'rganishga qiziqish kun sayin ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, BMT, Jahon banki, XVJ kabi yirik xalqaro tashkilot va muassasalar tomonidan ko'p sonli ilmiy izlanishlar olib borilgan va olib borilmoqda. Ammo —inson kapitali kategoriyasini aniqlashtirishda, iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashda muayyan noaniqliklar saqlanib qolmoqda, shu bilan birga, uning tashkil etuvchilariga hanuz to'liq oydinlik kiritilmagan, milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishiga hamda innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining ta'siri miqdor jihatdan baholanmagan. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning tarkib topishi sharoitida milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda inson kapitalidan foydalanish va uning sifatini ta'minlash uslubiyoti borasida ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan, 2022-yilning may oyida Jahon banki ikkinchi marta O'zbekiston uchun mamlakatning tizimli diagnostik tadqiqotlarini e'lon qildi. Unda hukumat uchun xususiy sektor o'sishi borasidagi to'siqlarni olib tashlash, davlatning

iqtisodiyotdagi ishtirokini cheklash, inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatni —yashil|| iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tavsiyalar o'z aksini topgan.

Mazkur tadqiqotda —...mabodo, O'zbekiston 2030-yilga borib o'rtacha daromaddan yuqori mamlakatlar qatoriga kirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan ekan, u holda aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi yiliga o'rtacha 10 foizni tashkil qilishi lozim... Bu o'z navbatida davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash, xususiy sektorni jadal rivojlantirishni ko'zda tutadi. Bundan tashqari, hukumatdan inson kapitaliga, kuchli ijtimoiy himoya tizimiga va yashil o'sish modeliga izchil tarzda sarmoya kiritish talab qilinadi[3] - deb ta'kidlanadi.

Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil sifatida inson kapitalini shakllantirish, undan samarali foydalanish hamda inson kapitali sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Ayniqsa, inson kapitalini shakllantirish, undan foydalanish darajasiga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan muhim bo'lgan quyidagi omillarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- tug'ma individual qobiliyatlar;
- ota-onalarning ta'limgan saviyasi;
- aholining ijtimoiy ahvoli;
- soliq siyosati;
- madaniy va mafkuraviy omillar.

Yuqorida sanab o'tilgan har bir omilning inson kapitaliga ijobiy va salbiy ta'sirini mos ravishda sanab o'tishimiz mumkin:

- tug'ma qobiliyatlarning yuqori darajasi kelajakda yangi bilimlarni egallashni tezlashtirishga xizmat qiladi;

- ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan ota-onalarning ko'proq bilim, qobiliyatlarga ega bo'lishi tabiiydir, o'z navbatida ular bu bilim va qobiliyatlarni o'z farzandlariga ularashadir; yuqori ma'lumotga ega bo'lganliklari bois, turli jabhalarda asoslangan qarorlar qabul qila oladilar; o'z navbatida ularning daromad darajasining boshqalarga nisbatan yuqoriligi ularga sifatli tibbiy yordam va ta'limgan xizmatlaridan foydalanishga imkon beradi;

- o'z navbatida ijtimoiy omillar, jamiyattdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat inson kapitalining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, bu o'z navbatida aholi daromadlarining o'sishiga va inson kapitali shakllanish jarayonlarining ijobiy tus olishiga zamin yaratadi;

- madaniy va axloqiy me'yorlar; jamiyat mafkurasi, jamiyat a'zolarining umummilliylar va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabati; jamiyat a'zolarining yuksak madaniy saviyasi milliy iqtisodiyotda mehnat unumdorligining o'sishiga, yangi bilimlarni yaratish, ularga asoslangan yangiliklar va mahsulotlar yaratilishining tezlashishiga olib keladi, bu esa mamlakatda yillik iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, inson kapitalini sifat jihatdan rivojlantirish hisobiga innovatsion rivojlanish darajasini yuqori darajaga ko'tarish mumkin. O'z navbatida innovatsion rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda mamlakat YaIMdagi ulushining yuqoriligini ta'minlashimiz, inson kapitalining iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi rolini oshirishga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018. *The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future*. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6.

2. World Bank Group. *Human Capital: A Project for the World*, 2018. October, Development Committee Meeting <https://www.devcommittee.org>

3. World Bank Group <https://www.vsemirnyjbank.org/>

4. Усманов А., Холбаева С. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНДА ЖИЗНЕННЫХ СРЕДСТВ РАБОТНИКА // Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. Maxsus_son. – С. 25-34

5. Холбаева Сабина Рустамовна ВЛИЯНИЕ ПОТЕРЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАНЫ // Вестник Прикамского социального института. 2021. №1 (88). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-poter-chelovecheskogo-kapitala-na-ekonomicheskoe-razvitiye-strany> (дата обращения: 03.05.2023).

6. Холбаева С. Р. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА // Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

**Нуманова Мадина Латиф қизи -
ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини
ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари”
илмий тадқиқот маркази илмий ходими**

Инсон капитали - бу одамлар ўз ҳаёти давомида сармоя киритадиган ва тўплайдиган, жамиятнинг фойдали аъзоси сифатида ўз салоҳиятини рўёбга чиқаришга имкон берадиган билим, қўнишка ва соғлиқдир. Озиқланиш, соғлиқни сақлаш сифатини ошириш, сифатли таълим, янги иш ўринлари яратиш ва малака ошириш орқали одамларга сармоя киритиш ўта қашшоқликка барҳам бериш ва ижтимоий жиҳатдан янада яхлит жамият қуриш учун қалит бўлган инсон капиталини ривожлантиришга ёрдам беради.

“Инсон капитали” атамасининг ўзи биринчи марта 1979-йилда Нобел мукофотига сазовор бўлган иқтисодчи Теодор Шулс (1902-1998) асарларида пайдо бўлиб, қуйидаги таърифни таклиф қилди: “Инсоннинг барча қобилиятлари туғма ёки орттирилган.[1]

К.Макконел ва С.Брю инсон капиталига инвестициялар — “бу ишчиларнинг малакасини ва бу билан меҳнат унумдорлигини оширишга хизмат қиладиган ҳар қандай фаолиятдир. Кимнигдир меҳнат унумдорлигини оширадиган харажатларга инвестиция сифатида қаралиши мумкин, зеро ана шу чиқимлар келажакда даромадлар оқими билан кўп маротаба кимпенсация қилинади” деб кўрсатган. [2]

Иқтисодиёт фанига қўшган салмоқли ҳиссаси учун Нобел мукофотига сазовор бўлган яна бир америкалик иқтисодчи олим – Г.Беккернинг энг муҳим асари 1964 йилда нашр этилган “Инсон капитали: асосан таълим соҳасида назарий ва эмпирик таҳдил” деб номланади.

У инсон капиталида таълим капиталини, саломатлик капиталини ва қасбий тайёргарлик капиталини, миграция капиталини, шунингдек иқтисодий аҳамиятга эга бўлган ахборотша эгаликни ва иқтисодий фаолиятга мотивацияни ажратиб кўрсатган. Унинг ҳисоблашича, таълимга маблағ сарфлашда талабалар ва уларнинг ота-оналари бу харажатлардан олиниши кутилаётган даромадни ана шунга муқобил инвестициялар билан таққослаб кўришади.

Г.Беккернинг ҳисоблаб чиқишича, таълимга инвестициялар йилига тахминан 12,0 – 14,0% миқдорида фойда келтиради. У “махсус инсон капитали” тушунчасини ҳам муомалага киритган. Бу категория “умумий инсон капиталидан” фарқли равишда маҳсус тайёрғалик натижасида эгалланган ҳамда фақат ўзининг корхонаси учун ишлаб чиқаришда манфаат келтирадиган билимлар ва кўникмалар жамланмасидир.[3]

Кўплаб тадқиқотларда инсон капиталининг ривожланганлик ҳолатини баҳолаш Инсон тараққиёти индекси доирасида ишлаб чиқилган кўрсатмалар асосида амалга оширилади. 1-жадвалда Ўзбекистоннинг инсон тараққиёти индекси бўйича йиллар давомида ўзгариш тенденцияси келтирилган.

Инсон капиталининг асосий таркибий қисмларига, соғлиқ капитали, таълим капитали, профессионал капитал, маданий капитал, хулқ-атвор капитали киради.[4] Инсон капиталининг асосий омили сифатида Ўзбекистон таълим тизимини янада ислоҳ қилиш ва такомиллаштириш масалаларига эътибор қаратмоқда ва шундай бўлиб қолади. Ўзбекистонда таълимга ҳар йили сарфланадиган маблағ ялпи ички маҳсулотнинг 10-12% ни ташкил этади[5].

2016 йил Ўзбекистон Республикасида ёшларни олий таълим билан қамраб олиниш даражаси жуда паст бўлиб, 9% ни ташкил этган. 2017 йил бу кўрсаткич 11% ни

ташкил етган . 2019-2020 йилларда бу кўрсаткич сезиларли даражада ўсиб 20-25% ни ташкил этган[6].

1-жадвал

Ўзбекистоннинг инсон тараққиёти индекси бўйича ўзгариш тенденциялари

| Кўрсаткич | 1998 | 2000 | 2003 | 2004 | 2010 | 2014 | 2015 | 2017 | 2021 |
|--|-------|--------|--------|--------|-------|-------|-------|-------|-------|
| ИТИ кўрсаткичи | 0,686 | 0,727 | 0,694 | 0,696 | 0,617 | 0,675 | 0,701 | 0,710 | 0,727 |
| ИТИ рейтинги бўйича ўрни | 106 | 95 | 111 | 113 | 102 | 114 | 105 | 105 | 101 |
| Тўғилганда кутилаётган умр давомийлиги | | 69 | 66,5 | 66,6 | 68,2 | 68,4 | 69,4 | 71,4 | 70,9 |
| Таълимнинг ўртача давомийлиги* | - | - | - | - | 10,0 | 10,9 | 12,2 | 12 | 12,5 |
| Кутилаётган таълим давомийлиги* | - | - | - | - | 11,5 | 11,5 | 12 | 11,5 | 11,9 |
| Жон бошига ЯМД (АҚШ долл) | | 2441** | 1744** | 1869** | 3085 | 5567 | 5748 | 6470 | 7917 |
| Рейтингда иштирок этган умумий давлатлар сони | 174 | 173 | 177 | 177 | 182 | 188 | 188 | 189 | 191 |

Манба: 1998-2021/2022 йиллардаги Инсон тараққиёти түғрисидаги маълумотлар асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

Изоҳ:*- 2010 йилгача ИТИнинг таълим индекси аҳолининг саводхонлик даражаси ва олий таълим билан қамров қўрсаткичлари асосида ҳисобланган. ** - 2010 йилгача аҳолининг турмуш даражаси индекси аҳоли жон бошига ЯИМ орқали ҳисобланган.

Таълим соҳасидаги вазиятнинг таҳлилига асосланиб, Жаҳон банкининг эксперталари бир қатор тавсияларни ишлаб чиқиб, ҳукumat вакилларига қўриб чиқиш учун тақдим этишди. Жорий ислоҳотларнинг хусусиятларини ва йўналишини акс эттирувчи ушбу ислоҳотлар қўйидаги соҳаларда ўзгаришлар бошланишини амалга оширишни таклиф этади:[7]

- мактабгача таълим соҳасида илк таълимнинг сифатини ва ундан фойдаланиш имконини ошириш;
- педагогик кадрларнинг тайёргарлиги сифатини ошириш ҳисобига таълим бериш ва ўқитиш шарт-шароитларини яхшилаш;
- ўқитиш натижаларини баҳолашнинг мавжуд стандартлари ва тизимларини такомиллаштириш;
- битирувчиларнинг ижтимоий-эмоционал ривожланишига қўмаклашиш мақсадида ўқув дастурларини ва ўқитиш усулларини мослаштириш;
- ногиронлиги бўлган кишиларга таълим соҳасидан фойдаланиш имконини таъминлаш йўли билан, инклузив таълим олишга қўмаклашиш;
- давлатнинг меҳнат бозори ва иқтисодиётининг эҳтиёжларига жавоб берадиган битирувчиларнинг кўнникмалари ва малакаларини ривожлантириш.

Фойданилган адабиётлар рўйхати

1. Shultz T. Human Capital in the International Encyclopedia of the Social Sciences. — N.Y., 1968, vol. 6.
2. Макконел К. Р., Брю С. Л. Экономикс: Принципы, проблемы и политика: В 2 т. - М.: Республика, 1992. Т. 2. - С.171.
3. Becker Gary S. Human Capital. — N.Y.: Columbia University Press, 1964
4. Numanova M.L.(2023).Moliyaviy savodxonlik inson kapitalining elementi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatida. 257-259.
5. Numanova M.L.(2023).Inson kapitaliga sarmoya Yangi O'zbekistonning farovonligi kafolati.Iqtisodiyot va ta'lim,24(2), 171-176.
<https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1031/934>
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридағи Статистика агентлиги.
<https://stat.uz>
7. Жаҳон банки маълумотлари. <https://data.worldbank.org/>

INSON KAPITALINI TAKOMILLASHTIRISH KORPORATIV BOSHQARUVNING FUNKSIONAL USTUVORLIGI SIFATIDA

**Omanova Nargiza Rustam qizi -
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Korporativ boshqaruv" kafedrasi tayanch doktoranti**

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi innovatsiyalar, samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tashkiliy madaniyatning aniq yo'nalishiga ega. Shu bilan birga, faqat o'zining ijodiy va jismoniy salohiyati, nafaqat o'z ishchi kuchini ko'paytirish, balki o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lgan xodim tashkilotning shaxsiy aktiviga, jamiyat va har bir shaxs muvaffaqiyatining hal qiluvchi omiliga aylanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xodimdan tashabbuskorlik, mas'uliyat, intizomlilik, halollik, mehnatga intilish, vijdonlilik, mehnatsevarlik, moslasha olish qobiliyati, nostandard fikrlash kabi fazilatlar talab etiladi. Odamlar faoliyati samaradorligining hal qiluvchi omili ularning motivatsiyasi, ishga jalb qilinganlik darajasi, shaxsiy e'tirof etilish kabi hislatlar bo'lganligi sababli, personal boshqaruv tizimi kesimida tashkiliy madaniyatni o'rganish ob'ekti shaxsnинг xulq-atvori va shaxsiyati hisoblanadi[1].

Shu sababli, ichki va tashqi bozorlarda muvaffaqiyatlari raqobat uchun zarur bo'lgan afzalliklarning paydo bo'lishini ta'minlaydigan boshqaruv vositasi sifatida tashkiliy xulq-atvorga tabiiy qiziqishi bo'lmoqda[2]. Boshqaruv samaradorligi - bu, pirovardida, tashkilot xodimlarining xulq-atvorini yaxshilashga qaratilgan.

Zamonaviy menejment kontseptsiyasida menejmentning butun o'zbek jamiyati va tashkilotda ishlaydigan odamlar oldidagi ijtimoiy javobgarligini tan olish muhim element hisoblanadi. Bugungi kunda kompaniyaning asosiy resursi hisoblangan shaxsga, uning salohiyati va samarali mehnat qilish qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Korporativ madaniyat xodimlarni jalb qilish va rag'batlantirishning eng samarali vositalaridan biridir[3]. Korporativ madaniyat tashkilotga juda aniq moddiy natija keltiradi. Tashkiliy xulq-atvor esa shu moddiy natijalarni amalgalashish vositasi sifatida qo'llaniladi. Korporativ xatti-harakatlar, tom ma'noda, korporatsiya yoki kompaniyaning xatti-harakatidir; birinchi navbatda "tashkiliy xulq-atvor" tushunchasi foyda orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydigan tashkiliy tuzilmalar uchun qo'llanilsa, keyingi o'rinda aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha hisoblanadi[4]. Shu jumladan, "Uzkimyosanoat"

aksiyadorlik jamiyatini olaylik. Anketa so'rovnama orqali o'tkazilgan savol-javob natijalariga ko'ra, korxonaning tashkiliy xulq-atvor xarakteristikasi qoniqarli natijasini ko'rsatib berdi. 12 ta savoldan iborat va boshqaruvning har bir bo'g'in ishtirokchilari uchun alohida tuzilgan so'rovnomada o'rtacha ko'rsatkich 3.2 ballni tashkil etti.

1-jadval

Yuqori bo'g'in boshqaruvchilari

| N | Xulq-atvor so'rovnomasi | Maksimal ball | Natija |
|---|--|--|----------|
| 1 | Majlislarda quyi darajadagi hamkasblarning fikrini so'raysizmi va ularning hissasini tan olasizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 3.6 ball |
| 2 | Erishgan natijalari va yutuqlari uchun oddiy xodimlarga ochiq minnatdorchilik bildiriasizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 2.8 ball |
| 3 | Boshqaruvning Ko'rib Kuzatib boshqaruv (management by walking around) usulini ishlatasizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 2 ball |
| 4 | Liniya xodimlaridan to'g'ridan-to'g'ri fikr, aloqa va g'oyalar almashishni so'raysizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 3.5 ball |

2-jadval

O'rta bo'g'in boshqaruvchilari

| | | | |
|---|--|--|-----|
| 1 | Vazifalarni quyi xodimlar o'rtasida adolatli taqsimlaysizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 4.1 |
| 2 | Hamkasblaringizni yig'ilishlarda o'z fikrlarini aytishga undaysizmi va ularning hissalarini tan olishni bilasizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 3.5 |
| 3 | Yuqori rahbariyat bilan uchrashuvlarda fikr almashish va xodimlarga o'z g'oyalarini qo'shish imkoniyatini yaratásizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 3.1 |
| 4 | Xodimlarning yutuqlari haqida rahbariyatga xabar berasizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 4 |

Guruh a'zolari

| | | | |
|--------------------|---|--|-----|
| 1 | Ixtiyoriy ravishda ishlaysizmi va barcha darajadagi xodimlar bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatganmisiz? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 2.5 |
| 2 | Hamkasblaringiz oldida menejerlarga o'z fikringizni aniq bayon qila olasizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 2.7 |
| 3 | Hamkasblaringizni yuqori bo'g'in menejerlari bilan uchrashuvlarni o'z fikrlarini aytishlarini qo'llab-quvvatlaysizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 3.5 |
| 4 | Hamkasblaringizni yutuqlaridan mammun bo'lasizmi? | 5. ha albatta 4. ha, ba'zan 3. ba'zan 2. yo'q 1. hech qachon | 4 |
| Jami ballar | | | |

To'plangan ballar shkalasiga qarab korxonaning korporativ madaniyati tashkiliy xulq-atvor darajasini funksional va disfunktional turlarga ajratish mumkin[5]. Agar to'plangan ballar o'rtacha yig'indisi 3.5 balldan past bo'lsa bu disfunktional tashkiliy xulq-atvor bo'ladi. Ya'ni, "Uzkimyosanoat" AJ tashkiliy xulq-atvor ko'rinishi quyidagichadir:

- Bo'g'inalar o'rtacha ishonchning o'zaro pastligi
- Kelishmovchiliklardan qo'rqish
- Mas'uliyat hissining pastligi
- Javobgarlikdan qochish
- Natijalarga e'tiborsizlik

Bunday tashkiliy shaxsiyat yoki xulq-atvor elementlariga ega bo'lgan "Uzkimyosanoat"

AJ da quyidagi ko'rinishdagи salbiy holatlar aniqlandi:

- Xodimlar va umuman tashkilotlarning past innovatsion faolligi
- "Uzkimyosanoat" AJ da o'ziga xos iqtisodiy vaziyat va xodimlarning mentaliteti tufayli ushbu sohada xorijiy tajribadan foydalanishning murakkabligi va ba'zan imkonsizligi
- Xodimlarning tashkiliy xulq-atvori motivlari va xodimlarning qadriyatlar tizimidagi tub o'zgarishlar

Disfunktional tashkiliy xulq-atvordan funksional xulq-atvor modeliga o'tish uchun "Uzkimyosanoat" AJ so'rovnoma ko'rsatkichlari avvalo 4 balldan yuqori bo'lishi lozim. Buning uchun korxona doimiy ravishda quyidagi xulq-atvorni vazifalarini takomillashtirib borishi zarur:

- Korxonaning biznes maqsadlari va missiyasidan kundalik vazifalarda va qaror qabul qilishda qo'llanma sifatida foydalanish
- Har bir xodimga o'zfikrini bayon qilishga va qaror qabul qilishga ruxsat berish
- Sifat, tezlik va xarajat o'rtasidagi kelishuvlar haqida ochiq suhbatlarni va takliflarni rag'batlantirish
- Yutuqlarni tan olish va bir-birini qo'llab-quvvatlash

- Shaxsiy fikrni erkin va osonlik bilan bildirish, lekin kimdir boshqa yo'ldan borishga qaror qilsa, uni qo'llab-quvvatlash
- Ishonchga bo'lgan ehtiyojni yaratish
- Hamkasblar bilan yaqinroq tanishishga harakat qilish
- Xavflarni baholashda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvdan foydalanish va bildirilgan fikr mas'uliyatini o'z zimmasiga olish
- Qarorlarni aniq ifodalash va ta'sir qilgan omillarni nomlash
- Tashkilotlararo munosabatlarni o'rnatish va o'zaro manfaatli maqsadlarga erishish uchun kuchli ichki aloqalardan foydalanish
- Tizimli o'zgarishlarni amalga oshirishdan oldin, ularning yuqoridagi va pastdagilarga ta'sirini oldindan kuzatish

Mazkur amaliyotlar takomillashtirilgandagina korxona disfunktional modeldan funksional[6] xulq-atvor modeliga o'tadi va xodimlar o'rtasida o'zaro ishonch, kelishmovchiliklarni rivojlanish sifatida qabul qilish mexanizmi, yuqori mas'uliyatlilik, javobgarlik hissi va yuqori natijalar korxona samaradorligi va raqobatbordoshligi yo'lida ustunlardan biri bo'ladi.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:

1. P. Lencioni, *The Five Dysfunctions of a Team* (2018) и *Overcoming the Five Dysfunctions of a Team* (2015) (обе Сан-Франциско: Jossey-Bass)
2. Бас В.Н. Управление организационным поведением. //Научный вестник Московского государственного технического университета гражданской авиации. М.: МГТУ ГА, 2009. - № 146 (9).
3. Бас В.Н., Воронин В.Н. Системно-эклектичный подход в построении модели управления организационным поведением. //Кадровик. Кадровый менеджмент №3, 2019.
4. Fernandez, J. L. and L. Luna: 2017, 'The Creation of Value Through Corporate Reputation', *Journal of Business Ethics* 76(3), 335–346Trompenaars F, Woolliams P. When Two Worlds Collide // *Trompenaars Hampden-Turner Intercultural Management Consulting*, 2000.
5. Barney, J. and M. Hansen: 2014, 'Trustworthiness as a Source of Competitive Advantage', *Strategic Management Journal* 15(Special Issue), 175–190.

IJTIMOY MEHNAT MUNOSABATLARIDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH

*Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi -
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni hamda mehnatga bo'lgan taklif va talablarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Shuning uchun bugungi kunda yoshlarni bandligini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz yangi loyihalarni amalga oshirmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot va inson salohiyatini rivojlantirishda aholini ish bilan bandligi muhim omil hisoblanadi. Aholini ish bilan bandligini ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. Chunki kishilarning turmush darajasi, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari uchun kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasin oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun qilinadigan sarflar aholini ish bilan ta'minlanishiga bog'liqdir. Shuning uchun aholini ish bilan bandligini ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini tadqiq etish bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi PQ-92-sonli qarorida "Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishslashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

1. mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, besh muhim tashabbus loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;
2. yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish, deb PQ belgilandi.

Yoshlarga Prezidentimiz tomonidan berilayotgan yuksak e'tiborni biz "Vazirlar Mahkamasining 07.06.2022 yildagi "2022-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 310-sun qarori qabul qilindi. Unda Prezidentning 2021 yil 13 iyuldagi PF-6260-son Farmoniga muvofiq yoshlar tomonidan ko'tarilgan taklif va tashabbuslar, muammo hamda masalalar yechimi yuzasidan har yili "Yoshlar kuni" arafasida hukumatning dasturi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklarining alohida hududiy dasturlari qabul qilinadi. [1] Mazkur dasturlar yoshlarning bilim va kasb-hunar egallashi, ular uchun munosib ish va turmush sharoitini yaratish, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlardan iborat bo'ladi" ko'rishimiz mumkin.

Akademik Q.Abdurahmonov tomonidan "...ish bilan bandlikning eng kam deganda to'rt ijtimoiy jihatini hisobga olish lozimligini, ish bilan bandlikning insonning Konstitutsiyada belgilab berilgan eng muhim huquqi – mehnat huquqi bilan mustahkam bog'liqligi, turmush darajasi va munosib hayot kechirish shart-sharoitlarini shakllantirishda ish bilan bandlik hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aynan ish bilan bandlik mehnat faolligini oshirish, mehnatga qobiliyatli fuqarolar va ular oilalarining turmush darajasini oshirishning eng muhim kafolati, har kimning va umuman, jamiyat farovonligining negizi bo'lgan yuqori unumli mehnatning yangi omilini shakllantirish, aynan mehnat faoliyati insonni o'zgartiradi, uning kasbiy imkoniyatlarini ochib beradi va ko'paytiradi, shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradi", iqtisodchi olimlardan I.M.Aliev, N.A.Gorelov, L.O.Ilinalar ushbu tushunchaga: " Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq hamda mehnatdan daromad (ish haqi) keltiruvchi ijtimoiy foydali mehnat sifatida namoyon bo'lishi mumkin" [2] deb takidlangan.

Bugungi yoshlar eng bilimli avloddir. Biroq, ular mehnat bozoriga kirish va uni saqlab qolishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ularning ko'pchiligi uchun ishga o'tish muammoli. Yoshlarning ish bilan ta'minlanishi iqtisodiyotning umumiyligi ahvoli va mamlakatdagi umumiyligi bandlik holati bilan bog'liq. Shu bilan birga, ularga yoshlarning ta'lif va ko'nikmalari, bu ko'nikmalarning mehnat bozoriga mosligi, yoshlarga ushbu ko'nikmalarni qo'llash va ulardan foydalanish imkoniyatlari ham ta'sir qiladi. Ushbu omillar o'rtasidagi nomuvofiqlik ishsizlik davrlari yoki past malakali va xavfli ish bilan bog'liq bo'lgan uzoq vaqt ish qidirishga olib kelishi mumkin. Bu esa yoshlarning o'zlariga, shuningdek, o'z mamlakatlari iqtisodiyoti va jamiyatlariga katta muammo bo'ladi.

Yoshlar o'rtasidagi bandlikni ta'minlash va ishsizlik miqyosini tartibga solib turishning muhim usuli faoliyatning asosiy sohasi bo'lgan ehtiyojini pasaytirishdan iborat bo'lib, bunga ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lif oladiganlar sonini ko'paytirish, kichik yoshdag'i va maktabgacha yoshdag'i bolalari bor yosh ayollarga nisbatan esa oilalarga ijtimoiy yordam berishni yaxshilash yo'li bilan erishiladi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollarida xususiy sektorlarda asosiy ish o'rinalarini ta'minlovchi sifatida yoshlar uchun yangi va yaxshi ish o'rinalarini topishda muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan ko'plab mamlakatlarda alohida kompaniyalar yoki ish beruvchilar uyushmalarining mahalliy va milliy darajadagi

tashabbuslari gullab-yashnamoqda. Bu tashabbuslar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va institutsional kontekstga, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalariga, ma'lum bir mamlakatdagi biznes hamjamiyatining ehtiyojlari va imkoniyatlariga qarab turlicha bo'lishi shart. Biroq, umuman olganda, ular kompaniyalar va ish beruvchilar yoshlar bandligiga e'tiborni kuchaytirayotganidan dalolat beradi.

Ushbu eng yaxshi amaliyot qo'llanma menejerlar va ish beruvchilar uchun mo'ljallangan. Bu yosh ishchilarni yollash va inklyuziv va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratishda istiqbolli yondashuvni qo'llashning afzalliklarini tushuntiradi. Maktabdan ishga o'tish katta qadamdir. Oldinga fikrlaydigan ish beruvchilar yosh ishchilarning ish kuchiga o'tishlari va ishda ijobiy ishtirok etishlariga yordam berish muhimligini tushunishadi. Bu korxonalar biznes va uning xodimlarining ehtiyojlarini qondiradigan amaliy, qo'llab-quvvatlovchi va moslashtirilgan siyosatlarni amalga oshiradilar. Har bir ish joyi yosh ishchilarni yollashda ilg'or yondashuvdan foydalanishi mumkin.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari asosida mehnat bozorida ijtimoiy mehnat munosabatlarida yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha quyidagi takliflar shakllantirildi:

1. Xalqaro tajribalar asosida mehnat bozorida ehtiyojlari asosida yosh kadrlarni tayyorlash tarkibini takomillashtirishga xizmat qiladigan ko'nikmalarni aniqlash va baholash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2. Ta'lrim muassasalarida malakali yosh kadrlarni tayyorlash, ilg'or tajriba va zamonaviy texnologiyalar asosida ularning malakasini oshirib boorish lozim.

3. Bilim, malaka va ko'nikmalarning samarali almashinuvini ta'minlaydigan milliy axborot va maslahat xizmatlari tarmog'ini rivojlantirish kerak.

4. Mehnat bozorida ilmiy izlanishlar olib borayotgan, yosh kadrlar tayyorlayotgan barcha turdag'i davlat ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lrim muassasalarining o'zaro hamkorligini ta'minlash zarur.

5. Mehnat bozori ehtiyoji asosida mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-62-sonli farmoni. www.lex.uz

2. Abdurahmonov Q.X, Zokirova N.Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi.-T.: "FAN VA TEXNOLOGIYA", 2017, 536 b

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2960-sonli Qarori.2019 yil 6 may. www.lex.uz

MEHNAT RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHNING DEMOGRAFIK JIHATLARI VA RIVOJLANISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA ULARNING O'ZIGA XOSLIGI

**Izimbetov Kadir Saparbaevich -
Qoraqalpoq davlat universiteti mutaqil tadqiqodchi**

Zamonaviy sharoitda mehnat resurslaridan samarali foydalanishga erishish muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifadir. Ushbu muammoni hal qilish mamlakat darajasida ham, uning mintaqalarida ham mehnat resurslarining miqdoriy va sifat xususiyatlarining reproduktiv jihatlari bilan o'zaro bog'liqdir. Mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: shakllantirish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish


(foydalaniш). Shu bilan birga, reproduktiv jarayonlarni tahlil qilish ularning shakllanish bosqichini tahlil qilishdan boshlanishi kerak [3]. Chunki bu bosqichda iqtisodiyotni ishchi kuchi bilan ta'minlash imkoniyati yaratilgan.

Demografik vaziyat mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlariga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun aholining barcha yosh guruhlari mehnat salohiyatidan samaraliroq foydalaniш uchun mehnat resurslarini shakllantirish bosqichidagi demografik jihatlarni batafsil o'rganish zarur.

Mehnat resurslarini shakllantirishda demografik omillarni tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi aholi soni hisoblanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida demografik vaziyatning asosiy ko'rsatkichlarining hududiy kesimi tug'ilish darajasi va aholining tabiiy o'sishi bo'yicha ma'lum farqlarni ochib beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi yangi demografik vaziyat, asosan, tug'ilish ko'rsatkichining pasayishi bevosita mintqa ahonisining yosh tarkibining hozirgi dinamikasida o'z ifodasini topmoqda. Bu aholining yosh tarkibidagi 15 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushining izchil kamayishi bilan tavsiflanadi

Qoraqalpog'iston Respublikasi ahonisining zamонави yosh tarkibida 1990-yillarning boshidan boshlab tug'ilish keskin pasayganiga qaramay, yosh toifalar ustunlik qilmoqda. Jumladan, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 72,4 foiz, jumladan, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar 46,9 foiz, 16-29 yoshli yoshlar esa 25,5 foizni tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi ahonisining yosh tarkibida so'nggi yillarda bolalar salmog'i kamayib bormoqda, keksa nogironlar salmog'i o'zgarishsiz qolmoqda, mehnatga layoqatli yoshdagilar ulushi doimiy ravishda o'sib bormoqda (1-rasm).

Raqamlardan ko'rinish turibdiki, so'nggi yig'ra yillik davrda (2000-2022-yillar) mehnatga layoqatli aholi ulushi qariyb 7 foizga oshib, salkam 59,2 foizni tashkil etadi. Ko'rib chiqilayotgan davrda mehnatga layoqatli yoshga to'limgan bolalar ulushi 9,2 foizga kamaydi va bugungi kunda 30,8 foizni tashkil etadi.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi doimiy ahonisining yosh boyicha taqsimlanishi[4]

Mehnat resurslari shakllanishiga ko'pgina omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bular orasida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Ma'lumki, mehnat resurslarisiz ishlab chiqarish ham, uning moddiy mahsuli ham bo'lmaydi.

Mehnat resurslarining soni va sifati aholining soni va yosh-jins tarkibi bilan belgilanadi. Bular esa o'z navbatida aholining tabiiy harakatlanishiga bog'liq bo'ladi. Aholining yosh va jins tarkibining o'zgarishi bir-biri bilan uzviy bog'langan mehnatga layoqatli aholi va u orqali mehnat resurslarining shakllanishiga, mehnat resurslarining shakllanishi esa mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy taraqqiyotiga o'ziga xos tarzda ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat resurslari tarkibi iqtisodiy faol va iqtisodiy nofaol aholidan tashkil topgan. Iqtisodiy faol aholi (ishchi kuchi)ga – mehnat faoliyatining daromad keltiruvchi har qanday

turi bilan shug'ullanuvchi shaxslar, shuningdek ishga joylashtirishga muhtoj ish bilan ta'minlanmagan aholi kiradi [2].

Mehnat resurslarining soni, sifati va tarkibi uch harakat turi ta'sirida shakllanadi. Mehnat resurslarining soniga aholining tabror barpo etilishi ko'proq ta'sir ko'rsatsa, uning sifat ko'rsatkichiga aholining ijtimoiy va hududiy (migratsion) harakatlari katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirish iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni va mintaqalarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni talab qiladi. Chunki, mintaqalar iqtisodiyotini ko'tarmasdan, islohotlarni chuqurlashtirmasdan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas. Aynan mintaqalar milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarini, unga xos xususiyatlarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Bunda mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar, demografik vaziyat va inson resurslari, ma'muriy-hududiy tuzilmalar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi 1998 yilda qabul qilingan amaldagi qonun aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda ko'plab talablarga mos kelmay qoldi. Xususan, u tadbirkorlikni rag'batlantirish, o'zini o'zi ish bilan band qilish, ishsizlarni kasb-hunarga o'qitish va axborot tizimlaridan samarali foydalanishni o'zida aks ettirmasligi, shuningdek bandlik sohasidagi mavjud muammolarni tizimli hal qilishga huquqiy imkon yaratmasligini e'tiborga olgan holda 2020 yil 20 oktyabrida O'RQ-642-sonli «Aholi bandligi to'g'risida»gi yangi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 2021 yil 21-yanvardan kuchga kirdi [1]. Ushbu Qonunning maqsadi aholi bandligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholini ish bilan ta'minlash mintaqaga iqtisodiyoti rivojlanishining muhim sharti va aholi turmush darajasini oshirishning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik muammolarini bartaraf etishda mintaqaga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish asosida yangi tabiiy resurslarni ishga solinishi, yangi sanoat zonalarini tashkil etilishi, transport tizimining rivojlantirilishi aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasini ko'tarilishiga olib keluvchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Mintaqadagi eng dolzarb muammolardan biri qishloq joylarida ortiqcha mehnat resurslarining to'planib qolishidir. Iqtisodiyotning hozirgi taraqqiyotida iqtisodiy faol aholidayan samarali foydalanishning zarurligi, qishloq joylarini har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi. Qishloq joylarida mahalliy xom-ashyo hisobiga yangi sanoat tarmoqlarini tashkil etish yoki xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlarini rivojlantirish asosida yangi ish joylarini yaratish, ortiqcha bo'lgan mehnat yoshidagi aholini ish bilan band qilish muammosini ma'lum darajada hal qilish mumkin.

Mehnat resurslaridan oqilona va samarali foydalanish mintaqaning ravnaqi va aholi bandligini to'laroq qondirish, ularning turmush tarzini yuksaltirish masalasi bilan chambarchas bog'liqidir. Bizningcha, mintaqada ishsizlik darajasini pasaytirish va mehnatga layoqatli yoshdagagi aholini ish bilan bandlik darajasini ko'tarish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- kelajakda mehnat resurslarining o'sish sur'ati bilan ish joylarini o'sishi sur'ati o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlashga erishish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan kamchiliklarni bartaraf etishni yanada kuchaytirish;
- yosh farzandlari bor ayollarni hamda ishslash istagida bo'lgan pentsionerlarni bandligini tashkil etish;
- engil va oziq-ovqat sanoatlarida yakuniy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni kengaytirish va rivojlantirish;
- mehnat resurslari ko'p joylashgan hududlarda mehnatni ko'p talab qiluvchi engil va oziq-ovqat mahsulotlariga ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini ochish va x.k.lar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикасининг ЎРҚ-642-сон «Аҳоли бандлиги тўғрисида»ги Қонуни, 20.10.2020 йил. <https://lex.uz/docs/5055690>
2. Сауханов Ж.К. Утемуратов Р.Б. "Воспроизведение структуры населения и браков" Электронный научный журнал «Бюллетень науки и практики», Москва №5. – 2017. – Б. 8-19.
3. Саградов А.А. Экономическая демография: Учеб. пособие. – Москва: Наука, 2005. С.8
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi ma'lumotnomasi. <https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

КОРХОНАЛАРДА ИНСОН ҚАДРИНИ ОШИРИШДА ПЕРСОНАЛ МОТИВАЦИЯСИННИГ ЖАРАЁНИЙ НАЗАРИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

Ахмедов Музаффар Шокиржонович -
"Менежмент" ихтисослиги таянч докторанти
Наманган муҳандислик-технология институти

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида “Жаҳон миқёсидаги мураккаб жараёнларни ва мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт натижаларини чуқур таҳлил қилинг ҳолда кейинги йилларда «Инсон қадри учун» тамойили асосида халқимизнинг фаровонлигини янада ошириш, иқтисодиёт тармоқларини трансформация қилиш ва тадбиркорликни жадал ривожлантириш, инсон хуқуқлари ва манфаатларини сўзсиз таъминлаш ҳамда фаол фуқаролик жамиятини шакллантиришга қаратилган ислоҳотларнинг устувор йўналишларини белгилаш мақсадида: ... инсон қадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш ..”[1] билан боғлиқ энг устувор бўлган вазифалар белгилаб берилди. Мазкур ҳалқчил бўлган вазифаларни ижросини юқори суратларда таъминлаш, корхоналарда персонални бошқаришнинг мотивацион механизмини ҳам такомиллаштириш бўйича илмий ва амалий таклиф ва тавсияларни ишлаб чиқишини талаб этади.

Фикримизча ҳозирда корхоналарда персонал мотивациясини яхшилаш учун аввалдан маълум бўлган жараёний назарияларни ўринли қўллаш тизимини такомиллаштириш лозим.

Персонал мотивациясининг мазмунли назариялари инсоннинг хулқ-атвори ва эҳтиёжларига белгиловчи асосий омилларга таянган бўлса, жараён назарияси вакиллари мотивацияга бирмунча фарқли ёндашувни таклиф этади. Яъни жараёний назарияда персонални турли хил мақсадларга эришиш юзасидан харакатларини қандай тақсимлаши ва харакатланишнинг қайси турини танлаши тахлил қилинади.

Бу назария бўйича уч асосий йўналиш мавжуд:

1. Кутиш назарияси
2. Адолат (тенглик) назарияси
3. Портер-Лоулер назарияси.


Кутиш назарияси асосчиларидан бири В.Врумнинг фикрича эҳтиёж персонални мақсадли фаолиятга йўналтиришда ягона мотивация манбаи ҳисобланмайди. Персонал танлаган харакати орқали қаноатланишини умид қиласи, яъни у ишда натижа кўрсатади ва шунга мувофиқ келадиган мукофот кутади.

Кутиш назариясида персонални мотивация қилишни тахлилини юритганда З та муҳим жиҳатга эътибор қаратилган: меҳнат сарфи – натижалар, натижа – рағбат (мукофот), қониқиши даражаси. Мотивацияни аниқлаш учун ушбу учта муҳим омилдан бирортасининг қиймати паст бўлса, унда мотивация заиф бўлади ва меҳнат

натижалари паст бўлади. Бу омилларнинг нисбатини қуйидаги формула билан ифодалаш мумкин[2].

$$\text{Мотивация} = (C - H) * (H-P)^* \text{қониқиши}$$

Персонал бажарилган ишга мос равишда хақ олиши ёки рағбатлантирилиши керак. Ана шу олинган ҳақ натижасида персоналда қониқиши ёки қониқмаслик ҳолати келиб чиқади. Юқоридаги омиллар ўртасидаги нисбатни қуйидагича акс эттириш мумкин (1-расм).



1-расм. Врумнинг мотивациялаш модели[3]

Инсонда тегишли меҳнатни амалга оширгандан сўнг, меҳнатига мувофиқ бўлган моддий ёки маънавий кутиш жараёни ҳосил бўлади. Менежерлар томонидан буни вақтида тахлил қилиб, ўринли таъсир кўрсатилса корхонада самарадорлик ортади.

Жараён назарияларидан бўлган кейинги назария Ж.Адамснингadolat назариясидир. Бу назария асосида тенгликни сақлашга эътибор қаратилган. Ж.Адамс "қўшган хисса" ва "қабул қилинган ҳақ" ўртасидагиadolatлиликни ҳисобга олиб қуйидаги тушунчаларни киритади:

1. Кириш - бу биз ишлашга сарфлаган ҳаракатларимиз.

2. Натижалар - бу бизнинг ишимиз натижаси ва бизнинг ҳаракатларимиз учун оладиган нарсамиз. Масалан, пул мукофотлари, мартаба ва меҳнат шароитлари.

3. Натижаларимиз ва мукофотларимизни солишириадиган одамлар бошқалар.

Персонал бажараётган ишимга кам ҳақ берилмоқда, деб ҳисобласа иш фаолиятида сусткашлик кузатилади. Бундан ташқари персонал қилган меҳнатига берилган ҳақни ўзи билан бир хилдаги ишни бажарган бошқа персоналга берилган иш ҳақи билан солишириади. Натижадолatsизликни кўрсатса, персонални ишга бўлган мотивацияси тушиб кетади. Унинг мотивациясини яхшилаш учун айнан шу dolatcizliklariga барҳам бериш кераклиги назарияда таъкидланади.adolat назарияси корхонада доимий эътибор бериш керак бўлган назариядир. Бу назария 1960 йилларда жорий этилганидан бошлаб айтарли машхур бўлмаган бўлсада, ҳозирда ҳам долзарблигини йўқотмаган. Айниқса биз мусулмонларда dolatli иш юритишга бўлган рағбат юқори бўлганлиги учун ҳам ушбу мезонга алоҳида эътибор қаратиш даркор. Бу тизим нафақат персонални моддий жиҳатдан рағбатлантиришда, балки уларни танлаш, жойжойига қўйишда ҳам ўз самарасини кўрсатади. Менежерлар томонидан dolatli бўлишга етарлича эътибор қаратилиши персоналдаги мотивни самарали ишлашига олиб келади. Чунки айнан мотив инсондаги мавжуд манфаатга асосланади. Персоналнинг бажарган ишига мос равишида манфаати қондирилса, ундаги мотивацияни оширади ва шу асосида янада яхшироқ ишлашга ҳаракат қиласdi.


Мотивациянинг кейинги жараён назарияси 1968 йилда Лайман Порттер ва Эдвард Лоулер томонидан киритилган. Бу аввалги dolat ва кутиш назарияларини ўз ичига олади ва у 5 та элементдан иборат:

1. Сарфланган куч
2. Идрок
3. Натижалар

4. Мукофот
5. Қониқиши[4].

Бу икки олимнинг таъкидлашича, меҳнат сарфи ва мукофот ўртасидаги боғлиқлик аниқ намоён бўлади. Ташқи мукофотлардан ташқари персонал ўз ишидан қониқиши даражасига етгандан сўнг ички мотивация шаклланади. Бунинг натижасида персоналда ўз-ўзини хурмат қилиш ортади, шахсий умумий ривожланишга интилиш ва малака оширишга қизиқиши пайдо бўлади.

Портер-Лоулер модели (2-расм) тенглик назарияси тамойилларига асосланган бўлиб, ҳар бир киши олинган мукофотлар, натижалар ва инвестиция қилинган саъй-ҳаракатлар нисбатиadolatiliigiga ўзи баҳо бериши мумкин.



2-расм. Портер-Лоулер модели[5].

Менежерлар назария таркибидаги барча элементларга эътиборли бўлса, мотивация бўйича иш самарадорлиги ортади. Портер - Лаулер назарияси юзасидан ишчиларга турли муҳим ишлар ишониб топширилади, ишлаб чиқариш вазифалари жамоа бўлиб амалга оширилади, моддий иш хақи миқдори ходимнинг малакаси, компаниянинг даромадларида иштирок этиш ва қўшимча тўловлар билан таъминланади, янги ишчилар мавжуд иш тўғрисида тўлиқ дастлабки тасаввурга эга бўладилар.

Персонал билан ишлаган мутахассислардан яна бири Эдвин Лок фикрича персонал мотивациясининг асосида мақсадга эришиш йўлида ишлаш туради. Аниқ эришиш мураккаброқ бўлган мақсадлар, содда ва ноаниқ мақсадларга қараганда анчагина кўпроқ мотивация беради[6]. Эдвин Локнинг мақсад асосида ходимлар мотивациясига таъсир этиш назариясини қўллаш орқали персоналнинг иш жойидан қониқиши кузатилади, кўрсатмалар аниқлиги ва мақсад аниқ бўлганлиги учун унга босқичма-босқич эришилгани сари мотивация яхшиланади, персонал ҳам мақсадсиз харакатланмаслик рефлекси шаклланади. Бу назариянинг афзалликларидир. Фақат мақсадлар бўйича бошқарув барча персонални қамраб олиши керак.

Фикримизча мотивациянинг жараёний назариялари бир-бирини тўлдирувчи характерга эга. Шу билан бирга ҳозирда ҳам ўз кучини йўқотмаган. Чунки бу назариялар асосида ҳам инсонни қадрлаш туради. Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, инсон ишлаётган жойида қанчалик кўп қадрланса, унинг самарали ишлашга бўлган иштиёқи ортиб боради. Бунинг учун юқоридаги назариялардан корхоналарда ўринли фойдаланиш тизимини такомиллаштириб бориш даркор.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>.
2. Егоршин А.П. Мотивация трудовой деятельности: Учебное пособие. – Н.Новгород: НИМБ, 2003. – 27 с.
3. Травин В.В. Менеджмент персонала предприятия: Учеб.-практ. пособие.- М.:Дело,2003.с139.
4. https://spravochnick.ru/menedzhment/motivaciya_deyatelnosti/teoriya_portera - loulera/
5. Травин В.В. Менеджмент персонала предприятия: Учеб. - практик. пособие.- М.: Дело, 2003.с142
6. <https://www.researchgate.net/publication/232501090 A Theory of Goal Setting Task Performance>

TADBIRKORLIK TIZIMINI BARQARORLIGI, IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INSON KAPITALI VA O'RTA SINFI AHAMIYATINING OSHIB BORISHI

**Karimova Madina Maxsud qizi -
2-kurs magistratura iqtisodiyot yo'nalishi talabasi
Urganch Davlat Universiteti**

Innovasion rivojlanish sharoitida uning muhim omili hisoblangan tadbirkorlik tizimning barqaror va xavfsiz faoliyat olib borishi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Tadbirkorlik tizimi bir vaqtda iqtisodiyot, jamiyat va atrof-muhiti barqarorligining boshlang'ich bo'g'ini hamda vositasi sifatida qaralmoqda. Jahonda tadbirkorlik sub'yektlari soni umumiyligi yuritayotgan korxonalar ulushida, ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi va aholi bandligidagi ulushlari, shuningdek tadbirkorlik tabaqasining asosi bo'lgan jamiyat o'rta sinfining ham ulushi rivojlangan mamlakatlarda o'sib bormoqda. Jumladan, tadbirkorlik sub'yektlarning soni ularda umumiyligi korxonalarining 90 foizidan oshig'ini, YAIMining 52-70 foizini va mehnatga layoqatli aholi bandligini o'rtacha 41-79 foizini tashkil qilmoqda va tadbirkorlik tizimi ular iqtisodiyoti rivoji, jamiyat hamjihatligi va ekologik mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.[1]

Yangi O'zbekistonni bunyod qilish jarayonida tadbirkorlik tizimi barqaror rivojlanishi va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalarini hal qilishga iqtisodiy-ijtimoiy yondashuv zarurligi e'tirof qilinadi. Bu yondashuv tadbirkorlarning o'rni, soni va hajmi, ularning jamiyatdagi alohida faol tabaqa sifatida shakllanib nufuzi oshib borishi, hamda ishlab chiqarishda ko'p sonli xo'jalik sub'yekti sifatida cheklangan tabiiy resurslardan keng foydalanishi, shuningdek o'z faoliyatida raqobatbardoshligini oshirish zarurligi bilan muhimdir. Mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlik omili bo'lgan tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha yanada qulay sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Jumladan, Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisiga murojaatnomasida "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko'rib chiqilib ularning soni qisqartiriladi hamda Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqiladi" deb alohida ta'kidladi.[2]

Innovasion omil sifatida inson kapitali o'sishining amaliyotdagi o'rni juda yuqori, individual va ijtimoiy o'sish nuqtai nazaridan esa eng samarali bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotning drayveri hisoblanadi. Inson kapitaliga bo'lgan bunday investisiyalar faqat o'rtasinf va uning faol tadbirkorlik qismiga, pirovard natijada jamiyatning barcha ijtimoiy tabaqalarining real daromadlarining oshishiga, ularning yuqori turmush darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.[3]

Kichik biznesni yuqori sur'atlarda ustuvor yo'nalish sifatida qarashib uning taraqqiyoti har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, shu jumladan, zarur investisiyalar hajmi o'sishi o'rtasinf hissasini salmoqli oshishiga olib keldi. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi hisobkitoblari va ayrim ekspert va tadqiqotchilar baholashi bo'yicha mamlakatimizda hozirgi davrda 50 foiz, ayrim manbalarda esa turli uslublarga asoslangan holda undan ham ortiqroq aholi o'rtasinfga mansub deb hisoblashmoqda va 2030 yilga borib esa 37 mln mamlakat aholisining 60 foizidan oshiqrog'i mazkur singfa mansub bo'lishi va kam ta'minlanganlar soni esa 15 dan 8 foizga, ya'ni deyarli ikki barobar qisqarishi bashorat qilinmoqda. Shuningdek, inson omilining asosi bo'lgan zamonaviy ta'lim tizimining o'rtasinf shakllanishi, ayniqsa uning tarkibi yaxshilanishidagi o'rnini hisobga olib yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni 60,9 mingdan 160 ming kishiga yetkazish, oliy ta'lim ko'lamini 10 dan 25 foizga ko'tarishni va mutaxassisliklar kesimidagi ustivorlikni qayta ishslash sanoati tarmoqlari, xizmat ko'rsatishning murakkab sohalariga berishni va bu mutaxassisliklar bo'yicha bitiruvchilar hissasini oshirishni taklif qilishmoqda.[4]


Istiqlolda o'rtasinf salohiyatini yana oshishi bir qator muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liqligi e'tiborga olinib bu omillar mohiyati va ulardan samarali foydalanish yo'llari, shuningdek, turli uslubiy yandashuvlarga tayanib ayrim munozarali xulosalarga kelmaslik maqsadida, izlanishlar fikrimizcha chuqur va har tomonlama fanlararo tadqiqotlar asosida olib borilishi lozim:

birinchidan, inson kapitalini rivoji tabaqaning yaratuvchanlik salohiyatini rivojlantirishda davlatning, inson kapitali, xususan, ta'lim tizimiga investisiyalar qo'yilishini ustuvor yo'nalish sifatida asoslashga qaratilgan tadqiqot izlanishlarini kengaytirishi va har tomonlama qo'llab-quvvatlashi kerak;

ikkinchidan, ijtimoiy mehnat unumdarligini oshirish, iqtisodiyot real sektorida moddiy, energetik xarajatlarni keskin kamaytirish, mamlakat yalpi ichki mahsulotida innovasion mahsulot ulushini oshirishda asosiy tashkilotchi bo'lgan o'rtasinfni har tomonlama qo'llab quvvatlash;

uchinchidan, o'rtasinfning biznes asosida faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratish va ular natijasida jamiyat hamjihatligi, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash;

to'rtinchidan, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik, hamjihatlik va xavfsizlik asosi bo'lib xizmat qilayotgan bu ijtimoiy tabaqaning mavqeい va nufuzini e'tiborga olib uning jamiyatdagi yangi ijtimoiy-siyosiy tizim sifatida shakllanishdagi o'rni va ahamiyatini turli maxsus miqdor va sifat usullari, jumladan, iqtisodiy-statistik, sosiologik so'rovnomalar, ekspert baholash va boshqa usullar orqali fanlararo tadqiqotlar olib borish va ular natijasiga tayanib bu ijtimoiy tabaqaning jamiyat va iqtisodiyotdagi o'rnini to'g'ri baholash hamda ular siyosiy erkinliklarini, o'z-o'zini boshqarishining institusional yo'nalishlarini yanada takomillashtirishdir. Ta'kidlash joizki, jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotidagi bu makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamik o'sishida uzviylik va barqarorlik jahon hamjamiatidagi keyingi inqiroz va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, hozirgi murakkab pandemiya sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror, mutanosib o'sishining asosiy omili va vositasi bo'lgan o'rtasinf va kichik biznes mavqeい yanada oshayotganligini e'tirof qilish lozim. Jumladan, keyingi davrda mamlakatimizda bu omillar o'sish sur'atlari tahlili o'rtasinfning jamiyatdagi ulushi 2000 yildan 2020 yilga aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra 2,4 barobar, shu davrda esa kichik biznesning YAIMdagi hissasi deyarli 1,7 marta va umumiy bandlikdagi ulushi 1,5 barobar oshgan.



1-rasm. Jamiyat tarkibida o'rta sinf, kichik biznesga ajratilgan kapitalning umumiy kapital qo'yilmasidagi, YAIM va bandlikda KBXTulushlari oshib borishi[6]

Jamiyatda o'rta sinf tabaqasi ulushi ortishi, tarkibi takomillashishida moddiy omillar, jumladan, investisiya va ularda bevosita kichik biznesga yo'naltirilgan kreditlarning xissasi ahamiyatlidir. Shuningdek, kichik biznesning mamlakat investisiyasi va eksportidagi hissasi o'sib borayotganligini ham ta'kidlash mumkin. Davlat statistika ko'mitasi statistik ma'lumotlariga ko'ra kichik biznes sub'yeqtalarining 2000-2020 yillarda investisiyadagi ulushi 15,4 foizdan 49,7 foizga, ya'ni deyarli 3,2 barobar, eksportdagi hissasi esa 10,2 foizdan 20,5 foizga, ya'ni 2 barobardan ortiq o'sgan.[7]

Demak, jamiyatda insonning egallagan va foydalanilgan bilim, malaka, ko'nikmalari yig'indisiturli moddiy, nomoddiy va ijtimoiy extiyojlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlari natijasida o'rta sinf shakllanadi va rivojlanadi. Birinchidan, bu muhim hayotiy ehtiyojlarni ta'minlashga erishish uchun qilingan harakatlardarajasi va xususiyatlari, intellektual va boshqaruv tizimining instrumentlari orqali keng ma'noda real va salohiyatli resurs hamda institusional muhitning asosi bo'lgan ijtimoiy kapitalining samarali va rasional o'sishini ta'minlaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarishning intensiv omili bo'lgan inson kapitali bilan jamiyat o'rta sinfining faol qismi, tadbirkorlik tabaqasining jadal shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси./ Халқ сўзи газетаси 30.12.2020
- 2.Фахруддинова Е.В, Васильев А.К. Дуалистический характер взаимообусловленности качества жизни населения и среднего класса в современной экономической системе //Экономические науки, 2011 №12, стр 83-87
- 3.Статистик тўплам "Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидағи (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари" Тошкент: "Ўзбекистон" 2011, 83б. Райханов У.А Ижтимоий-иктисодий ислоҳотлар чуқурлашувида ўрта синфнинг роли.// Иқтисод ва молия 2013. №4. 24б.Мухамедханова К. Социальная защита: на пороге нового этапа.// Экономическое обозрение. 2014, №1, стр.36-37.
4. Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси расмий сайти (www.stat.uz)
- 5.<https://stolypin.institute/wp-content/uploads/2018/07/issledovanie-ier-msp-27.07.18.pdf>
6. Влияние социальной политики на формирование среднего класса в России.VRL; <http://Mip ekonomiki.ru/articles/влияние-социальнойполитики – на формы.-4html>

РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА ХУДУДИЙ ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРНИНГ АСОСИЙ ОМИЛЛАРИ

Қодиров Абдурашид Маджитович –
ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини
ривожлантиришнинг илмий асослари ва
муаммолари” ИТМ сектор мудири, и.ф.д., проф.

Маъмуроғ Бахтиёр Ҳолматжанович –
ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини
ривожлантиришнинг илмий асослари ва
муаммолари” ИТМ кичик илмий ҳодим

Raқamli iқtisodiётни шакllanтиriш давлат boшқaruvni tizimlariда, давлат корxonalari va taшkilotlari tizimiда, йирик korporativ sektor tizimlariNi ўz ichiga oлgan makrodaражадаги омилларда, ҳамда kичик korporativ sektorдаги korxonalarni ўz ichiga oлgan mikrodaражадаги ёндашувларini iшlab чиқishni талаб этadi. Buлap raқamli iқtisodiётning boшқaruv daражalariNi тавсифlovchi жихатlar бўлиб, undagi maқсадлар, vазifalar, kўrsatkiчlar, resurслar va risklar shunга mos равишда шакllanтирилади va amalga oширилади.

Raқamli iқtisodiётda маъlumotlarning тўғрилиги va iшончлилигини taъminлаш энг muҳim muammolardan biри ҳисобланади. Bундан ташқari, mazkurn жараёнларда йирик маъlumotlar bilan iшlaш тажриba va kўnikmalarinинг etarli emasligi, mutasaddi tashkilot va idoralar уrtasidagi keliшuvlарning tarқoқligi, monitoring va хужжатлаштириш iшlari самарадорлигининг pastligi kabi omillar raқamli iқtisodiётning шакllaniшида асосий muammolap ҳисобланади [1].

Raқamli iқtisodiётни юқорида қайд этилган makro va mikrodaражадаги boшқaruv tizimlariNi milлий maъlumotlar tizimiga integratsiyaлаш, ustuvor йўналишлар, maқсадлар, vазifalar va kўrsatkiчlarni dekompozitsiyaлаш, taъlim va tarбия tizimi, risklarни boшқariш, taхлиliy monitoring va назорат olib boriш ҳамda kўrsatkiчlar tiziminini agragatlashтириш ушбу жараёнларни ташkil этuvchi асосий tizimlar sifatiда баҳolanадi.

Minтақадa raқamli iқtisodiётga ўтишning ҳар bir технологик босқичига, tuzilmасига, unинг функцияларiga, maҳsулотларiga, инструментларiga, usul va воситаларiga ҳамda механизmlariga mutanosib равишда olib boriлиши mazkurn масалага хозирданok aloҳida жiddiy эътибор қаратишni тақozo этadi [2].

Юқорида taъkidlanганидек, tarкиbiй ўзgariшlar tarkiбий tuzilmаси доирасида amalga oширилиб, бизнес va unинг vакillari, ilmий muассасалар, taъlim tashkilotlari, kасабa uюшmalari va maҳalлиy aҳoli konсенсуаллигиларни ўz ichiga oladi. Bозор va maъmuрий turларning tarkiбий ўзgariшlarini mазмуни tarkiбий ўзgariшlarning назарий va metodologik жихатlariда etarli daражada namоён бўлиши лозим. Bu жихatlar minтақавий iқtisodiy tizimni iерархik асосда tuzilgанилиги учун ҳар xил turдagi va daражадаги elementlarning barқарор ўзаро taъсири bilan muраккab tizimni ёндашувlарini қонун va tamойилларini ҳисобга oлган ҳолда қурилиши лозимligini тақozo этadi. Bu tizim tarkiбининг maқsadli taъsiр kўrsatiши эволюцион doирасида unинг ички nisbatlарinin

ўзгаришига олиб келади. Бироқ, минтақавий иқтисодий тизим икки томонлама характерга эга бўлганлиги учун, барқарорлик ва ўзгарувчанлик каби хусусиятларнинг мавжудлигида намоён бўлади, бу унинг ривожланишининг инертигини белгилайди.

Бизнинг фикримизча таркибий трансформация методологияси қуйидаги элементларни ўз ичига олган бўлиши керак:

минтақавий даражадаги таркибий ўзгаришларнинг мақсади, кенг маънода унинг тузилмасини уйғунлаштириб худудий иқтисодиётнинг ўсишини таъминлаши;

таркибий ўзгаришларни амалда амалга ошириш усуllibарини шакллантириш учун асос бўлган, минтақа иқтисодиётида таркибий ўзгаришларнинг тамойиллари. Улар асосида минтақавий иқтисодиёт тузилмасини такомиллаштиришга таъсир кўрсатиш учун етарли воситалар аниқланади;

ички ва ташқи муҳит омиллари, шунингдек интенсив ва экстенсив характердаги омилларни ўз ичига олган таркибий ўзгартеришнинг минтақавий омиллар тизими;

минтақавий даражада таркибий ўзгаришларга тўсиқлар;

минтақа иқтисодиётда таркибий ўзгаришларнинг йўналишларини қуйидагилар асосий деб кўрсатиш мумкин: интеграция, ижтимоий, модернизация, тармоқ, кластер. Бу соҳалардаги таркибий ўзгаришларнинг омиллари инвестиция, инновация, меҳнат ресурслари, ахборотни қўллаб-қувватлаш, шунингдек институционал ва қонунчиликни қўллаб-қувватлашдир.

Рақамлаштириш шароитида таркибий ўзгаришларнинг мазмuni, рақамли иқтисодиёт талабларидаги ўзгаришларни ҳисобга олиши муҳим ҳисобланади. Натижада, минтақа иқтисодиёти таркибий ўзгаришлари методологиясини мослаштириш зарурлигини назарда тутади, яъни у тизимли ёндашув асосида қурилиши керак бўлади. Ушбу тизимли ёндашувнинг моҳияти шундан иборатки, мураккаб ва гетероген тузилишга эга бўлган ҳар қандай тизим нафақат мувозанатли бўлиши билан бирга, ташқи муҳитнинг турбулентлигини ҳисобга олган ҳолда ўз вақтида ўзгартерилиши керак.

Методиканинг бу қўриниши рақамли иқтисодиётта ўтиш талабларига жавоб беради, бу эса хўжалик юритишининг дастурли-предметли моделидан фойдаланиш зарурати ҳисобланади.

Рақамли иқтисодиёт талабларига мувофиқ, тузilmавий ўзгаришларнинг мақсади, минтақавий иқтисодиётнинг ўсишини, унинг тузилмаларини уйғунлаштириш ва ривожланган рақамли инфратузилмага асосланган асосий иқтисодий жараёнларнинг самарадорлигини оширишдан иборат.

Минтақа иқтисодиёт таркибий ўзгаришлари нафақат қуйидаги асосий тамойилларга асосланиб қолмасдан балки:

назария ва амалиёт бирлигини, зиддиятларни ҳал этиш орқали ривожланишини назарда тутувчи таҳлил тамойили;

таркибий ўзгаришлар тамойили, тизимлар ва изоморфизм жараёни учун аттракторлар ва катализаторлардан фойдаланиш ва синергетик таъсир асосида таркибини ўзгариш тамойили;

таркибий ўзгаришларнинг кетма-кетлиги тамойилларга хамда қуйидаги кўрсатилган тамойилларига асосланган бўлиши керак [3].

Рақамли иқтисодиётнинг талаблари ушбу рўйхатга қуйидагиларни кенгайтиришга йўналтирилади: яъни,

рақамли технологияларнинг юқори ўзгариш тезлигини ҳисобга олган ҳолда таркибий ўзгаришларнинг мослашувчанлик тамойили;

иқтисодиётнинг анъанавий ва «рақамли» тармоқларини уйғунлаштириб ривожланадиган минтақавий иқтисодий тузilmани яратишни назарда тутувчи уйғунлик тамойили;

минтақа иқтисодиёти тузилмасини уларга адекват қуриш учун ташқи мұхитдаги әхтимолий үзгаришларни узлуксиз прогноз қилиш заруратидан иборат стратегиялаш тамойили.

Минтақавий иқтисодиётни таркибий үзгартеришнинг анъанавий белгиланган омиллари билан бир қаторда, рақамлаштириш шароитида таркибий үзгартеришнинг асосий омиллари, рақамли технологиялар, ахборот ва инновацияларни ривожлантиришга йўналтирилган бўлади.

Рақамли иқтисодиёт талабарини ҳисобга олган ҳолда тармоқ иқтисодиётининг таркибий үзгаришларини амалга ошириш қуйидаги таъсирларни олиш имкониятини беради:

шахс, ташкилот ва жамиятнинг меҳнат салоҳиятини ривожлантириш ва инсон капиталини ошириш;

бандликнинг ностандарт шаклларига туртки бериш асосида аҳолининг меҳнат ҳаракатчанлиги ва ишбилармонлик фаоллигини ошириш учун шарт-шароитлар яратиш (эркин, тўла вақт, вақтинчалик ва иш билан банд ва ҳоказо);

минтақада инвестиция фаолияти учун катализатор сифатида рақамли инфратузилмани шакллантириш;

аҳоли турмуш даражасининг ўсиши ва кишиларнинг меҳнат қилиш сифати ўсиши.

Иқтисодиётни давлат томонидан бошқариш жараёнида рақамли технологиялар алоҳида рол ўйнайди. «Электрон ҳукумат» ва «Электрон давлат хизматлари «бугунги куннинг талабидир. Бу технологиялар, минтақавий иқтисодиётдаги манфаатдор томонларнинг асосий гуруҳлари манфаатлари кесишган ва мувофиқлашган макондир. Натижада, рақамли технологиялардан фойдаланиш ва ривожлантириш экологик муаммоларни ҳал қилиш ва антропоген фаолияти оқибатида атроф-муҳитга зарарни камайтириш, аҳолининг ҳаёт сифатини яхшилаш, шу жумладан, минтақавий иқтисодий ишлар кўрсаткичлари ўсишига ёрдам беради. Шундай қилиб, рақамли иқтисодиётнинг талабари, минтақавий даражада иқтисодиётнинг таркибий үзгаришлари мазмунида мұхим үзгаришларни амалга оширишни назарда тутади ва мақсадга аниқлик киритади, тамойилларни тўлдириш, омиллар таркибини кенгайтириш, тўсиқларни ва йўналишларни үзгартеришдан иборат бўлади.

Юқоридагиларни умумлаштирган ҳолда, шуни таъкидлаш мүмкінки, минтақавий иқтисодий тизимнинг мураккаблиги ва хилма-хиллиги – бу рақамлаштириш талабларига мослашиш нуқтаи назаридан, бизнес вакиллари, илмий муассасалар, таълим ташкилотлари, касаба уюшмалари ва аҳолининг ўзаро ҳамкорлигини, консенсус ва шериклик асосида қурилишни ўз ичига олади.

Шу билан бирга, минтақавий иқтисодиётнинг устувор вазифаси иқтисодиётда тартибсиз таркибий үзгаришларни иложи борича тўлиқ бартараф этиш ва стратегик ва дастурий хужжатларни ишлаб чиқиш доирасида бозор ва маъмурий үзгаришлар учун асос яратиши керак бўлади. Жумладан, рақамлаштириш глобалашуви ўз навбатида рақамлаштириш жараёни, минтақавий иқтисодиётнинг таркибий үзгаришлари методологиясини тубдан үзгартиралиган талабларни тақозо қиласи.

Адабиётлар рўйхати:

1. Кодиров А. и др. Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари //Иқтисодиёт ва таълим. – 2021. – №. 4. – С. 19-25.
2. Кадыров А. и др. Региональная экономика. Учебное пособие. - Т.: Издательский дом Инновационного развития, 2018. – С. 125.
3. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис.докт. экон. наук. – Ташкент: 1998.

МИНТАҚАЛАР ИҚТИСОДИЙ ЎСИШИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА МУСТАҲКАМЛАШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

**M.T. Адилова - Тошкент давлат иқтисодиёт университети катта ўқитувчиси
Шодиев Яшинарбек - Тошкент давлат иқтисодиёт университети талабаси**

Ўзбекистон Республикасида кейинги йилларда барқарор иқтисодий ўсиш суръатлари таъминланмоқда ва ҳукумат томонидан уни мустаҳкамлаш борасида янги устувор вазифалар белгиланмоқда. Президентимиз таъкидла-ганидек, “Асосий вазифалар – макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш, инфляцияни жиловлаш, тармоқларни монополиядан чиқариш, давлат томони-дан нархлар белгиланишини тартибга солишни бекор қилиш ва “яширин иқтисодиёт”га барҳам бериш”.

Бугунги кунда республикамизда иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш ижтимоий-иқтисодий сиёсатнинг устувор вазифаларидан бири - бу ишлаб чиқариш корхоналарининг рақобатбардошлигини ошириш, ташқи ва ички бозорлар учун сифатли, рақобатбардош маҳсулотларни истеъмолчиларга ўз вақтида етказиб бериш ва сотища замонавий савдо хизматларини ташкил қилиш ҳамда ушбу хизмат имкониятларидан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Ўзбекистонни ривожлантириш ҳаракатлар стратегиясининг бешта устувор йўналишларидан бири “Иқтисодиётни янада ривожлантириш ва либераллаш-тиришга йўналтирилган макроиқтисодий барқарорликни мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолиш, миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини ошириш, қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш ва жадал ривожлантириш, иқтисодиётда давлат иштирокини камайтириш бўйича институционал ва таркибий ислоҳотларни давом эттириш, хусусий мулк ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва унинг устувор мавқеини янада кучайтириш, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожини рағбатлантириш, ҳудудлар, туман ва шаҳарларни комплекс ва мутаносиб ҳолда ижтимоий-иқтисодий тараққий эттириш, инвестициявий муҳитни яхшилаш орқали мамлакатимиз иқтисодиёти тармоқлари ва ҳудудларига хорижий сармояларни фаол жалб этиш”.[1] Мамлакатимизда иқтисодиётни тубдан ислоҳ қилиш жараёнида минтақалар ижтимоий-иқтисодий тараққиётини таъминлашни талаб қиласди. Минтақалар иқтисо-диётини кўтармасдан, ислоҳотларни чуқурлаштирумасдан миллий иқтисодиётни ривожлантириш мумкин эмас. Чунки, айнан минтақа-лар миллий иқтисодиётнинг ривожланиш суръатларини, унга хос хусусият-ларини кўп жиҳатдан белгилаб беради. Бунда минтақаларда мавжуд табиий ресурслар, демографик вазият ва инсон ресурслари, маъмурий-ҳудудий тузилмалар, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Иқтисодиётда барқарор иқтисодий ўсиш деган тушунча мавжуд бўлиб, у барқарор ривожланишнинг алоҳида таркибий қисми ҳисобланади. Барқарор иқтисодий ўсиш мамлакат иқтисодий ўсиш суръатларининг маълум йиллар давомида (одатда беш йил) ижобий ва ўзаро мутаносиб ўсиш динамикасидан

вужудга келадиган иқтисодий ўсишdir. Ҳар бир мамлакат иқтисодий ўсишни таъминлашга интилади. Чунки иқтисодий ўсиш, биринчидан, миллий маҳсулот ҳажми ва даромаднинг кўпайишига, иккинчидан, ресурслардан самарали фойдаланишга, учинчидан, янги-янги эҳтиёжлар ва имкониятларнинг пайдо бўлишига, тўртинчидан, ҳалқаро бозорларда мамлакат нуфузининг ошишига олиб келади. Бундан ташқари, айнан барқарор иқтисодий ўсишга таъсир этувчи омилий ресурсларни ҳам ҳисобга олиш лозим. Улар гуруҳига қўйидагилар киради: табиий ресурслар миқдори ва сифати; меҳнат ресурслари миқдори ва сифати; асосий капитал ҳажми; технологиялар,

тадбиркорлик қобилияти ва ахборот. Шу сабабдан бозор муносабатларининг ривожланиб бориши ва иқтисодиётнинг модернизация қилиш шароитида мамлакат иқтисодий ўсишини таъминлашга таъсир этувчи омилларни илмий ва амалий жиҳатдан ўрганиб бориш долзарб масалалардан бири бўлиб ҳисобланади.

Ўзбекистон иқтисодиётидаги тармоқларнинг ялпи ишлаб чиқаришдаги улушкини таҳлил қилиш асосида мамлакатда ялпи таклиф омилларининг тармоқлар тақсимоти орқали уларнинг самарадорлик даражасини ўрганиш мумкин. Миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш бўйича амалга оширилаётган кенг кўламдаги чоратадбирлар натижасида ялпи ички маҳсулотнинг ишлаб чиқариш таркибида ижобий ўзгаришлар юз бермоқда.

Ялпи ички маҳсулот ҳажми ўзгаришини услубий жиҳатдан ўрганишда унга таъсир этувчи асосий омилларнинг боғлиқлигини ўрганиш муҳимдир. Бунда ялпи ички маҳсулотни яратишга иштирок этувчи асосий омиллар сифатида меҳнат ва капитал олинди. Ўзбекистонда ялпи ички маҳсулотнинг барқарор ўсишини янада жадаллаштириш учун қуйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

- иқтисодиётни таркиби ўзгартириш жараёнларини такомиллаштириш;
- мамлакатда хусусий мулк ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини янада ривожлантириш;
- мамлакатда ишчи кучидан янада самаралироқ фойдаланиш;
- юқори технологияларга асосланган янги ишлаб чиқариш корхоналарини ривожлантириш ва киритиладиган инвестициялар ҳажмини қўпайтириш;
- фаолият кўрсатаётган қувватларни модернизация қилиш ҳамда ишлаб чиқаришни техник ва технологик жиҳатдан янгилаш;
- барқарор иқтисодий ўсишини таъминлашга мавжуд барча резерв ва имкониятларни тўлиқ сафарбар этиш ва бошқалар.

Бундай хилма-хиллик минтақанинг иқтисодий ўсишига ҳам ўз таъсирини ўтказмай қолмайди. Минтақаларининг республикамиз ялпи ички маҳсулот-тидаги улушкини қутила келтирсанда жадвалдан ҳам кўришимиз мумкин.

1-жадвал

Ўзбекистон Республикаси минтақаларининг ялпи ички маҳсулотидаги улушки

| Минтақалар | Ялпи аҳоли сонидаги улushi, % | ЯИМ (ялпи ички маҳсулотдаги улushi, %) | ЯСМ (ялпи саноат маҳсулотдаги улushi, %) | ЯҚҲМ(ялпи қишлоқ хўжалигидаги маҳсулотидаги улushi, %) |
|-------------------------------|-------------------------------|--|--|--|
| Тошкент | 17,8 | 29,4 | 29,6 | 14,3 |
| Фарғона | 28,6 | 21,1 | 26,5 | 24,3 |
| Зарафшон | 20,2 | 19,2 | 19,1 | 26,4 |
| Жанубий | 17,1 | 13,3 | 17,7 | 16,6 |
| Мирзачўл | 4,4 | 7,2 | 2,3 | 9,3 |
| Қутила Амударё | 11,9 | 9,8 | 4,8 | 9,1 |
| Ўзбекистон Республикаси бўйча | 100 | 100 | 100 | 100 |

Манбаа: Статистик маълумотлар асосида муаллиф томонидан тайёрланди.

Жадвалдан кўриниб турибдики, минтақаларнинг юқорида санаб ўтилган хусусиятлари худуднинг ялпи ички маҳсулотдаги улушкига таъсир кўрсатган.

2019 йил якунлари бўйича ялпи ички маҳсулот 424,1 трлн. сўм бўлса, 2020 йилнинг биринчи чораги бўйича 110,5 трлн.сўмни ташкил этган, бу жон бошига 3,25 млн. сўмга (341 долларга) тенг. [11]

2019 йилда республикамиз аҳолиси сони 33 375 800 кишини ташкил қилган. [10]

Келтирилган маълумотларни 2019 йил якунлари бўйича таҳлил қиласидан бўлсак, Фарғона минтақасининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши юқори 21,1 фоизни ташкил қилди ва аҳоли сони юқори кўрсаткичга эга. Фарғона минтақасининг улуши 89,5 трлн. сўмни (424,1 трлн. сўм:100 x 21.1) ташкил қиласиди (21.1% - ялпи ички маҳсулотдаги улуши).

Фарғона минтақасининг улушига 9 545 478 киши (33 375 800:100 x 28,6) тўғри келади (28,6 % -ялпи аҳоли сонидаги улуши).

Юқоридагилардан келиб чиққан холда Фарғона минтақанинг киши бошига тўғри келадиган ялпи минтақавий маҳсулоти (ЯММ) 9 365691 сўмга (89,5 трлн. сўм : 9 545 478 киши) тенг. Агар АҚШ валютасига айлантиrsак, 983 долларни (9 365691 сўм : 9530 сўм) ташкил этади (9530 сўм ўша даврдаги ўртacha валюта курси).

Шунингдек, Зарафшон минтақасини кўриб чиқадиган бўлсак, ялпи ички маҳсулотдаги улуши 81.4 трлн. сўмни (424,1 трлн. сўм:100 x 19.2) ташкил қиласиди (19.2 % - ялпи ички маҳсулотдаги улуши), аҳоли сони 6741911 кишидан (33 375 800 киши :100 x 20,2) иборат (20,2% -ялпи аҳоли сонидаги улуши). Бу кўрсаткичлардан фойдаланиб, киши бошига тўғри келдиган ялпи худудий маҳсулоти аниқлайдиган бўлсак, 12 149 253 сўмга (81.4 трлн. сўм : 6741911 киши) тенг. Агар АҚШ валютасига айлантиrsак, 1275 долларни (12149253 сўм : 9530 сўм) ташкил этади.

Тошкент минтақасини олдиган бўлсак, ЯИМ улуши 123.4 трлн. сўмга (424,1 трлн. сўм:100 x 29.4) тенг (29.4% - ялпи ички маҳсулотдаги улуши). Аҳоли сони 5940824 киши (33 375 800 :100 x 17,8). ЯИМ аҳоли жон бошига ҳисобласак, 20 919856 сўмга (123.4 трлн. сўм : 5940824 киши). Агар АҚШ валютасига айлантиrsак, 2197 долларни (20 939856 сўм : 9530 сўм) ташкил этади.

Демак, минтақани ялпи ички маҳсулотдаги улуши ёки ялпи худудий маҳсулоти ҳажми нафақат ишлаб чиқариш ҳажми балки, аҳоли сонига ҳам боғлиқ экан. Таҳлилимизда Фарғона минтақасининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 89,5 трлн. сўмни, Зарафшон минтақасини кўриб чиқадиган бўлсак, ялпи ички маҳсулотдаги улуши 81.4 трлн. сўмни ташкил этади. Киши бошига тўғри келадиган ялпи худудий маҳсулот Фарғона минтақасида 983 долларни ташкил этса, Зарафшон минтақасида 1275 доллар, Тошкент минтақасида 2197 долларга тенг. Агар 2018 йилда Республикаизда ЯИМ аҳоли жон бошига ўртacha 1 533 доллардан тўғри келишини инобатга олсак, қилинган таҳлил бўйича фақат Тошкент минтақасида иқтисодий ўсишга эришилган. Лекин, худуднинг ўзига нисбатан қолган минтақаларда ҳам нисбатан иқтисодий ўсишга эришилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. "Халқ сўзи" газетаси №19 (7521), 2020 йил 25 январь.

3. Абдулқосимов Ҳ. "Макроиктисодий тартибга солиш ва Ўзбекистоннинг барқарор ривожланиши. Монография". Т.: "Akademiya", 2011 й.

4. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник.-7-е изд.перераб. и доп.-М.: Издательство "Дело и сервис", 2005. 25-с.

5. Ахмедов Д.К.,Ишмухамедов А.Э., Жумаев К.,Джумаев З.А. «Макроиктисодиёт» Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти 2004.

6. Набиҳужаев А., Шеров Ю. Султонов П.Макроиктисодий барқарорлик кўрсаткичлари ва уларнинг Ўзбекистондаги динамикаси. // Иқтисод ва Молия. №2 2011.

7. Ўлмасов А., Вахобов А. "Иқтисодиёт назарияси". Дарслик.Т.: "Iqtisod-Moliya", 2014 й.

8. "Biznes-эксперт" журнали №8 (92).2015.

9. "Иқтисодиёт ва ҳисобот" журнали № 6 1997.

10. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz)

11. Тошкент, 24-Sputnik.

МАКРОИҚТISODIЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА МИНТАҚАЛАРНИНГ ТРРАНПОРТ-ЛОГИСТИКА ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

**M.K. Абдуллаева - ТДИУ Фундаментал
иқтисодиёт кафедраси доценти, и.ф.н.**

**Ф.Р.Холбекова - ТДИУ Иқтисодиёт
кафедраси катта ўқитувчиси(PhD)**

Кейинги йилларда миллий иқтисодиётдаги барча тармоқ ва соҳаларда кенг қамровли ислоҳотлар амалга ошириляпти. 2017-2021 йилларни қамраб олган Ҳаракатлар стратегияси, унда 5 та ўта муҳим йўналишнинг қабул қилиниши ва ҳар бир режалаштирилган масалаларнинг босқичма-босқич ижро этилиши мисли кўрилмаган ютуқларни бошлаб берди. Минг афсуски, коронавирус пандемияси бизни ҳам четлаб ўтмади. Ана шу даврда жаҳондаги аксарият давлатлар ялпи ички маҳсулотида пасайиш кузатилган бўлса-да, Ўзбекистонда ижобий натижаларга эришилди. Бу жиҳатни дунё халқаро ҳамжамияти кузатувчилари ҳам эътироф этди.

Мамлакатни барқарорлигини таъминлашда иқтисодиётнинг етакчи тармоқлари каби транспорт логистика тизимининг ривожланиши ўз аҳамиятга эга. Чунки логистика тизимига мамлакат иқтисодиётининг қон томири ҳисобланади. Айнан самарали логистика тизими бир тарафдан, ички бозорда тайёр маҳсулот ва хомашё ҳаракатини оптималлаштириш орқали харидорларга товар ва хизматлар қулай шароит ва арzon нархларда етказиб берилишини таъминлайди, бозордаги рақобатни рағбатлантиради. Иккинчи тарафдан, ташқи бозорда эса мамлакатнинг иқтисодий рақобатбардошлигини оширади ва жаҳон иқтисодиётига интеграция жараёнини тезлаштиради.

Ишлаб чиқариш босқичининг асосий босқичи сифатида ишлаб чиқариш, тақсимот, алмашинув, истеъмол иқтисодий жараёнларининг асосий якунловчи босқичи бўлмиш истеъмол босқичини иқтисодиётда ишлаб чиқариш қанчалик муҳим бўлса, маҳсулотни етказиб бериш ҳам шунчалик аҳамиятли эканлилигини кўрсатади. Айниқса, ҳозир дунёда логистика муаммолари авжига чиққан вазиятда бу ўта долзарб ҳисобланади. Жаҳон банкининг “Логистика самарадорлиги” индексига мувофиқ Ўзбекистон 2019 йилда 99 ўринни эгаллаган бўлса, 2022 йилда 19 поғона кўтарилди. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида ҳам транспорт ва логистика хизматлари бозори ва инфратузилмасини ривожлантириш, темир йўл тармоқларини электрлаштириш даражасини 60 фоизга етказиш, ташқи савдо учун “яшил йўлаклар” ҳамда транзит имкониятларини кенгайтириш ва транзит юк ҳажмини 15 миллион тоннага ошириш белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йилда Олий Мажлисга Мурожаатномасида Ўзбекистон ташқи савдо юкларини жаҳон ва минтақадаги асосий бозорларга олиб чиқадиган ишончли транспорт ва транзит йўлакларини изчил шакллантириш, логистик йўналишларни диверсификация қилиш, бу борада қўшниларимиз билан амалий музокаралар ўтказиш зарурлигига алоҳида эътибор қаратди. Транзит давлатлар — Туркманистон, Эрон, Қозогистон, Россия, Озарбайжон ва Грузия ҳудудларидан асосий экспорт юкларини транзит шаклида ташишда преференцияларга эга бўлиш, хорижий ва маҳаллий инвесторларнинг логистика соҳасида аниқ лойиҳаларни амалга ошириш борасидаги ҳаракатларини рағбатлантириш зарурлиги белгиланди. Хитой ташаббуси бўлган “Бир макон — бир йўл” лойиҳаси доирасида мамлакатимизнинг транспорт коммуникацияси инфратузилмаси имкониятлари оширилди. Миллий юк ташувчиларни қўллаб-куватлаш, тадбиркорларга қўшимча шароитлар яратиш мақсадида “Миллий

логистика портали" ишга туширилди. Ўзбекистонда кейинги йилларда сифатли хизмат кўрсатиш имконини берадиган замонавий инфратузилмалар яратиш орқали автомобиль йўллари ва темир йўл йўналишларида йирик транзит хаблари ташкил этиш режалаштирилди.

Ўзбекистоннинг географик жойлашуви миллий иқтисодиётни ривожлантириш учун ҳам кучли, ҳам заиф жиҳатларни олдиндан белгилаб қўйган. Ўзбекистоннинг Марказий Осиёдаги барча давлатлар билан чегарадош эканлиги унинг минтақа бозорларидаги аҳамиятини оширади. Ҳудуд бўйлаб ўтган Буюк ипак йўли юртимизга катта манфаат келтирган. Иккинчи томондан, мамлакатимиз Европа ва Осиё бозорларига бир неча давлатлар орқалигина чиқиш имкониятига эга. Арzon денгиз йўлига чиқиш қийин. Шунинг учун ҳам ҳукуматимиз темир йўл ва автомобиль халқаро коридорларини ташкил қилиш бўйича амалга оширилаётган халқаро минтақавий лойиҳаларда фаол иштирок этмоқда. Натижада ички ва ташқи йўловчи ва юк ташиш айланмалари йилдан-йилга ошиб боряпти. 2021 йилда барча транспорт турлари орқали 1,5 млрд. тоннадан зиёд юк ташилган. Унинг 91 фоизи автомобиль транспорти орқали ташилган бўлса, қолган қисми темир йўл, ҳаво йўли ва қувур транспортига тўғри келмоқда. Ўсиш суръатлари 10 фоиздан юқори. Шу йили барча транспорт воситалари орқали 5,8 млрд. йўловчи ташуви йўлга қўйилди. Бу кўрсаткич ундан олдинги йилга нисбатан 8,7 фоизга юқори бўлса-да, 2019 йилга нисбатан анча паст. Бунинг сабаби маълум — пандемия. Барча йўловчиларнинг 97 фоизи автомобиль транспортига, қолганлари эса темир йўл, ҳаво ва шаҳар электр транспортига тўғри келади. Экспорт ва импорт операцияларини амалга оширишда транспорт, алоқа ва бошқа коммуникация воситалари муҳим роль ўйнайди. Алоқа хизматлари таркибида мобиль алоқа 48,5 фоизни ташкил этган. Аҳолининг мобиль алоқа воситалари билан таъминланиши 73 фоиздан ошди. Мамлакатимиз жаҳон ахборот тизимида фаол интеграциялашиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси географик жойлашишига қараб табиатан қўйидаги минтақаларга ажратиб ўрганилади: Фарғона, Тошкент, Зарафшон, Жанубий, Мирзачўл, Куйи Амударё. Улар жойлашган жойи, табиати, маҳаллий менталитети, маҳаллий урфодатлари, аҳоли сони, ишлаб чиқариш маданияти, меҳнат кўнинмаси, иқтисодиётда тутган ўрни, табиий бойликлари ва бошқа жиҳатлари билан ўзаро фарқ қиласади. Бундай хилма-хиллик минтақаларнинг иқтисодий ривожланишига ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Жадвалдан кўриниб турибдики, минтақаларнинг юқорида санаб ўтилган хусусиятлари худуднинг ялпи ички маҳсулотдаги улушкига таъсир кўрсатган.

1-жадвал

Ўзбекистон Республикаси минтақаларининг ЯИМдаги улушки

| Минтақалар | Ялпи аҳоли сонидаги улушки, (%) | ЯИМ (ялпи ички маҳсулотдаги улушки, %) | ЯСМ (ялпи саноат маҳсулотдаги улушки, %) | ЯҚХМ (ялпи қишлоқ хўжалиги маҳсулотидаги улушки, %) |
|--------------|---------------------------------|--|--|---|
| Тошкент | 17,8 | 29,4 | 29,6 | 14,3 |
| Фарғона | 28,6 | 17,3 | 26,5 | 24,3 |
| Зарафшон | 20,2 | 19,2 | 19,1 | 26,4 |
| Жанубий | 17,1 | 14,3 | 17,7 | 16,6 |
| Мирзачўл | 4,4 | 9,2 | 2,3 | 9,3 |
| Куйи Амударё | 11,9 | 10,6 | 4,8 | 9,1 |
| Жами | 100 | 100 | 100 | 100 |

Жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, 2019 йил якупнари бўйича Фарғона минтақасининг ялпи ички маҳсулотдаги улушки 17,3 фоизни, жумладан 89,1 трлн. сўмни ташкил қиласади.

Шунингдек, Зарафшон минтақасини кўриб чиқилса, ялпи ички маҳсулотдаги улуши 81,4 трлн. сўмни (424,1 трлн. сўм : 100 x 19,2) ташкил қиласди (19,2 % - ялпи ички маҳсулотдаги улуши), аҳоли сони 6741911 кишидан (33375800 киши : 100 x 20,2) иборат (20,2 фоиз – ялпи аҳоли сонидаги улуши). Бу қўрсаткичлардан фойдаланиб, киши бошига тўғри келувчи ялпи ҳудудий маҳсулотни аниқловчи бўлсак, 12 149 253 сўмга (81,4 трлн. сўм : 6741911 киши) тенг. Агар АҚШ валютасига айлантирилса, 1275 долларни (12149253 сўм : 9530 сўм) ташкил этади.

Тошкент минтақасининг ЯИМ улуши 123,4 трлн. сўмга (424,1 трлн. сўм : 100 x 29,4) тенг (29,4 фоиз-ялпи ички маҳсулотдаги улуши). Аҳоли сони 5940824 киши (33375800 : 100 x 17,8). ЯИМ аҳоли жон бошига ҳисобланса, 20919856 сўмга (123,4 трлн. сўм : 5940824 киши). Агар АҚШ валютасига айлантирилса, 2197 долларни (20939856 сўм : 9530 сўм) ташкил этади.

Демак, минтақанинг ялпи ички маҳсулотдаги улуши ёки ялпи ҳудудий

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 август, ПҚ-4426-сонли қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 апрелдаги ПФ_101-сон "Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислоҳотлар тўғрисида"ги Фармони
4. Райзберг Б.А. Современный экономический словарь. – М., 2012, с. 264.
5. Холбекова Ф.Р. Маҳаллий ишлаб чиқаришни ривожлантириш асосида макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш. Монография. – Т.: Иқтисодиёт дунёси, 2021. -149 б.

MINTAQА IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SANOAT ISHLAB CHIQARISHINI QO'LLAB QUVVATLASHNING AHAMIYATI

***Abdullahov Habibullo Asadulla o'g'li -
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti.
PhD talabasi***

Hududlarni rivojlantirishda sanoat ishlab chiqarishi butun dunyo bo'ylab muhim rol o'ynadi. Sanoatning o'sishi mintaqada bandlik imkoniyatlari, daromadlar darajasi va umumiy iqtisodiy rivojlanishga olib keladi. Mintaqaviy rivojlanishda sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki u ko'plab hududlarda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili bo'lib kelgan. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy afzalliklaridan biri bandlik imkoniyatlarini yaratishdir. Sanoat tarmoqlarining o'sishi to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ish o'rinalining yaratilishiga olib keladi, bu esa mintaqada ishsizlik darajasini pasaytirishga yordam beradi. Mintaqada sanoat ishlab chiqarishi natijasida yaratilgan bandlik imkoniyatlari faqat ishlab chiqarish sohasi bilan cheklanib qolmasdan, transport, logistika va xizmat ko'rsatish kabi turdosh tarmoqlarni ham qamrab oladi. Ushbu sohalar turli ko'nikmalar va tajribalarni talab qiladi, bu esa turli xil ish joylarini yaratilishiga, yangi bilim va ko'nikmalar egallanishiga olib keladi.

Mashhur iqtisodchi va Kolumbiya universiteti professori doktor Saks iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va qashshoqlikni kamaytirishda barqaror sanoat rivojlanishi muhimligini aytadi. U qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni, chiqindilarni va ifloslanishni kamaytirishni va yashil texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantiradigan siyosatni qo'llab-quvvatlash haqida ta'kidlaydi[1].

Iqtisodchi va London Iqtisodiyot maktabining professori, iqtisodiy o'sish va rivojlanishda texnologiyaning roli haqida ko'p yozgan. U sanoat rivojlanishini rag'batlantirishda texnologik innovatsiyalarning muhimligini ta'kidladi va tadqiqot va ishlanmalarni, shuningdek, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni qo'llab-quvvatlaydi [2].

Garvard biznes maktabi professori doktor Porter sanoat rivojlanishini rag'batlantirishda klasterlarning roli haqida ko'p yozgan. U iqtisodiy o'sishni ta'minlashda sanoat, hukumat va ilmiy doiralar o'rtasidagi hamkorlik va sheriklik muhimligini ta'kidladi va sanoat klasterlari va innovatsion ekotizimlarni rivojlanirishni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni ilgari surgan[3].

Mintaqada sanoat ishlab chiqarishi daromad darajasini oshirishga xizmat qilada. Ish bilan ta'minlash imkoniyatlarining yaratilishi uy xo'jaliklari daromadlarining oshishiga olib keladi, bu esa fuqarolar va oilalarning turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi. Daromad darajasining oshishi, shuningdek, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga yordam beradigan iste'mol xarajatlarining oshishiga olib keladi. Sanoat ishlab chiqarishining yana bir salmoqli foydasi hududda infratuzilmani rivojlanirishdir. Sanoatning o'sishi mintaqaning umumiy aloqasini yaxshilashga yordam beradigan yo'llar, aeroportlar va portlar kabi infratuzilmani rivojlanirishni talab qiladi. Infratuzilmaning rivojlanishi nafaqat sanoatning o'sishiga yordam beradi, balki mintaqqa aholisining hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Sanoat ishlab chiqarishi ham hududda malakali kadrlar yetishtirishga olib keladi. Sanoatning o'sishi bir qator ko'nikmalar va tajribalarni talab qiladi, bu esa malakali ishchi kuchining rivojlanishiga olib keladi. Malakali ishchi kuchini rivojlanirish mintaqaga yangi ishlab chiqarishlarni jalb qilishga yordam beradi, chunki kompaniyalar malakali ishchi kuchiga ega bo'lgan hududlarga sarmoya kiritish ehtimoli ko'proq.

Mintaqada sanoat ishlab chiqarishi iqtisodiy samaralardan tashqari, mintaqada ijtimoiy taraqqiyotga ham yordam beradi. Sanoatning o'sishi maktablar, shifoxonalar va jamoat markazlari kabi ijtimoiy qulayliklar ko'payishiga olib keladi, bu esa mintaqqa aholisi uchun umumiy hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Sanoat ishlab chiqarishi tadqiqot va ishlanmalarni rag'batlantirish hamda korxonalar, universitetlar va ilmiy muassasalar o'rtasida hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratish orqali mintaqada innovatsiyalarni rivojlanirishi mumkin. Bu yangi mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin, bu esa mintaqaviy rivojlanishni yanada qo'llab-quvvatlashi mumkin. Sanoat ishlab chiqarishi mintaqadagi sanoat klasterlarning rivojlanishiga yordam berishi mumkin, bu esa korxonalar o'rtasida sinergiya yaratishi va turdosh tarmoqlarning o'sishini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bu raqobatbardoshlik va innovatsiyalarning oshishiga olib kelishi va mintaqaviy rivojlanishni yanada qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Mintaqada sanoat ishlab chiqarishi turli sohalardagi biznes uchun imkoniyatlar yaratib, mintaqqa iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Bu bitta sanoat yoki tarmoqqa qaramlikni kamaytirishga yordam beradi, bu esa mintaqani iqtisodiy zARBALARGA chidamliroq qiladi. Sanoat ishlab chiqarishi boshqa mintaqalar yoki mamlakatlarda sotilishi mumkin bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish orqali eksport uchun imkoniyatlar yaratishi mumkin. Bu mintaqaning daromadlari va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi, shuningdek, xalqaro savdo va investitsiyalarni rivojlanirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, sanoat ishlab chiqarishining mintaqaviy taraqqiyotdagi ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Sanoatning o'sishi bandlik imkoniyatlari, daromadlar darajasi, infratuzilmaning rivojlanishi va malakali ishchi kuchining rivojlanishiga olib keladi. Sanoat ishlab chiqarishi, shuningdek, mintaqada ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirishga yordam beradi, bu esa aholining hayot sifatini umumiy yaxshilashga olib keladi. Shu sababli, siyosatchilar va manfaatdor tomonlar o'z mintaqalarida sanoatning o'sishiga yordam berishlari va qo'llab-quvvatlashlari juda muhimdir.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib mintaqada sanoatni rivojlanirish bo'yicha bir nechta amaliy takliflar:

1. Keng qamrovli sanoat siyosatini ishlab chiqish: Hukumatning mintaqada sanoatni rivojlantirish bo'yicha qarashlarini belgilab beruvchi kompleks sanoat siyosati xususiy sektor investitsiyalari uchun yo'l xaritasini taqdim etishi va infratuzilma, ta'lim va innovatsiyalarga davlat sarmoyasini yo'naltirishi mumkin.

2. Innovatsiyalar va tadbirkorlikni rag'batlantirish: Innovatsiyalar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi siyosat yangi sanoat va mahsulotlarni yaratishga yordam beradi va iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Bunga tadqiqot va ishlanmalarni rag'batlantirish, startap-inkubatorlar va akseleratorlarni qo'llab-quvvatlash, innovatsion fondlarni yaratish kiradi.

3. Infratuzilmani yaxshilash: infratuzilmaga, jumladan, transport, energetika va aloqa tarmoqlariga sarmoya kiritish mintaqadagi biznesni jalb qilish va saqlab qolishga yordam beradi. Sanoat parklari va klasterlarni rivojlantirish miqyosdagi iqtisodlarni yaratishi va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni osonlashtirishi mumkin.

4. Inson kapitalini rivojlantirishga sarmoya kiritish: Ta'lim va o'qitishga sarmoya kiritish mintaqasi sanoati ehtiyojlarini qondirish uchun yaxshi jihozlangan yuqori malakali ishchi kuchini rivojlantirishga yordam beradi. Bu sanoat va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni, shuningdek, kasbiy ta'limni targ'ib qiluvchi dasturlarni o'z ichiga olishi mumkin.

5. Barqaror sanoat rivojlanishini rag'batlantirish: Barqaror sanoat rivojlanishini rag'batlantirish sanoat faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga va yanada barqaror iqtisodiyotni yaratishga yordam beradi. Bu qayta tiklanadigan energiyadan foydalanishni rag'batlantirish, chiqindilar va ifloslanishni kamaytirish va yashil texnologiyalarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olishi mumkin.

6. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish: Davlat-xususiy sheriklik mintaqada sanoat rivojlanishini rag'batlantirish uchun davlat va xususiy sektorning kuchli tomonlaridan foydalanishga yordam beradi. Bu infratuzilma, tadqiqot va ishlanmalar va ishchi kuchini rivojlantirish dasturlariga qo'shma sarmoya kiritishni o'z ichiga olishi mumkin.

Manba va foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Sustainable Development Report 2022. Jeffrey D. Sachs*
2. Perez, C. (2019) 'Transitioning to Smart Green Growth: Lessons from History' in Fouquet, R. (ed.) *Handbook on Green Growth*.
3. *The Competitive Advantage of Nations (1990). Dr. Porter*
4. А.Ортиков. Сеноат иқтисоди. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2009. 236 б.
5. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1Y-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент, 2012. С. 8.
6. Э.Х. Махмудов, А. Ортиков, Ф. Каримов. Корхона иқтисодиётнинг асосий бўғини. / Ҳамкор. 2010 йил 7 февраль.
7. Мусахон Исаков, Диlobar Рўзиева. Ўзбекистон саноатидаги таркибий ўзгаришлар. Монография. - Т.: ТДИУ, 2019 й.

QORAQOLPOG'ISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA AVTOMOBIL TRANSPORTINING RIVOJLANISHINI TA'MINLASHNING ILMYI ASOSLARI

***Abdullahayev Axror Jaxbarovich -
Toshkent davlat transport universiteti. Dotsent
Raimova Durdonha Durdibay qizi -
Toshkent davlat transport universiteti. Assistant***

Mustaqillik yillarida aholini turmush farovonligini yaxshilash, aholi hamda yuklarni tashish tizimining takomillashuvi, xalqaro tashishlarning yo'lga qo'yilishi, yuk tashish xavfsizligi va sifatining ta'minlanishi jahon talablariga mos keladigan avtomobil' transporti korxonalarini tashkil etilishiga olib keldi. Bugungi kunda avtomobil transporti tizimidagi

korxonalar tomonidan aholi va yuridik shaxslarga sifatli tashish xizmatlarining taqdim etilishida bosqichma-bosqich qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investisiya siyosatini olib borish" kabi vazifalar belgilab berilgan

Hozirgi vaqtida transport butun mamlakat taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Qoraqolpog'iston Respublikasida transport sohasida ko'rsatilgan xizmatlar 2022-yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra 2830,1 mldr so'mga teng bo'lган. Avtomobil transportida tashilgan yuklar 33692,0 ming tonnani, tashilgan yo'lovchilar esa 40179,4 ming kishini tashkil qilgan. Mamlakatimiz transporti chekka hududlardagi iqtisodiy qolqolikni bartaraf etish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy darajasi va farovonligini yuksaltirish, hududlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, ijobiy integratsion samaraga erishish kabi muhim vazifalarni hal etishga xizmat qilmoqda. Transport mahalliy va milliy bozorlarni shakllantirish uchun ham sharoit yaratadi.

Avtomobil transporti transport kompleksining asosi sifatida Qoraqolpog'iston Respublikasining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Uning samarali faoliyat yuritishi, bir tomonidan, iqtisodiy soha va ijtimoiy sohaning hayotiy faoliyatining zaruriy shartidir. Boshqa tomonidan, iqtisodiyot va jamiyat avtotransport tizimini rivojlantirish uchun "jamoat tartibini" shakllantiradi, u o'z xususiyatlariga ko'ra bozorni rivojlantirishi kerak. Transport xizmatlari iste'molchilarining ushbu xizmatlarga bo'lган ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Aholiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarga, o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi va talabalarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish, avtomobil transporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaro harakatini (bir manzildan boshqa bir manzilga borishni) transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportining barcha turlari tomonidan 140,2 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil etdi.

Avtomobillar ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha bo'lган butun tashish jarayonini amalga oshiradi yoki boshqa transport turlari bilan hamkorlikda uning boshlang'ich, oraliq yoki yakuniy bosqichini amalga oshiradi. Avtomobil transporti mamlakat aholisi hayoti uchun katta ahamiyatga ega. Yo'lovchi avtomobil transporti nafaqat mehnatga layoqatli aholini tashish bo'yicha ishlab chiqarish vazifalarini, balki ichki va madaniy sayohatlar bilan bog'liq ijtimoiy vazifalarni ham bajaradi;

Qoraqolpog'iston Respublikasida avtomobil transporti eng moslashuvchan va ommaviy transport turi hisoblanadi. Avtotransportdan faol foydalanishning asosiy sabablari uning o'ziga xos yuqori tezligi, yuklarni yetkazib berishning muntazamligi va moslashuvchanligi, shuningdek, zarur shoshilinchlik darajasidir. Kattaroq harakatchanlik, yo'lovchilar tashishdagi o'zgarishlarga tez javob berish qobiliyati avtotransportni mahalliy yo'lovchi tashishni tashkil etishda raqobatbardoshlilagini oshiradi.

Avtotransport vositalarining ko'lami keng. U tuman ichidagi qisqa transportning katta qismini amalga oshiradi. Boshqa quruqlikdagi transport turlari deyarli mavjud bo'lмаган shimoliy va sharqiy mintaqalarda ular mintaqalararo tashishlarni amalga oshiradilar. Boshqa transport turlaridan farqli o'laroq, avtomobil transporti xalqaro yuklarni tobora ortib borayotgan hajmlarda tashiydi. Avtomobil transporti xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, yagona transport tizimining ajralmas qismi sifatida rivojlanmoqda. Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatini yaxshi yo'lga qo'yilgan transport vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.



Таким образом, применение инновационных технологий в государственной экономической политике играет важную роль в стимулировании регионального развития. Развитие цифровых технологий, инфраструктуры и образования являются ключевыми факторами, которые способствуют созданию благоприятной среды для роста экономики и увеличения уровня жизни населения в регионах.

Список использованной литературы:

1. 1. Huggins, R. (2018). *The role of digital technology in economic growth*. *International Journal of Innovation and Economic Development*, 4(1), 1-12.
2. McKinsey & Company. (2016). *Digital globalisation: The new era of global flows*. Retrieved from <https://www.mckinsey.com/business-functions/digital-mckinsey/our-insights/digital-globalization-the-new-era-of-global-flows>
3. World Economic Forum. (2019). *The future of digital economy and society: Implications for policy making*. Retrieved from <https://www.weforum.org/whitepapers/the-future-of-the-digital-economy-and-society-implications-for-policy-making>
4. Rose, A. (2018). *Infrastructure development in emerging markets*. *Journal of International Economics*, 110, 137-157.
5. Некрасова, Е. Н. (2017). Организация взаимодействия государства и бизнеса в развитии инфраструктуры региона. *Проблемы экономики и управления*, (12), 70-77.
6. OECD. (2019). *Infrastructure*. Retrieved from <https://www.oecd.org/g20/topics/development/infrastructure/>
7. Голубева, Е. А. (2020). Реализация научно-технологического потенциала территорий: концептуальные и институциональные основы. *Проблемы прогнозирования*, 1(22), 206-218.
8. Меркулова, Е. И., & Бурова, Ю. А. (2021). Эволюция образовательной компетентности в контексте развития региональных территорий. *Образование и наука в современной России*, (3), 173-178.

ХИЗМАТ ҚҮРСАТИШ СОҲАСИНинг ҲУДУДЛАР ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ

Мардонов Баҳодир Баҳронович -
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
«Рақамли иқтисодиёт» кафедраси докторанти, PhD.

Республика ҳудудларида хизмат қўрсатиш соҳасининг ривожланиш даражаси, соҳада тадбиркорлик фаолиятини юритишда яратилган шарт-шароитлар, янги иш ўринларни яратиш бўйича мавжуд имкониятлар ва бошқа йўналишлар асосида ижтимой-иқтисодий ривожланиш тартибини ишлаб чиқиш талаб этилмоқда.

Хозирги вақтда ҳудудларда хизмат кўрсатиш соҳасини янги иш ўринларини яратишдаги имкониятлари ҳисобга олинмаган. Бироқ, Президент тасдиқлаб берган Ўзбекистон Республикаси маъмурий ислоҳотлар концепциясида «Мамлакатнинг интеллектуал ва технологик салоҳиятини оширишнинг узоқ муддатли сценарийлари асосида устувор соҳа ва тармоқлар минтақаларни инновацион ривожлантиришнинг келажақдаги моделларини шакллантириш имконини берадиган стратегик режалаштириш тизимини яратиш» лозимлиги кўрсатиб ўтилган [1]. Шунингдек, Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида «..... ҳудудларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали кейинги 5 йилда хизмат кўрсатиш хажмини 3 баробарга ошириш ҳамда ушбу соҳада жами 3,5 миллион янги иш ўринларини яратиш[2]» вазифалари белгиланган. Бу ҳудудларда хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсирини ва янги иш ўринларини яратиш имкониятларини баҳолайдиган тизимни ишлаб чиқишина тақозо этади. Ушбу вазифани амалга ошириш мақсадида ҳудудларда хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсирини ва янги иш ўринларини яратиш имкониятларини баҳолашнинг қуидаги усулни таклиф этдик: хизмат кўрсатиш соҳасини миллий иқтисодиётда туттган ўрнини, шунингдек ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланишидаги таъсирини 15 та мезон асосида баҳолаш.

Амалиётда ҳудудлар рейтингини ижтимоий-иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари орқали баҳолаш усуллари мавжуд. Масалан, ҳудудларнинг ялпи ҳудудий махсулот ҳажми, аҳоли жон бошига тўғри келадиган саноат махсулотлар ҳажми, ишсизлик даражаси ва ҳоказо. Аммо бизлар хизмат кўрсатиш соҳасининг ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсирини баҳолаш учун уни ифода этувчи қуидаги 15 та кўрсаткичлар тизимини шакллантиридик (1-жадвал).

1-жадвал

Хизмат кўрсатиш соҳасининг ҳудудлар тараққиётига таъсирини баҳолаш кўрсаткичлари*

| № | Кўрсаткичлар номи | Ўлчов бирлиги |
|----------|---|----------------------|
| 1 | Ҳудуд аҳолиси сони | Минг киши |
| 2 | ЯҲМ таркибида хизматларнинг ҳажми | Минг сўмда |
| 3 | Ҳудуд аҳолиси жон бошига тўғри келадиган хизматлар ҳажми | Минг сўмда |
| 4 | Инвестицион лойиҳалар таркибига хизматлар соҳасига тегишли лойиҳаларнинг улуси | Фоизда |
| 5 | Фаолият юритаётган барча иқтисодий субъектлар сони | Бирлик |
| 6 | Фаолият юритаётган барча иқтисодий субъектлар таркибида хизмат кўрсатиш фаолияти билан шуғуллануви иқтисодий субъектларнинг улуси | Фоизда |
| 7 | Аҳоли даромади | Минг сўмда |
| 8 | Ўртача иш ҳақи | Минг сўмда |
| 9 | Ишсизлик даражаси | Фоизда |
| 10 | Тижорат банклар ва филиаллари сони | Бирлик |
| 11 | Автомобиль йўлларининг узунлиги, км (асфальт) | Км |
| 12 | Хизмат кўрсатиш соҳасига киритилган инвестициялар улуси | Фоизда |
| 13 | Туристик объектлар (дам олиш) сони | Бирлик |
| 14 | Меҳмонхоналар ва меҳмон уйлари сони | Бирлик |
| 15 | Шаҳар марказигача мосафа | Км |

Манба. Муаллиф томонидан тузилган.

Ушбу кўрсаткичларнинг ўлчов бирлиги хар хил бўлганлиги учун уларни индексга айлантириш усулидан фойдаланилди ва бир хил кўрсаткичга келтирилди. Кўрсаткичлар индекси қуидаги формула ёрдамида ҳисобланди:

$$X_{\text{индекс}} = \frac{x - \min(x)}{\max(x) - \min(x)}; \quad (1)$$

Бу ерда $X_{\text{индекс}}$ - кўрсаткич индекси; x - кўрсаткич қиймати; $\min(x)$ – x кўрсаткичнинг танланган ҳудудлар орасидаги энг кичик қиймати; $\max(x)$ - кўрсаткичнинг танланган ҳудудлар орасидаги энг катта қиймати.

Кўрсаткичлар индексга айлантирганидан кейин, интегралланади ва қуидаги баҳоланади:

2-жадвал


Ҳудудлар тараққиётига хизмат кўрсатиш соҳасининг таъсирини ва янги иш ўринларини яратиш имкониятларини баҳолашнинг интеграл кўрсаткичларини аниқлаш шкаласи*

| № | Ҳудудлар бўйича хизмат кўрсатиш соҳасининг баҳолаш даражаси | Индекслар қиймати |
|---|---|-------------------|
| 1 | Паст | (1,0-3,5) |
| 2 | Ўрта | (3,5-5,0) |
| 3 | Юқори | (5,0-6,5) |
| 4 | Жуда юқори | 6,5 ва удан катта |

* Муаллиф ишланмаси

Индекслар бир ва ундан юқори бўлган ҳудудлар бўйича гурухланади. Агар индекслар йифиндиси 1,0 дан 3,5 оралиқгача бўлса, ҳудудлар тараққиётига хизмат кўрсатиш соҳасининг таъсирини ва янги иш ўринларини яратиш имкониятларини - паст, 3,5 дан 5,0 гача оралиқда бўлган ҳудудларни -ўрта, 5,0 дан 6,5 гача оралиғида бўлган ҳудудларни юқори, 6,5 дан юқори кўрсаткичга эга бўлган ҳудудларни эса жуда юқори, деб баҳоланади.

Ушбу усулдан фойдаланиб Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига хизмат кўрсатиш соҳасининг таъсирини ва янги иш ўринларини яратиш имкониятлар ҳисобланди (1-расм).



1-расм. Ўзбекистон Республикаси ҳудудлар тараққиётига хизмат кўрсатиш соҳасининг баҳоланиши

Худудлар натижалари 2-жадвалда келтирилган интеграл кўрсаткичларини аниқлаш шкаласига қараб баҳоланди ва қуидаги гурухларга бўлинди:

1-гурух. Хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсири ва янги иш ўринларини яратиш бўйича имкониятлари жуда юқори деб, баҳоланган худудлар – Тошкент шаҳри, Қорақалпоғистон Республикаси, Қашқадарё ва Самарқанд вилоятлари.

2-гурух. Хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсири ва янги иш ўринларини яратиш бўйича имкониятлари юқори, деб баҳоланган худудлар - Фарғона, Тошкент, Сурхондарё ва Бухоро вилоятлари.

3-гурух. Хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсири ва янги иш ўринларини яратиш бўйича имкониятлари ўрта, деб баҳоланган худудлар- Навоий, Андижон ва Хоразм вилоятлари.

4-гурух. Хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсири ва янги иш ўринларини яратиш бўйича имкониятлари паст, деб баҳоланган худудлар - Сирдарё, Наманган ва Жиззах вилоятлари.

Таҳлил натижаларидан келгуси йиллар учун ортда қолаётган вилоятлар бўйича хизмат кўрсатиш соҳасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётига таъсирини кучайтириш ва янги иш ўринларини яратиш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиш, устувор йўналишларини аниқлаш, инвестицион дастурларни шакллантиришда фойдаланилмаётган имкониятларга алоҳида эътибор қаратиш учун асос бўлиб хизмат қиласди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1. Ўзбекистон Республикасида маъмурий ислоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида** Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Тошкент, 2017 йил 8 сентябр, ПФ-5185-сон.
- 2. "2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида"** Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Тошкент, 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон.

MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI

Meyliev Obid Raxmatullayevich -
Toshkent moliya instituti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).

Gofurova Kamola Xayrulla qizi -
Toshkent moliya instituti moliya fakulteti talabasi

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, hududlarning mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish hisobiga mintqa aholisi turmush sifati va darajasini oshirish, shuningdek mahalliy byudjet daromadlari barqarorligiga erishish asosiy ustivor vazifalardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda davlat tomonidan mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning samarali mexanizmini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvinu nomarkazlashtirish jarayonini davom ettirish joylarda davlat siyosatini amalga oshirishda hokimiyatning mahalliy va hududiy organlari javobgarligini oshirishga, давлат boshqaruvidagi respublika organlari vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlariga, shuningdek, давлат hokimiyati viloyat organlari vakolatlarini tuman, shahar hokimlik organlariga bosqichma-bosqich o'tkazishga qaratilmoqda.


Har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishida uni tashkil etuvchi mintaqalarning ahamiyati katta. Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, barqaror rivojlanishga erishish ko'p jihatdan ana shu mintaqalarning, ya'ni mamlakatning turli ichki qismlarining imkoniyatlari salohiyati va faoliyatiga bog'liqdir[1].

Davlatning mintaqaviy iqtisodiy siyosat yuritishidan maqsad bu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini nazorat qilishdir. Bu siyosiy tizimning asosiy vazifasi hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuzaga keladigan tafovutlarni kamaytirish, aholining turli qatlami o'rtasida ne'matlarning taqsimlanishi darajasidagi farqni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy organlarning o'z-o'zini boshqarish vakolatlaridan foydalilanigan holda o'z muammolarini hal etishni yo'lga qo'yish shular jumlasiga kiradi. Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqt beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Mintaqaviy siyosat keng ma'noda mamlakat hududlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish bo'yicha hokimiyat organlarining maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi [2].

Jumladan, mintaqaviy iqtisodiy siyosatga ko'ra, mamlakat bir hududida ishlab chiqariladigan tabiiy resurslar va yer osti qazilmalari respublikamizning boshqa hududlarida aniqlanmaganligi uchun bu turdag'i resurslarni qazib olish, ishlab chiqarishga xorijiy va davlat investitsiyalarini jalb etish, soliq imtiyozlar, kreditlar va subvensiyalar va boshqa dastaklar yordamida qo'llanilishidir. Bu orqali foydali qazilma boyliklari, nodir metallar, qurilish va dastgohsozlik sanoati uchun zarur mahsulotlar, keng turdag'i xalq iste'moli tovarlarini qazib olish, ishlab chiqish va qayta ishlab chiqishga ixtisoslashgan viloyatlarni yanada modernizatsiyalash, zamonaviy texnika va nou-xau bilan ta'minlanganligini oshirish uchun ustuvor yondashuvlarni joriy etish va amalga oshirishdir.

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida uning hududlarini rivojlantirishda ayrim muammolarni o'rganish zarurligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaslik, ishsizlik darajasining ortib borishi kabi hududiy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq muammolar ilmiy asoslangan holda yondashuvni taqozo etadi. Ayniqsa, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yetarlicha rivojlanmaganligi, investitsiyalar oqimi mamlakatimizning rivojlangan hududlariga yo'naltirilayotganligi, shart-sharoit va imkoniyatlar xilma-xilligi oqilona iqtisodiy siyosat olib borishni taqozo etmoqda.



1-rasm. 2022-yil davomida Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni [5]

Jumladan, Navoiy viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, hududda joylashgan kon metallurgiya kombinatini yurtimizdagi jami sanoat mahsulotining 10 foizini va budget daromadining 18 foizini ta'minlaydi. Unda 58 ming xodim ishlaydi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati xomashyo resurslarining hajmi bo'yicha jahondagi oltin ishlab chiqaruvchilar orasida uchinchi o'rinda turadi. Lekin aktivlarining qiymati xorijiy kompaniyalarnikiga nisbatan ancha kam. 2020-yilda ko'rsatilga ma'lumotlarga ko'ra, kombinatning balans qiymati 1,3 milliard dollar bo'lsa, shu darajadagi xorijiy korxonalarning bozor narxi 11 milliard dollarni tashkil etadi [3]. Shu bois NKMKnii zamonaviy kompaniyaga aylantirish maqsad qilingan. Davlatimiz tomonidan bu borada kompleks chora-tadbirlar ko'rilmoxqda.

Keltirilgan diagramma ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yilda Navoiy viloyatida 2022- yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni 3 710 taga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2021-yil hisobiga nisbatan 13,3 foizga oshdi.

271 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ularning 15,5 foizi Navoiy shahri, 14,0 foizi Karmana tumani, 12,9 foizi Uchquduq tumani, 10,7 foizi Qiziltepa tumani, 10,3 foizi Xatirchi tumani hissalariga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4124-sonli qaroriga ko'ra, zamonaviy korporativ boshqaruvi usullarini joriy etish, bozor mexanizmlariga o'tish, raqobatbardoshlikni oshirish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi istiqbolli konlarni o'zlashtirish, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" davlat korxonasining (keyingi o'rinxarda — "Navoiy KMK" DK) ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilmagan va asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lмагan aktivlaridan samarali foydalanishni ta'minlash, shuningdek, "Navoiy KMK" DK mulki negizida yangi tashkil etilayotgan yuridik shaxslar faoliyatini tashkil etishni rivojlantirishga qaratilgan [4].

1-jadval


2022-yilda Navoiy viloyati hududidagi korxonalar tomonidan olingan foyda, mln.so'mda [5]

| t/r | Korxonalar | Foyda, |
|--------------------------|--|--------------------|
| 1 | "Navoiy KMK" DK | 3 025 109,4 |
| 2 | "Issiklik elektr stansiyalari" | 92 072,4 |
| 3 | "O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari" uysuhmasi | 64 621,1 |
| 4 | "O'zkimyosanoat" AJ | 28 264,0 |
| 5 | "O'zdonmahsulot" AK | 935,1 |
| 6 | "O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llar qo'mitasi | 344,0 |
| Barcha korxonalar | | 3 211 346,0 |

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan malu'mki, Navoiy kon metallurgiya kombinati faoliyatidan eng ko'p foyda olinib, 3 025 109,4 so'mni tashkil etadi. "Issiklik elektr stansiyalari" AJ (92 072,4 mln. so'm), O'zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi (64 621,1 mln. so'm), "O'zkimyosanoat" AJ (28 264,0 mln. so'm), "Navoiyuran" Davlat korxonasi (22 783,0 mln. so'm) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1126,9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 5,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 5,6 foizni tashkil etdi.

2021-yilga nisbatan o'tgan yilda xorijiy investorlar tomonidan ishlab chiqilgan sanoat mahsulolari ulushi ko'paygan bo'lishiga qaramasdan, yuqorida keltirilgan rasmdagi ma'lumotlarda bu ko'rsatkichlar pastligi keltirilgan.



2-rasm. Sanoat mahsulotlari hajmida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi, % da [5]

Navoiy viloyatida joylashgan sanoat korxonalari va “NKKM” DK da xorijiy investitsiyalarni ko’proq jalb etish, ularni zamonaviy va sifatlari texnikalar bilan ta’minalash hamda ishlab chiqarish va oltin, uran, nodir metallar, yer osti qazilma boyliklarini qazib olishda yangi dastur va yondashuvlardan foydalanish lozim, negaki foydali qazilmalarni qazib olish va sanoatda foydalanish uchun talab qilinadigan ishlab chiqish va taqsimlash jarayonida amalga oshiriladigan texnik ishlar natijasida atrof-muhitga zararli gazlar va moddalar chiqarib yuboriladi. Bu esa mamlakatimizning ekologik ahvoliga salbiy ta’sir keltirib, bu kabi hududdida istiqomat qiluvchi aholi qatlamining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarziga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

2-jadval

Navoiy viloyati bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi, foizda [6]

| t/r | Hududlar | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|-----|-------------------------|------------|------------|------------|------------|------------|
| 1 | Navoiy shahri | 83,1 | 84,5 | 84,8 | 84,5 | 84,7 |
| 2 | Zarafshon shahri | 0,6 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | 0,6 |
| 3 | G’ozg’on shahri | | | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| 4 | Karmana tumani | 10 | 10,7 | 10 | 9,7 | 9 |
| 5 | Konimex tumani | 0,6 | 0,2 | 0,2 | 0,7 | 0,7 |
| 6 | Qiziltepa tumani | 2,1 | 1,7 | 1 | 2 | 2,2 |
| 7 | Navbahor tumani | 1,2 | 0,8 | 0,9 | 0,9 | 1 |
| 8 | Nurota tumani | 0,6 | 0,4 | 0,3 | 0,4 | 0,4 |
| 9 | Tomdi tumani | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| 10 | Uchquduq tumani | 0,3 | 0,3 | 0,3 | 0,4 | 0,4 |
| 11 | Xatirchi tumani | 1,4 | 0,9 | 1,8 | 0,7 | 0,8 |
| | Viloyat bo'yicha | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |

Xorijiy investitsiyalar va kichik biznes egalari hamda tadbirkorlar tomonidan Navoiy viloyatida sanoat korxonalari ishga tushirilishi va davlat byudjeti tomonidan turli dotatsiya, subsidiya va boshqa qulaylik hamda imkoniyatlar berilishiga qaramasdan(1-rasm), yuqorida keltirilgan 2-jadvaldagi ma'lumotlardan ma'lumki, Navoiy viloyati hududida joylashgan tuman va shaharlar orasida sanoat ishlab chiqarish hajmida katta tafovut mavjud.

Bunda Navoiy shahrida eng yuqori ko’rsatkich kuzatilgan bo’lib, so’nggi 5 yil davomida o’rtacha 84 foizni tashkil etadi. Biroq, G’ozg’on shahri va Tomdi tumanida sanoatning ishlab chiqarishdagi ulushi 0,1 foizni tashkil etib, bu ko’rsatkich boshqa hududlarga nisbatan eng past ko’rsatkichdadir. Bunga sabab, Navoiy shahri (84,7%), Karmana tumani (9,0%) va Qiziltepa tumanida (2,2%) joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Shuning uchun ham kichik biznes va tadbirkorlikga ahamiyat berilib, kichik korxonalarning tashkil etilishini yo’lga qo’ylishidan qat’iy nazar bu shahar va tumanda sanoat

ishlab chiqarish hajmi kam bo'lib, bu byudjet daromadlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shu kabi chekka qishloq zonalarida nafaqat kichik tadbirkorliklar tashkil etish, balki zamonaviy raqobatbardosh sanoat mahsuloti, shu jumladan qurilish materiallari, tikuvchilik va trikotaj buyumlari ishlab chiqarish bo'yicha yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish lozim. Bu orqali yo'l-tarnsport, axborot-kommunikatsiya sohalarini rivojlantirish, muqobil energiya manbalarini tatbiq etish loyihalarini amalga oshirish, aholining uy-joy-maishiy sharoitini yaxshilash, madaniy hordiq chiqarishini tashkillashtirishga qaratilgan tadbirlarni tashkillashtirish, ta'lim va tibbiyot sohasining moddiy texnik ta'minotini yanada mustahkamlashni yo'lga qo'yish mumkin

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni oqilona boshqarish, bunda asosan mamlakatimiz hududlarini geologik jihatdan o'rgangan holda bir sohaga jalg qilish muhim deb qaraymiz. Jumladan Navoiy viloyatining kon metallurgiya sanoatiga ixtisoslashgani, bu hududdagi tabiiy boyliklar jahondagi shu kabi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar o'rtaida yuqori o'rinda turishidir. Biroq, qazilma boyliklarini ishlab chiqarish jarayoni murakkab bo'lib, bu jarayonga ko'p mehnat resurslarini jalg etadi. Bu esa ishsizlik bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga yordam bersada, ekologik muammolarni keltirib chiqarishga sababchi bo'ladi. Shuning uchun bu sohada yangi texnologiya va dasturlardan foydalanish, atrof-muhitga zarar keltiruvchi chiqindi va gazlarni qayta ishslash yoki korxonada tashkil etilgan texnologiya yordamida aholi qatlami yashovchi hududlarga chiqarilmasligi ta'minlanishi kerak.

Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlikka katta ahamiyat berilayotgan bo'lsada yirik sanoatlashgan zonalarni shu kabi foydali qazilma va qulay geografik o'ringa ega hududlarda tashkil etish lozim. Bu esa o'z navbatida mintaqalari mahalliy byudjetlar daromadlarini oshishiga hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Soliev A.S. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T: Universitet. 2003.
2. Mamaraximov B.E., Mamatov M.A. Iqtisodiy siyosatga kirish. O'quv q'llanma. - T: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 -252 b.
3. <https://kun.uz/uz/news/2020/02/26/Navoiy-kon-metallurgiya-kombinatida -yangi-konlarni-ozlashtirish-boyicha-korsatmalar-berildi>.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4124-sonli qarori.//www.lex.uz.
5. www.stat.uz-O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti ma'lumotlari.
6. www.navstat.uz - O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

MINTAQAVIY MIQYOSDA BANKLARNING KAPITALASHUV DARAJASINI OSHIRISH YO'LLARI

***Mirzayeva Matluba G'aybulla qizi -
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolar" ilmiy tadqiqot markazi doktoranti***

O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan izchil va maqsadli islohotlar uning nafaqat jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalanishiga, balki banklar faoliyatida muhim va sifat o'zgarishlarga erishish, iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmini kengaytirish hamda bank va moliya xizmatlarini ko'rsatish darajasini tubdan yaxshilash imkonini berdi.

Mamlakatimiz bank tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, uning jahon moliya bozoridagi nufuzi ortib borishi, shuningdek mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo`lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, qator nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda. Bunda, ayniqsa, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar diqqatga sazovordir. Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo`lsak, so`nggi 10 yil ichida bank tizimining umumiyligi kapitali 6 barobardan ziyodroqqa o`sdi. 2022 yilning o`zida tijorat banklari umumiyligi kapitali 32 foizga ko`paydi. Shuni takidlash joizki, respublikamizda yirik banklarning kapitallashuv darajasini oshirish ko`pgina xorij mamlakatlari amaliyoti bo'yicha asosan banklarning likvidlik ko`rsatkichini saqlab turishga emas, balki banklarning investitsiyaviy faolligini kuchaytirishga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o`zgarishlarning ustuvor yo`nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish qaratildi. [1] O`zbekiston Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to`g`risida"gi PF-5992-sonli farmoni bilan 2025 yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd. so`mgacha bosqichma-bosqich oshirish belgilangan.

[2]

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda «Kapitallashuv darjasasi» tushunchasi, uni oshirish masalalari xorijlik olimlar, mutaxassislar tomonidan o`rganilgan va tegishli ta'riflar berilgan. Ph.D M.E.Egamova o`zining tadqiqotida "Tijorat banklari faoliyatini sarmoyasiz, ya`ni etarli darajada kapitallashuvsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Shu bois tijorat banklari kapitali dastlab banklarni ochish jarayonida, keyinchalik esa Markaziy bankning iqtisodiy normativlarini bajarishda asosiy mezon va bank faoliyatida kutilmaganda vujudga kelishi mumkin bo`lgan yo`qotishlarni qoplashda "himoya yostiqchasi" sifatida muhim moliyaviy manba bo`lib xizmat qiladi"-degan tushunchani bergen [3]. A. S. Klimov tadqiqotlarida «kapitallashuv» tushunchasiga, «kredit tashkiloti kapitalining bozor qiymati haqida aktsiyalar sonining ularning bozor qiymatiga ko`paytmasi sifatida»- deb ta'rif berilgan [4]. Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimining barqarorligini ta'minlashning zaruri sharti hisoblanadi. Bizga ma'lumki, tijorat banklari kapitali bank aksiyadorlari mablag`lari va boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi [5,6,7]. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan professor Sh.Abdullayeva va A.Omonovlar bank kapitaliga quyidagicha ta'rif berishgan: " Tijorat banklarining kapitali barqaror manba bo`lib, bankning operatsion jarayonda kutilmaganda yuzaga keladigan zararlarni qoplash imkoniyatini beruvchi o`ziga xos himoya vositasidir" [8]. Maslenchenkov Yu.S. "Финансовой менеджмент в коммерческом банке" kitobida: "bank kapitalini o`z va jalb qilingan mablag`lardan tashkil topadi" [9], - deb o`rganadi. Bularning ishlaridan ko`rishimiz mumkinki, bu iqtisodchi-olimlar resurslarning tarkibiy shakllanishiga ko`p e`tibor berib, bank kapitalini faqat ikki guruhga bo`lib o`rganganlar.

Professor V.M.Usovskiy bank kapitaliga bank moliyaviy resurslarining muhim va ajralmas tarkibiy qism sifatida qaraydi [10]. Ko`rinib turibdiki, bu yerda kapital bank resurslarining muhim va tarkibiy qismi sifatida qaralishi natijasida asosiy vazifalari (himoya, tezkor va tartibga solish) e`tibordan chetda qolgan .

Tadqiqot jarayonida bank kreditlash xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish hamda bank xizmatlari tizimining yuqori darajada samaradorligini ta'minlash usullarini o`rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhash usullaridan foydalanildi hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlik darjasasi baholandi.

O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko`ra, «Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo`yiladigan talablar to`g`risida»gi Nizomga muvofiq: «Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va

xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko`rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. [11]

Bizga ma'lumki, tijorat banklarning kapitallashuv darajasini oshirishning asosiy yo'llaridan biri - bu bank ustav kapitalini oshirishdir[12]. Respublikamizda keyingi yillarda tijorat banklari ustav kapitali oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning natijasida, banklar o'z mablag'lari tarkibida ustav kapitali salmog'li ulushni tashkil etmoqda. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval
Respublikamiz tijorat banklari ustav kapitalining o'z mablag`lariga nisbati [13]

| Yillar | Banklar ustav kapitali, mlrd, so`m | Banklaarning o'z mablag`lari, mlrd so`m, | Ustav kapitalining banklarning o'z mablag`lariga nisbati, % |
|--------|------------------------------------|--|---|
| 2015 | 4319 | 7784 | 55,49 |
| 2016 | 5805 | 9353 | 62,07 |
| 2017 | 16307 | 20676 | 78,87 |
| 2018 | 19673 | 26679 | 73,74 |
| 2019 | 41877 | 51031 | 82,06 |
| 2020 | 44656 | 58351 | 76,53 |
| 2021 | 54760 | 70918 | 77,22 |
| 2022 | 56813 | 72422 | 78,45 |
| 2023 | 66343 | 80764 | 82,14 |

Yuqorida jadval ma'lumotlari orqali shuni ko'rish mumkinki, tijorat banklari ustav kapitalining o'z mablag`lariga nisbati oxirgi yilda o'sish tendensiyani ko`rsatmoqda. Lekin 2018 yilda, aksincha, sezilarli darajada pasaygan bo'lsa-da, 2019 yilda bu ko`rsatkich 82,06 foizgacha oshgan. Bunga, asosan, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli qaror ijrosi sabab bo'ldi. Unga ko`ra, barcha tijorat banklarining ustav kapitali 2019 yil 1 yanvargacha 100 mlrd. so`mga oshirilishi belgilandi. Shu asnoda 2021 yildan 2023 yilgacha ustav kapitalining banklarning o'z mablag`lariga nisbati oshib borgan. Ustav kapitalining jami kapital hajmida yuqori salmoqni egallashi ijobjiy holat hisoblanadi. Chunki ustav kapitali yuqori barqarorlik darajasiga ega bo'lgan moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Mamlakatda YAMning yildan yilga oshib borayotganligi tijorat banklarining kredit qo'yilmalari hajmi ortishiga, bu esa o'z navbatida, ularning kapitallashuv darajasini oshirishni talab etadi. Buning natijasida bank kapitali barqarorligiga erishish mumkin.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar va o'rganishlar asosida banklar kapitallashuv darajasiga oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik:

➤ Tijorat banklari kapitallashuv darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish maqsadga muvofiq.

➤ Davlat tomonidan moliyaviy imtiyozlar qo'llash orqali tijorat banklari aksiyalarining investitsion jozibadorligini oshirish hamda shuning assosida 2025 yil 1 yanvargacha banklar ustav kapitalining minimal miqdorlarini belgilangan talablar darajasiga keltirilishiga erishish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodmonov I.S." Banking kredit siyosatini takomillashtirish". "Экономика и социум" №10(89) 2021. 268-b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli farmoni, 2020 yil 12 may.

3. Климов А.С. Капитализация коммерческих банков: мировая практика и ее использование российскими банковскими структурами: диссертация. кандидата экономических наук: Москва, 2008.- 180 с.

4. Egamova M.E. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda daromadning roli. Iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). Dis. avtoreferati. – T.: TMI, 2019. – 28 b.
5. Курбанов, Р. (2022). Банклар капиталлашув даражасини оширишинг долзарб масалалари. Экономика и образование, 23(4), 96-101.
6. Kurbanov, R. B. (2021). Improving the organization of the resource base of private banks of the republic of Uzbekistan. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research, 10(5), 41-45.
7. Bakhtiyorovich, K. R. (2020). Analysis of Financial Performance of Private Banks in Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05).
8. Abdullayeva Sh., Omonov A. "Tijorat banklarining kapitali va uni boshqarish" Monografiya T.: "Iqtisod-moliya". 108 b.
9. Масленченков Ю.С. Финансовый менеджмент в коммерческом банке. Москва, «Перспектива» 1996 г. 525 см
10. Усокин В.М. Современный коммерческий банк: Управление и операции. –М.: “Вазар-Ферро”, 1994. 347 см.
11. Xo'jayorov Hayot Baxtiyorovich. "Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirishning mohiyati va iqtisodiy ahamiyati". Banklar va moliya bozori / banki i finansovye rinki. 2022, 5(153). 33-b.
12. Kurbanov R.B., Khudoyberganova Z.Z. Matters of the increasement of private banks capitalization level // Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. 2018. №. 6. S. 103-105.
13. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O`ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY HUDDLARNI SAMARALI BOSHQARISHNING MUAMMOLARI

***Muhammadjonov Bekzod Olimjon o'g'li -*
Biznes va tadbirkorlik olyi maktabi
*"Biznesni boshqarish (MBA)" tinglovchisi***

Kirish. Erkin iqtisodiy hududlar (EIH) dunyoning ko'plab mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va sanoat rivojlanishini rag'batlantirishning mashhur vositasi bo'lib kelgan. O'zbekiston EIHLar salohiyatini e'tirof etib, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida mamlakat bo'ylab bir nechta shunday hududlar tashkil etdi. Biroq O'zbekistondagi EIHLar boshqaruvi ma'muriy to'siqlar, korruptsiya, rag'batlantirishning yo'qligi va infratuzilmaning yetarli emasligi kabi bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Ushbu maqola O'zbekistondagi EIHLarni boshqarish oldida turgan vazifalarni o'rGANADI va ularni boshqarishni takomillashtirish choralarini tavsiya qiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoqlarida, korxonalarining iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida rivojlanishi hamda iqtisodiy makonda raqobatbardoshligini ta'minlash korporativ boshqaruv nazariyasi va amaliyotini qo'llash samaradorligiga bog'liqdir. Shuning uchun ham iqtisodiyot sohalarini boshqarishning zamonaviy va samarali uslublaridan biri bo'lgan korporativ boshqaruv mexanizmi mamlakatimiz biznes muhitining rivojlanishiga asos bo'lmoqda [1].

O'zbekistonda EIHLarni boshqarishning joriy amaliyoti

O'zbekistonda EIHLar mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish, xorijiy investitsiyalarni jalg etish va ish o'rirlari yaratish maqsadida tashkil etilgan. Bizga ma'lumki 2022-yilda mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotini yanada mustahkamlash maqsadida Prezidentimizning Qarorlariga asosan 21 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, ulardan 19 tasi sanoat, 1 tasi qishloq xo'jaligi va 1 tasi turizm sohasiga ixtisoslashgan [2].

Ayni paytda O'zbekistonda har biri o'ziga xosligi bo'yicha ulkan tarmoq yo'nalishiga ega bo'lgan 12 ta EIH mavjud. Ularga "Navoiy", "Angren" EIH, "Jizzax" EIH, "G'ijduvon" EIH, "Urgut" EIH, "Hazorasp", "Chiroqchi" EIH, "Termiz" EIH, "Nukus" EIH va "Qo'qon" EIH "Namangan"

EIH "Sirdaryo" EIH kiradi. Yuqoridagi erkin iqtisodiy zonalar sanoatga ixtisoslashgan bo`lib, ulardan tashqari qishloq xo`jaligiga ixtisoslashgan 2ta "Buxoro-agro" EIH, "Qoraqalpoq-agro" EIH, farmasevtikaga ixtisoslashgan 6 ta "Zomin-farm" EIH, "Bo`stonliq-farm" EIH, "Sirdaryo-farm", "Kosonsoy-farm", "Andijon-farm", "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalari, turistik yo`nalishida faoliyat yuritayotgan 2 ta "Chorvoq" turistik-rekratsion zona, "Zomin" turistik-rekratsion erkin iqtisodiy hududlar mavjud.

Hozirgi kunda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.10.2016 yil PF-4853-son qaroriga asosan maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga ba`zi soliqlar uchun imtiyozlar, shuningdek soliq kodeksi va O`zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to`g'risida"gi qonunga asosan o`rnatilgan tartibda bojxona to`lovleri bo'yicha imtiyozlarni qo'llash hususiyatlari ko'zda tutilgan.

O`zbekiston Respublikasi "erkin iqtisodiy zonalar to`g'risidagi" qonunining 39-bandiga asosan erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari quyidagi to`lovlardan ozod etiladi:

- Respublikada ishlab chiqarilmaydigan va qurilish davrida investitsiya kelishuviga muvofiq investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun olib kelinadigan qurilish materiallari uchun bojxona to`lovleri (qo'shilgan qiymat solig'i va rasmiylashtirish bojxona yig'imlaridan tashqari)

- O`zbekiston Respublikasida o'xshashlari ishlab chiqarilmaydigan texnologik uskunalarni olib kirishda bojxona to`lovleri (bojxona rasmiylashtirish yig'imlaridan tashqari) tasdiqlangan ro`yxat bo'yicha [3].

Vazirlar Mahkamasining 04.06.2021 yildagi "O`zbekiston Respublikasi hududiga import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan o'xhashi respublikada ishlab chiqarilmaydigan yangi texnologik asbob-uskunalar ro`yxatini tasdiqlash to`g'risida"gi 352-son qarori bilan texnologik uskunalarning ro`yxati tasdiqlangan. Bundan tashqari maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tovarlarni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha muddatni 120 kungacha kechiktirishga haqli [4].

Biroq, ushbu hududlarni boshqarish bir qator omillar, jumladan, ma'muriy to'siqlar, rag'batlantirishning yetishmasligi, cheklangan infratuzilma va boshqaruva organlarining yetarli darajada salohiyati mavjud emasligi tufayli doim qiyin kechishi mumkin. Quyida jahon tajribasidan kelib chiqib O`zbekistonda vujudga kelishi mumkin bo`lgan va tizim mavjud bo`lmagan holatda yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammolar keltirib o`tilgan.

Ma'muriy to'siqlar. Nafaqat O`zbekistonda balki butun dunyoda erkin iqtisodiy zonalarni boshqarish oldida turgan muhim muammolardan biri investorlar o'z bizneslarini yo'lga qo'yishda duch keladigan ma'muriy to'siqlardir. Ushbu to'siqlar ruxsatnomalar, litsenziyalar olish va bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha murakkab tartiblarni o'z ichiga oladi; noaniq normativ-huquqiy bazalar; va byurokratik qog'ozbozlik. Bu to'siqlar investorlarning ishbilarmonlik muhitida harakatlanishini qiyinlashtiradi va ularni O`zbekistonga sarmoya kiritishdan qaytaradi.

Rag'batlarning yetishmasligi. O`zbekistondagi EIHLar boshqaruvi oldida turgan yana bir qiyinchilik - bu rag'batlantirishning yo'qligi. Investorlar ko'pincha EIHLarga soliq ta'tillari, tariflarni pasaytirish va soddalashtirilgan byurokratik tartib-qoidalar kabi imtiyozlar orqali jalg qilinadi. Biroq O`zbekistonda bu imtiyozlar cheklangan va investorlar uchun yetarlicha jozibador emas. Natijada sarmoyadorlar mamlakatga sarmoya kiritishdan to'xtab qolishi, EIHLarning potentsial foydalari to'liq amalga oshirilmasligi mumkin.

Cheklangan infratuzilma. O`zbekistondagi EIHLar boshqaruvi oldida turgan yana bir muammo cheklangan infratuzilmadir. Investitsiyalarni jalg qilish uchun EIHLar zarur infratuzilmaga, jumladan, yuqori sifatli transport, telekommunikatsiya va energiya tarmoqlariga, ishonchli suv va kanalizatsiya tizimlariga ega bo'lishi kerak. O`zbekistonda esa ayrim EIHLarda infratuzilma yetarli emas, bu esa investorlarni o'z bizneslarini yo'lga qo'yishdan to'xtatib qo'yishi mumkin.

Boshqaruva organlari salohiyatining yetarli emasligi

O'zbekistondagi EIHLarni boshqarish organlari imkoniyatlari, jumladan, malaka, bilim va resurslarning yetarli emasligi kabi bir qancha cheklowlarga vujudga kelishi mumkin. Ushbu cheklovlar EIHLarni samarali boshqarishga ta'sir qilishi va ularning investitsiyalarni jalg qilish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

O'zbekistonda EIHLarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar:

O'zbekistonda EIHLarni boshqarishni takomillashtirish maqsadida bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Birinchidan, me'yoriy-huquqiy bazani ma'muriy to'siqlarni kamaytirish uchun qayta ko'rib chiqish mumkin. Bu ruxsatnomalar, litsenziyalar olish va bojxona rasmiylashtiruvni tartiblarini soddalashtirish, me'yoriy-huquqiy bazaning shaffofligini ta'minlashni o'z ichiga olishi mumkin. Bu investorlarga ishbilarmonlik muhitida osonroq harakat qilish va O'zbekistondagi EIHLarning jozibadorligini oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, boshqaruv organlarining malaka va bilimlarini salohiyatni oshirish tashabbuslari orqali oshirish mumkin. Bu menejment, marketing va boshqa tegishli ko'nikmalar bo'yicha treningni o'z ichiga olishi mumkin, bu ularga EIHLarni samarali boshqarish imkonini beradi. Bundan tashqari, boshqaruv organlari va investorlar o'rtasida yaxshi hamkorlik va bir-birini tushunishni ta'minlash uchun investorlar bilan aloqa kanallarini yaxshilash mumkin.

Uchinchidan, yuqori sifatli transport, telekommunikatsiya, energetika, suv va kanalizatsiya tizimlariga sarmoya kiritish orqali EIHLar infratuzilmasini mustahkamlash mumkin. Bu EIHLarni sarmoyadorlar uchun yanada jozibador qiladi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

To'rtinchidan, investorlarga soliq ta'tillari, tariflarni pasaytirish va byurokratik tartiblarni soddalashtirish kabi imtiyozlar berilishi mumkin. Bu EIHLarni sarmoyadorlar uchun yanada jozibador qiladi va ularni O'zbekistonga yanada sarmoya kiritishga undaydi.

Nihoyat, EIHLar faoliyatini baholash va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash uchun kompleks monitoring va baholash tizimini yaratish mumkin. Bu O'zbekistonga EIHLar faoliyatini kuzatish, takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash va mas'uliyatni oshirish imkonini beradi.

Xulosa. O'zbekistondagi erkin iqtisodiy hududlarning muvaffaqiyati ushbu hududlarni samarali boshqarishga bog'liq. O'zbekistondagi EIHLarni boshqarish oldida turgan vazifalar, jumladan, ma'muriy to'siqlar, rag'batlantirishning yo'qligi, cheklangan infratuzilma va boshqaruv organlarining yetarlicha salohiyatga ega bo'lishi O'zbekistonda EIHLarning jozibadorligini oshirish uchun muhim omil bo'lib qoladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun me'yoriy-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish, salohiyatni oshirish tashabbuslari, infratuzilmaga investitsiyalar, rag'batlantirish, keng qamrovli monitoring va baholash tizimini yaratish kabi choralar ko'riliishi mumkin. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali O'zbekiston ko'proq xorijiy sarmoyani jalg qilishi, iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'maklashishi va yangi ish o'rnlari yaratishi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

- [1] Суюнов Д.Х.; Турсунов Б.Р., "АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРДА КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ САМАРАДОЛИГИНИ ОШИРИШ," Central Asian Academic Journal of Scientific Research, pp. 48-55, 2022.
- [2] S. N. Eshqbobilov, "ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNI TASHKIL ETISHDA JAHON TAJRIBASI," Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, pp. 286-291, 2022.
- [3] <https://sez.gov.uz/>, "<https://sez.gov.uz/>," 05 05 2023. [Online]. Available: https://sez.gov.uz/?page_id=5930&lang=uz.
- [4] 3.-s. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, "<https://lex.uz/>," 04 06 2021. [Online]. Available: <https://lex.uz/uz/docs/-5445273?ONDATE=19.01.2022&ONDATE2=04.06.2021&action=compare>.

HUDUDLARNI RIVOJLANTIRISHDA SHAHARLAR SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Rahimova Madina Shuhrat qizi -
QMII tayanch doktoranti

O'zbekiston shaharlarida xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalar Toshkent shahri bilan qiyoslaganda sust rivojlanmoqda. Jumladan, xizmatlar tarmogi YIMga qo'shilgan qiymatining 1/5 qismidan ortig'i Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Konsentratsiya darajasi ayniqsa savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yuqori bo'lib, 2022-yilda poytaxtning bu tarmoqdagi ulushi 35 foizdan oshdi. Mamlakat bo'yicha jami shahar aholisining 16 foizi Toshkent shahrida doimiy ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu raqamlar tarkibiy o'zgarishlar orqali hududlarda urbanizatsiya darajasini oshirish zaruratidan dalolat beradi. Shularni inobatga olib, mazkur tadqiqotda O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi va amalga oshirilgan tarkibiy o'zgarishlar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi tahlil qilindi. Natijalar tarkibiy o'zgarishlar urbanizatsiyani oshirishga xizmat qilayotgani, biroq urbanizatsiya darajasining oshishi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasi o'zgarishiga sabab bo'lmayotganini ko'rsatdi.

Urbanizatsiya global hodisa bo'lib, bugungi kunda dunyo aholisining yarmidan ko'pi shaharlarda istiqomat qiladi va 2050-yilga borib bu raqam 68 foizga oshishi kutilmoqda. Urbanizatsiya jarayoni butun dunyo iqtisodiyotiga chuqur ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy o'sish va rivojlanishga turtki bo'ldi. Urbanizatsiya yangi ish o'rnlari va ishlab chiqarishlarning paydo bo'lishi hamda mavjudlarining o'sishiga olib keldi. Shaharlar innovatsiya markazlari bo'lib, u yerda yangi g'oyalar va texnologiyalar ishlab chiqiladi va sinovdan o'tkaziladi. Bu jahon iqtisodiyotini o'zgartirgan texnologiya va moliya kabi yangi tarmoqlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Urbanizatsiya, shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlarining o'sishiga olib kelib, fabrikalar va ishlab chiqarish obyektlari ko'lamli iqtisod va transport tarmoqlarining ommabopligrini ta'minlash uchun shaharlarda to'plandi. Shu tariqa urbanizatsiya global iqtisodiyot, xususan, mamlakatlar iqtisodiyoti tarkibini shakllantirish va rivojlanishda muhim rol o'ynadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar tashlasak, Xitoy so'nggi yillarda jadal urbanizatsiyani boshdan kechirib, millionlab odamlar qishloqlardan shaharlarga ko'chib o'tdi. Bu yangi shaharlarni rivojlantirish va mavjudlarini kengaytirish, shuningdek, barqaror urbanizatsiyani rag'batlantirishga qaratilgan turli siyosat va tashabbuslarni amalga oshirishga olib keldi. 1986-yilgi "Yer xo'jaligi to'g'risidagi qonun"da "jamoaviy yer rekvizitsiya qilinishi mumkinligi" ko'rsatilib, bu rekvizitsiyaning asosiy yo'nalishi qishloqdagi yerlar bo'ldi. Shu sababli, shahar qurilishi uchun yer olishning asosiy va amalda yagona manbai qishloqlardagi, birinchi navbatda, shaharlar va qishloqlar atrofidagi jamoaviy yerlarga aylandi. Xitoyda "yerni moliyalashtirish" siyosati samarali natijalar berdi. Yer resurslarining tanqisligi sharoitida bu siyosat orqali sanoat va urbanizatsiya ehtiyojlari uchun yerlar arzon narxlarda taklif qilindi. Shaharlarni rivojlantirish maqsadida hukumat yangi yo'llar, ko'priklar va jamoat transporti tizimlarini qurish kabi infratuzilmani rivojlantirishga katta miqdorda sarmoya kiritdi. Shuningdek, shaharlarda uy-joylarni arzonlashtirish siyosati amalga oshirildi. Masalan, birinchi marta uy sotib oluvchilarga subsidiyalar berish va ijaroni nazorat qilish bo'yicha choralar ko'rildi. Korxonalarini shaharlarga sarmoya kiritishni rag'batlantirish uchun soliq imtiyozlari, xususan, belgilangan shahar joylariga ko'chib o'tadigan kompaniyalar uchun soliq stavkalarini pasaytirdi.

Yaponiya urbanizatsiya darajasi yuqori mamlakatlardan bo'lib, aholisining 90 foizdan ortig'i shaharlarda istiqomat qiladi. Yaponiyada urbanizatsiya jarayoni XIX asrning oxirida, mamlakat dunyoga ochilib, iqtisodiyotini modernizatsiya qilishni boshlagan Meydzi davrida boshlandi. Ishlab chiqarish sanoatining o'sishi Yaponiyada urbanizatsiyaga turtki bo'lgan asosiy omillardan biri bo'ldi. Hukumat to'qimachilik, po'lat va kemasozlik kabi tarmoqlarni rivojlantirishni rag'batlantirdi, bu esa fabrikalar va ishchilarning shaharlarda to'planishiga

olib keldi. II jahon urushidan keyingi davrda mamlakatning jadal iqtisodiy o'sishi ham urbanizatsiyaning kuchayishiga olib keldi. Hukumat o'sib borayotgan aholi va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilma, jumladan, transport tarmoqlari, uy-joy va kommunal xizmatlarga ko'p miqdorda sarmoya kiritdi.

Yaponiyadagi urbanizatsiya jarayoni yuqori darajada markazlashganligi bilan ham ajralib turadi. Poytaxt Tokio 13 mln.dan ortiq aholiga ega mamlakatdagi eng yirik shahar hududi bo'lib, Yokogama, Osaka va Nagoya boshqa yirik shaharlarga kiradi. Urbanizatsiyaning yuqori darajasiga qaramay, Yaponiya barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va urbanizatsiyaning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish siyosatini ham amalga oshirdi. Ushbu siyosatlar energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va shaharlarda yashil maydonlarni rivojlanishni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, Yaponianing urbanizatsiya tajribasi shaharlarning yashash uchun qulay, barqaror va iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lishini ta'minlash uchun puxta rejalashtirish va boshqarish muhimligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, urbanizatsiya shahar iqtisodiyotini rivojlanish orqali iqtisodiy o'sishga yordam beradi [2]. Jalon Banki tahlillariga ko'ra, "O'zbekiston shaharlari hali o'z salohiyatiga erisha olgani yo'q. Urbanizatsiya iqtisodiy o'sish bilan bog'liq bo'lgan mamlakatlarda shaharlar va ayniqsa yirik shaharlar o'sishda yetakchi bo'lib kelgan. O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarning sekin kechishi shahar iqtisodiyotining rivojlanmagani bilan bog'liq. Yuqori daromadli mamlakatlarda (barchasi yuqori urbanizatsiyalashgan) 2020 yilda qishloq xo'jaligida bandlar ishchi kuchining o'rtacha atigi 3 foizini, xizmat ko'rsatish sohasi esa 64 foizdan ortig'ini tashkil etdi. O'zbekiston bu chegaradan ancha past va iqtisodiyotning qishloq xo'jaligidan tashqari tarmoqlarining zaif rivojlanishi tarkibiy o'zgarishlarni sekinlashtirgan bo'lishi mumkin" [1]. Shunday ekan, O'zbekistonda shahrlarni rivojlanish orqali tarkibiy o'zgarishlar sur'atini jadallashtirish bugungi kunda muhim vazifalardan hisoblanadi.

Tarkibiy o'zgarishlar va urbanizatsiya o'rtasida kuchli sabab-oqibat aloqasi mavjud. Tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyotning qishloq xo'jaligidan sanoat va xizmat ko'rsatish sohasiga o'tishini, urbanizatsiya esa shaharlar va aholi punktlarining o'sishini bildiradi [2]. Mamlakatlar tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirar ekan, ularda odatda aholining qishloq joylaridan shaharlarga o'tishi sodir bo'ladi. Buning sababi shundaki, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalari shaharlarda markazlashgan bo'lib, ish bilan ta'minlash imkoniyatlari va ish haqining oshishiga olib keladi. Natijada, odamlar yaxshi iqtisodiy istiqbollarni izlash uchun shaharlarga oshiqishadi.

Shu bilan birga, urbanizatsiya shahar aholisining ehtiyojlarini qondiradigan yangi sanoat va xizmatlarni yaratish orqali tarkibiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, shaharlarning o'sishi transport tizimlari va aloqa tarmoqlari kabi yangi texnologiyalarning rivojlanishiga olib kelib, bu esa xizmat ko'rsatish sohalarining o'sishiga yordam bergan [4]. Umuman olganda, tarkibiy o'zgarishlar va urbanizatsiya o'rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi murakkab va ko'p qirrali. Tarkibiy o'zgarishlar yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish orqali urbanizatsiyaga turtki berishi mumkin bo'lsa-da, urbanizatsiya yangi sanoat va xizmatlarni yaratish orqali ham tarkibiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Shuningdek, urbanizatsiya darajasi shahar aholisining jami aholiga nisbati orqali ifodalandi. Ko'plab tadqiqotlarda tarkibiy o'zgarishlar darajasini hisoblashda Ditrix [3] taklif etgan absolyut qiymat normasi (NAV - norm of absolute value) indeksidan foydalananildi. NAV nol va bir oralig'ida bo'lib, tarkibiy tuzilma o'zgarishsiz qolsa, indeks nolga teng bo'ladi. Barcha tarmoqlardagi o'zgarish eng yuqori darajada bo'lishi butun iqtisodiyotning to'liq o'zgorganini anglatib, bu holda indeks birga teng bo'ladi. Indeks quyidagicha hisoblanadi:

$$NAV_{s,t} = 0,5 \sum_{i=1}^n |x_{i,s} - x_{i,t}| \quad (1)$$

bunda $x_{i,s}$ va $x_{i,t}$ s va t vaqtda i -tarmoqning jami YIMdagi ulushi.

Biroq mazkur indeks qaysi tarmoqning ulushi ortganini ifodalay olmaydi. Indeksni hisoblash usuliga ko'ra, YIM tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi kamayishi hisobiga sodir bo'lgan 1 foizlik o'zgarish sanoat tarmog'i ulushi hisobiga sodir bo'lgan ayni miqdordagi o'zgarishga teng bo'ladi. O'zbekiston hududlarida iqtisodiyot tarmoqlari ulushi o'zgarishining nobarqaror xususiyat kasb etishi inobatga olib, tadqiqotda tarkibiy o'zgarish darajasi YIM tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushining o'zgarishi sifatida ifodalandi.

O'zbekistonda shahar aholisi ulushi 2022-yil boshiga 50,8 foizni tashkil etdi. Shahar aholisi ulushi bo'yicha Toshkent shahridan keyin Namangan, Farg'ona, Andijon viloyatlari yetakchilik qilsa, Xorazm, Surxondaryo, Buxoro va Samarqand viloyatlari ro'yxatda oxirgi o'rnlardan joy oladi. Mamlakat aholisining 8,1 foizi Toshkent shahrida doimiy ro'yxatdan o'tgan bo'lib, bu jami shahar aholisining 16,0 foizni tashkil etadi (1-pacm).




1-rasm. O'zbekiston hududlarida urbanizatsiya darajasi (2022-yil boshiga)

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jahoning yirik shaharlari iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar sohasining ulushi yuqoriligi bilan ajralib turadi (2-pacm). O'zbekistonda xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymatdagi (YQQ) ulushi 2022-yilda 41,5 foizni tashkil etib, 2010-yilga nisbatan 3,8 foiz punktiga kamaygan. Mamlakatda xizmatlar tarmog'ining konsentratsiya darajasi yuqori bo'lib, bu tarmoq YIMga qo'shilgan qiymatining 1/5 qismidan ortig'i Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi.

Konsentratsiya darajasi ayniqsa savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yuqori bo'lib, 2010-yilda bu soha qo'shilgan qiymatining 20,4 foizi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 35,4 foizni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkentning qo'shilgan qiymatdagi ulushi tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari bo'yicha 2010-yilda 25,3 foiz va 2022-yilda 29,8 foizni tashkil etgan. Bu holat boshqa hududlarning xizmatlar sohasida Toshkent shahridan ancha ortda qolayotgani va ularda joylashgan shaharlarda xizmat ko'rsatish bo'yicha korxonalarining sust rivojlanayotgani, pirovardida, urbanizatsiya jarayonlarining sekin kechayotganidan dalolat beradi.



2-rasm. Xizmatlar sohasining qo'shilgan qiymatida Toshkent shahrining ulushi, jamiga nisbatan foizda

Manba: Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sivaev D. et al. *The Time is Now.* – 2022. P.26.
2. Эркаева, Г. П., & Жаҳонгиров, Ш. (2023). ҲУДУДНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИ ВА ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(2), 115-120.
3. Dietrich A. Does growth cause structural change, or is it the other way around? A dynamic panel data analysis for seven OECD countries // *Empirical Economics*. – 2012. № 43(3), P. 915-944.
4. Panjiyevna, E. G., & Alisher o'g'li, V. R. (2022). MINTAQALARNING TURISTIK IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 230-233.

QORAQALPOĞISTONDA FERMER XO'JALIKLARINING RIVOJLANISHI VA FAOLIYATI SAMARADORLIGI

Reymbaeva Z.A.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti


Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng dastlabki qadam, yuqoridagi paragaraflarida ta'kidlab o'tganimizdek, bozor munosabatlarga asoslangan iqtisodiyotga o'tish, ya'niy xo'jalik yuritishning barcha shakllari uchun teng iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish, xususiy mulkchilikni shakllantirish va rivojlantirish hamda mulkdorlar mustaqil faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy asoslarni va institutsional tuzilmalarni barpo etish bilan tavsiflanadi. Agrar sohada bosqichma-bosqich olib borilgan islohotlar, xususan ana shu amalga oshirilgan ishlar natijasida xususiy mulkchilikka asoslangan turli toifadagi xo'jaliklar tashkil etildi va faoliyat ko'rsata boshladi. Shuni ta'kidlash kerakki, ohirgi yillarda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va ularni rivojlantirish uctuvor vazifaga aylandi. Shuningdek, kelgusi yillarda qishloq xo'jaligida olib boriladigan o'zgarishlarning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi va chorvachilik mahsuldarligi oshirish negizida mahsulot etishtirish hajmining izchil o'sib borishini ta'minlashning asosiy shakli bo'lgan fermerlik institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish bo'ladi.

Shu nuqtai nazaridan respublikamizda bu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar amalgalashirilmoqda. Buni davriy statistik ma'lumotlar, fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ular faoliyatini rag'batlantirish va uyg'unlashtirish, ularga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarini tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar dalil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazaridan respublikamizda bu yo'nalishda keng ko'lamli ishlar amalgalashirilmoqda. Buni davriy statistik ma'lumotlar, fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ular faoliyatini rag'batlantirish va uyg'unlashtirish, ularga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarini tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar dalil sifatida xizmat qilishi mumkin.

R.X.Tashmatov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda [2] respublikamizda fermerlik harakati rivojlanishining IV bosqichi (I bosqich - 1993-1997 yillar, II bosqich - 1998-2002 yillar, III bosqich - 2003-2007 yillar, IV bosqich - 2008 yildan-keyingi yillar) o'rganilgan. Ushbu tadqiqot 10 yil oldin olib borilganligini inobatga olib, mazkur sohada ma'lum institutsional o'zgarishlar amalga oshirilganligini va yangi turdag'i ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari instituti paydo bo'lganligini inobatga olib, O'zbekistonda fermer xo'jaliklarining rivojlanishining V bosqichi (2017-hozirgi davrgacha) aniqlanib, uning o'ziga xos institutsional asoslar va bu borada amalga oshirilgan ishlar tavsiflangan.

Ushbu institutsional o'zgarishlar O'zbekiston, shu jumladan Qoraqolpog'iston Respublikasi hududlarida fermer xo'jaliklari soni o'zgarishiga sabab bo'ldi. Jumladan, mazkur hududda fermer xo'jaliklari soni 1991-2018 yillar mobaynida barqaror oshib borgan. Mana shu davr oraliq'ida fermer xo'jaliklari soni 1215 tadan 6872 tagacha, ya'niy 5,6 martaga oshgan. 2019 yilga kelib ularning soni 1257 ga kamayib, 5615 tani tashkil etgan. Keyingi yillarda esa fermer xo'jaliklari soni barqaror o'sib borgan va 2021 yilga kelib, ularning soni 6385 taga etgan (1-rasm).



1-rasm. Qoraqolpog'iston Respublikasida fermer xo'jaliklari soni dinamikasi,%
Manbaa: Muallif tomonidan Qoraqolpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlari tarkibini kuzatadigan bo'lsak, 2021 yilda don va dukkakli don ekinlari 88730 hektarda, paxta - 67354 hektarda, kartoshka 2854 hektarda, sabzvotlar 7108 hektarda, polizlar 6910 hektarda, meva va rezavorlar 3848 hektarda ekilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, 2000 yilga nisbatan don va dukkakli don ekin maydoni deyarli

o'zgarmagan (4 foizga oshgan), meva va rezavorlarga ajratilgan er maydoni 167 foizga, polizlarga va sabzavotlarga ajratilgan er maydoni esa ularga mos ravishda 2,4 va 2,5 martaga oshgan.

Kartoshka uchun ajratilgan er maydoni 2010-2021 yillar mobaynida 19 foizga, paxtaga ajratilgan er maydoni esa 33 foizga qisqargan. Buning sababi respublikamizda paxta va don ekinlari er maydonlarini kamaytirib, bo'shagan er maydonlarida kartoshka, sabzavot, emxashak va moyli ekinlarni hamda yangi intensiv bog' va uzumchilikni joylashtirishga qaratilgan er maydonlarini yanada maqbullashtirish ishlari olib borilgan [1]. Oxirgi uch yilda respublika bo'yicha paxta ekiladigan maydonlar qariyb 215 ming hektar qisqartirilgan. Iqtisodiy jihatdan bu samara beradi, chunki mutaxassislarining hisob-kitoblariga asosan "2017 yil yakunlariga ko'ra, past retabelli erlarda etishtirilgan paxtaning 1 hektaridan o'rtacha 0,9 million so'm daromad olingan xolos.

Xolbuki, ushbu joyga ekiladigan sabzavotdan 5,2 million so'm, kartoshkadan 5,9 million so'm, polizdan 4,1 million so'm, mevadan 1,8 million so'm, uzumdan 2 million so'm, moyli ekinlardan esa 1,2 million so'mdan ziyod daromad olish mumkin [3]"

Qoraqolpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari tomonidan 2021 yilda 214321 tonna don ekinlari, 137362 tonna paxta, 28905 tonna kartoshka, 111813 tonna sabzavot, 83211 tonna poliz hamda 24168 tonna meva va rezavorlar etishtirilgan. Agar tendensiyani kuzatadigan bo'lsak, 2021 yilda 2000 yilga nisbatan sabzavot 1,78 marta, meva va rezavorlar - 2,02 marta, kartoshka - 2,91 martaga ko'p etishtirilgan.

Don ekinlari va paxta ekinlariga keladigan bo'lsak, ularning ishlab chiqarish hajmi mazkur davr mobaynida ularga mos ravishda 95 va 73 foizni tashkil etgan. Bu albatta ushbu ekin turlari uchun ekin maydonlari kamayganligi tufayli sodir bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, hisob-kitoblarga ko'ra, tahlil qilinayotgan yillar mobaynida fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish hajmining o'sish sur'atlari, ekinlar egallagan er maydonining o'sish sur'atlariga (don ekinlaridan tashqari) nomuvofiq ekanligini ko'rshimiz mumkin.

Tahlil qilingan davr mobaynida Qoraqolpog'iston Respublikasida fermer xo'jaliklarida chorva mollari soni ham ko'payganligini ko'rshimiz mumkin. Xususan, fermer xo'jaliklari tassarufida bo'lgan yirik shoxli qora mollar soni 39215tadan (2010 yil) 67578tagacha (2021 yil), ya'niy qariyb 1,72 martaga, shundan sigirlar soni 13802tadan 25246tagacha (1,83 marta), qo'y va echkilar soni 30892tadan 163316tagacha (5,29 marta), otlar soni 1792tadan 6816tagacha (3,80 marta), tuyalar soni 368tadan 471tagacha (1,28 marta) ko'paygan.

Chorva mollarining soni ko'payganligi bois chorva mahsulotlari hajmi ham o'sib bordi. Tahlil ma'lumotlarga ko'ra, Qoraqolpog'iston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining asosiy chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish sur'ati o'sib borayotganligini kuzatish mumkin.

Masalan, 2021 yilda chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2010 yilga nisbatan ancha yuqori bo'lgan, ya'niy go'sht ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 3,68 marta, sut - 3,20 marta, tuxum - 6,55 marta, jun - 4,92 marta, qorako'l teri - 7,24 martani tashkil etgan. Pillani ishlab chiqarish hajmi 2010 yilga nisbatan kamaygan bo'lsa ham, ammo 2019 yilga nisbatan pilla ishlab chiqarish 1,13 martaga oshgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, fermer xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish tarkibida salmoqli o'rinni tutadi. Bugungi kunda fermer xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi.

2021 yil yakunlariga ko'ra, etishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlari hosilining aksariyat qismi (barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan jami etishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari hajmidan 90,8%) fermer xo'jaliklarining ulushiga to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkichni 2010 yildagi ko'rsatkich bilan solishtiradigan bo'lsak, u 5,3 foiz bandiga kamaygan.

Chorvachilik mahsulotlari etishtirishda ham fermer xo'jaliklarining ulushi (garchi ular ushbu sohada etakchi bo'lmasa ham) ortish tendensiyasi kuzatilmoqda. Chorvachilik

mahsulotlarini ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklarining ulushi 3,9 foizdan (2010 yil) 9,2 foizgacha (2021 yil) o'sgan.

Ushbu ijobiy tendensiyalar asosida fermer xo'jaliklari tomonidan mehnat, er, suv va boshqa resurslar bilan ta'minlanish va ulardan samarali foydalanishga asoslangan dehqonchilik madaniyati tamoyillari yotgan bo'lsa, boshqa jihatdan ularni institutsional tuzilmalar tomonidan qo'llab-quvvatlash yotadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, fermer xo'jaliklarining rivojlanishi mobaynida quyidagilarga erishildi: birinchidan, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish deb tan olindi; ikkinchidan, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi; uchinchidan, fermer xo'jaliklarining yiriklashuvida ma'lum ijobiy o'zgarishlar kuzatildi; to'rtinchidan, davlat tomonidan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi takomillashib bordi.

Foydalanimigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrdagi "2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-soni qarori.
2. Tashmatov R.X. Qishloq xo'jaligini institutsional rivojlantirish. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2013. - 160 b.; Tashmatov R.X. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning institutsional asoslari va istiqboli. Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2013. - 180 b.
3. <https://agro-olam.uz/paxta-maydonlari-215-ming-gektar-qisqartirildinega/>
4. Berkinov B.B. Mulkchilik munosabatlari rolining o'zgarishi./ «Iqtisodiy islohotlar amalda: muammolar va iqtiso-diyotning rivojlanish istiqbollari» O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar to'plami. – T.:TDIU, 2009. – B.13-17.

MINTAQANI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING AHAMIYATI (FILIPPIN MISOLIDA)

*Saydaliyeva Umidaxon Solijon qizi -
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti tayanch doktoranti
"Turizm va mehmonxona faoliyati"(Iqtisodiyot)*

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hududning turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirishning samarali mexanizmi turistik maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish hisoblanadi. Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya jarayonlarining katalizatori bo'lib, ishlab chiqarishni texnologik yangilashni ta'minlaydi, shu bilan birga iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham, iqtisodiyoti o'tish davridagi mamlakatlarda ham uning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi[1].

Xorijiy mamlakatlarda muayyan hududning turistik va rekreatsion imkoniyatlari alohida maxsus turistik zonalar (MTZ) (Filippin, Hindiston, Janubiy Koreya, Panama, Meksika va boshq.) doirasida ham, maxsus iqtisodiy kompleksning bir qismi sifatida ham amalgalashiriladi (masalan, Xitoyda "Shenchjen", "Xaynan" erkin iqtisodiy zonasasi (EIZ) va boshq.).

Maxsus turistik zonalar (MTZ) maxsus iqtisodiy zonalarning bir turi hisoblanadi. MTZ kichik va o'rta korxonalarga o'z kompaniyalarini ochish va o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, an'anaviy bandlik toifasiga kirmaydigan odamlar ham turizm sanoatidan foyda olishadi. Bunga minimal malakali ishchilar, past malakali ishchilar, etnik ozchilik guruhlari vakillari, immigrantlar, ishsiz yoshlar va yarim kunlik ishlay oladigan ayollar kiradi. Bu mahalliy aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali ham qashshoqlik, ham ishsizlikni bartaraf etishga yo'l ochadi[2].

Jahon darajasidagi infratuzilmani, jumladan, yangi yo'llar va magistrallarni, zamonaviy bog'larni, yaxshilangan jamoat joylarini, sog'liqni saqlash muassasalarini va yangi aeroportlarni qurish MTZni sayyoohlar uchun qulay qiladi. MTZlarning rivojlanishi sayt atrofida yashovchi mahalliy aholining turmush sifati va darajasini oshiradi, chunki u turistik mahsulotning ishonchliligi va barqarorligiga olib keladigan joyning umumiy infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan[3].

Mehmonxona turar joyi, savdo va tibbiy muassasalar, turistik mahsulotlar (muzeylar, istirohat bog'lari va boshqalar) kabi MTZning barcha tarkibiy qismlari daromad olish imkoniyatiga ega. Shu sababli, moliyaviy jihatdan qulay MTZ faoliyatini davrida ijobiy erkin pul oqimini yaratishi mumkin. Natijada turistlarning MTZga tashrif buyurishi va qolishi sezilarli daromad keltiradi, bu esa valyutaning oshishiga olib keladi. MTZni tashkil etish va ularni samarali boshqarish bo'yicha Filippin mamlakati yetakchi hisoblanadi.

Filippinda birinchi maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) 1995 yilda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Respublika qonuni tasdiqlanganidan keyin paydo bo'lgan bo'lib, u ekozonalarini yaratish va tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab bergan [4].

MIZ qishloq xo'jaligi, sanoat, turistik-rekreatsion, investitsiya, moliya va bank faoliyatini rivojlantirish uchun yuqori darajada rivojlangan yoki salohiyatga ega bo'lgan hududlarda davlat rahbarining farmoyishi bilan belgilangan chegaralar doirasida loyihalashtiriladi va joylashtiriladi. Bundan tashqari, qonun EIZ doirasida faoliyatning turli turlarini, masalan, eksport-ishlab chiqarish, turistik zonalar va erkin savdo zonalari kombinatsiyasini rivojlantirish imkoniyatini cheklamaydi. Bunda turistik va rekreatsion markazlar EIZ hududining bir qismi bo'lib, ular hududida mahalliy va xorijiy turistlarga o'z xizmatlarini ko'rsatuvchi joylashtirish vositalari va muassasalari (dam olish va ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi) joylashishi mumkin.

Yuqoridagi qonunga ko'ra, EIZlar, birinchi navbatda, davlatning minimal aralashuvi bilan ajralib turadigan va o'zlarining iqtisodiy, moliyaviy, turistik va hokazo faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik jamiyatlari sifatida rivojlanishi kerak.

EIZlarning o'zini o'zi boshqarish shartlariga qaramay, Filippin iqtisodiy zonalar ma'muriyati (PEZA, bundan keyin FIZM deb yuritiladi) "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonun bilan tashkil etilgan bo'lib, ularning faoliyatini davlat manfaatlari va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha monitoring qilish va muvofiqlashtirish uchun javobgardir. FIZM - Filippin Savdo va sanoat departamenti qoshidagi davlat korporatsiyasi hisoblanadi. Quyida FIZMning asosiy funksiyalari berilgan:

EIZ faoliyatini tashkil etish
va boshqarishning umumiy
strategiyasini belgilash;

qonunda belgilangan ularni
tashkil etish mezonlari
asosida EIZni tashkil etish
bo'yicha takliflarni o'rganish
va tanlash;

EIZ hududida infratuzilmani
qurish, ulardan foydalanish
va ta'mirlashni amalga
oshirish;

yillik byudjetni va EIZni
rivojlantirish rejalarini
tasdiqlash;

EIZda faoliyat yuritish tartibi
va qoidalarini ishlab chiqish.

1-rasm. FIZM ning asosiy funksiyalari


Shuningdek, EIZlarni tashkil etish uchun taklif etilayotgan barcha hududlar iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ularni joylashtirish uchun eng foydali hududlarni tanlash imkonini beruvchi umumiy mezonlarga javob berishi kerak. Umumiy mezonlarga quyidagilar kiradi:

- tanlangan hududning talablarga muvofiqligi (Filippining joriy o'rta muddatli rivojlanish rejasida aks ettirilgan), uni mintaqaviy o'sish markazi sifatida tasniflash imkonini berishi;
- tayyor infratuzilmaning mavjudligi (avtomobil va temir yo'llar, portlar, aeroportlar, aloqa liniyalari va boshqalar) va uning salohiyati;
- elektr va suv ta'minoti manbalarining mavjudligi, ulardan EIZ ehtiyojlari uchun foydalanish imkoniyati mavjudligi;
- sanoat va tijorat rivojlanishi uchun bo'sh yer resurslarining mavjudligi, hududni hududiy kengaytirish imkoniyati, shuningdek, EIZ ishchilarini yashash sharoitlari bilan ta'minlash maqsadida zonadan tashqarida turar-joy binolari qurish;
- foydali strategik iqtisodiy va geografik joylashuvi va boshqalar.

FIZM ro'yxatga olish qoidalarini turistik iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi rezidentlar uchun alohida ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Ular turistik ekozonlarda loyihalash, boshqarish va ishslashga qiziqqan barcha shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ushbu zonalar asosan Filippin Turizm departamenti tomonidan ishlab chiqilayotgan Turizmni rivojlantirish bosh rejasida ko'rsatilgan hududlarda joylashgan bo'lishi kerak.

FIZM nizomiga ko'ra, har qanday turdag'i EIZda faoliyat yurituvchi kompaniyalar quyidagi imtiyozlarga ega:

- avtomatik elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish hisobiga eksport (import)ni qayta ishslash tartib-taomillarini soddallashtirish;
- norezident chet el fuqarolari FIZMdagi ro'yxatdan o'tgan kompaniyalarga konsalting, texnik yoki nazorat lavozimlarida ishga joylashtirilishi mumkin;
- FIZMdagi ro'yxatdan o'tgan kompaniyalarda ishslash uchun yollangan norezident xorijiy fuqarolarga maxsus ko'p martalik immigratsion vizani berish. Bundan tashqari, EIZ rezidentlari uchun qator soliq imtiyozlari joriy etilgan:



2-rasm. Filippin EIZ rezidentlari uchun soliq imtiyozlari

Filippin hukumatining turizm industriyasini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan EIZlarni yaratish siyosati natijalari xorijiy fuqarolarning sayyoh sifatida kelishi sonining o'sishida namoyon bo'lmoqda. 1991 yildan 2014 yilgacha bo'lgan davrda kelgan turistlar soni o'rtacha ikki baravar ya'nini 212 mingdan 480 minggacha ko'paydi[5]. Bu esa o'z navbatida, mintaqaning rivojlanishiga aholini ish bilan ta'minlash hamda daromadini oshishiga olib keldi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mintaqaga va hududlarni rivojlantirish uchun hukumat ularning xususiyatidan kelib chiqib maxsus zonalar tashkil etishi va quyidagilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

-rivojlangan turistik infratuzilma, madaniy-tarixiy obidalar va boshqa diqqatga sazovor joylar, qonunchilik bazasi va qulay siyosiy sharoitlar, shuningdek, ushbu hududda turizmni rivojlantirishdan manfaatdor tomonlar bo'lishi.

-turistik zonalarni soliqlardan qisman yoki to'liq ozod hududlarga aylantirish orqali xorijiy va mahalliy investitsiya oqimini ko'paytirish;

-tadbirkorlik subyektlari uchun sog'lom raqobat muhitini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobirov B. Alimova M. *Economic essence and organizational features of free tourist zones. The case of Uzbekistan(2018)* : www.researchparks.org/

2. <https://www.investindia.gov.in/team-india-blogs/special-tourism-zones-engine-economic-growth>

3. <https://www.thehindu.com/business/budget/Five-special-zones-to-boost-tourism-travel-in-country/article17130270.ece>

4. Republic Act, dated February 24, 1995, № 7916 «The Special Economic Zone Act of 1995».

5. По данным Национальнального департамента по статистике Филиппин (National Statistical Coordination Board, Philippines).

GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI HUDUDLARNI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

***Fazliddinova Zulkumor Akramjon qizi -
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy tadqiqot markazi, stajyor-tadqiqotchi***

Mamlakat iqtisodiyotining izchil va mutanosib rivojlanishini ta'minlash puxta va har tomonlama asoslangan chora tadbirlar, shunningdek, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarining ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, shu yilgacha bajarilgan vazifalar, chora-tadbirlar, hamda erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.05.2020-yildagi PQ-4702-sonli "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish"[1] to'g'risida qaroriga muvofiq hududlarni barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida statistik ko'rsatkichlar va so'rovnomalar natijalari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimi joriy etildi va bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, Namangan viloyati aholi sonining o'sishi va institutsional muhit sharoitida ulkan mehnat resursiga, tadbirkorlik faolligiga ega viloyatdir. Shundan kelib chiqib, kelgusida viloyatda bandlik sifati va aholi turmush darajasini, hamda iqtisodiy va ijtimoiy yo'nalishlar sifatini izchil oshirishni ta'minlaydigan samarali, istiqbolli loyihalarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda Milliy geografik axborot tizimi (MGAT) va Milliy fazoviy ma'lumotlar infrastrukturasi (FMMI) siyosatini olib borish to'g'risida o'zaro kelishuvlarga ega bo'lindi. Milliy geografik axborot tizimi orqali hududlarni to'liq rivojlantirish, eng chekka hududlarda ham axborot bazasi bilan ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli loyihalar ishlab chiqilmoqda. Bu loyiha davomida viloyat yoki

hudud boshqaruv organlari tomonidan barcha hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan tahlilini yagona dastur orqali olib borish, bu orqali huduni rivojlanish darajasini aniqlash va kelgusida kutilayotgan prognozlar natijalarga ega bo'lish mumkin. Bu loyiha dasturida geografik axborot tizimi (GAT) orqali yagona standartlashgan tizimga o'tish, iqtisodiyotning va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini to'liq qamrab olgan holda yagona bazaga keltirish orqali aholiga qulayliklar yaratish ko'zda tutgan. Bu loyiha Jahon banki tomonidan moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan. Avvalo, bu loyiha bo'yicha raqamli ma'lumotlar bazasini shakklantirish, geografik axborot texnologiyalari bo'yicha kadrlar salohiyatini oshirish, barcha sohalar bo'yicha standartlashgan tizim joriy qilish lozimdir. Shu kabi loyihalarni amalga oshirish uchun hududda quyidagi rivojlanish dasturlarini olib borish va loyiha, investitsiyalrni joriy etish uchun rivojlanish ko'rsatkichlarini yangilash zarur va bu kabi ishlar chora-tadbirlar, ichki loyihalar orqali amalga oshirish mumkin.

Hududlarni rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilishda GAT texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha oxirgi bir necha o'n yillardan buyon insoniyat axborot suronini boshidan kechirmoqda. U yildan-yilga kuchayib, inson faoliyatining ko'plab sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda kartograflar ko'plab manbalardan olinadigan axborotlardan foydalanish mobaynida topografik, turli mavzuli geografik kartalar va atlaslarni tuzish, aero-va kosmik tasvirlarni deshifrovka qilish, dalada o'lchash natijalarini qayta ishslash va kompyuter tizimlarida ma'lumotlarni to'plash bo'yicha boy tajribaga egalar. Ma'lumotlarning ko'plab turlarini vaqt o'tishi bilan tez-tez o'zgarib turishi, oddiy usulda tuziladigan qog'ozli kartadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Bugungi kunda tezkor axborotlarni qabul qilish, ularning dolzarbligini ko'rsatish faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin. Shu o'rinda zamonaviy GIS - bu ko'p miqdordagi grafikli va mavzuli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan modelli va hisobli funksiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma'lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli xulosalar chiqarish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim, deb qaraladi [2].

Geografik axborot tizimlarini tabiiy resurslarni boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda, qurilish va neft-gaz sohalarida, shuningdek, geodeziya va kartografiyada qo'llash mumkin.[3]


GAT turli holatlarda, jumladan:

- sog'lijni saqlash sohasida yangi klinika va shifoxonalarni aholiga geografik jihatdan mos va qulay qilib joylashtirish jarayonida;
- yuk tashish bilan shug'ullanadigan korxonalar uchun yo'l marshrutlari va jadvallarni tuzish va aniqlashda;
- geodemograflar uchun yangi savdo majmularini barpo etish va ularga joy tanlashda;
- o'rmonchilik korxonalari uchun o'rmonlar holatini yangilash va rekreatsiya parklarini barpo qilishda;
- avtomobil yo'llarini quruvchi korxonalarga yangi trassa va yo'llarni loyihalashda eng maqbul variantni tanlashda;
- davlat fondidagi yerkarni to'g'ri va oqilona hisoblashda;
- sayohatchilar uchun o'zlariga maqbul mexmonxona, sayohat manzillari va albatta, to'g'ri yo'nalish topishda;
- fermerlar uchun yangi yerkarni o'zlashtirishda, yerkarning holatini aniqlashda va ular to'g'risida yetarli ma'lumotlar olishda juda qo'l keladi.

Bundan tashqari GAT ekologiya va atrof-muhitdan foydalanish, dengiz, aviatsiya va avtomobil navigatsiya tizimida, shaharsozlikda, marketingda, favqulodda vaziyatlarni boshqarish va rejakashda, sotsiologiya, politologiya hamda boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Aholi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning eng muhim obyektiidir. Tahlilda unga geografik qobiq kompanenti va asosiy o'zgartiruvchi kuch, xilma-xil moddiy va ma'naviy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va asosiy iste'molchisi sifatida qaraladi. Aholi hududiy joylashuvida keskin tabaqalanish bilan ajralib turadi; yashash, ishslash va dam olish joylarida,

eng avvalo, yirik shaharlarda to'planishi tahlil jarayonini qiyinlashtirib yuboradi. Aholi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi bo'lgan analitik tahlillarni amalga oshirishda GAT dasturlarida statistik usullar-ko'plab modifikatsiyali kartogrammalar yoki kartodiagrammalar bilan amalga oshiriladi. Aholining tahlil qilishda uning barcha ko'rsatkichlarini inobatga olish zarurdir. GAT texnologiyalari bu tahlilning keng miqyosda bo'lishiga imkoniyat yaratib beradi. Aholi ijtimoiy soha va iqtisodiy sohada ham aosiy ko'rsatkich hisoblanganligi bois, uni barcha rivojlanish bo'g'inlarini zamirida yotadi. Chunki yaratilayotgan barcha qulaylik va yangiliklar aholi qatlami uchundir. Yuzaga kelgan muammolarni GAT texnologiyalari orqali amalga oshirilgan tahlil natijalar orqali ularga yechim va takliflar ishlab chiqish mumkindir.



1-rasm. Namangan viloyatining aholi kartasi

Manba: muallif tomonidan statistik ma'lumotlar asosida yaratilgan

Namangan viloyati Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, aholi istiqomat qilishi uchun eng yaxshi manzilgohlardan biri hisoblanadi. Shu sababli aholining ko'p qismi bu hududda istiqomat qiladi. Tahlilni keng ko'lamda olib boorish uchun albatta hududni imkoniyatlari va kamchiliklarini ham o'rganish lozim. GAT texnologiyalari esa bu hudud haqida keng tasavvur qilishga yordam beradi. Bu esa tahlil jarayonini osonlashtiradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.05.2020-yildagi PQ-4702-soni "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish" to'g'risidagi Qarori.
2. Морозов М.А. Информационные технологии в социально-культурном сервисе и туризме. Оргтехника.учебник для вузов по специальности
3. T.X.Boltayev va boshq.; Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari:O'quv qo'llanma.; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'l'im vazirligi. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti. T.: "Iqtisod-Moliya", 2016. 284 b.
4. A.A.Ibrahimova, Sotsial-iqtisodiy kartografiya [Matn]:o'quv qo'llanma-Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2020.-306b.
5. К.В.Павлов. Межрегиональная экономика как перспективное направление. Региональная экономика, №7, 2018.
6. www.lex.uz
7. www.stat.uz
8. www.arcgisonline

HUDUDLARGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ISTIQBOLLARI


*PhD Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li -
Toshkent moliya instituti "Baholash ishi va
Investitsiyalar" kafedrasи dotsenti v.b*

Jahon mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarni texnologik yangilash, yangi ish o'rinalarini yaratishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, hududlarni faol ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga muhim vosita sifatida qaralmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "...iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi" deb ta'kidlagan edi.

Respublikamiz viloyatlarining maydoni va aholisini ish bilan ta'minlashni hisobga olib, xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali o'z navbatida, hududlardagi mavjud ma'lum nomutanosibliklarning oldini olishga va qo'shimcha ish o'rinalarini tashkil etishga, ishlab chiqarish vositalarining samarali joylashtirilishiga, hududlarni rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Amaldagi resurslarni, shuningdek, investitsiyalar, eng avvalo, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning real imkoniyatlarini inobatga olgan holda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni uzoq muddatli rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilib, hududlarni investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar keng qamrovli tushuncha bo'lib, "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunda quyidagicha ta'rif berilgan. To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari — chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari deyilgan.



1-rasm. 2000-2021 yillarda O'zbekistonga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi mlrd AQSH dollarida YAIMga nisbatli foizda

1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2000-2021 yillarda O'zbekistonga jalg qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining YaIMga nisbati foizini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, O'zbekistonning 2020 yilga mo'ljallangan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari 1,73 mlrd AQSH dollarni tashkil etdi, bu 2019 yilga nisbatan 25,39 foizga pasaygan. 2019 yil uchun O'zbekistonning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari 2,32 mlrd AQSH dollarni tashkil etdi, bu 2018 yilga nisbatan 270,82 foizga o'sdi. 2018 yil uchun O'zbekistonning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari 0,62 mlrd AQSH dollarni tashkil etdi, bu 2017 yilga nisbatan 65,26 foizga kamaydi. 2017 yil uchun O'zbekistonning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari 1,80 mlrd AQSH dollarni tashkil etdi, bu 2016 yilga nisbatan 8,14 foizga o'sgani ko'rishimiz mumkin.

2020-2022 yillarda O'zbekistonda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasiga 676,8 million dollarlik investitsiyalarni jalg qilindi. 2020 yilda investitsiyalarning umumiy hajmi 178,7 million dollarni tashkil etadi, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – 139,2 million dollar, davlat kafolati ostida chet el kreditlari – 37,5 million dollar tashkil qildi. 2021 yilda investitsiyalarning umumiy hajmi 241,7 million dollarni tashkil etdi, shundan 171,9 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, davlat kafolati ostida chet el kreditlari 67,7 million AQSH dollar tashkil qilmoqda.

2022 yilda investitsiyalarning umumiy hajmi 256,4 million dollarni tashkil etdi, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 180,1 million dollarni, davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 73,1 million dollarni tashkil etdi. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi 4699-sonli «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qaroriga muvofiq, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish sohasidagi 17,6 trln. so'mlik 35 ustuvor loyiha ko'zda tutilgan. Ulardan jalg qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar hajmi 44,8%, davlat kafolati ostidagi kreditlar 33% ni tashkil etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, “Hayotning o'zi va o'tgan yillar tajribasi hududlarni kompleks rivojlantirishni va infratuzilma faoliyatini tubdan o'zgartirishni ta'minlashdagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilmoqda”.

Hududlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etish dasturini ikkita sinfga ajratish mumkin: birinchisi, hududlararo xalqaro dasturlar; ikkinchisi, hududlardagi alohida tumanlar dasturi. Hududlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg etish dasturlari joylarda iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy vazifalarni hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilishni takomillashtirish bo'yicha quyidagicha taklif va tavsiyalar berish o'rinni deb hisoblaymiz:

— hududlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, xorijiy va ichki investitsiyalarni jalg qilishning “drayver” sohalari bo'yicha puxta iqtisodiy asoslangan investitsion loyihalarni ishlab chiqishni tashkil etish, ularni monitoring qilish, investorlarga huquqiy ko'mak berish ishlarini amalga oshirish maqsadida viloyat markazlarida malakali mutaxassislarni jalg etgan holda “Loyihalar fabrikasi”ni tashkil etish lozim;

— hududlardagi sobiq sanoat zonalari faoliyatini qaytadan hatlovdan o'tkazish va aniqlangan bo'sh yer maydonlari va bo'sh turgan ishlab chiqarish binolarini investitsion majburiyatlar asosida xorijiy investorlarga berish;

— O'zbekistonning xorijdagi elchixonalari ko'magida hududlardagi istiqbolli investitsion loyihalarni amalga oshirish ishlariga mamlakatimizda biznes yuritishga qiziqishi yuqori bo'lgan xorijda yashayotgan va kelib chiqishi etnik o'zbek bo'lgan salohiyatlari tadbirkorlarni jalg qilish maqsadga muvofiq.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sobirov A.A. Hududlarning nisbiy afzalliklari va investitsion jozibadorligi omillari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalı, №6, 6-b.

2. Burxanov A. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalg qilish-milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning asosiy omili. Biznes-Ekspert, 2018 yil. №10, 7-13 bet.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasi //Xalq so'zi. 2020 yil 29 dekabr.

4. O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgust, PF-5495-son Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 yanvarda o'tkazilgan majlisdagi «Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2017 y. 16.01.

ХУДУДЛАРДА ТУРИСТИК МАЖМУАЛАР ФАОЛИЯТИНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ ВА ТИЗИМЛИ БОШҚАРИШ АСОСИДА ҲУДУДЛАР ТУРИСТИК САЛОХИЯТИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ

**Хомидов Қаххорали Қурбонали ўғли -
Фарғона давлатуниверситети тадқиқотчиси**

Давлат ва жамиятни жадал ривожлантириш, аҳоли учун муносиб ҳаёт шароитларини яратиш мақсадида жойларда ишларнинг ҳақиқий аҳволини ҳар томонлама ва чуқур ўрганиш, халқ билан бевосита мулоқот ўрнатишнинг сифат жиҳатидан янги ва самарали шаклларини жорий этиш, айниқса, мамлакатимизнинг барча туман ва шаҳарларини қамраб олган ҳолда жойларга чиқиб фуқароларни қабул қилиш бўйича кенг қамровли тадбирлар амалга оширилмоқда.

Жойларда олиб борилаётган бундай ишлар натижасида аҳолини безовта қилаётган ижтимоий соҳа, уй-жой коммунал, йўл хўжалиги, электр энергия, ичимлик суви ва иссиқлик таъминоти, арzon уй-жойлар қуриш соҳаларидағи, шунингдек, тадбиркорликни жадал ривожлантириш, ҳудудларда инвестициявий ва ишчанлик муҳитини яхшилашга тўсиқ бўлаётган муаммолар аниқланмоқда.

2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида ҳудудларни мутаносиб ривожлантириш орқали ҳудудий иқтисодиётни 1,4 — 1,6 бараварга ошириш, ҳудудларда аҳолининг яшаш шароитини яхшилаш учун урбанизация сиёсатини янада такомиллаштириш, Самарқанд ва Наманган шаҳарларини истиқболда «миллионлик шаҳарлар»га айлантириш бўйича чоралар кўриш, 450 минг аҳолига мўлжалланган Янги Андижон шаҳрининг дастлабки бир нечта мавзеларини қуриб, фойдаланишга топшириш. Қашқадарё вилоятининг урбанизация даражасини 50 фоизга етказиш, ҳудудларнинг муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилма тизимини ҳамда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали кейинги 5 йилда хизмат кўрсатиш ҳажмини 3 бараварга ошириш ҳамда ушбу йўналишда жами 3,5 миллион янги иш ўринларини яратиш ва «Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг» дастури доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини 12 миллион нафардан ошириш ҳамда республикага ташриф буюрадиган хорижий туристлар сонини 9 миллион нафарга олиб чиқиш билан биргалиқда 2026 йилгача туризм соҳасида банд бўлган аҳоли сонини 2 баравар ошириб, 520 минг нафарга етказиш вазифалари белгиланган ва ушбу вазифаларни самарали бажарилиши ҳудудлар иқтисодиётини ривожлантиришнинг долзар йўналишларидан ҳисобланади.

Ҳудудлар иқтисодиётини ривожлантиришда ҳудуд мавжуд потенсиалидан самарали фойдаланиш муҳим хисобланади. Ҳудудларда туризм саноатини ривожланишининг методологик асослари хорижлик ва маҳаллий олимлар илмий ишларида муҳим тадқиқот предмети сифатида ўрганилган.

Хусусан, худудлар иқтисодиётини юксалишида туризм саноатининг ривожланишига бағишлиланган илмий манбалардан энг муҳимларидан бири В.И.Азар тадқиқот ишларини санаб ўтиш мумкин[1].

Кейинги йилларда нашр этилган маҳаллий олимларнинг илмий ишлари ҳам диққатга молик. З.И.Усмонова томонидан эълон қилинган илмий ишларда худуд иқтисодиётини ривожлантиришда туристик-рекреацион хизматларнинг ривожланиш тенденциялари таҳлил қилинган[2]. Ж.Н.Абиев миллий иқтисодиётда туризм тармоғини ривожлантиришнинг иқтисодий жиҳатларини тадқиқ этган[3].

Бироқ бугунгача олиб борилган илмий-амалий тадқиқотларда туризм саноати ривожланиш даражаси худудлар иқтисодиётини ривожлантириши билан боғлиқ ҳолда етарли даражада ўрганилмаган. Ушбу тадқиқот иши эса масаланинг айни жиҳатларини қамраб олган.

Худуднинг салоҳияти жамият кишиларининг кўплаб эҳтиёжларини тўлақонли қондириш билан муайян иқтисодий фаолиятни ташкил этишнинг идеал шароитида худуд ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигининг ифодалайди. Худуднинг рекреацион салоҳияти – бу маълум бир худудда дам олиш фаолиятини ташкил этиш учун табиий, маданий, тарихий ва ижтимоий-иктисодий шарт-шароитлар тўплами ҳисобланади.

Туристик ресурсларнинг энг муҳим хусусиятлари:

- туристик мажмуаларнинг потенциал имкониятларини, ривожланиш даражасини, юкларни оптималлаштиришни аниқлаш учун зарур бўлган захиралар ҳажми;

- потенциал туристик худудларни аниқлаш, санитария муҳофазаси туманларини ташкил этиш имконини берувчи ресурсларни тақсимлаш соҳаси;

- туризмнинг мавсумийлигини, туристик оқимларнинг ритмини белгилаши мумкин бўлган операция даври;

- туристик инфратузилмани жалб қилишга олиб келадиган ва улар тўпланган жойларга оқиб чиқадиган ресурсларнинг кўп турларининг худудий ҳарақацизлиги;

- нисбатан паст капитал интенсивлиги ва операцион харажатларнинг арzonлиги, бу сизга инфратузилмани тезда яратиш ва ижтимоий-иктисодий самараларни олиш, шунингдек, айрим турдаги ресурслардан мустақил фойдаланиш имконини беради;

- табиатни оқилона бошқариш нормаларига риоя қилган ҳолда ва мелиорация ва ободонлаштириш бўйича зарур чора-тадбирларни амалга оширишда такорий фойдаланиш имконияти.


Худудий туризм салоҳиятининг анъанавий тузилишини 1-расмда қуйидагича келтириш мумкин.

Худуднинг туристик салоҳияти ўз вақтида динамик. Унинг тузилиши ва ҳажми ҳар хил бошқариладиган ва назорация омиллар таъсирида ўзгаради.

Худуднинг туристик салоҳиятини баҳолаш ҳудудни бошқариш доирасида қарорлар қабул қилиш учун асос бўлиши керак. Бир қатор илмий тадқиқотлар бундай баҳолаш муаммосига бағишлиланган (В.С.Преображенского, А.А.Минца, Ю.А. Веденина, Саранчи М.А., В.Б.Нефедовой, Н.Н. Мирошниченко, Б.Б. Родомана ва бошқалар).

Объектларнинг туристик ва рекреацион салоҳиятини иқтисодий баҳолашда бир нечта асосий ёндашувлар мавжуд: қиммат, фойдалилик, қиёсий, ижара ва бозорга оид бўлмаган ёндашувлар. Ушбу ёндашувлар орасида бугунги кунда рейтинг ёндашуви ва масштаблаш алоҳида ўрин тутади.

Кўпинча, худуднинг туристик салоҳиятини балл-рейтинг тизими технологиялари асосида баҳолашда ҳар бир минтақа учун туристик салоҳият даражасини тавсифловчи интеграл кўрсаткичлар ҳисобланади.



Худуднинг туристик салоҳиятининг тузилиши

Манбаа: Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Интеграл индикатор қуйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$I = \sum_{n=1}^{N1} O_{1n} + \sum_{n=1}^{N2} O_{2n} + \sum_{n=1}^{N3} O_{3n} + \sum_{n=1}^{N4} O_{4n} + \sum_{n=1}^{N5} O_{5n} + \sum_{n=1}^{N6} O_{6n} \quad (1)$$

Бу ерда, I - минтақадаги туристик салоҳият кўрсаткичи; O_{1n} - табиий ресурсларни ўртacha баҳолаш кўрсаткичи; $N1$ -табиий ресурсларни баҳолайдиган кўрсаткичлар сони; O_{2n} - маданий ва тарихий ресурсларни ўртacha баҳолаш кўрсаткичи; $N2$ - маданий ва тарихий ресурсларни баҳолайдиган кўрсаткичлар сони; O_{3n} - минтақанинг ижтимоий-иктисодий ҳолатини ўртacha баҳолаш кўрсаткичи; $N3$ - минтақанинг ижтимоий-иктисодий ҳолатини баҳолайдиган кўрсаткичлар сони; O_{4n} - минтақанинг экологик ҳолатини ўртacha баҳолаш кўрсаткичи; $N4$ - минтақанинг экологик ҳолатини баҳоловчи кўрсаткичлар сони; O_{5n} - минтақанинг туристик инфратузилмасининг ўртacha баҳолаш

кўрсаткичи; N5- минтақанинг сайёхлик инфратузилмасини баҳолайдиган кўрсаткичлар сони; О6н -минтақанинг бошқарув таркибининг сифатини баҳолаш ўртача кўрсаткичи. N6- худудий бошқарув таркибиниг сифатини баҳоловчи кўрсаткичлар сони.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Azar V.I. "Rekreatsion geografiya". Monografiya. Moskva, 2017 y., qayta nashr 89-124 b.
2. Usmanova Z.I. O'zbekistonda turistik-rekreatsion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2018 y. – 17 19 b
3. Abiev J.N. Milliy iqtisodiyotda turizm tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2019 y. – 11-14 b.
4. Хомидов, К. К. (2019). Перспективный комплекс экономики Узбекистана. In Современная мировая экономика: проблемы и перспективы в эпоху развития цифровых технологий и биотехнологии (pp. 54-56).
5. Khomidov, K. (2023). Characteristics of improving organizational and economic mechanisms of management in higher education institutions. Publishing House "Baltija Publishing".
6. Хомидов, К. К. (2019). Socioeconomic characteristics of employment in Uzbekistan. Инновационная наука, (7-8), 64-66.
7. Xomidov, Q. (2020). Iqtisodiyotni investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirishning ahamiyati. Scienceweb academic papers collection.
8. Xomidov, Q. (2019). Aholi bandligi ta'minlash-iqtisodiy munosabatlarning muhim omili. Scienceweb academic papers collection.
9. Xomidov, Q. (2019). Iqtisodiyotimizni raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati. Scienceweb academic papers collection.
10. Akhmedova, N. K., & ugli Homidov, K. K. (2022). Institutional Basis of Digitalization of Management Activity of Food Industry Enterprises in Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 5(11), 34-38.
11. Homidov, K. K. U. (2022). Improvement of Organizational and Economic Mechanisms of Management in Food Industry Enterprises in Innovative Development of the Economy. American Journal of Economics and Business Management, 5(11), 50-55.
12. Xomidov, Q. (2019). Цифровая экономика-путь к совершенству. Scienceweb academic papers collection.
13. Xomidov, Q. (2018). Ускоренно развивающиеся отрасли экономики Республики Узбекистан. Scienceweb academic papers collection.
14. Homidov, K. K. U. (2022). Issues of ensuring food security in Uzbekistan. Scientific Impulse, 1(4), 1529-1534.
15. Ўғли, Ҳ. Қ. Қ. (2022). Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлиги таъминлаш масалалари. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnal, 1(13), 10-15.
16. Xomidov, Q. (2019). Кластер-действенный инструмент конкурентоспособности региона. Scienceweb academic papers collection.
17. Хомидов, К. (2022). Повышение доходов производителей.
18. Юлдашева, Г. А., & Хамидов, К. (2022). Процессы модернизации системы бухгалтерского учета на предприятиях. Gospodarka i Innowacje., 30, 230-231.

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANISHIDA ENERGIYA SAMARADORLIK OMILI AHAMIYATI

*Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi -
TDIU "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes"
kafedrasi stajyor-tadqiqotchisi*

Dunyoda energiya muammosini hal etish, aholi va ishlab chiqarishni elektr energiyasi bilan uzlusiz ta'minlash, energiya ishlab chiqarishda atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, tabiiy xom-ashyo resurslaridan oqilona foydalanish kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. Jahonda tabiiy resurslar imkoniyatlarini o'rganish va ulardan oqilona foydalanish, mahalliy tabiiy va atrof-muhitga salbiy ta'siri kam bo'lgan xom ashyo resurslarini qayta ishslash asosida arzon elektr energiya olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni hududiy tashkil etishga qaratilgan muammolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Agar biz qayta tiklanadigan energiya manbalarining o'rnatilgan quvvatining tuzilishini ko'rib chiqsak, dunyoda 2050-yilda joriy davr bilan taqqoslaganda quyosh energiyasi quvvati 2,5 baravar ko'payadi va o'rnatilgan quvvatning 50% dan ortig'i quyosh energiyasiga to'g'ri keladi[1]. Shuningdek, muntazam o'sib borayotgan aholini arzon, ekologik toza, elektr energiya bilan ta'minlashda ekologiya, tabiat salbiy oqibatlarni oldini olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishning eng asosiy omili energiya samaradorligini oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

